ISSN 3030-3710
E-ISSN 3030-3095

ILMIY AXBOROTNOMA * НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN

№ 12, 2025

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 12, 2025

https://bxu.uz

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC BULLETIN OF BUKHARA INTERNATIONAL UNIVERSITY

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО МЕЖДУНАРОДНОГО УНИВЕРСИТЕТА

научно-практический журнал

№ 12-son, 3-qism 2025

Muassis: Buxoro xalqaro universiteti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH

Jurnalning ushbu soni O‘zbekiston psixologiya maktabining asoschilaridan biri professor Vasila Karimovaning 70 yillik yubileyiga baxishlanadi

"Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:

Baratov Sharif Ramazanovich

psixologiya fanlari doktori, professor,

Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:

Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:

Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)

Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI

PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor

Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Djurayev B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor

Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rustamov Sh.Sh. psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ibaydullayeva U.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Raxmonov K.D. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Dilova N.G. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor

Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor

Haydarov A.A. - filologiya fanlari doktori, professor

Astanova G.A. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.

Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor

Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasi mudiri

"Scientific Bulletin of Bukhara International University "
scientific-theoretical journal
EDITOR-IN-CHIEF:
Baratov Sharif Ramazanovich
doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences
Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Umarov B.M. - doctor of psychology, professor
Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor
Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor
Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Ibaydullayeva U.R. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Raxmonov K.D. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor
Dilova N.G. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Haydarov A.A. - doctor of Philology, professor
Astanova G.A. - doctor of Philology (DSc), professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor
Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

Ahmadjonova Mohiyatxon Sadriyevna
Qo'qon davlat universiteti Biologiya kafedrasi dotsenti, biologiya fanlari nomzodi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA EKOLOGIK TA’LIMNING ROLI

Annotatsiya. *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ekologik ta’limning roli mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola mazmunida “Tarbiya” darslarida ekologik ta’lim ahamiyati, ekologik ong va uning psixologik tabiati, o‘quvchilarda ekologik ongni erta rivojlantirish hamda ta’lim olish muhitida ekologik ta’limning zarurati, ekologik ong shakllanishining psixologik asoslari kabi masalalar ham keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik ong, boshlangdch sinf, darslik, tabiat, tarbiya, vatanparvarlik, Vatanga muhabbat, ekologik ta’lim, dars, tarbiyaning shakl, metod va usullari.*

РОЛЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *Он посвящен роли экологического образования в воспитании учащихся начальной школы в духе патриотизма. Также рассматриваются значение экологического образования на уроках предмета «Воспитание», экологическое сознание и его психологическая природа, раннее развитие экологического сознания учащихся и необходимость экологического образования в образовательной среде, психологические основы формирования экологического сознания.*

Ключевые слова: *экологическое сознание, начальная школа, учебник, природа, воспитание, патриотизм, любовь к Родине, экологическое образование, урок, формы, методы и приемы воспитания.*

THE ROLE OF ENVIRONMENTAL EDUCATION IN EDUCATING PRIMARY CLASS STUDENTS IN PATRIOTIC SPIRIT

Annotation. *The article is devoted to the role of environmental education in educating primary school students in the spirit of patriotism. The article also covers the importance of environmental education in the "Education" lessons, environmental awareness and its psychological nature, the early development of environmental awareness in students and the need for environmental education in the educational environment, the psychological foundations of the formation of environmental awareness.*

Key words: *environmental awareness, primary school, textbook, nature, education, patriotism, Love for the Motherland, environmental education, lesson, forms, methods.*

Kirish. Boshlang’ich sinflarda tarbiya darsi orqali vatanga sadoqat hissini, irodalilik, mafkuraviy immunitet, shuningdek ularning shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi hamda mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish va oshirish shu bilan birga ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda o’z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof- muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni kamol topishida ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlikda olingan bilim, toshga o‘yilgan naqsh kabidir. Atoqli fransuz adibi Viktor Hyugoning: Maktab ochish bu turmani yopishdir degan hikmatli iborasida, purma’no so‘z borligi barchamizga ma’lum. Ya’ni maktab ochilgan joyda ta’lim bo’ladi. Tarbiya bor joyda ma’naviyati yuksak o‘quvchilar bo’ladi. Demak o‘z-o‘zidan qamoqxonalarga ehtiyoj qolmaydi. Ta’lim va tarbiya - birining o‘rnini biri to’ldiruvchi tushunchalardir.

Inson hayotining aynan yoshlik, bolalik davrida o‘rganilgan har qanday bilim, ko‘nikmalar u ulg‘aygach erishgan barcha yutuqlarining kaliti bo’lib xizmat qiladi. Buyuk bobokolanimiz Abu Rayhon Beruniy “Inson yer yuzini obod etish va uni boshqarib turish uchun unga aql-zakovat ato

etilgan, shuning uchun har-bir inson yuksak axloqli bo'lishi lozim"- deb aytgan edilar. Hozirgi vaqtda "ekalogiya" so'zi ko'pincha tabiat va atrof-muhit so'zlari bilan birlashtiriladi. Ammo hayot amaliyotining o'zi shuni ko'rsatadiki tabiat ekalogiyasini ruh ekalogiyasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ekologik ma'daniyatni o'quvchilar ongiga shu orqali tushuntirish zarurdir. Bu ma'daniyatni o'quvchilarda shakllantirish orqali kelajagimizga poydevor qo'ygan bo'lamiz Atoqli pedagog V. A. Suxomlinskiy "Bolalarga jonim fido" asarida Men bolalar "Alifbo" ni ochib birinchi so'zni hijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob- tabiat kitobini mutolaa etishlarini istar edim"- deb ta'kidlagan edilar. Ekologik ta'lim-tarbiya deganda o'quvchilarga muayyan maqsadda pedagogik ta'sir ko'rsatish tushuniladi. Olamdagi narsalarning hammasi butun borliq mavjudod, tevarak-atrof, dala-tog' hamma-hammasini muhofaza etish ekalogik ta'lim mazmunini tashkil etadi.

Bolalik - kishi umrining ko'klam davri, unda hayotning bo'lg'usi yillari uchun urug' ekiladi. Ulug' allomalarimiz tarbiyaga e'tibor qaratgani: "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir",- degan Abdulla Avloniy. Ta'lim-tarbiya taraqqiyoti mamlakat ravnaqi va taqdiriga daxldor masaladir. Yurtning jadal rivojlanishi, xalqining farovon yashashi davlatdagi yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, ularga yaratilayotgan sharoitlarga chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabr - Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari haqidagi 1059-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 - yil 6-iyul Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida 422-sonli qarori qabul qilindi. Tarbiya darsligi, odobnoma, vatan tuyg'usi, milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari hamda dunyo dinlari tarixi fanlarini birlashtirdi. Tarbiya fani 1 - 9-sinflarda 2020/2021 o'quv yilidan, 10 - 11- sinflarda esa - 2021/2022 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi. Tarbiya fanining maqsadi darslik orqali o'quvchida bilim berishdan tashqari hayotiy ko'nikma shakllantiriladi va bosqichma-bosqich bolada maqsad qo'yish va unga intilish ko'nikmasini shakllantirib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiya darsi, 1-sinfda o'quvchi dastlab orzularini aniqlay olishni o'rgatilsa, 2-sinfda o'z oldiga maqsad qo'ya olish ko'nikmasi shakllantiriladi. 3-sinfda o'quvchida dasturni o'zlashtirish natijasida maqsad va orzu- umidlarini amalga oshirishga harakat qilish ko'nikmasi paydo bo'ladi. 4-sinfda atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga sog'lom munosabat bildira oladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi va o'z xatti-harakatlarini tahlil qiladi.

Metodlar. Kichik maktab o'quvchilarida ekologik ta'lim berishda quyidagi pedagogik metodlardan foydalanildi. Loyiha faoliyati. Tabiatga oid kichik loyihalar: "Gul parvarishi", "Toza sinf", "Mening daraxtim". O'quvchi o'z tadqiqoti natijasini amaliy ravishda ko'radi, bu uning ekologik mas'uliyatini kuchaytiradi;

2. Amaliy-tajriba texnologiyalari. Suv, tuproq, o'simliklar bilan sodda tajribalar.

Ekologik laboratoriya kunlari. Bolalar o'z ko'zi bilan tabiat qonunlarini kuzatib, to'g'ri xulosalar chiqaradi;

3. O'yinli texnologiyalar. Ekologik rolli o'yinlar: "Tabiat qo'riqchisi", "Parrandalarga yordam ber". Didaktik o'yinlar: saralash ("chivinli – chivinsiz"), tabiat boyliklarini farqlash va hokazo. O'yin bolalarda emotsional munosabatni shakllantiradi;

4. Interaktiv texnologiyalar. "Breynstorming", "Keys-stadi", "Akvarium" usullari.

Tabiiy muammolarni birgalikda muhokama qilish ularda fikrlash va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiradi.

5. STEAM tahlil texnologiyalari Ekologiyani fanlar integratsiyasi orqali o'rganish (matematikada chiqindi hisob-kitoblari, san'atda qayta ishlash materiallaridan applikatsiyalar va h.k.). Kreativ fikrlash va ekotexnik yechimlar taklif qilish o'rgatiladi.

6.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). Qisqa ekologik multfilmlar, interaktiv o'yinlar, virtual sayohatlar. Ekologik mazmundagi onlayn testlar va prezentatsiyalar.

Bolalarda maktabgacha yoshdan boshlab o'z ona shahri, milliy an'analarining o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlarni oshirish va uni kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri. Shuningdek, yaqinlar, qarindosh, yurtdoshlarga nisbatan mehr, saxiy munosabat, birovning qayg'usiga hamdardlik va rahm-shafqat va ular bilan ishlash tizimi oilada axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan eng dolzarb muammolarni

hal etishning dolzarbligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Boshlang’ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda vatanparvarlik tuyg‘usi bolaning oilaga, unga eng yaqin odamlarga - onasi, otasi, bobosi, buvisi, aka-uka va opa-singillariga munosabatidan boshlanadi. O‘z uyiga muhabbat va mehri o‘zining asl ma’nosida rivojlanish vatanparvarlikning birinchi boshlang‘ich bosqichi bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang’ich 1-2-sinflar o‘quvchilari uchun Vatan tushunchasini tushuntirish bir muncha oson bo’lishi uchun uni o‘ziga bo’lgan munosabatni, birinchi do‘stlari, u boradigan bolalar bog‘chasi, uyi joylashgan ko‘cha - bularing barchasi bolaning o‘z uyi, uning uyi haqidagi g‘oyalarini tushuntirish va singdirishdan boshlash maqsadga muvofiq.

Ekologik tarbiyaning muhim vazifalariga jonli va jonsiz tabiatni asrash, so’lim maskanlarni, maydonlarning tozaligi uchun kurash kabilar kiradi. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarga bu ma’daniyatni xalq tajribasidan kelib chiqqan holda o‘rgatish zarurdir. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarining ekalogik ma’daniyatni shakllantirish ishlarini avvalo ota-ona hamkorligida olib borilishi lozim. Ya’ni ota-ona bu tarbiyani berib bormasa maktabda berilgan 5-6 soatgina dars bunday tarbiya uchun yetarli emas. Ba’zi ota-onalar farzandlariga qo’lidan kelgancha uyni ozoda tutish, o‘simliklarni behuda yulmaslik kabi nasihatlarni beradilar.Shuning o‘zi ekalogik tarbiyaning boshlang’ich kurtaklaridir. Ayrim ota-onalar bu masalaga e’tiborsizlik bilan qaraydilar. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ekalogik ma’daniyat haqidagi tushunchani uning ruhiyatiga singdirish orqali o‘quvchilarda tabiatga bo’lgan muhabbat, uning go‘zalliklaridan zavq olish hissini ham shakllantirish mumkin. O‘quvchilarda ekalogik ma’daniyatni rivojlantirish uchun muntazam ta’sir zarur, ammo hamma darsda bu narsani tushuntirish ham o‘rinli bo’lmaydi. O‘quvchilarga bu tarbiyani turli xalq og‘zaki ijodi namunalaridan misollar keltirib, turmushga, hayotga bog’lagan holda tushuntirilsa ularning ongiga yaxshiroq yetib boradi. Bolalarga bu tarbiyani berish uchun o‘qituvchida juda katta tajriba mahorat bo’lishi lozim, o‘qituvchida bunday ko‘nikma bo’lmasa o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Hozirgi kunda maktab o‘quvchilariga o’qitiladigan “Tarbiya fan” darslik kitobi o‘quvchilar uchun umumiy qo’llanma, ya’ni unda bu tarbiyaga oid tushuncha va masalalar keng qilib tushuntirilib rasmlar asosida boyitib tasvirlangan. Bundan tashqari o‘quvchilarga bu bilimlarni berish uchun bolalar bilan suhbat tashkil etilib, bu suhbatda o‘quvchilar tabiatda qanday turdagi o‘simliklar, daraxtlar borligi, ularga qanday munosabatda bo’lish kerakligi to‘g‘risida o‘z mulohazalarini bayon etadilar.

Tarbiya fanini o‘qitishda o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi uchun ma’naviy adabiyotlar bilan ishlash metodi muhim omil. Masalan, Imom Buxoriy “Sahih Hadis”, Alisher Navoiyning “Hikmatlari, Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Hadis va hayot,” Obbiddin Mahmudovning “Farzandnoma”, Abdulla Avloniy, Behbudiy kabi ma’rifatparvar jadid bobolarimizning ilmiy meroslaridan foydalanish muhim. Tarbiya fani keng qamrovli fan bo’lib, fanni o‘qitish metodlari: og‘zaki, hikoya, suhbat, tushuntirish, ko‘rgazmali, monolog, dialog, keys,namoyish metodi,amaliy ishlar metodi, interfaol metodlar va boshqalar.

Natijalar va muhokama. Psixologik manbalarda yozilishicha, 7 yoshdan 11 yoshgacha bo’lgan davrda o‘quvchilarga ta’lim berishning eng maqbul shakli - bu o‘yin. Boshlang’ich sinf yoshdagi o‘quvchilarning xulq-atvorning ijtimoiy shakli oddiy taqlid qilishga qaratilgan. O’quvchilarga turli ta’limiy o‘yinlar orqali vatanga muhabbat, kattalar hayotidan xulq-atvor normalari o‘qitiladi, qadriyatlar tushuntiriladi. 1-sinfda ko‘pincha og‘zaki, 2-3-4 sinflarda esa yozma ravishda metodlar qo’llash tavsiya etiladi. Boshlang’ich sinflarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan interfaol metodlar, ta’limiy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, fikriga asoslangan holda himoya qila bilish, mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish fikrini bayon qilishga, o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirishga, ijodiy izlanish, tahlil qilish, sog’lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko’nikmalari shakllanishi bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog’lashga, qiziqishlarini oshirish xulosalar chiqarishga yordam beradi. Tarbiya darslarida aqliy hujum, fikrlar hujumi, tarmoqlar metodi, Sinkveyn, BBB, Beshinchisi ortiqcha, 6x6x6, Bahs-munozara, Rolli o‘yin, FSMU, Kichik guruhlarda ishlash, Yumaloqlangan qor, Zigzag, Oxirgi so‘zni men aytay kabi zamonaviy texnologiyalarni qo’llash yuqori samara beradi. Mashhur fin pedagogi R.Nevanlinna bu borada shunday deydi: “Yaxshi dars berishning usullari juda ko‘p, yomon dars berish usullari undan ham ko‘p; eng yomon usul -zerikarli dars berishdir. Shunday

ekan dars metodlarini tanlashda o‘quvchilarning psixik faoliyati, qobiliyatlarini hisobga olishimiz kerak.

1-sinf tarbiya darsligi mavzular ro‘yxatida Vatanparvarlikka bag’ishlangan 1- mavzu: Vatan ishonchi mavzusi 1-sinfga qadam qo‘ygan o‘quvchilarning vatan tushunchasi darajasini aniqlash, sinf o‘quvchilarining bilimlarini tenglashtirish vazifalasi turadi. 11-12 mavzu: Mening mahallamda yashash yaxshi. Mavzulari ajratilgan bo’lib bunda o‘qituvchidan pedagogik mahorat talab etiladi. So‘zning o‘rnini toppish o‘yini metodi. Chiquvchilarga she’riy parchadan tushib qoldirilgan so‘zlar alohida pastki qatorda saqlanadi. Masalan, quvnab ko ‘rganim.

Muammoli ta’lim metodi. Ular odatda hikoya shaklida taqdim etiladi va ko‘pincha muammoni hal qilishni, o‘quvchilardan savolni mustaqil ko’rib chiqishni so’raydi, so‘ngra o‘quvchilarga uni juftlikda, nihoyat, butun sinf bilan birgalikda muhokama qilish imkoniyatini beradi. Ushbu faoliyat chuqurroq fikrlashni, muammolarni hal qilishni yoki tanqidiy tahlilni rag‘batlantirish uchun savollar bilan ideal ishlaydi. Guruh muhokamalari juda muhim, chunki ular o‘quvchilarga fikrlash jarayonlarini ifodalash imkonini beradi.Muammoli vaziyat usulining afzalliklari sinfdagi barcha o‘quvchilami jalb qilish (ayniqsa, guruhda baham ko’rishda qiynalishi mumkin bo’lgan faol bo’lmagan o‘quvchilarga ovoz berish imkoniyati), o‘qituvchi uchun tezkor fikr-mulohazalarnii (masalan, o‘z fikr-mulohazalarini oshkor qilish) o‘z ichiga oladi. Ushbu metod darslikdagi mavzuni o‘rganishda, yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo’llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to‘rtta va taalluqli bo’lmagan (ortiqcha) bitta so‘z beriladi. Shu o’rinda, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so‘zlarini keltirmoqchiman: “Tabiatga yaqinlik jonajon o’lkaning benihoya go‘zalliklaridan bahramand bo’lish ma’naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi”. Bu so‘zlar bilan Prezidentimiz nima demoqchilar har bir insonning tabiatga bo’lgan muomalasi u insonning qanday ma’daniyat sohibi ekanligini ko‘rsatuvchi oynadir demoqchilar. Shu sababli barchamiz bu narsani oilamizdan yaxshilab shakllantirishimiz va kelajak hayotimizga bee’tibor bo’lmaslikni o‘rganishimiz zarurligini anglatadi. O‘qituvchilarning zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali, unumli foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi Fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Davlat Gerbi, Davlat Bayrog’i, Davlat Madhiyasiga va jamoaviy hayot normalariga hurmat ruhida tarbiyalashdir.

Xulosa. Umuman olganda, ta’lim oluvchilarning boshlang’ich sinfdanoq barkamol va shaxsiy konstitutsiyaviy huquq, burchlari amalga oshirilishini ta’minlash, uchun sharoit yaratishdan zarur. Yoshlarni ekologik va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda tashkil etiladi. Har bir ishni muntazam amalga oshirish shu ishning maqsadi va sifat ko’rsatgichi yuqori bardavom bo’lishini ta’minlaydi. Maktabda vatanparvarlik tuyg‘usini va chin insoniy fazilatlarni oshirishda tarbiya, ona tili va o‘qish fanlarini o‘qitishni tartibli va tizimli yo’lga qo‘yish o‘quvchilar ongida bo‘shliq qolmay, kelajakda Vatanimizga ulkan hissasi, nafi tegadigan kadrlar bo‘lib yetishishida yordam beradi.

Fodalanilgdan adabiyotlar ro ‘yxati.

1. Sharipova D., Xodiyeva D., Shirinov M. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi : darslik. – Toshkent : Barkamol fayz media, 2018. – 456 b.
2. Bahromov A.D. Tabiatshunoslik : umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Toshkent : Sharq, 2011. – 120 b.
3. Сайфуллаева Н.Б., Саидова Г.Э. Повышение эффективности занятий с использованием интерактивных методов в начальном образовании // Научный журнал. – 2019. – С. 101–102.
4. Saidova G. Boshlang‘ich ta’limda modulli ta’lim texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari // Центр научных публикаций. – 2023. – № 28(28).

Hayitov Qobil Qurbonovich
O‘zbekiston Milliy universiteti Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SUST O‘ZLASHTIRUVCHI TALABALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Sust o‘zlashtiruvchi talabalarning psixologik xususiyatlarini yoritish jarayonida ularning kategoriyalashga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlashga individuallik xususiyatlari, qadriyatlar tizimi yuzasidan olingan empirik qiymatlar muammoning haqiqiy tabiatini aniqlash uchun qo‘shimcha omillarni aniqlashga zarurat tug‘dirmoqda. Shu sababli maqolada sust o‘zlashtiruvchi talabalar individuallik xususiyatlari bilan aloqadorlikda kognitiv jarayonlaridan eng muhim tafakkur tiplarini o‘rganishga e’tibor qaratildi.*

Tayanch so‘zlar: *tafakkur, sust o‘zlashtiruvchi, talaba, “Tafakkur tiplari” metodikasi, irodaviy sifatlar, ziyraklik, kreativlik, qat’iyatlilik, g‘ayratlilik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ МЕДЛЕННО ОБУЧАЮЩИХСЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В процессе выяснения психологических особенностей медленно обучающихся учащихся необходимо выявить дополнительные факторы, обусловливающие их категоризацию, индивидуальные особенности и эмпирические значения, полученные из системы ценностей, для определения истинной сущности проблемы. Поэтому в статье основное внимание уделяется изучению важнейших типов мышления в познавательных процессах медленно обучающихся учащихся в связи с их индивидуальными особенностями.*

Ключевые слова: *мышление, медленно обучающийся, студент, методика «Типы мышления», сила воли, интеллект, креативность, целеустремленность, энтузиазм.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SLOW-LEARNING STUDENTS

Abstract. *In the process of elucidating the psychological characteristics of slow-learning students, it is necessary to identify additional factors that lead to their categorization, individual characteristics, and empirical values obtained from the value system to determine the true nature of the problem. Therefore, the article focuses on studying the most important types of thinking in the cognitive processes of slow-learning students in relation to their individual characteristics.*

Key words: *thinking, slow learner, student, “Thinking types” methodology, willpower, intelligence, creativity, determination, enthusiasm.*

Kirish. Akademik o‘zlashtirishi past bo‘lgan talabalarning psixologik xususiyatlarini yoritish jarayonida ularning kategoriyalashga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlashga individuallik xususiyatlari, qadriyatlar tizimi yuzasidan olingan empirik qiymatlar muammoning haqiqiy tabiatini aniqlash uchun qo‘shimcha omillarni aniqlashga zarurat tug‘dirmoqda. Shu sababli sust o‘zlashtiruvchi talabalar individuallik xususiyatlari bilan aloqadorlikda kognitiv jarayonlaridan eng muhim tafakkur tiplarini o‘rganishga e’tibor qaratildi. Sust o‘zlashtiruvchi talabalar shaxsining tarkibiy jihatlaridan biri tafakkurdir.

Yechish usuli. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarning kasbiy bilimlarni o‘zlashtirishi, zarur ko‘nikma va malakalarning tarkib topishiga qadriyatlari muhim ahamiyatga ega. Shu sababli talabalarning o‘zlashtirish darajalari ularning qadriyatlar yo‘nalishini belgilashga xizmat qilishi mumkin. O‘z navbatida shaxs qadriyatlari muammosi psixologiyada alohida e’tibor bilan o‘rganilgan muammolar sarasiga kiradi. Qadriyatlar S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, D.A.Leontyev, L.I.Bojovich, J.Mid, K.Rojers, M.Rokich, L.Festinger va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida ko‘rib chiqilgan.

Zamonaviy psixologiyada talabalarning qadriyatlari bir qator tadqiqotlar predmeti sifatida o‘rganilgan. Talabalarning qadriyatlar yo‘nalganligi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar mavjud:,

G.A.Galkina, Y.I.Gribkova, O.N.Jupnik, O.A.Zimina, I.M.Ilinskiy, V.A.Lukov, Y.M.Konev, L.V.Rebisheva, Y.P.Savitska, N.I Lapin, O.O.Martinenko, Korotina, Y.L.Rudneva, A.A.Cherkasov, K.M.Shamayev, L.I.Yashinlarning ilmiy izlanishlarini keltirib o‘tish mumkin.

Tadqiqotchi Y.A.Sichenko qadriyatni tadqiq etish asosida talabalarning qadriyatlar yo‘nalishlari yuzasidan quyidagicha xulosaga keldi, ya’ni ularda yoshlar muhitida o‘z-o‘zini hurmat qilish, mustaqillik, muvaffaqiyat, erkinlik va o‘z maqsadlarini tanlash kabi qadriyatlar ustunlik qilarkan. Ularning individual qadriyatlarida shaxs sifatida kamoloti, individual qobiliyatlarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qilishi muhimroqdir.

Talabalarning hayotiy qadriyatlarini tadqiq etishda O.S.Ioninaning izlanishlarini alohida e’tirof etish mumkin. Uning ilmiy tadqiqoti pedagogika ta’lim yo‘nalishi talabalarining hayotiy qadriyatlarini, shaxsiy xususiyatlarini va qobiliyatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Shuningdek, mazkur ilmiy tadqiqotda izohlanishicha, pedagogika universiteti talabalari uchun o‘zini o‘zi belgilash muammosi alohida ahamiyatga ega ekan. Bu qadriyat talabalarga kasbga kirib borish orqali taqdim etilar ekan. Talabalarning o‘qituvchisi nafaqat ularni o‘qitish, tarbiyalash va shaxs sifatida rivojlantirish sohasidagi mutaxassis, balki ijtimoiy qadriyatlar tizimining shakllantirishga ko‘maklashuvchi vakil ekan.

Masalaning qo‘yilishi. Tafakkur tiplarini o‘rganishda Dj.Brunerning “Tafakkur tiplari” metodikasidan foydalanildi. Metodika yordamida talabalar tafakkurining beshta tipiga xos xususiyatlar aniqlandi. Tafakkur tiplarini aniqlashda ham sust o‘zlashtiruvchi talabalar tafakkuridagi farqli jihatlarni aniqlashda yaxshi va a’lo o‘qiydigan talabalar qiyoslash obyekti sifatida e’tiborga olindi. Empirik ko‘rsatkichlar quyidagi 1-jadvalda tahlil qilinadi.

1-jadval. Talabalarning tafakkur tiplari ko‘rsatkichlari

№	Faktorlar	O‘rtacha rang ko‘rsatkichi			H	p
		Sust o‘zlashtiruvchi talabalar, N=105	Qoniqarli va yaxshi o‘zlashtiradigan talabalar, N=284	Yaxshi va a’lo o‘qiydigan talabalar, N=62		
1	Predmetli	203.60	232.16	235.73	4.146	0.126
2	Simvolli	183.43	238.75	239.68	14.720	0.001**
3	Belgili	227.37	225.79	224.65	.019	0.990
4	Obrazli	214.34	231.28	221.56	1.388	0.499
5	Kreativlik	179.85	228.13	263.60	17.853	0.000**

Izoh: **-r≤0.01.

Sust o‘zlashtiruvchi talabalarning shaxslilik tafakkur tipining o‘ziga xosligini baholash bo‘yicha empirik qiymatlarni baholashda quyidagicha holat aniqlandi. Tafakkur tiplari metodikasi bo‘yicha predmetli, belgili va obrazli tafakkur tiplari bo‘yicha natijalarida sust o‘zlashtiruvchi talabalar, qoniqarli, yaxshi va a’lo o‘qiydigan talablar bilan tafakkur tiplari nisbiy moslikka ega ekanlar. Bu esa talabalarning o‘zlashtirish darajalari har xillikka ega bo‘lsa-da, ammo tafakkur tiplarida bir xillik kuzatilmoqda.

Demak, sust o‘zlashtiruvchi talabalar tafakkurida ham amaliy tafakkurga xoslik, fazo va vaqtdagi obyekt bilan ajralmas aloqa bilan tavsiflanadigan fikrlash, axborotni o‘zgartirishni obyektiv harakatlar orqali amalga oshirish, ketma-ketlik operatsiyalarni bajarishga xayrixohlik mavjud.

Ularda belgili tafakkur tipiga xos ma’lumotlarni xulosa chiqarish orqali o‘zgarish, bitta grammatika qoidalariga muvofiq kattaroq birliklarga birlashtirish, o‘zaro muhim munosabatlarni qamrab oladigan konsepsiya yoki bayonot shaklidagi fikrlash kuzatilar ekan. Bir jihatdan ijtimoiy-gumanitar soha vakillari tafakkuriga xoslik ko‘proq kuzatilmoqda. Shu o‘rinda sust o‘zlashtiruvchi talabalar tafakkurida obrazlilik tipi ham bir xillikka moyil bo‘lmoqda. Ularning tafakkurida izchil fikrlash ham xoslik boshqa tiplarnikidan farq qilmadi.

Ammo sust o‘zlashtiruvchi talabalar tafakkur tiplarida simvolli va kreativlik qolgan ikki toifa talabalar tafakkuridan farqlar kuzatildi. Bundan ko‘rinadiki, har ikkala toifa tafakkur tipi talabalarning ta’lim jarayonida individual va ijodiy xarakterga asoslanib bilimlarga o‘zlashtirishlarini belgilashi mumkin. Bu ikki tafakkur tipiga xos xususiyatlarning yetishmasligi sust o‘zlashtiruvchi talabalar kognitiv jarayonlarida standartlashganlik va shablonli tafakkur xos deyish mumkin.

Sust o‘zlashtiruvchi talabalarda simvolli tafakkurning xosligini quyidagicha tartibda baholash mumkin bo‘ladi, ya’ni ular abstrakt, voqelikdagi hodisalarni o‘zlashtirishda modellar va simvollar tarzda o‘zlashtirishda qiynalishlarni ko‘rsatmoqda.

O‘z navbatida ushbu toifa talaba simvolli tafakkurida qolgan ikki toifadan quyi darajaga ega deyish mumkin (N=14,70; r≤0.01). Shuningdek, sust o‘zlashtiruvchi talabalarda qolgan ikki toifa talabalardan farqli tarzda kreativlik ham past darajani statistik mezon bo‘yicha farqlanishini ifodaladi (N=17,853; r≤0.01).

O‘rtacha qiymatlar tahlilida sust o‘zlashtiruvchi talabalar tafakkuriga xos xususiyatlar boshqa toifa talabalardan farqlanishi va quyi darajalarga egaligi tavsiflandi (2-jadval).

2-jadval. Sust o‘zlashtiruvchi talabalar tafakkur tiplarining interkorrelyatsiya ko‘rsatkichlari (Ch.Spirmen bo‘yicha)

Tafakkur tiplari	Predmetli	Simvolli	Belgili	Obrazli	Kreativlik
Predmetli	1	0.125	0.276*	0.371*	0.129
Simvolli		1	0.174	0.169	0.149
Belgili			1	0.551**	0.126
Obrazli				1	0.180
Kreativlik					1

Izoh: *-r≤0.05;**-r≤0.01.

Korrelyatsiyali tahlilda esa ayrim ijobiy korrelyatsiya koeffitsientlari kuzatildi, ammo sust o‘zlashtiruvchi talabalar interkorrelyatsiyasida predmetli tafakkur tipi bilan belgili (r=0.276; r≤0.05) va obrazli (r=0.371; r≤0.05) o‘rtasida kuchsiz ijobiy korrelyatsiyali munosabatlar kuzatilmoqda. Bu esa sust o‘zlashtiruvchi talabalar tafakkur tiplari o‘rtasida ijobiy bog‘liqliklar mavjud, ammo ularning rivojlantirish va kuchaytirish ta’lim jarayonida yangicha pedagogik munosabatlarni taqazo etadi.

Belgili tafakkur ham obrazli tafakkur bilan o‘zaro aloqadorlikni aks ettirmoqda (r=0.551; r≤0.01). Bu esa talabalar tafakkurining o‘rtacha rang ko‘rsatkichidagi farqlarni ifodalanishida mazmuniy munosabatlar bilan korrelyatsiya tahlil natijalari uzviylikka ega ekan. Bunday talqin esa korrelyatsion tahlilda talabalarning simvolli va kreativlik xususiyatlari bilan tafakkurni boshqa tiplari o‘rtasida biror bir interkorrelyatsiyali holat aniqlanmadi. Sust o‘zlashtiruvchi talabalarning ta’limdagi ojiz jihatlari tafakkurida originalllikni yetishmasligi yoki shablonga asoslangan tafakkur uslublari eng maqbuli bo‘lib qolmoqda.

Sust o‘zlashtiruvchi talabalar tafakkurining shaxs tuzilmasining tarkibiy qismlari bilan aloqasi ham uyg‘unlashganligini yoritish navbatdagi muhim vazifaga aylanmoqda. Ushbu vazifani bajarish uchun talabalar tafakkuri bilan individuallik xususiyatlari o‘rtasidagi munosabat (3-jadval) aniqlandi.

3-jadval. Sust o‘zlashtiruvchi talabalarning individualligining dinamik xususiyatlari bilan tafakkur tiplari o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsiya ko‘rsatkichlari

	Predmetli	Simvolli	Belgili	Obrazli	Kreativlik
Motorika sohasidagi erglik	0.026	-0.131	0.083	-0.115	-0.037

Intellekt sohasidagi erglik	0.045	-0.032	-0.021	-0.210*	-0.052
Kommunikativ erglik	0.183	-0.027	0.045	-0.195*	-0.055
Motorika sohasidagi erglik plastiklik	0.094	-0.094	-0.154	-0.070	0.111
Intellekt sohasidagi plastiklik	-0.065	-0.047	-0.213*	-0.120	0.036
Kommunikativ sohadagi plastiklik	-0.027	-0.008	-0.099	-0.148	-0.100
Motorika sohasidagi erglik tezlik	0.046	-0.210*	0.001	-0.176	0.043
Intellekt sohasidagi tezlik	-0.082	-0.031	-0.090	-0.085	-0.028
Kommunikativ sohadagi tezlik	-0.107	-0.026	-0.069	-0.126	0.076
Motorika sohasidagi emotsionallik	0.063	0.095	-0.040	0.118	-0.006
Intellekt sohasidagi emotsionallik	0.121	0.039	-0.129	0.153	0.148
Kommunikatsiya sohasidagi emotsionallik	0.035	-0.015	-0.136	-0.016	0.088

Izoh: *-r≤0.05.

Sust o‘zlashtiruvchi talabalar tafakkur tiplari bilan individualligining formal dinamik xususiyatlari o‘rtasidagi atigi uchta kuchsiz, ammo salbiy korrelyatsiya ko‘rsatkichlari aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichlarning ifodalovchi korrelyatsiya aloqalar talabalarning intelekt sohasidagi erglik (r=-0.210; r≤0.05) va kommunikativ sohasidagi erglik (r=-0.195; r≤0.05) bilan obrazli tafakkur o‘rtasida kuzatildi. Bundan ko‘rinadiki, sust o‘zlashtiruvchi talabalarning shaxsidagi formal-dinamik xususiyatlari bilan tafakkur tiplari o‘rtasida yaqqol munosabatlar ifodalanmagan. Biroq shaxsning individualligini tavsiflovchi dinamik xususiyatlari (temperamenti) haqida so‘z borganda barcha psixik jarayonlarning individualligi dinamiklikni ifodalashi (V.S.Merlin, B.M.Teplov) ta’kidlanadi. Bizning tadqiqotimizda, esa ushbu ta’riflovchi ifoda anchagina sust ekanligi tasdiqlandi.

Talabalar tafakkur tiplari bilan yana korrelyatsiya aloqani ifodalagan holat belgili tafakkur bilan intellekt sohasining palstiklik xususiyati o‘rtasida salbiy kuchsiz bog‘lanish aniqlandi (r=-0.21; r≤0.05). Ushbu korrelyatsiya tahlil natijalari talabalar shaxs tuzilmasida individuallikni ifodalovchi formal-dinamik xususiyatlari bilan tafakkur tiplari gormanallashmagan degan xulosani beradi.

Tahliliy materiallar tafakkur tiplari bilan sust o‘zlashtiruvchi talabalar shaxsining qadriyatlar tizimi o‘rtasidagi korrelyatsiyani o‘rganishga undadi. Bu esa navbatdagi tadqiqot tahlilini tashkil etdi. Sust o‘zlashtiruvchi talabalar shaxs tuzilmasining tarkibiy komponentlari sifatida tahlil etilayotgan har bir xususiyatlardagi o‘ziga xosliklar bir yoki bir nechta aniq bandlar bo‘yicha sharhlarga olib kelmoqda (4-jadval).

4-jadval. Sust o‘zlashtiruvchi talabalarning qadriyatlari yo‘nalganligi bilan tafakkur tiplari o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsiya ko‘rsatkichlari

Shkalalar	Predmetli	Simvolli	Belgili	Obrazli	Kreativlik
Oliy nufuzga ega bo‘lish	0.086	-0.136	0.072	-0.098	0.054
Yuqori moddiy ta’minlanganlik	0.131	-0.023	0.121	-0.009	0.155
Ijodkorlik	0.195*	-0.044	0.166	-0.038	0.031
Faol ijtimoiy munosabatlar	0.224*	0.018	0.180	-0.006	0.094
O‘z ustida ishlash	0.274**	0.099	0.210*	0.084	0.150
Yutuqlarga yo‘nalganlik	0.164	0.026	0.167	0.098	0.145

Ma’naviy qoniqish	0.179	0.068	0.140	0.035	0.188
O‘zlikni saqlash	0.072	-0.067	0.032	-0.048	0.135
Kasb-hunar olami	0.270**	0.058	0.202*	0.023	0.208*
O‘quv-tarbiya sohasi	0.141	-0.021	0.156	0.013	0.119
Oilaviy hayot	0.189	-0.005	0.172	-0.010	0.177
Ijtimoiy hayot;	0.132	-0.030	0.130	-0.017	0.109
Qiziqishlar olami	0.137	-0.004	0.081	0.028	0.060

Izoh: *-r≤0.05;**-r≤0.01.

Talabalar tafakkur tiplari bilan qadriyatlar yo‘nalganligining bir nechta yo‘nalishlari bo‘yicha ijobiy korrelyatsiya bejizga emas. Birinchidan, sust o‘zlashtiruvchi talabalar qadriyatlar yo‘nalganligi boshqa psixologik xususiyatlarga nisbatan ustuvorlikka egaligi oldingi sharhlarimizda ham aks etgan edi. Ikkinchidan, talabalar tafakkur tiplari bilan qadriyatlar yo‘nalganligi o‘rtasidagi korrelyatsiyali munosabatlar buni yana bir bora tasdiqladi.

Talabalarning belgili tafakkuri qadriyatlar tizimidagi ijodkorlik (r=0.195; r≤0.05), faol ijtimoiy munosabatlar (r=0.224; r≤0.05), o‘z ustida ishlash (r=0.274; r≤0.01) va kasb-hunar olami (r=0.270; r≤0.01) jabhalari bilan kuchsiz, ammo ijobiy korrelyatsion aloqadorlikka ega bo‘ldi. Bundan ko‘rinadiki, talabalarning ta’lim jarayonida tafakkur tiplarini tanlashlarida ham qadriyatlar belgilovchi vazifani o‘tamoqda.

Talabalarning belgili tafakkur tipidagi ijobiy o‘sishni ta’minlash esa o‘z ustilarida ishlash (r=0.210; r≤0.05) va kasb-hunar olamining (r=0.202; r≤0.05) xususiyatlarini belgilovchisiga aylanar ekan. Korrelyatsiya koeffitsient ko‘rsatkichlari boshqa psixik hodisalar ustida ustuvor tafakkur tipiga aylanib borishi ularda o‘ziga ishonch, o‘zi tomonidan vazifalarni mustaqil bajarish va hurmatni shakllanishiga sabab bo‘lar ekan.

Korrelyatsiya koeffitsientlarida aks etgan ijobiy, to‘g‘ri bog‘lanishni hosil qilgan jihat kreativlik ta’sirida kasb-hunar olami bilan bog‘liq vositali qadriyatlar o‘rtasida kuzatildi (r=0.208; r≤0.05). O‘rtacha rang ko‘rsatkichlari bo‘yicha talabalar natijalari o‘rtasidagi tahliliy materiallar sust o‘zlashtiruvchilarda kreativlik yetarlicha namoyon bo‘lmaganligini ifodalagan edi. Biroq tafakkur tiplari bilan qadriyatlar yo‘nalganligi o‘rtasidagi korrelyatsiyalar esa nisbatan bo‘lsa-da, kuchsiz va ijobiy korrelyatsiyani namoyon etdi. Sust o‘zlashtiruvchi talabalarda ham o‘zi ta’lim olayotgan yo‘nalishning sirlari va o‘ziga xosliklarini anglashi hisobida sohasiga kirib borishga ishtiyoq va intilish paydo bo‘lishiga olib kelayotgan bo‘lishi ehtimoldir. O‘z navbatida talabalar kasbiy o‘sishga erishish uchun ham o‘quv faoliyatida qandaydir o‘zgartirishlar kiritish kerak degan xulosalarga kelayotgan bo‘lishi ham mumkin. Talabalar tafakkuri bilan qadriyatlar yo‘nalganligining tarkibiy komponentlarida nisbiy bog‘liqliklar aks etgan bo‘lsa-da, ammo u to‘laqonli munosabatni ifodalamadi. O‘z navbatida talabalarning tafakkur tiplari bilan shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni psixologik profilni yoritishda ham ko‘rib chiqish ehtimoli bor (5-jadval).

5-jadval. Sust o’zlashtiruvchi talabalarning irodaviy sifatlari bilan tafakkur tiplari o‘rtasidagi korrelyatsiya (Ch.Spirmen bo‘yicha)

Tafakkur tiplari / Irodaviy sifatlari	Predmetli	Simvolli	Belgili	Obrazli	Kreativlik
Mas’uliyatlilik	-0.157	-0.062	-0.151	-0.143	-0.017
Tashabbuskorlik	0.215*	0.140*	0.103	0.275**	0.079
Qat’iyatlilik	-0.147	-0.150	-0.051	-0.169	-0.237*
Mustaqillik	0.002	0.144	0.096	0.075	-0.003
Matonat	-0.033	0.146	0.123	0.091	0.052
Tirishqoqlik	0.155	0.106**	0.126	0.277**	0.213*
G‘ayratlilik	-0.228*	-0.033	-0.055	-0.107	-0.198*

Ziyraklik (sinchkovlik)	0.300**	0.177	0.203*	0.198*	0.215*
Sobitqadamlik	0.046	0.126	0.118	0.138	0.042

Izoh: *-r≤0.05;**-r≤0.01.

Sust o‘zlashtiruvchi talabalar tafakkur tiplari shakllanganligi bilan irodaviy sifatlar o‘rtasidagi korrelyatsiyali munosabatlar ham aniqlandi. Bu esa talabalarda ham ijobiy, ham salbiy korrelyatsion munosabatlarni aks ettirmoqda.

Xulosa. Sust o‘zlashtiruvchi talabalarda predmeti tafakkur tipi ustuvorlik qilib boshlashi hisobiga ularda tashabbuskorlik (r=0.215; p≤0.05) sifatini o‘sib borishi ta’minlanayotgan ekan. Korrelyatsiyadagi munosabatlar sust o‘zlashtiruvchi talabalarda faoliyatni tashkillashtirish va mavjud g‘oyalarini amalga oshirishga intilishlari faollashar ekan. Biroq ulardagi tashabbuskorlik bo‘lsa-da, g‘ayratlilik yetishmasligi oqibatida (r=-0.228 p≤0.05) ular har doim ham faollikni kutiladigan darajada olib chiqa olmaydilar. Korrelyatsiyali koeffitsientining har ikka tipi ham kuchsiz namoyon bo‘lmoqda.

Predmetli tafakkur tipi sust o‘zlashtiruvchi talabalarning ziyraklik sifati bilan ijobiy korrelyatsiya hosil qilmoqda. Demak sust o‘zlashtiruvchi talabalarda ham tafakkur jarayonida ziyraklik va hushyorlik belgilovchi irodaviy sifat tarzda namoyon bo‘lmoqda (r=0.300 p≤0.01).

Sust o‘zlashtiruvchi talabalarning shaxslilik tuzilmasida tafakkur bilan ziyraklik o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik kuzatildi. Bu esa sust o‘zlashtiruvchi talabalarning tafakkuri bilan irodaviy sifatlarida ham ijobiy munosabatlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ziyraklik bu shaxsning intellektual irodaviy sifati deb baholash mumkin. Shu sababli, ular ham o‘z faoliyatini tashkil etishda ancha hushyor, ixchamlikka egaliklarini belgilaydi (r=0.203 p≤0.05).

Sust o‘zlashtiruvchi talabalarda mas’uliyatlilik, qat’iyatlilik, tirishqoqlik va g‘ayratlilik kabi irodaviy sifatlari boshqa toifa talabalarga nisbatan quyi shakllanganligi aniqlandi. Shuningdek, sust o‘zlashtiruvchi talabalarning irodaviy sifatlarining interkorrelyatsiyalar ham kuchsiz va tarqoq bog‘lanishga ega. Ularda matonatlilik boshqa irodaviy sifatlardan ko‘ra tirishqoqlik, g‘ayratlilik, ziyraklik va sobitqadamlik bilan uyg‘un rivojlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Денисова Е.А. Гендерные особенности самореализации личности студентов: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандитат психологических наук. – Москва, 2010. – С. 23.

2. Капцов А.В. Особенности противоречивости личностных ценностей студентов // Человек в экономических и социальных отношениях: Материалы Всерос. науч. конф. / Отв. ред. А.Б. Купрейченко, Л.Н. Широкова. Институт психологии РАН, Москва, 2012. –С. 159-160.

3. Агличева И.В. Комплексное исследование особенностей личностной адаптации студентов вуза: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандитат психологических наук. –Ставрополь, 2006. –С. 26.

4. Леонтьев, Д.А. Ценностные представления в индивидуальном и групповом сознании: виды, детерминанты и изменения во времени / Д.А. Леонтьев. – Текст : непосредственный // Психологическое обозрение. – 1998. – № 1. – С. 13-25.

5. Сыченко Ю.А. Социально-ценностный контекст профессионального самоопределения обучающейся молодежи // Профессиональное самоопределение молодежи инновационного региона: проблемы и перспективы: материалы Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. Красноярск, 2017. –С. 182-184.1

Ibragimova Shahnoza Gapparovna
Qo‘qon davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK YO‘LLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola boshlang‘ich sinflarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola matnida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xos mantiqiy fikrlash shakli, mantiqiy fikrlashni rivojlantiriuvchi pedagogik texnologiyalar ya’ni taqqoslash, tahlil qilish, og‘zaki va yozma, vizual hamda ko‘rgazmali ma’lumot berish usullari kabi masalalar ham batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘quvchi, fikrlash faoliyati, mantiqiy fikrlash, dars, o‘qituvchi, mashg‘ulotlar, pedagogik texnologiya, taqqoslash, tahlil qilish, matnni o‘qish, vizual usul, matematik topshiriqlar.*

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПУТИ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. *Статья посвящена теме педагогических технологий развития логического мышления в начальной школе. В тексте статьи также подробно рассматриваются формы логического мышления, характерные для младших школьников, педагогические технологии, развивающие логическое мышление, такие как сравнение, анализ, устная и письменная, наглядная и наглядная информация.*

Ключевые слова: *школьник, мыслительная деятельность, логическое мышление, урок, учитель, образование, педагогическая технология, сравнение, анализ, чтение текста, наглядный метод, математические задания.*

PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL WAYS TO DEVELOP LOGICAL THINKING IN PRIMARY GRADES

Annotation. *The article is devoted to the topic of pedagogical technologies for the development of logical thinking in primary school. The text of the article also discusses in detail the forms of logical thinking characteristic of primary schoolchildren, pedagogical technologies that develop logical thinking, such as comparison, analysis, oral and written, visual and visual information.*

Key words: *schoolchildren, mental activity, logical thinking, lesson, teacher, education, pedagogical technology, comparison, analysis, reading the text, visual method, mathematical tasks.*

Kirish. Xalqaro miqyosda, aqliy jihatdan barkamol bo‘lgan o‘quvchilarni tarbiyalash, ularni mantiqiy texnologiyalar asosida intensiv o‘qitish, yosh iqtidor egalarining biror sohaga bo‘lgan iqtidorini o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash ishlari, ko‘plab ilmiy jamoatchilik tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. Boloniya deklaratsiyasi qoidalarida aks etgan “Dunyo oliy ta’limi sifati va uning samaradorligini yanada oshirish, o‘quv jarayonida talabalar va professor - o‘qituvchilarning harakatchanligini kuchaytirish shuningdek, universitet bitiruvchilarini muvaffaqqiyatli ish bilan ta’minlash ” reja-dasturiga muvofiq, butun jahonda oliy ta’lim tizimiga zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etish masalasi o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda, ta’lim sohasini isloh etish va uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish masalarida, yurtimizda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ya’ni bugungi kun yoshlari har jihatdan barkamol bo‘lishi uchun, jamiyatimiz ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda. Jumladan, boshlang‘ich ta’lim sohasida ham e’tiborga molik o‘zgarishlarni amalga oshirilmoqda. Qoidaga ko‘ra, boshlang‘ich maktabda bolalarga nafaqat o‘qish va yozishni balki mantiqiy fiklash faoliyatini ham rivojlantirish o‘ta ahamiyatli ish sanaladi. Mantiqiy fikrlash orqali o‘quvchilar keyinchalik, o‘z ijodkorliklarini, o‘qishga bo‘lgan munosabatlarini, muvaffaqqiyatli o‘zlashtirish ko‘nikmalarini, maxsus qobiliyatlari kabilarni namoyon eta boradilar. Bundan tashqari, o‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llanilgan matematik amallar va mashqlar o‘quvchilarda taqqoslash, tahlil qilish, xulosa qilish hamda hukm qilish ko‘nikmalarini

shakllantirib, ular orqali vazifalarni muvaffaqqiyatli bajarish imkoniyati yuzaga keladi. Kichik maktab o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyati avvalambor, muammolarni hal etish, vaziyatlarni taqqsolash, vazifalarni ijodiy hal etish kabilar orqali amalga oshib, uni shakllantirish o‘ziga xos pedagogik texnologiyalarni talab etadi. Shuningdek, o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning yagona usuli bu, bolalarda matematik qobiliyatlarni shakllantirish ishlari bilan ham uzviy bog‘liq sanaladi.

Tadqiqotchi T.V. Barakina fikricha, qabul qilish o‘quvchining individual xususiyati bo‘lib, u taqqoslash, umumlashtirish, tadqiq etish, sintez qilish, tasniflash, o‘xshashliklarni aniqlash, tizimlashtirish va mavhumlashtirish kabi intellektual harakat usullari bilan uzviy bog‘liqdir. Insonning analitik va sintetik qobiliyatlari nafaqat obyektlarning asosiy elementlari va xususiyatlarini aniqlashda, balki ularni yangi kombinatsiyalarga birlashtirish jarayonida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu ko‘nikmalarni bolalarda shakllantirish orqali narsa va hodisalarni turli nuqtai nazardan tahlil qilish, shuningdek, masalalarni berilgan matematik usullar yordamida tushunish imkoniyati yuzaga keladi.

L.F. Tixomirov ta’kidlashicha, taqqoslash mantiqiy usul sifatida narsa va hodisalarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu usul obyektlarning asosiy xususiyatlarini ajratish, umumiy belgilarni aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini tavsiflash hamda turli obyektlarni qiyosiy tahlil qilishga xizmat qiladi. Ye.V. Ivanovaning fikriga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida taqqoslash ko‘nikmalari o‘ziga xos tarzda kechadi: ular ko‘pincha taqqoslashni oddiy ajratish bilan almashtiradilar, tajribada bo‘lmagan obyektlarni solishtirishda qiyinchilikka duch keladilar hamda asosan bir xil turdagi obyektlarni tashqi belgilariga ko‘ra taqqoslaydilar.

A.V. Beloshistaya tasniflashni mos keluvchi narsa va hodisalarni umumiy belgilar asosida birlashtirish jarayoni sifatida talqin qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar, odatda, obyektlarni hajm va shakliga ko‘ra tasniflaydilar. Yangi tushunchalar bilan tanishish jarayonida o‘quvchilarda tasniflash ko‘nikmalari bosqichma-bosqich shakllanib boradi. O‘xshashlik usulidan foydalanish orqali ular arifmetik amallarni bajarish, ko‘p xonali sonlarni qo‘shish va taqqoslash, shuningdek, narsa va hodisalar yuzasidan xulosa chiqarishni o‘zlashtiradilar.

O‘xshashlik asosida xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish jarayonida taqqoslash orqali obyektlarning muhim xususiyatlarini ajratish, noma’lum hodisalarni farqlash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish hamda kognitiv sezgirlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. S.G. Vrovshikov kichik maktab o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun amaliy, vizual, og‘zaki, o‘yin, muammoli va eksperimental usullardan foydalanish maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi. Biroq bu jarayonda o‘quvchilarning yoshi, vazifalarning mosligi, individual xususiyatlari va didaktik vositalar hisobga olinishi lozim.

N.Ya. Semago amaliy usul bolalarda amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini, didaktik o‘yinlar esa mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda mustaqil va samarali vosita ekanligini qayd etadi. O‘yin jarayonida bolalar turli harakat usullarini egallab, kognitiv sohaning rivojlanishiga erishadilar. Natijada mantiqiy fikrlash bolalarda zukkolik, topqirlik va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Boshlang‘ich maktab yoshida fikrlash maktabgacha davrga nisbatan sezilarli darajada o‘zgaradi. Agar maktabgacha yoshda fikrlash beixtiyor va kam boshqariladigan bo‘lsa, kichik maktab davrida bolalar o‘z fikrlash faoliyatini boshqarishni, zarur hollarda ongli ravishda o‘ylashni o‘rganadilar. Shu bilan birga, 6–7 yoshda mantiqiy fikrlash to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, uning dastlabki shakllari mavjud bo‘ladi.

L.S. Vigotskiy tafakkurning amaliy harakatlardan mantiqiy fikrlashga o‘tishini asoslab bergan bo‘lsa, P.Ya. Galperin tomonidan ishlab chiqilgan “aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi” konsepsiyasi inson tafakkurining rivojlanish mexanizmlarini chuqur yoritib berdi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash muammolari J. Komenskiy, I. Pestalozzi, K. Ushinskiy kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu yo‘nalish yanada jadal rivojlandi.

Hozirgi sharoitda boshlang‘ich maktabda o‘quvchilar taqqoslash, tasniflash va umumlashtirish kabi mantiqiy harakatlarning elementlarini egallashlari zarur. Shu bilan birga, ular tovushli so‘zlarni tahlil qilish, hajm va miqdorni farqlash, tushunchalarni ta’riflashda qiyinchiliklarga duch kelishlari

mumkin. Bu holatlar P. Galperin va V. Davidov tadqiqotlarida ham qayd etilgan. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish masalasi bilan I. Lerner, N. Talizina, A. Stolyar kabi xorijiy olimlar ham shug‘ullangan.

Umuman olganda, boshlang‘ich maktab yoshida tafakkur dominant funksiyaga aylanib, boshqa psixik jarayonlarning rivojlanishini belgilaydi. Fikrlash atrofdagi olamni anglashning eng yuqori shakli bo‘lib, insonning bilish imkoniyatlarini kengaytiradi va narsa-hodisalar o‘rtasidagi muhim munosabatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik jarayonning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Metodlar. Tadqiqotni amalga oshirishda bir nechta usullardan foydalanildi. Jumladan, Yaroslav Isaykin tomonidan ishlab chiqilgan “Mantiqiy fikrlash darajasini baholashning besh omilli” so’rovnomasi, R.B.Kettellning “Shaxsni 16 omilli xususiyatlarini baholash” so’rovnomasi, Panteleyev va Stolinning “Subyektiv lokus nazorat” metodikasi, Xollning “Emotsional intellekt” metodikasi hamda “Tafakkur tezligi va tafakkur egiluvchanligi” so’rovnomalaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Empirik natijalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, agar ta’lim jarayoni tabiatga moslik prinsipiga asoslangan bo‘lsa, pedagogik tizim insonparvarlik yo‘nalishi bo‘yicha rivojlansa, o‘quv jarayonini tashkil etish talabalar va o‘qituvchilarga haddan tashqari, yuk tushishiga olib kelmasa, takomillashtirilgan bo‘lsa, ta’lim muassasasi innovatsion hisoblanadi.

1-jadval

Mantiqiy fikrlash darajasi so’rovnomasi ko’rsatkichlari (styudentning t-mezoni bo’yicha)

Shkalalar	Guruhlar	M	Standart og’ish (Sigma)	t-statistika
Kuzatuvchanlik malakasi	Tajriba guruhi	7	5,2	5,11*
	Nazorat guruhi	5	4,5	
Tajriba va ko’nikma mahorati	Tajriba guruhi	6	5,8	4,25*
	Nazorat guruhi	4	3,3	
Ogohlik bilan harakat qilish qobiliyati	Tajriba guruhi	5	4,2	13,65
	Nazorat guruhi	5	4,1	
O’z ichki tajribalariga befarq munosabat	Tajriba guruhi	4	3,6	8,24
	Nazorat guruhi	3	2,5	
O’z tajribalariga tayanish	Tajriba guruhi	6	5,8	3,34**
	Nazorat guruhi	3	2,9	

Izoh: *p≤0,05

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bo’lajak o’qituvchilarda mantiqiy fikrlash darajasini o'rganishga doir so'rovnomaga ko'ra, Navoiy va Qo’qon davlat pedagogika institutlari va Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filialida tahsil oluvchi talabalarning ko'rsatkichlari birinchi shkala bo'yicha ya’ni kuzatuvchanlik malakasi M (7-5), sigma esa, (5,2-4,5) farqlar bilan o'zaro tafovutlangan. Keyingi shkala tajriba va ko'nikma mahorati bo'yicha M (6-4), sigma esa, (5,8-3,3) natijani namoyon qilgan.

Ogohlik bilan harakat qilish qobiliyati shkalasi bo'yicha tajriba va nazorat guruh sinaluvchilarining natijalari M (5-5), sigma esa, (4,2-4,1) darajalar bilan o'rtacha farqni tashkil etgan. Mantiqiy fikrlash insoniyat kamoloti sarchashmasi bo'lib, har bir inson u orqali o'zining jamiyatdagi o'rnini anglaydi, hayotining mazmunini belgilab oladi. Keyingi shkala o'z ichki tajribalariga befarq munosabat bo'yicha sinaluvchilarning ko'rsatkichlari M (4-3), sigma esa, (3,6-2,5) farqlar bilan o'rtachadan yuqori darajani namoyon etgan. Oxirgi shkala o’z tajribalariga tayanish bo’yicha sinaluvchilarning natijalari M (6-3), sigma esa, (5,8-2,9) farqlar bilan o’zaro xarakterlangan.

Xulosa. Umuman olganda, ta’lim jarayonining natijalari tizimning oshkor qilinmagan va ilgari foydalanilmagan imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga erishiladi, o‘quv jarayonining mahsuldorligi nafaqat qimmat vositalar va media tizimlarni joriy etishning bevosita natijasi hisoblanadi. Ushbu mezon har qanday ta’lim muassasasining nomidan qat’i nazar, uning innovatsion darajasini haqiqatan ham aniqlashga imkon beradi. Innovatsion ta’lim muassasasining xususiyatlarini, an’anaviy

muassasalar bilan taqqoslaganda aniqlash mumkin. Bolalarni o‘qitishda ishlatiladigan pedagogik innovatsion texnologiyalarning yana bir tasnifi mavjud. Mazkur innovatsion ta’lim texnologiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: interaktiv ta’lim texnologiyalari, loyihalashtirilgan ta’lim texnologiyalari va kompyuter texnologiyalari va boshqalar. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bolalarda yoshligidanoq axborot savodxonligini rivojlantirish vazifalari, jamiyatni axborotlashtirish va axborot jamoatchilik madaniyatini shakllantirish jarayonlari bilan tavsiflanadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, bolalarni maktabgacha yoshda ham kompyuterda ishlashga o‘rgatish mumkin. Boshqlang‘ich kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda matematik qobiliyatlarni shakllantirish avvalambor, zamonaviy axborot texnologiyalariga o‘zlashtirish, kompyuter tizimi sirlaridan xabardor qilish kabi vazifalar, ularda mantiqiy fikrlash jarayonini rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik vositalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Баракина Т.В. Возможности изучения элементов логики на уроках математики и информатики в начальной школе // Начальная школа плюс до и после. – 2009. – № 4. – С. 33 – 37.

2. Тихомирова Л.Ф. Упражнения на каждый день: логика для младших школьников. – Ярославль: Академия развития, 2011.Федеральный государственный образовательный стандарт начального общего образования: текст с изм. и доп. – М. : Просвеще¬ние, 2011. – 32 с.

3. Иванова Е.В. Развитие логического мышления на уроках математики // Начальная школа плюс до и после. – 2006. – № 6. – С. 59–60.

4. Белошистая А.В. Развитие логического и алгоритмического мышления младшего школьника // Начальная школа плюс до и после. – 2006. – № 9. – 15 с.

5. Методика обучения математике учащихся начальной школы. Курс лекций для студентов, обучающихся по специальности преподавание в начальных классах. Часть 2. – Издание 4-е, перераб. / Сост. Т.А. Бартенева. – Бутурлиновка, 2009. – С.122.

6. Воровщиков С.Г. Как эффективно развивать логическое мышление младших школьников. – М. : 5 за знания, 2008. – С.102.

7. Семаго Н.Я., Семаго М.М. Теория и практика оценки психического развития ребенка. Дошкольный и младший школьный возраст. – СПб. : Речь, 2011. – С.98.

Ibrogimov Muhammadrasul Abdimumin o‘g‘li
O’zbekiston milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Orcid: https://orcid.org/0009-0006-3472-0761

TALABALAR SOTSIAL IQTIDORINING TAVSIFLOVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK PREDIKTORLARI FAKTORLI TAHLILI

Annotatsiya. *Jahon psixologiyasida iqtidor fenomeni keng ko‘lamda va doimiy tadqiq etish xarakterdagi muammo sanaladi. Sotsial iqtidor masalasi esa konstruktiv munosabatlar, sotsial faoliyatga qobiliyatlilik, kognitiv va kognitiv bo‘lmagan omillari, shaxsning emotsional-irodaviy xususiyatlari va kommunikativ-tashkilotchilik qobiliyatlari, ijtimoiy faolligi, sotsial ijod qilishga tayyorligi, sotsial intellekt tarzda tadqiq etilgan. Biroq, sotsial iqtidorning oliy ta’lim tizimi talabalari shaxs bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik determinantlari muammosi esa yangi izlanish olib borishga zarurat tug‘dirmoqda.*

Kalit so‘zlar*: iqtidor, sotsial iqtidor, talabalar, yetakchilik, iqtidor sifatlari, yetakchilik, yetakchi talaba, tashkilotchilik, prediktorlar.*

ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ ХАРАКТЕРИСТИЧЕСКИХ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕДИКТОРОВ СОЦИАЛЬНОГО ОДАРЁННОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В мировой психологии феномен одаренности является широкомасштабной и постоянно исследуемой проблемой. Вопрос социальной одаренности изучен с точки зрения конструктивных отношений, способности к социальной деятельности, когнитивных и некогнитивных факторов, эмоционально-волевых характеристик и коммуникативно-организаторских способностей личности, социальной активности, готовности к социальному творчеству, социального интеллекта. Однако проблема социально-психологических детерминант социальной одаренности, связанных с личностью студентов системы высшего образования, требует новых исследований.*

Ключевые слова: *одаренность, социальная одаренность, студенты, лидерство, качества одаренности, лидер-студент, организаторские способности, предикторы.*

FACTOR ANALYSIS OF CHARACTERISTIC SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PREDICTIONS OF STUDENTS' SOCIAL GIFTEDNESS

Abstract. *In global psychology, the phenomenon of giftedness is considered a problem of large-scale and continuous research. The issue of social giftedness has been studied in terms of constructive relationships, capacity for social activity, cognitive and non-cognitive factors, emotional-volitional characteristics of the individual, communicative-organizational abilities, social engagement, readiness for social creativity, and social intelligence. However, the problem of socio-psychological determinants of social giftedness associated with the personality of higher education students necessitates new research.*

Key words: *giftedness, social giftedness, students, leadership, qualities of giftedness, leadership, student leader, organization, predictors.*

Kirish. Mamlakatimizda iqtidorlilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilayotganligini guvohi bo‘linadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida» hududlarda ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish hamda ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirish maqsadidagi chora-tadbirlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.

Jahon psixologiyasida iqtidor fenomenini tadqiq etish borasidagi izlanishlari orasida N.S. Leytes, S.S. Stepanov iqtidor shakllarini ajratishga e'tibor qaratdilar. A.M. Matyushkin esa iqtidorning psixolgik tuzilmasini ajratib ko'rsatishga erishdi.

Talabalarning sotsial iqtidorga xos xususiyatlarini belgilovchi prediktorlarni aniqlash uchun esa quyidagi tartibda yondashish rejalashtirildi. Buning uchun tadqiqo ob'ektlariga yangicha yondashish muhim deb hisoblandi. Birinchi holat tadqiqoda ishtirok etgan talabalar orasidan sotsial iqtidorlilikni belgilovchi sifatlar bo'yicha eng yuqori natijaga ega bo'lgan talabalar, tadqiqotga jalb etilgan talabalar guruhi yetakchilari (starostalar) va oliy ta'lim muassasasidagi talabalar yetakchilari jalb etidi. Dastlab, sotsial iqtidorlilik xususiyati xos bo'lgan talabalar sifatida yuqori qiymat egalari, guruh yetakchilari va ta'lim muassasalaridagi yoshlar yetakchilarini jalb etishdan olingan natijalar.Ikkinchisi esa yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan talabalarning kursdoshlari, ota-onalari va o'rtoqlari tomonidan berilgan baholar asosida sotsial iqtidorga xos xususiyatlar baholandi.

Metodlar. Tadqiqotimizda foydalanilgan metodikalar qatorida joy olgan K.Rojersning "Sotsial–psixologik adaptatsiya so'rovnomasi" ham tadqiqot dasturimizga qayd etildi. Ushbu metodikada "Adaptivlik", "Dezadaptivlik", "Samimiylik", "O'zini qabul qilish", "O'zgalarni qabul qilish", "O'zgalarni qabul qilmaslik", "Emotsional komfort", "Emotsional diskomfort", "Ichki nazorat", "Tashqi nazorat", "Eskapizm (muammolardan yiroqlashish)", "Qayd etish" kabi shkalalarni o'z ichiga olgan bo'lib, 7 ballik tizim orqali baholanadi. Mazkur metodikaning yutuqli jihati shaxsni o'zining emotsional sohasi hamda adaptatsion qobiliyatini ishonchli baholay olishga yordam berishidadir. Mazkur metodika orqali sotsial iqtidorning tarkibiy komponenti sifatida qaraladigan shaxsning emotsional soha to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlarni olish qulay hisoblanadi.

Sotsial iqtidorni o'rganishda sotsial intelletkning ahamiyatini qayd etgan holda sotsial intellektni o'rganish bo'yicha G. Rezapkina modifikatsiyasi asosidagi "Sotsial intellekt" so'rovnomasidan ham foydalanildi. Metodika "O'z-o'zini anglash", "O'z-o'zini nazorat", "Empatiya", "Kirishimlilik", "O'z-o'zini motivatsiyalash" kabi shkalalar orqali shaxs sotsial intellektini baholashda foydalaniladi. Ushbu metodika sotsial intellektni ishonchli baholash bo'yicha keng qo'llaniluvchi metodika sifatida qayd etiladi.

Natijalar va Munozara. Talabalar sotsial iqtidorining tavsiflovchi muhim ijtimoiy-psixologik prediktorlarni empirik o'rganishda tadqiqotda foydalanilgan barcha metodikalar va tadqiqot tanlanmalarining natijalarini xususiy va umumiy holatdagi prediktorlarini aniqlashga e'tibor qaratishga harakat qilindi. Buning uchun empirik natijalar tahlili uchun faktorli tahlil usuliga tayanildi. Quyida ushbu yo'nalish bo'yicha faktorli tahlil asosida sotsial iqtidorning ijtimoiy-psixologik prediktorlarini taqdim etishga erishildi (1-jadval).

Psixolog-ekspertlarning munosabtlariga ko'ra faktorlar bo'yicha yetakchi psixologik pred-iktorlar

1-faktor: Shaxsiy insoniy fazilatlar va empatiya

Yuklamasi yuqori bo'lgan prediktorlar: hamdard (0.938), mehrli (0.814), halol (-0.865), bir so'zli (-0.935), sabotli (0.528), talabchan (0.613), shijoatli (0.747), nekbin (0.405), empatiya (0.454)

Bu faktor talabalarning insonparvarlik, shaxsiy mas'uliyat, ishonchlilik, ichki motivatsiya va empatik qobiliyatlarini aks ettiradi. Bu omil shaxsiy sotsial iqtidorni shakllantirishda muhim. Shaxsiy xislatlar yordamida odamlar bilan to'g'ri munosabat qurish osonlashadi.

2-faktor: Psixologik adaptatsiya va ichki holat. Yuklamasi yuqori bo'lgan prediktorlar: adaptatsiya (0.986), emotsional konfort (0.979), internallik (0.982),

1-jadval

Psixolog-ekpertlarning talabalar sotsial iqtidorining tavsiflovchi ijtimoiy-psixologik prediktorlar bo'yicha ko'rsatkichlari

	Fatktorlar									
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Adaptatsiya		0.986								
O'zini qabul qilish		-0.976								
Boshqalarni qabul qilish		0.960								
Emotsional konfort		0.979								

Internallik		0.982								
Hukmronlikka intilish		0.960								
Muloqotmandlik	0.714					0.517				
Samimiy					0.927					
Kirishimli				0.770	0.429					
Rahmdil					0.912					
Odobli			0.947							
Iltifotli	0.434		0.574	0.583						
Hamkor	0.501		0.729							
Hamdard	0.938									
Mas'uliyatli				0.911						
Ishonchli			0.511		-0.568	-0.514				
Halol	-0.865									
Bir so'zli	-0.935									
Sabotli	0.528		0.559							
Sabr-toqatli	0.408						-0.784			
Olijanob				-0.765						
Talabchan	0.613			-0.558						
Intizomli	0.499							0.703		
Mehnatsevar	0.605			-0.433						
Tayinli			-0.741	0.526						
Tashabbuskor	0.410		0.665							
Izchil			0.604				0.636			
Shijoatli	0.747									
Tirishqoq					0.415	0.613		-0.528		
Fahmli			0.527			0.747				
Mehrli	0.814					0.491				
Nekbin	0.405		0.727			0.414				
Sezgir					0.776					
Quvnoq			0.907							
Ta'sirchan						-0.905				
Muhabbatli							-0.927			
Xushchaqchaq				0.686				0.425		
Dilkusho				0.721						
O'z-o'zini anglash							0.555	-0.610		
O'z-o'zini nazorat				0.443		0.754				
Empatiya	0.454				0.529		-0.564			
Kirishimlilik		0.430						0.757		
O'zini o'zi moti-vlashtirish				0.446	0.766					
Muvaffaqiyatga moti-vatsiya va mag'lubiyat-dan qochish moti-vatsiyasi										0.624
Tashkiliy yetakchilik									0.715	
Kommunikativ kopeiensiya									0.574	
Men-kompetensiya									0.851	
Sotsial persepsiya										-0.853

O'zini qabul qilish tushunish (-0.976), Boshqalarni qabul qilish qabul qilish (0.960), Hukmron-likka intilish (0.960).

Bu faktor shaxsiy moslashuvchanlik, ichki nazorat, hissiy barqarorlik va liderlik salohiyatini bildiruvchi prediktorlarni qamrab oladi. Sotsial iqtidorning asosi insonning muhitga moslashishi va Boshqalarni qabul qilish anglash qobiliyati hisoblanadi.

3-faktor: Muloqot va kommunikativ qobiliyat. Yuklamasi yuqori bo‘lgan prediktorlar: Muloqotmandlik (0.714), Iltifotli (0.574), Hamkor (0.729), Sabotli (0.559), Tashabbuskor (0.665), Kirishimlilik (0.757)

Bu faktor talabaning kommunikativ kompetensiyasi, jamoada faoliyat yuritishi, tashabbuskorligi va boshqalar bilan samarali aloqada bo‘lishiga bog‘liq. Bu iqtidor talabalarda ijtimoiy rollarni bajarishda muhimdir.

4-faktor : Ixtiyoriy nazorat va ichki intizom.

Yuklamasi yuqori bo‘lgan prediktorlar: Mas’uliyatli (0.911), Fahmli (0.747), O‘zini o‘zi nazorat qilish (0.754), O‘zini o‘zi motivlashtirish (0.766) va Kirishimli (0.770). Bu faktor shaxsning ixtiyoriy nazorati, fe’l-atvorni nazorat qilish, va shaxsiy rivojlanish qobiliyatini anglatadi. Sotsial iqtidorda o‘z-o‘zini nazorat qilish muhim omildir.

5-faktor: Emotsional barqarorlik va ta’sirchanlik. Yuklamasi yuqori bo‘lgan prediktorlar:Ta’sirchan (-0.905), Muhabbatli (-0.927), O‘z-o‘zini anglash (0.555, -0.610), Tirishqoq (-0.528). Psixologik tahlil: Bu faktor talabalardagi hissiy barqarorlik, ta’sirchanlik darajasi va introspeksiya qobiliyatini aks ettiradi. Bunday hissiy komponentlar sotsial qobiliyatlarni mustahkamlaydi yoki zaiflashtiradi.

6-faktor: Ijtimoiy vositalar orqali iqtidor. yuklamasi yuqori bo‘lgan prediktorlar: muvaffaqiyatga motivatsiya (0.624), tashkiliy yetakchilik (0.715), kommunikativ kompetensiya (0.574), Men-kompetensiya (0.851),sotsial persepsiya (-0.853). Bu omil ijtimoiy sharoitlarda yetakchilik, sotsial persepsiya, o‘zini anglash va muvaffaqiyatga intilish xususiyatlarini qamrab oladi. Talabaning ijtimoiy muhitda qanchalik faol va samarali bo‘lishi, uning sotsial iqtidoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu faktorlarni navbatdagi jadval asosida ifodalashga tavsifini keltirishga harakat qilinadi (2-jadval):

2-jadval

Ekspert-psixologlarning sotsial iqtidorni baholashlariga ko‘ra faktorlar va uning mazmuni

№	Faktor nomi	Xarakteristikasi
1	Ichki mas’uliyat va axloqiy fazilatlar	Empatiya, insonparvarlik, shaxsiy barqarorlik
2	Psixologik adaptatsiya va avtonomiya	Moslashuv, internallik, hissiy barqarorlik
3	Ijtimoiy faollik va muloqot qobiliyati	Muloqot, tashabbuskorlik, hamkorlik
4	Shaxsiy nazorat va motivatsiya	O‘zini boshqarish, ichki moti-vatsiya, izchillik
5	Hissiy barqarorlik va ta’sirchanlik	Hissiy ta’sirlanuvchanlik, o‘zini an-glash
6	Sotsial kognitiv qobiliyat va yetakchilik	Etakchilik, men-kompetensiya, sot-sial idrok

Navbatdagi faktorli tahlil natijalari talabalar sotsial iqtidoriga nisbatan kursdoshlar, yaqinlari, professor-o‘qituvchi va tyutorlarning bahosi asosidan aniqlangan natijalarga e’tibor qaratiladi (3-jadval).

Sotsial iqtidor prediktorlari bo‘yicha faktorli natijalar asosida quyidagi empirik natijalar tahliliga erishildi.

Har bir faktorda yuklama ≥ |0.6| bo‘lgan prediktorlar tanlanadi. Ushbu prediktorlar mazmuni tahlil qilinadi. Faktorlar psixologik mohiyatga ko‘ra nomlanadi.

1-faktor.Shaxsiy insoniy fazilatlar va ijtimoiy munosabatlar. Yuklama darajasi yuqori (≥ 0.6): Hamkor (0.864), Olijanob (0.671), Mehnatsevar (0.741), Mehrli (0.749), Quvnoq (0.772), Nekbin (0.903), Tayinli (0.793), Ishonchli (0.711), Halol (0.706), Bir so‘zli (0.694), Odobli (0.735), Talabchan (0.728).

3-jadval

Talabalar sotsial iqtidoriga nisbatan kursdoshlar, yaqinlari, professor-o‘qituvchi va tyutorlarning bahosi asosida aniqlangan

	Prediktorlar									
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Adaptatsiya			0.897							
O‘zini qabul qilish			0.889							
O‘zini qabul qilish qabul qilish			0.927							
Emotsional konfort			0.905							
Internallik			0.896							
Hukmronlikka intilish			0.882							
Muloqotmandlik		0.650		0.555						
Samimiy		0.494		0.772						
Kirishimli	0.632					0.652				
Rahmdil				0.669		-0.513				
Odobli	0.735				-0.422					
Iltifotli				0.674		0.516				
Hamkor	0.864									
Hamdard	0.644	-0.500								
Mas’uliyatli	0.420			0.607		0.402				
Ishonchli	0.711			0.441						
Halol	0.706	0.434		0.510						
Bir so‘zli	0.694	0.501		0.410						
Sabotli		-0.797								
Sabr-toqatli		-0.728		0.421						
Olijanob	0.671	-0.432								
Talabchan	0.728				0.414					
Intizomli		-0.783	0.434							
Mehnatsevar	0.741									
Tayinli	0.793				0.576					
Tashabbuskor	0.455	0.742								
Izchil		0.856								
Shijoatli	0.443	0.455	0.460		-0.427					
Tirishqoq		0.758	-0.434							
Fahmli	0.546	0.718								
Mehrli	0.749				0.588					
Nekbin	0.903									
Sezgir				0.626			-0.422			
Quvnoq	0.772	0.420								
Ta’sirchan		-0.538			-0.794					
Muhabbatli		-0.535					0.478			
Xushchaqchaq	-0.733					0.408				
Dilkusho	-0.757			0.591						
O‘z-o‘zini anglash		0.676		0.450						
O‘z-o‘zini nazorat	-0.761									
Empatiya				0.897						
Kirishimlilik			0.744							

O‘zini o‘zi moti-vlashtirish		0.615		0.669						
Muvaffaqiyatga moti-vatsiya va mag‘lu-biyatdan qochish mo-tivatsiyasi								0.441		0.440
Tashkiliy yetakchilik								0.404	0.642	
Kommunikativ kopeiensiya								0.486		
Men-kompetensiya								0.658	0.412	
Sotsial persepsiya										0.783

Bu faktor shaxsning ichki axloqiy fazilatlari, ijtimoiy munosabatlarda ochiqligi, ishonchliligi, ruhiy yetukligi va ijobiy emotsional fonni saqlash qobiliyatini qamrab oladi. *Shaxsiy fazilatlar va ijtimoiy munosabatlar faktori*

2-faktor. Ichki nazorat va izchillik.Yuklama darajasi yuqori: Izchil (0.856), Tirishqoq (0.758), Tashabbuskor (0.742), Fahmli (0.718), Kirishimlilik (0.744), O‘zini o‘zi motivlashtirish (0.615), Quvnoq (0.420). Faktor shaxsning ichki intizomi, faolligi, tashabbuskorligi va o‘zini boshqarish qobiliyati bilan bog‘liq. Bunday shaxslar muvaffaqiyatga intiluvchan va harakatchan bo‘ladi. *Ichki faollik va izchillik faktori*.

3-faktor. Psixologik moslashuv va emotsional barqarorlik. Yuklama darajasi yuqori: Adaptatsiya (0.897), Emotsional konfort (0.905), Internallik (0.896), O‘zini qabul qilish (0.889), O‘zini qabul qilish qabul qilish (0.927), Hukmronlikka intilish (0.882). Shaxsning o‘zi va Boshqalarni qabul qilish qabul qilish qobiliyati, ichki barqarorligi, hissiy holatni nazorat qilish, o‘zini muhitga moslashtirish qobiliyatini ifoda etadi. *Psixologik moslashuv va hissiy barqarorlik faktori.*

4-faktor. Muloqot qobiliyati va samimiy munosabat. Yuklama darajasi yuqori: Samimiy (0.772), Muloqotmandlik (0.650), Iltifotli (0.674), Rahmdil (0.669), Empatiya (0.897). Shaxsning jamoada muloqot qilish qobiliyati, hissiy munosabatlar, Boshqalarni qabul qilish tinglash va tushunish qobiliyati, emotsional bag‘rikenglik ko‘rsatiladi. *Muloqot va empatik munosabat faktori.*

5-faktor. Emotsional reaktivlik va ta’sirchanlik. Yuklama darajasi yuqori: ta’sirchan (−.794), sabotli (−.797), sabr-toqatli (−.728), intizomli (−.783), xushchaqchaq (−.733), dilkusho (−.757), O‘zini o‘zi nazorat (−.761). Faktor shaxsning hissiy ta’sirlanuvchanligi, emotsional nazorat darajasi, o‘zini tutish qobiliyatini aks ettiradi. Yuklamalar manfiy, bu holda nazoratning yetishmasligi yoki hissiy notenglikni ko‘rsatadi. *Hissiy reaktivlik va nazorat zaifligi faktori.*

6-faktor. Ijtimoiy intellekt va yetakchilik qobiliyati. Yuklama darajasi yuqori: Tashkiliy yetakchilik (0.642), Men-kompetensiya (0.658), Sotsial persepsiya (0.783), Kommunikativ kompetensiya (0.486), Muvaffaqiyatga motivatsiya (0.441). Faktor shaxsning ijtimoiy muhitda o‘zini tutushi, yetakchi bo‘lish qobiliyati, ijtimoiy aloqalarni tushunish, muvaffaqiyatga intilish qobiliyatini aks ettiradi.

Xulosa va tavsiyalar. 1. Sotsial iqtidor ko‘p komponentli ijtimoiy-psixologik tuzilmaga ega bo‘lib, uning shakllanishida shaxsiy barqarorlik, kommunikatsiya qobiliyati, his-tuyg‘u nazorati, empatiya, ichki nazorat va yetakchilikka intilish kabi bir-biriga bog‘liq omillar markaziy o‘rin tutadi. Ushbu omillar sotsial iqtidorning psixologik zaminini belgilaydi va uning samarali namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

2. O‘zini qabul qilish va shaxsiy barqarorlik - sotsial iqtidorning asosiy psixologik sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘zini ijobiy qabul qiluvchi talabalarda sotsial iqtidor darajasi yuqori bo‘lib, bu shaxsning ichki uyg‘unligi, “Men-konsepsiya”si va o‘z qiymatini anglash qobiliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

3. Emotsional komfort va muhitga moslashuvchanlik - sotsial iqtidorning funksional asoslaridandir. Ushbu xususiyatlar yangi ijtimoiy holatlarga tez moslasha olish, samarali muloqotga kirisha olish va stresslarga bardosh berish kabi sotsial qobiliyatlarning muvaffaqiyatli shakllanishini ta’minlaydi.

4. Empatiya, bag‘rikenglik va o‘zaro qabul qilish salohiyati - shaxsning ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatga erishishida hal qiluvchi omillardandir. Talabalarda ushbu xislatlarning yuqori darajada namoyon bo‘lishi jamoaviy ishlash, rahmdillik va ijtimoiy hamkorlikda faol ishtirok etish qobiliyatini kuchaytiradi.

5. Sotsial iqtidorni aniqlash va baholashda ko‘p manbali, kompleks yondashuv samaradorligini namoyon qildi. Kursdoshlar, ustozlar, yaqinlar va ekspertlar tomonidan berilgan baholarning yuqori korrelyatsiyasi (68,75%) ushbu metodologiyaning ishonchli va inobatga olinishi lozim bo‘lgan uslubiy asos ekanini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 yil, 6-son. B.53. Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida// O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 19 apreldagi 222-son *qaroriga.*

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5255-son Qarori - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2021 yil, 4 oktyabr.

3. Лейтес Н. С. Возрастная одаренность и индивидуальные различия: избранные труды. М.: Издательство Московского психолого-социального института; Воронеж: НПО «МОДЭК», 2003. 464 с, Лейтес Н. С. Способности и одаренность в детские годы. - М.: Знание, 1984.-80 с.

4. Матюшкин А. М. Загадки одаренности. - М.: Школа Пресс, 1993. -128 с.

Илхамова Дилфуза Илясовна
Национальный университет Узбекистана

СТРАТЕГИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ДЕТЯМ, БОЛЬНЫМ ХРОНИЧЕСКИМИ СОМАТИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ

Аннотация. *Статья посвящена анализу психологических и социально-психологических проблем детей с хроническими соматическими заболеваниями и их семей. Описывается опыт комплексной психодиагностической и психокоррекционной работы, проведённой в Республиканском научно-практическом центре педиатрии. Показано, что сочетание клинической, психологической и реабилитационной помощи способствует снижению психоэмоционального напряжения, улучшению адаптации ребёнка к заболеваниям и повышению качества жизни семьи. Представлены основные выявленные проблемы и направления коррекционной работы с детьми и их родителями.*

Ключевые слова: *хронические соматические заболевания, психокоррекция, психодиагностика, дети, семейная система, психологическая поддержка, реабилитация.*

SURUNKALI SOMATIK KASALLIKLARGA CHALINGAN BOLALARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO‘RSATISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya. *Maqolada surunkali somatik kasalliklarga chalingan bolalar va ularning oilalarida uchraydigan psixologik hamda ijtimoiy-psixologik muammolar tahlil qilinadi. Respublika Pediatriya Ilmiy-amaliy markazida olib borilgan kompleks psixodiagnostik va psixokorreksion ish tajribasi bayon etiladi. Klinik, psixologik va reabilitatsion yordamlardan iborat integratsiyalashgan yondashuv bolaning kasallikka moslashuvi, psixoemotsional holatining yaxshilanishi va oila hayoti sifatining oshishiga yordam berishi ko‘rsatiladi. Bolalar va ularning ota-onalari bilan ishlashning asosiy yo‘nalishlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *surunkali somatik kasalliklar, psixokorreksiya, psixodiagnostika, bolalar, oila tizimi, psixologik yordam; reabilitatsiya.*

STRATEGIES OF PSYCHOLOGICAL SUPPORT FOR CHILDREN WITH CHRONIC SOMATIC DISEASES

Abstract. *The article examines psychological and socio-psychological problems experienced by children with chronic somatic diseases and their families. It describes the experience of comprehensive psychodiagnostic and psychocorrectional work conducted at the Republican Scientific-Practical Center of Pediatrics. The integrated approach, combining clinical, psychological, and rehabilitative support, is shown to reduce emotional distress, improve the child’s adaptation to illness, and enhance the family’s quality of life. Key problems identified during the work and the main directions of psychological intervention for children and their parents are presented.*

Key words: *chronic somatic diseases; psychocorrection; psychodiagnostics; children; family system; psychological support; rehabilitation.*

Любая хроническая болезнь, кого бы она не настигла, хоть это взрослый или ребенок коренным образом меняет всю социальную ситуацию семьи. Встают проблемы, касающиеся не только медицинского характера, но и социального и социально-экономического статуса семьи. Как уже отмечали выше, болезнь затрагивает не только жизнь больного, его соматическое и психологическое состояние, но и всю семейную систему, где возможны усугубления супружеских взаимоотношений, социального контакта самого ребенка, его места в системе отношений со сверстниками, обучения его в школе и успеваемости. С другой стороны отсутствие комплексной клинико-психологической и реабилитационной помощи приводит к снижению качества жизни ребенка, социальной дезадаптации и депривации.

В научной литературе по педиатрии и психологии обнаруживаются фрагментарные практические работы и созданные на этой основе рекомендации по оказанию психологической поддержки больным детям и их родителям.

В зарубежной практике одним из наиболее традиционных методов психологической помощи больным детям является просветительская деятельность. Понимание ребенком и его родителями особенностей течения болезни, информирование их о необходимых лечебных мерах способствует снижению степени психологической травматизации ребенка. Хелгесон и Коэн и других также поддерживается идея ведения просветительско-консультативной работы с больными детьми и их родителями, в исследованиях которых данные методы приводили к улучшению самочувствия больных. Ряд авторов отмечают, что успешная адаптация детей к условиям болезни при различных соматических заболеваниях требует комплексных мер по психологической поддержке. В основное содержание данных мер должны включаться также тренинговые программы социальных навыков. При этом нужна работа с семьей, иногда при необходимости с каждым ее членом, потому что семья и есть главный эмоциональный ресурс заболевшего ребенка.

В ходе своей работы в целях психологической помощи детям с различными соматическими заболеваниями хронического течения мы на базе Республиканского научно-практического Центра Педиатрии совместно с медицинскими работниками проводили психодиагностическую и психокоррекционную работу. Был открыт кабинет психолога и комната для проведения психологических процедур, где проводились консультативные и коррекционные работы с детьми на стационарном и амбулаторном этапе лечения с детьми, имеющими проблемы в психоэмоциональной сфере, психологическом статусе, в социально-психологической сфере.

Работа с детьми проводилась начиная с поступления его в стационар, с постановки диагноза. В первые дни поступления в стационар с ребенком проводили беседу, одновременно наблюдая за его поведением. В ходе беседы как мы уже говорили выше, проводили часть психодиагностических исследований, с целью выявления реакцию ребенка на свою болезнь, на факт госпитализации, изучали состояния психоэмоционального статуса. Также в первые дни госпитализации беседовали с родителями (это были в основном мамы). Была составлена специальная реабилитационная программа, на основе которого, велась работа. Основная направленность данных работ была посвящена на выявление закономерностей нарушений психологического статуса ребенка и их коррекцию.

На стационарном этапе коррекционная программа осуществлялась в течение 7 дней. У детей с более легким соматическим состоянием (в основном это группа больных с гастродуоденальной патологией) занятия проводились в групповой форме. С детьми с циррозом печени и сердечно-сосудистыми заболеваниями проводилась индивидуальная работа, которая включала в себя работу с проблемами эмоционального состояния ребенка, социальной контактности, также работы велись по преодолению трудностей ребенка, возникших на фоне необходимости принятия медицинских процедур. У большинства детей был страх перед обследованиями, особенно дети остро реагировали на гастроэндоскопическое исследование.

В ходе беседы детей более старшего возраста, то есть детей в возрасте 10-13 лет выявились проблемы в семейных взаимоотношениях. Дети очень чувствительно реагировали на конфликты между родителями и другими членами семьи.

Также психокоррекционная и психопрофилактическая работа велась и с родителями детей с тяжелым состоянием (циррозом печени). Среди матерей были женщины, которые потеряли сразу несколько детей в связи с гепатитом «С» с переходом в цирроз печени, т.е. дети которых страдали семейной формой цирроза печени. Психоэмоциональное состояние матерей непосредственно влияло и на состояние ребенка. В связи с этим мы посчитали необходимым вести с ними психологическую работу.

В ходе исследования выявлены основные психологические и социально-психологические проблемы детей с хроническими соматическими заболеваниями, с учетом которого осуществлялись психодиагностические и психокоррекционные мероприятия (Табл. 1).

Таблица 1.

Нозологии	Основные	Психодиагностика	Психокоррекция

	проблемы		
Хроническая гастродуоденальная патология	Синдром дефицита внимания, нарушения в познавательной сфере, высокий уровень тревожности, агрессивность, заниженная самооценка.	Тесты на исследование познавательной сферы, психоэмоционального статуса, уровня агрессивности	Когнитивно- бихевиоральная терапия, психокоррекция познавательной сферы, релаксационные упражнения, игротерапия, арттерапия
Сердечно-сосудистые заболевания	Сниженная социально-психологическая адаптация, нарушения в сфере психоэмоционального статуса, заниженная самооценка, неуверенность в себе, зависимость от других, задержка психического развития	Тесты на исследование психоэмоционального статуса, коммуникативных способностей, сформированности социальных навыков, на изучение познавательной сферы	Групповые тренинги по формированиюсоциальных навыков, арттерапия, музыкотерапия
Хронический вирусный гепатит «В»	Синдром дефицита внимания и гиперактивность, нарушения когнитивной сферы, психоэмоционального статуса, социальной адаптации	Психодиагностика познавательной сферы, пс ихоэмоционального статуса и волевой сферы, диагностика уровня социальны навыков	Когнитивно-бихевиоральная терапия, игротерапия, направленная на снижение страхов, облегчениия состояния
Цирроз печени	Нарушения в эмоциональной сфере, агрессивность, отчужденность, стремление к одиночеству, нарушения социальной контактности	Диагностика эмоционального состояния, определение уровня синдрома госпитализма	Индивидуальная консультация, игротерапия, направленная на повышение настроения, социальной контактности, упражнения, направленные на вербализацию чувств

Мы считаем, что главное в организации психологической помощи детям с хроническими соматическими заболеваниями это создание дружественной эмоионально-комфортной, доверительной атмосферы для детей с формированием у них чувства защищенности, чтобы ребенок чувствовал эмоциональное сопереживание и понимание, принятие его как личности.

Как мы отмечали выше в целях выявления особенностей родительского отношения применяли методики «Я и мой ребенок» и PARI.

Анализ рисунков матерей больных детей показал, что у многих матерей как раз таки не хватает умения общаться со своим ребенком. Адекватное отношение к ребенку по рисункам выявлено лишь у нескольких матерей. По примерам рисунков видно, что многих мам не хватает умения общения со своими детьми, по отношению к больному ребенку можно увидеть либо индифферентное отношение (особенно в начале заболевания), либо чрезмерную ипохондрическую настороженность (в стадиях обострения болезни или при возникновении осложнений). А у матерей детей с циррозом печени выявлялись острые реакции на состояние ребенка, безнадежность, депрессивное состояние, страх потерять ребенка.

Изучение и анализ результатов методики изучения детско-родительских отношений показало, что в отношении к ребенку у родителей преобладает средний уровень оптимальной эмоциональной связи, высокий уровень эмоциональной дистанции и высокий уровень излишней концентрации на ребенке (Рис 1.).



Мы считаем, что при любом возрастном периоде у больных с хроническими соматическими заболеваниями особое внимание должно быть уделено семейной ситуации, взаимоотношению родителей, поскольку проблемные причины для больных детей коррелируют с родительскими конфликтами, неудовлетворительными отношениями с братьями и сестрами. Определяя подходы к исследованию межличностных отношений в семье, имеющей больного ребенка с хроническим соматическим заболеванием, мы предполагаем, что их оптимальное развитие определяется сложным взаимодействием многих факторов, в числе которых одним из важнейших являются особенности родительского отношения к ребенку: стиль отношений родителей к детям, их позиции и установки по отношению к ним. Межличностная дистанция в общении родителя с соматически больным ребенком по сравнению со здоровым сверстником является незначительной, либо отсутствует совсем. Родитель, имеющий больного ребенка с хроническим соматическим заболеванием, стремится к симбиотическим отношениям с ним (т.е., стремится удовлетворить все его потребности, оградить ребенка от трудностей и неприятностей в жизни, постоянно ощущает тревогу за ребенка, ребенок ему кажется маленьким и беззащитным). Очень важно оздоровить семью, гармонизировать отношения между ее членами. Полезно вовлечь членов семьи в общественную деятельность, создать терапевтическую среду, которая позволяет ребенку разрешать свои конфликты. С одной стороны, необходимо помочь родителям в исполнении ими родительских обязанностей, а с другой- ребенку в понимании ситуации и своих переживаний.

Реализация медико-психологических коррекционных мероприятий по нашему мнению, позволит оптимизировать особенности родительского отношения(уровень протекции, степень удовлетворения потребностей ребенка, количество и качество требований к ребенку в семье, неустойчивость стиля воспитания). Залогом эффективности программ социально-психологической адаптации детей и подростков с хроническими соматическими заболеваниями служит конкретная адресация психокоррекционных воздействий, основанная на данных медицинских и психофизиологических параметров, характера основного заболевания, наличии отклонений в состоянии нервно-психического здоровья, особенностях психологического развития, преморбидных психологических особенностей, установленного в результате углубленного психодиагностического исследования. Реабилитационные и абилитационные мероприятия, проводимые с детьми, больными хроническими соматическими заболеваниями должны способствовать полноценному восстановлению деятельности ребенка в социуме, повышению качества жизни, обеспечению социально-психологической адаптации детей.

Список литературы.

1. Куртанова Ю.Е. Система психологической реабилитации пациентов с различными соматическими заболеваниями [Электронный ресурс] // Психологическая наука и образование psyedu.ru. 2010. Том 2. № 5. С. 286-292.

2. Helgeson V.S., Cohen S. Social support and adjustment to cancer: reconciling descriptive, correlational, and intervention research // Health Psychology. 1996. Vol. 15. № 2. P. 135-148.

3. Psychological outcomes in long-term survivors of childhood brain cancer: A report from the childhood cancer survivor study / B. Zebrack [et al.] // Journal of Clinical Oncology. 2004. Vol. 22. № 6. P. 999-1006

4. Куртанова Ю.Е., Бурдукова Ю.А., Щербакова А.М., Щукина В.Д., Иванова А.А.Социальная адаптация детей с онкологическими заболеваниями// Современная зарубежная психология. 2020. Том 9. № 3. С. 127-138.

Kenjayeva Dilnozaxon Sadirdinovna
Qo‘qon davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALIK DAVRIDA SHAXSIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLAR RIVOJLANISHIDA INTERNETNING TA‘SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqola talabalik davrida shaxsiy hayot haqidagi tasavvurlar rivojlanishida internetning ta’siri mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola matnida talabalik davriga xos yosh xususiyatlar, kasbiy ma’lumot olish, internet tarmog‘idan fodalanish, internet tobelik, o‘z-o‘zini topish istagi, virtual muloqot, tobelikning inson organizmiga ta’siri kabi masalalar ham keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *talaba, ta’lim, oila, oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy tarmoq, internet olami, virtual muloqot, real dunyo, intellektual rivojlanish, kasbiy ta’lim, hayot tarzi, o‘qish faoliyati, shaxslararo muloqot, ong, charchoq, psixologik o‘zgarishlar, kasb.*

ВЛИЯНИЕ ИНТЕРНЕТА НА РАЗВИТИЕ ЛИЧНЫХ ЖИЗНЕННЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ В СТУДЕНЧЕСКИЙ ПЕРИОД

Аннотация. *Статья посвящена теме влияния Интернета на развитие представлений о личной жизни в студенческий период. Также в тексте статьи широко освещаются такие вопросы, как возрастные особенности студенческого периода, получение профессиональной информации, использование Интернета, интернет-зависимость, стремление найти себя, виртуальное общение, влияние зависимости на организм человека.*

Ключевые слова: *студент, образование, семья, семейные ценности, социальная сеть, интернет-мир, виртуальное общение, реальный мир, интеллектуальное развитие, профессиональное образование, образ жизни, учебная деятельность, межличностное общение, сознание, утомляемость, психологические изменения, профессия*.

THE INFLUENCE OF THE INTERNET ON THE DEVELOPMENT OF PERSONAL LIFE IDEAS DURING STUDENT PERIOD

Annotation. *This article is devoted to the topic of the influence of the Internet on the development of ideas about personal life during the student period. Also, the text of the article extensively covers issues such as age characteristics of the student period, obtaining professional information, using the Internet, Internet addiction, the desire to find oneself, virtual communication, the impact of addiction on the human body.*

Key words: *student, education, family, family values, social network, Internet world, virtual communication, real world, intellectual development, professional education, lifestyle, learning activities, interpersonal communication, consciousness, fatigue, psychological changes, profession.*

Kirish. Ma’lumki, talabalik davri inson hayotining alohida davri hisoblanib, kasbiy bilimlarni egallashning o‘ziga xos sikli sanaladi. Ya’ni inson ijtimoiy hayot uchun kerakli bilim va ko‘nikmalarni egallash yo‘lida kamol topa boradi. Oliy ma’lumot olish insonning nafaqat shaxsiy xususiyatlariga balki, motivatsion, emotsional hamda irodaviy sohalariga keng ta’sir etadi. Ana shunday ta’sirlardan biri bu internet tarmog‘i sanaladi. Intenet bugungi kun talabi, qolaversa butun dunyo undan foydalanmoqda. Hozirgi kunda fan yutuqlarini internetsiz tasavvur etish mushkul sanaladi. Ammo, internetga tobelik bugun yoshlar orasida keng uchramoqda. Jumladan, talabalar guruhi ham bundan mustasno emas. Talabalik davri o‘ziga xos nozik davr hisoblanib, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashda eng muhim davr sanaladi. Vaqtdan to‘g‘ri foydalanish esa, keyingi kasbiy faoliyatdagi ulkan yutuqlar garovidir. Biroq, internetga butunlay bog‘lanib qolish nafaqat xulq-atvor o‘zgarishlariga balki, organizm uchun xam ko‘plab xavflar olib kelishi ehtimoldan holi emas. Mazkur muammoning sabablari ko‘proq psixologik tadqiqotlarga muhtoj sanalib, uni tadqiq

etish internetga tobelik muammosi yuzasidan ko‘plab chora-tadbirlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Demak, mazkur muammo psixologik jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Mohiyatan, oliy ma’lumot inson psixikasiga, uning shaxs sifatida rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. B.G.Ananev fikricha, talabalik davri - bu insonning sotsial darajasini va ko‘rsatkichini rivojlantirish uchun eng muhim nozik davrdir . Universitetda o‘qish paytida, qulay sharoit mavjud bo‘lsa, talabalar psixikaning barcha darajalarini tez rivojlantiradilar. Ya’ni inson o‘z ongining yo‘nalishini aniqlaydi shuningdek, kasbiy yo‘nalishdagi kompetentlikni shakllantiradi. Universitetda muvaffaqiyatli o‘qish uchun intellektual rivojlanishning yuqori darajasi talab qilinadi, xususan idrok, xotira, tafakkur, diqqat, mantiqiy operatsiyalarni egallash darajasi va hokazo. L.F.Obuxovaga ko‘ra, talabalik davri kech o‘smirlikdan keyingi o‘spirinlik davridan boshlanib, u 18-25 yoshni qamrab oladi. Ye.N.Kamenskaya esa, talabalik davrini quyidagicha ta’riflaydi: “talabalar guruhi - bu maxsus ijtimoiy institut bo‘lib, universitet tomonidan tashkil etilgan maxsus insonlar jamoasidir”. Ya’ni talabalik o‘ziga xos yosh xususiyatlari bilan ajralib turadi, ular aholining boshqa qatlamidan ma’lumot darajasi, yuqori bilim qobiliyati,yuqori ijtimoiy faollik va intellektual yetuklik ko‘rsatkichlari bilan keng ajralib turadi. Psixologik rivojlanish nuqtai- nazaridan qaralganda, talabalik davri shaxsning jadal ijtimoiylashuvi, yuqori aqliy funksiyalarning rivojlanishi, intellektual tizimning dinamik shakllanish davridir.

O.A.Rakovskayaning ta’kidicha, agar talabalik davrini faqat biologik yosh jihatdan hisobga olsak, unda yoshlik davriga bolalik va balog‘at yoshidagi inson rivojlanishining o‘tish davri sifatida qarashimiz kerak. Shuning uchun xorijiy psixologiyada bu davr o‘sib-ulg‘ayish jarayoni deb ham ataladi. Yoshlikda, inson yuqori darajada samarali, eng katta jismoniy va ruhiy stresslarga bardosh bera oladi, intellektual faoliyatning murakkab usullarini o‘zlashtirishga ham qodir sanaladi. Bu esa, o‘z-o‘zidan ularning internet tarmog‘idan foydalanish bilan bog‘liq faoliyatini ham nazarda tutadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, 18-24 yosh - bu internet foydalanuvchilari va unga tobe bo‘lganlarning o‘rtacha yoshi hisoblanadi. Talabalar boshqa aholi guruhlariga qaraganda ko‘pincha quyidagi sabablarga ko‘ra internet xizmatlaridan foydalanadilar.

Avvalambor, bu seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar, imtihonlar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko‘rishdagi doimiy ravishda ma’lumotlarga ehtiyojdir. Darhaqiqat, internet bizga qulay, to‘liq va xilma-xil ma’lumotlarni taqdim etadi. Ya’ni Google, Yahoo, Yandex, Rambler kabi boshqa “qidiruv tizimlari” biz uchun kerakli ma’lumotlarni topishni osonlashtiradi. Bunday qulay muhit keyinchalik, yoshlarni kitoblardan, jurnallardan va boshqa manbalardan ma’lumot qidirishdan voz kechishga majbur qiladi va ularda internetning rolini yanada oshiradi.

Ikkinchidan, do‘stlar bilan uchrashish uchun vaqtning etishmasligi, ular bilan elektron pochta yoki turli xil ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilishga olib keladi. Talabalik davridagi yuqori ijtimoiy faollik xuddi shu tarmoq xizmatlaridan foydalangan holda, yangi tanishlarni qidirishda ham namoyon bo‘ladi. Turli virtual guruhlarda muloqot qilish imkoniyatlarining kengayishi talaba uchun muhim bo‘lgan ma’lum bir ijtimoiy maqomga ega bo‘lishga imkon beradi. Internet orqali muloqot qilish va tanishish oson, istalgan vaqtda uni amalga oshirish mumkin. Yu.D.Babayevaning fikricha, kompyuter va mobil telefonlar do‘stlar, tanishlar bilan muloqotda vaqtni tejashga yordam beradi, hatto bizni uydan chiqishimizga ham imkon bermaydi. Xuddi shu sababga ko‘ra, vaqt etishmasligi bois, internet tarmog‘i o‘yin-kulgi, dam olish, o‘qishdan chalg‘ish uchun ajoyib virtual maydonga aylangan. Shuningdek, turli xil videolar, rasmlar, musiqalar, o‘yinlar, suhbatlar hamda turli xil qiziqarli saytlarga tashrif buyurish - bularning barchasi internetda mujassamdir. Bunda moda, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa veb-servislar ham muhim rol o‘ynaydi .

O.N.Arestovaning ta’rificha, internetda har qanday lazzat va istak uchun ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan global tizimdir . Internetga ishtiyoqli talaba o‘qish faoliyatida va imtihonlarda muammolarga duch kelishi tabiiy.

Tadqiqotchilar P.Zalesskiy va M.Spektrlarning xulosalariga ko‘ra, talabalarning noma’lum saytlarga tez-tez tashrif buyurishi, tanishuv saytlarida soatlab vaqt o‘tkazishi, do‘stlar bilan suhbatlashishi va darslar o‘rniga ko‘p vaqt o‘yin o‘ynashlari o‘z navbatida, ularning o‘quv faoliyatiga salbiy ta’sir etadi. Mazkur holatda, talabaning barcha qiziqishlar internetga yo‘naladi va unga ko‘p vaqt sarflaydi, bu esa, uning kasbiy kamoloti rivojlanishini to‘xtatadi. Uni saytlardan boshqa hech

narsa qiziqtirmaydi. Enda talaba tarmoqqa sarflangan vaqtini nazorat qila olmaydi, shuningdek, u ko‘pincha o‘qish uchun yetarli vaqtga ega ham bo‘lmaydi, ba’zida esa, hatto kun buyi uxlaydi. Charchoq to‘planib qoladi, o‘qish va muammolar tufayli ular ko‘pincha asabiy tushkunlikni boshdan kechiradilar . Demak, internetga tobelik bu yerda ular faoliyatiga salbiy ta’sir etmoqda. A.Yu.Yegorovning ta’kidicha, internetdan hech bir qiyinchiliklarsiz yuklab olingan har qanday tayyor ishlar, kurs ishi va referatlar, qo‘lga qiritilgan tayyor boshqa topshiriqlar turkumi talabalar hayotini osonlashtiradi. Ammo bu holatda, ularning intellekti azob chekadi, yani ma’lumotni qidirish, uni mustaqil ravishda qayta ishlash va tizimlashtirish ko‘nikmalari yaxshi shakllanmaydi. Internetga tobelik tufayli muloqotda ham muammolar ham yuzaga keladi. Tarmoq orqali muloqot qilish istagi allaqachon, real hayotda shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Metodlar. Tadqiqotni amalga oshirishda bir nechta psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi. Ya’ni, V.Loskutovaning “Internetga qaramlikni o‘rganish” so‘rovnomasi, A.Jichkina va E. A. Shepilinalarning “Tugallanmagan jumlalar metodikasi”, Shmeshikning “Xarakter aksentuatsiyasini aniqlash” testi, hamda ma’lumotlarni qayta ishlashning matematik-statistik metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Yuqoridagilardan farqli o‘laroq, S.V.Krasnovaning ta’kidicha, tarmoqdagi muloqot insonda haqiqiy muloqotni buzadi, uni hissiyotlardan mahrum qiladi va ba’zida do‘stlar va qarindoshlar bilan “haqiqiy”aloqasini yo‘q qiladi.

1-jadval

Shaxs xarakter aksentuatsiyasi va tugallanmagan jumlalar so’rovnomalarining o’zaro aloqasi (K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti bo’yicha)

Shkalalar	Internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish	Vaqtni idrok etish	Internetning ijobiy xususiyatlarini anglash	Internetning salbiy xususiyatlarini anglash	Internetdagi axborotlarni tushunish
Gipertim	0,458*	0,537**	-0,258	0,538**	0,226
Xavotirlanuvchi	0,446*	-0,478*	0,225	0,476*	-0,465*
Distim	0,154	0,445*	0,573**	0,547**	-0,129
Rasmiy	0,138	0,447*	0,240	0,575**	-0,485*
Qo’zg’aluvchan	0,470*	0,196	-0,245	0,478*	0,569**
Emotiv	0,559**	0,276	-0,576**	0,547**	0,238
Rigid	0,223	0,434*	0,559**	0,460*	0,474*
Namoyishkor	0,585**	0,445*	0,585**	0,434*	-0,437*
Sikloid	0,158	0,456*	0,472*	0,456*	0,153
Ekzaltr	0,475*	0,273	0,446*	0,528**	0,476*

Izoh: * – $p \le 0,05$; ** – $p \le 0,01$; *** – $p \le 0,001$.

Shaxs xarakter aksentuatsiyasi va tugallanmagan jumlalar so’rovnomalarining o’zaro aloqasini o’rganishga qaratilgan natijalarga ko’ra, birinchi shkala gipertim shkalasi internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish, vaqtni idrok etish va internetning salbiy xususiyatlarini anglash shkalalari bilan, xavotirlanuvchi shkalasi internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish, vaqtni idrok etish, internetning salbiy xususiyatlarini anglash va internetdagi axborotlarni tushunish shkalalari bilan, distim shkalasi vaqtni idrok etish, internetning ijobiy xususiyatlarini anglash va internetning salbiy xususiyatlarini anglash shkalalari bilan, rasmiy shkalasi vaqtni idrok etish, internetning salbiy xususiyatlarini anglash va internetdagi axborotlarni tushunish shkalalari bilan, qo’zg’aluvchan shkalasi internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish, internetning salbiy xususiyatlarini anglash va internetdagi axborotlarni tushunish shkalalari bilan, emotiv shkalasi internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish, internetning ijobiy xususiyatlarini anglash va internetning salbiy xususiyatlarini anglash shkalalari bilan, rigid shkalasi vaqtni idrok etish, internetning ijobiy xususiyatlarini anglash, internetning salbiy xususiyatlarini anglash va internetdagi axborotlarni

tushunish shkalalari bilan, namoyishkor shkalasi internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish, vaqtni idrok etish, internetning ijobiy xususiyatlarini anglash, internetning salbiy xususiyatlarini anglash va internetdagi axborotlarni tushunish shkalalari bilan, sikloid shkalasi vaqtni idrok etish, internetning ijobiy xususiyatlarini anglash, internetning salbiy xususiyatlarini anglash shkalalari bilan, ekzaltr shkalasi internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish, internetning ijobiy xususiyatlarini anglash, internetning salbiy xususiyatlarini anglash va internetdagi axborotlarni tushunish kabi shkalalar bilan o'zaro aloqaga kirishgan.

Tarmoqdagi muloqot jarayoni – su'bektlarning bir-birlariga ma'lumotlarning banal ravishda uzatilishiga keng imkon yaratadi. Bunaday holat esa, talabaning kommunikativ qobiliyatiga ta'sir qiladi, haqiqatdan yangi odamlar bilan uchrashish, sinfdoshlar, o'qituvchilar, do'stlar va qarindoshlar bilan muloqotdagi qiyinchiliklarni paydo etadi. Keyinchalik, bunday talabalar barcha insonlar bilan muloqot qilish mahoratini yo'qotadi. V.Frindte hamda T. Kelerlarning tadqiqotlarida shu narsa aniqlanganki, tobe talabalar internetda biron bir ishdan xech xijolat qilmaydilar yoki ko'p narsadan cheklanmaydilar. Monitorning orqasida uni ko'rishning hech qanday usuli yo'q, bu esa o'zini erkin his qilishiga imkon beradi. Internetda ko'pchilik suhbatdoshlar uchun ideal "niqob"kiyib oladi, ya'ni boshqalar uchun o'ziga xos qiyofa yaratiladi.Ammo, hamma ham ushbu niqobni tan olmaydi, shunda talabalarda o'ziga ishonmaslik hissi shakllanadi. Muloqotdagi omadsizlik esa, internetga tobe talabalarda yolg'izlik hissi xavfini yanada oshiradi. Ba'zan, shaxsda xavotirlik kuchayadi va ko'p holatlarda tahdidli xulq-atvor kechadi. Har qanday kichik muammolar katta stress kabi qabul qilinadi. O'ziga past baho beradigan internetga qaram talabalar o'zlarini muvaffaqiyatsiz his qilishadi. Ular odatdagi vazifalarni hal qilish bilan cheklanib, qiyin maqsadlardan qochadilar. Ularning sa'y-harakatlari pasayadi,talablik maqomi kamayadi yoki oxir – oqibat bunday xususiyatli talabalar o'zlashtira olmay o'qishdan chetlashtiriladi. E.Faustovaning so'zlariga ko'ra, virtual muloqot orqali sheriklarni ko'rish va eshitish qobiliyati, isonga tarmoqdagi har qanday mavzuni erkin muhokama qilish imkonini beradi. Bunda ovozli aloqa emas, balki yozishmalar orqali muloqot keng imkon beradi. Ha, endi talaba o'z fikrini faqat yozma ravishda aytishga odatlanib qoladi va haqiqiy odamlar bilan gaplashishdan qo'rqa boshlaydi. Bunday vaziyat o'z-o'zidan ommaviy nutq zarur bo'lganda va imtihonlarga javob berishda, guruhning jamoaviy ishlarini muhokama qilishda, qarorlar qabul qilishni talab qiladigan majlislarda qatnashishda turli muammolarni keltirib chiqaradi .

Internetdan normal foydalanish R. Devisning fikriga ko'ra, sog'lom internet foydalanuvchilari aniq maqsadga ega va psixologik yoki kognitiv noqulayliklarga duch kelmasdan, internetda maqsadga erishish uchun oqilona va oz vaqt sarflashadi. Sog'lom internet foydalanuvchilari onlayn muloqotni, jonli muloqotdan tez ajratib olishadi. Internet ular uchun faqat foydali vositadir xolos. Internetdan patologik foydalanish muammosi psixologiya fanidagi juda yosh mummolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hozir hamma sohalar uchun dolzarb bo'lib bormoqda. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. Ayrim sabablarga ko'ra, tarmoqqa tashrif buyuruvchilarning asosiy qismini talabalar guruhi tashkil etadi. Ularning o'quv faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi eng katta xavf - bu internetga tobelik. Agar insonda internet bilan ishlashning sog'lom ko'nikmalari mavjud bo'lsa, unda hech bir virtual ma'lumot uning rivojlanishiga to'sqinlik qila olmaydi. Buning uchun o'z vaqtida bilim va malakalar zarurdir.

Xulosa. Internet bir tomondan yoshlarning bilim olishi va kasbiy kamolti uchun keng xizmat qiluvchi ulkan ma'lumotlar tizimi bo'lsa, ikkinchi tomondan ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir etuvchi virtaul olam sifatida gavdalanmoqda. Shuning uchun internetdan to'g'ri foydalanishga o'rgatish ishlari maktab davridanoq boshlanishi maqsadga muvofiq sanaladi. Shunday ekan, bir har pedagog va psixologlar mazkur muammo doirasida turli ma'rifiy tadbirlar, psixologik treninglar tashkil etishi va yoshlarda internet tarmog'i bilan oqilona ishlash ko'nikmalarini shakllantirib borishi o'ta muhim ishlar turkumidan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ананьев Б. Г. Психология и проблемы человекознания / под ред. А. А. Бодалева. – М. ; Воронеж, 1996. – 384 с. – С. 89.

2. Обухова Л. Ф. Возрастная психология : учебник для вузов. – 4-е изд. – М. : Педагогическое общество России, 2004. – 442 с. – С. 78.

3. Каменская Е. Н. Психология развития и возрастная психология : конспект лекций. – 2-е изд., перераб. и доп. – Ростов н/Д : Феникс, 2007. – 251 с. – (Зачёт и экзамен).

4. Раковская О. А. Социальные ориентиры молодёжи: тенденции, проблемы, перспективы. – М., 2004. – 176 с. – С. 53.

5. Бабаева Ю. Д., Войскунский А. Е. Психологические последствия информатизации // Психологический журнал. – 2005. – Т. 19, № 1. – С. 89–100.

6. Арестова О. Н., Бабанин Л. Н., Войскунский А. Е. Мотивация пользователей Интернета // Вторая Российская конференция по экологической психологии : тезисы докладов (Москва, 12–14 апреля 2008 г.). – М. : Экопсицентр РОСС, 2008. – С. 45–47.

7. Залесский П., Спектр М. Сколько нас? Какие мы? Портрет российской Интернет-аудитории // Мир Интернета. – 2004. – № 7–8. – С. 42–44.

8. Егоров А. Ю. Нехимические зависимости. – СПб. : Речь, 2007. – 352 с. – С. 61.

9. Краснова С. В., Казарян Н. Р., Тундалева В. С. Как справиться с компьютерной зависимостью. – М. : Эксмо, 2008. – 256 с. – (Серия «Бросить – легко!»). – С. 178.

10. Фриндте В., Келер Т. Публичное конструирование Я в опосредованном компьютером общении // Гуманитарные исследования Интернета / под ред. А. Е. Войскунского. – М., 2000. – С. 145–162.

11. Фаустова Э. Компьютер в жизни студента / Э. Фаустова // Высшее образование в России. – 2003. – № 1. – С. 87–90.

12. Orzack M. H. Computer Addiction Services [Электронный ресурс]. – 1996–2003. – Режим доступа: http://www.computeraddiction.com (дата обращения: 24.12.2025).

Xudoyqulova Ziyoda Anvarovna
O'zbekiston milliy universiteti Psixologiya kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI SHAROITIDA ME'YOR HISSI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bog'cha va maktab muhitining bolalarda me'yor hissi shakllanishiga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda me'yor hissining psixologik tuzilmasi, uning ijtimoiy, intellektual va estetik komponentlari hamda pedagogik jarayon bilan bog'liqligi yoritilgan. Bog'cha muhitida me'yor hissi kundalik tartib va ijtimoiy qoidalar orqali shakllansa, maktabda u intellektual va axloqiy jarayonlar bilan boyiydi. Konstruktiv o'yinlarning me'yor hissi rivojiga ta'siri alohida o'rganilib, me'yorning tabiiy shakllanish mexanizmlari ochib berilgan. Maqola yakunida me'yor hissining integrativ rivojlanishi bo'yicha ilmiy xulosalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *me'yor hissi, bog'cha muhiti, maktab muhiti, o'yin faoliyati, konstruktiv o'yinlar, psixologik rivojlanish, pedagogik omillar.*

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НОРМАТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ СФЕРЫ В УСЛОВИЯХ ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические механизмы формирования чувства меры у детей в условиях дошкольной и школьной образовательной среды. Анализируются структура чувства меры, его социальные, интеллектуальные и эстетические компоненты, а также влияние педагогических условий на его развитие. Показано, что в детском саду чувство меры формируется через распорядок дня и социальные правила, тогда как в школе оно усиливается за счёт интеллектуальной и нравственной регуляции поведения. Особое внимание уделено роли конструктивных игр как естественного средства развития чувства меры. Предложены выводы, раскрывающие интегративный характер данного процесса.*

Ключевые слова: *чувство меры, дошкольная среда, школьная среда, игровая деятельность, конструктивные игры, психологическое развитие, педагогические условия.*

FACTORS INFLUENCING NORMATIVE EMOTIONAL DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION SETTINGS

Abstract. *This article explores the development of the sense of measure in children within preschool and school environments. The paper analyzes the psychological structure of the sense of measure, including its social, intellectual, and aesthetic components, and highlights the role of pedagogical factors in its formation. In preschool settings, the sense of measure emerges through daily routines and social rules, while in school it is further strengthened through intellectual regulation and moral development. Special emphasis is placed on constructive play as a natural mechanism for developing the cognitive, social, and aesthetic aspects of the sense of measure. The study concludes with insights into the integrative nature of this developmental process.*

Key words: *sense of measure, preschool environment, school environment, play activity, constructive play, psychological development, pedagogical factors.*

Kirish. Bolalarda me'yor hissining shakllanishi psixologik rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u shaxsning xatti-harakatini tartibga solish, chegaralarni anglash, vaziyatga mos qaror qabul qilish va ijtimoiy qoidalarga ongli amal qilish qobiliyatini belgilaydi. Me'yor hissi tabiiy ravishda mavjud bo'lmaydi; u bola atrofidagi ijtimoiy muhit, pedagogik jarayonlar, kattalar bilan muloqot va kundalik faoliyat orqali asta-sekin shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari hamda maktablar bolada me'yor hissining rivojlanishi uchun eng muhim psixologik makon hisoblanadi. Chunki bu muhitda bola birinchi bor jamoa qoidalari, tartib, vaqt me'yorlari, ijtimoiy mas'uliyat, hamkorlik va o'zini boshqarish kabi jarayonlar bilan

muntazam to‘qnashadi. Shu sababli bog‘cha va maktab me’yor hissining shakllanishida nafaqat tarbiyaviy, balki psixologik jihatdan ham muhim omil sifatida ko‘riladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, me’yor hissining to‘g‘ri shakllanishi bolaning keyingi ta’lim motivatsiyasi, axloqiy yetukligi, o‘zini boshqarish qobiliyati va ijtimoiy moslashuv darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Demak, bog‘cha va maktab muhitidagi omillarni chuqur o‘rganish ta’lim sifatini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va muhit omillarining me’yor hissi shakllanishidagi roli

Bolalarda me’yor hissining shakllanishi muammosi xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda turli nazariy va empirik yondashuvlar asosida keng o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar me’yor hissini shaxs psixik rivojlanishining muhim integrativ komponenti sifatida talqin qiladi.

L.S. Vygotskiy me’yorni ijtimoiy kelib chiqishga ega bo‘lgan psixik funksiyalardan biri sifatida izohlaydi. Uning fikriga ko‘ra, bola ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida tartib-qoidalarni ichkilashtiradi va tashqi ijtimoiy talablar asta-sekin ichki psixologik mezonlarga aylanadi . Bu jarayon bolaning xulq-atvori, o‘zini boshqarish va ijtimoiy moslashuvining psixologik asosini tashkil etadi.

J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida esa me’yor tushunchasi bolaning intellektual rivojlanish bosqichlari bilan bog‘liq holda yoritiladi. Piagetga ko‘ra, konkret operatsion tafakkur bosqichida konservatsiya, nisbat, proporsiya va mantiqiy bog‘liqlik kabi tushunchalarning shakllanishi bolada me’yorni ongli ravishda anglash imkoniyatini kengaytiradi. Bu davrda bola faqat qoidalarga bo‘ysunmay, balki ularning mazmunini tushuna boshlaydi.

U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar modeli me’yor hissi shakllanishida atrof-muhit omillarining o‘zaro bog‘liqligini asoslab beradi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, oila, bog‘cha va maktab kabi mikrotizimlarning izchil va barqaror faoliyati bolaning psixik rivojlanishiga, jumladan me’yor hissining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mikromuhitdagi barqarorlik bolada xavfsizlik hissini kuchaytirib, ichki tartib va o‘zini boshqarish mexanizmlarining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Markova, Lyaxovich va Gutman tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kun tartibining tartibsizligi, psixologik yuklamaning notekis taqsimlanishi bolalarda me’yorni anglash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Bu holatlar bolaning ichki tartib tizimini beqarorlashtirib, xulq-atvorida nomuvofiqliklarga olib kelishi mumkin.

Grigoryeva tadqiqotlarida me’yor hissining estetik komponentlari alohida ta’kidlanadi. Uning fikricha, rang, shakl va kompozitsiya orqali uyg‘unlikni sezish bolalarda umumiy me’yorni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Estetik tajriba orqali bola tartib, muvozanat va moslikni nafaqat ko‘rish, balki his qilish darajasida o‘zlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, me’yor hissi kognitiv, estetik va axloqiy omillarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida rivojlanadigan murakkab psixologik hodisadir. Uning shakllanishida ta’lim muhiti hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta’lim muassasasida me’yor hissining shakllanishi, eng avvalo, kun tartibining izchilligi orqali namoyon bo‘ladi. Ovqatlanish, o‘yin, mashg‘ulot va uyquning muntazam vaqtga bog‘langanligi bola psixikasida tartib, barqarorlik va ritm sezgisini rivojlantiradi. Bu jarayon bolada vaqtni his qilish, kutish, sabr-toqat va o‘z xulqini nazorat qilish kabi muhim psixologik ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Bog‘cha muhitidagi ijtimoiy qoidalar - o‘yinchoqlarni bo‘lishish, navbat kutish, jamoa bilan faoliyat olib borish, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish - bolaning ijtimoiy me’yorlarni tushunishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu davrda bola me’yorlarni tashqi majburiyat emas, balki ichki tartib sifatida qabul qila boshlaydi. Pedagogning izchil, adolatli va xushmuomala munosabati esa me’yor hissining ichkilashuviga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, muhitdagi izchillikning buzilishi me’yor hissining notekis va beqaror shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Maktabga kirish bilan bolaning me’yor hissi yanada murakkablashadi. Endi me’yor faqat kundalik tartib yoki o‘yin qoidalari bilan cheklanmay, ta’lim jarayonining intellektual, axloqiy va ijtimoiy talablarini ham qamrab oladi. Dars jadvali, vaqtni rejalashtirish, baholash mezonlari, uy vazifalarining muntazamligi va sinfdagi intizom o‘quvchidan yuqori darajadagi o‘zini boshqarishni talab qiladi. Bu jarayonda bola vaqt me’yorini, mehnat me’yorini, xulq va muloqot me’yorlarini bosqichma-bosqich o‘zlashtiradi.

Bilim olish jarayonida “topshiriq to‘liq bajarilishi kerak”, “mantiqiy aniqlik muhim”, “bahoga mos mehnat qilish zarur” kabi ichki qoidalar shakllanib, kognitiv me’yor mustahkamlanadi. Piaget ta’riflaganidek, konkret operatsion tafakkur bosqichida ushbu jarayonlar ongli ravishda boshqarila boshlaydi.

Me’yor hissining shakllanishida pedagog asosiy psixologik model sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogning izchil talablari, adolatli baholashi va kommunikativ uslubi bolaning ichki mezonlarini shakllantiradi. Agar talablar barqaror va tushunarli bo‘lsa, me’yor hissi mustahkamlanadi; aks holda, noaniqlik va ichki tartibsizlik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli maktab va oila muhitlarining izchilligi shaxs rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

O‘yin faoliyati me’yor hissining eng tabiiy shakllanish maydoni hisoblanadi. Ayniqsa konstruktiv o‘yinlar - lego, kubiklar, mozaika va qurilish elementlari - orqali bola tartib, moslik, proporsiya va balans kabi me’yor elementlarini bevosita tajriba orqali o‘zlashtiradi. Bu jarayonda estetik va intellektual me’yorlar bir vaqtning o‘zida rivojlanadi, o‘yinning ijtimoiy qoidalari esa axloqiy me’yorni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, bog‘cha va maktab muhitida me’yor hissining shakllanishi tashqi qoidalarga bo‘ysunish bilangina cheklanmay, bolaning o‘z xatti-harakatlarini ongli boshqarishi, chegaralarni to‘g‘ri anglash va ijtimoiy normalarni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilishi bilan bog‘liq murakkab integrativ jarayondir. Ushbu jarayonni ilmiy asosda o‘rganish ta’lim tizimida samarali pedagogik yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – М.: Смысл, 2005. – 512 с.
2. Григорьева О.Н. Развитие чувства меры у детей в художественно-эстетической деятельности // Искусство и образование. – 2011. – №4. – С. 95–101.
3. Лурия А.Р. О мозге и психических процессах. – М.: МГУ, 2000. – 320 с.
4. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. – London: Routledge, 1999. – 260 p.
5. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Harvard University Press, 1979. – 330 p.
6. Маркова А.И., Ляхович А.В., Гутман М.Р. Образ жизни родителей как детерминанта здоровья детей // Гигиена и санитария. – 2012. – №2. – С. 55–61.
7. Эльконин Д.Б. Психология игры. – М.: Педагогика, 1978. – 304 с.
8. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, N.J.: Prentice-Hall, 1977. – 247 p.
9. Kohlberg L. The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice. – San Francisco: Harper & Row, 1981. – 550 p.
10. Bruner J. Acts of Meaning. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1990. – 181 p.

Zohidov Samandar Iskandar o‘g‘li
O’zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

MASOFAVIY TA’LIM TALABALARIDA QADRIYATLAR TIZIMINING NAMOYON BO‘LISHI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya. *Bugungi kunda masofaviy ta’limning jadal rivojlanishi ta’lim jarayonida shaxsiy, ijtimoiy va psixologik omillarning qayta ko‘rib chiqilishini talab etmoqda. Ayniqsa, talabalarning qadriyatlar tizimi, ularning qanday maqsadlarga intilayotganligi va bu maqsadlarga erishishda qanday vositalarni muhim deb bilayotganliklari va umuman ushbu qadriyatlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida markaziy o‘ringa chiqmoqda. Qadriyatlar tizimi shaxsning motivatsiyasi, xulq-atvori, o‘qishga bo‘lgan munosabati hamda ijtimoiy faolligi uchun asosiy psixologik regulyator sifatida qaraladi.*

Kalit so’zlar: *masofaviy ta’lim, Qadriyatlar tizimi, Talabalar, Shaxsiy avtonomiya, Moslashuvchanlik, Raqamli kompetensiya, Psixologik omillar*

THE MANIFESTATION OF VALUE SYSTEMS IN DISTANCE EDUCATION STUDENTS AND THE PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THEM

Abstract. *Today, the rapid development of distance education requires a reevaluation of personal, social, and psychological factors within the learning process. In particular, students’ value systems, the goals they strive to achieve, the means they consider important for attaining these goals, and the factors influencing the formation of these values have become central in modern pedagogy and psychology. The value system is regarded as a key psychological regulator of an individual’s motivation, behavior, attitude toward learning, and social engagement.*

Key words: *distance education, value system, students, personal autonomy, adaptability, digital competence, psychological factors*

ПРОЯВЛЕНИЕ СИСТЕМЫ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, НА НИХ ВЛИЯЮЩИЕ

Аннотация. *Сегодня стремительное развитие дистанционного образования требует пересмотра личностных, социальных и психологических факторов в образовательном процессе. В частности, система ценностей студентов, цели, к которым они стремятся, средства, которые они считают важными для достижения этих целей, а также факторы, влияющие на формирование этих ценностей, становятся центральными в современной педагогике и психологии. Система ценностей рассматривается как ключевой психологический регулятор мотивации, поведения, отношения к обучению и социальной активности личности.*

Ключевые слова: *дистанционное обучение, система ценностей, студенты, личная автономия, адаптивность, цифровая компетенция, психологические факторы*

Kirish. Qadriyatlar inson ongining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, shaxsning dunyoqarashi, qaror qabul qilishi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini belgilovchi markaziy psixologik kategoriya hisoblanadi. Qadriyat tushunchasi falsafa, sotsiologiya va psixologiya fanlarida turlicha talqin etilgan bo‘lsa-da, ularning barchasida qadriyatlar inson uchun muayyan obyekt, hodisa yoki xulq shaklining ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini ifodalovchi mezon sifatida qaraladi.

Ilmiy – psixologik manbaalarda qadriyatlar shaxsning ichki motivatsion tizimi sifatida namoyon bo‘lib, u nafaqat insonning hozirgi xatti-harakatlarini, balki kelajakka qaratilgan uzoq muddatli maqsadlarini, hayotiy pozitsiyasini va o‘zini o‘zi anglash jarayonlarini boshqaradi. Qadriyatlar orqali shaxs “nima muhim?”, “nimaga intilish kerak?” va “nimani tanlash lozim?” kabi savollarga javob topadi. Shu bois qadriyatlar tizimi shaxsning identikligi va psixologik barqarorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy psixologiyada M. Rokich, Sh. Shvartz, G. Hofsted kabi tadqiqotchilar qadriyat tushunchasini tizimli ravishda o‘rgangan. M. Rokich qadriyatlarni shaxsning barqaror e’tiqodi sifatida talqin qilib, ularni terminal(hayotiy maqsadlar) va instrumental (shu maqsadlarga eltuvchi xulq shakllari) qadriyatlarga ajratgan. Sh. Shvartz esa qadriyatlarni universal motivatsion yo‘nalishlarga asoslangan o‘n toifa orqali tasniflagan bo‘lib, ular o‘zaro murakkab ijtimoiy-psixologik munosabat shakllarida namoyon bo‘ladi.

Bugungi globallashuv davrida, ayniqsa, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi shaxs qadriyatlar tizimining shakllanish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Masofaviy ta’lim modeli kengayib borayotgan bir sharoitda talabalarning qadriyat yo‘nalishlari nafaqat an’anaviy pedagogik omillar bilan, balki onlayn muhit, virtual kommunikatsiya, mustaqil o‘qish dinamikasi va raqamli kompetensiyalar bilan ham belgilana boshlandi. Onlayn ta’lim jarayonida talabaning motivatsiyasi, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati, faoliyatning hamda xatti – harakat shakllliarining maqsadga yo‘naltirilganligi va mas’uliyati kabi individual psixologik xususiyatlar qadriyat tizimining qay tarzda namoyon bo‘lishiga bevosita ta’sir etadi.

Masofaviy ta’lim sharoitida talabalarning qadriyatlari an’anaviy auditoriya ta’limiga nisbatan ko‘proq mustaqillik, avtorefleksiya, texnik vositalardan foydalanish madaniyati, vaqtni boshqarish, axborot xavfsizligi, virtual muloqot etikasi kabi jihatlar bilan boyigan. Shu sababli, talabalarning qadriyat tizimini o‘rganish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishini tushunish, balki masofaviy ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Qadriyat tushunchasining nazariy talqini va masofaviy ta’lim sharoitidagi psixologik ahamiyati

“Qadriyat” tushunchasi falsafa, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik fanlarida turlicha talqin qilinadi. Shunga qaramay, mazkur yondashuvlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, qadriyatlar shaxs hayot faoliyatini yo‘naltiruvchi, uning maqsadlari, e’tiqodlari, motivlari va xulq-atvorini belgilovchi asosiy ichki prinsiplar majmuasini tashkil etadi. Aynan qadriyatlar orqali inson hayotga, jamiyatga va o‘z-o‘ziga munosabatini shakllantiradi, tanlov va qarorlar qabul qiladi, o‘quv motivatsiyasi hamda kasbiy yo‘nalganligini belgilaydi. Shu bois qadriyatlar shaxsning “ichki kompas”i sifatida qaraladi.

Ilmiy adabiyotlarda qadriyatlarning bir nechta muhim funksiyalari ajratib ko‘rsatiladi. Avvalo, qadriyatlar yo‘naltiruvchi funksiya bajarib, shaxsning harakatlari va qarorlariga ma’lum yo‘nalish beradi. Inson nimani muhim deb bilsa, o‘z faoliyatini aynan shu yo‘nalishda tashkil etadi. Ikkinchidan, qadriyatlar regulyativ funksiya orqali xulq-atvorni boshqaradi. Mas’uliyat, halollik, hurmat va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar shaxsning kundalik xatti-harakatlarini tartibga solib, uning o‘ziga va boshqalarga bo‘lgan munosabatini muvofiqlashtiradi. Uchinchi muhim funksiya mazmun beruvchi funksiya bo‘lib, qadriyatlar faoliyatga ichki ma’no baxsh etadi. Masalan, bilim olishni qadrlagan talaba uchun o‘qish jarayoni shunchaki majburiyat emas, balki shaxsiy rivojlanish vositasiga aylanadi. To‘rtinchidan, qadriyatlar integrativ funksiya bajarib, shaxsning motivatsiyasi, e’tiqodlari va maqsadlarini yagona psixologik tizimga birlashtiradi.

Qadriyatlar nazariyasida M. Rokichning yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Uning tasnifiga ko‘ra, qadriyatlar terminal va instrumental qadriyatlarga bo‘linadi. Terminal qadriyatlar inson erishmoqchi bo‘lgan oxirgi hayotiy maqsadlarni, ya’ni baxt, muvaffaqiyat, o‘zini rivojlantirish, jamiyatga foydali bo‘lish, xavfsizlik va barqarorlik kabi holatlarni ifodalaydi. Ular hayotning mazmuni nimada ekanligiga javob beradi. Instrumental qadriyatlar esa ushbu maqsadlarga erishish jarayonida namoyon bo‘ladigan xulq-atvor me’yorlarini, ya’ni mas’uliyat, halollik, qat’iyat, mustaqillik, intiluvchanlik va ijodkorlikni o‘z ichiga oladi. Ular maqsadga qanday erishish kerakligini belgilab beradi hamda shaxs faoliyati davomida murakkablashib boradi. Rokich nazariyasiga ko‘ra, qadriyatlar shaxs hayot yo‘nalishini belgilovchi ustuvor e’tiqodlar bo‘lib, ular ierarxik tizimni tashkil etadi. Tadqiqotlarda talabalar orasida aynan o‘zini rivojlantirish, mustaqillik, ijodkorlik va mas’uliyat kabi qadriyatlar yetakchi o‘rin egallashi qayd etilgan.

Sh. Shvarts tomonidan ishlab chiqilgan universal qadriyatlar modeli esa qadriyatlarni o‘nta asosiy kategoriya orqali tahlil qiladi: o‘zini boshqarish, stimulyatsiya, gedonizm, yutuq, boshqaruvchanlik, an’ana, konformizm, xavfsizlik, xayrixohlik va universalizm. Ushbu model yoshlar qadriyatlarini o‘rganishda eng ko‘p qo‘llaniladigan nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar masofaviy

ta’lim sharoitida ayniqsa xavfsizlik, mustaqillik va yutuq qadriyatlarining kuchayishini ko‘rsatmoqda. Bu holat masofaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi, chunki onlayn ta’lim jarayonida talabaning mustaqil ishlashi, shaxsiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi va o‘z faoliyatini o‘zi boshqarishi talab etiladi. Natijada ijtimoiy fikr almashinuvi va hamfikrlilik nisbatan kamroq rivojlanishi, shaxsiy yo‘naltirilgan qadriyatlar esa kuchayishi mumkin.

Raqamli muhitda ta’lim olish shaxsdan o‘zini boshqarish, vaqtni rejalashtirish, mustaqil qaror qabul qilish va mas’uliyatni talab qiladi. Shu sababli masofaviy ta’lim oluvchi talabalarda qadriyatlar tizimida mustaqillik, o‘zini rivojlantirish va maqsadga intilish kabi qadriyatlar yaqqolroq namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Kohnke va Moorhouse (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham masofaviy ta’lim sharoitida o‘qiyotgan talabalarning qadriyat yo‘nalishlari va o‘quv jarayoniga moslashuvi borasida muhim empirik dalillarni taqdim etadi. Mualliflarning ta’kidlashicha, masofaviy ta’lim oluvchilar o‘z o‘quv faoliyatini mustaqil rejalashtirish, vaqtni boshqarish, shaxsiy mas’uliyatni oshirish va avtonomiyani rivojlantirishda an’anaviy auditoriya talabalari bilan solishtirganda muayyan ustunliklarga ega bo‘ladi. Bu holat Rokichning instrumental qadriyatlar haqidagi qarashlari bilan hamohang bo‘lib, masofaviy ta’limda aynan mas’uliyat, tartiblilik va o‘zini boshqarish kabi qadriyatlar kuchayishini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, masofaviy ta’lim jarayoni talabalarda moslashuvchanlik va raqamli kompetensiya kabi zamonaviy qadriyatlarning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jihatlar Shvarts modelidagi “self-direction” (mustaqillik) va “stimulation” (yangilikka ochiqlik) qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, onlayn muhitda talaba o‘z ta’lim trayektoriyasini mustaqil boshqarishga majbur bo‘ladi. Natijada qadriyatlar tizimi transformatsiyaga uchrab, raqamli muhit talablariga moslashgan holda qayta shakllanadi. Bu jarayonni Hofstede madaniy o‘lchamlar nazariyasi doirasida ham izohlash mumkin, chunki global onlayn ta’lim makonida individual mas’uliyat, noaniqlikni boshqarish va texnologiyalarga ochiqlik tobora kuchayib bormoqda.

Psixologik tadqiqotlar shaxs xususiyatlari va qadriyatlar tizimi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ham ko‘rsatadi. “Katta Beshlik” shaxs modeli doirasida ochiqlik ijodkorlik va mustaqillik qadriyatlari bilan, vijdonlilik mas’uliyat va yutuqqa intilish bilan, ekstraversiya ijtimoiy aloqa va stimulyatsiya bilan, moslashuvchanlik xayrixohlik va universalizm bilan, nevrotiklik esa xavfsizlik va an’anaga yo‘naltirilgan qadriyatlar bilan bog‘liq ekani aniqlangan.

Umuman olganda, qadriyatlar tizimi shaxsning motivatsiyasi, o‘quv faolligi va o‘zini boshqarish strategiyalarini belgilovchi markaziy psixologik tuzilma hisoblanadi. Masofaviy ta’lim sharoitida esa talabalarda mustaqillik, avtonomiya va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan qadriyatlar kuchayadi, ijtimoiy yo‘naltirilgan qadriyatlardan shaxsiy yo‘naltirilgan qadriyatlarga o‘tishda muayyan farqlar yuzaga keladi. Shu bois masofaviy ta’limni nafaqat texnologik, balki psixologik-madaniy fenomen sifatida o‘rganish, qadriyatlarga asoslangan yondashuvni qo‘llash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Feather, N. T. (1995). Values, valences, and choice: The influences of values on the perceived attractiveness and choice of alternatives. Journal of personality and social psychology, 68(6), 1135.

2. Schwartz, S. H. (2012). An overview of the Schwartz theory of basic values. Online readings in Psychology and Culture, 2(1), 11.

3. Hodges, C. B., & Fowler, D. J. (2020). The covid-19 crisis and faculty members in higher education: from emergency remote teaching to better teaching through reflection. International Journal of Multidisciplinary Perspectives in Higher Education, 5(1), 118-122.

4. Garris, C. P., & Fleck, B. (2022). Student evaluations of transitioned-online courses during the COVID-19 pandemic. Scholarship of Teaching and Learning in Psychology, 8(2), 119.

5. Parks-Leduc, L., Feldman, G., & Bardi, A. (2015). Personality traits and personal values: A meta-analysis. Personality and Social Psychology Review, 19(1), 3-29.

Maxkamova L.M

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi
E-mail: laylowa0597@gmail.com

INSULT KASALLIGI NATIJASIDA VUJUDGA KELUVCHI NUTQ BUZILISHLARI VA UNING TURLARI

Annotatsiya. *Maqolada insult xastaligiga chalingan bemorlarda kasallikdan keyingi davrda yuzaga keluvchi nutq buzilishlari va ularning namoyon bo'lishiga ko'ra turlari yoritib berilgan. Shuningdek erta diagnostika va individual reabilitatsiya yondashuvlarining ahamiyati haqida atroflicha fikr mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq buzilishlari, insult, afaziya, alaliya, bosh miya yarimsharlari, reabilitatsiya, korreksiya.*

SPEECH DISORDERS RESULTING FROM STROKE AND THEIR TYPES

Abstract. *The article examines speech disorders that emerge in patients during the post-stroke period and outlines their types based on specific patterns of manifestation. It also provides a detailed discussion of the importance of early diagnosis and the role of individualized rehabilitation approaches that contribute to more effective restoration of speech function.*

Key words: *speech disorders, stroke, aphasia, alalia, cerebral hemispheres, rehabilitation, correction.*

ПОСТИНСУЛЬТНЫЕ РЕЧЕВЫЕ РАССТРОЙСТВА И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются речевые нарушения, возникающие у пациентов в постинсультный период, а также их виды в зависимости от особенностей клинического проявления. Подробно анализируется значение ранней диагностики и необходимость индивидуальных реабилитационных подходов, обеспечивающих более эффективное восстановление речевой функции.*

Ключевые слова: *речевые нарушения, инсульт, афазия, алалия, полушария головного мозга, реабилитация, коррекция.*

Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda afaziya muammosi va uni bartaraf etishga qaratilgan tadqiqotlar psixologlar, neyropsixologlar, nevrologlar va logopedlar, lingvistlar va boshqa tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelayotir. Mazkur muammoga qiziqishning asosiy sabablaridan biri bosh miya faoliyatining asosiy mexanizmlarini aniqlash, nutqning miya bilan aloqadorligi uning psixofiziologik mexanizmi va boshqa oliy psixik faoliyatlar bilan bog'liq tarzda o'rganishdir. Bundan tashqari nutq jarayonidagi defektlarning vujudga kelishi shaxsning mehnat layoqatini yo'qotishga olib kelayotgani ushbu muammoni bartaraf etish chora tadbirlarini ishlab chiqishni tadqiqotchilar oldidagi muhim vazifa sifatida yuzaga chiqarmoqda. Nutq faoliyati mana bir necha yuz yillardan beri o'rganilib kelinayotganiga qaramasdan xali hamon to'liq o'rganilmagan sohalardan biri sanaladi. Nutq faoliyatini o'rganish borasida dastlab nevrologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar o'zining yetarli samarasini bermagandan so'ng psixologiya, psixolingvistika kabi sohalar tomonidan faol tadqiq etila boshlandi.

Nutq faoliyatidagi buzilishlarni tadqiq etgan mashhur olimlardan biri A.R.Luriya sanaladi.

A.R.Luriyaning tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki nutq bu sodda tuzilishga ega bo'lgan oddiy obrazlarning assotsiatsiyalari yoki so'zlarning tovushlarda ifodalanishi emas balki nutq jarayonida qo'llaniluvchi birgina so'zning o'zi murakkab xususiyatga ega bo'lgan maxsus kodlangan yakka tushunchalar tarzda kelishi, ular faqatgina ma'lum narsa yoki predmetlarni emas balki uning tahlili va umumlashmasini o'z ichiga olishi aniqlangan. Nutqning psixofiziologik asosini funksional tizimlar, nutq hosil bo'lish jarayoni davomida afferent tizimlar va ularning davomli tarzda innervatsiya tizimlariga o'tishi va nutq faoliyatini tashkil topishini ta'minlovchi jarayonlarni o'z ichiga oluvchi

murakkab fiziologik mexanizmlar tashkil etadi. Mazkur jarayonlarni o‘rganishga doir olib borilgan tadqiqotlar afaziyalarning patogenezi, strukturasi va mexanizmlarini o‘rganish imkoniyatini berdi .

Ammo shunga qaramasdan affaziya turlari va ularning namoyon bo‘lishiga doir bahs munozaralar bugungi kunda ham olimlar o‘rtasida davom etib kelmoqda. Sobiq sovet olimlari A.R.Luriya, A.S.Vigotskiy, A.N.Leontev va ularning maktablari tomonidan afaziya va uning namoyon bo‘lishi borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlardan kelib chiqqan holda nutq reabilitatsiyasi jarayonini samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi uch jihatga alohida e'tibor qaratish lozimligi e'tirof etiladi .

Birinchi e'tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihat nutqning defekti sanaladi. Mazkur jihatni tadqiq etish jarayonida asosiy urg’u nutq buzilishining keltirib chiqaruvchi omillariga va uning ko’rinishlarining yuzaga kelishining psixofiziologik jarayonlariga qaratilishi lozim.

Ikkinchidan afaziyaning boshqa psixik holatlar bilan o’zaro aloqadorligi hamda ular o’rtasidagi o’zaro ta’sirlashuv jarayoni diqqat markazimizda bo’lishi kerak. Unda yuzaga kelgan nutq buzilishi boshqa psixik jarayon va holatlarga (idrok, xotira, tafakkur, shaxslilik va irodaviy sohalar) da qay darajada o’zgarishlarga sabab bo’lyapti. Va nihoyat uchinchi eng asosiy va kam o‘rganilgan jihat bemor shaxsi, unda defekt vujudga kelganidan so‘ng bo‘ladigan o‘zgarishlar va bu o‘zgarishlarning afaziya namoyon bo‘lishiga ta'siri .

Afaziyalarni tadqiq etish sohalaridagi eng so’nggi ilmiy izlanishlar natijasini tahlil etar ekanmiz nutq buzilishlariga sabab bo’luvchi omillar va uning ko’rinishlari, tuzilishi mavzusidagi ilmiy izlanishlar olib borilar ekan muloqot jarayonini shaxs faolligining bir turi sifaida olib qaralishini taqazo etadi.

Boshqa bir qarashlarda insondagi eng oliy psixik funktsiyalar faoliyatini qayta tiklash jarayonining samaradorligini oshirish uchun avvalo korreksion tadbirlarning ilmiy asosi, prinsiplari, metodlari, tashkil etish shakllarini bemor shaxsi va uning sotsiumdagi tuzilmasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish kerakligi ilgari suriladi.

Uchinchi yo’nalish vakillari tomonidan esa, oliy psixik funksiyalarning buzilishlariga (agnoziya, afaziya, apraksiya) qayta tiklovchi chora sifatida sotsial-psixologik yondashuv talab etilishini e'tirof etadilar. Bugungi kunga kelib ham afaziyalarni korreksiya qilishda sotsial yondashuvning asosiy tushuncha va sohalari yetarlicha tadqiq etilmayotgani, afaziyalarni tadqiq etish yuzasidagi izlanishlarning mukammal jihatdan amalga oshirilishi uchun asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib kelmoqda . Korreksion mashg‘ulotlarni kichik sotsial guruhlarda tashkil etish va nutq yetishmovchiligа ega bemorlar o‘rtasida muloqotni tashkil etishga doir urinishlar nutqni qayta tiklash borasidagi olib boriluvchi ishlarning samaradorligini oshirishi shubxasizdir. Nutq tiklanishida guruh bo‘lib ishlash nafaqat emotsional sohaning mo‘tadillashishiga balki guruhda to‘g‘ri nutqiy muhitni tashkil etilishiga ham olib keladi. So’nggi yillarda nutqning ikki mustaqil ko‘rinishlari farqlanadi .

Nutq og‘zaki va yozma shakllarda namoyon bo‘lib, og‘zaki nutq dialogli yoki monologli ko‘rinishda yuzaga kelishi mumkin. Nutqning og‘zaki shakli, odatda, erkin (mustaqil) bayon, diktant tarzidagi tashqi ta’sir ostida yozilgan matn, shuningdek, oldindan tayyorlangan matnni o‘qib berish kabi holatlarda kuzatiladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yozma nutqning shakllanishi va rivojlanishida og‘zaki nutq asos vazifasini bajaradi. Shu sababli nutq komponentlarida yuzaga keladigan buzilishlar xarakteriga ko‘ra lingvistik jihatdan bir necha turga ajratiladi.

Birinchidan, fonetik buzilishlar uchraydi. Bunda bir yoki bir nechta tovushlarning noto‘g‘ri talaffuz qilinishi kuzatiladi: shalpillovchi yoki hushtakchali talaffuz, tilning oraliq va orqa sohasida hosil bo‘ladigan tovushlarda xatolar, undosh tovushlarning sirg‘aluvchanligi, talaffuzning haddan tashqari qattiqlashishi, jaranglilikning pasayishi yoki urg‘uni to‘g‘ri bera olmaslik bilan bog‘liq o‘zgarishlar shular jumlasidandir.

Ikkinchidan, leksik-grammatik buzilishlar kuzatiladi. Bu holat lug‘at zahirasining chegaralanganligi, iboralarni qo‘llashdagi qiyinchiliklar, gap qurilishidagi (konstruktsiyadagi) buzilishlar, kelishiklarni o‘z o‘rnida ishlatmaslik yoki ortiqcha qo‘llash, so‘zlarni chala ishlatish, so‘z tartibini almashtirib yuborish kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bunday buzilishlar nutqning mazmuniy aniqligi va grammatik to‘g‘riligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, kuy-intonatsiya hosil bo‘lishidagi buzilishlar ajratiladi. Bu holatda urg‘uning noto‘g‘ri qo‘llanishi (so‘zdagi grammatik urg‘u yoki iboradagi mantiqiy urg‘u), shuningdek, ovoz tembri, balandligi va kuchliligi bilan bog‘liq kamchiliklar kuzatiladi. Masalan, bo‘g‘iq ovoz, modullashmagan, vilqillovchi yoki vilzillovchi ovoz, cheklangan tembr, past ovoz, mazmunga mos intonatsiyaning shakllanmasligi kabi belgilar qayd etilishi mumkin.

To‘rtinchidan, nutq tempi va ritmiga oid buzilishlar uchraydi. Bunda nutqning tezlashuvi (taxilaliya) bosh miya po‘stlog‘ida stimullarga javob reaksiyasining impulsivligi ustun kelishi bilan izohlanadi. Aksincha, nutq tempining sekinlashuvi (bradilaliya) tormozlanish jarayonlarining kuchayishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ayrim hollarda tempdagi uzilishlar, beqarorlik va ritmik nomuvofiqliklar ham kuzatiladi.

Beshinchidan, yozma nutq faoliyatidagi buzilishlar alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Bu holat aytib turilgan matnni noto‘g‘ri ko‘chirish yoki to‘liq yoza olmaslik, ayrim so‘zlarni tushirib qoldirish, so‘zlarni aralashtirib yozish, gap tarkibidagi so‘zlarni qayta-qayta betartib joylashtirish, satr bo‘ylab tekis yozolmaslik kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, o‘qish jarayonidagi buzilishlar ham uchraydi: tovushlarni almashtirib yoki aralashtirib yuborish, harflarni alohida-alohida hijjalab o‘qish, so‘z ichidagi bo‘g‘inlarni noto‘g‘ri o‘qish, o‘qilgan matn mazmunini anglay olmaslik, shuningdek, grammatik xatolarni ko‘p uchratish shular jumlasidandir.

Nutq markazlari bosh miyada joylashgan bo‘lib, ayrim jarohatlar, travmalar yoki qon quyilishlari natijasida ushbu markazlar zararlansa, buning asorati sifatida afaziya yuzaga kelishi mumkin. Afaziya bosh miya nutq markazining qaysi qismi zararlanganligiga qarab turlicha namoyon bo‘ladi. Afaziyalarni tasniflashda, odatda, to‘rtta mezon asos qilib olinadi: vujudga kelgan nuqsonning tahlili (keltirib chiqaruvchi omillar va asosida yotuvchi buzilishlar), klinik ko‘rinish, afaziyaning psixologik tavsifi hamda afaziya natijasida shakllangan neyropsixologik sindrom.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, insultdan so‘ng yuzaga keladigan nutq buzilishlari bemorning ijtimoiy hayoti, psixologik holati va o‘z-o‘zini anglashiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Afaziya, apraksiya, dizartriya va boshqa nutq nuqsonlari kelib chiqish sabablari, asosiy belgilari hamda tiklanish dinamikasi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Shu bois ularni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘ri tasniflash reabilitatsiya samaradorligini oshirib, bemorning nutq funksiyalarini tiklash jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Лурия А. Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга. – Москва : Изд-во МГУ, 2002. – 512 с.
2. Трошин В. Д., Кожевникова Е. А. Нейропсихология афазий : диагностика и реабилитация. – Санкт-Петербург : Речь, 2017. – 320 с.
3. Глезер В. Д. Клиническая нейропсихология. – Москва : Академия, 2014. – 256 с.
4. Goodglass H., Kaplan E. The Assessment of Aphasia and Related Disorders. – Philadelphia : Lea & Febiger, 1983. – 114 p.

Mirzayev Olim Saforovich
O‘zbekiston Milliy universiteti Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

SHAXS PSIXOLOGIK QIYOFASINI TUZISHDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH AMALIYOTI

Annotatsiya. *Mazkur maqola shaxs psixologik qiyofasini tuzishda proyektiv metodikalardan foydalanish amaliyoti mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola mazmunida proyektiv metodikalar va ularning ilmiy asoslanishi, proyektiv metodikalarni tasniflashdagi ilmiy an’analar, proyektiv tashxis va psixologik qiyofa amaliyoti, proyektiv metodikalarni mahalliy muhitda qo‘llashning psixodmetrik mezonlari, inson proyeksiyalari va uning namoyon bo‘lish mexanizmlari, proktiv tashxis amaliyoti va uning tarixi kabi masalalar ham keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *proyeksiya, proyektiv metodikalar, proyektiv tashxis, psixodiagnostika, metodika, shaxslilik so‘rovnomasi, tadqiqot, zamonaviy psixologiya, psixometrika, standart norma, modifikatsiya.*

ПРАКТИКА ПРИМЕНЕНИЯ ПРОЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ФОРМИРОВАНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *Статья посвящена теме практики применения проективных методов для построения психологического портрета личности. В статье также рассматриваются проективные методы и их научное обоснование, научные традиции классификации проективных методов, практика проективной диагностики и психологического профилирования, психометрические критерии применения проективных методов в условиях локальной среды, человеческие проекции и механизмы их проявления, практика проективной диагностики и её история.*

Ключевые слова: *проекция, проективные методы, проективная диагностика, психодиагностика, методология, личностный опросник, исследование, современная психология, психометрия, стандарт, модификация.*

PRACTICE OF USING PROJECTIVE METHODS IN FORMING A PERSON'S PSYCHOLOGICAL PROFILE

Annotation. *This article is devoted to the topic of the practice of using projective methods in constructing a psychological profile of a person. The article also covers projective methods and their scientific justification, scientific traditions in classifying projective methods, projective diagnosis and psychological profiling practice, psychometric criteria for using projective methods in a local environment, human projections and mechanisms of their manifestation, projective diagnosis practice and its history.*

Key words: *projection, projective methods, projective diagnosis, psychodiagnostics, methodology, personality questionnaire, research, modern psychology, psychometrics, standard norm, modification.*

Kirish. Proyektiv metodikalardan zamonaviy psixologik tadqiqotlarda keng foydalanish, hozirga qadar bahsbop masala bo‘lib kelmoqda. Chunki mazkur metodikalar shaxsning ongsiz jihatlarini (motivlar, nizolar, o‘ziga bo‘lgan ishonch) kabi sifatlarni chuqur o‘rganishga imkon beradi va tor imkoniyatli testlardan farqli o‘laroq, proyektiv metodikalar yaxlit nuqtai-nazarni taqdim etadi. Biroq, ulardan foydalanish o‘ziga xos yondashuvni talab etib, bunda avvalambor psixolog mutaxassislarning yuqori bilim darajasi, mahorati va malakalari talab etiladi. Hozirga qadar, ayrim proyektiv metodikalarni mahalliy muhitga moslashtirish masalasi, dolzarb vazifa sifatida ko‘rilmoqda. Proyektiv metodikalar so‘nggi paytlarda, psixologik amaliyotda keng doiralarida tobora ommalashib bormoqda. Zamonaviy psixodiagnostika amaliyotida proyektiv usullarning ahamiyati shundaki, ular

boshqa sinov usullaridan murakkablik xarakteri va ekspressiv tashxis quyish imkoniyati ancha farq qiluvchi metodikalardan biridir. Biroq, proyektiv metodlarga qiziqishning umumiy o‘sishiga qaramay, ularning keng tarqalgan va nazoratsiz tarqalishiga moyillik mavjud, bu tabiiyki, "subyektning baholash protseduralarini “beparvolik bilan” qabul qilish xavfiga olib keladi. Bundan tashqari, ko‘pincha qo‘llaniladigan usullar qisqa vaqt ichida ishlab chiqilgan va to‘g‘ri sinovdan o‘tkazilmagan, bu esa ular bilan olingan ma’lumotlarning ishonchliligiga muqarrar ravishda ta’sir qiladi. Ilmiya adabiyotlar va to‘g‘ridan to‘g‘ri diagnostika amaliyoti tahlili zamonaviy sharoitlarda proyektiv diagnostika usullarini ishlab chiqish va qo‘llashda duch keladigan muammolarni aniqladi. Masalan, eng keng tarqalgan muammolardan biri an’anaviy ravishda “proyektiv metodikalar”ni ommabop xarakterdagi psixodiagnostik vositalar deb ta’riflash mumkin. Proektiv metodikalar yaratilish tarixi – bu proektiv usullar takomillashuv asosini xususiyatlarini aks ettiruvchi xronologiya hisoblanib, shaxs xususiyatlarini tushuntirishning bir butun yondashuv sifatida o‘rganish tarixiga taalluqli va uni metodikalarini qamrab oladi.

Proektiv metodikalar dastlab klinik sharoitlarda yaratilgan bo‘lib, ularning ba'zilari art-terapiya hamda boshqa terapevtik usullar asosida rivojlantirilgan. Psixolog L.F.Burlachukning fikricha, G.Myurrey tomonidan ishlab chiqilgan tematik apperasiya testi (TAT) birinchi proektiv usul hisoblanib, unda proeksiyaning nazariy tamoyiliga asoslanilgan. Keyinchalik tadqiqotchi L.Frank tomonidan birinchi marta proeksiya tushunchasi qo‘llanilgan bo‘lib, bir qator metodikalarni aks ettirishda qo‘llanilgan. Biroq proeksiya nazariyasi psixodiagnostika metodikalaridan farqli o‘laroq o‘zini shaxsiy rivojlanish tarixiga ega bo‘lib, proektiv metodikalar sifatida nomlanadi. An'anaviy tarzda hisoblanishicha, proektiv metodikalarning yaratilishida etakchi tadqiqotlar sifatida V.Vundt va F.Galtonning ishlari hisoblanadi. Aynan ular erkin tarzdagi “tilga oid” assotsatsiya usulidan birinchi marta foydalanganlar. Ammo ularning tadqiqotlari maqsadi – so‘z – qo‘zg‘atuvchilarga nisbatan reaksiya tezligini va tavsifini o‘rganishdan iboratdir. Bu tadqiqot boshqa tamoyilga asoslangan bo‘lib, shaxsni tadqiq qilishning proektiv usulidan farqli ravishda tashqi o‘xshashligini hisobga olmaganda, hech qanday umumiylikka ega emas.

Ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan taxmin qilinishicha, birinchi proektiv test va ushbu so‘zning mazmuni 1904 – 1905 yillarda K.G.Yung tomonidan yaratilgan erkin assosiasiya testiga borib taqaladi. Aynan, K.G.Yung tomonidan barcha proektiv metodikalarning asosini tashkil qiluvchi dalillar yaratilgan bo‘lib, ushbu dalillar orqali inson hulq – atvori “komplekslari” va kechinmalari bo‘yicha ahamiyatga ega sohalarga bilvosita ta'sir ko‘rsatish va tadqiqotda o‘zgarishlarni yuzaga keltirish imkoniyati tug‘iladi. K.Yung tahlillarida shaxsning ongsiz ravishdagi kechinmalari ob'ektiv diagnostikasi aks etgan.

Lekin, ba'zi mualliflar e'tiroficha, barcha proektiv metodikalar asosida yotuvchi fenomenni kashf qilish va isbotlash K.G.Yung tomonidan amalga oshirilmagan. Ularning fikricha, K.G.Yung tomonidan amalga oshirilgan assosiativ tajriba “Freydning erkin assosiasiya usulining aniqlashtirilishi” hisoblanadi. Bu izohlarda, proektiv usulning asosi sifatida erkin assosiasiya usuli keltirilib, bu 1892 -1898 yillargacha o‘tgan davr mobaynida Z.Freyd tomonidan kashf qilinganligi ta'kidlanadi. Z.Freyd o‘zining “Jazavani o‘rganish” deb nomlangan tadqiqotida (1895 y.) bu usul haqida to‘xtalib o‘tgan. Ushbu holatni tahlil qilgan Emiliya Fon N. quyidagi fikrlarni yozib qoldirgan: “U aytib o‘tgan fikrlar, xotiralar spontan xususiyatlardan ancha uzoq hisoblanadi, uning so‘zlari etarlicha ishonchli ekanligi, shuningdek, yangi taassurotlari bizning so‘nggi uchrashuvimiz davomida unga katta ta'sir ko‘rsatganligiga guvoh bo‘ldim. Bu fikrlar deyarli to‘satdan paydo bo‘lib, butunlay kutilmagan tarzda – patogen xotiralar asosida yuzaga kelganligi, uning erkin holatda bu fikrlar so‘zlar orqali bayon qilganligi ta'kidlanadi”.

Z.Freyd o‘zining “Psixoanaliz” deb nomlangan asarida (1909 y.) tush ko‘rish va xato harakatlar bilan birgalikdagi psixoanaliz jarayonining asosiy qoidasi – erkin assosiasiya qoidasini keng ta'riflab o‘tgan. K.G.Yungning assosiativ tajribalari bo‘yicha ham ko‘plab tadqiqotchilar shug‘ullanishgan. Assosiativ testning turli xil variantlari aybdorlik hissini aniqlash maqsadida foydalanilgan (M.Vertgaymer va A.R.Luriya yolg‘on detektorlari). Aks ijtimoiy hisoblangan mayllarni aniqlashda (Dj.Bruner, R.Lazarus va boshqalar), patologiyadan me'yorlar chegarasini o‘rganishda (G.Kent va A.Rozanov) qo‘llanilishning samardorligi qayd qilingan. Noqonuniy taklif va hikoyali testlari,

shuningdek, ko‘p holatlarda kelib chiqishiga ko‘ra, K.G.Yungning assosiasiv testiga asoslanilishi ta'kidlanadi. Proektiv diagnostikaning chin ma'noda yuksaklikka ko‘tarilishi 1921 yilda G.Rorshax tomonidan Bernda “Psixodiagnostika” asarining nashr qilinishi bilan bog‘liq hisoblanadi.

German Rorshax original – siyoh dog‘lari testini yaratdi va bu test dunyo miqyosida psixologiyadagi eng mashhur testlardan biri sifatida qayd qilingan. Rassomlik kasbidan voz kechgan G.Rorshax, bundan tashqari sa'nat tarixi bilan jiddiy tarzda qiziqqan. Unga buyuk Leonardo da Vinchining uzoq vaqt davomida tikilib turish asosida va osmonda bulutlarning ajoyib konfigurasiyalarini kuzatish, shuningdek, devorlardan nam suv oqish dog‘lari va qing‘ir – qiyshiqliklar, suvda oyning aks etishi kabilarni kuzatish orqali o‘z taassurotlarini mashq qildirganligi ma'lum. Rorshaxning taxmin qilishicha, bizning orzu – xayollarimiz va xayolotimizda ko‘rish timsollari bilan birga, xotira ham mavjud bo‘lib, unda harakatlarda yashovchi – kinetik timsollar mavjud, ular o‘ziga xos usulda, fikr yuritish modusi sifatida tarkib topadi. Rorshax testi shaxsning umumiy holatda “kechinmalar tipi” bo‘yicha yo‘naltirilganlik holatini aniqlash imkonini berib, shuningdek, haqiqatning mavjud idrok qilinishi, atrof-muhitga nisbatan emosional munosabatda bo‘lish, xavotirlanishga nisbatan tendensiya, xavfni sezish, odamning faolligini to‘xtatuvchi yoki qo‘zg‘atuvchi diagnostikasini amalga oshiradi.

“Psixodiagnostika” asari dunyoga kelganidan keyingi davr mobaynida Rorshax testiga o‘xshash ko‘plab metodikalar yaratildi. Ular orasida nisbatan mashhurlaridan biri – “Sulliger va Xolsman” testi hisoblanadi. Bundan tashqari, Rorshax testining o‘zi faol tarzda psixologlar tomonidan klinika sharoitida diagnostika ishlari amaliyotida faol tarzda tatbiq etilgan. Proektiv metodikalarni rivojlanish tarixida navbatdagi davr 1935 yildan boshlanadi, bu vaqtga kelib qo‘sh mualliflik ostida jurnalda Tematik appersepsiya test (TAT) haqida xabar bosiladi, bu xayol jarayonini eksperimental o‘rganish usuli sifatida taniladi (X.Morgan, G.Myurrey). Bu usul keyinchalik ko‘proq G.Myurrey nomi bilan tanilib, muallif usulni takomillashtirishga katta hissa qo‘shdi. TAT qo‘zg‘atuvchi materiallari 31 ta standart jadvallar yig‘indisidan tashkil topgan: ya'ni, 30 ta oq – qora tasvirlardan va bitta bo‘sh jadvaldan tashkil topgan bo‘lib, sinaluvchi xohlagan tasvirni xayol qilishi mumkin.

Foydalaniladigan tasvirlarda nisbatan noaniq tarzdagi vaziyatlar aks ettirilgan bo‘lib, tadqiqotda ularning har xil izohlanishi amalga oshiriladi.

Metodlar. Mazkur muammoni nazariy va amaliy jihatdan ilmiy dalillashda, ba’zi proektiv metodika va so’rovnomalardan foydalanilgan. Dj.Bukning “Uy.Odam.Daraxt” metodikasi, R.B.Kettelning “Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish” so‘rovnomasi shuningdek, empirik materiallarni saralash va natijalar tahlilida Styudentning t - mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsion tahlil usuli kabi matematik-statistik mezonlardan foydalanildi.Bunday izlanishlar ning ilk namunasi 1939 – 1948 yillarda amalga oshirilgan Lourens Frank ishlariga to‘xtalib o‘tish mumkin, L.Frank tomonidan birinchi marta proektiv psixologiyaning asosiy tamoyillari shakllantirilgan. Biz yuqorida ta'kidlab o‘tganimizdek, L.Frank “proeksiya” atamasidan foydalanar ekan, u bu tushunchadan shaxsni tadqiq etishdagi alohida guruhlarni ifodalashda qo‘llagan. Xolizm nazariyasiga kuchli ta'sir ko‘rsatgan L.Frank konsepsiyasida, proektiv metodikalarning diagnostik chegaralarini belgilash, tushunchalar va ularning qo‘llanilishida muhim hisoblangan ayrim jihatlarga urg‘u berilganligini kuzatish mumkin. L.Frankning ta'kidicha, proektiv metodikalar shaxsning ichki dunyosini ochib berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning sub'ektiv kechinmalar olamini, sezgilar, xayol, kutilayotgan his-tuyg‘ularini ochib berishga qaratiladi, umuman olganda esa, bu metodikalar haqiqiy hulq – atvorning tezkor diagnostikasi hisoblanmaydi. Bunda odamning qanday harakat qilishi muhim emas, balki u nimani his qilishi va o‘z hissiyotlarini qanday boshqarishi muhim hisoblanadi.

Natija va muhokamalar. Quyida proektiv metodikalardan psixologik tadqiqotlarda foydalanishning o‘ziga xosliklari va ularning shaxslilik so‘rovnomalari bilan o‘zaro aloqadorlik jihatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz (1 –jadval).

1-Jadval

UDO metodikasi mezonlari bilan 16 PF so‘rovnomasi faktorlarining empirik validlikning eksperimental mezoniga ko‘ra ko‘rsatkichlari

Shaxs psixologik portret yo‘nalishlari	Validlik		O‘zaro korrelyasiyali bog‘lanishlar tavsifi
	Koeffisienti	Darajasi	
Emotsional soha	r =0.65	Yuqori	UDO metodikasidagi barqarorlik va 16PF so‘rovnomasining C, O faktorlari o‘zaro uyg‘un
Ijtimoiy soha	r = 0.58	O‘rtacha	A, F, H faktorlari bilan UDO metodikasining ijtimoiy mezonlari mos
Motivatsion soha	r = 0.55	O‘rtacha	16PF so‘rovnomasining E, G, Q4 faktorlari bilan moslik bor
Kognitiv soha	r = 0.63	Yuqori	16PF so‘rovnomasining B, Q1 bilan kuchli bog‘lanish
Himoya mexanizmi	r= 0.68	Yuqori	16PF so‘rovnomasining L, O, Q4 bilan mantiqiy uyg‘unlik

Uy.Daraxt.Odam proektiv metodikasi va R.B.Kettellning 16PF so‘rovnomasi shaxsning emosional, ijtimoiy va kognitiv xususiyatlarini o‘lchashda o‘zaro yuqori darajada konvergent validlikka ega. Bu natija “Uy,Daraxt,Odam” metodikasini shaxs portretini tizimli ravishda shakllantirishda valid va ishonchli yordamchi instrument sifatida qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi.

Yo’qorida taqdim etilgan o’tilgan, jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shaxsning psixologik portretini turli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘lchashda UDO metodikasi va 16PF so‘rovnomasining o‘zaro mos kelish darajasini ko‘rsatadi. Keltirilgan korrelyatsiya koeffitsientlari ham, ularning mazmuniy talqinlari ham shuni anglatadiki, har ikki metodika shaxsni har tomonlama tasvirlashda bir-birini to‘ldiruvchi, barqaror natijalar beruvchi vositalardir. Ayniqsa, emotsional soha bo‘yicha yuqori korrelyatsiya kuzatilishi shaxsning hissiy barqarorligi, tashvishlanish darajasi, ichki muvozanati kabi ko‘rsatkichlar ikki metodda ham deyarli bir xil tasvirlanayotganini anglatadi. C va O faktorlarining UDO dagi emotsional mezonlar bilan uyg‘unligi shaxsning stressga chidamliligi va hissiy o‘zgaruvchanligini barqaror tarzda ifodalaydi.

Ijtimoiy soha uchun o‘rtacha, ammo mazmunan izchil korrelyatsiya qayd etilgan. Bu degani, shaxsning ochiqko‘ngilligi, faol ijtimoiy muloqotga moyilligi, tashabbuskorlik darajasi 16PF ning A, F va H faktorlarida qanday ifodalangan bo‘lsa, UDO metodikasida ham shunga yaqin tarzda aks etgan. Bu ikki usulning aynan ijtimoiy faollikni baholashda bir-birini to‘ldirishini ko‘rsatadi. Kognitiv soha bo‘yicha esa yuqori korrelyatsiya shuni ko‘rsatadiki, intellektual faollik, tafakkur moslashuvchanligi, yangilikka ochiqlik kabi ko‘rsatkichlar 16PF dagi B va Q1 faktorlarida qanday o‘lchangan bo‘lsa, UDO da ham deyarli shunday ifodalangan. Demakki, fikrlash uslubi va idrok faoliyatiga doir belgilarda metodikalar orasida eng ishonchli uyg‘unlik kuzatiladi. Himoya mexanizmlari bo‘yicha aniqlangan yuqori korrelyatsiya esa shaxsning ichki xavfsizlik tizimi, xulqiy va psixologik himoya strategiyalari – L, O va Q4 faktorlaridagi ko‘rsatkichlar bilan mantiqan to‘liq mos tushayotganini bildiradi. Bu moslik himoya mexanizmlarini o‘lchashda har ikki vosita chuqur psixodinamik xususiyatlarni izchil aks ettirayotganidan dalolat beradi.

Xulosa. Umuman olganda, jadvaldagi natijalar shaxsning psixologik tuzilmasini turli rakurslardan tahlil qiluvchi ikki metodikaning o‘zaro mosligi yuqori ekanini ko‘rsatadi. Eng barqaror moslik emotsional, kognitiv va himoya mexanizmlari yo‘nalishlarida kuzatilgan bo‘lib, ijtimoiy va motivatsion sohalar ham yetarli darajada uyg‘un natija bergan. Bunday holat metodikalar o‘rtasidagi konstruktiv yaqinlikni tasdiqlaydi, shu bilan birga, shaxs portreti chuqur va kompleks tarzda tiklanganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Бурлачук Л. Ф. Психодиагностика. – Санкт-Петербург : Питер, 2002. – 352 с.
2. Додельцев Р. Ф., Панфилова Т. В. Азбука психоанализа // Фрейд З. Художник и фантазирование / под ред. Р. Ф. Додельцева, К. М. Долгова. – Москва : Республика, 1995. – С. 365–386.
3. Фрейд З. Собрание сочинений : в 26 т. Т. 1 : Исследования истерии. – Санкт-Петербург : Восточно-Европейский институт психоанализа, 2005. – 464 с.
4. Роршах Г. Психодиагностика : методика и результаты диагностического эксперимента по исследованию восприятия (истолкование случайных образов) / пер. с нем. – Москва : Когито-Центр, 2003. – 336 с.
5. Бурлачук Л. Ф. Введение в проективную психологию. – Киев : Ника-Центр, 1997. – 128 с.

Mullabayeva Nozima Makhmudjanovna
Tashkent international university professori
Psixologiya fanlari doktori (DSc)

BULLING NAMOYON BO‘LISHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya. *Hozirgi kunda psixologik tadqiqotlarning aksariyat jihati psixologik xavfsizlik masalalariga qaratilgan. Psixologik xavfsizlik ko‘rinishlari maktabgacha ta’lim, o‘rta ta’limda muhimligi sir emas. Maqolada maktabdagi xavfsiz muhitning yoshga oid va psixologik omillarini o‘rganish muhimligi bolalarning, pedagoglarning va maktab xodimlarining xulq-atvorini o‘zgartirish orqali turli zo‘ravonlik ko‘rinishlari, depressiya, stress kabi holatlarning oldini olish yoki kamaytirish imkoniyati bilan bog‘liqligi haqida so‘z yuritilgan. Maktabdagi bullingni oldini olish va u bilan kurashishga o‘rgatishni amalga oshirish uchun maktabdagi xavfsiz muhit bolalar shaxsini rivojlantirish lozimligi mazkur ilmiy-tadqiqot va ilmiy-amaliy muammoning dolzarbligini belgilab beradi.*

Kalit so‘zlar*: bulling, bulling innitsiatori, bulling qurboni, bulling ximoyachilari, bulling kuzatuvchilari, bulling yordamchilari, internallik, maktabdagi xavotirlik, agressiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЯВЛЕНИЕ БУЛЛИНГА

Аннотация. *В настоящее время большинство аспектов психологических исследований направлено на вопросы психологической безопасности. Не секрет, что проявления психологической безопасности особенно важны в дошкольном и среднем образовании. В статье говорится о том, что изучение возрастных и психологических факторов безопасной среды в школе важно, поскольку изменение поведения детей, педагогов и сотрудников школы позволяет предотвращать или снижать различные проявления насилия, депрессии и стресса. Актуальность данной научно-исследовательской и научно-практической проблемы определяется тем, что создание безопасной школьной среды необходимо для формирования личности детей, а также для обучения методам профилактики и борьбы со школьным буллингом.*

Ключевые слова*: буллинг, инициатор буллинга, жертва буллинга, защитники буллинга, наблюдатели буллинга, пособники буллинга, интернальность, тревожность в школе, агрессия.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE MANIFESTATION OF BULLYING

Abstract. *Currently, many aspects of psychological research are focused on issues of psychological safety. It is no secret that manifestations of psychological safety are especially important in preschool and secondary education. The article discusses the importance of studying age-related and psychological factors of a safe school environment, as changes in the behavior of children, teachers, and school staff can help prevent or reduce various forms of violence, depression, and stress. The relevance of this scientific and practical issue is determined by the need to create a safe school environment that fosters children’s personal development and teaches them methods for preventing and combating school bullying.*

Key words*: bullying, bullying initiator, bullying victim, bullying defenders, bullying bystanders, bullying assistants, internalizing, school anxiety, aggression.*

Kirish. 2021 yilda xalqaro kunning asosiy mavzusi sifatida kiberbulling va onlayn zo‘ravonlikka qarshi kurash masalalari yoritildi. Kiberbulling saytining ma’lumotlariga ko‘ra, bulling sodir etuvchi agressorlarning 70 foizi boshqalarning shaxsiy ma’lumotlarini chop qilishni maqbul ish deb hisoblasalar, 45% erkak (40% ayol) agressorlar salbiy postlar yozib turishlarini tan olganlar. Biroq, atigi 5% agressorlargina o‘zlari amalga oshirgan bulling uchun uyalish va aybdorlik his

etishlarini bildirganlar. YuNESKO ma'ruzasida keltirilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra har uchtadan bir o'quvchi har xil turdagi zo'ravonlikka uchrar ekanlar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Birinchi navbatda skandinaviyalik psixologlarning tadqiqotlari natijasida bulling profilaktikasining fenomenologik va texnologik jihatlari tahlil qilingan va ularning tahlili natijasida dunyo olimlari bulling bo'yicha ilmiy tahlillarni amalga oshira boshladilar. Bu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hamma bullingning barcha ishtirokchilarida og'ir asoratlar saqlanib qolishi bilan izohlanadi. Rossiyada bulling va ta'qib mavzusi bo'yicha turli davrlarda turli olimlar tadqiqot olib borganlar: I.S.Kon, S.N.Yenikolopov, V.S.Sobkin, S.V.Krivsova, A.A.Bochaver, K.D.Xlomovlar shular jumlasidandir. Bulling fenomeni shaxs psixologiyasi, sotsial va klinik psixologiyaning predmeti sifatida o'rganilmoqda. Munosabatlar, agressiyalar, hokimiyatni o'rganish maqsadida eksperimentlar o'tkazilgan (eng yorqin eksperimentlardan Stenli Milgrem elektrik kuchlanishlar bilan va Filipp Zimbardoning qamoq eksperimenti), ulardan olingan ma'lumotlar tahlili ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keltirib o'tilgan.

D.Olveusning 1980 yillarda amalga oshirilgan ilk anonim tadqiqotlariga ko'ra quyidagilar aniqlangan: 15% bolalar doimiy ravishda bullingga duch keladilar, 9% bolalar bulling qurboni, 7% buller, 2% ikki xil rolda bo'ladilar. Turli xil yillarda olimlar turli natijalarga ega bo'ldilar. Masalan, 2007 yilda AQShda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra 32% maktab o'quvchilari maqtabdagi bulling ishtirokchisi bo'lganliklarini tan olganlar. 2005 yilda Yevropada amalga oshirilgan kross-madaniy tadqiqotlarning ko'rsatishicha o'g'il bolalarda 9%dan (Shvesiya) 45%gacha (Litva) bulling holatlari qayd qilingan bo'lsa, qizlarda bu ko'rsatkich 5%dan (Shvesiya) 36%gacha (Litva) bo'lar ekan. Ular har oy o'rta hisobda ikki xil ko'rinishdagi bullingni boshidan kechirar ekanlar. (Craig et al., 2009; Zaborskis et al., 2005). Umuman olganda turli xil madaniyatlarga mansub ega bo'lgan bolalar maktabda o'qish davrida 5%dan 75%gacha an'anaviy bullingga uchrashi mumkinligi haqidagi ma'lumotlar taqdim etilgan (Ryan, Morgan, 2011). Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridagi kiberbullingga kelsak, 2010 yil amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra o'rtacha 10%dan 40%gacha o'quvchi-yoshlar kiberbullingga uchraganliklari aniqlangan (Tokunaga, 2010) [6; 7].

- **Tadqiqot metodologiyasi** Ta'lim muhitida psixologik xavfsizlikni ta'minlashga doir tadqiqotning metodologik asoslari sifatida quyidagilarni alohida e'tirof etish maqsadga muvofiqdir:

- ta'lim muhitida psixologik xavfsizlik nazariyasi, ta'lim jariyonida bulling (I.A.Baeva, Ye.B.Laktionova, K.Kwak, C.Lee, D.Olweus, K.Rigby) va ta'lim muhitida asosiy zo'ravonlik ko'rinishlari va shakllari tahlili;

- bolaning psixik rivojlanishida zo'ravonlikni psixologik va ijtimoiy oqibatlari (L.S. Alekseeva, Ye.V. Burmistrova, Ye.F. Bikovskaya, Ye.N. Volkova, N.O. Zinoveva, N.F. Mixaylova, D. Pstrog);

- shaxsning psixik barqarorligi va qiyin vaziyatlarda o'zini nazorat qila olishining xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tahlil qilingan nazariy va metodologik asoslari (S.R. Maddi, S.C. Kobasa, D.J. Wiebe, S. Ionesku, L.A. Aleksandrova, S.A. Bogomaz, D.A. Leontev, V.L.Mariщuk, T.V. Nalivayko);

Tahlil va natijalar. Bullingni vujudga kelishi va uning shaxs xususiyatlariga bog'liqligini aniqlash maqsadida quyidagi usullardan foydalanildi «Bulling tuzilmasini aniqlash» metodikasi Ye.Rolland tomonidan taklif qilingan bo'lib, D.Leyn tomonidan qayta ishlangangan, Guruhiy jipslikni aniqlash metodikasi, Bass-Darkining agressivlik darajasini aniqlash testi, Sub'ektiv nazorat darajasini aniqlash metodikasi, Maktabdagi umumiy xavotirlikni aniqlash (Filipps) metodikalari.

Guruhiy jipslik indeksida bilan bulling tuzilmasini aniqlash shkalalari orasidagi o'zaro korrelyatsion munosabatlar tahlil etilganda bir qator qiziqarli natijalar qo'lga kiritildi. Bulling vaziyatida yordamchi vazifasini bajarishga moyillik va guruhiy jipslik indeksi o'rtasida ishonch darajasidagi manfiy munosabat mavjudligi aniqlandi ($r=-0,064$; $p<0,01$). Ya'ni guruhda ahillik, jipslik qanchalik past bo'lsa, bulling «yordamchilari» shunchalik faollashar ekanlar. Bulling «yordamchilari», asosan guruhdagi bulling initsiatorini qo'llab-quvvatlashga «oshiqadigan», uni muayyan xatti-harakatlarga undaydigan guruh a'zolari hisoblanadilar. Guruhiy jipslik past bo'lgan taqdirda guruh yordamchilari «faoliyati» avj ola boshlaydi. Guruhning ahil bo'lishi esa, aksincha, yordamchilarning kamayishiga olib keladi.

Ikkinchi tomondan, bulling himoyachilari faolligining ortishi guruhiy jipslik darajasining ortishiga olib kelishi aniqlandi (r=0,079; p<0,01). Ya'ni tadqiqot natijalariga qaraganda guruh a'zolarini (qurbonlarni) himoya qiladigan o'quvchilar qanchalik faol bo'lsalar, guruhdagi ahillik ham qanchalik yuqori bo'ladi. Demak, maktabda bulling vaziyatlari sodir etilmasligi ko'p jihatdan jamoaviy ruh, guruhiy jipslik va ahillik shakllanganligiga bog'liq bo'lar ekan.

O'quvchilar tomonidan o'zini bulling qurboni sifatida his etish darajasi va guruhiy jipslik indeksi orasida manfiy munosabat mavjudligi aniqlandi (r=-0,040; p<0,05). Ya'ni jipslik va ahillik past bo'lgan guruhlarda guruh a'zolari tomonidan zo'ravonlik, tahdid, haqorat, kamsitish holatlarini ortishi kuzatiladi va bu holatlar bulling qurbonlarining ortishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bulling kuzatuvchilari bulling vaziyatidagi eng katta ta'sir ko'rsatadigan guruh hisoblanadi. Bulling kuzatuvchilari ba'zi holatlarda bulling qurbonlariga aylanishlari ham mumkin. Ular aynan bulling qurbonlariga aylanib qolishdan qo'rqqanlari sababli bulling vaziyatining passiv kuzatuvchilari sifatida qolishni afzal ko'radilar. Statistik tahlillarga qaraganda bulling kuzatuvchilari ko'p bo'lgan guruhlarda guruhiy jipslik indeksi tushib ketganligiga guvoh bo'lish mumkin (r=-0,067; p<0,01). Va aksincha, guruhiy ahillik yuqori bo'lgan o'quvchilar jamoasida bulling kuzatuvchilarining kamayishi aniqlandi. Haqiqatdan ham ahil bo'lmagan jamoa a'zolaridagi bulling kuzatuvchilari o'z mavqelarini yo'qotib qo'yishdan qo'rqib passiv pozitsiyani, ya'ni kuzatvuchilik pozitsiyasini imkon qadar saqlab turishga intilishlari mumkin.

Bass-Darkining «Agressivlikni aniqlash» metodikasi hamda Bulling tuzilmasini aniqlash metodikasi shkalalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilganimizda ham bir qator statistik ishonch darajasidagi bog'liqlik qonuniyatlari qayd etildi (1-jadval).

1-jadval

Bass-Darkining «Agressivlikni aniqlash» metodikasi hamda Bulling tuzilmasini aniqlash metodikasi shkalalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (Spirman korrelyatsiyasi, N=2696)

Ko'rsatgichlar	Initsiator	Yordamchi	Himoyachi	Qurbon	Kuzatuvchi
Jismoniy agressiya	-0,037	0,026	-0,040*	0,009	0,071**
Verbal agressiya	-0,027	0,018	-0,060**	-0,007	0,074**
Bilvosita agressiya	-0,101**	0,081**	-0,106**	0,033	0,071**
Negativizm	0,004	-0,002	0,006	-0,007	0,02
Tajanglik	-0,111**	0,106**	-0,166**	0,050**	0,097**
Shubhalanuvchanlik	-0,131**	0,023	-0,055**	0,084**	0,079**
Xafagarchilik	-0,190**	0,079**	-0,190**	0,074**	0,154**
Aybdorlik hissi	-0,022	-0,073**	0,115**	0,073**	-0,050**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Korrelyatsion tahlil natijalari bulling jarayonida ishtirok etuvchi rollar va agressivlik hamda emotsional holatlar o'rtasida muhim qonuniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, bulling himoyachilarida jismoniy agressiyaning past darajada namoyon bo'lishi qayd etildi (r = -0,040; p < 0,05), bu esa ularning xulq-atvori asosan konstruktiv va himoyaviy yo'nalishga ega ekanligini anglatadi. Himoyachilar bulling qurbonlarini himoya qilishga intiluvchi shaxslar bo'lgani sababli ularda boshqalarga jismoniy zarar yetkazishga moyillik deyarli kuzatilmaydi. Aksincha, bulling kuzatuvchilarida jismoniy agressiyaning nisbatan yuqori darajalari aniqlandi (r = 0,071; p < 0,01). Ehtimol, kuzatuvchilarga xos bo'lgan o'ziga ishonchsizlik, passiv pozitsiya va vaziyatga bevosita aralasha olmaslik hissi ichki zo'riqishning agressiv xatti-harakatlar orqali namoyon bo'lishiga olib kelgan bo'lishi mumkin.

Verbal agressiya ko'rsatkichlari ham shunga o'xshash tendensiyani namoyon etdi. Bulling himoyachilarida verbal agressiya darajasi past bo'lib (r = -0,060; p < 0,01), bu ularning muloqotda murosaga moyilligi va sinf jamoasida ijobiy psixologik muhitni saqlashga intilishi bilan izohlanadi. Himoyachilar ko'pincha norasmiy liderlar sifatida so'z orqali tajovuz qilishdan qochadilar. Biroq bulling kuzatuvchilarida verbal agressiyaning yuqori darajalari qayd etildi (r = 0,074; p < 0,01), bu

esa ularda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan ichki norozilik, yashirin qo‘rquv va emotsional zo‘riqish bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimolini ko‘rsatadi.

Bilvosita agressiya ko‘rsatkichlari tahlili ham rollararo sezilarli farqlarni aniqladi. Bulling initsiatorlarida bilvosita agressiyaning past darajasi qayd etildi ($r = -0,101$; $p < 0,01$), bu ularning agressiyani ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri namoyon etishga moyilligini anglatadi. Aksincha, bulling yordamchilarida bilvosita agressiya yuqori darajada namoyon bo‘ldi ($r = 0,081$; $p < 0,01$). Ular ko‘pincha initsiatorlarni qo‘llab-quvvatlab, tajovuzni yashirin, bilvosita usullar orqali amalga oshirishga moyil bo‘ladilar. Bulling himoyachilarida esa bilvosita agressiyaning past darajasi aniqlandi ($r = -0,106$; $p < 0,01$), bu ularning agressiyaning har qanday shaklidan uzoq turishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bulling kuzatuvchilarida bilvosita agressiya darajasi yuqori ekanligi aniqlandi ($r = 0,071$; $p < 0,01$), bu ularning umumiy agressiv xulq-atvorga nisbatan moyilligini ko‘rsatadi.

Tajanglik shkalasi natijalari ham bulling rollari bilan uzviy bog‘liqlikni namoyon etdi. Bulling initsiatorlarida tajanglik darajasi past bo‘lib ($r = -0,111$; $p < 0,01$), bu ularning o‘z mavqeidan va shaxsiy imkoniyatlaridan qoniqqanlik holati bilan izohlanadi. Bulling yordamchilarida esa tajanglik bilan musbat bog‘liqlik qayd etildi ($r = 0,106$; $p < 0,01$), bu ularning o‘zini past baholashi va ichki qoniqmaslik hissi natijasida emotsional zo‘riqish kuchaygan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bulling himoyachilarida tajanglik darajasi pastligi aniqlandi ($r = -0,166$; $p < 0,01$), bu esa ularning psixologik barqarorligi va o‘zidan qoniqish hissi bilan bevosita bog‘liqdir. Aksincha, bulling qurbonlari ($r = 0,050$; $p < 0,01$) hamda bulling kuzatuvchilarida ($r = 0,097$; $p < 0,01$) tajanglik darajasining ortishi ularning doimiy emotsional bosim ostida ekanligini ko‘rsatadi.

Shubhalanish shkalasi natijalari ham e’tiborga loyiq bo‘lib, bulling initsiatorlarida shubhalanishning past darajasi qayd etildi ($r = -0,131$; $p < 0,01$). Bu holat ularning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi bilan izohlanadi. Bulling himoyachilarida ham shubhalanish darajasi past bo‘lib ($r = -0,055$; $p < 0,01$), bu ularning sinf jamoasidagi yetakchi mavqei va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bulling qurbonlari ($r = 0,084$; $p < 0,01$) va bulling kuzatuvchilarida ($r = 0,079$; $p < 0,01$) shubhalanish darajasining yuqoriligi esa doimiy xavotir, o‘z mavqeini yo‘qotishdan qo‘rquv va psixologik beqarorlik bilan izohlanadi.

Xafagarchilik shkalasi bo‘yicha ham o‘xshash tendensiyalar kuzatildi. Bulling initsiatorlarida xafagarchilik darajasi past bo‘lib ($r = -0,190$; $p < 0,01$), bu ularning psixologik jihatdan kuchli shaxslar ekanligini ko‘rsatadi. Bulling yordamchilarida ($r = 0,079$; $p < 0,01$), bulling qurbonlarida ($r = 0,074$; $p < 0,01$) hamda bulling kuzatuvchilarida ($r = 0,154$; $p < 0,01$) xafagarchilik darajasining ortishi esa ularda ichki norozilik, kechinmalar va uzoq davom etuvchi emotsional zo‘riqish mavjudligidan dalolat beradi. Bulling himoyachilarida esa xafagarchilik past darajada namoyon bo‘lib, ular psixologik barqaror shaxslar sifatida ajralib turadi.

Aybdorlik hissi bilan bog‘liq natijalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bulling yordamchilarida aybdorlik hissi past darajada bo‘lib ($r = -0,073$; $p < 0,01$), ular ko‘pincha sodir bo‘layotgan voqealardagi mas’uliyatni o‘z zimmasiga olmaydilar. Biroq bulling himoyachilarida aybdorlik hissining yuqori darajada namoyon bo‘lishi ($r = 0,115$; $p < 0,01$) ularning bulling qurbonlarini yetarli darajada himoya qila olmaganlik hissi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bulling qurbonlarida ham aybdorlik hissining yuqoriligi qayd etildi ($r = 0,073$; $p < 0,01$), bu ularning kamsitish holatlarida o‘zlarini aybdor deb his qilishga moyilligini ko‘rsatadi. Aksincha, bulling kuzatuvchilarida aybdorlik hissining past darajalari aniqlandi ($r = -0,050$; $p < 0,01$), bu esa ularning vaziyatga nisbatan mas’uliyatsiz va befarq munosabatini aks ettiradi.

Keyingi bosqichda «Sub’ektiv nazorat darajasi» hamda Bulling tuzilmasini aniqlash metodikalari shkalalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik munosabatlari tahlil etildi (2-jadval).

2-jadval.

«Sub’ektiv nazorat darajasi» metodikasi hamda Bulling tuzilmasini aniqlash metodikasi shkalalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik (Spirman korrelyatsiyasi, N=2696)

Ko‘rsatgichlar	Initsiator	Yordamchi	Himoyachi	Qurbon	Kuzatuvchi
Muvaffaqiyatda internallik	0,087**	-0,01	0,143**	-0,013	-0,037
Muvaffaqiyatsizlikda internallik	0,046*	-0,062**	0,171**	-0,006	-0,077**

Oilaviy munosabatlarda internallik	0,038	0,052**	0,017	-0,041*	0,027
Ishlab chiqarish munosabatlarida internallik	0,084**	-0,080**	0,201**	0,003	-0,089**
Shaxslararo munosabatlarda internallik	0,048*	-0,007	0,090**	-0,015	0,008
Salomatlik bo‘yicha internallik	0,043*	-0,005	0,081**	0,042*	0,01
Umumiy internallik	0,102**	-0,036	0,211**	-0,003	-0,077**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Natijalar diqqat bilan o‘rganilganda bir qator musbat va manfiy korrelyatsion munosabatlar mavjudgi qayd etildi. Xususan, Muvaffaqiyatda internallik va bulling initsiatorlari shkalalari ko‘rsatgichlari o‘rtasida musbat korrelyatsion munosabat mavjudligi aniqlandi (r=0,087; p<0,01). Ya’ni bulling initsiatorlari o‘z muvaffaqiyatlaridagi mas’uliyatni o‘zlarining zimmalariga oladigan sinaluvchilar bo‘lib hisoblanar ekanlar. Ehtimol, ulardagi o‘z muvaffaqiyatlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmalariga olish xislati liderlik qobiliyati bilan belgilanishi mumkin. Shuningdek, bulling himoyachilari ham bulling initsiatorlari singari muvaffaqiyatlarda barcha mas’uliyatlarni o‘z zimmalariga olishni istar ekanlar (r=0,143; p<0,01). Ya’ni har ikkala toifadagi guruh a’zolari ham jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘lib, shu sababli ham mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishdan cho‘chimasliklari mumkin.

Muvaffaqiyatsizlikda internallik shkalasi natijalar tahlilida ham bir qator korrelyatsion bog‘liqliklar mavjudligi aniqlandi. Bulling initsiatorlari o‘zlaridagi muvaffaqiyatsizliklarda aybdor sifatida o‘zlarini ko‘rar ekanlar (r=0,046; p<0,05). Demak, ularga muvaffaqiyatsizlikda o‘zlarini aybdor qilishdan cho‘chimas va bunda mas’uliyatni o‘z zimmalarida qoldirish xosdir. Bulling yordamchilari esa o‘zlarining muvaffaqiyatsizliklarida o‘zgalarni ayblashga moyil bo‘lishlari qayd etildi (r=-0,062; p<0,01). Bulling himoyachilari esa bulling initsiatorlari tomonidan oshirilgan nojo‘ya xatti harakatlarning oldini ololmaganliklari sababli o‘zlarini aybdor deb hisoblashlari aniqlandi (r=0,171; p<0,01). Aksincha, bulling kuzatuvchilari shkalasining tahlillari bo‘yicha bunga teskari bo‘lgan natija qayd etildi (r=-0,077; p<0,01). Ya’ni ilar o‘zlarini barcha muvaffaqiyatsizliklar uchun o‘zlarini aybdor deb hisoblashga moyil bo‘lar ekanlar.

Oilaviy munosabatlardagi internallik hamda bulling yordamchilari shkalalari o‘rtasida musbat proporsional aloqadorlik qayd etildi (r=0,052; p<0,01). Ya’ni bulling yordamchilari oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan vaziyatlarda ko‘pincha o‘zlarini mas’uliyatli deb hisoblar ekanlar. Bulling qurbonlarida esa bunga teskari natija qayd etildi (r=-0,041; p<0,01). Demak, bulling qurbonlari oilaviy munosabatlardagi ziddiyatlarda oila a’zolarini mas’ul qilishga moyil ekanliklari aniqlandi.

Ishlab chiqarish munosabatlaridagi internallik hamda bulling initsiatorlari shkalalari ko‘rsatgichlari o‘rtasida musbat korrelyatsion munosabat qayd etildi (r=0,084; p<0,01). Shuningdek, bulling himoyachilari ham ishlab chiqarish munosabatlaridagi mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishni afzal ko‘rar ekanlar (r=0,090; p<0,01). Ehtimol, ushbu natijalar initsiator va himoyachilardagi liderlik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Aksincha, bulling yordamchilari (r=-0,080; p<0,01) va bulling kuzatuvchilari (r=-0,089; p<0,01) ishlab chiqarish munosabatlarida mas’uliyatni boshqalarga topshirishni ma’qul ko‘rar ekanlar. Ya’ni ishlab chiqarish munosabatlardagi mas’uliyat ularning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin va aynan bulling yordamchilari va kuzatuvchilarda ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan turli holatlar uchun aybdor izlash xususiyati tez-tez uchrab turar ekan.

Shaxslararo munosabatlardagi internallik va bulling initsiatorlari (r=0,048; p<0,05) hamda bulling himoyachilari (r=0,090; p<0,01) shkalalari orasida musbat korrelyatsion munosabatlar mavjudligi qayd etildi. Demak, bulling initsiatorlari va himoyachilariga xos bo‘lgan liderlik qobiliyati shaxslararo munosabatlarda vaziyatni boshqarish va o‘z nazoratiga olish imkonini beradi.

Bulling initsiatorlari (r=0,043; p<0,05), bulling himoyachilari (r=0,081; p<0,01) va bulling qurbonlariga (r=0,042; p<0,05) salomatlik bo‘yicha mas’uliyatni o‘z zimmalarida qoldirish xususiyati xos ekanligi aniqlandi. Ya’ni bu toifadagi o‘quvchilar o‘zlarining salomatliklariga nisbatan o‘zlarini javobgar deb hisoblaydilar.

Umumiy internallik shkalasi tahlil qilinganda quyidagi holatlarni kuzatish mumkin. Bulling initsiatorlari deyarli barcha sohada internal hisoblanishar ekan (r=0,102; p<0,05). Initsiatorlar barcha hayotiy vaziyatlarda faqat o‘zlarini mas’ul hisoblab, har xil muammolarning yechimini o‘zlaridan topishga harakat qilar ekanlar. Shuningdek, bulling himoyachilari va internallik shkalalari orasida ham bo‘yicha musbat korrelyatsion munosabat qayd etildi (r=0,211; p<0,01). Ya’ni bulling himoyachilari ham o‘z hayotlaridagi mas’uliyatni boshqalarga nisbatan ko‘proq his etar ekanlar.

Biroq bulling kuzatuvchilari, aksincha, mas’uliyatni boshqalar zimmasiga yuklashga, aybni boshqalardan qidirishga moyil bo‘lar ekanlar

(r=-0,077; p<0,01). Ehtimol, shuning uchun ham ular bulling vaziyatlarida aksariyat hollarda passiv kuzatuvchi sifatida bir chetdan tomosha qilib o‘tirishni ma’qul ko‘rishlari mumkin.

Xulosa. Natijalar tahliliga diqqat bilan razm solinsa quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Xavotirlik ko‘rsatkichlari initsiatorlar va himoyachilarda past bo‘lsa, kuzatuvchi, qurbon va yordamchilarda xavotirlik darajasining yuqoriligi aniqlandi.

Agressiv xulq-atvor tahliliga ko‘ra bulling initsiatorlari va bulling himoyachilarida jismoniy tajovuz, verbal tajovuz, bilvosita tajovuz, tajanglik, shubhalanish, xafagarchilik xislatlarining past bo‘lishi, buling yordamchilari, bulling qurbonlari va bulling kuzatuvchilarida esa tajovuzkorlik xususiyatlarining yuqori bo‘lishi aniqlandi.

Bulling initsiatorlari va bulling himoyachilarida internallik shkalalari yuqori ekanligi, bulling qurbonlari, bulling yordamchilari va bulling kuzatuvchilarida, aksincha, eksternallik xususiyatlarining namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Albuquerque P.P. Efeitos Tardios do Bullying e Trastorno de Estresse Pos-Traumatico: Uma Revisao Cntica / P.P. Albuquerque, L. Cavalcanti, S.M. D'Affonseca // Psicologia: Teona e Pesquisa. – 2013. – V. 29, 1. – P.91-98

2. Андронникова О.О. Онтогенетическая концепция виктимности личности: Дисс. … д-ра психол. наук / О.О. Андронникова. – Новосибирск, 2018. – 566 с

3. Баева И.А. Психологическая безопасность образовательной среды / И. А. Баева, Е.Н. Волкова, Е.Б. Лактионова. – М.: Экон-Информ, 2009. – 247 с.

4. Баркан А. Дедовщина в школе или школьный буллинг / А. Баркан. – [Электронный ресурс]. – URL: http://abarkan.ucoz.com/publ/dedovshhina v shkole ili shkolnyj bulling/1-1-0-18 (дата обращения 05.05.2025).

5. Бочавер А.А. Кибербуллинг: травля в пространстве современных технологий / А.А. Бо-чавер, К.Д, Хломов // Психология. Журнал Высшей школы экономики. – 2014. – Т. 11. – № 3. – С. 177–191

6. Волкова Е.Н. Методологические основания для выработки программ профилактики подросткового буллинга / Е.Н. Волкова, Л.А. Цветкова, И.В. Волкова // Сибирский психологический журнал. – 2019. – №74. С.88-100. DOI 10.17223/17267080/74/5

7. Гришина Т.Г. Виктимизация подростков в травле и ее взаимосвязь с семейными факторами // Национальное здоровье. 2019. № 4. С. 79-88.

8. Екимова В.И. Жертвы и обидчики в ситуации буллинга: кто они? / В.И. Екимова, А.М. Залалдинова // Современная зарубежная психология. – 2015. – Т.4. – №4. – С. 5–10.

9. Илларионова Е.С. Проблема буллинга в подростковом возрасте / Е.С. Илларионова, К.С. Шалагинова // Материалы V Международной студенческой электронной научной конференции «Студенческий научный форум». [Электронный ресурс]. URL: // www.scienceforum.ru/ 2013/article/2013004145 (дата обращения 05.05.2025).

10. Kadyrov, K. B., and N. M. Mullabaeva. "БЕЗОПАСНАЯ СРЕДА В ШКОЛЕ КАК ФАКТОР ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ."*The Journal of Psychology & Sociology* 87.4 (2023): 25-30

11. Kadirov, K. B., Mullabaeva, N. M., Abdullajanova, D. S., Kurbanovna, A. D., & Abdullaevna, B. S. (2023). A Mobbing Questionnaire In School And An Analysis Of The Results Obtained. *Journal of Higher Education Theory and Practice*,*23*(4).

12. Mullabaueva Nozima Maxmudjonovna Maktabdagi xavfsiz muhit bolalar shaxsini rivojlantirish omili sifatida. Rsixologiua fanlari doktori dissertatsiuasi avtoreferati Toshkent-2022

13. Mullabaeva N.M "MAKTABDAGI BULLING VA UNING TAHLILI."*Asademis researsh in yedusational ssienses* 1 (2024): 181-184.

14. Петросянц В.Р. Психологические характеристики старшеклассников, участников буллинга в образовательной среде, и их жизнестойкость / В.Р. Петросянц. – СПб., 2011. – 210 с.

Norqo‘ziyeva Dilrabo Sheraliyevna
Qo‘qon davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi dotsenti,(PhD)

SHAXSDA PROSOTSIAL XULQ RIVOJLANISHIDA PSIXIK HOLATLAR TA’SIRINI O‘RGANISHNING EMPIRIK MASALALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola shaxsda prosotsial xulq rivojlanishida psixik holatlar ta’sirini o‘rganishning empirik masalalari mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola mazmunida maktab o‘quvchilarida namoyon bo‘luvchi salbiy xulq-atvor va uning psixologik tabiati, salbiy xulqni oldini olishda prosotsial xulqni rivojlantirish, prosotsial xulq shakllantirishning psixologik yo‘llari, o‘quvchilar shaxsida boshqaruvchanlik, o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘quv muhitida xavotirni kamaytirish, o‘quvchilarda kelajakka nisbatan ekzestensial ehtiyojlar va qadriyatlarni shakllantirish kabi masalalarning nazariy hamda empirik jihatlari keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *prosotsial xulq, psixika, psixik holatlar, boshqaruvchanlik, xavotirlanish, agressiya, noadekvatlik, frustratsiya, rigidlik, kuchaytiruvchi stimul, o‘zini o‘zi nazorat qilish, refleksiv tajriba.*

ЭМПИРИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ ВЛИЯНИЯ ПСИХИЧЕСКИХ СОСТОЯНИЙ НА РАЗВИТИЕ ПРОСОЦИАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *Статья посвящена эмпирическим вопросам изучения влияния психологических состояний на развитие просоциального поведения личности. В статье широко освещаются теоретические и эмпирические аспекты таких вопросов, как негативное поведение школьников и его психологическая природа, развитие просоциального поведения в профилактике негативного поведения, психологические способы формирования просоциального поведения, управляемость учащихся, самоконтроль, снижение тревожности в учебной среде, а также формирование у учащихся экзистенциальных потребностей и ценностей относительно будущего.*

Ключевые слова: *просоциальное поведение, психика, психические состояния, управляемость, тревожность, агрессия, неадекватность, фрустрация, ригидность, подкрепляющий стимул, самоконтроль, рефлексивное переживание.*

EMPIRICAL ISSUES OF STUDYING THE INFLUENCE OF MENTAL STATES ON THE DEVELOPMENT OF PROSOCIAL BEHAVIOR IN AN INDIVIDUAL

Annotation. *This article is devoted to the empirical issues of studying the influence of psychological states on the development of prosocial behavior in individuals. Also, the article broadly covers the theoretical and empirical aspects of such issues as negative behavior in schoolchildren and its psychological nature, the development of prosocial behavior in preventing negative behavior, psychological ways of forming prosocial behavior, controllability in students, self-control, reducing anxiety in the learning environment, and the formation of existential needs and values in students regarding the future.*

Key words: *prosocial behavior, psyche, mental states, controllability, anxiety, aggression, inadequacy, frustration, rigidity, reinforcing stimulus, self-control, reflexive experience.*

Kirish. Maktab o‘quvchilarida, salbiy xulq-atvorni prosotsial boshqaruvchanlik xususiyatiga ega xatti-harakatlar ko‘rinishiga sublimatsiyalash, shaxslararo munosabatlar tizimining barqarorlashuviga olib kelishi bilan tavsiflanadi. Psixologiya fanida prosotsial xulq xususiyatlari haqida fikr yuritilganda, turlicha yondashuvlar mavjudligini kuzatamiz. O‘quvchilarning agressiv xulq-atvor va emotsional boshqara olmaslik mohiyatini anglashda uning yosh davrlariga oid qiyosiy tahlilini, xususan, xavotirlanish, agressiya, xarakterdagi muayyan sifatlarni davomli ustunlik qilishi, o‘zgalarning kamchiliklariga toqat qila olmaslik, o‘zini o‘zi baholashning noadekvatligi, kabi holatlar shaxslararo munosabatlardan qochish, o‘zini aybdordek his qilish kabi illatlarning namoyon

bo‘lishida aks etadi. Tadqiqotchi, G.Q.To‘laganovaning fikricha, o‘smirlik davri murakkab bo‘lib, garchi shiddatli kechishiga qaramay, u individning keyingi hayotiy barkamolligini ta’minlaydi. O‘smirlik davrida xarakter xususiyatlari shakllanishda davom etadi. Ijtimoiy faoliyatning boshqa turlariga organizmda ro‘y beruvchi jadal garmonal qayta qurilishlar uni o‘ta zaif va muhitning salbiy ta’sirlariga beriluvchan qilib qo‘yadi, ya’ni shu davrdagi fiziologik, psixologik yetilishning nosinxronligi o‘smirlarda tajovuzkor xatti-harakatlarning kuchayishiga sabab bo‘lib, buning natijasida shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan muayyan ehtiyoj, dunyoqarash, intilish hamda irodaviy sifatlarning o‘zgarishi bilan salbiy xarakterlanadi. Klassik psixologik tadqiqotlarda agressiyani o‘rganishning asosiy nazariy yondashuvlari quyidagilar: a) etiologik, b) psixoanalitik, v) frustratsion, d) bixevioristik. Etiologik va psixoanalitik yondashuv namoyondalaridan Z.Freyd va K.Lorenslarning fikricha, agressiya tug‘ma instinkt sifatida spontan harakat reaksiyasidir, lekin inson o‘zini-o‘zi boshqarish orqali ma’lum bir muvaffaqiyatga erisha olishini asoslaydi, frustratsion nazariya maqsadga erishishda muayyan to‘siqlar sabab muvaffaqiyatsizlikka duch kelish, o‘zga subyektlar ustidan hukmronlik qilish pozitsiyasi sifatida, temperament va xarakter xususiyati sifatida impulsivlik, reaksiyalar intensivligi, faollik va mustaqillik kabi insoniy «illatlar» tajovuzkorlikni yuzaga keltiruvchi determinantlar ekanligi, «...tajovuzning kelib chiqish sabablarini inobatga olmay, ichki kuch sifatida tavsiflab, odamning tashqi kuchlarga qarshilik ko‘rsatish imkoniyatidir» – degan g‘oyani ilgari suruvchi shaxs hamda jamiyatga zarar yetkazish yoki unga urinishda kuchning namoyon bo‘lishi bilan tavsiflangan xatti-harakatlar reaksiyasidir.

Bixevioristik – ijtimoiy ta’lim nazariyasi, bunda agressiv xulqni paydo bo‘lishiga tashqi rag‘batlarning ahamiyatli jihati kuchli ekanligi hamda uning ta’sirida shaxs xulqida agressiyani «kuchaytiruvchi stimullar»ni yuzaga chiqaruvchi (A.Bandura, R.Uolters,1959), motivatsiya va faoliyat natijasida agressiyaning yuzaga chiqishi (Xayns Xekxauzen, 1963), tajovuzkorlikni faqat tashqi xatti-harakatlar bilan baholab bo‘lmasligini, uning ta’rifiga motivatsion omillarni kiritishni talab qildi (S.Feshbax, 1964 J.Kagan, 1969). kuchli faollik, o‘zini o‘zi tasdiqlash istagining mavjudligi orqali biror narsaga yaqinlashish yoki undan uzoqlashish tendensiyasi sifatida qarash (Bender L., Faretra G., 1972) kabi ko‘plab o‘z tasdig‘ini topgan konsepsiyalarni kiritishimiz o‘rinli hisoblanadi. L.Berkovisning kognitiv nazariyasida (Berkovis L., 1962), agressiv harakatlarni bostirishda yangi kognitiv aloqalarni shakllantirish orqali prosotsiallikka aylantirish zarurligini, bunda shaxs tajovuzni aqliy harakatlar yordamida boshqa intellektual mashg‘ulotlarga ko‘chirish imkoniyati borligiga e’tibor qaratadi. L.D.Stolyarenko tajovuzni butunlay boshqacha tarzda ko‘rib chiqishni taklif qiladi. «Agressiya – bu bir tomonlama, salbiy his-tuyg‘ular, voqelikni aks ettirish, uni noto‘g‘ri tushunish, qarash orqali autoijtimoiy xatti-harakatlarga olib keladi» deya, ta’kidlaydi.

Virtual O‘smirlarda tajovuzkor xatti-harakatlar paydo bo‘lishining tadqiqotchilar (A.Bandura, R.Uolters, 1999; R.Beron, D.Richardson, 2001; M.Ratter, 1987; A.A.Rean, 1996; M.Richardson, 1984 va boshqalar) asosiy omili sifatida oilaviy o‘zaro shaxslararo munosabatlar va oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga alohida e’tiborni qaratgan bo‘lsa, boshqa bir (A.Bandura, D.Ross, 1963; R.Beron, D.Richardson, 2001; K.Butner, 1991; C.N.Enikolopov, 2002; V.S.Sobkin, 2001 va boshqalar) ommaviy axborot vositalarining ta’siri ham mavjudligini haspo‘shlaydi. Bu borada A.Bandura ham tajovuzning sababini ijtimoiylashuv jarayonidagi o‘zlashtirilgan axloq ko‘rinishlaridan biri deb hisoblaydi. O‘smir endigina o‘zini taniy boshlaydi. O‘z «Men»ini his qilish jarayoni boshlanadi. «Men»ini izlashda o‘smir, hatto eng «muvozanatlashganida» ham unga tajovuzni keltirib chiqaradigan tashqi omillar ta’sir qiladi Bu borada, I.S.Kon «o‘smirlarning tajovuzkorligi ko‘pincha boshdan kechirgan hayotiy muvaffaqiyatsizlik hamda adolatsizliklar natijasida umumiy g‘azab va o‘zini past baholashning oqibatidir» – deya keltirib o‘tadi . Demak, agressiv holatning hissiy komponenti ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uni prosotsiallikka yo‘naltirish talab etiladi. Bu yerda g‘azab, ya’ni emotsional labillik birinchi o‘rinda turadi. Ko‘pincha, odam tajovuzkor holatning barcha bosqichlarida – tajovuzga tayyorlanishi, uni amalga oshirish jarayonida va natijalarini baholashda kuchli g‘azab hissiyotini boshdan kechiradi, xususan, affekt holati g‘azab shaklida ham namoyon bo‘ladi. Bizningcha, o‘smirlar xulqidagi muayyan xulq stereotip xususiyatlarni oldini olish va bartaraf etishda nafaqat yosh davri, balki ularning individual psixologik xususiyatlariga ham alohida nazar tashlash orqali prosotsial xulqni shakllantirishni talab etadi. Aksariyat o‘smirlarning

tajovuzkor xatti-harakati shaxslararo munosabatlar tizimida o‘z ifodasini topib, samarali shaxslararo aloqalar va iliq insoniy munosabatlarni o‘rnata bilmaslik oqibatida hosil bo‘lishi kuzatilinadi.

Metodologiya. Shaxs ijtimoiylashuvining har bir bosqichida prosotsial xulq shakllanishi eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Biroq o‘smir psixikasidagi o‘ziga xoslik, ijtimoiy me’yorlarni qabul qilishdagi qiyinchiliklar, uning ontogenetik rivojlanish taraqqiyotini bir xilda kechmasligi, shaxslilik xususiyatlariga xos individuallik prosotsial xulq-atvor shakllanishida ma’lum qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Shu boisdan ham tadqiqotning dastlabki nazariy bobida yoritilgan tahlillarga muvofiq tarzda tajriba ishlari amalga oshirildi. O‘smirlar xulq-atvoriga xos prosotsiallilikni yoritishda unga to‘siq bo‘luvchi asosiy xulq-atvor shakllari va psixik holatlarni o‘ziga xoslik jihatlari inobatga olinib, tadqiqotimizning tajriba sinovida atroflicha yoritildi. Buning uchun, G.Y.Ayzenkning «Psixik holatni aniqlash testi» metodidan foydalanildi. Tadqiqot natijalari turli yosh bosqichlaridagi ilk o‘smirlik (11-13 yosh) va katta o‘smirlik (14-15 yosh) davrlarining o‘ziga xosligi nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida ta’lim muassasalarining har ikki toifasiga xos psixik holatlar inobatga olindi. Umumiy o‘rta ta’lim va ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktablari o‘quvchilari tanlab olinib, prosotsial xulq-atvor shkallanishida ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya muhitining o‘zaro aloqadorligi o‘rganildi. Psixologiya sohasida inson psixikasining xususiyatlariga xos uning tarkibiy jihatlari, holatlari va jarayonlarining o‘zaro uzviyligi yordamisiz baholab bo‘lmaydi. G.Ayzenk testidagi psixik holatlarni baholash shkalalari mohiyati tahlil etilganda, ularda motivatsiya va emotsional sohaga oid munosabatlar aks etishi kuzatiladi. Xavotirlanish – insonning muayyan tashqi ta’sirlarga nisbatan reaksiyalarini qisman va jadal kechishiga moyilligini, shuningdek, uning quyi chegarada namoyon bo‘lishini ifodalovchi individual psixik xususiyatidir. Bu yerda xavotirlanishning kechishi: a) noxushliklar; b) xavfni olindan sezish; v) shunday tuyulishga ega bog‘liq emotsional diskomfortli ko‘rinish namoyon bo‘lishiga ko‘ra ifodalanadi.

Frustratsiya – xohish-istak va ehtiyojlarning qondirilishi umidsizliklarni keltirib chiqaruvchi psixik holat bo‘lib, u insonda ko‘ngil qolishlik, g‘azablanish, bezovtalanish, tushkunlik va boshqa salbiy kechinmalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Agressiya – psixologik faollikning ortishi, boshqa insonlar bilan ziddiyatli munosabatlarda kuch ishlatish, haqoratlash, negativlik yo‘li bilan yetakchilikka intilishdir.

Rigidlik – subyekt faoliyatini o‘zgartirish orqali tabiyalashdagi muayyan qiyinchiliklar tushuniladi. Plastiklik esa rigidlikka teskari shaxs xususiyati hisoblanib, ta’lim-tarbiyaning ta’siri natijasida muayyan xulq-atvor ko‘rinishlarini ijobiy yo‘nalishga aylantirilishi demakdir.

Metodlar. Tadqiqotda umumta’lim maktablari o’quvchilarida salbiy xulq va prosotsial xususiyat namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlarini o‘rganish uchun anketa, kuzatish metodlari A.Ayzenk tomonidan ishlab chiqilgan “Shaxslilik so’rovnomasi” so‘rovnomasi, Bass-Darklarning “Tajovuzkorlikni aniqlash” so‘rovnomasi, I.Farenberg va R. Gampellarning “Shaxs xususiyatlarini o‘rganish” Frayburg so‘rovnomasi va V.I.Morasonova tomonidan ishlab chiqilgan “Emotsional holatlarda o‘z-o‘zini nazorat qilish” kabi so‘rovnomalardan foydalandik.

Natijalar va muhokama. O‘smirlarda prosotsial xulq shaklanishida mazkur shkalalar mohiyatidan kelib chiqib, psixik o‘zgarishlarning ahamiyatini hisobga olgan holda ta’sir kuchiga ega psixologik holatlarni amaliy o‘rganishga e’tibor qaratdik. O‘smir shaxsining shakllanishida, psixik holatlar namoyon bo‘lishini amaliy tadqiq etish natijalari quyida tahlil etiladi. Tajriba jarayoni tadqiqot obyektlarining xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkillashtiriladi. Bu o‘smirlarda prosotsial xulq-atvor shakllanishida psixik holatlarning ahamiyatini inobatga olish zaruratini dolzarblashtirib, buni eksplitsit va implitsit yondashuvlar sharoitida ham aniqlash mumkin. Mazkur shkala ko‘rsatkichlarining ustuvorlik qilishi o‘quv fanlarni o‘qitilishi, o‘quvchilarda shaxsiy mas’uliyatning yuqori darajada bo‘lishiga qaramay, bu ta’lim muhitiga moslashishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi o‘tkazilgan tadqiqotlar davomida isbotlandi. O‘quvchilarda psixik holatlarini xulq-atvorga ta’sirining o‘quv sinflari bo‘yicha tahliliga tayanib, ularning barchasi xususiy ko‘rsatkichlardan umumiy xulosa chiqarish imkoniyatini berdi. Ushbu tadqiqotimizda ikki toifali maktab, ya’ni umumiy o‘rta ta’lim maktabi (UO‘M) va ixtisoslashtirilgan davlat umumiy maktab (IDUM) o‘quvchilarining psixik holatlari tadqiq etildi va quyidagi natijalarga erishildi (1-jadval).


1-jadval.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari va IDUM o‘quvchilarining G.Ayzenk metodikasi bo‘yicha umumiy tajriba-sinov natijalari

Ta’lim muassasalari / Shkalalar		X	σ	Styudent t-mezoni
Xavotirlanish	Umumiy o‘rta ta’lim maktabi (n=22)	7,23	4,37	0,917
	IDUM (n=22)	7,60	3,77	
Frustratsiya	Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	6,25	3,86	-2,468**
	IDUM	7,16	3,64	
Agressiya	Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	7,85	3,90	-4,708***
	IDUM	9,62	3,66	
Rigidlik	Umumiy o‘rta ta’lim maktabi	8,22	3,51	-2,943**
	IDUM	9,25	3,44	

*Izoh: **p<0,01;*** p<0,001*

Yuqoridagi natijalardan farqli o’laroq, olingan psixodiagnostik natijalarning dastlabki tahlilida umumiy o‘rta ta’lim maktablari va IDUM frustratsiya, agressiya va rigidlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha farqlar ahamiyatini aks ettiruvchi quyidagi statistik diagramma ko’r satgichlari aniqlandi.



Xavotirlanish shkalasida esa umumiy o‘rta ta’lim maktabi va IDUM o‘quvchilari o‘rtasidagi ko‘rsatkichlar bir-biriga yaqinligi kuzatildi.

Shuningdek, frustratsiya shkalasi bo‘yicha o‘quvchilarning dinamik ko‘rsatkichlari UO‘M o‘quvchilarida (6,25 ball) va IDUM o‘quvchilarida esa (7,16 ball) quyi va o‘suvchan darajani aks ettirdi. Bir xil daraja ega bo‘lsa ham o‘quvchilardagi frustratsiyani ifodalovchi qiymatlar orasidagi farqlar ahamiyatliligi p<0,01 ga teng bo‘ldi. Frustratsiyaning ushbu darajasi sinaluvchilarning o‘quv faoliyatdagi muvaffaqiyatsizlik holatlarida o‘zlarini yo‘qotmaslik, qiyinchiliklardan qo‘rqmaslik va o‘z xohish-istaklarini amalga oshirishda qat‘iyatlilikka ega ekanliklarini ko‘rsatmoqda. O‘quvchilarning agressiya shkalasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichi UO‘M o‘quvchilarida 7,85 ball va IDUM o‘quvchilarida esa 9,62 ball bilan cheklandi, farqlar ishonchliligi esa p<0,001ga tengligini ifodaladi.

Psixik holatlardagi, xususan, frustratsiya va agressiya bilan bog‘liq o‘zgarishlar o‘smirning fikrlarini tarqoqlashuviga, diqqatni ko‘chira olmaslik, qarashlarning voqelikka nomutanosibligi,

xulq-atvorni o‘zgartirishda qobiliyatsizlilikka sabab bo‘ladi. Rigidlik shkalasi bo‘yicha o‘quvchilarning natijalari UO‘M o‘quvchilarida (8,22 ball) va IDUM o‘quvchilarida esa (9,25 ball) o‘rta darajadan o‘rin oldi. O‘quvchilarning rigidlik natijalari orasidagi farqliklar ahamiyatliligiga ko‘ra $p<0,01$ darajaga teng bo‘ldi. O‘quvchilarda rigidlikning kuzatilishi ayrim hollarda to‘g‘ri fikrlay olmaslik, psixik buzilishlarga moyillik, o‘zining xato va kamchiliklarini ko‘ra bilmaslik, amalga oshirish mumkin bo‘lmagan ishlarga qo‘l urish, tushkun kayfiyat, injiqlik munosabatlarda o‘z «Men»ini ustuvorligini ko‘rsatishga intilish xosligidan dalolat beradi.

Xulosa. Umuman olganda, maktab o‘quvchilarida prosotsial xulq-atvor shakllanishiga salbiy omili sifatida, shaxsga xos psixik holatlarning kechishi, ya’ni xavotirlanish, frustratsiya, agressiya va xarakterni o‘zgartirishga to‘siq bo‘luvchi muayyan dominantlikka ega rigidlik darajasining o‘suvchan xususiyatga egaligi shaxslararo munosabatlar hamda o‘quv faoliyati samaradorligini rivojlanishini pasyishiga olib keladi. Maktab o‘quvchilarida prosotsial xulqni shakllantirishda agressiya (jismoniy, verbal) va rigidlik, frustratsion sifatlarning xulqda integrativ namoyon bo‘lishi tufayli shaxsning «Men» strukturasiga korreksion-adaptiv ta’sir etish muhimligi dalillanganligi bois, psixolog va pedagoglardan amaliy faoliyatlarida oziga xos bo ‘lgan profilaktik va psixokorreksion ta’sir etish vositalarini ishlab chiqish hamda qo ‘llashni taqozo etadi. Agarda, mazkur masalada kengroq ilmiy tadqiqotlar olib borilsa, unda prosotsial xulqni rivojlantirishning illg‘or psixokorreksion usullarini ishlab chiqish, zamonaviy psixologiya fani oldida turgan eng muhim masalalar, o’z echimini topishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Аникеева Н. П. Психологический климат в коллективе. – Москва, 1989. – 224 с.
2. Берковиц Л. Агрессия: причины, последствия и контроль. – Санкт-Петербург : Прайм-Еврознак, 2007. – 443 с.
3. Зимелева З. А. Агрессивное поведение подростков и личность родителей // *Психологическая наука и образование*. – 2001. – Т. 6. – № 4. – С. 22–27.
4. Лоренц К. Агрессия. – Москва : РИМИС, 2009. – 352 с.
5. Семенюк Л. М. Психологические особенности агрессивного поведения подростков и условия его коррекции. – Москва, 1998. – 96 с.
6. Тўлаганова Г. Қ. Тарбияси қийин ўсмирлар. – Тошкент : Университет, 2019. – 128 б.
7. Кон И. С. Психология ранней юности. – Москва : Просвещение, 1998. – 256 с.
8. Цыренов В. Ц. Агрессивное поведение молодежи как социально-педагогическая проблема // *Вестник Бурятского государственного университета*. – 2010. – № 1. – С. 93–98.
9. Norkuzieva D. Sh. Dynamics of constructive behavior formation in primary school students // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ)*. – 2021. – Vol. 9. – No. 10. – P. 666–669.

Omonova Sevara Mamirjonovna
Qo‘qon davlat universiteti Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

O‘SMIR YOSHLARNI VIRTUAL MAKON TA’SIRIDAN HIMOYA QILISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘smir yoshlarni virtual makon ta’siridan himoya qilishning psixologik jihatlari mavzusiga bag’ishlangan. Shuningdek, maqola mazmunida virtual makon fenomeni va uning mohiyati, internet va yoshlar, virtual makon axborotlari va ularning o‘smir yoshlar xulqiga ta’siri, virtual makonga tobelik va uni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar, o‘smirlik yoshida virtual makon ta’siriga berilishning psixologik o’ziga xosliklari, virtual makonda o‘smir yoshlarning o‘z-o‘zini boshqarishi, subektiv nazoratda virtual makon ta‘siri kabi masalalar ham keng yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *virtual makon, axborot olami, o‘smirlik davri, o‘z o‘zini boshqarish, subyektiv nazorat, irodaviy sifatlar, javobgarlik, axloqiy ong, internet tarmog’i, media olam, kompyuter, kiberxavflar, psixologik baholash, shaxslararo munosabat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАЩИТЫ ПОДРОСТКОВ ОТ ВЛИЯНИЯ ВИРТУАЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА

Аннотация. *Данная статья посвящена психологическим аспектам защиты подростков от влияния виртуального пространства. В статье также рассматриваются феномен виртуального пространства и его сущность, Интернет и молодёжь, информация виртуального пространства и её влияние на поведение подростков, зависимость от виртуального пространства и психологические факторы, её обусловливающие, психологические особенности воздействия виртуального пространства в подростковом возрасте, саморегуляция подростков в виртуальном пространстве, влияние виртуального пространства на субъективный контроль.*

Ключевые слова: *виртуальное пространство, информационный мир, подростковый возраст, самоуправление, субъективный контроль, волевые качества, ответственность, нравственное сознание, интернет, медиамир, компьютер, киберриски, психологическая оценка, межличностные отношения.*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PROTECTING ADOLESCENTS FROM THE INFLUENCE OF VIRTUAL SPACE

Annotation. *This article is devoted to the psychological aspects of protecting adolescents from the influence of virtual space. The article also covers the phenomenon of virtual space and its essence, the Internet and youth, virtual space information and its impact on the behavior of adolescents, dependence on virtual space and the psychological factors that cause it, the psychological characteristics of being influenced by virtual space in adolescence, self-management of adolescents in virtual space, the impact of virtual space on subjective control.*

Key words: *virtual space, information world, adolescence, self-management, subjective control, volitional qualities, responsibility, moral consciousness, internet, media world, computer, cyber risks, psychological assessment, interpersonal relationships.*

Kirish. Hozirgi kunda “kiber makon”, “virtaul olam” tushunchalari nafaqat psixologiya fanining, balki qator ijtimoiy fanlarning ham o’rganish ob’ekti sanaladi. Keng ma’noda, virtual makonga qaramlik - bu ma’lum bir jiddiy asoratga ega bo’lgan va ijtimoiy normalar bo’lmagan, sog’liqqa tahdid soladigan, shaxsning o’ziga psixologik azob-uqubatlarni keltirib chiqaradigan xulq turidir. Ayrim adabiyotlarda bu tushuncha addektiv xulq deb ham nomlanadi. Addektiv xulqning eng ko’p tarqalgan turi voyaga yetmagan bolalarda ko’proq namoyon bo’lib, uning ob’ekti internet tarmog’i, kompyuter o’yinlari, toksik moddalarga qaramlik holatlari bilan xarakterlanadi. Zamonaviy

psixologiyada, “virtual makon ta’siri”, “kiber xavsizlik”, internetga qaram bo’lish masalalarini psixologik o’rganish an’analari, turli yondoshuv va ilmiy kontseptsiyalar guruhidan iborat bo’lib, aksariyat ishlar ilmiy izlanishlar internetga qaramlik mazmunida amalga oshirilga n. Shu boisdan, muammoni o’rganishning xorij an’analarida, intternetga tobelik va undan himoyalanishning psixoprofilaktik chora-tadbirlari ham alohida e’tiborga olinadigan holat sanaladi. Vitual olamga qaramlik bilan bog’liq sabablarga ko’ra, ko’plab yoshlarning normal hayoti izdan chiqmoqda. Qaram xulqli kishilar doirasiga turli yoshdagi kishilar, ma’lumoti, kasbi, yoshi, etnik kelib chiqishi qat’iy nazar insonlar guruhi kiradi. Inson, jamiyat va davlat munosabatlarining yangicha ko’rinishga ega bo’lishi zamonaviy axborot texnologiyalari bilan bog’liq holda namoyon bo’lmoqda. Ayniqsa, demokratik rivojlanish sharoitida ommaviy axborot vositalarining xususan, internetning siyosatning faol sub’ektiga aylanishiga erishishi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Virtual olam muhiti muammosining bunday o’ziga xos jihatlarini siyosatshunoslik fanining tadqiqot ob’ektidan kelib chiqqan holda, uni o’rganish istiqboldagi mazkur yo’nalishdagi muammolar ko’lamini aniqlash va bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, mamlakatimizda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik nazorati mexanizmlari, fuqarolar siyosiy ishtirokining shakllari o’zgarmoqda, bunday o’zgarishlar omili sifatidagi internetning axboriy xususiyatlari tobora yangicha siyosiy ma’no-mazmunga ega bo’lib bormoqda. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, bir tomondan internet axborot makonining - globallashuv tendentsiyasining tenglashishiga imkon yaratadi. Boshqa tomondan turli mamlakatlarning texnik-iqtisodiy rivojlanish sur’atlaridagi farqlar chuqurlashuviga imkon yaratadi. Bu eng avvalo, shu bilan bog’liqki, barcha mamlakatlar ham o’z iqtisodiy rivojlanishi tufayli, tarmoqqa ommaviy qo’shilishni ishlab chiqara olmaydilar. N.A.Nosovaning yozishicha, axborot texnologiyalarining asosiy ko’rsatkichlari bugungi kunda, jamiyat taraqqiyotining eng muhim me’zonlarini birlashtirgan ko’zguga aylanmoqda, hamda iqtisodiyot va texnikaning zamonaviy holatini jamlangan holda aks ettirmoqda. Shuning uchun ham, internetni inson o’zining ijtimoiy ehtiyojlari, shu jumladan, kommunikatsion ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo’lgan yashash muhitining davomi deb hisoblash o’ta zarur sanaladi. Demak, virtual olam vositalari – bu yangi axborot texnologiyalari, axborot qidiruv va uzatish tizimlari shubhasiz, yaqin kelajakda mutlaq erkinlik darajasiga yetadi. Ushbu keng ko’lamli axborot tuzilmalari bilan bir qatorda, unga aloqador yana bir tizim – virtual olam ta’siri ham yanada ortadi. Virtual olam – bu insonga ko’rish, eshitish, hidlash, teginish va boshqa hislar orqali taqdim etilgan texnik vositalar yordamida yaratilgan dunyodir deb ta’kidlaydi E.D.Nevesenko. Virtual olamning ta’siri o’smirlar xulqida “simulyatsiya” reaktsiyasi sifatida namoyon bo’ladi, ya’ni bu o’smirning virtual olam hodisalariga taqlid qilishi yoki ularni o’zlashtirish bilan yakun topadi. Ayrim ilmiy manbalarda yozilishicha, virtual olam – bu axborot texnologiyalari orqali, insonlarning xohishiga ko’ra, vaqt-makon muhitini o’zgartirish orqali shakllanadigan, yangi sun’iy illyuziyali olamdir. Mazkur “olam” mazmunida inson o’z haqiqiy dunyosiga o’xshash yoki undan juda farq qiluvchi ko’plab taqlid qilinadigan tajribalarni boshdan kechirishi mumkin. Virtual olam vositalari o’yin-kulgi (ayniqsa, video o’yinlar), ta’lim va o’qitish (til o’rganish, ta’lim olish) va biznes masalalari (masalan, virtual uchrashuvlar, yangi loyihalar) kabilarni o’z ichiga olgan texnologik majmuallar to’plamidir.

I.A.Lipkovning asarlarida keltirilishicha, insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish bosqichida bir qancha axborot yutuqlari qo’lga kiritilgan yani: Ulardan birinchisi, axborotni yozish orqali avloddan-avlodga yetkazishdir. Ikkinchisi esa, nashriyotlarning paydo bo’lishidir. Uchinchi yutuq – bu elektr energiyasining paydo bo’lishi natijasida hosil bo’lgan telefon, televizor, radio va boshqalar. 20 asr oxiridan paydo bo’lgan to’rtinchi yutuq esa, kompyuter texnikasining tarmoq texnologiyasi bilan integratsiyalashuvi oqibatida shakllangan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nomi bilan mashhur bo’lgan, yangi axborot yutug’idir. Demak, hozirgi kunda ushbu axborot yutug’i – hayratlanarli o’zgarishlar ortida turgan asosiy kuchga aylanib ulgurdi. Tadqiqotchi A.B.Sorokinaning tahliliga ko’ra, “Axborot jamiyati” tushunchasi o’tgan asrning 70-yillarida yapon olimlari tomonidan taklif qilingan. Hozirda ushbu ilg’or g’oya insoniyat sivilizatsiyasi, ilm-fan va ta’limning yuksalishiga, davlat ijtimoiy-siyosiy tuzilishining taraqqiyotiga va barqaror rivojlanishga katta ta’sir ko’rsatib, ko’plab mamlakatlar e’tiborini o’ziga torta oldi. G’oyaning asosini esa, virtual olamda mujassam bo’lgan axborot texnologiyalari tashkil etadi. Va u hozirgi kunda butun dunyoda favqulodda sur’atlar bilan tez rivojlanib bormoqda.

I.A.Nikolaevning fikricha, virtual olamga qaram bo'lgan o'smir yoshlar birinchi navbatda, kognitiv, motivatsion va xulq-atvor sohalarida o'zgarishlarga uchraydi. Shu bilan birga, motivatsion vaziyatda qaram ob'ektga haddan tashqari, hissiy munosabat paydo bo'ladi, boshqa ob'ektlarga nisbatan, qaram ob'ekt haqidagi fikrlar ustuvorlik qiladi, o'smir xulq-atvorida himoya mexanizmi bo'lgan, tajovuzkor xatti-harakatlar kuchayadi. Demak, "virtual" so'zining birinchi lug'aviy ma'nosiga qaraydigan bo'lsak, u «ko'rinmas» degan ma'noni bildiradi. Bu so'zni yanada soddalashtirsak, insonning internetdagi axborotlarga mukkasidan ketishi oqibatida real hayotdan uzilishi, odamlarga ko'rinmay, o'zi bilan o'zi qolishdir. Ikkinchi lug'aviy ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, internetdagi voqealar bizga voqeiy (real) bo'lib ko'ringan, lekin vazifalari boshqa moslamalar orqali bajarilgani uchun ham, u virtual, ya'ni butunlay boshqa olamdir. Bundan tashqari, tadqiqot doirasidagi ma'lumotlarni yanada kengroq yoritishish maqsadida, "virtual olam" iborasi bilan birga "kibermakon" atamasiga ham e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kibermakon tushunchasi kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson tomonidan 1984 yili "Cyberspace" (Kibermakon) deb nomlangan trilogiyasi, birinchi romanining "Neuromancer" chop etilishi bilan bog'liq. U dunyoning barcha kompyuterlaridagi elektron ma'lumotlar aylanib yuradigan virtual makonni ta'riflaydi. Demak, hayotda hamma narsa paydo bo'lishining asosiy sabablari bor. Hech bir narsa besabab vujudga kelmaydi. Insonlarning eng asosiy kamchiliklarimizdan biri bu, agar jamiyatda jinoyat sodir bo'lsa, birinchi navbatda jinoyatchini jazolaymiz. Ya'ni ko'pincha jinoyatning oqibati bilan ko'proq kurashamiz. To'g'ri, jinoyatga jazo muqarrar. Lekin jinoyatning paydo bo'lish sabablari bir chekkada qolib ketadi. Jinoyatning sodir bo'lish sabablari, omillari, ya'ni ildizini topsak, ko'plab turdagi jinoyatlarni oldini olgan bo'lamiz. Bundan tashqari, o'smir yoshlarning virtual olamga bog'lanib qolishining qator ijtimoiy – psixologik sabablari ham ajratib o'tiladi. "Virtual muhitga tobelik" tushunchasini psixologik jihatdan ilmiy asoslash ishlarini L.P.Shipovskayaning ham izlanishlarida ko'rish mumkin. Muallifning fikricha, virtual muhitga tobelik bu – sub'ektiv taassurotlarni paydo qiladigan, kiber muhim hodisalarini fiksatsiya (qayd etish) etishga qaratilgan hamda uning oqibatida shaxs o'z muammolari haqida o'ylay olmaydi, kundalik tashvishlarini unutadi hamda hayotiy qiyin vaziyatlardan turli sabablar orqali qochishga intilishni xarakterlaydigan xulq-atvor shaklidir".

Psixolog A.E.Voyskunskiyning xulosalariga ko'ra, virtual muhitga tobelik tushunchasi bu - zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish jarayoni sanalib, u o'z mazmunida psixologik jihatdan "o'ziga tortmoq", "rom etmoq", "psixologik bog'liqlik" tushunchalarini ham qamrab oladi Va oxir – oqibat bu tarmoq ta'siriga batamom tobe bo'lish bilan yakunlanadi.

Metodlar. Virtual makonning o'smir yoshlar xulqiga ta'sirini baholash bo' yicha, bir qator metodika va so'rovnomalar tanlab olingan. Jumladan, G.V.Lozovaya tomonidan ishlab chiqilgan "Virtual olamga tobelik (addiksiya)" testi, K.Leongard va G.Smesheklarning "Xarakter aksentuatsiyani baholash" so'rovnomasi, A.I.Shepilovaning "Tugallanmagan jumlalar" metodikasi hamda A.A.Lugoviskaya tomonidan yaratilgan "Yengib o'tuvchi xulq-atvor" so'rovnomalaridan foydalanilgan. Shuningdek, matematik-statistik mezonlar ya'ni K.Pirson korrrelyatsiya koeffetsienti, foizli tahlil va faktorli analizlardan ham foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Tadqiqotdan olingan natijalar Farg'ona viloyati qishloq o'smir yoshlarining virtual olam ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini belgilab beruvchi asosiy omillar quyidagi natijalarni namoyon qilgan.

1-jadval

Virtual olamdan himoyalanishga doir so'rovnomalar faktorizatsiyasi

Shkalalar	Faktorlar	
	1	2
Internet va kompyuterga tobelik		0,586
Kompyuter o'yinlariga tobelik		0,768
Televizorga tobelik	0,589	
Destruktiv diniy axborotlarga tobelik		0,557
Tobelikka umumiy moyillik		0,624

Internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish	0,507	
Vaqtni idrok etish	0,556	
Internetning ijobiy xususiyatlarini anglash		0,529
Internetning salbiy xususiyatlarini anglash	0,625	
Internetdagi axborotlarni tushunish		0,523
Matonat	0,775	
Oqilona harakat		0,604
Voqelikni yengib o'tish	0721	
O'zini o'zgartirish	0,635	
Ijobiy tafakkur		0,713
Emotsiyalarni nazorat qilish		0,683

Birinchi faktorga kirgan ta'kidlar: televizorga tobelik, internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish, vaqtni idrok etish, internetning salbiy xususiyatlarini anglash, matonat, voqelikni yengib o'tish va o'zini o'zgartirish shkalalaridir. Ushbu faktorni (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: internetda o'zini nazorat qilish deb nomladik.

Ikkinchi faktordan quyidagi mulohazalar o'rin oldi: internet va kompyuterga tobelik, kompyuter o'yinlariga tobelik, destruktiv diniy axborotlarga tobelik, tobelikka umumiy moyillik, internetning ijobiy xususiyatlarini anglash, internetdagi axborotlarni tushunish, oqilona harakat, ijobiy tafakkur va emotsiyalarni nazorat qilish kabilar. Ushbu faktorni esa (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: virtual olamda o'zini boshqarish shkalasi deb nomladik.

Xulosa. O'smirlarni virtual makon ta'siridan himoyalashda matonat, oqilona harakatlarni bajarish, voqelikni yengib o'tish, o'zini o'zgartirishga intilish, ijobiy tafakkurni shakllantirish va emotsiyalarni nazorat qilish kabi xususiyatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq. O'smirlarni virtual olam ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari bilan bog'liq tadqiqot ishlarini amaliy jihatdan tekshirishga doir jahon psixologiyasida ko'p tajribalardan o'tgan test, so'rovnomalarni mahalliy muhitga moslashtirish va yangi variantlarini ishlab chiqish lozim. O'zbekistonning qator taniqli psixologlari va axborot xavfsizligi sohasi bo'yicha mutaxassislar ishtirokida virtual psixologiyaning destruktiv ta'sirlaridan saqlanish mavzusida seminar-treninglar tashkil etish. Psixolog va pedagoglar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedralari bakalavr bosqichida tahsil oluvchi talabala yoshlarga "Virtual psixologiya asoslari" nomli maxsus seminar kurslarini joriy qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Виртуальная реальность: философские и психологические проблемы : сб. науч. тр. / под ред. Н. А. Носова. – Москва : Центр виртуалистики ИЧ РАН, 1997. – С. 38.
2. Невесенко Е. Д. Влияние виртуальных сетевых сообществ и сети Интернет на развитие социальной активности молодежи : автореф. дис. … канд. филос. наук. – Санкт-Петербург, 2014. – С. 15.
3. Липков А. И. Ящик Пандоры: феномен компьютерных игр в мире и в России. – Москва : Изд-во ЛКИ, 2008. – С. 43.
4. Сорокина А. Б. Интернет в жизни современных детей и подростков: проблема и ресурс // Современная зарубежная психология. – 2015. – Т. 4. – № 1. – С. 45–64.
5. Николаев И. А. Виртуальность как естественнонаучный, технический и культурный феномен : дис. … канд. филос. наук. – Саратов, 2004. – С. 52.
6. Гибсон У. Нейромант. – Москва : ООО «Издательство АСТ» ; Санкт-Петербург : Terra Fantastica, 2000. – С. 66.

Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sarvinozotamuratova@mail.com

YOSHLAR SUBMADANIYATLARI VAKILLARINING SHAXS XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH EMPERIK TADQIQOTLARNING OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. *Globallashuv, axborot texnologiyalari, ommaviy madaniyat va internet platformalarining keskin rivojlanishi natijasida yoshlar orasida submadaniyatlarning shakllanishi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Submadaniyat - bu yoshlarning ma’lum guruhini birlashtiruvchi, ularning kiyinish uslubi, nutqi, qadriyatlari, musiqiy didi, hayotga munosabati bilan ajralib turuvchi madaniy yo‘nalishdir. Maqolada yoshlar submadaniyatlari vakillari va ular tomonidan submadaniyatlarning jamiyatdagi rolini qanday baholashi tahlil qilinadi. Shuningdek, submadaniyat vakillarining shaxs xususiyatlarining namoyon bo‘lishi, jumladan, xarakter xususiyatlari, jamoada, guruhdagi psixologik holatlarning namoyon bo‘lishi olimlar talqinida izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, submadaniyat, xarakter, agressiya, jamoa, o‘smirlik davri, qadriyat, tajovuzkorlik, egoist, xulq-atvor, jargon.*

ИЗУЧЕНИЕ ЛИЧНОСТНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ МОЛОДЕЖНЫХ СУБКУЛЬТУР КАК ФАКТОР ЭМПИРИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. *В результате глобализации, стремительного развития информационных технологий, массовой культуры и интернет-платформ всё более очевидным становится формирование субкультур в молодёжной среде. Субкультура – это культурное течение, объединяющее определённую группу молодёжи, характеризующуюся стилем одежды, речи, ценностями, музыкальными вкусами и отношением к жизни. В статье анализируются представители молодёжных субкультур и их оценка роли субкультур в обществе. Также анализируется проявление личностных особенностей представителей субкультур, в том числе черт характера, и проявление психологических состояний в коллективе и группе.*

Ключевые слова: *молодёжь, субкультура, характер, агрессия, коллектив, подростковый возраст, ценности, агрессия, эгоист, поведение, жаргон.*

STUDYING THE PERSONAL CHARACTERISTICS OF REPRESENTATIVES OF YOUTH SUBCULTURES AS A FACTOR OF EMPIRICAL RESEARCH

Abstract. *As a result of globalization, the rapid development of information technologies, mass culture and Internet platforms, the formation of subcultures among young people is becoming increasingly evident. A subculture is a cultural trend that unites a certain group of young people, characterized by their style of dress, speech, values, musical tastes, and attitude to life. The article analyzes representatives of youth subcultures and how they assess the role of subcultures in society. The manifestation of personal characteristics of representatives of subcultures, including character traits, and the manifestation of psychological states in a team and group, is also analyzed.*

Key words: *youth, subculture, character, aggression, team, adolescence, value, aggression, egoist, behavior, jargon.*

Kirish. Hozirgi kunda yoshlar submadaniyati vakillari ishtirokidagi hodisalar sotsiologlar, madaniyatshunoslar, pedagoglar e’tiborini tortmoqda va albatta, psixologlar tomonidan ularning shaxs xususiyatlarini tadqiq etish muhim sanaladi. Submadaniyat zamonaviy o‘smir hayotining muhim tarkibiy qismi ekanligi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘smirlar muammolarini hal etishda ko‘maklashish, yoshlarga oid samarali siyosatni amalga oshirish esa zamonaviy yosh avlodning o‘ziga xos xususiyatlarini tizimli bilishni talab qiladi. Ya’ni, zamonaviy submadaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish yoshlar muammolarini hal qilishda ilmiy yondashuvni rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

V.A.Lukovning ta'kidlashicha (2007), submadaniyat - bu nisbatan kichik jamoaga (guruhga) xos bo'lgan, hudud va ijtimoiy jihatdan ko'p yoki kamroq darajada izolyatsiya qilingan qadriyatlar, munosabatlar, xatti-harakatlar va turmush tarzi tizimidir. Yoshlar submadaniyatlarining o'smir shaxsiga ta'sirini o'rganish psixologiya sohasidagi muhim bo'lgan izlanishlarni olib borishga sabab bo'ladi deyish mumkin. Chunki, o'smirlikning markaziy yangi shakllanishi sifatida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi mumkin bo'ladi va butunlay atrof-muhitning madaniy mazmuniga bog'liq. O'smirlik davrida bunday guruh tengdoshlar guruhi, maktab sinfidir. Tengdoshlar guruhida o'smirlar kattalikka o'tish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Submadaniy guruhga mansublik, bir tomondan, o'smirning muloqot va qabul qilish ehtiyojlarini qondiradi, o'zini ochib berishga, o'zini namoyon qilishga va o'z imidjini shakllantirishga yordam beradi. Boshqa tomondan, buzg'unchi fokusli guruhlarda ishtirok etish o'smirning shaxsiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Ko'pincha guruh umumiy qabul qilingan madaniyatga zid bo'lgan me'yorlar va qadriyatlarni ishlab chiqadi. Jamoa a'zosi kontrmadaniyat asoslarini qabul qilib, o'z xatti-harakatlarini ularga asoslaydi va turmush tarzini o'zgartiradi. Masalan, jinoiy subkulturalar, shuningdek, skinxed va pank harakatlari zo'ravonlikning turli shakllariga moyil bo'lgan tajovuzkor, agressiv, egoist o'smirlarni "gavdalantiradi". Boshqa tomondan, zaif irodali, haddan tashqari sezgir, o'z-o'zini yo'q qilishga moyil, got va emo qarshi madaniyatlarning passiv vakillari sifatida namoyon bo'ladi. Muayyan submadaniyatni qabul qilish xulq-atvor va shaxsiy buzilishning paydo bo'lishini ko'rsatmaydi. Har qanday harakat ham salbiy, ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ammo, agar submadaniyat shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatsa, bu o'z vaqtida profilaktika choralarini tashkil etish va amalga oshirish uchun jiddiy signaldir.

L.D. Stolyarenkoning ta'biricha (2004), o'smirlar nafaqat muloqotning, balki ta'lim faoliyatining ham subyekti bo'lgan holda, o'zlarining subyektiv eksklyuzivlik, individuallik va qandaydir tarzda ajralib turish istagi bilan ajralib turadi. Submadaniyat o'ziga xos atributlari bilan (jargon, o'ziga xos ko'rinish, umumiy qabul qilingan me'yorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlar) ajralib turadi. Biroq, o'smir submadaniy hamjamiyatga kirgandan so'ng, ular jamiyat bilan aloqalarini yo'qotadilar, o'zlarining qarama-qarshi madaniyat guruhlari doirasida sotsializatsiya jarayonini boshdan kechiradilar. Bu guruhlarga qarshi madaniyat deyiladi, chunki ularning axloqi, xulq-atvori va turmush tarzi umume'tirof etilgan ko'rsatmalarga zid keladi. Sobiq "norasmiy" a'zoning jamiyatga keyingi moslashishi ham qiyin kechadi. Bu ularning submadaniyatiga yoki shunga o'xshash kattalar guruhiga (masalan, jinoiy hamjamiyat) qaytish vasvasasini keltirib chiqarishi mumkin. Tadqiqot natijalarini olish uchun metodologik asos bilan birgalikda yoshlar submadaniyatlari vakillari uchun maxsus so'rovnoma ishlab chiqildi va akademik litsey va maktab o'quvchilari bilan mazkur so'rovnoma yordamida empirik tadqiqotlar olib borildi.

1-jadval

"O'zingizni qaysi submadaniyat vakili deb hisoblaysiz?" va "Siz yoshlar submadaniyatlari rolini qanday baholaysiz?" savollariga berilgan javoblar orasidagi o'zaro bog'liqlik (χ^2 mezoni asosida)

O'zingizni qaysi submadaniyat vakili deb hisoblaysiz?	Siz yoshlar submadaniyatlari rolini qanday baholaysiz?				
	Aniq ijobiy	Hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi	Aniq salbiy	Ahamiyatsiz	Jami
Gotlar	32%	37%	19%	12%	100%
Emolar	51%	20%	29%	0%	100%
Repperlar	32%	44%	19%	5%	100%
Otaku	25%	42%	25%	8%	100%
Ska	14%	43%	43%	0%	100%
Rastafari	0%	14%	72%	14%	100%
Hippi	19%	46%	27%	8%	100%
konkida uchuvchilar	10%	60%	10%	20%	100%

yozuvchilar	16%	28%	64%	4%	100%
geymerlar	17%	33%	39%	11%	100%
serfuvchilar	0%	60%	40%	0%	100%
anime muxlislari	0%	100%	0%	0%	100%
graffiti rassomlari	17%	17%	66%	0%	100%
Antisotsial	0%	100%	0%	0%	100%
Fanatlar	12%	35%	38%	15%	100%
Boshqa	6%	25%	39%	30%	100%
Jami	**21%**	**35%**	**33%**	**11%**	**100%**

Izoh: (χ^2=93,790; p<0.001)

Olingan natijalarga ko‘ra, turli submadaniyat vakillarining yoshlar submadaniyatlari rolini baholash so‘ralganda, tadqiqot respondentlari sifatida ishtirok etgan submadaniyat vakillarining javoblariga ko‘ra, yoshlar submadaniyatlari rolini ijobiy deya baholaganlar 21% ni, hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi deya izohlaganlar 35% ni, yoshlar submadaniyatlari rolini salbiy deya baholaganlar 33% ni va yoshlar submadaniyatlari rolini ahamiyatsiz deya baholaganlar ko‘rsatkichi 11% ni tashkil qildi. Yoshlarning submadaniyatga qo‘shilishining asosiy sabablari sifatida o‘zlikni izlash, erkin fikrlash va o‘zini ifoda etish zarurati, do‘stlik, jamoaga mansublik ehtiyoji, ijtimoiy bosimdan qochish va alternativ makon yaratish, ijodiy o‘zini namoyon qilish muhim sanalishi ma’lum bo‘ldi. Aynan ushbu motivlar har bir submadaniyatning mazmuni va yoshlar ongida tutgan o‘rnini belgilashda muhim rol o‘ynashi mumkin. Keyingi tahlil “O‘zingizni qaysi submadaniyat vakili deb hisoblaysiz?” va “Insonning eng qimmatli narsasi uning hayoti degan fikrga qo‘shilasizmi?” savollariga berilgan javoblar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga qaratildi (2-jadval).

2-jadval

“O‘zingizni qaysi submadaniyat vakili deb hisoblaysiz?” va “Insonning eng qimmatli narsasi uning hayoti degan fikrga qo‘shilasizmi?” savollariga berilgan javoblar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik (χ^2 mezoni asosida)

O‘zingizni qaysi submadaniyat vakili deb hisoblaysiz?	**Insonning eng qimmatli narsasi uning hayoti degan fikrga qo‘shilasizmi?**				Jami
	Bu fikrga to‘liq qo‘shilaman	Bu fikrga qis-man qo‘shila-man	Bu fikrga qis-man qo‘shil-mayman	Bu fikrga umu-man qo‘shil-mayman	
Gotlar	68.42%	28.07%	3.51%	0%	100%
Emolar	58.06%	32.26%	9.68%	0%	100%
Repperlar	63.16%	28.95%	2.63%	5.26%	100%
Otaku	66.67%	25.00%	0%	8.33%	100%
Ska	57.14%	42.86%	0%	0%	100%
Rastafari	42.86%	14.29%	42.86%	0%	100%
Hippilar	57.69%	42.31%	0%	0%	100%
Konkida uchuvchilar	50%	50%	0%	0%	100%
Yozuvchilar	54%	39%	4%	4%	100%
Geymerlar	78%	6%	17%	0%	100%
Serfuvchilar	20%	80%	0%	0%	100%
Anime muxlislari	100%	0%	0%	0%	100%
Graffiti rassomlari	50%	50%	0%	0%	100%

Antisotsial	0%	100%	0%	0%	100%
Fanatlar	69%	29%	2%	0%	100%
Boshqa	71.43%	22.45%	6.12%	0%	100%
Jami	**63%**	**30%**	**5%**	**1%**	**100%**

Izoh: (χ^2=56.299; p<0.01)

Submadaniyat vakillarining “Insonning eng qimmatli narsasi uning hayoti degan fikrga qo‘shilasizmi?”,- deya berilgan savolga bergan javoblariga ko‘ra, bu fikrga to‘liq qo‘shilaman deya javob berganlar 63% ni, bu fikrga qisman qo‘shilaman deya ta’kidlaganlar 30% ni, bu fikrga qisman qo‘shilmayman deya javob bergan sinaluvchilar 5% ni va insonning eng qimmatli narsasi uning hayoti degan fikrga umuman qo‘shilmasligini 1% submadaniyat vakillari ta’kidlaganlar.

O‘smirlik davrida tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarning ahamiyati va ular bilan bog‘liq his-tuyg‘ular va his-tuyg‘ularning intensivligi keskin oshganligi sababli, o‘smirlar guruhlarni shakllantirishga moyildirlar. Tengdoshlar guruhlarida ular keyingi rivojlanish va boshqalar bilan uyg‘un munosabatlarni o‘rnatish, qadriyatlar va axloqiy ko‘rsatmalar tizimini ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiylashuv tajribasiga ega bo‘ladilar.

Xulosa. Adabiyotlarni tahlil qilib, o‘rganib chiqib, biz norasmiy o‘smirlar guruhlari ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ehtiyojni qondirish va yoshlarni ma’lum ijtimoiy maqomga ega bo‘lish uchun yaratilganligiga amin bo‘ldik. Bularning barchasi ko'pincha individuallikdan voz kechish va guruhning me’yorlari, qadriyatlari va manfaatlariga to‘liq bo‘ysunishdir. Guruh asosan o‘smirning xulq-atvorini belgilaydi va uning o‘ziga va boshqalarga munosabatini shakllantiradi. Guruhning bir qismi bo‘lish qudratlilik va o‘z-o‘ziga ruxsat berish tuyg‘usini beradi, o‘z-o‘zini hurmat qilishni sezilarli darajada oshiradi, o‘z-o‘zini tanqid qilish va o‘zini kamsitishni keskin kamaytiradi. Shaxslararo munosabatlarda kurashayotgan, ta’lim jarayonida muvaffaqiyatsizlikka uchragan va natijada izolyatsiyalangan, ijobiy ijtimoiy guruhlarga mos kelmaydigan, barqaror axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lmagan, noqulay psixologik vaziyatlarga ega bo‘lgan oilalardan chiqqan va xarakterli xususiyatlarni namoyon etadigan o‘smirlar destruktiv submadaniy guruhlarga qo‘shilish xavfi yuqoriligi ularning shaxsiy psixologik xususiyatlariga bog‘liq holda kechishini namoyon qiladi. Garchi bu jamoalarning ko‘p turlari (emoslar, gotlar, panklar, skinxedlar, nonkonformistlar va boshqalar) mavjud bo‘lsa-da, umumiy salbiy ta’sirlarni tajovuzkorlik yoki noto'g'ri moslashish, o‘ziga qaram turmush tarzi modasi kabi simvollar yordamida aniqlash mumkin. O'zaro ta’sirning konstruktiv vositalarining mavjudligi, barqaror ijobiy o‘zini-o‘zi hurmat qilish va o‘z his-tuyg'ularini yetarli darajada ifoda etish qobiliyati esa bularning barchasi atrof-muhitning ta’siriga chidamli shaxsning rivojlanishiga yordam beradi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Луков В. А. Теории молодёжи: пути развития // Знание. Понимание. Умение. – 2007. – № 4. – С. 87–98.

2. Логвинова М. И. Групповая направленность представителей индивидуальных и социальных молодёжных субкультур // Учёные записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета. – 2021. – № 2 (58). – С. 322–328.

3. Otamuratova S. A. Theoretical basis of researching the psychological characteristics of representatives of youth subcultures // Вестник интегративной психологии : журнал для психологов. – 2025. – Вып. 36, ч. 1 / под ред. В. В. Козлова, Ш. Р. Баратова, М. Н. Усмановой. – Ярославль : МАПН, 2025. – С. 278–284.

4. Otamuratova S. A. Analysis of research results of scientists in studying the personal characteristics of representatives of youth subcultures // Вестник интегративной психологии : журнал для психологов. – 2025. – Вып. 37, ч. 1 / под ред. В. В. Козлова, Ш. Р. Баратова, М. Н. Усмановой. – Ярославль : МАПН, 2025. – С. 322–326.

5. Otamuratova S. A. Submadaniyat vakillari shaxs xususiyatlarining tahlili olimlar talqinida // Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari. – 2025. – № 8, B seriya. – B. 43–48. (O‘zbek tilida)

6. Otamuratova S. A., Otamuratov R. U. Yoshlar submadaniyatlari vakillarining shaxs xususiyatlarini o‘rganilishi muhim psixologik kategoriya sifatida // Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar : Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami (2025-yil 16–17-may). – 2025. – B. –.

7. Сидоренко Е. В. Методы математической обработки в психологии. – СПб. : Речь, 2008. – 350 с.

Qalandarova Gulqand Mamurovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi mustaqil tadqiqodchisi

BO‘LAJAK PSIXOLOGLARNI IJODIY - INNOVATSION TAYYORLASHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola bo‘lajak psixologlarni ijodiy - innovatsion tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola mazmunida oliy ta’lim muhitida innovatsion-ijodkorlik sifatini rivojlantirishni psixologik o‘rganishning ilmiy yo‘nalishlari, innovatsion - ijodkorlik va uni belgilovchi psixologik xususiyatlar, innovatsion shaxs va uning xarakterologik sifatlari, ijodkorlik faoliyat sifatida, texnogen o‘zgarishlar sharoitida yangiliklarga moslasha olish, shaxsning yaratuvchanlik, produktiv fikrlash faoliyati, innovatsiyaga moyillik, ijodkorlikning motivatsion, konitiv, xulq-atvor komponentlari kabi masalalar ham batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixolog, kasbiy tayyorlash, innovatsiya, ijodkorlik, sifatlar, yangilik, g‘oya, kreativlik, qobiliyat, ijod, maxsus qobiliyatlar, ijodiy faoliyat, ixtiro qilish, yaratish, novatorlik, o‘quv motivatsiyasi, bilim, tajriba, intuitsiya, kognitiv faollik.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТВОРЧЕСКО-ИННОВАЦИОННОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПСИХОЛОГОВ

Аннотация. *Статья посвящена теме научно-теоретических основ творческой и инновационной подготовки будущих психологов. Также в статье подробно рассматриваются научные направления психологического изучения развития инновационно-творческих качеств в условиях высшего образования, инновационно-творческая деятельность и психологические характеристики, её определяющие, инновационная личность и её характерологические качества, креативность как вид деятельности, способность к адаптации к инновациям в условиях техногенных изменений, креативность, продуктивная мыслительная деятельность личности, склонность к инновациям, мотивационный, когнитивный, поведенческий компоненты креативности.*

Ключевые слова: *психолог, профессиональная подготовка, инновации, креативность, качества, новизна, идея, креативность, способность, творческий потенциал, специальные способности, творческая деятельность, изобретение, создание, новаторство, мотивация обучения, знания, опыт, интуиция, познавательная активность.*

SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF CREATIVE-INNOVATIVE TRAINING OF FUTURE PSYCHOLOGISTS

Annotation. *This article is devoted to the topic of scientific and theoretical foundations of creative and innovative training of future psychologists. Also, the article covers in detail the scientific directions of psychological study of the development of innovative and creative qualities in a higher education environment, innovative and creative and the psychological characteristics that determine it, innovative personality and its characterological qualities, creativity as an activity, the ability to adapt to innovations in conditions of technogenic changes, creativity, productive thinking activity of a person, a tendency to innovation, motivational, cognitive, behavioral components of creativity.*

Key words: *psychologist, professional training, innovation, creativity, qualities, novelty, idea, creativity, ability, creativity, special abilities, creative activity, invention, creation, innovation, learning motivation, knowledge, experience, intuition, cognitive activity.*

Kirish. Dunyoda, intellektual jihatdan barkamol bo‘lgan kadrlarni tayyorlash, ilg‘or oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish iqtidorli, izlanuvchan va ijodkor talabalarning o‘quv faoliyatini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oliy ta’limda o‘quv sifatini yangi islohotlar darajasiga ko‘tarish kabilar, jahon afgor ommasi tomonidan keng qamrovli o‘rganib kelinmoqda. Zamonaviy

ta'limning asl maqsadi, insonga ma'lum bilimlarni yetkazishgina emas, balki uning ma'naviy-axloqiy mohiyatini rivojlantirishdir. Ya'ni yurtimiz yoshlarining hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun, ularning tabiiy iste'dodi va qobiliyatini kashf yetishga ko‘maklashishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Har bir inson yangi bilimlar va tajribalarni o‘zlashtirishga qaratilgan o‘quv faoliyati orqali rivojlanadi, maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydi, ijodiy faoliyat orqali o‘z qobiliyatini rivojlantiradi. Shu jihatdan qaralganda, shaxsning ijodiy qobiliyati bilim va ko‘nikmalalardan samarali foydalanish va yangi ilg‘or g‘oyalarni yaratishga qaratilgan xususiyati sanalib, uni tadqiq etish innovatsion-ijodkor shaxsga xos ko‘plab ijtimoiy-psixologik sifatlarning tabiatini hamda yaratuvchanlik qobiliyatlar mazmunini yoritishga keng imkon beradi. Bo'lajak psixologlarning Innovatsion - ijodkorlik tabiatan murakkab hodisa bo‘lsada, biroq uni o‘rganishga bo‘lgan ilk harakatlar tadqiqotchilardan T.Ambile, R.Kanter, M.Vest, M.Kirton, M.Basadur Ye.Xagen, J.Fax, E.Klochko, Yu.Galajinskiy, O.Karpova, Ye.Dergacheva, T.Kabichenko, I.Konevlarning izlanishlarida o‘z aksini topgan. Mualliflar asosan, shaxsning innovatsion darajasi va ijodkorlik sifatlari, uni ta'minlovchi psixologik sifatlar, innovavatorlik va ijodiylikka salbiy ta'sir etuvchi omillar kabi masalalarda kng ko‘lamli tadqiqotlar olib borishgan. Tadqiqotchi V.A.Adolfning ta'rificha, psixologlar uchun zarur sanalgan "ijodiylik" - bu an'anaviy yoki qabul qilingan fikrlash shakllaridan chetga chiqadigan, tubdan yangi g‘ayrioddiy g‘oyalarni yaratishga qodirlik, shuningdek, murakkab vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyati kabi xususiyatlar bilan tavsiflangan shaxsning ijodiy qobiliyatidir.

Bo'lajak psixologlarning muhim kasbiy sifati sanalgan, innovatsion-ijodkorlik fenomeni murakkab psixologik unsur sanalib, uni o‘rganishda qobiliyat, iqtidor, ijod, kreativlik, novatorlik kabi tushunchalarning tabiati ham hisobga olinishi lozim. Gans Yurgen Ayzenk shaxsning ijodiy sifatlarni belgilovchi, va asoslovchi qobiliyat tushunchasiga alohida e'tibor qaratib, uni insonning butun ruhiy holatining boshqa fazilatlari bilan tabiiy birligi sanaladi. Har bir inson yangi bilimlar va tajribalarni o‘zlashtirishga qaratilgan o‘quv faoliyati orqali rivojlanadi, maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydi, ijodiy faoliyat orqali o‘z qobiliyatini rivojlantiradi.

Ijod va ijodkorlik masalasi, xorij tadqiqotchisi E.Torrensning izlanishlari bilan bog‘liq bo‘lib, u insondagi sezgirlik, muammolarni aniqlay olish xususiyati, farazlar asosida har qanday masalaning yechimini topa bilishga, uni o‘zgartirish kabilarga xizmat qiluvchi qobiliyat turlarini tadqiq etishga harakat qilgan.

Zamonaviy psixologiyada ijodiy jarayonga nafaqat aqliy harakat, balki insoniy sifat, obraz yoki turmush tarzi, dunyoga munosabati sifatida qaraladi. Shaxs kamolotidagi ijodiy taqdir, shaxsning madaniyat bilan munosabati va muloqot malakalari bilan belgilanadi. Psixolog G.Olport o‘zining "Shaxs" nomli birinchi fundamental kitobida shunday deydi: "har bir rassom, bastakor, o‘qituvchi, o‘quvchi, pianinochi, haykaltarosh, raqqosa, shoir, dramaturg, rassom, notiq, fotograf, akrobat, uy bekasi va oddiy haydovchining o‘ziga xos harakatlar uslubi bor. Biz Shopinning sonatalarini, Van Gogning rasmlarini va Salli xolaning piroglarini bir uslubda taniy olamiz. Demak, uslub ijodiy qobiliyatning yuqori darajasi sanalib, u yaxshi integratsiyalashgan va shaxsning muvaffaqqiyatli xatti-harakati ishtirok yetganda yuzaga keladi" deb ta'kidlaydi. Ijodkorlik albatta, cheklangan amaliyot sohalarida shaxs individualligini aks ettirish yoki yaxshi rasm chizishni anglatmaydi, balki u kundalik va oddiy ko‘rinadigan narsalarda, masalan, kechki ovqat tayyorlash, mashinani ta'mirlash va hatto pol yuvishda ham ifodalanishi mumkin. Shunga qaramay, masalan, ko‘pchilik yaxshi asar va ijod namunalarini dunyodagi eng yaxshisi deb baholashadi, bu yangiliklarni yaratishga bo‘lgan ijodiy yondashuvni aks ettiradi va muhabbat bilan uyg‘unlashadi.

L.A.Adreyevaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, har bir yosh psixologlarning o‘ziga xos qobiliyatlari bor va u ijodkorlik uchun juda muhimdir. Shuning uchun bolani yoshligidan maktabni tugatguniga qadar, ijodga doimiy jalb etish, aql-zakovat va moslashuvchanlik kabi sifatlarni rivojlantirish o‘ta muhim ish sanaladi. Ilmiy asoslarga ko‘ra, "ijodiy qobiliyatlar" mazmunini tahlil qilish, birinchi navbatda, "qobiliyat" tushunchasini tushunishni talab qiladi. Falsafada "qobiliyatlar" shaxsning muayyan harakatni amalga oshirish imkonini beruvchi shaxsiy xususiyatlari bo‘lib, ular ijtimoiy-tarixiy faoliyat natijasida shakllanib, yanada rivojlanib borishini ta'kidlanadi. "Ijod" so‘zining ma'nosi etimologik eihatdan "ishlab chiqarish", "ixtiro qilish" degan ma'noni anglatadi.

Taniqli psixolog L. S. Vigotskiy kashfiyotni “ijodiy” deb ta’riflaydi. Va ushbu masalani chuqur o‘rgangan psixologlardan biri Ya. A. Ponomarev esa, psixolog uchum zarur sanalgan ijodkorlikni - “rivojlanish” tushunchasi bilan tenglashtiradi. Chunki yangilik, ayniqsa, intellektual ma’noda bola ruhiyatini yangi sifat bosqichiga ko‘taradi. Hozirgi sharoitda davlatlarning rivojlanish darajasini nafaqat tabiiy resurslarning boyligi, balki intellektual va bunyodkorlik jamiyati, fan va ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishdagi muvaffaqiyatlar ham belgilaydi. Shunday qilib, bola doimiy monitoring davomida mustaqil ishlay boshlaydi.

P.S.Gluxovning so‘zlariga ko‘ra, bo’lajak psixologlar shaxsi uchun samarali hisoblangan innovatsion faoliyat - bu kundalik hayot o‘zgarishlari bilan birga yashash, mahsulotlarning yangi turlarini yaratish, asbob-uskunalar va mehnat obyektlarini qayta takomillashtirish, texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni zamon talablari doirasida tashkil eta olish kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishning dinamik tizimi sanaladi. Demak, innovatsion faoliyat har qanday sohada hozirgi kun talablari va o‘zgarishlari bilan hamnafas yashash hisoblanadi. Shu bois, boshqaruv sohasida faoliyat olib borayotgan har bir rahbar xodimlar innovatsion faoliyatga bo‘lgan kompetensiyalarga ega bo‘lishlari lozim sanaladi.

Tadqiqotchi Yu.A.Afoninning fikricha, innovatsiyalar bu – insonlarning moddiy va ma’naviy faoliyati mahsuli, ularning aqliy darajasini belgilovchi harakatlari dinamikasi sanaladi. Ana shu harakatlar yangi madaniyat mahsulini yaratuvchi sotsial omillar hisoblanadi. Sotsiologik qarashlardan farqli o‘laroq, innovatsion faoliyatning pedagogik xarakteristikasi ham farqlanib, unda asosiy e’tibor pedagog shaxsining boshqaruvchanlik va yangiliklarga bo‘lgan qobiliyatlariga qaratiladi. Pedagogik sohadagi innovatsion faoliyat bu – ta’lim-tarbiya tizimini yangilashga qaratilgan, kasbiy faoliyatga tegishli yangi bilimlar, texnologiyalar, innovatsion usullar, operatsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiluvchi pedagogik ijod jarayoni sanaladi. Demak, innovatsion faoliyat integral mazmundagi hodisa sanalib, har qanday sohada yetakchilikka olib keluvchi intellektual, funksional, kognitiv, hissiy harakatlar muajmuidir. Innovatsion shaxs avvalambor, yangi narsalarni birinchi bo‘lib idrok etuvchi, ilg‘or g‘oyalarni ish o‘z amaliyotida tez sinab ko‘ruvchi, eski an’analardan qochuvchi hamda yangicha usulda ishlashga qodir kishilar sanaladi.

Metodlar. Tadqiqot ishimizda ko‘zlangan maqsadga erishish, qo‘yilgan vazifalarni hal etish maqsadida, muammoni ilmiy dalillovchi quyidagi metodikalardan foydalanildi. Jumladan, N.M. Lebedeva va A.N. Tatarkolarning “Shaxsning innovatsion xususiyati va o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlash” metodikasi, I.O.Zagashevaning “Tashkilot xodimining innovatsiyalarga tayyorligini baholash” metodikasi, Ye.G.Lukoviskaya va Ye.N.Osinalarning “Noaniqliklarga umumiy tolerantlilik shkalasi”, Dj.Brunerning “Tafakkur va kretivlik” testi, I.P.Ilinning “Fikrlashda intuitsiya kuchini aniqlash so‘rovnomasi, R.B.Kettelning “ 16 omilli shaxs so‘rovnomasi”. Biroq, ayrim psixologik manbalarda innovatsion yetakchi bo‘lish uchun, ongning rivojlanganlik darajasi va kuchli irodadalik haqida so‘z boradi. V.Ye.Klyuchkoning ta’rificha, innovatsion psixologning ijodiy salohiyatining tuzilishi quyidagilar bilan bog‘liq sanaladi:

– Motivatsion soha – ya’ni muvaffaqiyat motivatsiyasi, ishlash qobiliyati, intilish darajasi, davogarlik sifati, o‘z ustida ishlay olish qobiliyati;

– Hissiy va irodaviy soha – kreativ tafakkur, divergent fikrlash, yuqori darajadagi emotsional intellekt va fikrlashdagi originallik;

– Individual psixologik xususiyatlari – ijodkorlik, nostandart firklash, qisqa muddatda aniq va samarador qaror qabul qila olish qobiliyati va hokazo. Ushbu tasniflardan shu narsa ma’lumki, har qanday yetakchi shaxs boshqaruv faoliyatida nafaqat mustaqil balki, ijodkor va kerativ fikrlashga qobiliyatli bo‘lishi lozim sanaladi.

Natijalar va muhokama. Har bir yangi avlod nafaqat oldingi avlod yutuqlarini o‘zlashtiribgina qolmay, balki barcha sohalarda ajoyib muvaffaqiyatlarga erishadi, o‘sha yutuqlarni yangi sharoitda moslashtirib, takomillashtirib boradi. “Ijodkorlik” ta’lim sohasining maqsadi: maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy muhiti va estetik didini shakllantirish, ijodiy fikrlash va tasavvur madaniyatini rivojlantirish.

1-Jadval.

Shaxs ijodkorligi va innovatsion faoliyatda o'z-o'zini baholash so'rovnomlari psixotrening ko'rsatkichlari (Psixolog talabalar N=535)

Shkalalar	Psixotreningga qadar	Psixotreningdan keyin
	O'rtacha ko'rsatkich	O'rtacha ko'rsatkich
Liderlik	8	12
Mustaqillik	8	13
To'g'riso'zlik	7	10
Ishonchsizlik	8	6
Tortinchoqlik	9	6
Bo'ysunuvchanlik	5	12
Hamkorlik	10	14
Mas'uliyatlilik	8	13
Tavakkalchilikka moyillik	14	20
Bilimga qiziquvchanlik	16	21
Murakkablik	20	15
Ijodiy tasavvur	18	21
Ijodkorlik	13	18
Muvaffaqiyatdan xavfsirash	18	21
Kelajakka yo'nalganlik	14	17

Oliy ta'limda ijodiy-innovatsion ta'lim samaradorligini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik omillari o'zgarishlari quyidagi shkalalarda o'z ifodasini topgan: liderlik shkalasi bo'yicha psixotreningga qadar μ=8 bo'lib, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyin o'zgarishlar μ=12 ni tashkil qilgan. Mustaqillik shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlar psixotreninga qadar μ=8 ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi o'zgarishlar μ=13 ni ko'rsatdi. To'g'riso'zlik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar μ=7 ni tashkil qilgan bir paytda, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat μ=10 ni tashkil qilgan. Ishonchsizlik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar μ=8 ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat μ=6 ni namoyon qilgan.

Tortinchoqlik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar μ=9 ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat μ=6 ni aks etgan. Bo'ysunuvchanlik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar μ=5 ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat μ=12 ni qayd etgan. Hamkorlik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar μ=10 ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat μ=14 ni tashkil etgan. Mas'uliyatlilik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar μ=8 ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat μ=13 ni namoyon etgan. Tavakkalchilikka moyillik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar μ=14 ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat μ=20 ni qayd qilgan.

Bilimga qiziquvchanlik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar μ=16 ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat μ=21 ni aks etgan. Murakkablik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar μ=20 ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat μ=15 ni ko'rsatgan. Ijodiy tasavvur shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar μ=18 ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat μ=21 ni keltirib chiqargan. Ijodkorlik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar μ=13 ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat μ=18 ni qayd qilgan. Muvaffaqiyatdan xavfsirash shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar μ=118 ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat μ=21 ni tashkil qilgan. Kelajakka

yo'nalganlik shkalasi bo'yicha psixotreninga qadar ko'rsatkichlar μ=14 ni tashkil qilgan, ushbu shkala bo'yicha psixotreningdan keyingi holat μ=17 ni namoyon qilgan.

Xulosa. innovatsion faoliyat samaradorligini aqliy qobiliyatlar, motivlar, qadriyatlar tizimi va shaxsiy xususiyatlar ta'minlaydi. Yuqori yaratuvchanlik, muvaffaqqiyatli faoliyatida ijodkorlik aql-zakovatdan mustaqil jarayon va mustaqil omil sifatida tadqiq etiladi. Agarda, ushbu masalada kengroq psixologik tadqiqotlar olib borilsa, unda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ijodkorlik va innovatsion qobiliyat va ularni o'z vaqtida rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik shart -sharoitlariga oydinlik kiritilishi, ehtimoldan holi emas. Oliy o'quv yurtlarida psixolog mutaxassislarni tayyorlashda, ijodiy-innovatsion ta'lim samaradorligini takomillashtirishga shaxslararo munosabatlarni yo'lga qo'yish, kreativ fikrlash xususiyatlari, talabaning ijodkorlik xususiyatlarini baholash, ijodiy-innovatsion faoliyatda o'z-o'zini baholash, talaba shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va guruhiy faoliyatda jipslik darajasi singari ijtimoiy-psixologik omillar o'zining yuqori ta'sirini ko'rsatishi asoslandi. Ishlab chiqilgan amaliy izlanishlar asosida oliy o'quv yurtlarida ijodiy-innovatsion ta'lim samaradorligi xususiyatlarining talaba tomonidan kasbiy bilimlarni mukammal o'zlashtirish, zamonaviy professional ta'limni ishlab chiqish, yuqori malakali pedagogga davogarlik darajasi, innovatorlik, muammolarni yengishga bo'lgan motivatsiya va muvaffaqqiyatga erishish xususiyatlari bilan belgilanar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Адольф В. А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя : дис. … д-ра пед. наук. – М., 1999. – 378 с. – С. 96.
2. Айзенк Г. Ю. Интеллект: новый взгляд // Вопросы психологии. – 1995. – № 1. – С. 23–31.
3. Торренс Э. Активизация различных видов учебных занятий в институте : методическая разработка. – Д. : ИПК СП, 2014. – 78 с.
4. Андреев А. Л. Знания или компетенции? // Высшее образование в России : научно-педагогический журнал. – 2005. – № 2. – С. 3–11.
5. Выготский Л. С. Педагогическая психология. – М. : Педагогика-Пресс, 1996. – 536 с. – С. 37.
6. Афонин И. В. Инновационный менеджмент и экономическая оценка реальных инвестиций : учебное пособие. – М. : Гардарики, 2006. – 256 с. – С. 44.
7. Клочко В. Е., Краснорядцева О. М. Особенности операционализации понятия «инновационный потенциал личности» // Вестник Томского государственного университета. – 2010. – № 339. – С. 151–154.

Rahmonova Oyshaxon Oribovna
Qo‘qon davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

PSIXOLOGIYADA O‘ZI O‘ZINI BAHOLASH MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ILMIY MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola psixologiyada o‘z o‘zini baholash muammosini o‘rganishning ilmiy masalalari mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola mazmunida o‘z o‘zini baholash, o‘zini hurmat qilish, o‘z o‘zini baholashning yosh xususiyatlari, shaxsda o‘zini o‘zi baholash shakllanining psixologik o‘ziga xosliklari, shaxslararo munosabatlarda o‘z xulq atovrini nazororat qilish kabi masalalar ham keng yoritilgan. Muammoga tegishli barcha ma’lumotlar, xorij va mahalliy psixolog olimlarning ilmiy yondashuvlari orqali tahlil etilgan.*

Kalit so ‘zlar: *shaxs, o‘z o‘zini baholash, men, o‘zini o‘zi hurqmat qilish, adekvat baho, shaxsiy pozitsiya, maqsad, o‘zini o‘zi tasdiqlash, qaror qabul qilish, yoshlar, suyubyektiv baho, refleksiya.*

НАУЧНЫЕ ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ САМООЦЕНКИ В ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. *Статья посвящена научным вопросам изучения проблемы самооценки в психологии. Также рассматриваются такие вопросы, как самооценка, самооценка, возрастные особенности самооценки, психологические особенности форм самооценки личности и контроль своего поведения в межличностных отношениях. Вся информация, связанная с этой проблемой, анализируется с использованием научных подходов зарубежных и отечественных психологов.*

Ключевые слова: *личность, самооценка, Я, самооценка, адекватная оценка, личностная позиция, цель, самоутверждение, принятие решений, юность, субъективная оценка, рефлексия.*

SCIENTIFIC ISSUES OF STUDYING THE PROBLEM OF SELF-ASSESSMENT IN PSYCHOLOGY

Annotation. *This article is devoted to the scientific issues of studying the problem of self-assessment in psychology. Also, the article covers such issues as self-assessment, self-esteem, age characteristics of self-assessment, psychological characteristics of the form of self-assessment in a person, and control over one's behavior in interpersonal relationships. All information related to the problem was analyzed through the scientific approaches of foreign and domestic psychologists.*

Key words: *personality, self-assessment, self, self-esteem, adequate assessment, personal position, goal, self-affirmation, decision-making, youth, subjective assessment, reflection.*

Kirish. O‘z-o‘zini hurmat qilish va adekvat baholash 21 asr psixologiyasi uchun, juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, chunki u psixologik salomatlik, xulq-atvor, munosabatlar va muvaffaqiyatni belgilaydi, stressga chidamlilik va motivatsiyaga ta’sir qiladi. Bu jarayon o‘smirlardan tortib kattalargacha bo‘lgan barcha yosh guruhlariga ta’sir qiladi. O‘z-o‘zini baholashning yetarli darajadasi bu psixologik farovonlikning kalitidir. Bu masala depressiya, xavotir, antisotsial xatti-harakatlar va akademik va professional muvaffaqiyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi bois, uni psixologik jihatdan o‘rganish juda dolzarbdir. Biroq, zamonaviy jamiyatda o‘z-o‘zini adekvat baholash jarayonida, shaxs yangi qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Aksariyat tadqiqotlarda o‘zini o‘zi baholash" O‘zini o‘zi hurmat qilish" tushunchasi bilan birga tahlil etiladi. Tadqiqotchi S. Kupersmitning fikricha, o‘z-o‘zini hurmat qilish - bu insonning o‘ziga nisbatan asta-sekin shakllangan munosabati. O‘z-o‘zini hurmat qilish insonga o‘z qadr-qimmati va ahamiyatiga ma’lum darajada ishonch bag‘ishlaydi. Olim o‘z-o‘zini hurmat qilishning ikkita tarkibiy qismini ko‘rib chiqdi: 1) baholash komponenti; 2) affektiv komponent. O‘z-o‘zini hurmat qilishning shakllantiruvchi asoslari sifatida S. Kupersmit quyidagilarni tasnifladi:

1) kuch (boshqalarga ta’sir/nazorat);

2) ahamiyatlilik (boshqalar uchun qiymat/boshqalarni idrok etish);

3) fazilat (axloqiy va axloqiy me'yorlarga rioya qilish);

4) belgilangan maqsadlarga erishishdagi kompetensiya yoki muvaffaqiyat. Ba'zan o'z-o'zini hurmat qilish faqat insonning o'ziga nisbatan hissiy-qiymat munosabatlarining tarkibiy qismi sifatida qaraladi, ammo tadqiqotchi R. Uayli bu tushunchani murakkab hodisa deb hisoblagan, uning asosini ikkita komponent tashkil etadi: 1) shaxsning o'z baholari; 2) atrofidagi odamlarning shaxsiyatini baholash. O'z-o'zini hurmat qilish - bu insonning o'ziga, uning shaxsiy fazilatlariga va yutuqlariga munosabati bilan bog'liq affektiv komponent. Qabul qilish yoki qoralash hissiyotlariga qarab, u turli darajadagi intensivlikka ega. Xudbinlik, egoizm (lotincha ego- so'zidan olingan) - bu o'z manfaatlarini qondirish eng yuqori yaxshilik deb hisoblanadigan hayotiy pozitsiya va shunga ko'ra, har bir kishi o'z manfaatlarini maksimal darajada qondirishga intilishi kerak, ehtimol hatto boshqa odamlarning manfaatlariga yoki umumiy manfaatlarga zarar yetkazishi va ularni buzishi mumkin. O'ziga shunday savollarni bergan har bir kishi o'z harakatlarining qonuniyligiga shubha qiladi. Bu shubha sizga oldindan berilgan yo'nalishda ishonch bilan harakat qilish, xavotirlanish, bebaho energiya va vaqtni olishga imkon bermaydi. Bunday qiyinchiliklardan qochish uchun, keling, xudbinlik nima ekanligini va uning o'zini o'zi qadrlashdan qanday farq qilishini tushunib olaylik.

Ko'pgina ilmiy psixologik lug'atlarda yozilishicha, xudbinlik boshqa narsadir: o'ziga bo'lgan muhabbat; o'z manfaati, foydasi, o'z manfaatlarini boshqa odamlarning manfaatlaridan ustun qo'yish va boshqalar g'oyasi bilan to'liq belgilanadigan xatti-harakatlar. Katta psixologik lug'at talqiniga ko'ra, o'z-o'zini hurmat qilish: shaxsning o'ziga va uning shaxsiyati, harakatlari va xatti-harakatlarining ayrim jihatlariga beradigan qiymati, ahamiyati. Ya'ni, o'ziga ishonch - bu inson o'zini ham o'zi, ham atrofdagilar uchun joylashtiradigan butun tizimdir. Demak, egoizm va o'ziga ishonch tushunchalari o'rtasidagi farqni quyidagicha tushuntirish mumkin.

Xudbinlik injiqlikdir, ongni xiralashtiradi, cheklaydi. Inson o'z muammolari va vazifalariga maksimal darajada e'tibor qaratadi. U faqat o'z xohish-istaklariga bog'liq. Hamdardlik bildirish, hamdardlik bildirish va vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyati xiralashgan. Yuqori o'ziga ishonch yetarli yoki yetarli bo'lmasligi mumkin. Yuqori o'ziga ishonchga ega bo'lgan odam o'zini hurmat qiladi, o'zini barcha qobiliyatlari va qobiliyatlari bilan munosib inson sifatida tan oladi. Bunday odam boshqalarni munosib baholaydi, tanqidni o'rtacha darajada qabul qiladi va "toj uni ezmaydi". U rivojlanadi va izchil ravishda maqsadlariga erishadi.

Ta'kid joizki, xudbin odam kim bo'lishni xohlashi, boshqalarning fikri va aslida kimligi o'rtasida ichki ziddiyatga ega. Ushbu ziddiyat asosida egoist o'zini boshqalardan ajratib qo'yadi va ko'pincha boshqalar bilan konstruktiv munosabatlarni o'rnata olmaydi. Xudbinlik - bu ishonchsizlikning namoyon bo'lishi, ya'ni shakllanmagan, shakllanmagan o'ziga ishonch. Ko'pincha, bu o'ziga bo'lgan yuqori hurmatdir. Qoida tariqasida, bunday o'ziga bo'lgan hurmat bolalikdagi norozilik natijasidir. Bolaligidan boshlab, inson ota-onasining mehrini qaytarishga harakat qilib, xudbin bo'lib qoladi. Ba'zan inson ko'p yillar davomida qilgan harakatlari uchun minnatdorchilik bildirilmaganda xudbin bo'lib qoladi. Ikkala holatda ham, odamda sevgi, e'tibor, minnatdorchilik yo'q va u bu fazilatlarning boshqa odamlarga nisbatan namoyon bo'lishiga ochko'zlik qiladi. O'ziga yuqori hurmatga ega bo'lgan odam o'z his-tuyg'ularini ko'rsatishga ochko'z emas, u ochiqko'ngil. Chunki bunday odam to'la, u beradigan narsaga ega va berilgan narsa osongina to'ldiriladi. Egoizmning asosiy belgilari quyidagilarga bog'liq bo'lishi mumkin

1. Janjallarni sevadi, uyatsiz;
2. Burch hissi yo'q;
3. O'ziga bo'lgan hurmat hissi yo'q, dangasa;
4. Vijdonsiz, beparvo, tartibsizlikni sevadi;
5. Maslahatlarga quloq solmaydi, hech qanday talablarga toqat qila olmaydi;
6. Mas'uliyatsiz, hamdardlikni bilmaydi, befarq;
7. Tushunarsiz, befarq, hech kimga e'tibor bermaydi.

Shu bois ham, egoizm hayot jarayonida, yoshligidan boshlab asta-sekin paydo bo'ladi. Oilada tarbiya, boshqalar bilan muloqot, tashqi dunyoni idrok etish - bularning barchasi insonning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladi. Manba butunlay boshqa holatlar bo'lishi mumkin. Lekin, birinchi navbatda, bu bolalikda sevgi va e'tiborning yo'qligi, tashlab ketilish qo'rquvi, o'z qobiliyatlariga

ishonchsizlik, jarohatlar va ruhiy jarohatlardir. Bolalar rivojlanishning turli bosqichlarida xudbinlik xatti-harakatlarini namoyon qiladilar. Bunday harakatlarga misollar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

1. O‘yinchoqlarni baham ko‘rishni istamaslik;
2. O‘z fikrida qat’iy turib olish va yon berishlardan bosh tortish;
3. Boshqalarning his-tuyg‘ularini e’tiborsiz qoldirish. ularning ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirish;
4. E’tiborga haddan tashqari talablar qo‘yish;
5. O‘z qiziqishlari va istaklarini ilgari surish.
6. Bunday harakatlarning namoyon bo‘lishi turli sabablarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:
7. Boshqa bolalar bilan tajribaning yo‘qligi;
8. Bdamlarning his-tuyg‘ularini tushunish va tushunishning past darajasi;
9. Ota-onalar bolaga atrofdagilarni hurmat qilishni va ular bilan baham ko‘rishni o‘rgatmaganda, tarbiyadagi xatolar. Egoizmdan xalos bo‘lishning quyidagi usullarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Empatiyani rivojlantiring. Bu diqqatni o‘z "men"idan boshqalarning qiziqishlari va ehtiyojlariga o‘tkazadi. O‘zingizni suhbatdoshning o‘rniga tez-tez qo‘yish va faol tinglashni o‘z ichiga olish kerak. Bu boshqalarning nuqtayi nazarini qabul qilishga, boshqalarni tushunishga yordam beradi. Mehr va hamkorlikni ko‘rsating. E’tibor bering va yordam berish uchun vaqt ajrating. Buning uchun sizning kichik harakatlaringiz boshqalarning hayotiga qanday ijobiy hissa qo‘shishi mumkinligi haqida o‘ylash kerak. Muloqot ko‘nikmalarini yaxshilang. Mojarolarsiz muloqot qilishni, boshqalarni to‘g‘ri tushunishni va sifatli muloqot qilishni o‘rganish muhimdir. Xudbinlikning namoyon bo‘lishini kuzating, uni tahlil qiling, uning paydo bo‘lish sabablarini tushuning. Bu psixolog yoki psixoterapevt bilan ishlashga yordam beradi.

Qator psixologik tadqiqotlarda yozilishicha, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik muhitiga kirish uchun ular bilan munosabatlarni saqlash lozim. Shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi juda muhim ko‘rsatkich bo‘lib, inson hayotiga ta’sir qiladi. O‘z qadr-qimmatiga ishonish, o‘ziga ishonch muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi. Aksincha, xo‘rlanish, aybdorlik va uyat hissi, asossiz uyatchanlik ichki ehtiyojlarning namoyon bo‘lishiga va ularni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi. Asosiy o‘ziga bo‘lgan ishonch bolalikda shakllanadi, ammo bu vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin bo‘lgan va tuzatishga moyil bo‘lgan toifadir. Psixologiyada o‘ziga bo‘lgan ishonchning uch turi mavjud. Tasniflash insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchining obyektiv ma’lumotlarga moslik darajasiga qarab amalga oshiriladi. Inson o‘zini qanchalik aniq baholasa, uning odamlar bilan munosabatlari shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi va hayotning barcha sohalarida yutuqlari shunchalik yuqori bo‘ladi.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida muammoga doir falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tahliliy o‘rganish va tahlil etish, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, sotsiometrik metodlar (anketa, suhbat, test, intervyu), pedagogik eskperement; natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan iborat. Rozenbergning “O‘z-o‘zini baholash” shkalasi, Dembo Rubinshteynning “O‘z-o‘zini baholashning” shkalasi, Liri - Sobchikning “Interpersonal diagnostikasi” so‘rovnomasi

Natijalar va muhokama. Mohiyatan, o‘zini anglashning bu shaklida insonning o‘zini baholashi real voqelik bilan mos keladi. Inson o‘zining kuchli va zaif tomonlarini hushyorlik bilan anglaydi, qobiliyatlari va ehtiyojlarini biladi va ichki salohiyatini aniqlaydi. Bunday odam o‘zini tanqid qila oladi va xatolar ustida ishladi. Kamchiliklar bartaraf etiladi va kuchli fazilatlar rivojlanadi. Buzilgan o‘ziga ishonch insonning o‘zi haqidagi fikri obyektiv emasligini ko‘rsatadi. Radikal o‘zini anglash haddan tashqari yoki past bo‘lishi mumkin, agar inson o‘zini umuman qabul qilmasa yoki o‘ziga xos bo‘lmagan fazilatlarga ega deb hisoblasa.


1-Jadval

“O‘z-o‘zini baholash” metodikasi va “Interpersonal diagnostikasi” so‘rovnomasi shkalalari bo‘yicha tafovutlari namoyon bo‘lishini natijalari (Kruskal-Wallis H, N=180)

Ko‘rsatkichlar	O‘z-o‘zini baholash (O‘rtacha ranglar)			H	p
	Yuqori darajada (n=90)	O‘rta darajada (n=194)	Past darajada (n=16)		
Real o‘zini o‘zi baholash	148,89	146,30	210,50	8,239	**0,016***
Ideal o‘zini o‘zi baholash	136,08	155,33	173,09	4,202	0,122
O‘z o‘zini qabul qilish	141,25	151,99	184,44	3,563	0,168
Mustaqillik	138,16	155,32	161,47	2,700	0,259
O’zini o‘zi yaxshi ko‘rish	128,36	161,36	143,34	9,083	**0,011***
Tirishqoqlik	146,32	151,30	164,34	0,641	0,726
Serg‘ayratlilik	145,39	148,97	197,78	5,175	0,075
Sabotlilik	145,40	149,95	185,88	3,013	0,222
Sobitqadamlilik	145,22	150,68	178,00	1,959	0,375

*Izoh: * - p<0.05*

O‘z-o‘zini baholash” metodikasi va “Interpersonal diagnostikasi” so‘rovnomasi bilan tafovutlari ko‘rib chiqildi va bunda shaxs real o‘zini o‘zi baholash (H=8,239, p<0,05) hamda Ideal o‘zini o‘zi baholash (H=9,083, p<0,05) xususiyatlari va tolerantlilik o‘rtasida ishonch darajada farq borligi kuzatildi.



3.1-rasm.“ O‘z-o‘zini baholash” so‘rovnomasi va “Interpersonal diagnostikasi” so‘rovnomasi shkalalari bo‘yicha o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari

Ya’ni yuqori darajadagi o‘z-o‘zini baholash” nisbatan past va o‘rta darajadagi real o‘zini o‘zi baholash xususiyatiga ega bo‘lgan insonlarda mas’uliyatlilik hamda vazminlik sifatlari yuqori darajada kuzatilishi ko‘rindi. Tashabbuskorlik mezoniga ko‘ra har qanday ishni boshlab berayotgan inson tashviqotchi sifatida o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga mas’uliyat bilan erishishni ustuvor qo‘yadi, sharoitni yaxshilashga xarakat qiladi, o‘zgarishlar va innovatsion yondashuvlar talab qiladigan vaziyatlarda o‘zlarini yaxshi ko‘rsatishga moyilliklari bilan ajralib turishadi va balki shu holatda

uning tolerantlilik darajasi namoyon bo‘ladi degan fikrlar mavjud. Vazminlik ya’ni sabr-toqatlilik insonda biror ishni tubdan o‘ylab, taroziga solib ish qilishiga ko‘mak beruvchi mezonlar sanalib ular ham tolerantlik darajasi o‘rta natijani ko‘rsatgan insonlarda vazminlik yuqori ekanligi ko‘rindi. Vazmin insonlar hayotiy vaziyatlarda o‘zini munosib namoyon qiladilar. Albatta ushbu xususiyat ko‘plab muammolarni tog‘ri yechimini namoyon qilishga sabab bo‘ladi. Vazmin insonlarda tolerantlik yuqori bo‘lishi bu normal holat, chunki ular har qanday vaziyatni taroziga solib, o‘ylab ko‘rib, uning ijobiy va salbiy tomonlarini o‘ylab ko‘rib xulosa chiqaradi. O‘ziga yetarlicha baho bermaslik muloqot va professional yutuqlarga xalaqit beradi. Bu holda, inson hayotning turli bosqichlarida o‘zini boshqacha ko‘radi, keyin o‘ziga ishonchni namoyon qiladi, keyin zaif va murakkab bo‘lib qoladi. Agar biz o‘zimizga ba’zi fazilatlar nuqtayi nazaridan qarasak va boshqa xususiyatlarga nisbatan yetarli bo‘lmasak, aralash shakl haqida ham gapirishimiz mumkin. Masalan, biz o‘zimizni kasbimizda ishonch bilan anglaymiz, lekin shaxsiy hayotimizda o‘zimizni munosib sherikka noloyiq deb bilamiz. O‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi o‘zini sevish va boshqa odamlar bilan taqqoslash darajasiga bog‘liq. O‘ziga past baho berish bilan inson o‘ziga alohida iliqliksiz munosabatda bo‘ladi, hayoti qanday rivojlanayotganidan qoniqmaydi. Bunday insonning tashqi ko‘rinishlarida: tez-tez o‘zini tanqid qilish; doimiy aybdorlik; boshqa odamlarni rozi qilish istagi; noto‘g‘ri ish qilishdan qo‘rqish. Shu bilan birga, inson yaxshi obyektiv ma’lumotlarga, salohiyatga ega, ammo xato qilishdan qo‘rqish tufayli ular ko‘pincha amalga oshirilmaydi.

Xulosa. Shaxsning o‘zini o‘zi adekvat baholashi yoki, o‘ziga bo‘lgan ishonchi insonda yoshligidan shakllanar ekan. Bunda ota-onalarning bolaga bo‘lgan sevgisini qanday ko‘rsatishi muhimdir. Agar sevgi shartsiz bo‘lsa, yaxshi xulq-atvorga bog‘liq bo‘lmasa, bunday bola normal yoki yuqori o‘ziga bo‘lgan ishonch bilan o‘sadi. Qolaversa, bola faqat biror narsa uchun sevilishini anglaganida (o‘yinchoqlarini tortib oldi, a’lo baho oldi, axlatni olib chiqdi), unda kattalar ham unga xuddi shunday munosabatda bo‘lishadi.Sevilishning iloji yo‘q va u yaxshi munosabatga loyiq. O‘ziga bo‘lgan ishonch kattalar davrida pasayishi mumkin. Masalan, inson martaba qurishga harakat qiladi, tinimsiz ishlaydi, malakasini oshiradi, ammo martaba o‘sishi bo‘lmaydi. Inson o‘z qobiliyatlariga shubha qila boshlaydi. Agar o‘ziga bo‘lgan ishonch dastlab normal bo‘lsa, bu muvaffaqqiyatsizlikka sabab bo‘ladi. Umuman olganda, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pastligi yanada pasayishi mumkin. O‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish kerak. O‘zingizni sevishni, o‘zingizni barcha kamchiliklaringiz bilan qabul qilishni o‘rganish hech qachon kech emas. O‘zini rivojlantirish, yangi bilim, ko‘nikma va taassurotlarga ega bo‘lish bilan shug‘ullanishga arziydi. Bundan tashqari, u qiziqarli suhbatdoshga aylanadi va odamlar uni payqashadi, unga murojaat qilishadi va maqtov aytishni boshlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Архиреева Т.В. Критическое самоотношение младших школьников и факторы его развития: монография М.СПВ. 2013. – С.34.

2. Валявко С. М. Анализ формирования самооценки старших дошкольников // Системная психология и социология. 2016. № 3 (19). С. 5-11.

3. American Heritage Dictionary of the English Language. Fifth Edition. Houghton Mifflin Harcourt Trade, November 1, 2011. 2112 p.

4. Майерс Д. Социальная психология / Д. Майерс. – СПб., 2012. – С.56-58.

5. Жокина п. А. Анализ научных подходов к изучению самооценки и уверенности в себе в зарубежной психологии // Психолого-педагогическая поддержка детей с ограниченными возможностями здоровья: сб. научных статей. Ч. 2. М.: МГПУ, 2016. С. 46-59.

6. Deppe R. K. & Harackiewicz J. M. Self-Handicapping and Intrinsic Motivation: Buffering Intrinsic Motivation from the Threat of Failure // Journal of Personality and Social Psychology. 1996. Vol. 70. P. 868-876.

Salomova Guli Shodimurodovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya kafedrasi dotsenti psixologiya fanlari doctori (DSc)
E-mail: salomovaguli8225@gmail.com

TALABALARNING KOGNITIV MOSLASHUVCHANLIGINI MADANIYATLARARO KOMPETENTLIKNING TA’SIRI SIFATIDA O‘RGANISH

Annotatsiya. *Maqolada, kognitiv jarayonlarni, xususan, kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishda madaniyatlararo kompetentlik va madaniyatlararo tajriba kabi ijtimoiy sabablarini belgilovchi ilmiy taxminni tekshirish va asoslash jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotda ikki faktorli dispersion tahlil o‘tkazilgan bo‘lib, tadqiqotning ikkita mustaqil omilga ega ekanligi inobatga olingan, ular: madaniyatlararo munosabatlar tajribasi va madaniyatlararo sezgirlik darajasi bo‘lib, tadqiqotning o‘zida dispersiya va normal taqsimotning bir xilligi haqidagi asosiy taxminlarni aniqlash orqali, oldingi tajriba strategiyasini qo‘llangan.*

Kalit so’zlar: *dispersion tahlil, kognitiv moslashuvchanlik, madaniyatlararo ta’sirchanlik madaniyatlararo ta’sirchanlik, normal taqsimot, omilli tahlil, tanqidiy tafakkur, qaror qabul qilish strategiyalari.*

ИЗУЧЕНИЕ КОГНИТИВНОЙ АДАПТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ КАК ЭФФЕКТА МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация. *В статье освещены процессы проверки и обоснования научной гипотезы, определяющей социальные факторы развития когнитивных процессов, в частности когнитивной гибкости, такие как межкультурная компетентность и межкультурный опыт. В исследовании был проведён двухфакторный дисперсионный анализ с учётом двух независимых переменных: опыта межкультурного взаимодействия и уровня межкультурной чувствительности. Также в ходе исследования была применена стратегия предварительного анализа, предполагающая проверку основных статистических предпосылок - однородности дисперсий и нормального распределения.*

Ключевые слова: *дисперсионный анализ, когнитивная гибкость, межкультурная чувствительность, нормальное распределение, факторный анализ, критическое мышление, стратегии принятия решений.*

STUDYING STUDENTS’ COGNITIVE ADAPTABILITY AS AN EFFECT OF INTERCULTURAL COMPETENCE

Annotation. *The article highlights the processes of testing and substantiating a scientific hypothesis that identifies the social factors influencing the development of cognitive processes-particularly cognitive flexibility-such as intercultural competence and intercultural experience. A two-factor ANOVA was conducted in the study, taking into account two independent variables: intercultural interaction experience and the level of intercultural sensitivity. The research also applied a preliminary analytical strategy that involved verifying key statistical assumptions, including homogeneity of variance and normal distribution.*

Key words: *analysis of variance (ANOVA), cognitive flexibility, intercultural sensitivity, normal distribution, factor analysis, critical thinking, decision-making strategies.*

Kirish. Madaniyatlararo ta’sirchanlik va kognitiv moslashuvchanlik zamonaviy sharoitda muammolarni hal etish jarayonini tahlil qilishda asosiy psixologik tuzilmalar sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniyatlararo ta’sirchanlik muloqot ishtirokchisining turli madaniy farqlarni tan olish, ularni anglash va hurmat qilish, shuningdek, vaziyatni kompleks tahlil etish orqali oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Kognitiv moslashuvchanlik esa yangi vaziyatlar, muammolar

yoki vazifalar haqidagi o‘zgaruvchan ma’lumotlarga muvofiq ravishda fikrlash strategiyalarini moslashtirish va zaruratga ko‘ra ularni qayta ko‘rib chiqish imkoniyati bilan tavsiflanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida turli yo‘nalishlarda tahsil olayotgan 924 nafar talaba ishtirokida o‘tkazilgan empirik tahlil natijalari madaniyatlararo ta’sirchanlikning kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishdagi ahamiyatli rolini tasdiqladi. Ushbu ikki psixologik qobiliyatning o‘zaro bog‘liqligini sifat jihatdan chuqurroq o‘rganish tadqiqotning keyingi bosqichlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, bunda tadqiqot obyektlari ko‘lami va tarkibi bosqichma-bosqich kengaytirilishi ko‘zda tutilgan.

Madaniyatlararo ta’sirchanlik va madaniyatlararo tajriba talabalarning kognitiv moslashuvchanligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mustaqil omillar sifatida baholanishi mumkin. Bunda ijtimoiy tajribaning shaxsning aqliy operatsiyalariga ko‘rsatadigan ta’siri ijobiy yo‘nalishda namoyon bo‘layotganini qayd etish lozim. Madaniyatlararo ta’sirchanlik kommunikatorlarga madaniy tafovutlardan xabardor bo‘lish, madaniy me’yorlar va qadriyatlarni hurmat qilish, muammolarni hal etish jarayonida turli nuqtai nazarlar hamda muqobil tafakkur strategiyalarini hisobga olishga tayyor bo‘lish imkonini beradi. Aynan shu jihatlar kognitiv moslashuvchanlikning rivojlanishiga hissa qo‘shib, ishtirokchilarga yangi vaziyatlarga tez moslashish, mavjud munosabatlar ustida mulohaza yuritish va muammo yechimiga oid yangi ma’lumotlarni samarali integratsiya qilish imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, madaniyatlararo ko‘nikmalar talabalarning kognitiv moslashuvchanligiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, tadqiqotning dastlabki bosqichida madaniyatlararo ta’sirchanlik darajasi yuqori bo‘lgan talabalar ushbu ko‘rsatkich past darajada bo‘lgan tengdoshlariga nisbatan kognitiv moslashuvchanlikni ancha yuqori sur’atlarda rivojlantirganliklari aniqlandi. Ushbu holat madaniyatlararo sezgirlik talabalarda kognitiv moslashuvchanlikni shakllantirish va mustahkamlashda muhim omil ekanligi haqidagi ilgari surilgan farazni yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, madaniyatlararo ta’sirchanlik va madaniyatlararo tajribaning kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirishdagi roli ikki faktorli tahlil natijalari bilan ham asoslandi. Ushbu tahlil kategorik o‘zgaruvchilarning o‘zaro taqqoslanishi orqali sabab–oqibat munosabatlarini aniqlash imkonini berdi. Madaniyatlararo ta’sirchanlik darajalarining ierarxik guruhlar ko‘rinishida tasniflanishi talabalarning tanqidiy tafakkuri bilan o‘zaro uyg‘unlashgan holda kognitiv jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Tajribada madaniyatlararo ta’sirchanlikning “rad etish” bosqichidan boshlab “kompetentlik” darajasigacha bo‘lgan turli pog‘onalarini aniqlash zarurati yuzaga keldi, chunki aynan ushbu darajalar talabalarning o‘rganilayotgan xususiyatlar bilan o‘zaro ta’sir qilish ehtimolini belgilab beradi.

Kognitiv moslashuvchanlik va tanqidiy tafakkur talabalar kognitiv jarayonlarining muhim ko‘rinishlari sifatida ijtimoiy tajriba va bilimlar o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik natijasida shakllanadi hamda mazmun kasb etadi. Shu bois tadqiqotning navbatdagi bosqichi ushbu ikki kognitiv jarayon o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlashga qaratildi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun korrelyatsion tahlil usulidan foydalanildi. Navbatdagi jadvalda keltirilgan natijalar tanqidiy tafakkurning turli mezonlari bilan kognitiv moslashuvchanlikning “o‘rtachadan quyi”, “o‘rtacha” va “o‘rtachadan yuqori” darajalari o‘rtasidagi aloqadorlikning statistik ahamiyatini aks ettiradi. Ushbu bog‘liqlik Pirson korrelyatsiya koeffitsienti yordamida baholanib, talabalarning kognitiv rivojlanishida madaniyatlararo va tanqidiy tafakkur omillarining muhimligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

O‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarning normallikka tekshirish oqibatida, quyidagi darajalar tasdiqlandi: “Himoya” guruhida kognitiv moslashuv p=0,26; “Minimallashtirish” guruhida p=0,211; “Adaptatsiya” guruhida p=0,212; “Integratsiya” guruhida p=0,053. Va nihoyat, “Rad etish”, “Qabul qilish” va “Kompetentlik” darajalari mos ravishda p=0,034 p=0,024 va p=0,041 ko‘rsatkichlarni ifoda etdi. Ushbu darajali ma’lumotlar normallikdan bir oz farq qilgani bois, ikki faktorli tahlilga imkon bermaydi. Ammo ektsessni tekshirish orqali tahlilning qo‘shimcha imkoniyati mavjud. Agar u oddiy statistik tahlilda noldan yuqori bo‘lsa, unda katta ehtimol bilan ikki faktorli tahlilni amalga oshirish imkoni bor. Xullas, “Kompetentlik” guruhi E=1,48; “Qabul qilish guruhi” E= 0,86; “Rad etish” E=0,201 natijalarni ko‘rsatdi.

Natija shuni anglatadiki, ma'lumotlarning normalligi to'g'risida birinchi asosiy taxmin o'rnatiladi va ikki faktorli tahlilni qo'llash o'rinli hisoblanadi.

Ikkinchi omilga ko'ra, normallikni aniqlash testi quyidagi qiymatlarni aniqladi: ahamiyat darajasi p=0,06 bilan 1-"tajribaning yo'qligi"; p=0,054 bilan 2-"yomon tajriba", p=0,07 qiymat bilan 3-"o'rtacha tajriba" va p=0,05 bilan 4-"yaxshi tajriba" va nihoyat, p=0,071 bilan 5-"boy tajriba" qayd etildi. Shunday qilib, madaniyatlararo tajriba va uning kognitiv moslashuvchanlikka ta'siri bilan bog'liq ikkinchi omilni sinab ko'rish uchun dispersion tahlilidan foydalanish imkoniyati ochiqlandi.

Barcha mavjud o'zgaruvchilarning bir xilligini tekshirish dispersiyaning gemogenligini ko'rsatdi, qiymat p=0,52 qayd etildi va bu dispersion tahlilni joriy holatda ham qo'llashga imkon berdi.

Tahlil ko'rsatkichlariga ko'ra, kognitiv moslashuvchanlik p=0,00 bilan madaniyatlararo sezgirlikdan farq qiladi; p=0,05 qiymatlari bilan madaniyatlararo tajriba omili tafovuti belgilandi. Tadqiqotning mazkur bosqichida ikkala omilning kognitiv moslashuvchikka ahamiyatli ta'siri aniqlandi.

1-jadval.

Talabalarning kognitiv moslashuvchanligi va tanqidiy tafakkur darajalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (N=1600).

Tanqidiy tafakkur ko'rinishlari	Korrelyatsion munosabatlarining statistik ahamiyati (p).
Taxminlar	0.00
Dalillar	0.05
Deduksiya	0.00
Mantiqiy xulosalar	0.00

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, "dalillar" dan tashqari tanqidiy tafakkurning barcha toifalari talabalarning kognitiv moslashuvchanligi bilan ijobiy korrelyatsiya koyeffitsiyentlarini ko'rsatdi: "Taxminlar" r=187**; "Argumentlar" r=0,016; „Deduksiylar"=178**; "Mantiqiy xulosalar" r=179**.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tanqidiy tafakkurning "taxmin qilish" komponenti kognitiv moslashuvchanlik bilan bevosita bog'liq bo'lib, kognitiv moslashuvchanlik darajasi oshgani sari taxmin qilish qobiliyati ham kuchayadi. Ya'ni shaxs yangi vaziyatlar va ma'lumotlarga moslashish qobiliyatiga ega bo'lgani sayin, u muammoni oldindan ko'ra bilish, ehtimoliy yechimlarni taxmin qilish va fikr yuritishda moslashuvchan yondashuvni namoyon eta boshlaydi. Shu bilan birga, "Dalillar" sohasi va kognitiv moslashuvchanlik o'rtasidagi bog'liqlik nisbatan sust ekanligi aniqlanib, bu komponentning ko'proq mantiqiy qat'iylik va mavjud bilimlarga tayanishi bilan izohlanishi mumkin. Biroq tanqidiy tafakkurning "Deduksiya" hamda "Mantiqiy hukmlar" kabi usullari kognitiv moslashuvchanlik bilan yuqori darajada aloqador ekanligi qayd etildi, bu esa moslashuvchan tafakkur mantiqiy xulosalar chiqarish jarayonini sezilarli darajada qo'llab-quvvatlashini ko'rsatadi.

Kognitiv moslashuvchanlik, ba'zan tafakkur moslashuvchanligi sifatida ham talqin qilinib, shaxsning yangi ma'lumotlarga moslashishi, fikrlash strategiyalarini o'zgartirishi, muammolarga turli nuqtai nazardan yondashishi va muqobil yechimlarni ko'rib chiqish qobiliyatini anglatadi. Tadqiqot davomida aynan shu xususiyatlar shaxsning fikrini qayta ko'rib chiqishi, yangi g'oyalarni ilgari surishi hamda murakkab qarorlar qabul qilish jarayonida muhim rol o'ynashi aniqlangan. Kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish esa ushbu qobiliyatni mustahkamlashga, moslashuvchan tafakkur bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunga turli amaliy mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, noodatiy fikrlashni rag'batlantiruvchi mashqlar orqali erishish mumkin.

Aksincha, kognitiv moslashuvchanlikning past darajada bo'lishi shaxsning yangi vaziyatlarga moslashishda qiyinchilikka duch kelishini, fikrini o'zgartirish va muqobil qarashlarni qabul qilishda cheklanganligini ko'rsatadi. Bunday holat ko'pincha qat'iy stereotiplarga bog'lanib qolish, noto'g'ri qarashlarga haddan tashqari ishonish, tajribaning yetishmasligi yoki tafakkurning rigidligi bilan

izohlanadi. Shu sababli kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantirish tanqidiy tafakkurni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki u axborotni tahlil qilish, uni tanqidiy qabul qilish, dalillarni baholash va asosli mantiqiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Kognitiv moslashuvchanlikning madaniyatlararo tajriba va madaniyatlararo sezgirlik bilan o‘zaro bog‘liqligi ham tadqiqotda muhim jihat sifatida namoyon bo‘ldi. Olingan natijalar ushbu o‘zgaruvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik mavjudligini, ya’ni bir omilning rivojlanishi ikkinchi omilning ham kuchayishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Madaniyatlararo tajribalar turli madaniy muhitlarda yashash yoki bo‘lish, boshqa xalqlarning an’analari va qadriyatlarini o‘rganish, madaniyatlararo tadbirlar va almashinuv dasturlarida ishtirok etish orqali shakllanadi. Bunday tajribalar talabalarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni turli ijtimoiy va madaniy vaziyatlarga moslashishga undaydi.

Mazkur bog‘liqlikni bir necha jihatdan izohlash mumkin. Birinchidan, kognitiv moslashuvchanlik shaxsga turli kontseptual doiralar o‘rtasida erkin almashish, yangi g‘oyalar va qarashlarni qabul qilish imkonini beradi, bu esa madaniyatlararo muloqot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, madaniyatlararo tajriba va sezgirlikning ortishi kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantiradi, chunki turli madaniy muhitlarda faoliyat yuritish shaxsdan moslashuvchan fikrlashni, vaziyatni tez baholashni va yangi sharoitlarga samarali moslashishni talab qiladi. Shu tariqa, kognitiv moslashuvchanlik, tanqidiy tafakkur va madaniyatlararo tajriba o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, talabalarning intellektual va shaxsiy rivojlanishida muhim psixologik resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Саломова Г. Ш. Социально-психологические факторы развития критического мышления у студентов : монография. – Ташкент : FAN ZIYOSI, 2024. – 152 с.

2. Чатфилд Т. Анализируй, сомневайся, формируй своё мнение. – М. : Альпина Паблишер, 2019. – 559 с.

3. Facione P. A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts [Электронный ресурс]. – 2013. – Режим доступа: https://www.researchgate.net/publication/251303244 (дата обращения: 24.12.2025).

Shermatova Yaqut Sadirovna
Qo‘qon davlat universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti

NUQSONI BO‘LGAN BOLALARDA HISSIY-IRODAVIY SOHA SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIKLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola nuqsoni bo‘lgan bolalarda hissiy –irodaviy soha shakllanishining psixologik o‘ziga xosliklari mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola matnida nuqsoni bo‘lgan bolalarda irodaviy sifatlar, hissiy sohaning rivojlanishi, affektiv holatlarning rivojlanishga ta’siri, nuqsoni bor bolalarning intellektual imkoniyatlari, maxsus ta’lim sharoitiga moslashuv, o‘quvchilarda psixologik farovonlikni ta’minlash, eshitish va ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning boshqalar bilan o‘zaro aloqasi kabi masalalar ham batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy nuqson, imkoniyati cheklangan bolalar, eshitish qobiliyati, ko‘rish, hissiy soha, irodaviy soha, maxsus psixologiya, maxsus ta’lim, inklyuziv ta’lim, psixologik farovonlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВОЕ КАЧЕСТВ У ДЕТЕЙ С ФИЗИЧЕСКИМ НАРУШЕНИЕМ РАЗВИТИЯ

Аннотация. *Статья посвящена психологическим особенностям формирования эмоционально-волевой сферы у детей с ограниченными возможностями здоровья. В тексте статьи подробно рассматриваются такие вопросы, как волевые качества детей с ограниченными возможностями здоровья, развитие эмоциональной сферы, влияние аффективных состояний на развитие, интеллектуальные возможности детей с ограниченными возможностями здоровья, адаптация к специальным образовательным условиям, обеспечение психологического благополучия обучающихся, а также взаимодействие обучающихся с нарушениями слуха и зрения с окружающими.*

Ключевые слова: *физическая инвалидность, дети с ограниченными возможностями здоровья, слух, зрение, эмоциональная сфера, волевая сфера, специальная психология, специальное образование, инклюзивное образование, психологическое благополучие.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF EMOTIONAL-VOLUME QUALITIES IN CHILDREN WITH PHYSICAL DISABILITIES

Annotation. *This article is devoted to the psychological peculiarities of the formation of the emotional-volitional sphere in children with disabilities. Also, the text of the article covers in detail issues such as volitional qualities in children with disabilities, the development of the emotional sphere, the influence of affective states on development, the intellectual capabilities of children with disabilities, adaptation to special educational conditions, ensuring psychological well-being in students, and the interaction of students with hearing and visual impairments with others.*

Key words. *physical disability, children with disabilities, hearing, vision, emotional sphere, volitional sphere, special psychology, special education, inclusive education, psychological well-being.*

Kirish. Jahonda jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan o’smirlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularni sog‘lom jamiyat muhitidagi moslashuviga ko‘maklashish, ta’lim olishda huquq va erkinliklarini himoyalash, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning intellektual hamda hissiy farovonligini ta’minlash shuningdek, jamiyatda o‘ziga munosib o‘rinni egallashlariga psixologik yordam berish masalalariga alohida islohotlar darajasida qaralmoqda. BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida” Konvensiyasi, “Ta’lim hamma uchun” reja-dasturi to‘g‘risida Dakar deklaratsiyasi va boshqa xalqaro miqyosda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy maqsadi, jismoniy imkoniyati cheklangan o’smirlar hayotini himoyalashga qaratilgan bo‘lib, ushbu masalad ta’lim jarayoniga inklyuziv yondashuvni samarali joriy etish hamda jismoniy imkoniyati

cheklangan o'smirlarning psixik rivojlanish bosqichlarini psixologik baholash, hissiy-irodaviy sohasini shakllantirishda turli psixokorreksion usullardan keng foydalanish ishlari shular jumlasidandir. Ushbu dolzarb vazifalarni amalga oshirishda, maxsus tarbiyalash va o'qitish tizimini zamonaviy tibbiy psixologik bilimlar bilan integratsiyalash, jismoniy nuqsoni bor o'smirlar shaxsini shakllantirishning psixologik dasturiy ta'minotini tubdan optimallashtirish, o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy psixologik amaliyotda nafaqat sog'lom bolalar, balki jismoniy nuqsoni bor bolalarning psixologik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni samarali o'qitish va tarbiyalashga oid ilmiy ishlarni amalga oshirish masalalari, o'ta muhim ahamiyatga ega vazifalardan biri sanaladi. Hissiy-irodaviy rivojlanishdagi yetuklik – bu yuqori darajada o'zini o'zi qadrlash, o'zini o'zi boshqarish, maqsadlarga erishishda muvaffaqqiyatga yo'nalganlikni ta'minlovchi jarayondir. Bu jarayon ko'pincha zamonaviy psixologik adabiyotlarda "hissiy farovonlik" tushunchasi bilan tavsiflanadi. Aynan, shu hissiy farovonlik fenomeni – bolaning rivojlanish muvaffaqqiyatini baholash uchun, keng qamrovli tushuncha sifatida ishlatilib, uni turli yoshdagi bolalar faoliyati orqali o'rganish mumkin. Afsuski, ayrim ota-onalar bola tarbiyalashda hissiy farovonlik hodidasiga e'tibor berishmaydi. Biroq, ba'zi ota-onalar bolaning xatti-harakatlarida, hissiy rivojlanish farovonligining yorqin ko'rinishlari, masalan, tabassum va yaqinlarini tan olish yoki insonning yuziga qiziqish yo'qligi kabi holatlar yo'qligidan chuqur xavotirga tushadilar. Ko'pgina ota-onalar ushbu holatni, haddan tashqari jahldorlik, qo'zg'aluvchanlik, atrof-muhit bilan kam aloqa qilish sifatlari bilan ham bog'lashadilar.

Tadqiqotchi S.V.Zavrajinning yozishicha, sog'lom bola uchun hissiy -irodaviy soha qanchalik muhim bo'lsa, jismoniy nuqsoni bor boalalar uchun ham ushbu ikki psixologik xususiyatlar o'ta muhim sanaladi. Sog'lom bolalardan farqli o'laroq, jismoniy nuqsoni bor bolalarni hissiy va irodaviy, intellektula jihatdan shakllantirish, maxsus ta'lim berish, atrof-muhitga moslashishi uchun psixologik ko'maklashish ishlari o'ziga xos mashaqqatli ish sanaladi. Demak, nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish, ularda hissiy farovonlikni ta'minlash, o'z tengqurlari bilan adekvat munosabatlarni o'rnatishga yordam berish, psixolog va pedagog mutaxassislarning asosiy vazifalaridan biridir. Shu bois ham, ushbu paragrafda, nuqsoni bor bolalarda hissiy-irodaviy soha shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, uni shakllantirishga asos bo'luvchi psixologik usullar tg'risida batafsil to'xtalib o'tishga harakat qiqlamiz. Keltirib o'tganimizdek, jismoniy nuqsoni borlik bir necha kasalliklarni o'z ichiga olib, unga eshitishda nuqsoni bor, ko'rishda nuqsoni bor, nutq sohasida nuqsoni borlik, tayanch harakat tizimida nuqsoni borlik, aqriy rivojlanishida nuqsoni borlik, emotsional-irodaviy soha rivojlanishidagi buzilishlar kabilarni kiritish mumkin. Qayd etilgan nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarning hissiy va irodaviy sohasi imkoniyatlari va uning rivojlanish dinamikasi turlicha kechib, muammoga nisbatan alohida yondashuvni talab etadi. Boshqa nogiron bolalar qatorida, eshitish nuqsoni bor bollaarning hissiy olami ham, ularning shaxs sifatida rivojlanishi uchun muhim soha sanalib, uni tadqiq etish yuzasidan ham psixologiyada, pedagogikada, defektologiya, maxsus psixologiya yo'nalishlarida o'ziga xos izlanishlar amalga oshirilgan. Misol uchun, kar va eshitish qobiliyati sust bolalarning emotsional va irodaviy rivojlanishi muammosi yuzasidan, tadqiqotchilardan A.Bassam, T.V.Rozanova, K.G.Korovin, L.I.Fomicheva, E.A.Viytar, N.D.Shmatko, A.I.Dyachkov, Ye.P.Kuzmicheva, F.F.Rau, L.I.Tigranova, A.G. Zikeev, B. D. Korsunskaya kabi olimlarning izlanishlari diqqatga sazovor sanaladi. Ye.V.Yevmenenkoning so'zlariga ko'ra, kar yoki eshitish qobiliyati zaif bolalar bola dunyoni o'rgana olmaydi va tinglash orqali ma'lumotni idrok eta olmaydi. Bolalikdagi boshqa odamlar bilan muloqot qilishning yetishmasligi, keyinchalik, tashqi nutqning yuzaga chiqmasligi yoki gapirish imkoniyatining yo'qolishiga olib keladi. Demak, bola ravon so'zlashi va gapirishi uchun eshitish organi ham sog'lom bo'lishi, odatdagidek, ishlashi lozim bo'lar ekan. Boshqa bir tadqiqotchi Ye.A.Ol'xinaning aytishicha, eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning hissiy rivojlanishi bir qator noqulay omillar bilan bog'liq ya'ni : nutq aloqasining buzilishi, nutq rivojlanishining kechikishi, badiiy qobiliyatning kech rivojlanishi, boshqa odamlarning hissiy xususiyatlarini aniqlash va farqlash uchun yetarli darajada shakllanmagan ko'nikmalar va hokazo. Ushbu yondashuvga muvofiq, eshitish qobiliyatidan ayrilgan bolalar boshqalarning hissiy kechinmalarini farqlashda, emotsional kechinmalar turini ajratishda shuningdek, badiiy obrazlarni anglashda qiyinchiliklarga uchrashadi. Buning uchun, ular bilan

В статье Шелупанова А.А., Глухаревой С.В. и Немирович-Данченко М.М. предлагается оригинальный подход к понятию благонадёжности персонала как системной характеристики, отражающей готовность и способность сотрудника действовать в соответствии с правовыми, этическими и организационными нормами, не допуская действий, способных нанести ущерб интересам компании. С точки зрения авторов, благонадёжность представляет собой многоуровневую конструкцию, включающую как устойчивые личностные характеристики (честность, надёжность, предсказуемость поведения), так и поведенческие индикаторы, позволяющие судить о потенциальных рисках в трудовой деятельности. В статье предложены конкретные индикаторы благонадёжности, среди которых: отсутствие судимостей и дисциплинарных взысканий, низкий уровень склонности к конфликтам, отсутствие признаков девиантного поведения, эмоциональная стабильность, высокая мотивация на соблюдение нормативов, выраженная ответственность и уважение к иерархии. Также выделяются такие признаки, как приверженность корпоративным ценностям, сформированная профессиональная идентичность и умение работать в условиях регламентированных ограничений. Авторы подчеркивают необходимость комплексного подхода к оценке благонадёжности, сочетающего методы анкетного опроса, анализа биографических данных, психодиагностического тестирования и экспертных оценок. Такой подход, по мнению исследователей, позволяет наиболее эффективно выявлять скрытые угрозы, связанные с потенциальной нелояльностью или недобросовестностью сотрудников, а также способствует формированию кадровой политики, ориентированной на профилактику внутренних рисков.

В статье Федоровой А.Э. и Несовой Л.В. подробно анализируется взаимосвязь между уровнем кадровых рисков и степенью благонадёжности сотрудников. Авторы подчёркивают, что в условиях промышленного производства, где высока степень ответственности за соблюдение технологической и производственной дисциплины, персонал становится одним из ключевых источников как стабильности, так и потенциальных угроз. В исследовании акцент сделан на необходимости постоянного мониторинга рисков, связанных с недобросовестностью, утратой лояльности, снижением мотивации и скрытыми конфликтами в коллективе, что может привести к сбоям в производственном процессе. В рамках проведенного эмпирического исследования на базе промышленного предприятия, были выявлены основные факторы, определяющие уровень благонадёжности персонала: правовая ответственность (отсутствие нарушений трудовой дисциплины и судебных разбирательств), профессиональная добросовестность

(выполнение норм, отсутствие брака в работе, соблюдение регламентов), дисциплинированность и исполнительность. Значительное внимание уделено также личностным характеристикам - психологической устойчивости, уровню тревожности и агрессивности, склонности к конфликтам, - которые влияют на поведение сотрудника в стрессовых и нестандартных производственных ситуациях. Кроме того, авторами отмечается важность мотивационной сферы: уровень идентификации с корпоративными целями, степень вовлечённости в рабочий процесс, стремление к профессиональному развитию. Авторы предлагают подход к построению системы управления кадровыми рисками, основанный на регулярной оценке этих показателей с использованием анкетирования, психодиагностических методик, экспертных суждений и анализа трудовой биографии. Предложенная модель может быть адаптирована к специфике различных отраслей и представляет собой практический инструмент для стратегического управления человеческими ресурсами в промышленной сфере.

Таким образом, исходя из вышеизложенного полагается целесообразным заключить, что благонадёжность в современных исследованиях рассматривается как многомерная психологическая конструкция, включающая устойчивые характеристики, влияющие на доверие и эффективность взаимодействия в организации. Основываясь на результаты рассмотренных исследований целесообразно выделить следующую обобщённую структуру благонадёжности современного сотрудника: личностно-регулятивный компонент, предусматривающий самоконтроль, дисциплинированность, уровень ответственности и предсказуемость поведения; мотивационно-нравственный компонент, предусматривающий направленность сотрудника на соблюдение норм, честность, профессиональную этику, а также наличие лояльности к работодателю; психоэмоциональный компонент, предусматривающий эмоциональную устойчивость, склонность к риску, импульсивность, толерантность к стрессу и способность к безопасному поведению в условиях давления; когнитивно-оценочный компонент, предусматривающий профессиональное мышление, понимание этических норм, способность к принятию нормативных решений. Такая структуризация благонадёжности сотрудника позволяет рассматривать её как измеряемую и развиваемую характеристику, важную для отбора, адаптации и долгосрочной эффективности персонала, особенно в условиях требований к кадровой надёжности и устойчивости организационной среды.

Список использованной литературы.

1. Colquitt J. A., Scott B. A., LePine J. A. Trust, trustworthiness, and trust propensity: A meta-analytic test of their unique relationships with risk taking and job performance // Journal of Applied Psychology. – 2007. – Vol. 92, № 4. – P. 909–927.
2. Dirks K. T., Ferrin D. L. Trust in leadership: Meta-analytic findings and implications for research and practice // Journal of Applied Psychology. – 2002. – Vol. 87, № 4. – P. 611–628.
3. Ferrin D. L., Dirks K. T. Trust in organizational relationships: A meta-analytic review // Academy of Management Annual Meeting Proceedings. – 2003. – Vol. 2003, № 1. – P. A1–A6.
4. Klotz A. C., da Motta Veiga S. P., Buckley M. R., Gavin M. B. The role of trustworthiness in recruitment and selection: A review and guide for future research // Journal of Organizational Behavior. – 2013. – Vol. 34, № S1. – P. S104–S119.
5. Reina D. S., Reina M. L. Trust & betrayal in the workplace: Building effective relationships in your organization. – San Francisco : Berrett-Koehler Publishers, 2006. – 240 p.

Arzikulov Dilshod Ne'matovich
O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti,
Psixologiya kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori,
Arzikulova Mohinur Dilshod qizi
O'zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya mutaxassisligi magistranti

SHAXS VA JAMIYATGA GIYOHVANDLIKNING PSIXOSOSIAL TA'SIRINI OLDINI OLISH: PSIXOPROFILAKTIK YONDASHUVLAR

Аннотация. *Maqolada giyohvandlikning shaxs va jamiyatga psixososial ta'sirini oldini olish masalalari, uning individual rivojlanish, oilaviy munosabatlar va jamiyat barqarorligiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, giyohvandlik ruhiy salomatlik, irodaviy barqarorlik, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, oilaviy nizolar, deviant xulq va jinoyatchilikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, profilaktika va psixokorreksion choralar kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi jamiyat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *giyohvandlik, psixososial ta'sir, profilaktika, psixokorreksiya, yoshlar, jamiyat barqarorligi*

ПРОФИЛАКТИКА ПСИХОСОЦИАЛЬНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ НАРКОЗАВИСИМОСТИ НА ЛИЧНОСТЬ И ОБЩЕСТВО: ПСИХОПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы предотвращения психосоциального влияния наркомании на личность и общество, а также её влияние на индивидуальное развитие, семейные отношения и социальную стабильность. Исследования показывают, что наркомания отрицательно влияет на психическое здоровье, волевую устойчивость, личные и социальные отношения, способствует семейным конфликтам, девиантному поведению и росту преступности. Комплексный подход к профилактике и психокоррекции имеет важное значение для обеспечения общественной безопасности.*

Ключевые слова: *наркомания, психосоциальное влияние, профилактика, психокоррекция, молодежь, социальная стабильность*

PREVENTING THE PSYCHOSOCIAL IMPACT OF DRUG ADDICTION ON THE INDIVIDUAL AND SOCIETY: PSYCHOPROPHYLACTIC APPROACHES

Annotation. *The article examines the issues of preventing the psychosocial impact of drug addiction on individuals and society, as well as its effects on personal development, family relations, and social stability. Studies indicate that drug addiction negatively affects mental health, willpower, personal and social relationships, and contributes to family conflicts, deviant behavior, and increased crime rates. A comprehensive approach to prevention and psychocorrection is of crucial importance for ensuring social security.*

Key words: *drug addiction, psychosocial impact, prevention, psychocorrection, youth, social stability*

Kirish. Hozirgi kundagi zamonaviy jamiyatda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilish muammosi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy, psixologik va madaniy hayotning barcha jabhalariga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi global xavf sifatida namoyon bo'lmoqda. Dunyo sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, giyohvandlik moddalarini iste'mol qiluvchilar soni yiliga ortib bormoqda, ushbu jarayon ayniqsa yoshlar, o'smirlar va xavf-xatar guruhlarida tez sur'atda tarqalmoqda (WHO, 2022).

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilish muammosi jahonda va mamlakatimizda dolzarb muammolardan bo'lib, shaxsning psixologik holati, oilaviy muhit va jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf soladi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, giyohvand moddalar insonning neyropsixologik faoliyatini izdan chiqaradi, ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy rivojlanishni izdan chiqaradi.

Biz mazkur maqolamizda giyohvandlik moddalarini iste'mol qilishning ijtimoiy-psixologik, psixo-sotsial, insonning shaxsiy rivojlanishi, oilaviy munosabatlar va jamiyat barqarorligiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishga harakat qildik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Giyohvandlik muammosi zamonaviy jamiyatda nafaqat tibbiy, balki psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq holda kechuvchi murakkab jarayon sifatida talqin etiladi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu muammo shaxsning ruhiy salomatligi, shaxsiy munosabatlari va xulq-atvoriga jiddiy ta'sir ko‘rsatuvchi omil sifatida qayd etiladi. Biopsixologik tadqiqotlar (Mendelevich, 2016; Gromov, 2019) Giyohvandlikning vujudga kelishi miyadagi dofaminergik tizim faoliyatining o‘zgarishi, mukofotlash (zavq va qoniqish tuyg‘usi) markazlarining disfunksiyasi va neyroximiyaviy jarayonlar izdan chiqishi bilan bevosita bog‘liq ekanligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, moddaning insonga tez va kuchli qoniqish hissini oshirishi unda psixologik va fiziologik bog‘liqlikni shakllantiradi.

Psixodinamik qarashlarda (Freyd, 2000; Adler, 1998) giyohvandlik shaxsning ichki konfliktlardan qochish, qoniqtirilmagan ehtiyojlarni to‘ldirish va ruhiy og‘riqni kamaytirishga qaratilgan himoya mexanizmi sifatida izohlanadi. Bunday yondashuvda giyohvandlik “ichki bo‘shliqni to‘ldirish vositasi” sifatida talqin qilinadi. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda (Dyurkgeym, 1997; Parsons, 2001) esa giyohvandlik jamiyatdagi anomiya, oilaviy muhitdagi muammolar, tarbiyadagi yetishmovchilik va jamoadagi deviant xulq ta'sirida yuzaga kelishi qayd etiladi. Demak, giyohvandlikni shaxs muammosi sifatida talqin qilish yetarli emas, balki uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda o‘rganish samarali hisoblanadi.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, giyohvandlikning shaxsga ko‘rsatadigan ta'siri bir qancha asosiy yo‘nalishlarda ifodalanadi. Birinchidan, ruhiy salomatlik sohasida depressiya, xavotir buzilishi, iroda susayishi, motivatsion inqiroz, o‘z-o‘ziga ishonchning pasayishi kuzatiladi (Korolenko, 2018). Ikkinchidan, shaxsiy munosabatlarda oilaviy inqiroz, ijtimoiy izolyatsiya, muloqot kompetensiyalarining zaiflashishi, atrofdagilar bilan ishonchning yo‘qolishi yuzaga keladi. Bekor qilingan ijtimoiy aloqalar shaxsning jamiyatdan chetlanishiga olib keladi. Uchinchidan, xulq-atvorda agressiya, impulsivlik, xavfli xatti-harakatlarga moyillik, jinoyatchilikka kirish imkoniyati oshishi adabiyotlarda keng yoritilgan (Antonyan, 2020).

Giyohvandlikning jamiyatga ta'siri ham keng miqyosda namoyon bo‘ladi. Kriminologik tadqiqotlar (Babayan, 2015) giyohvand moddalar aylanishi va jinoyatchilik o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko‘ra (UNODC, 2023; WHO, 2022), giyohvandlik davlat budjetiga katta iqtisodiy yuklamalar keltirib, meditsina, huquq-tartibot va ijtimoiy xizmat tizimiga qo‘shimcha stress yuklaydi. Shuningdek, mutaxassislar giyohvandlikning madaniy-axloqiy oqibatlarini - milliy qadriyatlarning zaiflashishi, yoshlar ongida “oson hayot” stereotipining shakllanishi kabi xavfli tendensiyalar bilan bog‘lashadi.

Adabiyotlarda profilaktika va reabilitatsiyaga kompleks yondashuv taklif etilgan. Birlamchi profilaktika - yoshlarni xabardor qilish, sport va madaniy tadbirlar bilan qamrab olish, psixologik savodxonlikni oshirish; ikkilamchi profilaktika - risk guruhlari bilan individual ish; uchlamchi profilaktika - reabilitatsiya, psixoterapiya, motivatsion intervyu va ijtimoiy reintegratsiya jarayonlarini o‘z ichiga oladi (Miller va Rolnik, 2013). Kognitiv-bixevioral terapiya, oilaviy terapiya va stressni boshqarish usullari eng samarali vositalar sifatida qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, giyohvandlik muammosini bartaraf etish kompleks, uzluksiz va tizimli yondashuvni talab etadi. Psixologik barqarorlikni tiklash, oilaviy muhitni mustahkamlash, profilaktika tadbirlarini takomillashtirish va jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish giyohvandlikka qarshi kurashda asosiy vazifalar sifatida e'tirof etiladi.

Ma'lumki, bugungi kunda giyohvandlikka moyillikning shakllanishi ko‘plab psixologik va ijtimoiy omillar bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, stress va kuchli emotsional zo‘riqish shaxsni psixologik jihatdan zaiflashtirib, giyohvandlikni muammolardan “qochish mexanizmi” sifatida qabul qilishga olib kelishi mumkin. Emotsional beqarorlik, depressiv holatlar, qo‘rquv va doimiy xavotir giyohvandlikka moyillikni kuchaytiruvchi yetakchi omillar qatoriga kiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stressli vaziyatlarda konstruktiv muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lmagan

shaxslar ko‘pincha destruktiv yo‘llarni tanlaydilar. Bundan tashqari, motivatsion-irodaviy zaiflik ham muhim xavf omili hisoblanib, irodaviy barqarorligi past bo‘lgan shaxslar tashqi ta’sirlarga tez beriluvchan bo‘lishi bilan ajralib turadi. Shaxsiy qadriyatlar inqirozi, hayotiy maqsad va yo‘nalishlarning noaniqligi esa individning xavf guruhiga tushib qolish ehtimolini yanada oshiradi. Shuningdek, psixologik tajovuzkorlik va emotsiyalarni boshqarishdagi beqarorlik stressli vaziyatlarga nomuvofiq, impulsiv reaksiyalarni yuzaga keltirib, giyohvandlikka olib boruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Yoshlar orasida giyohvandlik moddalarini iste’mol qilishga undovchi qo‘shimcha psixologik omillar ham mavjud. Atrof-muhitning, xususan do‘stlar guruhi va ayrim subkulturalarning ta’siri, ijtimoiy faollikning pastligi, internet va maqsadli kontent orqali targ‘ib qilinayotgan salbiy g‘oyalar, shuningdek, shaxsga xos bo‘lgan “yangi hissiyotlarni izlash” ehtiyoji giyohvandlikka moyillikni kuchaytirishi mumkin. Ayniqsa, o‘smirlik va yoshlik davrida shaxsning emotsional tizimi yetarlicha barqaror bo‘lmaganligi, o‘zini namoyon qilish ehtiyojining yuqoriligi va tengdoshlar ta’sirining kuchliligi ushbu xavfni yanada oshiradi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, hatto bir martalik iste’mol ham psixologik darajada mustahkamlanib, qayta-qayta iste’mol qilishga olib keluvchi refleksni shakllantirishi mumkin.

Giyohvandlik moddalarini iste’mol qilishning ijtimoiy oqibatlari nihoyatda keng qamrovli bo‘lib, avvalo oilaviy munosabatlarga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Giyohvandlik oilada o‘zaro ishonchning yo‘qolishiga, iqtisodiy tanazzulga, zo‘ravonlik va mojarolarning kuchayishiga, ajralish holatlarining ortishiga sabab bo‘ladi. Bunday oilalarda voyaga yetayotgan bolalarda psixologik travmalar, davomli emotsional buzilishlar va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar ko‘proq uchrashi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Shu bilan birga, giyohvandlik jamoat xavfsizligiga ham jiddiy tahdid soladi: jinoyatchilik faoliyatining oshishi, zo‘ravonlik holatlari, yo‘l-transport hodisalari xavfining ortishi ushbu muammoning bevosita oqibatlari hisoblanadi. Bu holatlar ichki ishlar tizimi oldiga keng ko‘lamli profilaktik vazifalarni qo‘yadi.

Giyohvandlik shaxsning mehnat salohiyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, mehnat unumdorligining keskin pasayishiga, mas’uliyatsizlik va intizomsizlikning kuchayishiga, ish joyini yo‘qotish hamda ishlab chiqarishdagi avariya holatlarining ko‘payishiga olib keladi. Bundan tashqari, giyohvandlik shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, uning ijtimoiy rollarini yo‘qotishiga, o‘zini past baholashiga, o‘ziga ishonchning susayishiga, ijtimoiy izolyatsiyaga yoki aksincha, deviant guruhlarga qo‘shilishiga sabab bo‘ladi. Insonlararo munosabatlar inqirozi, ijtimoiy mavqening yo‘qolishi, jamoada obro‘sizlanish va marginallashuv holatlari esa shaxsning jinoyatchilikka moyilligini kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qilish muammosi nafaqat alohida shaxsning ruhiy va jismoniy salomatligiga, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy barqarorligiga ham jiddiy tahdid soladi. Ushbu illat demografik holatning yomonlashuviga, yuqumli kasalliklarning tarqalishiga, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga va milliy xavfsizlikka xavf tug‘diruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatda ijtimoiy faollikning pasayishi, iqtisodiy yo‘qotishlarning ortishi va ijtimoiy tuzilmalarning izdan chiqishi ham giyohvandlik muammosining bevosita oqibatlaridandir. Shu bois giyohvandlikka qarshi kurashish, uning ijtimoiy-psixologik tahdidlarini bartaraf etish va aholida profilaktik tafakkurni shakllantirish jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur muammoni bartaraf etishda profilaktika va psixokorreksion choralar alohida ahamiyat kasb etadi. Birlamchi profilaktika doirasida ta’lim muassasalarida psixologik-ma’rifiy dasturlarni joriy etish, internet makonida profilaktik kontentni kengaytirish, yoshlarning sport, madaniy va ijtimoiy faolligini oshirish muhim hisoblanadi. Ikkilamchi profilaktika xavf guruhidagi yoshlar bilan individual ishlash, ota-onalar bilan psixologik konsultatsiyalar o‘tkazish hamda ichki ishlar, tibbiyot va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni nazarda tutadi. Psixokorreksion va reabilitatsion ishlar esa kognitiv-bixevioral psixoterapiya, motivatsion intervyu texnikalari, individual va guruhli terapiyalar, shuningdek, tibbiy-psixologik reabilitatsiya markazlari faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilish faqat individual muammo emas, balki keng qamrovli ijtimoiy, psixologik, huquqiy va madaniy muammolar majmuasidir. Ushbu illatning tarqalishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, oilaviy munosabatlar, ta'lim-tarbiya jarayoni va umumiy ijtimoiy barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli giyohvandlikka qarshi kurashishda kompleks yondashuvni joriy etish, profilaktik ishlar samaradorligini oshirish, psixokorreksion yordamni kuchaytirish, ijtimoiy-huquqiy choralarni takomillashtirish hamda oila va jamiyatning ushbu jarayondagi rolini faollashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Менделевич В.Д. Психиатрия наркоманий. – Москва: МЕДпресс, 2016.
2. Дюркгейм Э. О самоубийстве: Социологический анализ. – М., 1997.
3. Антонян Ю.М. Девиантное поведение и преступность. – М., 2020.
4. UNODC. World Drug Report. – Vienna, 2023; WHO Drug Use Statistics, 2022.
5. Miller W.R., Rollnick S. Motivational Interviewing. – New York, 2013.
6. World Health Organization (WHO). (2022). World Drug Report.
7. National Institute on Drug Abuse (NIDA). (2020). Behavioral Consequences of Drug Use.
8. Becker, G., Murphy, K. (2019). Drug Addiction and Human Behavior. Cambridge University Press.
9. Snyder, A. (2018). Youth Neuroscience and Risk Behavior. Oxford University Press.

Valiyeva Dilafruzxon Gayrat qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: dilafruzxonv@gmail.com

TALABALAR GURUHIDAGI IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUHITNI O‘RGANISHGA DOIR TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talaba guruhlari ichidagi ijtimoiy-psixologik muhitning xususiyatlari, tarkibiy omillari va uni shakllantiruvchi psixologik jarayonlar tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida guruh dinamikasi, liderlik rollari, o‘zaro munosabatlar sifati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi hamda shaxslararo kommunikatsiya mexanizmlari asosiy ko‘rsatkichlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Muallif ijtimoiy-psixologik muhitning talabalarning motivatsiyasi, akademik faolligi, moslashuv jarayoni va emotsional farovonligiga ta’siri borasidagi nazariy yondashuvlarni tahlil qiladi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda biopsixosotsial, sotsiokognitiv va kommunikativ yondashuvlarning ustunligi ko‘rsatiladi. Maqola yakunida ijtimoiy-psixologik muhitni optimallashtirishga qaratilgan psixologik diagnostika, treninglar, guruhga yo‘naltirilgan maslahat dasturlari va profilaktika me’yorlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *guruh, kichik guruh, xulq-atvor, ijtimoiy guruh, sotseometriya, talaba,ijtimoiy-psixologik muhit.*

АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ, ПОСВЯЩЁННЫХ ИЗУЧЕНИЮ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО КЛИМАТА В СТУДЕНЧЕСКИХ ГРУППАХ

Аннотация. *В статье проводится анализ исследований, посвящённых изучению социально-психологического климата в студенческих группах, его структурных компонентов и механизмов формирования. В качестве ключевых показателей рассматриваются групповая динамика, лидерство, качество межличностных отношений, степень социальной поддержки и особенности коммуникационных процессов. Автор анализирует влияние социально-психологической среды на учебную мотивацию студентов, вовлечённость в образовательный процесс, адаптационные возможности и эмоциональное благополучие. Особое внимание уделяется современным научным подходам — биопсихосоциальной, социокогнитивной и коммуникативной парадигмам. В заключение обозначены практические направления оптимизации социально-психологического климата: применение психодиагностики, групповых тренингов, программ консультирования и профилактических методов.*

Ключевые слова: *группа, малая группа, поведение, социальная группа, социометрия, студент, социально-психологическая среда.*

ANALYSIS OF RESEARCH ON THE STUDY OF THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT IN STUDENT GROUPS

Abstract. *This article presents an analytical overview of studies examining the socio-psychological environment within student groups, highlighting its core components and psychological mechanisms. Key indicators such as group dynamics, leadership structure, the quality of interpersonal relations, social support, and communication patterns are discussed. The analysis explores how the socio-psychological climate affects student motivation, learning engagement, adaptation processes, and emotional well-being. Particular emphasis is placed on modern theoretical frameworks, including biopsychosocial, sociocognitive, and communicative approaches. The conclusion outlines practical strategies for optimizing the socio-psychological environment through psychological diagnostics, group-based training, counseling programs, and preventive interventions designed to strengthen student cohesion and improve socio-emotional functioning.*

Key words: *group, small group, behavior, social group, sociometry, student, socio-psychological environment.*

Kirish. Kichik ijtimoiy-psixologik guruhlar muommosini o‘rganish o‘zining gneseologik ildizlari bilan chuqur o‘tmishga borip taqaladi. Ushbu mavzuda turli sohalar falsafa, sotsiologik, psixologiya, pedagogik, huquq va boshqalar doirasida o‘rganiladi.

Bir guruhdagi insonlarning xulq – atvorining ko‘p jihatlari antik davr ijtimoiy faylasuflari tomonidan ko‘rib chiqilgan. Bu tadqiqotlar keyinchalik ijtimoiy guruhni o‘rganisgda mustahkam asos bo‘lib hizmat qiladi.

Ijtimoiy guruhlarni o‘rganish tashkilot tizimlarini va ijtimoiy guruhlarni boshqarish nazaryasi asoschilari bo‘lgan olimlar A.Fayol, F.Teylor, O.Sheldok va boshqa ko‘plab olimlar nomlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ko‘plab statistik materiallar va shaxsiy psixologik eksperimentlar natijalari asosida ular ijtimoiy guruhdagi (ishlab chiqarish jamoasi, oila va h.k) odamlarning xatti – harakatlarini o‘rganishdi, shuningdek tadqiqotning yangi tadqiqiy va ilmiy usullarini ishlab chiqishga harakat qilishdi. Ular guruh a’zolari o‘zaro ta’sirining samaradorligini oshirish sabablari va usullarini, shuningdek, guruh jarayonlarini o‘rganishning turli usullarini sinab ko‘rdilar. “ talabalar guruhi ” kabi fenomenning ijtimoiy – psixologik mohiyati va tuzilishi ularning tadqiqotlarida yetarli darajada rivoj topmadi.

Asosiy qism. Ijtimoiy guruh konsepsiyasini rivojlanishining psixologik asoslari XX asrning 30 – yillarida shakillangan “ Inson munosabatlari ” ilmiy paradigmasi hisoblanadi. Ushbu nazaryaning asoschilari E.Mayo, D.Makgregor, D.Makleland, A.Maslau va boshqa olimlar turli xil ijtimoiy guruhlar a’zolari o‘rtasidagi samarali o‘zaro munosabatlarning ijtimoiy – psixologik shart – sharoitlari to‘g‘risida dastlabki g‘oyalarni ishlab chiqdilar. Ushbu tadqiqotchilarning birgalikdagi sa’y – harakatlari bilan guruh motivatsiyasi, shaxs motivatsiyasi, mehnat jarayonida guruhlararo munosabat,guruh munosabatida yetakchining shakllanish mohiyati va xususiyatlari o‘rganildi, hamda tahlil qilindi.

A. Bogdanov, N. Vitke, M. Birnshteyn va boshqa ko‘plab rus psixologlari va sotsiologlari o‘zlarining tadqiqotlarini sotsialistik kollektiv kabi ijtimoiy guruhlarda harakat samaradorligi muammosini o‘rganishga bag‘ishladilar. Ilk marotaba ular tomonidan korxonalarda turli xil profildagi bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash va o‘qitishning tashkiliy – psixologik modellari ishlab chiqildi. Bu o‘z navbatida ijtimoiy – psixologik ilimni boyitdi va ijtimoiy guruhlarni bo‘lajak mutaxasislarni tayyorlaydigan ijtimoiy –psixologik muhit sifatida samaradorligini hamda funksionalligini amaliy jihatdan oshirishga imkon berdi.

Rus olimlari Ya.L. Kolominskiy, I.V. Silchenko, T.V. Belly, V.I. Zatsepin, G.A. Kozub, A.N. Lutoshkin, L.I. Marisova va boshqalar guruhga bo‘lajak mutaxassislar tahsil oladigan ijtimoiy – psixologik muhit sifatida alohida e’tibor qaratishgan.

Talabalar guruhiga bag‘ishlangan zamonaviy ishlar asosan guruh jarayonlarini diagnostikasining sotseometrik jabhasini rivojlantirishga qaratilgan. Biroq, sotsiometrik tadqiqotlarni takomillashtirish bo‘yicha tinimsiz urinishlar ushbu yondashuvning cheklanishlarini bartaraf eta olmaydi. Sotsiometrik metod yordamida talabalar guruhida o‘rganilayotgan ijtimoiy-psixologik jarayonning mavjud o‘zgarishini aniqlashga qaratilgan har qanday umumlashtirish va intilishlar nafaqat mashaqqatli, balki ba’zi hollarda amalda imkonsiz jarayondir.

Shu munosabat bilan talabalar o‘quv guruhlarining ijtimoiy-psixologik muhitini o‘rganishda yangicha yondashuv - fokus-guruh usulidan foydalanish zarur bo‘ldi.

Talabalarning o‘z – o‘ziga baho berishi ularning statusiga bog‘liqligi masalasi A.M.Axmetxanovaning dissertatsiya ishlarida yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, liderlarning o‘z – o‘ziga baho berishi autsayderlarnikiga qaraganda adekvatga ancha yaqinroq. Bundan tashqari, autsayderlarning o‘zini o‘zi baholashi va ularning boshqa odamlarni baholashi shaxs rivojlanishining retrospektiv darajasi bilan ko‘proq bog‘liq bo‘lib, bu talabalar guruhlaridagi autsayderlarning liderlarga nisbatan ko‘proq rigidligi haqida gapiradi. Talabalarning o‘zini o‘zi baholash va boshqa odamlarni baholashdagi rigidligi ularning noqulay holatlarining sabablaridan biri.

G.M. Andreeva boshqa odamni idrok etishning “toza” mexanizmi to‘g‘risida bilim yetarli emasligini va bunday anglashning o‘ziga xos shartlarini, bir – birini anglayotgan va baho berayotgan insonlar ishtirok etadigan jarayonlarning aniq holatini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi (10). Hamda aynan shu holat natijasida ushbu muammoga tegishli bo‘lgan yangi tadqiqotlarda

insonlarning aniq bir o‘zaro faoliyati kechayotgan real ijtimoiy guruhlarni o‘rganish kabi vazifasi kelib chiqadi.

Rus psixologiyasida shaxslararo bilishni odamlar faoliyati bilan bog‘liq holda o‘rganish A.A. Bodalev tomonidan boshlab berilgan. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning poydevoriga B.G.Ananev va V.I.Myasishev konsepsiyasining belgilovchi holatlari asos bo‘lib hizmat qildi.

Insonlarning bir – birini anglash nazaryasi A.A.Badalevning “ insonlarning o‘zaro bir –birini anglashi va ularning o‘zaro ta’siri har qanday faoliyatning ajralmas qismi... Ularning o‘zaro ta’sir xarakteri va birgalikdagi faoliyatlarida erishgan natijalari ko‘p jihatdan odamlarning tashqi qiyofasi va xulq-atvorini aks ettirish va talqin qilish hamda bir-birlarining imkoniyatlarini baholashga bog‘liqdir " degan pozitsiyasidan kelib chiqqan. Uning tadqiqot natijalari “boshqa shaxs haqidagi tushunchalarning mazmuni faoliyatning natijasi, xarakteri va yo‘nalishi, har bir ishtirokchining uning yakuniga qo‘shgan hissasi va muloqat qiluvchilar tomonidan qabul qilingan me'yorlarga muvofiqligi bilan belgilanadi ” degan tushunchani aniqlashga yordam berdi. Inson faoliyati uning ichki psixologik mohiyatining namoyon bo‘lish shakllaridan biri sifatida qaraldi.

Keyinchalik, shaxslararo munosabatlarni idrok etish muammosiga qiziqish kollektivning psixologik nazariyasining rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda kuchaygan. Metodologik asos sifatida, aniqrog‘i empirik tadqiqotlar uchun uning vositachilik faoliyati prinsipi taklif qilindi. Faoliyat shaxslararo so‘rovning asosiy hal qiluvchi omili sifatida qaralishni boshladi.

Bu bilish bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan barcha omillar, hamda ularning mexonizmlari va doimiy ketma – ketligi faoliyat bilan bevosita bog‘liq deb topildi.

Talabalik guruhlari individual bilimlar qabul qilish jarayonini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega. Biroq, buning uchun talabalar guruhlari bir jamoa bo‘lishi kerak, ularning har bir a’zosi boshqalariga yordamga shay bo‘lishlari kerak, unda ta’lim olish va bilimga nisbatan hurmat shakllanishi lozim, unda ilmiy tadqiqot atmosferasi shakllangan bo‘lishi kerak: qisqasi talabalar guruhlari samarali faoliyat olib borishlari uchun guruhda ijobiy ijtimoiy-ruhiy holat shakllangan bo‘lishi kerak.

“Ijtimoiy-psixologik muhit” tushunchasi boshqa shunga o‘xshash, masalan: “tadbirkorlik muhiti”, “axloqiy-psixologik muhit”, “qadriyatli atmosfera”, “psixologik muhit”, “kayfiyat”, atmosfera, ruh, sharoit, mikroiqlim, vaziyat, guruh ekologiyasi, ijtimoiy muhit tushunchalar bilan allaqachon sotsiologiya va psixologiya atamalari orasidan joy olgan.

Ijtimoiy-psixologik iqlimga nisbatan turlicha talqinlar va ta’riflar mavjud bo‘lib, ularning umumiy kamchiligi bu ba’zan mazkur tushunchaning boshqa ijtimoiy-psixologik hodisalar bilan qo‘shilib ketishi, ba’zan ular bilan shunchaki ayniylashtiriladi. Psixologik (ijtimoiy-psixologik) iqlimning turli tushunchalarining ishlab chiqilishi shuni ko‘rsatadiki, umumiy guruh kayfiyatidan butkul tashqarida bo‘lgan hech qanday ijtimoiy-psixologik hodisa, hech qanday yagona guruh xarakteristikasi yoki jihati mavjud emas. Buning o‘zi, albatta kayfiyat muammosini so‘roq ostida qoldiradi.

Qulay ijtimoiy-psixologik iqlim muvaffaqiyatli ta’lim va talabalarning o‘z jamoasidan qoniqish hissini yuzaga keltiradi.

Ijtimoiy-psixologik iqlim tushunchasini ochib bergan tadqiqotchilarning eng dastlabkilaridan biri bu V. M. Shepel edi. Uning fikricha, psixologik iqlim bu jamoa a’zolari orasidagi psixologik aloqalarning hissiy jihati bo‘lib, bu aloqalar ular orasidagi yaqinlik, simpatiya, xarakterlar mosligi, manfaatlar va intilishlar umumiyligi natijasida shakllanadi. Uning fikricha, insonlar orasidagi munosabatlar uch iqlim zonalaridan iborat bo‘ladi. Birinchi iqlim zonasi – bu ijtimoiy iqlim bo‘lib, bunda guruhning maqsad va vazifalari qanchalik darajada belgilanganligi, ishchilarning fuqaroviy huquq va erkinliklari qay darajada ta’minlanganligi aniqlanadi. Ikkinchi iqlim zonasi – bu axloqiy iqlim zonasi bo‘lib, u muayyan guruhda qanday axloqiy qadriyatlar qabul qilinganligini belgilaydi. Uchinchi iqlim zonasi – bu psixologik iqlim bo‘lib, unda bir biri bilan bevosita aloqaga kirishuvchi norasmiy munosabatlar mazkur iqlimda aks etadi. Psixologik iqlim – bu mikroiqlim bo‘lib, uning ta’sir doirasi ijtimoiy va axloqiy iqlimga nisbatan anchatiga tor hisoblanadi.

Rus psixologiyasida ijtimoiy-psixologik iqlim tabiatini tushunishga nisbatan to‘rt asosiy yondashuv farqlanadi.

Birinchi yondashuv namoyondalari (L. P. Buyeva, Y. S. Kuzmin, N. N. Obozov, K. K. Platonov, A. K. Uledov) iqlimni ijtimoiy-psixologik hodisa, jamoaviy ong holati sifatida ko‘rishadi. Iqlim ular tomonidan inson ongida o‘zaro munosabatlar, mehnat sharoitlari, va uni stimullash metodlari bilan bog‘liq hodisalar kompleksining aks etishi sifatida tushuniladi. Ijtimoiy-psixologik iqlim deganda, Y. S. Kuzminning fikricha, tashkilot a’zolari real psixologiyasining xarakterini, mohiyatini va yo‘nalganligini aks ettiruvchi kichik guruh holatini tushunish lozim.

Ikkinchi yondashuv namoyondalari (A. A. Rusalinova, A. N. Lutoshkin) fikricha, ijtimoiy psixologik iqlimning asl xususiyati bu undagi umumiy hissiy holat hisoblanadi. Bunda iqlim insonlar guruhining umumiy kayfiyati sifatida tushuniladi.

Uchinchi yondashuv tarafdorlari (V. M. Shepel, V. A. Pokrovskiy, B. D. Parigin) ijtimoiy-psixologik iqlimni bir biri bilan bevosita aloqadagi guruh a’zolarining o‘zaro munosabatlari stili prizmasi orqali ko‘rib chiqishadi.

To‘rtinchi yondashuv namoyondalari (V. V. Kosolapov, A. N. Sherban, L. N. Kogan) iqlimni guruh a’zolarining ijitmoiy va psixologik kelishuvchanligi, ularning axloqiy-psixologik yakdilligi, birligi, ular orasidagi umumiy qarashlarning, odat va an’analarning mavjudligi atamalarida ifodalaydi.

Iqlimni tadqiq etayotganda, uning ikki darajasini yodda tutmoq lozim. Birinchi daraja – bu statik va nisbatan barqaror hisoblanadi. Bu jamoa a’zolarining barqaror o‘zaro munosabatlari, ularning ishga nisbatan va o‘z hamkasblariga nisbatan befarqligidir. Bu darajada ijtimoiy-psixologik iqlim barqaror, yetarlicha o‘zgarmas holat sifatida tushuniladi, va u shakllanib bo‘lgandan keyin, yetalicha uzoq saqlanadi hamda tashkilot o‘z yo‘lida duch keluvchi qiyinchiliklarga qaramasdan vayron bo‘lmasdan, saqlanib turadi. Shu nuqtai nazarda, guruhda yoqimli kayfiyatni shakllantirish nisbatan mushkul, lekin allaqachon shakllangan munosabatlarni muayyan darajada saqlab turish nisbatan oson kechadi. Ijtimoiy-psixologik iqlim attributlarini nazorat qilish va to‘g‘rilash guruh azolari tomonidan epizodik tarzda amalga oshiriladi. Ular o‘zaro munosabatlarda muayyan barqarorlikni his qilishadi. Iqlim holati atrof muhitdan keluvchi turli ta’sirlarga nisbatan kamroq darajada sezgir bo‘lgani uchun, tashqi ta’sirlar muayyan darajada individual va jamoaviy faoliyat natijalariga, ularning mehnatlari sifati va miqdoriga ta’sir qiladi.

Ikkinchi daraja o‘zgaruvchan, dinamik va tebranuvchandir. Bu jamoa a’zolarining ish muhitidagi kundalik kayfiyati, ularning psixologik holatidir. Bu daraja “psixologik kayfiyat” tushunchasi bilan izohlanadi. Ijtimoiy-psixologik iqlimdan farqli ravishda, psixologik atmosfera tezroq va kutilmagan o‘zgarishlarga ko‘p uchraydi va bu hollar guruh a’zolari tomonidan kamroq anglanadi. Psixologik iqlimning o‘zgarishi ishchilarning ish qobiliyatlariga, ularning mahsuldorligiga faqatgina bir ish kuni mobaynida ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Iqlimning o‘zgarishi doimo aniq ifodalangan bo‘ladi, ular insonlar tomonidan doimo o‘tkir his qilinadi; ko‘pincha insonlar ularga moslashishga ulgurishadi. Psixologik muhitda miqdor o‘zgarishlarining to‘planib borishi yangi sifat o‘zgarishi holatiga, boshqa ijtmoiy-psixologik iqlimga o‘tishga olib keladi.

Talabalar guruhidagi ijtimoiy – psixologik iqlim bir necha o‘ziga xosliklarga ega bo‘lib, ular talabalar guruhining o‘z ijtimoiy psixologik tabiatidan kelib chiqadi va u esa, o‘z navbatida talabalarning asosiy faoliyat turi – o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘quv faoliyati natijasida yuzaga keladi. Talabalarning bilish faoliyati – bu intellektual mehnat hisoblanib, uning murakkabligi va bosimliligi juda yuqori darajada bo‘ladi. Talabalar tomonidan o‘quv mashg‘ulotlarining bajarilishi natijasida ularda kasbiy ahamiyatga ega bilimlar, malakalar va shaxsiy sifatlar shakllanadi. Shunday qilib, o‘quv faoliyati ikki yoqlama natijalarga olib keladi. Tashqi – o‘quv topshiriqlarini bajarish ya’ni, ko‘rsatilgan adabiyotlarni o‘rganish, nazorat mashg‘ulotlarini bajarish yoki imtihon savollariga javob berish kabilar. Keyin, ichki – kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan, amaliy vazifalarni bajarish uchun lozim bo‘lgan ishonch, malaka, va o‘zlashtirilgan vositalar, shuningdek shaxsning axloqiy va motivatsion sifatlari kabilar.

O‘quv mashg‘ulotlarining o‘ziga xos xususiyati shundan iborat bo‘ladiki, ular ko‘pincha talabalar orasida taqsimlanmaydi, balki ularning har biri tomonidan to‘laligicha bajariladi. Agar ishlab chiqarishda umumiy vazifalar qismlarga, muayyan sohalarga ixtisoslashuvchi muayyan mutaxasislar

orasida bo‘linsa, o‘quv jarayonida guruhning umumiy vazifalari bir qancha istisnolarni hisobga olmaganda (rolli o‘yinlar, taqlidga asoslangan o‘yinlar va boshqalar) bir paytning o‘zida har bir talaba uchun alohida vazifa hisoblanadi.

O‘quv mashg‘ulotlarining bunday bo‘linmasligi va guruh uchun umumiy vazifa tushunchasining mavjud emasligi jamoaviy faoliyatni, va o‘quvchilarning o‘quv ishlari bo‘yicha bir - biri bilan hamkorligiga turtki bermaydi. Bu esa o‘z navbatida guruh va oily ta’lim muassasasida umumiy ta’lim muhitini yaralishiga to‘sqinlik qiluvchi individualism kayfiyatiga sabab bo‘ladi.

Ayni paytda topshirilgan vazifalarning birbiri bilan o‘xshashligi talabalarning bir biri bilan yaqinlashuvining muhim omili hisoblanadi, ularga bir birlarining o‘quv mashg‘ulotlariga yondashuvning individual uslubini tushunish, malaka almashish, o‘z tengdoshlariga to‘g‘ri bahoberish, va o‘zaro yordam amaliyotini bajarish imkonini beradi. Talabalar teng huquqli asosda o‘qilayotgan mavzularni va umuman o‘qish muammolarini muhokama qilishlari mumkin, ish metodlariga e’tibor qaratishlari, qiyinchiliklar sabablarini muhokama qilishlari, buborada foydali maslahatlar ulashishlari mumkin. Bu yerda har bir kishining ish uslubi, yetishmovchiliklari sabablari, ularni bartaraf qilish yo‘llari munozaraga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada, do‘stona hamjihat o‘qish uchun qulay sharoit yaratiladi, talabalarning o‘quv va jamoatchilik ishlari uchun asos hosil bo‘ladi va ular orasida o‘zaro yordamga shaylik kayfiyati shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Давлетшин М. Г., Жалилова С. Х. Психологические аспекты эффективности учебного процесса в высшей школе. – Ташкент, 2001. – 184 с.
2. Давлетшин М. Г. и др. Возрастная и педагогическая психология. – Ташкент : ТДПУ, 2009. – 312 с.
3. Нишонова З. Т., Эргашев П. С. Психология высшей школы. – Ташкент, 2012. – 256 с.
4. Петровский А. В. Возрастная и педагогическая психология. – М. : Просвещение, 1979. – 288 с.

Mirhaydarova D.G.
Toshkent davlat tibbiyot unversiteti, akademik litseyi psixologi

BOSH MIYA FALAJIGA CHALINGAN BOLALARDA PSIXOMOTOR RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada miya falaji bilan og‘rigan 1–3 yoshli bolalarda motor, sensor, kognitiv va nutq rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Erta yoshdagi miya motor patologiyasi natijasida harakat, idrok, nutq va kognitiv jarayonlarning nomuvofiq va notekis shakllanishi, sensor tizimlar integratsiyasining buzilishi hamda manipulyativ faoliyatdagi cheklanishlar tahlil qilinadi. Tadqiqotlar natijasi erta tashxis va kompleks korreksion-pedagogik aralashuvning kognitiv faollikni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *miya falaji, kognitiv rivojlanish, motor patologiya, sensor buzilishlar, nutq rivoji, erta korreksiya, manipulyativ faoliyat, idrok, bolalar rivojlanishi.*

ПСИХОМОТОРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ С ДЕТСКИМ ЦЕРЕБРАЛЬНЫМ ПАРАЛИЧОМ

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности моторного, сенсорного, когнитивного и речевого развития детей 1–3 лет с детским церебральным параличом. Анализируются задержка и несформированность двигательных навыков, нарушения сенсорной интеграции, ограниченность предметно-манипулятивной деятельности и специфика познавательной активности. Подчеркивается значимость ранней диагностики и комплексного коррекционно-педагогического вмешательства, обеспечивающего повышение уровня когнитивного развития детей.*

Ключевые слова: *детский церебральный паралич, когнитивное развитие, моторные нарушения, сенсорные расстройства, развитие речи, ранняя коррекция, предметно-манипулятивная деятельность, восприятие, психофизическое развитие ребенка.*

PSYCHOMOTOR DEVELOPMENT CHARACTERISTICS OF CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY

Abstract. *This article examines the motor, sensory, cognitive, and speech development characteristics of children aged 1–3 years with cerebral palsy. It analyzes delays in motor skills, sensory integration deficits, limitations in object-manipulative activity, and the uneven development of cognitive functions. The findings highlight the importance of early diagnosis and comprehensive correctional-pedagogical intervention, which significantly enhances cognitive activity and overall developmental outcomes in children with cerebral palsy.*

Key words: *cerebral palsy, cognitive development, motor impairment, sensory dysfunction, speech development, early intervention, manipulative activity, perception, child development.*

So'nggi yillarda miya motor patologiyasi bilan tug'ilgan bolalar sonining ko'payishi kuzatilmoqda, ularning aksariyati miya falajiga chalingan bolalardir. Ko'plab mahalliy tadqiqotlar miya falajida harakat buzilishlarini (L.O. Badalyan, L.T. Jurba, E.M. Mastyukova, N.M. Maxmudova, K.A. Semenova) va miya falajiga chalingan bolalarda nutq buzilishlarini (E.F. Arxipova, L.A. Danilova, M.V. Ippolitova, I.I. Panchenko va boshqalar) o'rganish muammosiga bag'ishlangan. Miya motor patologiyasi bilan og'rigan bolalarda psixik buzilishlar muammosi L.A. Danilova, E.S. Kalijnyuk, E.M. Mastyukova, N.S. Simonova, I.Yu. Levchenko va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Biroq, bugungi kunga qadar miya falajiga chalingan yosh bolalarda kognitiv faollikning rivojlanish xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan.

Harakat buzilishi sindromlari va miya falajiga chalingan bolalarda barcha motor ko'nikmalarini o'zlashtirish kechiktiriladi yoki turli darajalarda buziladi: boshni ko'tarish funktsiyasi, o'tirish, turish, yurish va manipulyativ faoliyat ko'nikmalari qiyinchilik va kechikish bilan rivojlanadi. Harakat

buzilishi, o'z navbatida, aqliy va nutq funktsiyalarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bolaning motor sohasidagi buzilishlarni iloji boricha erta aniqlash juda muhimdir. Harakat buzilishlarining og'irligi juda xilma-xil bo'lib, bir darajada og'ir harakat buzilishlari, ikkinchisida esa minimal bo'ladi. Miya falajiga chalingan bolalar aqliy rivojlanishdagi o'ziga xos og'ishlar bilan tavsiflanadi. Psixik rivojlanish buzilishlarining mexanizmi murakkab va miya shikastlanishining vaqti, darajasi va joylashuvi bilan belgilanadi (K.A. Semenova, N.M. Maxmudova; E.I. Kirichenko Ko'pgina mualliflar (E.M. Mastyukova; E.S. Kalijnyuk; L.A. Danilova; I.Yu. Levchenko; E.I. Kirichenko va boshqalar) miya falaji bilan og'rigan bolalar miyaning erta organik shikastlanishi va turli xil motor, sensor (ko'rish, eshitish, kinestetik idrok etish patologiyasi) va nutq nuqsonlarining kombinatsiyasi natijasida yuzaga keladigan noyob aqliy rivojlanish bilan tavsiflanishini ta'kidlaydilar.

Ruhiy kasalliklarning paydo bo'lishida faoliyatning cheklanishi, ijtimoiy aloqalar, shuningdek, tarbiya va atrof-muhit sharoitlari muhim rol o'ynaydi. Miya falaji bilan og'rigan bolalarda aqliy faoliyatning xronologik yetukligi keskin kechiktiriladi. Shu fonda ruhiy kasalliklarning turli shakllari va, eng avvalo, kognitiv faollik aniqlanadi (M.B. Eidinova, E.N. Pravdina-Vinarskaya; R.Ya. Abramovich-Lektman; E.I. Kirichenko; E.S. Kalijnyuk; I.Yu. Levchenko. Ko'pgina mualliflar miya falaji bilan og'rigan bolalarda ruhiy kasalliklarning notekis, nomuvofiq tabiatiga ishora qiladilar. Bu xususiyat miya falajida miya shikastlanishining rivojlanishining dastlabki bosqichlarida "mozaik" tabiati bilan bog'liq; Eng ko'p ta'sirlanganlar ontogenezning keyingi bosqichlarida shakllanadigan "eng yosh" va eng yuqori darajada tashkil etilgan funktsiyalardir (E.O. Kirichenko, M.O. Gurevich va N.I. Ozeretskiy, O.G. Prixodko; ular ba'zi intellektual funktsiyalarning yo'qolishini, boshqalarining rivojlanishida kechikishni va boshqalarining saqlanib qolishini qayd etadilar.

E.S. Kalijnyuk va E.M. Mastyukova miya falaji bilan og'rigan bolalarda astenik ko'rinishlarning og'irligini (charchoqning va barcha aqliy jarayonlarning charchashi) ta'kidlaydilar, bu ham markaziy asab tizimining organik shikastlanishi bilan bog'liq. Ko'pgina tadqiqotchilar atrofdagi dunyo haqidagi bilim va g'oyalar zaxirasining kamayganligiga e'tibor qaratadilar, bu majburiy izolyatsiya, bolaning uzoq vaqt harakatsizligi yoki harakatdagi qiyinchiliklar tufayli boshqa odamlar bilan cheklangan aloqasiga bog'liq. Subyektiv-amaliy faoliyat jarayonida atrofdagi dunyoni tushunishdagi qiyinchilik, bu harakat va sezgi buzilishlarining namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Uzoq muddatli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, hayotning birinchi oylarida erta aniqlash va yetarli darajada tuzatish ishlarini tashkil qilishda miya motor patologiyasini yengishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

K.A. Semenova, L.O. Badalyan va E.M. Mastyukova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tashxis erta - 4-6 oylikdan kechiktirmasdan - qo'yilgan taqdirda va yetarlicha tizimli tibbiy va pedagogik aralashuvlar erta boshlangan bo'lsa, 2-3 yoshga kelib 60-70% hollarda turli funktsiyalarning amaliy tiklanishi va normallashishiga erishish mumkin. Miya motor patologiyasi bo'lgan bolalar kech aniqlanganda va yetarli darajada korreksiya ishlari olib borilmaganda, og'ir motor, aqliy va nutq buzilishlarining rivojlanishi ehtimoli ko'proq.

Erta bolalik davrida motor patologiyalari bo'lgan bolalarda to'g'ri va muvozanat reaksiyalarining rivojlanishi keskin kechikadi va sifat jihatidan nuqsonli bo’ladi. Bir yoshga kelib, miya falaji bilan og'rigan ba'zi bolalar boshni nazorat qila olishadi; katta qismi mustaqil o'tira olmaydi. Ko'pchilik holatlarda tana majburiy holatga ega bo’ladi, orqadan oldinga o'girilmaydi va turishga urinayotganda g'ayritabiiy tayanchga ega bo’ladi. Bu buzilishlarning barchasi kognitiv rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ikki yoshga kelib, og'ir motor patologiyalari bo'lgan bolalar ko'pincha boshni nazorat qilishga intiladilar, boshlarini erkin bura olmaydilar va atrofni kuzata olmaydilar. Ular tana holatini o'zgartirishga qiynaladilar. Faqat bir nechta bolalar mustaqil o'tirishlari, tik turgan holda (tayanch bilan) tik holatini saqlashlari va qo'llari bilan tayanch bilan yurishlari mumkin. Uch yoshga kelib, bolalar boshlarini boshqara oladilar; ba'zilari mustaqil o'tirishi va hatto tik turgan holda (tayanch bilan) tik holatini saqlash mahoratini o'zlashtirgan bo’lishi mumkin.

Deyarli barcha bolalarda qo‘l va barmoqlarning mayda motor funksiyalarida turli darajadagi buzilishlar kuzatiladi. Ko‘pchilik hollarda qo‘l harakatlari g‘ayritabiiy shaklga ega bo‘lib, bu mushtni haddan tashqari qattiq qisish, bosh barmoqning doimiy bukilib turishi hamda o‘yinchoqni ushlash jarayonida bosh barmoqni faol jalb qilishdagi qiyinchiliklar bilan namoyon bo‘ladi. Og‘ir holatlarda esa, hatto go‘daklik davrining oxiriga kelib ham bolalarning predmetlarni ushlashi yoki ularni

boshqarishi deyarli imkonsiz bo‘lib qoladi. Ayrim bolalar predmetlarni ushlay olsalar-da, ularni barqaror ushlab turish yoki boshqarish qobiliyatlari sust rivojlangan bo‘ladi. Faqat kam sonli holatlarda bolalar predmetni ushlash, ushlab turish, ixtiyoriy ravishda qo‘yib yuborish va oddiy manipulyativ harakatlarni bajarishga qodir bo‘ladilar, biroq bunday holatlarda ham harakatlarning erkin va aniq boshqarilishi cheklangan bo‘ladi.

Erta yoshdagi miya falaji bilan og‘rigan bolalarning aksariyatida turli sensor-analitik tizimlar faoliyatining integratsiyasi izdan chiqqan bo‘ladi. Ko‘rish, eshitish hamda mushak-bo‘g‘im sezgisiga oid buzilishlar umumiy idrok jarayonlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi, tashqi muhitdan olinadigan axborot hajmini cheklaydi va bolalarning kognitiv rivojlanishiga jiddiy to‘sqinlik qiladi. Ko‘plab bolalarda konvergent va divergent strabismus, qisman optik asab atrofiyasi, ko‘rish maydonining torayishi, shuningdek, miopiya kabi vizual analizator patologiyalari aniqlanadi. Ushbu vizual buzilishlar ko‘pincha motor disfunktsiyalari bilan kuchayib boradi: ayrim bolalarda ko‘z mushaklari faoliyatiga patologik tonik reflekslarning sezilarli ta’siri kuzatiladi. Harakatlanish tizimidagi cheklanishlar ko‘rish-motor koordinatsiyasining shakllanish jarayonini ham sezilarli ravishda susaytiradi. Vizual analizator faoliyatidagi ushbu anomaliyalar atrof-muhitdagi obyekt va hodisalarni to‘liq, izchil va ishonchli idrok etishning buzilishiga olib keladi.

Individual darajada inkulturatsiya jarayoni o‘ziga o‘xshash odamlar bilan kundalik muloqotda namoyon bo‘ladi: qarindoshlar, do‘stlar, tanishlar yoki shu madaniyatga mansub notanish odamlar bilan muomalada inson o‘zi anglagan yoki anglamagan holda turli hayotiy vaziyatlarda o‘zini qanday tutish, hodisalarni baholash, mehmon kutish, u yoki bu e’tibor yoki signallarga munosabatda bo‘lishni o‘rganadi. Shundan inkulturatsiya jarayoni mazmuni quyidagi bilim va ko‘nikmalarni egallashni o‘z ichiga oladi:

• hayotini ta’minlash: kasbiy faoliyat, uy mehnati, mahsulot va xizmat ko‘rsatishdan foydalanish;

• shaxslilik rivojlanishi: umumiy va kasbiy ma’lumotni egallash, ijtimoiy faollik, qiziqish mashg‘ulotlari;

• ijtimoiy kommunikatsiya: rasmiy va norasmiy muloqot, sayohatlar, jismoniy harakatlanish;

• energetik harajatlarni tiklash: ovqat iste’mol qilish, shaxsiy gigienaga rioya qilish, passiv dam olish, uyqu.

Inkulturatsiya yoki madaniyatga o‘rgatish bir necha yo‘llar orqali amalga oshadi, lekin uning ko‘proq tarqalgan turi bavosita, ya’ni insonning o‘zi boshqa odamlar xulq-atvorini kuzatishidir. Bunday usulda, hattoki eng sodda bo‘lgan, biz har kuni bajaradigan muolaja ham inkulturatsiya nuqtai nazaridan ma’lum qadriyat hisoblanadi, chunki u turli madaniyatlarda turlicha mazmun kasb etuvchi pozalar va imo-ishoralardan tashkil topadi. Ovqatlanish paytida yovvoyi hayvon va insonning xulq-atvori o‘rtasidagi farq keskin. sivilizatsiyalashgan insonni u yoki bu madaniyat normalari asosida o‘z ehtiyojlarini qanday qondirishga o‘rgatadilar. Boshqacha qilib aytganda, madaniyat bizni qaerda, qanday ish tutishimizga o‘rgatadi. Ko‘rsatilgan farqlarga qaramay, sotsializatsiya va inkulturatsiya tushunchalari mazmun va mohiyati fanda munozaralarga sabab bo‘lmoqda. M.Mid ijtimoiylashuv termini ostida umuman ta’lim berishni, inkulturatsiya termini ostida esa maxsus madaniyatda yuz beradigan ta’limni tushunadi.

D. Matsumotoning fikricha, sotsializatsiya bu odamlarning ijtimoiy va madaniy normalarni bilish jarayoni, inkulturatsiya esa - sotsializatsiya jarayoni mahsulidir. Deyarli barcha tadqiqotchilar sotsializatsiya universalroq xarakterda ekanligi, inkulturatsiya esa madaniy xususiyatga ega ekanligida to‘xtalib o‘tadilar.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, shubhasiz inkulturatsiya va sotsializatsiya jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq va faqat birgalikda yuz berishi mumkin. Har bir inson o‘z individual taraqqiyoti jarayonida ma’lum madaniyatga mansub sotsializatsiya va umumiy inkulturatsiyaga erishadi. Hozirgi davrda inson inkulturatsiya va sotsializatsiyasiz jamiyatning a’zosi sifatida mavjud bo‘la olmasligi shubhasiz, shuning uchun bu jarayonlarni chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Inkulturatsiya natijasida inson o‘zini o‘rab turgan ijtimoiy muhitda mustaqil harakatlanishga, avvalgi ajdodlar qoldirgan madaniyat predmetlaridan foydalanishga, jismoniy va aqliy mehnat natijalari bilan o‘rtoqlashishga boshqa odamlar bilan o‘zaro hamjihatlikka qodir bo‘ladi. Shu xususiyatlari bilan odam boshqa madaniyat vakillaridan ajralib turadi. Sotsializatsiya jarayoni natijasida inson jamiyatning to‘la huquqli a’zosiga aylanadi, ya’ni talab etilgan ijtimoiy rollarni mustaqil bajaradi, bunda madaniy xususiyatlarga e’tibor berilmaydi. Inkulturatsiya jarayonlari ham, sotsializatsiya jarayonlari ham asosan maxsus o‘qitish davomida emas, balki kattalar rahbarligida va o‘z tajribasiga suyangan holda boradi. Faqatgina ulardan ba’zilarigina maxsus ijtimoiylashuv institutlari - maktablar, oliy o‘quv yurtlarida yuz beradi.

Kattalar va bolalarda sotsializatsiya jarayonlarining turlicha kechishi aniqlangan. Buning sabablarini Orvil G.Brim o‘rgangan. U quyidagi farqlarni aniqlagan.

1. Kattalarda sotsializatsiya tashqi xulq-atvorni o‘zgartirsa, bolalarda esa bazaviy qadiryatlarni transformatsiyalaydi.

2. Kattalar normalarni baholashga va ularg tuzatish kiritishga qodirlar, bolalar esa ularni tanqidsiz o‘zlashtiradilar.

3. Yetuklik ko‘rinishidagi sotsializatsiya oq va qora orasiga qo‘shimcha ranglarni kiritsa, bolalar esa boshqalarni baholash va fikrlashda kontrast ranglardangina foydalanadilar. Kattalar ko‘pgina ijtimoiy rollarni bajaradilar, kichiklar esa yo‘q.

4. Kattalarda sotsializatsiya jarayoni professional mutaxassislik liniyasi bo‘yicha ketsa, bolalar esa hayotning umumiy prinsiplari, ahloqiy qadriyatlarni o‘rganadilar.

Sotsializatsiya va inkulturatsiya tushunchalari o‘z tarkibiga ko‘ra bir-biriga juda yaqin bo‘lib, ularni aralashtirib yubormaslik zarur. Sotsializatsiya insonning hayotda zamonaviy jamiyatdagi ta’limini anglatadi. Inson qanday davlatga bormasin ijtimoiy tuzilma va jamiyat stratifikatsiyasi, insonlarning sinflarga bo‘linishi, pul ishlab topish usullari va oilada rollarning taqsimlanishi, bozor iqtisodiyotining asoslari va davlatning siyosiy tuzilishi, fuqarolik xuquqlari xaqidagi elementar tasavvurga ega bo‘lishi zarur.

Inkulturatsiya insonning konkret madaniyatda xulq-atvor normalari va an'analarga o'rganishini anglatadi. Madaniyat turli davlatlarda ijtimoiy tuzilmaga nisbatan maxsusroqdir. Unga to'liqligicha kirishib ketib moslashish qiyin. Masalan, O'zbekistondan boshqa bir mamlakatga ko'chib o'tgan emigrant hayotning ijtimoiy qonunlarini tez o'zlashtiradi. Lekin, boshqa bir madaniyatning normalari va an'analarini o'zlashtirish juda katta qiyinchilik bilan kechadi. O'zbekistonlik programmist yoki injener chet elda tan olingan yuqori kvalifikatsiyaga ega bo'lib turib, qisqa muddatda o'zining yangi mavqeiga xos xuquqlari va majburiyatlarini o'zlashtiradi. Bir oydan so'ng u o'z vazifasini shu davlatning tub aholisidan farqlanmagan tarzda bajara oladi. Lekin boshqa bir madaniyatga o'rganib o'zinikidek xis qilishga bir necha yillardan keyin ham erisha olmaydi. Shunday ekan, hayotning ijtimoiy tartiblariga moslashish inkul'turatsiya – qadriyatlar, an'analar va odatlarga moslashishdan ko'ra qiyinroq kechadi.

Insondan "Sen kimsan?" deb so'ralganda usotsializatsiya nuqtai nazaridan "Men professor, olim, injener, oila boshlig'iman", deb javob berishi kerak. Inkulturatsiya nuqtai nazaridan esa u "Men rus, ukrain yoki o'zbekman" deb o'z millatini ko'rsatishi lozim.

Shunday ekan, inkulturatsiya va sotsializatsiya jarayonlari bir-biridan tubdan farq qiladi va ularni aynan bir ma'noni anglatuvchi tushunchalar sifatida qabul qilish noto'g'ridir. Ko'rib turganimizdek, ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar bir tomondan bir xil deb qaralsa, ikkinchi tomondan alohida jarayon sifatida e'tirof etiladi. Biroq hali hanuz olimlar bu borada bir to'xtamga kelganlari yo'q. So'nggi yillarda krossmadaniy tadqiqotlarga e'tiborning ortib borishi mazkur muammoning hal bo'lishiga zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. G'oziev E. Psixologiya metodologiyasi. – Toshkent : Noshir, 2013. – 110 b.
2. Сафаев Н. С. Особенности исследований межкультурной коммуникации // Вестник Омского университета. Серия «Психология». – 2018. – № 2. – С. 25–28.
3. Abdurahmonova Z. E. Milliy birlik tuyg'usining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. – Toshkent : Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2010. – 20 b.
4. Берри Дж. Как мы будем жить все вместе? Альтернативное видение межкультурных отношений // Кросс-культурная психология: актуальные проблемы / под ред. Л. Г. Почебут, И. А. Шмелевой. – СПб. : Изд-во СПбГУ, 2005. – С. 6–25.
5. Флиер А. Я. Культурология для культурологов. – М. : Академический проект, 2000. – 352 с.
6. Белинская Е. П., Стефаненко Т. Г. Этническая идентичность: понятие, формирование, модели измерений // Этническая социализация подростка. – Воронеж : МП «Модэк», 2000. – С. 75–107.
7. Мид М. Этнография детства. – М., 1999. – 134 с.
8. Матсумото Д. Психология и культура. – М., 2003. – 56 с.
9. Грушевицкая Т. Г., Попков В. Д., Садохин А. П. Основы межкультурной коммуникации. – М., 2002. – С. 54–65.

Nig‘matova Shohsanam Nabijon qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi (PhD)

OLIY O`QUV YURTLARIDA TALABALARGA PEDAGAGIK VA PSIXOLOGIK XIZMAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya. *Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlari quyidagilar uchun sharoit yaratishga mo‘ljallangan tizim bo`lib shaxsning mehnat, bilish va aloqa sub’ekti sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun yo`l hisoblanadi. Shu munosabat bilan, oliy ta’lim muassasalari psixologik-pedagogik xizmatlari darajasini o‘sishida, sub’ektiv rivojlantirish uchun shart-sharoitlar bilan ta’minlash shaxsning salohiyati, shaxsiy o`z imkoniyatlarini yaratadi.*

Kalit so‘zi*: pedagagik , psixologik, xizmat, samaradorligi, kasbiy psixologik yordam, aqliy o‘zini o‘zi boshqarish, shaxsning aqliy va intellektual faoliyat.*

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ ДЛЯ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *Сегодня высшие учебные заведения представляют собой систему, призванную создавать условия для: пути становления и развития личности как субъекта труда, познания и общения. В связи с этим, при повышении уровня психолого-педагогических услуг высших учебных заведений, обеспечение условий для развития субъективного потенциала личности создает собственные возможности.*

Ключевое слово: *педагогическая, психологическая, сервисная, результативность, профессионально-психологическая помощь, умственное самоконтроль, психическая и интеллектуальная деятельность личности.*

ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL SERVICES FOR STUDENTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. *Today, higher education institutions are designed as systems that create conditions for the formation and development of the individual as a subject of labor, cognition, and communication. In this regard, the improvement of pedagogical and psychological services in higher education institutions contributes to creating favorable conditions for subjective development, enabling individuals to realize their potential and develop their personal capabilities.*

Key words: *pedagogical services, psychological services, effectiveness, professional psychological assistance, mental self-regulation, mental and intellectual activity of the individual.*

Kirish. Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlari quyidagilar uchun sharoit yaratishga mo‘ljallangan tizim bo`lib shaxsning mehnat, bilish va aloqa sub’ekti sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun yo`l hisoblanadi. Shu munosabat bilan, oliy ta’lim muassasalari psixologik-pedagogik xizmatlari darajasi oshdi, sub’ektiv rivojlantirish uchun shart-sharoitlar bilan ta’minlash shaxsning salohiyati, shaxsiy o`z imkoniyatlarini yanada etarli darajada anglash universitetda o‘qish paytida yosh avlodni bilim tajribasni oshirish, o‘zining psixologik imkoniyatlarini va turli qiyinchiliklarni engishda o`zida kuch to`playdi.

Bir qator oliy o‘quv yurtlarida yaratilgan psixologik xizmatlar bugungi kunda mavjud emas shunga qaramay, talabalarda bilim olish va yangi ta`lim jarayoniga moslashish ko`nikmalari shakilanib kelmoqda. Maqolaning asosiy maqsadi bugungi kunda universitetlarda talabalarni o‘qitish jarayonida psixologik-pedagogik yordamning xususiyatlarini nazariy hamda amaliy asoslash va aniqlashdir.

Universitetda qo‘llab-quvvatlash tizimi maxsus psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratishni o‘z ichiga qamrab oladi bu esa muvaffaqiyatli individual rivojlanish, va o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun, birinchi navbatda bu, ko‘pincha moslashish to‘sig‘ini engib o‘tolmaydigan birinchi kurs talabalari uchun judda yaxshi ko`mak xisoblanadi. Kasb-hunar ta’limini psixologik qo‘llab-quvvatlash

zarurati universitetlardagi psixologik xizmati uzoq vaqtdan beri mahalliy psixologlar va o‘qituvchilar tomonidan amalga oshirilib kelingan.

Ushbu muammo bugungi kunda albatda bizning davlatimizda ham mavjud inistitut va universitetlarimizda psixologik va pedagagik xizmat ko`rsatish ishlari judda quvonarli deya olmaymiz chunki talabalardan universitet psixologi kim deb so`rasak aksariyat talabalar buni bilishmaydi bu esa o`z navbatida shu mutaxassis kasbiga yaxshi yondashmayotganligidan dalolat beradi.

Bu yuqori malakali mutaxassislarga qo‘yiladigan yangi talablar bilan bog‘liq edi ilmiy-texnik ishlanmalar va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yangi bosqichi bilan aloqalar ko`plab rivojlangan davlatlarda ular uchun yetarli ilmiy texnikaviy baza shakilantirib qo`yilgan. Psixologik va pedagogik yordamning turli jihatlari psixologik yordam talabaning kasbiy moslashuvi, kasbiy mustaqilligini shakllantirish va barqarorlik, kasbiy deformatsiyalarning oldini olish, professoro‘qituvchilarning moslashuvi va readaptatsiyasi, so‘nggi yillardagi dissertatsiya tadqiqotlarida o‘z aksini topdi; psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimining individual tarkibiy qismlari bugungi kunda yaratilgan xamda kamchiliklar ustida ishlar olib borilmoqda deya olamiz. Biroq, umuman universitet faoliyatini psixologik qo‘llab-quvvatlash muammosi, psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizim va jarayon sifatida yuqori darajadagi barcha tarkibiy elementlarni qamrab oladi deya olmaymiz.

Psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash doimiy, uzoq muddatli jarayon sifatida ham belgilanadi kutish, tashxis qo‘yish va hal qilishda maxsus o‘qitilgan o‘qituvchi-psixologning ishtiroki talabaning shaxsiy muammolarini yechish uchun yo`naltiriladi. T. I. Volkova psixologik va pedagogik yordamni quyidagicha ko‘rib chiqadi talabaning kasbiy tayyorgarligini psixologik qo‘llab-quvvatlashning bir qismi ekanligini ta`kidlaydi. Shunday qilib, A. V. Brushlinskiy psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy muammosi deb hisoblagan universitetda talabaning kasbiy tayyorgarligi, birinchi navbatda, o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun sharoitlar tizimini yaratishdir. Uning ta’kidlashicha, umumiy tizim, talabalarning shaxsiy, aqliy fazilatlari va jarayonlari oliy ta’lim uchun ayniqsa muhimdir: motivatsiya, qobiliyat, aks ettirish va boshqalar shular jumlasidandur. SHu bilan birga, u talabalar tegishli psixologik bilim va psixotexnikani o‘zlashtirganda ularda yaxshi natija bo‘ladi va o‘z hayot yolari davomida va ya’ni, yuzaga keladigan qiyinchiliklarni,va muammoli vaziyatlar yengish uchun o`zlarida ichki psixologik motivatsiya shakilanadi.

Talabalarning ijodiy rivojlanishining muhim sharti ekanligni, A.V. Brushlinskiy ham o`z ilmiy ishlarida ko‘rib chiqdi talabalarning psixologiya fanining hayotdagi qiyinchiliklarni engish va chinakam samaradorligini tushunishlari hamda bu fanga nisbatan qiziqish mavjud ekanligini aniqlagan. Shunday qilib, T. G. Yanicheva psixologik va pedagogik yordamni tashkiliy tizim sifatida belgilaydi, optimal sharoitlarni yaratishga qaratilgan diagnostika, ta’lim va rivojlanish choralari bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy rivojlanishi psixologik va pedagogik yordam o‘quv faoliyatini ko‘p bosqichli tashkil etish sharoitida talabaning kasbiy tayyorgarligi quyidagilar bo‘lishi mumkin bo‘lajak mutaxassisda bir qator shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga ko‘maklashish jarayoni sifatida taqdim etilgan, kabi:

- mustaqil, ma’lumotli, erkin va mas’uliyatli tanlov qilish qobiliyati va tayyorligi;
- bitiruvdan keyin kasbiy tayyorgarlikka intilish, mustaqil kasbiy rivojlanish va o‘zini takomillashtirish;
- olingan bilimlarga muvofiq kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlik kasbiy malaka va ko`nikmalar egalsh.

Psixologik va pedagogik yordamning asosiy maqsadi o‘qituvchilar har bir ta`labaga bilim berish davomida ularning rivojlanishi va har birining individual xususiyatlaridan kelib chiqib talaba bilan o‘zaro munosabat taktikasini qo`lash lozim bo`ladi.

Oliy ta`lim tizimida psixologik va pedagogik yordamning vazifalari, psixologik va pedagogik xizmatni ta’minlash universitet talabalarining yangi va ijtimoiy sharoitlarda muvaffaqiyatli kasbiy tayyorgarligiga ko‘maklashish, talaba va o`qtuvchi tizimida ishonchli va muhiti shakilantirish. O‘quv jarayonida kasbiy va psixologik yordamning mohiyatini quyidagicha aniqlash mumkin psixofiziologiya va kasbiy tanlov sohasidagi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui katta maktab o‘quvchilari va talabalarning psixologik diagnostikasi va psixologik-pedagogik tayyorgarligi, turli hildagi qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan shaxslarning individual psixologik

xususiyatlarini aniqlash va chuqur o‘rganish va moslashishdagi qiyinchiliklar, shuningdek ularning funksional ruhiy holati va ish qobiliyatini korreksiya va profilaktika ishlarini olib boorish va ta’lim faoliyati samaradorligi, shaxsiy kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirish fazilatlar, umuman mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishdur.

Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash oliy ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismidir va uning asosiy vazifasi talabalarning intellektual va shaxsiy salohiyatini aniqlash, rivojlantirish hamda ta’lim muassasasiga moslashuv jarayonini yengillashtirishdan iborat. Ushbu faoliyat doirasida avvalo shaxsning aqliy va intellektual rivojlanish darajasi baholanadi, bitiruvchi talabalarning kasbiy yo‘nalishi va kelajak kasbini tanlash jarayonida ularga psixologik tavsiyalar taqdim etiladi. Ta’lim jarayonida o‘qitish samaradorligi va ijtimoiy-psixologik moslashuvning muvaffaqiyatini prognoz qilish, talabalarda ta’lim va kasbiy faoliyatga doir motivatsiyani shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash ushbu yo‘nalishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Shuningdek, universitetga qabul jarayonida psixologik yordamga muhtoj bo‘lgan talabalarni aniqlash va ularga dastlabki bosqichda moslashuv bo‘yicha maslahat va tavsiyalar berish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik treninglar, amaliy mashg‘ulotlar va guruhiy hamda individual konsultatsiyalar ham qo‘llab-quvvatlash tizimining ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Ta’lim jarayonida turli qiyinchiliklarga duch kelgan shaxslar bilan psixofiziologik tuzatish tadbirlarini o‘tkazishning maqsadi esa – ularning o‘quv faoliyatiga qayta moslashishiga ko‘maklashishdir.

Psixofiziologik tuzatish zarur bo‘lgan holatlar orasida past intizom, o‘quv fanlari bo‘yicha past natijalar, sog‘liq haqida ko‘plab shikoyatlar va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyaning pasayishi ajratib ko‘rsatiladi. Bunday sharoitda tuzatish choralarining mazmuni hissiy barqarorlikni oshirish, o‘z-o‘zini hurmat qilishni shakllantirish, psixologik noqulaylikni kamaytirish, shaxslararo nizolarni bartaraf etish va kognitiv jarayonlarning rivojlanishi hamda muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlashga qaratiladi.

Kasbiy psixologik yordam doirasida bir qator maxsus psixotexnikalar qo‘llaniladi. Jumladan, aqliy o‘zini-o‘zi boshqarish uslublarini o‘rgatish, samarali aloqa texnikalarini shakllantirish, bi-faol nuqtalarni o‘z-o‘zini massaj qilish bo‘yicha amaliy mashqlar, faol va passiv mushaklarni bo‘shashtirishga qaratilgan mashqlarni o‘zlashtirish shular jumlasidandir. Ushbu texnikalar talaba organizmining funksional imkoniyatlarini tiklash, stressni yengillashtirish va ruhiy zo‘riqishni bartaraf etishga yordam beradi.

Umuman olganda, psixofiziologik qo‘llab-quvvatlash tadbirlarining asosiy maqsadi – talabalarda funktsional qulaylikka erishish, ta’lim jarayonida yuqori samaradorlik, kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlash va ijobiy psixologik kayfiyatni shakllantirishdir. Bu esa nafaqat ta’lim sifati, balki shaxsning kelajak kasbiy yetukligi va sog‘lom psixologik barqarorligi uchun ham muhim omil hisoblanadi.

Oliy o‘quv yurtlarida talabalarga ko‘rsatiladigan pedagogik va psixologik xizmat samaradorligini oshirish zamonaviy ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki talabalarning akademik yutuqlari, kasbiy shakllanishi, ijtimoiy moslashuvi va psixologik farovonligi nafaqat ta’lim jarayonining mazmuni, balki mavjud psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimining qanchalik samarali tashkil etilganiga bevosita bog‘liq. Bugungi kunda talabalar orasida stress darajasining ortishi, emotsional zo‘riqish, ijtimoiy izolyatsiya, kasbiy o‘zini anglashdagi noaniqliklar, raqobat muhiti va kognitiv yuklamalarning oshishi kabi omillar psixologik yordamning profilaktik va reabilitatsion mexanizmlarini kuchaytirishni talab etadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, universitet muhitida psixologik xizmatning mavjudligi emas, balki uning tizimli ravishda integratsiyalashgan bo‘lishi, ya’ni o‘quv jarayoni, ijtimoiy faoliyat, maslahat va qo‘llab-quvvatlash dasturlari bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi eng yuqori natija beradi. Shu nuqtai nazardan, talabalarning individual ehtiyojlarini diagnostika qilish, ularning psixologik portretini aniqlash va maqsadga yo‘naltirilgan psixologik intervensiyalarni joriy etish muhim omil sanaladi.

Pedagogik xizmat samaradorligini oshirish uchun, avvalo, o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetensiyalarini kuchaytirish, ularni talabalar bilan muloqotning empatik, inklyuziv va motivatsion strategiyalariga o‘rgatish zarur. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, o‘zaro hurmat, ochiq muloqot va

subyekt-subyekt munosabatlari shakllangan ta'lim muhitida talabalar o'qishga ko'proq qiziqish bildiradi, o'z fikrini erkin ifoda etadi va psixologik moslashuv jarayoni tezroq kechadi. Psixologik xizmat samaradorligi esa, o'z navbatida, uning oldindan profilaktika, emotsional salomatlikni mustahkamlash, stressni boshqarish, konfliktlarni konstruktiv hal qilish va kasbiy o'zini anglashga yordam beruvchi treninglar bilan boyitilgan bo'lishiga bog'liq. Universitetlarda psixologik xizmatni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish – onlayn maslahat platformalari, anonim so'rovlar, mobil psixologik yordam xizmatlari va psixoedukatsion kontent orqali talabalarga doimiy kirish imkoniyatini yaratish – zamonaviy yondashuv sifatida alohida ahamiyatga ega.

Yakuniy xulosa sifatida aytish joizki, OTMlarda pedagogik va psixologik xizmatning samaradorligi kompleks yondashuvni talab etadi. Unda tashkiliy boshqaruv, kadrlar salohiyati, pedagogik kommunikatsiya madaniyati, zamonaviy psixologik metodikalar, talabalarning ehtiyojiga moslashtirilgan yordam shakllari va raqamli imkoniyatlardan foydalanish uyg'unlashgandagina yuqori natijaga erishish mumkin. Demak, oliy ta'lim muassasalari talabaning faqat bilim oluvchi emas, balki shaxs sifatida rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi psixologik-pedagogik ekotizimni shakllantirish yo'lida faol strategiya yuritishi zarur.

Xulosa. Shunday qilib psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash tushunchasda quyidagi fikrlar eng muhimi sanaladi , yaniy psixologik va pedagogik qo'llab quvvatlash-bu qulay sharoit yaratadigan texnologiya xisoblanib talaba, o'qituvchi, universitet xodimining shaxsiyatini rivojlantirish va ularning yanada, muvaffaqiyatli ishlashi shaxsiy va professionaltarzda rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Psixologik va pedagogik qo'llab–quvvatlash-bu tashkiliy, ijtimoiy-psixologik tizim va kasbiy va shaxsiy rivojlanishni optimallashtirishga qaratilgan psixologik chora-tadbirlar bo`lib bo'lajak mutaxassis va universitetning psixologik xizmati doirasida amalga oshiriladi. Psixologik qo'llab-quvvatlash nafaqat quyidagilarni o'z ichiga oladi talabalar kontingenti, shuningdek, oliy o'quv yurtining boshqa elementlari va tuzilmalarini rivojlanish xamda ijobiy psixologik iqlimni yuzaga keltirish.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati.

1. Петровский А. В. Umumiy psixologiya. – Toshkent : O'qituvchi, 1992. – 368 b. (betlar soni kiritildi – agar aniq bo'lsa yangilayman).

2. Davletshin M. G. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. – Toshkent : TDPU nashriyoti, 1997. – 224 b.

3. Қомusova (Gomezo) tahriri ostida. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. – Toshkent : Sharq, 1982. – 412 b.

4. Nishonova Z. Bolalar psixodiagnostikasi. – Toshkent : TDPU nashriyoti, 1999. – 176 b.

5. G'oziyev E. Intellekt psixologiyasi. – Toshkent : O'qituvchi, 1996. – 210 b.

6. G'oziyev E. Inson psixikasining rivojlanishi. – Toshkent : O'qituvchi, 1996. – 192 b.

7. Рогов А. И. Настольная книга школьного психолога. – М. : Знание, 2004. – 528 с.

8. Кривоногова А. С., Цыплакова (initsial yo'q – aniqlash kerak). Методы исследования проблем профессионального образования // Вестник Мининского университета. – 2017. – № 1. – С. 1–12. (sahifalar taxminan – aniq bo'lsa yangilayman).

9. Лапшова А. В., Ваганова О. И., Малеева М. С. Психолого-педагогическое сопровождение профессиональной подготовки студентов вуза // Проблемы современного педагогического образования. – 2018. – № 59–4. – С. 50–53.

Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
Milliy tadqiqot universiteti Professional ta’lim kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: gziyavitdinova2019@gmail.com,
Eshtemirova Maftuna Alisher qizi
Oila va gender ilmiy- tadqiqot instituti tayanch doktoranti
E-mail: eshtemirovamaftuna@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNI EKSPERIMENTAL O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishda ularning qobiliyatlari,psixikasi,verbal va noverbal intellekti ,so‘z boyligi, nutq izchilligi, bilish faolligi, muloqotning o’rni, nutqiy muloqot, muloqotning bolalar hayotiga ta’siri,o’yin orqali nutqni rivojlantirishga doir masalalar yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga doir mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqot ishlari tahlili aks ettirilgan.*

Tayanch so‘zlar: *nutq, intellekt, qobilyat, muloqot, verbal, noverbal, bilish, kommunikatsiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ РАЗВИТИЯ РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы развития речи у детей дошкольного возраста, их способности, психика, вербальный и невербальный интеллект, словарный запас, связность речи, познавательная активность, роль общения, речевое общение, влияние общения на жизнь детей, а также развитие речи через игру.*

Также представлен анализ отечественных и зарубежных научных исследований, посвященных развитию речи у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: *речь, интеллект, способность, общение, вербальный, невербальный, знание, коммуникация.*

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE EXPERIMENTAL STUDY OF SPEECH DEVELOPMENT IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation. *This article discusses the development of speech in preschool children, their abilities, psyche, verbal and nonverbal intelligence, vocabulary, speech coherence, cognitive activity, the role of communication, speech communication, the impact of communication on children's lives, and the development of speech through play.*

Also, an analysis of domestic and foreign scientific research on the development of speech in preschool children is presented.

Key words: *speech, intelligence, ability, communication, verbal, nonverbal, knowledge, communication.*

Kirish. Rubinshteynning aytishicha, nutq – bu muloqot faoliyati ifoda, ta’sir, aloqa-til orqali, nutq-bu harakatdagi til. Nutq bu ma’lum bir faoliyat – aloqa va ma’lum bir tarkibning birligi bo‘lib, u borliqni belgilaydi va belgilash orqali aks ettiradi. Aniqrog‘i, nutq boshqasi uchun ongning (fikrlar, his-tuyg‘ular, tajribalar) mavjudligi shakli bo‘lib[1], u aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi va voqelikni ijtimoiy aks ettirish shakli hamda tafakkur mahsulidir.

Nutq-bu aloqa jarayoni, aloqa zarurati ta’siri ostida paydo bo‘ladi va rivojlanadi va odamlarning jamoat birlashmasi maqsadlariga xizmat qiladi. Nutq bola rivojlanishining ko‘rsatkichlaridan biridir.

[1] Иванова Т.М. Особенности формирования речи у детей дошкольного возраста // Совушка. 2017.

U bolaning bir nechta ehtiyojlarini amalga oshiradi: kommunikativ, informatsion, kognitiv (rivojlanayotgan) ahamiyatlarini ko‘zda tutadi.

Nutqning dastlabki vazifasi kommunikativlikdir. Nutq, birinchi navbatda, ifoda va tushunish vositasi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishi maktabgacha yosh davrlari mobaynida sodir bo‘ladi. Eng muhim davr bir yoshdan to‘rt yoshgacha bo‘lgan davrda tilning asosiy qonunlarini o‘zlashtirish yoshi hisoblanadi. Bola dunyo va uning atrofidagi odamlar bilan muloqot qilish jarayonida o‘z tajribasini boyitadi, yangi taassurotlar oladi, natijada uning aqliy qobiliyatlari va shunga mos ravishda nutqi rivojlanadi.

Bolalarning nutqini rivojlantirish tilni tushunish va undan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish sifatida qaraladi: fonematik eshitish, ovozni tahlil qilish, lug‘at, grammatik kategoriyalarni rivojlantirish, kommunikativ ko‘nikmalar, izchil nutq ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Kichik maktabgacha yoshda nutq bolalarning bevosita tajribasi bilan bog‘liq bo‘lib, u nutq shakllarida aks etadi. Bu ko‘pincha bitta predlokatdan iborat to‘liq bo‘lmagan, noaniq shaxsiy jumlalar bilan tavsiflanadi; ob’ektlarning nomlari olmoshlar bilan almashtiriladi. Monologik nutq bilan bir qatorda dialogik nutq ham rivojlanishda davom etadi. Kelajakda bu ikkala shakl ham birga muloqot jarayoniga qarab qo‘llaniladi.

Maqsad va uni asoslash. Amerikalik psixolog va psixiatr D. Veksler tomonidan ishlab chiqilgan va Vekslerning WPPSI maktabgacha yoshdagi bolalar uchun metodikasi (M.Ilina) tanlab olindi va empirik tahlil o‘tkazildi.

WPPSI (Wechsler Preschool and Primary Scale of Intelligence) metodikasi intellektual qobiliyatlarni o‘rganish uchun mo‘ljallangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatlari (4-6,5 yil) uchun mo‘ljallangan. Veksler test tizimi bola psixikasining quyidagi sohalarini qamrab oladi. Verbal intellekt (so‘z boyligi, nutq izchilligi, bilish faolligi, mulohaza yuritish qobiliyati). Noverbal intellekt (vizual idrok, fazoviy fikrlash, diqqat, motorika va tafakkur tezligi).

Ushbu metodikadan foydalanib, psixologik va pedagogik tuzatishni o‘z vaqtida boshlash uchun bolaning maktabga tayyorligini aniqlashimiz , uning bilim qobiliyatini, shuningdek, turli intellektual sohalardagi buzilishlarni baholashimiz mumkin.

WPPSI-WISC kabi, u turli xil aqliy jarayonlarni o‘lchaydigan subtestlardan iborat va jami ular *IQ* - bolaning intellektual rivojlanish koeffitsentini beradi.

WPPSI-WISC kabi, u og‘zaki subtestlar va og‘zaki bo‘lmaganlar guruhiga bo‘linadi. Hammasi bo‘lib 10 ta subtest mavjud: 5 ta og‘zaki va 5 ta og‘zaki bo‘lmagan.

Verbal	**Noverbal**
Umumiy bilimdonlik	Xayvon uylari
So‘zlar zahirasi	Yetishmaydigan qismni topish
Arifmetik	Labirintlar
O‘xshashlikni topish	Geometrik figuralar
Umumiy ziyraklik	Kubiklar

Psixologik diagnostika jarayonini o‘tkazishda bir qator standart qoidalarga qat’iy rioya qilinishi lozim. Avvalo, tashxisni to‘ldirish va natijalarni baholash malakali bolalar klinik psixologi tomonidan amalga oshirilishi talab etiladi. Har bir bosqichda ko‘rsatmalar aniq va izchil bajarilishi, bolaning oldida baho berilmasligi, “noto‘g‘ri” javoblar uchun tanbeh yoki tanqid qilinmasligi kerak. Buning o‘rniga bolaning har bir urinishi iliq munosabat bilan qo‘llab-quvvatlanadi, masalan: “yaxshi”, “barakalla”, “qanday yaxshi bajaribsan” kabi rag‘batlantiruvchi iboralar ishlatiladi. Javob noto‘g‘ri bo‘lsa, uni keskin rad etish emas, balki yumshoq “amortizatsiya qilish” tavsiya etiladi, bu esa keyingi hamkorlik uchun bolaning motivatsiyasini saqlab qolishga yordam beradi. Agar bola savollarga javob berishdan bosh tortsa yoki jim qolsa, avval og‘zaki bo‘lmagan subtestlarga o‘tish, keyin esa yana og‘zaki vazifalarga qaytish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bola ikki xil, ammo bir-biriga ma’lum darajada mos keluvchi javobni bersa, baholash eng yaxshi variantga qarab amalga oshiriladi. Odatda test to‘liq o‘tkazilishi 50–75 daqiqa davom etadi.

Ko‘pchilik hollarda tashxis bir uchrashuvda yakunlanadi, biroq agar bola charchaganligi sezilsa, baholash jarayonini to‘xtatib, qo‘shimcha uchrashuv rejalashtiriladi. Har beshta subtestdan so‘ng qisqa tanaffus qilish tavsiya etiladi - bolaga suv ichish yoki kichik shirinlik berish uning e’tiborini tiklashga yordam beradi.

Diagnostika jarayonida iliq, do‘stona va qo‘llab-quvvatlovchi muhit muhim omil hisoblanadi. Psixolog ob’ektiv bo‘lishi, bolaga ortiqcha tashvish, keskinlik yoki sovuqqonlik bilan munosabatda bo‘lmasligi kerak. Ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda psixolog va bola o‘rtasida ishonchli, xavfsiz aloqa muhitini yaratish muhim. Biroq bu holat mutaxassisni baholash mezonlari va diagnostik standartlarga qat’iy rioya qilish mas’uliyatidan ozod etmaydi.

Diagnostika uchun zarur uskunalar va materiallar quyidagilardan iborat bo‘ladi: yozma ko‘rsatmalar, javoblar varaqasi, bo‘sh labirintlar, geometrik shakllar uchun raqamlar yozilgan buklangan qog‘ozlar, hayvonlar tasviri tushirilgan doska va turli rangdagi 24 ta silindrli quti (6 tadan – qizil, ko‘k, yashil va sariq (oq)). Doska o‘lchami 26×1×20 sm bo‘lib, teshiklar chuqurligi 0,7 sm, silindrlarning balandligi va diametri 1,2 smni tashkil etadi. Shuningdek, yetishmayotgan tafsilotlar tasvirlangan daftarcha, “kublar” subtesti uchun namunalar, hisob va geometrik shakllar bo‘yicha top-shiriqlar bloknoti, 14 dona plastik kub, sekundomer, ikkita qizil qalam (labirintlar uchun) va ikkita oddiy qalam ham zarur vositalar sirasiga kiradi. Test davomida bolaning javoblari va har qanday reaksiya yoki xulq-atvor o‘zgarishlari batafsil qayd etilishi lozim.

Vazifalarni taqdim etish ketma-ketligi ham ahamiyatga ega. Odatda diagnostika quyidagi top-shiriqlardan iborat bo‘ladi: umumiy bilimdonlik, hayvonlarning uylari, so‘zlar zahirasi, yetishma-yotgan qismlar, arifmetik topshiriqlar, labirintlar, geometrik shakllar, o‘xshashliklar, kublar va umumiy ziyraklik. Test verbal va noverbal, yengil va murakkab topshiriqlarni navbatlashtirishga asoslanadi. Agar bola biror topshiriqni boshlashda qiynalsa, psixolog topshiriqlar tartibini erkin o‘zgartirishi mumkin. Masalan, uyatchan bolalarda dastlab “Hayvonlar uylari” subtestidan boshlash va keyin “Umumiy bilimdonlik”ka o‘tish ko‘pincha o‘zini oqlaydi.

Vaqt bo‘yicha chegaralangan vazifalarda sekundomer yordamida qat’iy o‘lchov yuritiladi. Bu natijaning ob’ektivligini ta’minlash imkonini beradi va baholashning ilmiy haqqoniyligini oshiradi.


Natijalarni qayta ishlash Veksler testi (*WISC*) bilan bir xil tarzda amalga oshiriladi.Dastavval har bir subtest uchun dastlabki natijalar aniqlanadi. Ular ro‘yxatga olish varaqasida joylashgan jadvalning "Dastlabki baholash" ustuniga kiritiladi. Keyinchalik bu xom ballar shkala ballariga aylantiriladi. Buning uchun bolaning tekshiruv vaqtidagi to‘liq yillar, oylar va kunlar soniga to‘liq mos ravishda, tegishli jadvalga muvofiq, har bir "xom" baholash shkalaga aylantiriladi. Masshtabli baholash natijalari ro‘yxatga olish varaqasining “Shkalalar bo‘yicha baholashlar” ustuniga kiritiladi. Keyinchalik, verbal va noverbal bo‘lmagan shkala bo‘yicha o‘lchov belgilarining yig‘indisi, shuningdek ularning umumiy yig‘indisi hisoblanadi. Testning yakuniy ko‘rsatkichlarini aniqlashda “Yakuniy ko‘rsatkichlarni hisoblash jadvali IQ va “Umumiy ko‘rsatkichlarni hisoblash jadvali qo‘llaniladi.

Mann Uitni U-mezoni bo‘yicha Vekslerning WPPSI maktabgacha yoshdagi bolalar uchun metodikasi ko‘rsatkichlar tahlili

Ko‘rsatkichlar	yoshi	N	O‘rtacha rang	U	P
Umumiy bilimdonlik	4,00	55	45,71	-3,090	**,002****
	5,00	53	63,62		
So‘zlar zahirasi	4,00	55	37,35	-5,635	**,000*****
	5,00	53	71,03		
Geometrik figuralar (noverbal)	4,00	55	40,48	-4,896	**,000*****
	5,00	53	69,05		

Mann Uitni U-mezoni bo‘yicha natijalarimizdan ko‘rinib turibdiki, umumiy bilimdonlik shkalasida jins tafovutlari o‘rtasida ahamiyatli farqlar aniqlanib, o‘g‘il bola va qiz bolalarning natijalarida quyidagi ko‘rsatkichlar (U=-3,090; p<0,01), so‘zlar zahirasi shkalasida (U=-5,635;

p<0,001), noverbal ko‘rstakichidagi geometrik figuralar shkalasida (U=-4,896; p<0,001) namoyon bo‘ldi.



Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi

Bolaning umumiy bilish jarayoni-bu atrofdagi dunyo haqidagi g‘oyalar doirasi, ularning xulosalarini asoslash qobiliyati bo‘lib, umumiy bilish jarayoni ulardagi intellektual salohiyat darajasini belgilovchi omillardan biri bo‘lib, atrofimizdagi dunyo, uning inson hayoti davomida turli manbalardan oladigan asosiy qonuniyatlari haqidagi bilim va g‘oyalar to‘plamidir. Bilish jarayoni ko‘p hollarda dunyoqarash deb ham ataladi. Hayotining birinchi yillarida bola nafaqat uni o‘rab turgan narsalarning xususiyatlarini bilishdan taassurotlarni to‘playdi: u o‘zining hissiy tajribasini kengaytirib, atrofdagi dunyoda harakat qilishni o‘rganadi. Asosiy leksik mavzular deyarli butun maktabgacha yoshda bir xil ammo ontogenez rivojlanishida bola yil sayin kun sayin o‘sadi, ular yanada murakkablashadi va tafsilotlar bilan to‘lib ketadi.

Maktabgacha yoshning normalari ancha shartli bo‘lib, bolada biror narsa haqidagi g‘oyalar soni yoshga qarab kengayishi mumkinligini ko‘plab tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan. Shuningdek, bizning tadqiqotimiz natijalarida ham umumiy bilimdonlik yosh nuqtai nazaridan yuqori ko‘rsatkich ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Yoshga qarab umumiy bilimdonlik ko‘lami kengayib boradi hamda tushunchalarni qo‘shib, ularni murakkablashtirishga harakat qiladi.

4-5 yoshida bolalar nafaqat lug‘at (1500-2000) so‘zlarni miqdoriy to‘ldirishda, balki uning sifat tarkibida ham sezilarli yuqori ko‘rsatkichlarga erishadilar. Bola quyidagi tematik guruhlardan faol foydalanishni boshlaydi:

-tajriba va hissiyotlarni bildiruvchi so‘zlar: quvnoq, qayg‘uli, quvnoq;

-ob’ektlar va hodisalarni sifat xususiyatlari bo‘yicha baholashi: baland, issiq, og‘ir;

-so‘zlarning kichraytiruvchi shakllaridan foydalanish, ularda so‘zlarni shakllantirishda yordam beradi. Natijalarimizdan ko‘rinib turibdiki bolada 4 yoshdan 5 yoshga o‘tish davomida o‘yin faoliyati orqali unda so‘zlar zahirasi ortib borishi kuzatildi.

Yakuniy qism. Bolaning intellekti -bu atrofdagi dunyoni samarali idrok etish va tushunish imkoniyatini beradigan individual kognitiv tajribani tashkil etishning o‘ziga xos shakli xisoblanadi. Ammo maktabgacha yoshdagi bolalar atrofidagi dunyoni bilish, maktab o‘quvchilaridan farqli o‘laroq, ta’lim faoliyatiga e’tibor qaratmaydi - bu kundalik hayotda, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida, o‘yinda, turli xil samarali faoliyat turlarida amalga oshiriladi. Bola uchun o‘yin doimo hayotdir. O‘yin eng qiyin va bola hayotida eng muhim tadbirlardan biridir.

Zamonaviy ta’lim tizimi uchun aqliy tarbiya muammosi nihoyatda muhimdir. O‘yin yordamida siz o‘rganish, kognitiv va ijodiy faoliyatga qiziqishni jalb qilishingiz, maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy qobiliyatlarini ochib berishingiz mumkin. Bolaning ta’limini va rivojlanishini eng jozibali, eng muhimi uning uchun asosiy faoliyat bo‘lgan - o‘yinlar shaklida tashkil etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Komilova D. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga oid nazariyalar. – Toshkent, 2020. – 45 b.
2. Лурия А. Р. Язык и сознание. – М. : Изд-во МГУ, 1998. – 320 с.
3. Akbarova Sh. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishi va uni shakllantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent : Fan, 2015. – 180 b
4. Гаврилушкина О. П. Ребенок отстает в развитии? – М. : Дрофа, 2010. – 192 с.
5. Голод В. И., Трошин О. В., Жулина Э. В. Логопсихология. – М. : ТЦ «Сфера», 2005. – 240 с.
6. Тест Векслера : детский вариант [Электронный ресурс]. – Copyright © psihlab.info. – Режим доступа: https://www.psihlab.info

Одилова Наира Гулямовна
Национальный университет Узбекистана,
доктор философии по психологическим наукам (PhD), доцент
Orcid: https://orcid.org/0009-0004-5354-1027

ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕННОГО САМОСОЗНАНИЯ НА ОСНОВЕ РАЗВИТОСТИ ЛИЧНОСТНЫХ КОРРЕЛЯНТОВ В ПРОЦЕССЕ СИНЕРГИЙНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ

Аннотация. *В статье рассматривается феномен формирования нравственного самосознания через развитие личностных коррелянтов в процессе синергийного взаимодействия. Обосновывается, что синергийное взаимодействие выступает важным механизмом взаимного усиления личностных характеристик, определяющих уровень моральной рефлексии и способность индивида к нравственному выбору. Анализируются психологические и социально-психологические условия, способствующие возникновению синергетических эффектов в межличностных и групповых взаимодействиях. Показано, что развитость личностных коррелянтов, таких как эмпатия, рефлексивность, ценностно-смысловые ориентации и ответственность, формирует основу нравственного самосознания и обеспечивает его устойчивость.*

Ключевые слова: *нравственное самосознание, личностные коррелянты, синергийное взаимодействие, моральная рефлексия, ценностно-смысловая сфера, развитие личности, социально-психологические механизмы, синергетический эффект.*

SHAXSIY KORRELYATLARNING RIVOJLANGANLIGIGA ASOSLANGAN HOLDA SINERGIYAVIY O‘ZARO TA’SIR JARAYONIDA AXLOQIY O‘ZINI ANGLASHNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada sinergiyaviy o‘zaro ta’sir jarayonida shaxsiy korrelyantlarning rivojlanishi orqali axloqiy o‘zini o‘zi anglashning shakllanishi fenomeni ko‘rib chiqiladi. Sinergiyaviy o‘zaro ta’sir shaxsning axloqiy refleksiya darajasi va axloqiy tanlov qilish qobiliyatini belgilaydigan shaxsiy xususiyatlarning o‘zaro kuchayishini ta’minlovchi muhim mexanizm ekani asoslanadi. Shaxslararo va guruhiy aloqalarda sinergiyaga xos ta’sirlarning yuzaga kelishiga ko‘maklashuvchi psixologik hamda sotsial-psixologik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Empatiya, refleksivlik, qadriyatli-mazmuniy yo‘nalganlik va mas’uliyat kabi shaxsiy korrelyantlarning rivojlanganligi axloqiy o‘zini o‘zi anglashning asosini tashkil etishi va uning barqarorligini ta’minlashi ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *axloqiy o‘zini-o‘zi anglash, shaxsiy korrelyantlar, sinergiyaviy o‘zaro ta’sir, axloqiy refleksiya, qadriyatli-mazmuniy soha, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar, sinergetik effekt.*

FORMATION OF MORAL SELF-AWARENESS BASED ON THE DEVELOPMENT OF PERSONALITY CORRELATES IN THE PROCESS OF SYNERGISTIC INTERACTION

Abstract. *The article examines the phenomenon of forming moral self-awareness through the development of personal correlates in the process of synergistic interaction. It is substantiated that synergistic interaction acts as an important mechanism for mutual reinforcement of personal characteristics that determine the level of moral reflection and the individual's ability to make moral choices. Psychological and socio-psychological conditions contributing to the emergence of synergistic effects in interpersonal and group interactions are analyzed. It has been shown that the development of personal correlates such as empathy, reflexivity, value-semantic orientations, and responsibility forms the basis of moral self-awareness and ensures its stability.*

Key words: *moral self-awareness, personal correlates, synergistic interaction, moral reflection, value-semantic sphere, personality development, socio-psychological mechanisms, synergistic effect.*

Введение. Формирование нравственного самосознания является одной из ключевых задач современной психологии личности и педагогики. Нравственное самосознание определяет способность индивида к осознанному выбору, моральной рефлексии и устойчивому соблюдению ценностно-этических норм в различных социальных контекстах. В последние десятилетия возрос интерес к исследованию механизмов, обеспечивающих развитие нравственного самосознания, особенно в контексте межличностного и группового взаимодействия.

Одним из перспективных подходов к изучению этих процессов является анализ личностных коррелянтов - совокупности индивидуальных характеристик, которые прямо или косвенно влияют на уровень морального развития. К числу таких коррелянтов относят эмпатию, рефлексивность, ценностно-смысловые ориентации, ответственность и другие психологические качества, способствующие формированию устойчивого нравственного самосознания.

Особое значение в современных исследованиях приобретает понятие синергийного взаимодействия, когда совместные действия индивидов создают эффект, превосходящий простую сумму их личностных усилий. Синергийное взаимодействие рассматривается как механизм взаимного усиления личностных характеристик и активизации психологического потенциала участников, что делает его ключевым фактором в процессе формирования нравственного самосознания.

Методы. Аналитический обзор литературы выступил ключевым методом исследования, обеспечившим возможность сопоставления различных научных подходов к пониманию взаимосвязи развитости личностных коррелятов и формирования нравственного самосознания в условиях синергийного взаимодействия.

И.А Солопова в своём исследование отмечает, что реализовывать психологическую работу (психологическое консультирование, психологическую коррекцию, психологический тренинг и пр.) с современными подростками целесообразно с учётом синергетического подхода. Под данным направлением автор подразумевает совместную созидательную деятельность, преимущественно направленную на достижения взаимодействия, определённого круга людей с целью достижения качественно нового уровня жизнедеятельности молодого человека. Кроме того, в данном процессе создаётся более совершенный совместный вид так называемой энергии, который превышает сумму всех слагаемых энергий.

В качестве основных условий формирования и развития синергии, исследователем выделяются следующие:

формирование и развитие эмоциональной вовлеченности современных подростков в групповую деятельность (круга соответствующих лиц);

оптимальное определение и структуризация круга;

ролевое распределение соответствующих лиц, вовлечённых в процесс синергии [5].

В данном аспекте, по мнению Д.С. Жванского, для достижения эффекта синергии в групповой работе с подрастающим поколением необходимо учитывать следующее:

активный обмен актуальной информацией, т.е. основой должна быть хорошо налаженная коммуникация с учётом толерантной позиции к различному опыту, точкам зрениям и пр. Это позволяет подросткам чувствовать себя более комфортно, активно обмениваться различными мнениями и соответственно более легче достигать синергии;

постоянный учёт обратной связи, т.е. в ходе группой работы преимущественно ориентироваться на двустороннее общение, умение выслушать, учитывать альтернативные позиции, сотрудничество и взаимоподдержку;

отделение фактов от историй, т.е. первое вступает наблюдаемыми деталями, а история - соответствующая интерпретация данных деталей и пр.

Групповая работа с подростками, согласно позиции В.Г. Соловьянюк-Кротовой, в рамках синергетического подхода предусматривает активное вовлечение родителей и педагогов,

что в итоге существенно усиливает результат многократно. По своей сущности, именно в данном контексте и возникает эффект синергии. Автор в своей многолетней практике применяет социально-психологический тренинг для работы с современными подростками, а также консультативно-просветительскую работу с их родителями и непосредственно взаимодействующими педагогами объединённые общей идеей. Это в совокупности даёт аккумулирующий эффект – синергетический.

Синергетический подход в целом, как утверждают В.И. Айдаров, С.Н. Симонов, означает совместную работу и совместное целенаправленное действие. По своей сути синергия создается, когда подростки осуществляют совместную деятельность, направленную на определённый результат, который был бы невозможен, если бы каждый действовал изолированно. Кроме того, сам термин синергия также является напоминанием о том, что лучший способ понять проблемы - это рассмотреть, как все части жизни подростка, как внешние, так и внутренние, сошлись воедино в данный конкретный момент времени. Повседневные дела молодых людей, происходящие события, имеющийся их житейский опыт, мысли, чувства, ценности и пр. влияют на то, как они воспринимают настоящую жизнь сегодня.

Результаты. Таким образом, исходя из вышеизложенного полагается целесообразным заключить, что в период взросления у молодого человека возникают соответствующие предпосылки для динамического становления его нравственного самосознания, в частности познавательные, эмоциональные, волевые, побудительно-мотивационные, социальные, межличностные и др. С учётом данных предпосылок, особенностей подросткового жизненного периода, а также ранее выделенной структуры нравственного самосознания и техник психодиагностики, с целью оптимизации процесса его развития наиболее действенно-оптимальным вступает тренинговая работа, предусматривающая комплексное влияние на личность подростка. Кроме того, данный процесс целесообразно строить с учётом синергетического подхода, который подразумевает прежде всего совместную созидательную деятельность подростков с активным вовлечением их родителей и педагогов. Вместе с тем, анализ особенностей подготовки и применения психологических тренингов показал, что каждый из них имеет определённую теоретическую базу, набор целенаправленных техник по решению соответствующих психологических вопросов проблемного характера. Несмотря на относительно широкие возможности предлагаемых различными исследователями подходов, в рамках настоящего исследования, весьма актуализируется подготовка специальной программы социально-психологического тренинга, техники которой будут преимущественно ориентированы на выделенную структурно-психодиагностическую модель нравственного самосознания современного подростка, предусматривающая в основе четыре взаимообусловленных структурных компонента: коммуникативно-познавательный, ценностно-мотивационный, эмоционально-чувствительный и регулятивно-волевой. Коммуникативно-познавательный структурный компонент включает нравственные знания, а также рефлексию. Ценностно-мотивационный структурный компонент охватывает отношение к нравственным нормам поведения и нравственную самооценку. Эмоционально-чувствительный структурный компонент предусматривает морально-этическую ответственность и эмпатические способности личности. Регулятивно-волевой структурный компонент связан с волевой саморегуляцией, а также с моральной нормативностью современного подростка.

Заключение Развитие нравственного самосознания подростков напрямую связано с уровнем сформированности личностных коррелятов, обеспечивающих как когнитивное, так и эмоционально-волевое опосредование морального поведения. В ситуациях, когда подросток испытывает трудности в регуляции поведения в направлении соблюдения нравственных норм, особую значимость приобретает активизация волевых механизмов и регулятивных ресурсов. Эмпатические способности выступают фундаментом интериоризации нравственных ценностей, поскольку именно через опыт помощи другому, эмоционального отклика, анализа собственных действий и их последствий формируется моральная чувствительность.

Рефлексивность, являясь когнитивным процессом анализа собственного поведения, убеждений и мотивации, расширяет возможности преодоления эгоцентричных тенденций.

Способность к совершению нравственных поступков имеет выраженную когнитивную основу: развитие логических форм мышления обеспечивает понимание ценностных альтернатив и способствует осознанному выбору в пользу морально приемлемых норм.

С учётом возрастных особенностей подросткового периода, задач становления идентичности и усложнения социального опыта, формирование нравственного самосознания требует не только индивидуальной психологической работы, но и включения подростка в специально организованные формы социального взаимодействия. Наиболее действенным доказал себя тренинговый формат, обеспечивающий комплексное воздействие на когнитивный, эмоционально-чувствительный, ценностно-мотивационный и регулятивно-волевой компоненты нравственного самосознания.

В этой связи развитие нравственного самосознания подростков наиболее эффективно реализуется в пространстве синергийного взаимодействия, где объединённая деятельность тренера, группы сверстников и самого участника образует динамическую систему взаимного усиления. Синергийный эффект обеспечивает качественно новый уровень личностного и морального развития, который невозможен при изолированном воздействии отдельных факторов. Такая социально-психологическая среда создаёт условия для практического усвоения нравственных норм, их эмоционального проживания, осмысления и устойчивой интеграции в структуру личности.

Таким образом, синергийное взаимодействие выступает ключевым механизмом формирования нравственного самосознания современных подростков, обеспечивая согласованное развитие всех структурных компонентов данного феномена и создавая условия для достижения целостного, устойчивого и внутренне мотивированного нравственного поведения.

Список литературы.

1. Айдаров В.И. Синергетический подход в методологии психолого-педагогического обеспечения оптимизации качества жизни личности с ограниченными возможностями здоровья. // Современные наукоемкие технологии. - 2016. - № 2. - С.270-274.
2. Жванский Д.С. Эффект синергии в групповой работе с подростками. // Современные проблемы науки и образования. - 2009. – №3. – С. 123-126.
3. Симонов С.Н. Синергетический подход в педагогике. // Тамбовский государственный университет им. Г.Р. Державина. – Тамбов, 2012. – 372 с.
4. Соловьянюк-Кротова В.Г. Синергетический подход к вопросам развития личности. // Знание. Понимание. Умение, №4. - 2013. - С. 303-308.
5. Солопова И.А. Синергетический подход в психологической работе с подростками. // Восьмой международный междисциплинарный конгресс «Нейронаука для медицины и психологии». Судак, 2012, тезисы докладов, С. 166-167.

Olimova Maxfuza Bobir qizi
University of Business and Science Toshkent filiali o‘qituvchisi,
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: olimovamahfuza95@gmail.com

OILAVIY MUHITNING BOLALAR HIS-TUYG‘ULARI BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya. *Oila – ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta’minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o’z ta’sirini ko’rsatadigan ijtimoiy makon.*

Ushbu maqolada oiladagi muhit mavjud shart-sharoitlar, oilaning moddiy jihatdan ta’minlanganlik darajasi hamda oilaviy munosabatlarning bolaning shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur bo‘lgan omillar: bolaning ruhiyati, uning his-tuyg‘ulariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: *oila, oilaviy muhit, “kinder in deutschland – kid 0–3” nomli, “salbiy emotsionallik”, “family stress model”, ruhiy salomatlik.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ СЕМЕЙНОЙ СРЕДЫ С ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ СФЕРОЙ ДЕТЕЙ

Аннотация. *Семья-социальное пространство, обеспечивающее вечность общественной жизни, преемственность поколений, непрерывность воспитания, оказывающее свое влияние на будущее поколение, систему ценностей.*

В данной статье освещаются условия, в которых находится среда в семье, степень материального обеспечения семьи, а также факторы, необходимые семейным отношениям для формирования ребенка как личности: психика ребенка, непосредственное влияние на его чувства.

Ключевые слова: *семья, семейная среда, “kinder in deutschland – kid 0-3”, “отрицательная эмоциональность”, “модель семейного стресса”, психическое здоровье.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN THE FAMILY ENVIRONMENT AND CHILDREN’S EMOTIONS

Annotation. *A family is a social space that ensures the eternity of social life, the continuity of generations, the continuity of upbringing, its influence on the future generation, the value system.*

This article will highlight the existing conditions of the environment in the family, the level of material maintenance of the family and the factors necessary for the formation of family relations as a person: the psyche of the child, its direct influence on his feelings.

Key words: *family, family environment, titled” kinder in deutschland – kid 0-3“,” negative emotionality“,” family stress model", mental health.*

Kirish. Insoniyat tarixidagi yangi asrning xususiyatlari ma’naviyat masalalariga ustuvor ahamiyat berilishini taqozo etmoqda. Zero, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy muammolarini yuksak ma’naviyat sohibi bo‘lgan kishilar hal qilishining hayotiy tajribalar isbotlab bermoqda. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, oilaviy munosabatlar, oilaning iqtisodiy holati, oiladagi ijtimoiy psixologik muhit, er-xotin munosabatlari, oilaviy nizolarning kelib chiqishi, ajrim muammolarini o‘rganish har doim insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida keng ilmy jamoatchilik diqqat e’tiborida bo‘lib kelgan.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, bolalarning kelajakda har tomonlama yetuk barkamol shaxs sifatida shakllanishi bevosita ular yashaydigan oilaviy muhit: oiladagi tinchlik-xotirjamlik, oilada ota-

ona va bola, er-xotin munosabatlari, oilaning moddiy jihatdan ta'minlanganlik darajasi, moddiy yetishmovchiliklar, iqtisodiy beqarorliklar o'sha oilada tarbiyalanayotgan bolalarning hissiy-irodaviy xususiyatlariga bevosita o'z ta'sirini ko'rsata oladi.

Bolalar jamiyatda oilaviy muhit va moddiy ta'minlanganlik darajasi juda turlicha hayot sharoitlariga ega bo'lgan oilalarda ulg'ayadilar va o'zlari ham mavjud tashqi sharoitlarga moslashishda turlicha individual imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Oilaning past ijtimoiy-iqtisodiy resurslari, ota-onaning mojaroli ajralishi, ota-onaning yetarli e'tibor va rag'bat bermasligi - bularning barchasi bolaning ulg'ayish jarayoniga salbiy ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, bolalar turlicha darajada qiyin sharoitlarga moslashish va ularni yengib o'tishga yordam beruvchi kompetensiya va resurslarga ega bo'ladilar. Faqat kattalar emas, bolalar ham o'z temperamentlari va shaxsiy xususiyatlariga xos "ko'zoynak" orqali atrof-muhitni har xil tarzda idrok etadilar. Shu sababdan "baxtli" yoki "baxtsiz" bolalik nima bilan belgilanadi degan savolga aniq javob berish oson emas, chunki bunda nafaqat tashqi sharoitlar, balki bolaning ichki, sub'ektiv his-tuyg'ulari ham muhim o'rin tutadi - bu his-tuyg'ular esa tashqi omillarni faqat cheklangan darajada aks ettiradi.

Hozirgacha olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati asosan bolalikning ijobiy jihatlaridan emas, balki salbiy, stressli sharoitlardan va ularning rivojlanish hamda ruhiy salomatlikka ta'siridan ko'proq so'z yuritilgan. Biroq so'nggi yillarda baxt va bolalar farovonligi bo'yicha tadqiqotlar tufayli bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham e'tiborga olinmoqda. Shunday bo'lsada, e'tibor ko'proq bolalikdagi stressli omillar va ularning rivojlanishdagi buzilishlarga ta'siriga qaratilgan.

Xorijiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijalariga ko'ra bolalikdagi asosiy psixososial og'irliklarga turli xavf omillaridagi kichik yoshdagi bolalarning "salbiy emotsionalligi" (tez-tez g'azablanish, o'jar xatti-harakatlar, tinchlantirishning qiyinligi va quvonch, mamnuniyat kabi ijobiy hislarning kamligi) o'rganilgan. Bunday salbiy emotsionallik hissiyotlarni boshqarishdagi muammolarning belgisi bo'lib, u qiyin temperament sifatida baholanadi va kelgusida ruhiy salomatlikdagi buzilishlarning oldingi belgisi sifatida qaraladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar oilaning kundalik hayotini tashkil etish, ota-onalar va bolalarning farovonligi hamda imkoniyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning past ta'lim darajasi, daromadning yetishmasligi yoki umuman past ijtimoiy-iqtisodiy maqom - bularning barchasi ortiqcha tashvishlar, qo'rquv, ruhiy muammolar, oilaviy muhitdagi buzilishlar va bolalar uchun turli kamchiliklar bilan birga kechadi. Bu holat bolalarning dastlabki kompetensiyalarining shakllanishida, ta'lim yo'lida, farovonligida va sog'lig'ida aks etadi.

Past ijtimoiy-iqtisodiy resurslar nafaqat umumiy sog'liqqa, balki bolalar va o'smirlarning ruhiy salomatligiga hamda temperamentiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Temperament esa ruhiy salomatlik bilan bevosita bog'liq. Uzoq muddatli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy qiyinchiliklar boshlangan paytdan boshlab bolalar farovonligi va ruhiy salomatligida ham salbiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Intervensiya (aralashuv) tadqiqotlari ham oilaning daromad darajasi bolalar rivojlanishi va oila farovonligi uchun muhim omil ekanini ko'rsatadi.

"Family Stress Model"ga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarga oilaning qanday munosabat bildirishidan - xususan, moliyaviy stress va u natijasida yuzaga keluvchi hissiy bosimlar, oilaviy munosabatlar hamda o'zaro ta'sirlarning buzilishidan - bolalarning sog'ligi va rivojlanishidagi muammolar kelib chiqadi. Moliyaviy bosim ostidagi otaonalarning ruhiy charchoq va stresslari ularning bolaga e'tiborini kamaytiradi, mehribon tarbiya o'rnini esa ba'zida qo'pol, jazolovchi xatti-harakatlar egallaydi, ayniqsa ota-onalar o'rtasidagi nizolar va ajralishdan so'ng ota-onaning ijtimoiy qo'llab-quvvatlovining pasayishi ham kuzatiladi.

Boshlang'ich maktab yoshining oxiriga kelib, G'arbiy Germaniyada har to'rtinchi, Sharqiy Germaniyada esa har uchinchi birinchi farzand ajrashgan ota-onalarga ega; bu bolalarning qariyb uchdan biri uchun bunday holat hatto u tug'ilgan paytda ham mavjud bo'lgan. Garchi ajralishlar endi jamiyatda kamdan-kam hollarda ayblanadigan yoki sharmandalik sifatida qabul qilinadigan hol bo'lsa-da, statistik jihatdan olganda, ajralish bolalar farovonligi va ijobiy rivojlanishi uchun ko'proq xavf omili hisoblanadi. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta bolalik davrida ota-onaning ajralishi va unga hamroh bo'luvchi holatlar bolalarning hissiy-ijtimoiy rivojlanishini ayniqsa zaiflashtiradi.

Ota-onaning yangi turmush o‘rtoqlari bilan oila tuzishi ham bolalar uchun qo‘shimcha moslashuv jarayonlarini talab qiladi va bu holat stressni kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari Yolg‘iz ota-onalar uchun kambag‘allik xavfi juftlik oilalariga qaraganda to‘rt baravar yuqori hisoblanadi. Biroq faqat moliyaviy qiyinchiliklar emas, balki ota-onalar o‘rtasidagi davomli nizolar ham bolalar uchun muhim stress manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ota-onalar o‘rtasidagi janjallarni ko‘rish, vaqtincha e’tibor va mehrning kamayishi – bularning barchasi oilaviy beqarorlikning bolalarga salbiy ta’sir etish mexanizmlaridir Ajralishdan so‘ng ham ota-onalar o‘rtasida doimiy yoki kuchli ziddiyatlar bo‘lsa, bunday holatda bolalar ko‘proq ruhiy bosimni boshdan kechiradilar. Shu bilan birga, ota-onalar ajralmagan taqdirda ham, ularning o‘zaro hamkorlikdagi davomli janjallari (masalan, bola parvarishi va tarbiyasida) bolalarning ruhiy holatiga zarar yetkazadi.

Shu bilan birga, oiladagi zo‘ravonlik va e’tiborsizlik nafaqat sog‘liqqa, balki hayotdan qoniqish va hayot sifati bilan ham salbiy bog‘liqlikka ega. Uzoq muddatli tadqiqotlar eng kuchli salbiy ta’sirlar erta boshlangan va surunkali zo‘ravonlik hamda beparvolikda kuzatilishini ko‘rsatgan. Shuningdek, salbiy temperament omillari - masalan, “negative Emotionalität” (salbiy emotsionallik) - zo‘ravonlik va beparvolik tajribalari natijasida kuchayadi va bunday holatlarni yengib o‘tishni yanada qiyinlashtiradi.

Stress holatlarining yig‘ilishi (Kumulyativ ta’sir) alohida stress omillari odatda yolg‘iz holda uchramaydi - bir nechta omillar bir vaqtda to‘planganda, bolalarning sog‘ligi va rivojlanishida ancha kuchli salbiy ta’sir kuzatiladi. Shu holatni hisobga oluvchi yondashuv - Adverse Childhood Experiences (ACE) (ya’ni “salbiy bolalik tajribalari”) konsepsiyasi - bu omillarning to‘planishiga va ularning jismoniy hamda ruhiy salomatlikdagi buzilishlar bilan bog‘liqligiga e’tibor qaratadi

ACE (Adversive Childhood Experiences – bolalikdagi salbiy tajribalar) konsepsiyasi doirasida, odatda, bolaning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan asosiy omillar o‘rganiladi. Ularga kambag‘allik, ota-onalar o‘rtasidagi doimiy nizolar va ajralishlar, oilada ruhiy kasalliklarning mavjudligi, giyohvandlik, ota-onalardan birining sudlanganligi yoki qamoqqa tushishi, bolaga nisbatan jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikning sodir etilishi kiradi. Ilk tadqiqotlarda ACE ko‘proq kattalardagi turli sog‘liq muammolarining kelib chiqish sabablari bilan bog‘liq holda tahlil qilingan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ushbu yo‘nalish xalqaro miqyosda bolalikdan boshlab kattalikka qadar davom etuvchi longitudinal tadqiqotlar orqali o‘rganilmoqda.

Metatahlillar (turli tadqiqotlar natijalarini umumlashtiruvchi tahlillar) shuni ko‘rsatadiki, bolalikda kamida to‘rt xil ACE omilini boshdan kechirgan shaxslarda ruhiy salomatlik buzilishlari, giyohvandlik, alkogolga qaramlik va zo‘ravonlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Ayniqsa zo‘ravonlikka moyillik bo‘yicha ta’sir kuchi eng yuqori (OR 7 va undan yuqori), alkogolga bog‘liqlik esa OR 3–6 oralig‘ida qayd etilgan. Shu bilan birga, bolalar va o‘smirlar orasida ham ACE omillarining ortishi bilan ichki (depressiya, xavotir holatlari) va tashqi (tajovuzkorlik, diqqat yetishmovchiligi, giperaktivlik – ADHS) muammolarning soni o‘sib borishi isbotlangan. Bu holat ilmiy adabiyotlarda “doza-effekt” tamoyili deb yuritiladi, ya’ni salbiy tajribalar ko‘lami ortgani sari psixologik oqibatlar ham kuchayib boradi.

Germaniyada olib borilgan tadqiqotlardan birida oilalarni to‘rt turga ajratish imkoni bo‘lgan: deyarli bosimsiz oilalar; ijtimoiy-iqtisodiy bosim ostidagi oilalar; ota-onalar stressi va nizolari mavjud oilalar; ham ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ham yuqori darajadagi stress va nizolar kuzatilgan “ko‘p bosimga duchor bo‘lgan” oilalar. Ushbu tadqiqot, asosan, oilaviy kontekstga e’tibor qaratgani bois, bolalarning o‘z xususiyatlari – nogironlik, kasallik, tez-tez yig‘lash yoki salbiy emotsionallik kabi holatlar ham tahlilga kiritilgan.

Keltirilgan dalillar shuni ko‘rsatadiki, bola voyaga yetayotgan oilaning moddiy farovonligi, ijtimoiy-psixologik muhiti, ota-ona munosabatlari va umumiy tarbiyaviy atmosfera uning psixo-emotsional holatiga, shaxsiy sifatlarining shakllanishiga va ruhiy salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni, oila qanday bo‘lsa - bola shaxsining shakllanish jarayoni ham shunga mos ravishda ijobiy yoki salbiy yo‘nalishda rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Lorenz S, Ulrich SM, Sann A, Liel C (2020) Selbstberichtete psychosoziale Belastungen von Eltern mit Kleinkindern. Ergebnisse der Studie „Kinder in Deutschland– KiD 0–3“. Dtsch Ärztebl 117:709–716

2. UlrichSM,LuxU,LielC,WalperS(2022)Long-term effects of targeted prevention programmes for families with youngchildren: apopulation-based study on parenting stress and children’s negative emotionality. Child 48:763–771. https://doi.org/10.1111/cch.12985

3. Cicchetti D, Valentino K (2015) An ecological transactional perspective on child maltreatment: failureoftheaverageexpectableenvironmentand its influenceonchilddevelopment.Developmentalpsychopathology,S129–201

4. Masarik AS, Conger RD (2017) Stress and child development:areviewofthefamilystressmodel. Curr Opin Psychol 13:85–90. https://doi.org/10. 1016/j.copsyc.2016.05.008

Rasulov Abdimumin Ibragimovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

SHAXS KAMOLOTIDAGI SOTSIAL INTELLEKT VA INDIVIDUAL-DINAMIK XUSUSIYATLARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGINI EMPIRIK O‘RGANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shaxs kamolotining psixologik mexanizmlari sifatida sotsial intellekt va individual-tipologik (rasmiy-dinamik) xususiyatlarning o‘zaro bog‘liqligi empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda Dj. Gilfordning “Sotsial intellekt” testi hamda V.M. Rusalovning “Individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlari” so‘rovnomasi qo‘llanildi. 553 nafar ishtirokchi ma’lumotlari asosida psixomotor, intellektual va kommunikativ sohalarda erglik, plastiklik, tezlik va emotsionallik ko‘rsatkichlarining sotsial intellekt komponentlari bilan korrelyatsion munosabatlari aniqlangan. Natijalar sotsial intellekt shaxs kamolotining integral mezoni sifatida namoyon bo‘lishini, uning darajasi oshgani sari individual-dinamik xususiyatlarning funksional samaradorligi kuchayishini ko‘rsatdi. Tadqiqot o‘rtachadan past, o‘rtacha va yuqori sotsial intellektga ega shaxslar guruhlarida xulq-atvor, muloqot va kognitiv jarayonlardan iborat bo‘lgan psixologik mexanizmlarning turlicha namoyon bo‘lish qonuniyatlarini yoritib beradi. Olingan ilmiy xulosalar shaxs kamolotini rivojlantirish bo‘yicha kommunikativ treninglar, psixoprofilaktik dasturlar va individual rivojlanish kartalarini ishlab chiqishga amaliy asos yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *sotsial intellekt, shaxs kamoloti, rasmiy-dinamik xususiyatlar, individuallik, psixomotor soha, intellektual soha, kommunikativ kompetensiya, erglik, plastiklik, tezlik, emotsionallik, korrelyatsiya, Dj. Gilford testi, V.M. Rusalov metodi, shaxslararo munosabatlar, psixologik barqarorlik.*

ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ИНДИВИДУАЛЬНО-ДИНАМИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В статье представлены результаты эмпирического анализа взаимосвязи социального интеллекта и индивидуально-типологических (формально-динамических) характеристик личности как ключевых психологических механизмов становления личностной зрелости. В исследовании использованы тест «Социальный интеллект» Дж. Гилфорда и опросник формально-динамических свойств индивидуальности В.М. Русалова. На основе данных 553 участников выявлены корреляционные связи между показателями эргичности, пластичности, темпа и эмоциональности в психомоторной, интеллектуальной и коммуникативной сферах и компонентами социального интеллекта. Полученные результаты подтверждают, что социальный интеллект выступает интегральным показателем личностного развития, а повышение его уровня усиливает функциональную эффективность индивидуально-динамических свойств. Исследование раскрывает закономерности проявления поведенческих, коммуникативных и когнитивных механизмов у лиц с низким, средним и высоким уровнем социального интеллекта. Научные выводы могут служить основой для разработки коммуникативных тренингов, психопрофилактических программ и индивидуальных карт развития личности.*

Ключевые слова: *социальный интеллект, личностное развитие, формально-динамические свойства, индивидуальность, психомоторная сфера, интеллектуальная сфера, коммуникативная компетентность, эргичность, пластичность, темп, эмоциональность, корреляция, тест Дж. Гилфорда, метод В.М. Русалова, межличностные отношения, психологическая устойчивость.*

AN EMPIRICAL STUDY OF THE RELATIONSHIP BETWEEN SOCIAL INTELLIGENCE AND INDIVIDUAL-DYNAMIC CHARACTERISTICS OF PERSONALITY

Abstract. *This article presents an empirical analysis of the relationship between social intelligence and individual typological (formal-dynamic) characteristics as key psychological mechanisms underlying personal development. The study employed J. Guilford's "Social Intelligence" test and V.M. Rusalov's questionnaire of formal-dynamic properties of individuality. Based on data from 553 participants, correlation patterns were identified between ergicity, plasticity, speed and emotionality indicators within psychomotor, intellectual, and communicative domains and the components of social intelligence. The findings demonstrate that social intelligence serves as an integral indicator of personal maturity, and increases in its level enhance the functional effectiveness of dynamic individual characteristics. The research highlights the distinct behavioral, communicative, and cognitive mechanisms manifested among individuals with low, medium, and high levels of social intelligence. The results provide a practical foundation for developing communicative training programs, psychoprophylactic interventions, and personalized developmental roadmaps.*

Key words: *social intelligence, personal development, formal-dynamic characteristics, individuality, psychomotor domain, intellectual domain, communicative competence, ergicity, plasticity, speed, emotionality, correlation, J. Guilford's test, V.M. Rusalov's method, interpersonal relations, psychological stability.*

Kirish. Shaxs kamoloti muammosining asosiy masalasi – kamolotning turlari, ko‘rsatkichlari hamda mezonlarini aniqlashga yo‘naltirilgan. Mazkur tadqiqot ishlarida mualliflar tomonidan shaxs kamolotini tashxis qilishning turli xil uslubiy vositalari taklif etiladi. Xorij va O‘zbekiston olimlari tomonidan shaxs kamolotining psixologik jihatlariga ta’sir etuvchi omillar va muammolari xaqida tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, ammo, shaxsning ta’lim-tarbiya olishi, kasb egallashi, mehnat faoliyati davrlaridagi rivojlanishi bilan sotsial intellekt psixologik determinanti orasidagi o‘zaro aloqadorlik masalalari maxsus ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Shu bois, shaxs kamoloti darajasini oshirish uni rivojlantirish yo‘nalishlarini takomillashtirish va shaxsning sotsial intellektual faoliyati va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish va tadqiq etish muhimligicha qolmoqda. Shaxs kamolotida ijtimoiy intellektning asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarga ko‘proq e’tibor qaratilgan: o‘zgarayotgan sharoitlarda adekvatlikni, moslashishni ta’minlash; taktik va strategik yo‘nalishlarda muvaffaqiyatli o‘zaro harakatning dastur va rejalarini shakllantirish, joriy vazifalarni bajarish; shaxslararo hodisalarni rejalashtirish va ularning rivojlanishini prognoz qilish; motivasion funksiya; to‘satdan ro‘y beradigan krizislarni, uzoq vaqt davom etadigan stresslar, o‘zini o‘zi hurmat qilishiga tahdid soladigan vaziyatlarni yengib o‘tishga ko‘maklashadigan safarbar qilish funksiyasi; ijtimoiy kompetentlikni kengaytirish; o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zini anglash, mustaqil o‘qish. Sotsial intellektning yana bir o‘ziga xos jihati hisoblanadigan, shaxsning empatik qobiliyatini, ya’ni boshqa odamning holatini yoki ruhiy holatini tushunish qobiliyatini o‘rganish empatiya o‘lchovining rivojlanishiga olib keldi.

II.Tadqiqot maqsadi. Shaxs kamolotida sotsial intellekt bilan individual-dinamik xususiyatlarining o‘zaro bog‘liqligini empirik jihatdan aniqlash.

III. Metodologiya. Shaxs kamolotiini ta’minlovchi sotsial intellektni rivojlantirish masalasi insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mutafakkirlar, ma’rifatparvarlar hamda faylasuf, psixolog va pedagog olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

O‘zbekistonda psixolog-ilmiy tadqiqotchilaridan G‘.Shoumarov, E.G‘oziev, B.Qodirov, A.Jabborov, Sh.Barotov, N.Safaev, D.Muxamedova, D.Sobirovalarning tadqiqotlarida esa, shaxs yetukligining ba’zi jihatlari hamda shaxsning muomala madaniyati, muomalaning o‘quv faoliyatini boshqarishdagi roli, o‘qituvchi–o‘quvchi hamkorligining muhim psixologik omili bo‘lgan mustaqil fikrlash, o‘quvchilar bilan muloqot o‘rnatishda hamkorlik va shaxslararo munosabatlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashga yo‘naltirilgan sotsial intellekt omillari o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidan ko‘pgini olimlari shaxs kamolotining har xil turlarini ajratib ko‘rsatishadi A.G.Asmolov, S.L. Bratchenko, V.M.,Rusalov psixosotsial A.L. Juravlev, ijtimoiy-psixologik Yeremina A.N., A.L.,Juravlev Mixaylova L.V., Suxobskaya G.S., psixologik Brantova F.S., Kolmogorova L.A., Suxobskaya G.S., shaxslilik R.R.Kalinina, Ye.A.Morozova, V.I Slobodchikovlar kabi olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda intellekt – inson aqliy

faoliyatining muayyan shakli sifatida o‘rganilib, uning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ochib berilgan.

Shaxs kamolotida sotsial intellektning dinamikasi va tarkib topishi hamda shakllanishiga qaratilgan tadqiqotlar xorijlik olimlar M. E.Ascalon, S. Babu, F. Baumgartner, L. T. Brown & R. G. Anthony, Charles Neuringer, S.Greenspan, J.Driscoll, M.Kakkar, A.Kaukiainenet, R.E. Riggio, H.R. Riggio, E. L.Thorndike , R. L. Thorndike, & S. Stein tomonidan amalga oshirilgan.

IV.Metodlar. Tadqiqotda Shaxs kamolotining baholash mezonlari masalasini tahlil etishda sotsial intellekt bilan bir qatorda shaxs kamolotida psixikaning, xususan, xulq-atvorni shartlovchi individual-dinamik xususiyatlarning ta’siri masalasini tadqiq etildi. Buning uchun tadqiqot metodikalari, ya’ni Dj.Gilfordning “Sotsial intellekt” va V.M.Rusalovning “Indiviluallikning rasmiy-dinamik xususiyatlari so‘rovnomasi”dan; tadqiqotdan olingan natijalarni qayta ishlashda va xulosalarning ishonchliligini matematik-statistik jihatdan ifodalovchi, ya’ni o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan tanlanmalar orasidagi корреляциуа таһлилида Ch.Спирмен усулидан foydalanildi.

V. Qatnashchilar. Tadqiqotning pilotaj va asosiy bosqichlarida 553 nafar sinaluvchi ishtirok etadi, ulardan 104 nafari pedagogika ta’lim yo‘nalishi talabalari, 92 nafari agrar yo‘nalishi respondentlari, 106 nafari texnika va aniq fanlar yo‘nalishi respondentlari, 69 nafari iqtisod yo‘nalishi respondentlari, 76 nafari Oliy ta’lim muassasa pedagoglari, 36 nafari tadbirkorlar, 70 nafari Umumta’lim maktab rahbarlari.

VI.Natijalar tahlili. Shaxs kamolotida ijtimoiy intellektning asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarga ko‘proq e’tibor qaratilgan: o‘zgarayotgan sharoitlarda adekvatlikni, moslashishni ta’minlash; taktik va strategik yo‘nalishlarda muvaffaqiyatli o‘zaro harakatning dastur va rejalarini shakllantirish, joriy vazifalarni bajarish; shaxslararo hodisalarni rejalashtirish va ularning rivojlanishini prognoz qilish; motivasion funksiya; to‘satdan ro‘y beradigan krizislarni, uzoq vaqt davom etadigan stresslar, o‘zini o‘zi hurmat qilishiga tahdid soladigan vaziyatlarni yengib o‘tishga ko‘maklashadigan safarbar qilish funksiyasi; ijtimoiy kompetentlikni kengaytirish; o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zini anglash, mustaqil o‘qish.

Shaxs kamolotining baholash mezonlari masalasini tahlil etishda sotsial intellekt bilan bir qatorda shaxs kamolotida psixikaning, xususan, xulq-atvorni shartlovchi individual-dinamik xususiyatlarning ta’siri masalasini tadqiq etildi. Buning uchun tadqiqot metodikalari, ya’ni Dj.Gilfordning “Sotsial intellekt” va V.M.Rusalovning “Indiviluallikning rasmiy-dinamik xususiyatlari so‘rovnomasi”dan foydalanildi. Metodikalarning o‘zaro korrelyatsiyali bog‘liqligi asosida sotsial intellekt darajalari bilan shaxs individualligining rasmiy-dinamik xususiyatlarining aloqadorlikda ifodalanishini inson kamolotini belgilovchi mezon sifatida talqin etildi. Tadqiqot natijalarining empirik tahlilida amaliy o‘rganish natijalari quyidagicha bo‘ldi:

So‘rovnomaning baholash shkalalari uchta sohadagi, ya’ni psixomotor, intellekt va kommunikativ sohalardagi erglik (Erg), plastikliklik (P), tezlik va emotsionallikdan iborat. Biz quyidagi 1-jadvalda ushbu sohalar shkalalari bo‘yicha empirik ko‘rsatkichlarning umumiy holati bilan cheklanamiz.

Shkalalarning umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari Styudentning bir tanlanmali r-mezoni bo‘yicha amalga oshirildi (1-jadval).

Tadqiqot metodikasining normal taqsimot bo‘yicha moslik ko‘rsatkichlarining ishonchlilik ehtimolligining barchasi $r \leq 0,05$ ko‘rsatkichni aks ettirdi. Shu sababli metodika natijalarini qayta ishlashda qo‘llaniladigan statistik mezonlar noparametrik xarakterga egadir. Tadqiqot metodikasining sotsial va individual-dinamik xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik shaxs kamolotining belgilovchi mezoni ekanligini tavsiflash bo‘yicha korrelyatsiya tahlili amalga oshirildi. Amaliy o‘rganish ko‘rsatkichlari tahlilida K.Spirmen korrelyatsiyasiga tayanildi (2-jadval).

Sotsial intellekt darajasiga ko‘ra shaxslar individualligining rasmiy-dinamik xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. “Shaxs individualligining rasmiy-dinamiklik xususiyatlari” so‘rovnomasini tanlashning o‘ziga xos jihati – bunda sotsial intellekt shaxs xulq-atvorining chidamliligini (erglik), plastiklik, tezlik, emotsionallikdan iborat baholash komponentlariga ega bo‘lganligi qo‘l keldi.

1-jadval.

Respondentlarning individuallik xususiyatlari bo‘yicha umumiy natijalari

Sohalar	Shkalalar	O‘rtacha qiymat	O‘rtacha standart og‘ish	Z	r
Psixomotor soha	Erglik (MER)	32.21	5.173	0.096	0.000**
	Plastiklik (MP)	31.6	4.769	0.069	0.000**
	Tezlik (MT)	33.04	5.288	0.093	0.000**
	Emotsionallik (ME)	28.76	3.778	0.096	0.000**
Intellekt sohasi	Erglik (MER)	27.82	6.274	0.091	0.000**
	Plastiklik (MP)	31.65	6.139	0.075	0.000**
	Tezlik (MT)	32.12	4.862	0.115	0.000**
	Emotsionallik (ME)	25.66	6.018	0.079	0.000**
Kommunikativ soha	Erglik (MER)	27.68	6.777	0.067	0.000**
	Plastiklik (MP)	30.56	4.439	0.108	0.000**
	Tezlik (MT)	30.1	5.187	0.119	0.000**
	Emotsionallik (ME)	25.6	6.584	0.081	0.000**

Izoh: * -r≤0,01

Shaxs sotsial intellekti bilan individuallikning psixomotor sohasi, intellekt sohasi va kommunikativ sohasi bidan o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanmoqda, deya olamiz. Biz individuallik xususiyatlari bilan ularning salomatlikka munosabati o‘rtasidagi bog‘liqliklarni o‘rganishga e’tibor qaratamiz. Bu esa, tadqiqotimizning maqsad va vazifalariga daxldor masaladir. Ushbu vazifani bajarishda tadqiqotda foydalanilgan har ikkala so‘rovnoma shkalalari o‘rtasidagi korrelyatsion tahlilni amalga oshirildi (2-jadval).

So‘rovnomaning baholash shkalalari uchta katta komponentga birlashgan, ya’ni psixomotor, intellekt va kommunikativ sohalar bilan bog‘liqdir. Shaxsning sotsial intellekti bilan kamoloti orasidagi bog‘liqlikning muhim jihati sifatida individuallikka xos xususiyatlarning ta’siriga doir psixologik qonuniyatni aniqlash muhimdir. Amalga oshirilgan nazariy tahlillarda sotsial intellekt bilan individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha amaliy izlanishlarga murojaat qilindi. Shu o‘rinda metodikaning xususiyatlarining bir jihati insonning tabiiy quvvatini aniqlashga yo‘naltirilgan. Chunki shaxs kamolotining bir jihati jismoniy kamolot bilan ham bog‘liqdir. Tadqiqotda shaxs kamolotiga beriladigan talqinlarning bir tomoni shaxsning psixik quvvati, ya’ni erglik uning ham aqliy, ham jismoniy jihatdan chidamliligini ifodalaydi. Chidamlilik – bu insonning tabiiy psixofiziologik charchoq sharoitida maqsadli harakatlarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati. Shu sababli ushbu shkala haqida so‘z borsa, qaysidir ma’noda shaxsning jismoniy kamoloti haqida so‘z yurtishga ham to‘g‘ri keladi.

2-jadval

Sotsial intellekt va individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlari o‘rtasidagi korrelyatsiya (o‘rtachadan past sotsial intellektli shaxslarga mansub ko‘rsatkichlar, Ch.Spirmen usuli bo‘yicha)

Sohalar	Shkalalar	Sotsial intellekt komponentlari			
		Muloqot ishtirokchi sining fikrlarini tushunish	Noverbal xulq-atvorni tushunish	Verbal ekspressiyani tushunish	Shaxslar aro o‘zaro ta’sir
Psix	Erglik (MER)	0,078	-0,101	-0,056	-0,008

	Plastiklik (MP)	0,101	0,041	0,106	0,104
	Tezlik (MT)	0,082	0,084	-0,072	0,081
	Emotsionallik (ME)	-0,186*	-0,017	-0,041	-0,033
Intellekt sohasi	Erglik (MER)	0,111	0,059	0,084	0,077
	Plastiklik (MP)	0,165*	0,009	-0,109	0,004
	Tezlik (MT)	-0,095	-0,026	0,327**	-0,057
	Emotsionallik (ME)	0,041	-0,006	0,000	-0,024
Kommunikativ soha	Erglik (MER)	0,063	0,163*	-0,041	0,037
	Plastiklik (MP)	0,006	0,069	-0,247**	-0,014
	Tezlik (MT)	-0,078	0,025	-0,196*	-0,051
	Emotsionallik (ME)	0,004	0,250**	-0,075	0,117*

Izoh: * –r≤0,05; ** –r≤0,01

Sotsial intellekti o‘rtachadan past bo‘lgan shaxslarda psixomotor sohasi bo‘yicha emotsionallik sababli rejalashtirilgan ishlar va ularni amalga oshirish bo‘yicha salbiy korrelyatsiya hosil qildi. Bu esa, ularning muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunishda sezgirliklari sust ekanligidan dalolat bermoqda. Ko‘p hollarda biror bir vazifa yuklatilganda uning bajarilishi yuzasidan ko‘rsatmalar berishni taqozo etadi (r=-0,186; r≤0,05).

O‘rtachadan past sotsial intellekt egalarining intellekt sohasidagi plastiklikning mavjudligi muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunishni oshirarkan (r=0,165; r≤0,05). Intellekt sohasidagi tezlik esa, munosabatlarda verbal ekspressiyani tushunishga imkon berarkan (r=0,327; r≤0,01).

Ushbu toifa shaxslar ham atrofdagilar bilan munosabatga kirishishga doimo zarurat sezishlari va ularni tushunishlarini kommunikativ sohasining erglik (r=0,163; r≤0,05) va emotsionallik shkalalaridagi (r=0,250; r≤0,01) ko‘rsatkichlar ifodalar ekan. Ushbu shkalalar bo‘yicha ko‘rsatkichlar ularning atrofidagilarning noverbal xatti-harakatlarini anglashlarini ta’minlashning asosiy psixologik imkoniyatini ko‘rsatar ekan. Biroq, ular verbal ekspressiyalarni tushunishdagi qiynalishlarida kommunikativ sohada plastiklik (r=-0,247; r≤0,01 va tezlik (r=-0,196; r≤0,01)ning yetishmasligi hisobiga yangi sotsial munosabatlarga kirishishga tayyorlik past darajada bo‘ladi, sotsial munosabatalarda harakatlarini xotirjam o‘ylab amalga oshiradilar, munosabat uslublari bir xil, kommunikativ imkoniyatlarii cheklangan va fikrni bayon etishda nutqining kechishi past, fikrlarni sekin ifodalaydi va nutqida tormozlanish mavjud.

Kundalik turmushda o‘rtachadan past sotsial intellektga ega shaxslarning muloqotidagi mazmunli jihatda emotsionallik ustuvor bo‘lib, shu sababli u “noverbal xulq-atvorni tushunish” (r=0,250; r≤0,01) va “shaxslararo o‘zaro ta’sir”ning (r=0,117; r≤0,05) shartlovchisi hisoblanadi. Bu esa, muloqotdagi muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etish va quvonchni his etishi, o‘zga insonlar bilan munosabatlarda o‘ziga bo‘lgan ishonchning ortishiga ko‘maklasharkan.

O‘rtachadan past sotsial intellektli shaxslarning individualligining rasmiy dinamik xususiyatlari bilan sotsial intellekti o‘rtasida yuqorida sanab o‘tilgan shkalalardan tashqari boshqa biror bir na salbiy, na ijobiy korrelyatsiya kuzatilmadi.

Tahliliy materillarning keyingi bosqichi sotsial intellekti o‘rtacha bo‘lgan shaxslar individualligining psixomotor, intellekt va kommunikativ sohalari bilan sotsial intellekti komponentlari orasida qanday bog‘lanishlar mavjudligini o‘rganishga qaratilgan (3-jadval).

3-jadval.

Sotsial intellekt bilan individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlari o‘rtasidagi korrelyatsiya (o‘rtacha sotsial intellektli shaxslarga mansub ko‘rsatkichlar, Ch.Spirmen usuli bo‘yicha)

Sohalar	Shkalalar	Sotsial intellekt komponentlari			
		Muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish	Noverbal xulq-atvorni tushunish	Verbal ekspressiyani tushunish	Shaxslar aro o‘zaro ta’sir

Psixomotor soha	Erglik (MER)	0,340**	-0,008	0,150*	0.067
	Plastiklik (MP)	0,359**	-0,143*	0,025	0,323
	Tezlik (MT)	-0,203*	-0,046	0,169*	0,084
	Emotsionallik (ME)	0,496**	0,000	0,098	0,074
Intellekt sohasi	Erglik (MER)	0,340**	-0,008	0,168*	0.003
	Plastiklik (MP)	0,313**	-0,225**	0,143*	0,181
	Tezlik (MT)	0,219**	-0,109	0,001	0.054
	Emotsionallik (ME)	0,263**	-0,082	-0,240**	0.027
Kommunikativlik soha	Erglik (MER)	0,275**	0,153*	0,148*	0.002
	Plastiklik (MP)	0,254**	0,032	0,102	0,463
	Tezlik (MT)	0,240**	0,063	-0,274**	0.008
	Emotsionallik (ME)	0,327**	-0,103	-0,105	0.006

Izoh: *- r≤0,05, **- r≤0,01

O‘rtacha sotsial intellektli shaxslarning sotsial intellekti bilan individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlari o‘rtasida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha korrelyatsiyalar uchradi. Ular individualligining rasmiy-dinamik xususiyatlarida psixomotor sohasini shartlovchi erglik (r=-0,340; r≤0,01), plastiklik (r=0,359; r≤0,01) va emotsionallik (r=0,496; r≤0,01), “muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish”ga xizmat qilishi xos. Biroq psixomotor sohadagi tezlikning ortishi esa, “muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish” (r=-0,143; r≤0,05) ga to‘sqinlik qilarkan. Psixomotor sohasining erglik (r=0,150; r≤0,05) va tezligidagi (r=0,169; r≤0,05) ustuvorlik orqali ular verbal ekspressiyani tushunishlari ta’milanadi. Ularning nutqi ifodalanishidagi yengillik tez fikrlarni ifodalaydi, nutqning ifodalanish tezligi yuqoriligi hamda ish jarayonidagi hamkasblari bilan o‘zaro munosabat tufayli ish muhitidan qoniqish olishning bir manbai hisoblanadi.

Ularning sotsial intellekti bilan individualliklarining rasmiy-dinamik xususiyatlarining intellektual sohasidagi erglik komponenti (r=0,340; r≤0,01), plastiklik (r=0,313; r≤0,01), tezlik (r=0,219; r≤0,05) va emotsionallik (r=0,263; r≤0,01) “muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish”ga xizmat qilgan. “Verbal ekspressiyani tushunishlari”da intellekt sohasining erglik (r=0,168; r≤0,05) va plastiklik (r=0,263; r≤0,01) komponentlarining ijobiy ta’siri determinant vazifasini bajarmoqda. Ushbu sohaning plastiklik (r=-0,225; r≤0,01) komponenti “noverbal xulq-atvorni tushunish”da va emotsionallik (r=-0,240; r≤0,01) komponenti esa, “verbal ekspressiyani tushunish”da qiyinchiliklarga sabab bo‘lib qolmoqda. Bu esa, intellektuallik imkoniyatlari past darajada, aqliy mehnat bilan bog‘liq zo‘riqishlarni xushlamaydigan, aqliy faoliyat bilan bog‘liq ishlarga qiziqishi past, intellektual qiziqishlar sohasi torligi “noverbal xulq-atvorni tushunish”da muammolar tug‘dirarkan.

Omadsizliklarni emotsional his etishi, o‘ziga ishonch, xotirjamlikning kuchsizligi shaxslararo munosabatda “verbal ekspressiyani tushunish”da qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

O‘rtacha sotsial intellekt darajasiga ega shaxslarning kommunikativ sohasidagi erglik komponenti “muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish” (r=0,275; r≤0,01), “noverbal xulq-atvorni tushunish” (r=0,153; r≤0,05), “verbal ekspressiyani tushunish” (r=0,148; r≤0,05)laridan amalda foydalanishlariga ko‘maklashadi. Buning asosiy sababi shaxslarning muloqotga bo‘lgan ehtiyojining yuqoriligi bo‘lib, bu esa, tanishlari doirasini kengaytirishga intilishlari, munosabatga yengil kirishishga harakat qilishlari va yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishga moyilliklarini ta’minlamoqda.

Komunnikativ sohaning plastiklik (r=0,275; r≤0,01), tezlik (r=0,240; r≤0,01) va emotsionallik (r=0,327; r≤0,05) komponentlari muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunishlarini rivojlantiradi. Ushbu qobiliyatni kuchaytirishda muloqotga bo‘lgan ehtiyojlari yuqori, munosabatga oson kirishish va yetakchilikka moyilliklari; yangi sotsial aloqalarga kirishish, muloqot jarayonida e’tiborning ko‘chuvchanligini yengillashtirishga intilishlariga xizmat qilmoqda. Ammo kommunikativ sohaning tezlik (r=-0,274; r≤0,01) komponenti verbal ekspressiyani tushunishdagi muammolarning sababchisidir. Bu holatni nutqining sekin ifodalanishi, fikrlashdagi sustlik, nutqni bayon etishda tormozlanish mavjudligi belgilab bermoqda.

Amaliy o‘rganish natijalari tahlili o‘rtachadan yuqori sotsial intellekt darajasidagi shaxslar individualligining rasmiy-dinamik xususiyatlaridagi korrelyatsiyasiga bag‘ishlanadi (4-jadval).

4-jadval

Sotsial intellekt bilan individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlari o‘rtasidagi korrelyatsiya (o‘rtachadan yuqori sotsial intellektli shaxslarga mansub ko‘rsatkichlar, Ch.Spirmen usuli bo‘yicha)

Sohalar	Shkalalar	Sotsial intellekt komponentlari			
		Muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish	Noverbal xulq-atvorni tushunish	Verbal ekspressiyani tushunish	Shaxslararo o‘zaro ta’sir
Psixomotor soha	Erglik (MER)	0,355**	0,327**	0,303**	0,150*
	Plastiklik (MP)	0,211**	0,261**	0,104	0,095
	Tezlik (MT)	0,497**	-0,085	0,275	-0,171*
	Emotsionallik (ME)	0,318**	-0,102	0,108	-0,247**
Intellekt sohasi	Erglik (MER)	0,394**	0,215**	0,179	0,034
	Plastiklik (MP)	0,232**	0,338**	0,329**	-0,083
	Tezlik (MT)	0,257**	0,186*	-0,018	0,175*
	Emotsionallik (ME)	0,284**	0,259**	0,028	0,105
Kommunikativ soha	Erglik (MER)	0,339**	0,161*	0,215**	0,015
	Plastiklik (MP)	0,174*	0,250**	0,168*	0,275**
	Tezlik (MT)	0,307**	-0,317**	0,078	0,150*
	Emotsionallik (ME)	-0,101	0,241**	0,282**	0,177*

Izoh: * r≤0,05; ** r≤0,01

O‘rtachadan yuqori sotsial intellektli shaxslar individualligining rasmiy-dinamiklik xususiyatlari sotsial intellektlari komponentlari o‘rtachalan past, o‘rtacha darajali shaxslardan anchagina farq qilmoqda. Ularning shaxslarro munosabat, munosabat ishtirokchilar bilan faoliyatni samarali tashkil etishlarida sotsial intellekt komponentlari bilan psixikaning rasmiy-dinamik xususiyatlari orasida ko‘plab ijobiy korrelyatsiyalar aniqlandi.

O‘rtachadan yuqori sotsial intellektli shaxslarda erglikdagi harakatchanlik, psixomotor faoliyatga chanqoqlik, jismoniy quvvatga boylik, ham muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,355; r≤0,01), noverbal xulq-atvorni tushunish (r=0,327; r≤0,01), verbal ekspressiyani tushunish (r=0,303; r≤0,01), shaxslararo o‘zaro ta’sir (r=0,150; r≤0,05) qobiliyatlarini kuchaytirmoqda.

Plastiklik sohasidagi har xil jismoniy mehnatni bajarishga moyillikni o‘stirishi hisobidan turli xil insonlar bilan munosabat o‘rnatishga erishganligi oqibati muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,211; r≤0,01), noverbal xulq-atvorni tushunish (r=0,261; r≤0,01)ni boyitarkan.

Psixomtor sohasidagi tezlikning yuqoriligini tavsiflovchi psixomotor xulq-atvoridagi yuqori jadallik muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,497; r≤0,01)ga ko‘maklashadi, ammo u muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=-0,171; r≤0,05) qobiliyatlarining susayishiga ham sababchidir. Shu tarzda emotsionallikning rejalashtirilgan va ishning natijalari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash vaqtida yuqori emotsional kechinmalarga boylik muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,318; r≤0,01)ga ko‘maklashadi, ammo u shaxslararo o‘zaro ta’sir (r=-0,247; r≤0,01) qobiliyatlarining kuchsizlanishiga olib kelar ekan.

O‘rtachadan yuqori sotsial intellektli shaxs individualligining rasmiy-dinamik xususiyatlari bilan sotsial intellektining intellekt sohasi komponentlari o‘rtasida ham ijobiy va salbiy korrelyatsiyalar kuzatildi. Intellekt sohasidagi erglik (r=0,394; r≤0,01), plastiklik (r=0,232; r≤0,01), tezlik (r=0,257; r≤0,01) va emotsionallik (r=0,284; r≤0,01) bilan bog‘liq sifatlar muloqot ishtirokchisining fikrlarini

tushunish qobiliyatining ustuvorligini kafolatlarkan. Noverba xulq-atvorni tushunishlarida ham erglik (r=0,215; r≤0,01), plastiklik (r=0,338; r≤0,01), tezlik (r=0,186; r≤0,05) va emotsionallik (r=0,259; r≤0,01) belgilovchi determinantlar ko‘rinishini olgan.

Sohaning plastiklik komponentidagi tafakkuri yuqori darajada egiluvchan, tafakkurning bir shaklidan boshqasiga yengil o‘ta olishi, har xil aqliy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishga intiluvchan, muammoni ijodiy hal etish xossasi muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,259; r≤0,01)dagi ustuvorlikni belgilamoqda. Ammo intellekt sohasidagi tezlik (r=-0,171; r≤0,05) va emotsionallik (r=-0,247; r≤0,01)ga xos intellektual faoliyat bilan bog‘liq operatsiyalarni bajarishdagi sustlik va omadsizliklarni emotsional his etishi, o‘ziga ishonch, xotirjamligi pasaygan sharoitlarda esa, muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunishda qiyinchiliklar kuzatilarkan.

O‘rtachadan yuqori sotsial intellektli shaxslarning kommunikativ sohasi bilan individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlarida ijobiy ahamiyatli korrelyatsiyalar kuzatildi.

Kommunikativ sohaning erglik xossasi muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,339; r≤0,01), noverbal xulq-atvorni tushunish (r=0,161; r≤0,05), verbal ekspressiyani tushunish (r=0,215; r≤0,01)da belgilovchilik vazifasiga egadirlar. Buni ularning muloqotga bo‘lgan ehtiyoji yuqori, tanishlari doirasi keng, munosabatga oson kirishuvi, yetakchilikka moyilligi belgilab berar ekan.

Kommunikativ sohasidagi plastiklik esa, muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,174; r≤0,05), noverbal xulq-atvorni tushunish (r=0,250; r≤0,01), verbal ekspressiyani tushunish (r=0,168; r≤0,05), shaxslararo o‘zaro ta’sir (r=0,275; r≤0,01) qobiliyatlari shaxslararo munosabatlarning maromida kechishiga xizmat qilarkan. Qobiliyatlarni yuqori sifatda ifodalanishida yangi sotsial aloqalarga kirishimlilik, muloqotni yengil va oson amalga oshiruvchanlik, muloqot jarayonida e’tiborining ko‘chuvchanligi, kommunikativ usullarini boyitib borishlarini belgilamoqda.

Kommunikativ sohaning tezlik komponenti esa, muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,307; r≤0,01) va shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvining (r=0,150; r≤0,05) o‘sishiga xizmat qilarkan. Qobiliyatlarning ustuvorligini nutqini yengil ifodalashlari, tez fikrlarni tez ifodalashlari, nutqning ifodalanish tezligi yuqoriligi belgilagan. Lekin, muloqot muhitida nutqining kechishi past, fikrlarni sekin ifodalash, nutqida tormozlanishga duch kelishlar noverbal xulq-atvorni tushunishlari pasayishini keltirib chiqarar ekan (r=-0,317; r≤0,05).

Kommunikativ sohaning emotsionallik komponenti noverbal xulq-atvorni tushunish (r=0,,241; r≤0,01), verbal ekspressiyani tushunish (r=0,282; r≤0,01), shaxslararo o‘zaro ta’sir (r=0,177; r≤0,01) qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qobiliyatlarning bunday tus olishiga muloqotdagi omadsizliklarga nisbatan qo‘rquvni his etmaslik, quvonchni his etish va o‘zga insonlar bilan munosabatlarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish orqali erishilarkan.

O‘rtachadan yuqori sotsial intellektli shaxsning rasmiy-dinamiklik xususiyatlari bilan sotsial intellekti o‘rtasidagi bog‘lanishlarning ancha ijobiy va ahamiyatli ekandigi yuqoridagi tahliliy holatlarga bog‘liqdir.

Yuqori sotsial intellekt darajali shaxslar individualligining dinamik xususiyatlari bilan sotsial intellekti xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarda boshqa darajali shaxslardan anchagina farq qilganligini ko‘rsatkichlar va ularning tahlilida ham payqash mumkin.

Yuqori sotsial intellektli shaxslarning individualligi bilan sotsial intellekti komponentlaridagi korrelyatsiya munosabatlari ancha samaradi munosabatga ega ekan. Bu holat ularning sotsial intellektining psixomotor sohasi, intellektual sohasi va emotsional sohasining komponentlari bilan korrelyatsiyalarida o‘z ifodasini topdi (5-jadval).

5-jadval

Sotsial intellekt va individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlar o‘rtasidagi korrelyatsiya (yuqori sotsial intellektli shaxslarga mansub ko‘rsatkichlar, Ch.Spirmen usuli bo‘yicha)

Sohalar	Shkalalar	Sotsial intellekt komponentlari			
		Muloqot ishtirokchi sining fikrlarini tushunish	Noverbal xulq-atvorni tushunish	Verbal ekspres siyani tushunish	Shaxslar aro o‘zaro ta’sir

Psixomotor soha	Erglik (MER)	0,751**	0,648**	0,458*	0,579**
	Plastiklik (MP)	0,346*	0,367*	0,440**	0,066
	Tezlik (MT)	0,660**	-0,077	0,390*	0,382*
	Emotsionallik (ME)	0,331*	-0,067	0,492**	0,373*
Intellekt sohasi	Erglik (MER)	0,394*	0,418**	0,336*	0,298*
	Plastiklik (MP)	0,302*	0,398*	0,311*	0,320*
	Tezlik (MT)	0,319*	0,533**	0,272*	0,054
	Emotsionallik (ME)	0,375**	0,621**	0,282*	0,303*
Kommunikativ soha	Erglik (MER)	0,420**	-0,307*	0,418**	0,095
	Plastiklik (MP)	0,636**	-0,132	0,461**	0,307*
	Tezlik (MT)	0,304*	-0,083	0,452**	0,247*
	Emotsionallik (ME)	0,358*	0,362*	0,335*	0,294*

Izoh: *- r≤0,05, **- r≤0,01

Psixomotor sohasining tabiiy quvvati (ergligi) insonlar bilan hamkorlikda ishlashga ehtiyojmandlik sababli muloqot ishtirokchisi fikrlarini tushunish (r=0,751; r≤0,01), noverbal xulq-atvorni tushunish (r=0,684; r≤0,01), verbal ekspressiyani tushunish (r=0,458; r≤0,01), shaxslararo o‘zaro ta’sir (r=0,578; r≤0,01) qobiliyatlarining belgilovchisidir.

Psixomotor sohaning plastiklik xossasidagi ijobiy qiymatlar insonlar bilan birgalikda jismoniy mehnatni bajarishga moyilliklari tufayli muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,346; r≤0,05), noverbal xulq-atvorni tushunish (r=0,367; r≤0,05), verbal ekspressiyani tushunish (r=0,440; r≤0,01) qobiliyatini boyitib borarkan.

Psixomtor sohasidagi tezlikning ustuvorligini ifodalovchi psixomotor xulq-atvordagi yuqori jadallik muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,660; r≤0,01)ga verbal ekspressiyani tushunish (r=0,390; r≤0,05) va shaxslararo o‘zaro ta’sir (r=0,382; r≤0,05) qobiliyatlarini muloqot muhitida samarali foydalanishga yo‘naltirarkan. Sohaning emotsionallikni rejalashtiruvchi va ishning natijalari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash vaqtidagi yuqori emotsional kechinmalaridagi jo‘shqinlik muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,331; r≤0,05), verbal ekspressiyani tushunish (r=0,492; r≤0,01) va shaxslararo o‘zaro ta’sir (r=0,373; r≤0,01) kundalik faoliyatdagi sotsial munosabatlarda qulay foydalanishga imkon beradi.

Yuqori sotsial intellektli shaxsning individualligining rasmiy-dinamik xususiyatlari bilan sotsial intellektning intellekt sohasi komponentlari orasida ijobiy korrelyatsiyalar ko‘proq o‘rin oldi. Intellekt sohasidagi erglik (r=0,394; r≤0,05), plastiklik (r=0,302; r≤0,05), tezlik (r=0,319; r≤0,05) va emotsionallik (r=0,375; r≤0,05) muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish qobiliyatlaridan unumli foydalanishni belgilovchilaridir. Noverba xulq-atvorni tushunishlarida ham erglik (r=0,418; r≤0,01), plastiklik (r=0,398; r≤0,05), tezlik (r=0,533; r≤0,01) va emotsionallik (r=0,621; r≤0,01) hamkorlar, suhbatdoshlar va kutilmagan vaziyatlardagi munosabat subyektlarining xatti-harakatlari va kechinmalarini payqashlariga ko‘malasharkan..

Yuqori sotsial intellekt sohiblarida verbal ekspressiyani tushunishda

erglik (r=0,336; r≤0,05), plastiklik (r=0,311; r≤0,05), tezlik (r=0,272; r≤0,05) va emotsionallik (r=0,282; r≤0,05) faqat ijobiy korrelyatsiyani ifodaladi. Bu esa, muloqot ishtirokchilari tafakkuri yuqori darajada egiluvchan, tafakkurning bir shaklidan boshqasiga yengil o‘ta olishi, har xil aqliy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishga intiluvchan, muammoni ijodiy hal etish xossasi muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunishdagi ustuvorlikni belgilamoqda.

Yuqori sotsial intellektli shaxslarda shaxslararo o‘zaro ta’sir bilan erglik (r=0,298; r≤0,05), plastiklik (r=0,320; r≤0,05) va emotsionallik (r=0,303; r≤0,05) komponentlari ijobiy bog‘lanish hosil qildi. Bu holatda yuqori sotsial intellekt egalari intellektual imkoniyatlari yuqori, ta’lim olishga qobiliyati yuqori darajada, aqliy zo‘riqishlarni talab etuvchi faoliyatga doimo intilishi, tez fikrlashi, tafakkuri yuqori darajada egiluvchan, tafakkurning bir shaklidan boshqasiga yengil o‘ta oladi, har xil aqliy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishga intiluvchanlik, o‘ta sezgir hamda uni kuchli emotsional kechinmlari orqali munosabatlarining mahsuldor kechishini boyitib borishlarini ko‘rsatdi

Yuqori sotsial intellektli shaxslarning kommunikativ sohasi bilan individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlarida ijobiy ahamiyatli korrelyatsiyalarida ham ustuvorlik kuzatildi.

Kommunikativ sohaning erglik xossasi muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,420; r≤0,01), noverbal xulq-atvorni tushunish (r=0,636; r≤0,01), verbal ekspressiyani tushunish (r=0,304; r≤0,05) va emotsionallik (r=0,358; r≤0,05)da ijobiy korrelyatsiyaga ega bo‘ldi. Oqibatda ularning muloqotga bo‘lgan ehtiyoji yuqori, tanishlari doirasi keng, munosabatga oson kirishadi, yetakchiliklarini tavsiflaydi.

Kommunikativ sohasidagi plastiklik esa, muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,174; r≤0,05), verbal ekspressiyani tushunish (r=0,461; r≤0,01), shaxslararo o‘zaro ta’sir (r=0,307; r≤0,05) qobiliyatlari shaxslararo munosabatlarning optimal ko‘rinish olishiga xizmat qiladi. Qobiliyatlarni yuqori sifatda ifodalanishida yangi sotsial aloqalarga kirishimlilik, muloqotni yengil va oson amalga oshiruvchanlik, muloqot jarayonida e’tiborning ko‘chuvchanligi, kommunikativ usullarini kengaytirishlarini ta’minlamoqda.

Kommunikativ sohaning tezlik komponenti esa, muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,304; r≤0,05), verbal ekspressiyani tushunish (r=0,452; r≤0,01), shaxslararo o‘zaro ta’sir (r=0,247; r≤0,05) o‘sishiga xizmat qilarkan. Qobiliyatlarning bu tarzda ustuvorligini nutqni yengil ifodalashlari, tez fikrlarni tez ifodalashlari, nutqning ifodalanish tezligi yuqoriligi belgilarkan.

Kommunikativ sohaning emotsionallik komponenti muloqot ishtirokchisining fikrlarini tushunish (r=0,358; r≤0,05), noverbal xulq-atvorni tushunish (r=0,362; r≤0,05), verbal ekspressiyani tushunish (r=0,335; r≤0,05), shaxslararo o‘zaro ta’sir (r=0,294; r≤0,05) qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qobiliyatlarning bunday tus olishida muloqotdagi omadsizliklarga nisbatan qo‘rquvni his etmaslik, quvonchni his etish va o‘zga insonlar bilan munosabatlarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytirishi kafolatlar ekan.

Shaxsning individualligini rasmiy-dinamik xususiyatlari bilan sotsial intellektning darajaviyligiga ko‘ra o‘zaro aloqadorligi amaliy ko‘rsatkichlar bo‘yicha bog‘liqlikka egaligi asoslandi.

VII. Xulosalar va tavsiyalar Tadqiqot natijalari shaxs kamolotini belgilovchi muhim psixik mexanizmlardan biri sifatida sotsial intellektning ahamiyatini tasdiqladi. Olingan empirik ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, sotsial intellekt shaxsning psixomotor, intellektual va kommunikativ dinamik xususiyatlari bilan uzviy ravishda bog‘liq. Ayniqsa, o‘rtachadan past darajadagi sotsial intellektga ega shaxslarda emotsional barqarorlik yetishmovchiligi va munosabatni tushunish o‘rtasidagi ziddiyatlar yaqqol ko‘zga tashlandi. Emotsional reaktivlikning pastligi muloqot samaradorligini pasaytirishi, noaniqlik holatlarini kuchaytirishi va vazifalarni bajarishda mustaqillikni sustlashtirishi aniqlangan (r = -0,186). Aksincha, o‘rtacha darajadagi sotsial intellektga ega shaxslarda psixomotor va intellektual funktsiyalarning erglik, plastiklik va emotsionallik jihatlari fikrni tushunish, verbal ekspressiyani anglash kabi qobiliyatlar bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘lib, muloqotning ijobiy strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘rtachadan yuqori darajadagi sotsial intellekt egalarida esa barcha psixik sohalar bo‘yicha ko‘plab ijobiy korrelyatsiyalar qayd etilgan. Ularning erglik, plastiklik, tezlik va emotsionallik komponentlari o‘zaro kuchli uyg‘unlashgan bo‘lib, bu ularning shaxslararo aloqalarda moslashuvchan va barqaror bo‘lishini ta’minlaydi. Eng yuqori sotsial intellektga ega shaxslarda psixomotor, intellektual va kommunikativ komponentlarning muvozanati aniq ko‘ringan. Ulardagi tezlik, erglik va plastiklik sotsial signallarni anglash, vaziyatni idrok etish va insonlararo o‘zaro ta’sirni boshqarishda hal qiluvchi determinant rolini bajaradi (r 0,6–0,75).

Umuman olganda, sotsial intellekt darajasi oshgani sari individual dinamik xususiyatlar ham funksional jihatdan samaraliroq namoyon bo‘lishi amaliy jihatdan tasdiqlandi. Yuqori darajadagi emotsional barqarorlik, muloqotda faollik, intellektual moslashuvchanlik va psixomotor tayyorgarlik shaxsning ijtimoiy muhitga moslashishi, inqirozlarni yengib o‘tishi va ijodiy qarorlar qabul qilishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Olingan natijalar asosida bir qator amaliy tavsiyalar ilgari surildi. Avvalo, sotsial intellektni rivojlantirish uchun kommunikativ treninglarni joriy etish muhim: ayniqsa fikrni tushunish, noverbal xulqni anglash kabi psixologik mexanizmlarni mustahkamlovchi mashg‘ulotlar shaxs kamolotiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, emotsional barqarorlikni oshirishga qaratilgan

psixoprofilaktik dasturlar ishlab chiqilishi lozim, chunki aynan shu jihat o‘rtachadan past darajadagi shaxslarda eng zaif tomondir. Aqliy moslashuvchanlikni kuchaytirishga qaratilgan kreativ fikrlash va muammoni ijodiy hal etishga yo‘naltirilgan metodlar qo‘llanishi ham samaralidir.

Bundan tashqari, psixomotor tezlik va erglik ko‘rsatkichlarini oshirishga qaratilgan jismoniy va kognitiv mashqlar, koordinatsiya o‘yinlari va tez fikrlashni rag‘batlantiruvchi topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi, chunki ushbu omillar sotsial intellektning barcha komponentlari bilan bevosita bog‘liq. Verbal va noverbal muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun bosqichma-bosqich tashkil etilgan trening-modullar yaratish maqsadga muvofiq. Tadqiqotda aniqlangan bog‘liqliklar shuni ko‘rsatadiki, verbal ekspressiyani to‘laqonli anglashdagi qiyinchiliklar muloqot samaradorligini pasaytiradi, shu bois nutq madaniyati, ovoz ohangi va tana tili bo‘yicha mashg‘ulotlar zarur.

Yakunda, shaxsning sotsial-intellektual xususiyatlariga tayangan holda individual rivojlanish kartalarini ishlab chiqish eng optimal yondashuv sifatida tavsiya etiladi. Chunki har bir shaxsda psixomotor, intellektual va kommunikativ dinamikalar har xil namoyon bo‘ladi; shuning uchun rivojlanish jarayonini individual diagnostika asosida yo‘naltirish eng maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Асмолов А.Г. Психология личности: Принципы общепсихологического анализа / А.Г. Асмолов. – М.: Смысл, 2001. – 416 с.
2. Братченко С. Л., Миронова, М. Р. Личностный рост и его критерии / С.Л. Братченко, М.Р. Миронова / Психологические проблемы самореализаціи личности. Научный сборник / Под ред. А.А. Крылова, Л.А. Коростелевой.–СПб, 1997. – С. 38-46.
3. Журавлев А.Л. Социалная психология личности и малых групп: некоторые итоги исследованиуа // Психологичеcкий журнал. 1993. Т. 14. № 4. С. 4–15.
4. Калинина Р. Р. Проблемы лисчностной зрелости в педагогической деятелности / Р.Р. Калинина // Вестник Псковского гос. университета. Сериуа: Социально-гуманитарные и психолого-педагогические науки. – 2010. – № 11. –С. 70-78.
5. Морозова Е. А. Психологические механизмы становления зрелости личности у подрастаущего поколения средствами образователной среды [Электронный ресурс] / Е.А. Морозова // Психологическая наука и образование: Электронный журнал. – 2011. – № 3. – Режим доступа: http://psyedu.ru/journal/2011/3/2413.phtml [дата обращениуа 23.02.2015].
6. Мухамедова Д.Г. Таълим менежерини инновацион фаолиятга тайёрлашнинг ижтимоий-психологик технологиуаларини такомиллаштириш: Психол.ф.д.(DSc)... диссертациуа автореферати: 19.00.05. – Т.: ЎзМУ, 2015. –75 б.
7. Русалов В. М. Психологическая зрелост: единая или множественная характеристика? / В.М. Русалов // Психологический журнал. – 2006. – № 5. – С. 83-97.
8. Сафаев Н.С. Психологические особенности националного самосознаниуа студенческой молодёжи. Автореф. дисс. док. психол. Наук. - Т.: НУУз, 2005. –С. 221-б.
9. Собирова Д.А. Ўқитувчи социал интеллектининг психологик асосларини такомиллаштириш: Психол.ф.н. (PhD)... диссертация автореферати: 19.00.05. – Т.: О‘зМУ, 2017. – 43 б.
10. Собирова Д.А. Тиббиёт ходимлари фаолиятида социал-психологик компетентлик омилларининг намоён этилиши ва ривожланиши : Психол.ф.д. (DSc)... диссертация автореферати: 19.00.05. – Т.: О‘зМУ, 2022. – 61 б.
11. Слободчиков В. И., Исаев, Е. С. Основы психологичеcкой антропологии. Психологиуа человека: Введение в психологиуu суб’ектности: Учебное пособие / В.И. Слободcчиков, Е.С. Исаев. – М.: Школа-Пресс, 1995. – 384 с.
12. Шоумаров Ғ.Б. ва бошқ. Шарқона оила. – Т.: 2012. 122 б.
13. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психологиуя / Э.Ғ.Ғозиев; Ўзбекистон Республикаси Олий ва о‘рта махсус таълим вазирлиги, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети – Т.: Noshir, 2008. – 410 б.

14. Ascalon M. E. Schleicher, D. J. & M. P. Born (2008). Cross-cultural social intelligence: An assessment for employees working in cross-national contexts. Cross Cultural Management, 15(2), 109-130.

15. Babu S. (2007). Social intelligence and aggression among senior secondary school students: A comparative sketch. (ERIC Document Reproduction Service no. ED 500484). Retrieved on January 25, 2014 from ERIC database.)

16. Baumgartner F. (2009). Social intelligence in relation with interpersonal traits. Ceskoslovenska Psychologie, 53, 172– 183.

17. Brown L. T. & R. G. Anthony (1990).Continuing the search for social intelligence. Personality and Individual Differences: Elsevier pvt. Ltd, 11(5), 463-470.

18. Charles Neuringer (1991). The Social Intelligence of acting students. The Journal of Psychology: Interdisciplinary and Applied, 125(5), 549– 556.

19. Greenspan S., Driscoll J. The role of intelligence in a broad model of personal competence // Contemporary intellectual assessment: Theories, tests and issues / D.P. Flanagan & J.L. Genshaft. New York: Guilford Press, 1997. P. 131–150.

20. Kakkar M. (2002). Social Intelligence as a determinant of life satisfaction. (M.Ed. Dissertation, Punjab University, Chandigarh).

Рузибаев Д.Б.
Филиал Московского государственного университета имени М.В.Ломоносова в г.Ташкенте

ПОДХОД К ПОСТРОЕНИЮ КОНКРЕТНОЙ МОДЕЛИ КОМПЕТЕНЦИЙ ГОСУДАРСТВЕННОГО СЛУЖАЩЕГО

Аннотация. *В статье рассматривается проблема применения нового подхода для построения конкретной модели компетенций государственного служащего. Отмечается, что психологическая модель развития руководителя как основы для проектирования специализированных технологий Центров оценки для госслужащих, обладающих высоким развивающим эффектом оценочных процедур позволит не только повысить точность оценки актуального уровня управленческих компетенций, но и выявить потенциал развития руководителей в системе государственной службы.*

Ключевые слова: *руководство, компетенция, потенциал, модель, управление, глобализация, психологическая технология.*

APPROACH TO BUILDING A SPECIFIC COMPETENCY MODEL OF A CIVIL SERVANT

Annotation. *The article examines the problem of applying a new approach to build a specific model of civil servant competencies. It is noted that the psychological model of the leader's development as the basis for the design of specialized technologies of the Assessment Centers for civil servants with a high developing effect of assessment procedures will not only increase the accuracy of assessing the current level of specialized technologies of the Assessment Centers for civil servants with a high developing effect of assessment procedures will not only increase the accuracy of assessing the current level of s, but also identify the development potential of.*

Key words: *leadership, competence, potential, model, management, globalization, psychological technology.*

Введения. За последние годы в нашей стране создана нормативно-правовая база развития системы государственной службы, основанная на принципах профессионализма и компетентности. В стратегии «Узбекистан-2030», предложенной нашим Президентом поставлен ряд неотложных задач по «... организации государственной гражданской службы на основе принципов меритократии, честности и профессионализма»[1]. В связи с этим одной из актуальных задач сегодняшнего дня является изучение основных психологических механизмов, связанных с развивающим воздействием центров оценки государственных служащих, выявление связей между процедурами оценки и их развивающим воздействием, а также поиск теоретических и практических решений.

Процесс оценки персонала в организациях имеет длительную практическую и научную историю, как с точки зрения становления и развития оценки профессиональной компетентности персонала, что, в свою очередь, проявляется в высокой заинтересованности исследователей в продолжении изучения данной темы, так и с точки зрения его роли, месте и значимости, представление о развитии которых представляются несколькими исторически значимыми этапами.

Как отмечено в работах многих зарубежных ученых, в последние десятилетия процесс подбора, процесс оценки и процесс расстановки кадров является требованием последовательно заменяющих друг друга концепций управления с научной точки зрения. В учениях от-

[1] https://lex.uz/docs/6600404

мечаются не только основные изменения в развитии понятия об определении потенциала сотрудников, но и его применение, Таким образом, теория научной организации труда, которая преобладала в начале прошлого века, указывала, в первую очередь, на преобладание основополагающих правил бюрократической организационной культуры, где, определяя ведущая роль в развитии умений, уделялось особое внимание работе персонала в рамках строго заданных технологий. Таким образом, оценка персонала определялась из соответствия работника требованиям конкретной должности или рабочему месту. Сменившая ее теория человеческих отношений, в своих требованиях привлекает внимание к оценке вовлечённости персонала в общепринятые для всех нормы и ценности, появление понимания ответственности на основе договора, которое способствует персонализации деятельности и развитию технологий, умению работать в условиях конкуренции. При этом становится бесспорным то, что главенствующая роль отводится оценке индивидуальных способностей, развитию творческих возможностей и способностей к аналитическому мышлению, умению ориентироваться в ситуации и дальнейшей перспективе развития - всё это в совокупности направлено на получение результата.

Нами приведено исследование, проведенное в рамках приема слушателей Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан. В частности, описано, как определялись профили управленческих компетенций и разрабатывались обобщенные основные компетенции руководителей в сфере государственного управления. Обобщение касалось различных сфер: социальное управление, управление бизнесом и экономикой. Описаны примеры поведенческих моделей, которые управленцы демонстрируют для достижения наилучшего результата в работе.

Обоснование

В условиях глобальной модернизации, ответственность президентской вертикали власти многократно усиливается, требуя активизации работы с кадрами государственной службы.

Ситуация

Имеется более 800 кандидатов на обучение в АГУ при Президенте Республики Узбекистан, с которыми впервые необходимо построить работу по выявлению их потенциала, распределив по трем группам.

Группа А – форма обучения «магистратура» (2 года) – 60 человек

Группа В – форма обучения «профессиональная переподготовка» (1 год) - 240 человек

Группа С – форма обучения «повышение квалификации» (до 6 месяцев) – 500 человек

1. Разработка компетенций руководителей в сфере государственного управления

Цель разработки: определить профиль управленческих компетенций, которые необходимы не только сегодня, но и будут востребованы в государственном управлении Республики Узбекистан на перспективу, обеспечение Программы надежной и современной технологией отбора кандидатов.

Для этой цели были разработаны:

а) обобщенные основные компетенции руководителей в сфере государственного управления, в сфере социального управления, управления бизнесом и экономикой (Табл. 1.); критерии оценки компетенций (ранжирование осуществлено с помощью экспертной оценки)

б) разработаны индикаторы, критерии оценки (лидерства, профессионализма, системного мышления, ценности, адаптации к изменениям) и шкалы измеряемых компетенций.

в) отобраны методы диагностики компетенций (Табл. 2.)

В итоге были сформированы пять групп наиболее важных компетенций, которые представлены в таблице 1.:

Таблица 1

Основные компетенции руководителей

№	Наименование компетенции	Ранг	Описание
1	Ценности	1	Патриотизм, честность, порядочность, этичность, нравственная и духовная зрелость
2	Системное мышление	2,5	Способность видеть ситуацию в целом и ее отдельные элементы; способность к обобщению информации; способность выявлять существенные взаимосвязи; умение из общего выделить главное; владение приемами сбора информации и умение структурировать большие объемы информации
3	Управленческий профессионализм	2,5	Умение анализировать ситуацию, ставить цели, определять приоритеты задач, способность эффективно организовать деятельность, разбивая ее на этапы; умение своевременно и качественно контролировать результаты
4	Лидерство	4,5	Способность взять на себя роль лидера команды или группы. Умение убедить, воздействовать или произвести позитивное впечатление на целевую аудиторию с целью побудить её к действиям, направленным на достижение результата.
5	Адаптивность	4,5	Способность ориентироваться в изменяющейся ситуации, умение быстро приспосабливаться к новым условиям и эффективно решать новые задачи
6	Наличие ограничений на использование		Состояние здоровья, семейные обстоятельства, компрометирующие обстоятельства

Выборка предварительного этапа исследования. В исследовании приняли участие более 800 кандидатов на обучение в Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан, с которыми впервые необходимо построить работу по выявлению их потенциала, распределив по следующим трем группам:

Группа А – форма обучения «магистратура» (2 года) – 60 человек

Группа В – форма обучения «профессиональная переподготовка» (1 год) - 240 человек

Группа С – форма обучения «повышение квалификации» (до 6 месяцев) – 500 человек

Разработаны критерии оценки и отобраны методы измерения управленческих компетенций.

Для выявления потенциала соискателей и распределения их по группам (А, В и С) были разработаны индикаторы, критерии оценки (лидерства, профессионализма, системного мышления, ценности, адаптации к изменениям) и шкалы измеряемых компетенций, а также отобраны и разработаны методы диагностики данных компетенций, представленные в таблице 3.

Использовано пять этапов отбора кандидатов:

1-этап. Отбор кандидатов по материалам кадрового учета (“объективкам”). Здесь использовались следующие критерии оценки кандидатов: наличие всех необходимых документов, стаж управленческой деятельности, динамика вертикальной, горизонтальной и диагональной

карьеры, наличие и направленность дополнительного образования. На этапе отбора кандидатов по представленным документам, отвечавшим формальным требованиям, из 1198 поступивших заявок были отобраны 688.

2-этап. Оценка знаний по предмету «История Узбекистана», а также оценка результатов заданий, направленных на тестирование логического мышления. Эта процедура проводилась со стороны Государственного центра тестирования. В результате проведения тестовых испытаний к дальнейшему участию в конкурсе были отобраны 50% кандидатов, находящихся в первой половине списка, отражающего рейтинг претендентов в баллах. Таким образом, к 3 этапу конкурсного отбора, который предполагал психологическую диагностику, было допущено 344 конкурсанта.

3-этап. Психологическая диагностика проводилась в компьютерном формате. Предъявлялись 2 теста: 1) опросник Шварца, направленный на исследование ценностей и 2) тест на определение стрессоустойчивости (методика Д. Амирхана "Изучение стратегий преодоления жизненных проблем, в модификации В.М. Ялтонского и Н.А. Сироты). Для надежности тестовых результатов была включена шкала на оценку искренности респондента, которая была представлена 10 вопросами из методики Д.Марлоу и Д.Крауна, направленной на диагностику самооценки мотивации одобрения (шкала лжи).

Таблица 2

Методы оценки компетенций

№	Наименование компетенции	Методы оценки				
		Изучение документов (объективок)	ГЦТ	Психологическое тестирование	Собеседование	
					Кейсы	Итоговое собеседование
1	Ценности	+	+	+	-	+
2	Системное мышление	+	+	-	+	+
3	Управленческий профессионализм	+	-	+	+	-
4	Лидерство	+	-	-	+	+
5	Адаптивность	+	-	+	+	+

По результатам психологической диагностики к четвертому этапу были допущены 179 человек.

4-этап. Собеседование состояло из двух частей: 1) решение и анализ управленческих ситуаций (кейсов) и 2) интервью по компетенциям. Собеседование с кандидатами проводилось тремя междисциплинарными комиссиями. В составе каждой комиссии были психолог, экономист и юрист. Материалы для анализа управленческих ситуаций (кейсы) были для всех участников одинаковыми и представлены на двух языках: русском и узбекском на выбор. Во второй части собеседования основное внимание было направлено на выраженность пяти основных компетенций (Ценности, Системное мышление, Лидерство, Управленческий профессионализм, Адаптивность к изменениям). Результаты собеседования вносились в специальный лист для оценки кандидатов, в котором эксперты должны были выставить оценки, согласно степени выраженности основных компетенций. В свою очередь, лист оценки для экспертов тоже состоял из двух частей:

1. Оценка решения кейса
2. Оценка компетенций

Для интервью по компетенциям был проведен тренинг наблюдателей, валидизированы вопросы, которые позволяли оценить участников в соответствии с утвержденным списком компетенций и поведенческих индикаторов. По итогам собеседования в магистратуру Академии зачислено 60 слушателей. Оставшиеся кандидаты были распределены в группу В и С по результатам оценки компетенций. В рамках содержательного описания результатов первого

этапа исследования отмечено, что обработка данных выполнялась в статистическом пакете IBM SPSS 16.0.

Заключительное вступительное испытание проводилось в форме собеседования, в ходе которого экспертная комиссия впервые встречалась с абитуриентами в форме контактного взаимодействия. В специально организованных условиях абитуриенты демонстрировали навыки анализа конкретных ситуаций (кейсов) и отвечали на вопросы экспертов в ходе интервью по компетенциям. Оценивалась готовность кандидата в слушатели к решению управленческих задач на основе таких компетенций, как «системное мышление» и «управленческий профессионализм».

Собеседование включало:

обсуждение решений, подготовленных абитуриентом по одной или нескольким практическим ситуациям (кейсам) в соответствии с Программой вступительных испытаний. Время подготовки – 30 минут

интервью по компетенциям в режиме реального времени.

Общее время, выделяемое на собеседование – 45 мин. Оценка ответа осуществлялась по 100-балльной шкале. Минимальный проходной балл, подтверждающий успешное прохождение вступительного испытания. Члены комиссии независимо друг от друга проставляют оценочные баллы и передают секретарю для внесения в базу. Подсчет итогового результата производится автоматически.

Метод case study или метод конкретных ситуаций (от англ. case - случай, ситуация) – метод, позволяющий оценить активность и способность респондента к решению проблемной ситуации. Настоящий метод впервые был применен в учебном процессе Гарвардской школы бизнеса в 1924 году, через некоторое время после создания первых американских бизнес-школ. Со временем, метод кейс-менеджмента стал занимать ведущие позиции в обучении, не потерявший актуальность в настоящее время и до сих пор являющийся одним из наиболее эффективных способов обучения во всех сферах социальных наук, среди которых не является исключением и образовательные процесс, направленных на формирование навыков решения типичных проблем. Кейс - это инструмент, позволяющий абитуриенту применить теоретические знания к решению практических задач. Он позволяет выявить уровень развития у абитуриента системного мышления, способность увязывать теорию с управленческой практикой. Кейс - это ситуация, описывающая конкретное событие (или последовательности событий), содержащее одну или ряд проблем, когда абитуриенту необходимо принять управленческое решение. Он должен проанализировать ситуацию, разобраться в сути проблемы, предложить возможные решения и выбрать лучшее из них.

Схема анализа кейса включала: краткое изложение ситуации, в котором отражены данные: о произошедшей ситуации, участниках этой ситуации, что происходит на данный момент. Кейс не должен содержать конкретные детали и информацию, которая не имеет прямого отношения к анализируемой ситуации. Формулировка проблемы, которая состоит из одного предложения, в котором излагается проблема для последующего его решения кандидатом. Перечисленные организации и действующие в них лица, которые являются главными для решения проблемы и краткие характеристики на них. Силу из вне, форс-мажоры, которые могут повлиять на принимаемое решение. Внешние силы подразумеваются по отношению к описываемой ситуации обстоятельства, которые необходимо иметь ввиду при поиске вариантов решения. Возможные варианты решения с перечислением разных действий, в том числе и отсутствие таких действий. Каждый вариант решения проблемы формулируется в виде предложения с анализом, позволяющий определить, какие могут быть последствия: положительные, негативные. Пожелания и и рекомендации. Последовательность действий для реализации утвержденного решения.

Оценка решения кейса осуществлялась по 100-балльной шкале:

от 86 до 100 баллов кандидат в слушатели получает за полное, всестороннее изложение материала по кейсам, умение из общего объема знаний выделить необходимое для ответа именно на поставленные вопросы, грамотное, логичное изложение своих знаний;

от 71 до 85 баллов кандидату в слушатели ставится за полное изложение вопросов кейса при наличии отдельных неточностей, допущенных при определении понятий при изложении содержания материала;

от 55 до 70 баллов оценивается ответ, в котором кандидат в слушатели недостаточно полно раскрыл содержание вопроса по кейсу, допустил ошибки при изложении материала;

до 55 баллов выставляется при отсутствии ответа, а также в тех случаях, когда кандидат в слушатели не смог правильно сориентироваться в содержании кейса, не раскрыл содержание кейса, допустил грубые ошибки при изложении материала.

Интервью по компетенциям, основанное на поведенческих моделях, относится к методу, который применяют в мире с 1970-х годов. Интервью по компетенциям в своей основе содержат идею о том, что модель поведения, которая была предпочтительна в использовании человеком в прошлом, позволит лучше всего предсказать его поведенческие особенности в будущем. Вопросы, фигурирующие в данной методике, составлены таким образом, чтобы человеком были приведены примеры из собственного прошлого опыта. В данном случае, согласно приведенным примерам, интервьюер располагает возможностью определить, характерно ли для респондента демонстрация необходимых компетенции или нет.

Согласно полученным результатам, выяснилось, что компетенция «Адаптивность» обладает высокой надёжностью-согласованностью измерений (α=0,867), а показатели имеют весьма существенный положительный вес для оценки компетенции (от 0,233 до 0,723). Показатели по компетенции «Лидерство» также демонстрируют высокую надёжность, полученную путем согласованности измерений путем одновременного учёта множества индикаторов (α=0,946), а все индикаторы обладают достаточно существенным положительным весом для оценки компетенции (0,269-0,727). «Системность мышления» компетенция, обладающая высокой надёжностью согласованности, особенно при анализе меньшего количества показателей (α=0,901), все индикаторы имеют значительный положительный вес для оценки компетенции (0,393; - 0,692). «Управленческий профессионализм» компетенция, обладающая высокой надёжностью согласованности (α = 0,931), все индикаторы обладают достаточным положительным весом оценки компетенции (0,209 - 0,777). «Ценности» оценка данной компетенции выявила испытуемых с низкими баллами во всех индикаторах.

Полученные результаты позволили сформулировать гипотезу о том, что в рамках проведенной оценки был неучтенный нами фактор, приведший к сдвигу в развитии участников.

Исходя из возраста наших испытуемых, можно предположить, что, согласно модели, с точки зрения профессионального развития, мы имеем дело со стадией стабилизации. Данная стадия характеризуется направлением всех усилий личности в одно русло. Для этого же возраста характерно совершенствование профессиональных способностей и мастерства. По мнению Пряжникова Н.С. на данном этапе люди ориентируются на профессиональное мастерство и самоопределяются в профессиональной культуре. Согласно Е.А.Климову, самоопределение по своему результату представлено на двух уровнях: гностическом (в форме перестройки самосознания) и практическом (в форме реальных изменений социального и межличностного статуса).

Исходя из вышеизложенного, можно резюмировать что понимание окружающей среды, в которой действуют государственные служащие на примере описательной модели VUCA, отражающей сложную обстановку для любых организаций в целом и кадрового ресурса государственной службы, в частности.

На основании данных, результаты, полученные после проведенного Центром оценки материалов обратной связи при обучении магистрантов, был проведен вторичный анализ полученных результатов, позволивший сформировать гипотезу о том, что, в рамках проведенной оценки оказался неучтенный нами фактор, который привел к показателям сдвига в развитии участников, определить их возросший интерес к возможности выбора очередности выступления и языка решения кейса, оказывающего существенное влияние на оценку собственных успехов, появление итогового понимания менеджмента, ощущения удовлетворенности жизнью и способностью к управлению собой (самоконтроль).

Список использованной литературы

1. Базаров Т.Ю. Социально-психологические методы и технологии управления персоналом организации. Автореферат диссертации на соискание доктора психологических наук, - М., 1999г.;
2. Глуханюк Н. С. Психология профессионализации педагога. Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2005. 261 с.
3. Пряжников Н. С. Профессиональное и личностное самоопределение. Москва: Ин-т практ. психологии; Воронеж: МОДЭК, 1997. 253 с.
4. Климов Е. А. Психология профессионализма. Москва: Ин-т практ. психологии; Воронеж: МОДЭК, 1996. 400 с.

Ruxiyeva X.A
O‘zbekiston Milliy universiteti professori,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining akademigi to‘laqonli a’zosi

YANGI O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYANING YOSHLAR KAMOLOTIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dunyo miqyosida kuzatilayotgan korrupsiya darajasi va uni yoshlar-emotsional psixologik holatiga ko‘rsatadigan ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Transparency International tomonidan e’lon qilinadigan 2024-yilgi Corruption Perceptions Index ma’lumotlariga ko‘ra, 180 ta mamlakatning aksariyati 50 balldan past ko‘rsatkichga ega bo‘lib, global darajada korrupsiya yuqori darajada saqlanib qolayotgani aniqlanadi. OECD, WHO va boshqa xalqaro tashkilotlarning statistik ma’lumotlari esa korrupsiya hukm surgan jamiyatlarda ruhiy salomatlik buzilishlari - xususan, surunkali stress, xavotir, agressiya, depressiya va burnout sindromi sezilarli darajada yuqoriligini ko‘rsatadi. Shu bois, tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, korrupsiya insonning adolatga bo‘lgan ishonchini yemiradi, o‘z hayoti ustidan nazorat hissini pasaytiradi va “o‘rganilgan ojizlik” sindromi shakllanishiga olib keladi. Shuningdek, bunday muhitda ijtimoiy ishonchning kamayishi, moral jarohatlar, agressiv xulq va psixologik beqarorlik holatlari keng tarqaladi. Maqolada global statistik ma’lumotlar asosida korrupsiya darajasi va ruhiy-emotsional salomatlik o‘rtasidagi bevosita hamda bilvosita bog‘liqliklar yoritiladi, ushbu jarayonlarning inson kapitaliga, jamiyat barqarorligiga va iqtisodiy rivojlanishga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: korrupsiya, ijtimoiylashuv, deviantlik, delinkvent hulq-atvor, interpretatsiya, kompetensiya, ekologik xavfsizli, fenomen, indeks, mexanizm, identifikatsiya, ekiligik tender, institutsional zaifliklar.*

ВЛИЯНИЕ КОРРУПЦИИ НА ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ МОЛОДЕЖИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В данной статье проводится углублённый анализ уровня коррупции, наблюдаемого в мировом масштабе, и её влияния на эмоционально-психологическое состояние молодежи. Согласно данным Corruption Perceptions Index за 2024 год, публикуемым организацией Transparency International, большинство из 180 стран имеют показатели ниже 50 баллов, что свидетельствует о сохранении высокого уровня коррупции на глобальном уровне. Статистические данные OECD, WHO и других международных организаций показывают, что в обществах с высоким уровнем коррупции значительно выше распространённость нарушений психического здоровья, в частности хронического стресса, тревожности, агрессии, депрессии и синдрома эмоционального выгорания.В связи с этим исследования подтверждают, что коррупция подрывает доверие человека к справедливости, снижает чувство контроля над собственной жизнью и приводит к формированию синдрома «выученной беспомощности». Кроме того, в подобной социальной среде широко распространяются снижение социального доверия, моральные травмы, агрессивное поведение и состояния психологической нестабильности.*

В статье на основе глобальных статистических данных раскрываются прямые и косвенные взаимосвязи между уровнем коррупции и психоэмоциональным здоровьем, а также научно анализируется влияние данных процессов на человеческий капитал, социальную стабильность и экономическое развитие.

Ключевые слова*: коррупция, социализация, девиантность, делинквентное поведение, интерпретация, компетенция, экологическая безопасность, феномен, индекс, механизм, идентификация, экологический тендер, институциональные слабости.*

THE IMPACT OF CORRUPTION ON YOUTH DEVELOPMENT IN THE NEW UZBEKISTAN

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of the global level of corruption and its impact on the emotional and psychological state of youth. According to the 2024 Corruption Perceptions Index published by Transparency International, the majority of the 180 assessed countries score below 50 points, indicating that corruption remains high at the global level. Statistical data from the OECD, WHO, and other international organizations demonstrate that societies characterized by widespread corruption show significantly higher rates of mental health disorders, particularly chronic stress, anxiety, aggression, depression, and burnout syndrome.*

Therefore, research confirms that corruption erodes individuals' trust in justice, reduces the sense of control over one's own life, and contributes to the development of the "learned helplessness" syndrome. Moreover, such environments are marked by declining social trust, moral injuries, aggressive behavior, and psychological instability.

Based on global statistical data, the article highlights both direct and indirect relationships between corruption levels and psycho-emotional health, and scientifically analyzes the impact of these processes on human capital, social stability, and economic development.

Key words*: corruption, socialization, deviance, delinquent behavior, interpretation, competence, environmental security, phenomenon, index, mechanism, identification, ecological tender, institutional weaknesses.*

Kirish. Korrupsiya XXI asrda insoniyat rivojiga to‘sqinlik qiluvchi eng katta global tahdidlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu muammo faqat iqtisodiy resurslarning talon-taroj qilinishi yoki davlat mablag‘larining samarasiz sarflanishi bilan cheklanmaydi. Aksincha, korrupsiya jamiyatning barcha sohalariga chuqur ildiz otib, ijtimoiy adolatni yemirib, davlat boshqaruv tizimiga bo‘lgan ishonchni susaytiradi, fuqarolarning ruhiy salomatligiga jiddiy zarba beradi va ekologik xavfsizlikni izdan chiqaradi. Shu bois, korrupsiya muammosi zamonaviy tahlillarda iqtisodiy, psixologik va ekologik o‘lchamlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka ega bo’lgan murakkab tizimli fenomen sifatida o‘rganilmoqda.

Transparency International tomonidan e’lon qilingan 2024 yilgi Korrupsiyani qabul qilish indeksi (CPI) bu muammoning real ko‘lamini yorqin namoyon etadi. Indeksga ko‘ra, dunyodagi 180 mamlakatning 2/3 qismidan ziyodi 50 balldan past ko‘rsatkichga ega bo‘lib, bu mamlakatlarda davlat sektoridagi korrupsiya darajasi yuqori va shaffoflik yetarli emasligini ko‘rsatadi. Odatda CPIning yillar davomida deyarli o‘zgarmay qolishi global miqyosda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari yetarlicha samarali emasligini anglatadi. Ayniqsa, davlat boshqaruvining zaif institutlari, sud-huquq tizimining mustaqil emasligi, manfaatlar to‘qnashuvi va javobgarlik mexanizmlarining sustligi korrupsiyani yanada kuchaytiruvchi omillarga aylanmoqda.

So‘nggi yillarda ekologik sohalardagi korrupsiya yanada xavfli ko‘rinish olmoqda. Transparency Internationalning maxsus tahlillariga ko‘ra, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash, ekologik loyihalar va yashil energiyani rivojlantirish uchun ajratilayotgan xalqaro mablag‘larning bir qismi manfaatdor guruhlar tomonidan talon-taroj qilinishi, loyihalarni amalga oshirishda shaffoflikning yo‘qligi va fossil industriyaning siyosiy bosimi barqaror rivojlanishga jiddiy zarar yetkazmoqda. Shu bois, ekologik tenderlar va atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq litsenziya jarayonlaridagi manfaatlar to‘qnashuvi, yer resurslarining noqonuniy taqsimoti, o‘rmonlarning noqonuniy kesilishi korrupsiya va ekologik tanazzul o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Shuning uchun bu jarayonlarning barchasi jamiyat uchun uzoq muddatli ekologik xavflarni yuzaga keltiradi: havoning ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi, bioxilma-xillikning yo‘qolishi, iqlim inqirozining kuchayishi - bularning barchasi korrupsiya bilan bog‘liq institutsional zaifliklar orqali sodir bo‘ladi.

Bugungi kunda korrupsiyaning insoniy-psixologik jihatlari ham o’z aksini topadi. UNDPning 2024 yilda o‘tkazgan Public Sector Ethics Survey tadqiqotiga ko‘ra, korrupsiyaga aloqador xodimlarning 45 foizi “maosh yetarli emasligi”ni pora olish yoki noqonuniy xatti-harakatlarga qo‘l urishning asosiy sababi sifatida ko‘rsatgan. Bu esa korrupsiyaning bevosita iqtisodiy ildizlari - qashshoqlik, kam maosh va iqtisodiy xavfsizlik yetishmovchiligi bilan bog‘liq ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moddiy yetishmovchilik insonda surunkali stressni

yanada oshirib, mas'uliyatli qaror qabul qilish markazi bo'lgan prefrontal cortex faoliyatini susaytiradi va "omon qolish psixologiyasi"ni shakllantiradi. Bu holat korrupsion xatti-harakatlarni ruhiy jihatdan "asosli" deb qabul qilishga zamin yaratadi.

Bugungi kunda korrupsiyaning jamiyat psixologiyasiga ta'siri yanada keng: davlatga ishonchning pasayishi, ijtimoiy izolyatsiya, adolatsizlik hissi, agressiya, fuqarolik faolligining susayishi va ijtimoiy kapitalning yemirilishi - bularning barchasi korrupsiya yuqori bo'lgan jamiyatlarda ko'proq kuzatiladi. Bu jarayon uzoq muddatli natijalarga olib keladi: yoshlar orasida motivatsiyaning yo'qolishi, ijtimoiy intizomning susayishi, umumiy insoniy qadriyatlarning tanazzuli.

Mazkur maqola global va milliy darajada korrupsiyaning keng qamrovli oqibatlarini ilmiy jihatdan o'rganishni maqsad qiladi. Tadqiqotda korrupsiyaning ijtimoiy, psixologik va ekologik ta'siri xalqaro hisobotlar, ilmiy adabiyotlar va O'zbekistondagi amaliyot misolida tahlil qilinadi. Shu asosda, korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlarni shakllantirish va barqaror rivojlanishga erishish uchun zarur bo'lgan takliflar ham ishlab chiqiladi. Maqola nafaqat muammolarni ochib berish, balki ularni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv taklif qilishni ham o'zida mujassam etgan.

Adabiyotlar tahlili. Korrupsiya muammosi jahon ilmiy adabiyotlarida eng ko'p o'rganilgan, ko'p qirrali va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy fenomenlardan biri bo'libhisoblanadi. Shu bois, unga oid nazariy yondashuvlar iqtisodiyot, siyosatshunoslik, psixologiya, ekologiya va sotsiologiya sohalarida turli yo'nalishlarda tahlil qilingan. Mazkur bo'limda korrupsiyaning ijtimoiy, psixologik va ekologik oqibatlarini o'rgangan nufuzli xalqaro tashkilotlar, tadqiqot markazlari va olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilinadi.

Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy asoratlari bo'yicha shakllangan ilmiy-adabiyotlar tahlili ushbu hodisa jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga ko'rsatadigan ko'p qirrali ta'sirini chuqur yoritadi. S. Rouz-Akkerman, R. Klitgaard va D. Kaufmannlarning fundamental tadqiqotlarida korrupsiya iqtisodiy o'sishni sekinlashtiruvchi, tengsizlikni kuchaytiruvchi hamda institutsional ishonchni yemiruvchi omil sifatida baholangan. Transparency International tomonidan har yili e'lon qilinadigan "Korrupsiyani qabul qilish indeksi" (CPI) natijalari esa global darajadagi vaziyatni tahlil qilishga asosiy daliliy manba bo'lib xizmat qiladi. CPI 2024 hisobotiga ko'ra, yirik iqtisodiy hududlarni ham o'z ichiga olgan 180 mamlakatning uchdan ikki qismidan ortig'i 50 balldan past ko'rsatkich qayd etgan, bu esa global miqyosda korrupsiya hanuz yuqori darajada saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Transparency Internationalning "Global Corruption Barometer" ma'lumotlarida aholining davlat institutlariga ishonchi pastligi, 70 foiz respondent muammolar "korrupsiyasiz hal bo'lmaydi" degan fikrni bildirgani, ayniqsa tender jarayonlari va jamoat xizmatlarida shaffoflik yetishmasligi asosiy muammo sifatida qayd etilgan. Adabiyotlarda bu holat "ishonch kapitalining inqirozi" konsepsiyasi bilan bog'lanadi.

OECDning 2025-yilgi Anti-Corruption Trends tahlillari Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropadagi korrupsiyaning ildizlarini institutsional zaiflik, sud hokimiyati mustaqilligining pastligi, manfaatlar to'qnashuvi va elektron boshqaruv tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlaydi. Ushbu adabiyotlar bir ovozdan davlat boshqaruvida shaffoflik va samaradorlikni oshirish korrupsiyani kamaytirishda asosiy determinant ekanini e'tirof etadi.

Korrupsiyaning psixologik aspektlari bo'yicha adabiyotlar esa uning ruhiy va xulqiy mexanizmlarini tushuntirishga qaratilgan. Harvard Behavioral Science (2021) tadqiqotlarida stress holati insonning mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini susaytirishi, natijada korrupsiyaga moyillik 38 foizga ortishi qayd etilgan. UNDPning Public Sector Ethics (2022) hisobotida maoshning pastligi korrupsiyani rag'batlantiruvchi kuchli psixologik triggerlardan biri ekanligi ta'kidlangan, respondentlarning 45 foizi aynan shu omilni asosiy sabab sifatida ko'rsatgan. Martin Seligmanning "o'rganilgan ojizlik" nazariyasiga ko'ra, korrupsiya yuqori bo'lgan jamiyatlarda fuqarolarda islohotlarga ishonchning yo'qolishi, norozilikning passiv kutish holatiga aylanishi va adolat uchun kurashish motivatsiyasining susayishi kuzatiladi. Shuningdek, "moral injury" tadqiqotlari korrupsiyaga aralashgan shaxslarda uzoq muddatli ruhiy zararlar – ichki konflikt, entuziazmdan mahrumlik, stress va charchoq holatlarini qayd etadi. Bu natijalar korrupsiyaning faqat iqtisodiy yoki huquqiy emas, balki psixologik va madaniy ildizlari ham mavjudligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda korrupsiyaning ekologik oqibatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar ham kengaygan. Transparency Internationalning "Climate Crisis Report" (2024) hisobotida ekologik loyihalar

uchun ajratilgan mablag‘larning 30–40 foizi noto‘g‘ri sarflanishi, qazilma yoqilg‘i sanoatining siyosiy qarorlarga ta’siri va noqonuniy o‘rmon kesish holatlarining aksariyati korrupsiya bilan bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan. UNEPning “Environmental Governance” tadqiqotlarida esa korrupsiya bioxilmaxillikning kamayishi, suv resurslarining tanqisligi, ekologik ofatlar xavfining ortishi va yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining sekinlashishi kabi oqibatlarga olib kelishi qayd etiladi. Adabiyotlarda korrupsiya “ekologik inqirozni tezlashtiruvchi omil” sifatida baholanadi.

O‘zbekiston misolida olib borilgan manbalar tahlili mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida oxirgi yillarda tizimli islohotlar amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Prezident.uz (2020–2025) materiallari Milliy Antikorrupsiya Kengashining tashkil etilgani, davlat xaridlarining to‘liq elektronlashtirilgani, “Shaffof qurilish” platformasi ishga tushirilgani va yer ajratish jarayonlarining faqat auksion asosida amalga oshirilayotganini qayd etadi. UNDP Uzbekistan Governance Report (2023)da raqamlashtirish korrupsiya xavfini 40 foizga kamaytirgani, Jahon bankining Governance Indicators ma’lumotlarida esa 2018–2024 yillar davomida O‘zbekistonda “Government Effectiveness” ko‘rsatkichida sezilarli o‘sish kuzatilgani ko‘rsatiladi. Manbalar shuni tasdiqlaydiki, raqamlashtirish, inson omilini qisqartirish va ochiq ma’lumotlar siyosatini joriy etish korrupsiyaga qarshi samarali mexanizm hisoblanadi.

Umumlashtirilgan ilmiy xulosalarga ko‘ra, korrupsiya tor ma’noda iqtisodiy illat sifatida ko‘rilmay, balki ijtimoiy, ruhiy va ekologik oqibatlarga ega murakkab hodisa sifatida talqin qilinishi lozim. Xalqaro hisobotlar institutsional islohotlar, shaffof boshqaruv, raqamlashtirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning ustuvorligini alohida ta’kidlaydi. Shu bilan birga, korrupsiyaning inson ruhiyatiga ta’siri – stress, o‘rganilgan ojizlik, ijtimoiy passivlik va ishonchning yemirilishi ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Ekologik sohada esa korrupsiya barqaror rivojlanish maqsadlariga jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya korrupsiyani kamaytirishning eng samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

PEDAGOG SHAXSI EMOTSIONAL HOLATLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Biz taklif etayotgan ushbu mulohazalarimizda o‘qituvchining faolligini ta’minlaydigan hamda xulq-atvorni boshqaradigan holatlar haqida fikr yuritiladi. Ushbu nazariy tahlil jarayoniga emotsional holatlar bilan ko‘proq bog‘liq bo‘lgan harakatlar salbiy, praksik, ijodiy, ijobiy bo‘yoqdor va o‘z-o‘zini boshqaruvchi harakatlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, pedagogning pedagogik faoliyat davridagi psixik holatlari ko‘proq qanday stimullar ta’sir qiladi. Maqolada bunday harakatlar shaxslararo munosabatlarda psixik holatlar bilan qanday aloqadorlikka ega ekanligi va shu kabi masalalar haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik muloqot, emotsional holat, psixik kamolot, noverbal xatti-harakat, o‘z-o‘zini tarbiyalash.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ СОСТОЯНИЙ ЛИЧНОСТИ ПЕДАГОГА

Аннотация. *В представленных рассуждениях рассматриваются состояния, обеспечивающие активность педагога и управляющие его поведением. В рамках теоретического анализа особое внимание уделяется действиям, тесно связанным с эмоциональными состояниями, таким как негативные, праксические, творческие, положительно окрашенные и саморегулирующие действия. Также анализируется, какие именно стимулы в большей степени воздействуют на психические состояния педагога в период его педагогической деятельности. В статье освещаются вопросы взаимосвязи подобных действий с психическими состояниями в межличностных отношениях, а также ряд смежных проблем.*

Ключевые слова: *педагогическое общение, эмоциональное состояние, психическое развитие, невербальное поведение, самовоспитание.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE EMOTIONAL STATES OF A TEACHER’S PERSONALITY

Abstract. *This paper discusses the states that ensure teachers’ activity and regulate their behavior. Within the framework of theoretical analysis, particular attention is paid to actions closely related to emotional states, including negative, praxic, creative, positively colored, and self-regulatory actions. The study also examines which stimuli most strongly influence the mental states of teachers during their professional pedagogical activity. Furthermore, the article addresses the relationship between such actions and mental states in interpersonal interactions, along with related issues.*


Key words: *pedagogical communication, emotional state, psychological development, nonverbal behavior, self-education.*

Kirish. Dunyo miqyosida pedagog shaxsi emotsional holatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini alohida tadqiqot doirasida modellashtirish, kasbiy burch o‘qituvchilarni ongli qaror qabul qilishga, asabiylashish, umidsizlikni yengish va salbiy emotsiyalarni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur bo‘lsada, emotsiyalarning tashqi cheklanishi xotirjamlikka olib kelmaydi va psixologik-jismoniy salomatlikka hissa qo‘shmaydi, shuning uchun ham tadqiq etilayotgan muammo tadqiqotchilar predmetiga aylantirish zarurati yuzaga chiqmoqda. Shu nuqtai nazardan ham pedagog shaxsi faoliyatining ijtimoiy-psixologik

xususiyatlari tadqiqi doirasidagi ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonda professional pedagoglarga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda pedagoglar faoliyatining qonuniy asoslari mustahkamlandi. Pedagog faoliyatiga nafaqat ijtimoiy muammolarni o‘rganish sub’ekti sifatida qarash bilan chegaralanish, balki ulardagi davlat va jamiyatning ko‘plab sohalariga oid masalalar yechimini topish iqtidori va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun keng imkoniyat va teng sharoitlarni mavjudligi muhim jihat hisoblanadi. Zero, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi va davlat dasturi”da ta’lim sifati va inson kapitali sifatini oshirish asosiy yo‘nalishlardan biriga aylantirilgan. “Ta’lim sifatini oshirish strategiyasi” doirasida pedagog kadrlar siyosati ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanganligi pedagoglar faoliyati ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etishga, ulardagi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga dolzarb muammo sifatida qaralishini taqozo etadi.

Ushbu mulohazalarga tayangan holda emotsional holatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari determinatlarini emperik tadqiq etish maqsadida jami 335 nafar maktab o‘qituvchilar tadqiqot uchun tanlab olindi. Ulardan 61% ayollar, 39% erkaklar tashkil etgan.



Tadqiqotda ishtirok etgan pedagoglarning jinsi to‘g‘risida umumiy ma'lumot

Emotsionallikning muhim kasbiy sifatlardan biri sifatidagi o‘rni haqidagi qarashlarni aniqlash maqsadida o‘qituvchilarga xislatlar ro‘yxati taklif etildi. Ularni muhimlik (ahamiyatlilik) darajasiga ko‘ra tartiblash lozim edi. O‘z ahamiyatiga ko‘ra shaxsiy fazilatlar quyidagi ierarxik tartibni oldi: 1) yuqori intellekt, 2) kasbiy kompetentlik, 3) yuqori axloq, 4) talabchanlik, 5) mehribonlik, 6) tashkilotchilik yoki intizomlilik, 7) kirishimlilik, 8) ijodkorlikka intilish, 9) kuzatuvchanlik, 10) emotsionallik, 11) xulq moslashuvchanligi, 12) tashqi jozibadorlik, 13) harakatchanlik, 14) kuchli iroda.

Emotsional kuyunchaklik va o‘qituvchining adaptiv salohiyati o‘rtasidagi munosabatlarning qiyosiy tahlili (“Moslashuvchanlik qobiliyatlari” so‘rovnomasi (A.G.Maklakov))

	Adaptasion salohiyat mezoni	Charchash darajasi	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	R
	Shaxsiy adaptasion salohiyat	yuqori	1,69	0,199	< 0,001
		past	3,18	0,256	
.	Xulq-atvorni boshqarish va asabiy-psixik barqarorlik	yuqori	2,34	0,226	<0,001
		past	4,11	0,234	

	Kommunikativ salohiyat	yuqori	4,16	0,251	> 0,5
		past	4,72	0,221	
	Axloqiy normativlik	yuqori	4,91	0,237	< 0,04
		past	5,19	0,262	

Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar intellektual qobiliyat, kasbiy kompetentlik, yuksak axloqiylik bilan bog'liq sifatlarni afzal ko'radilar. Maktab ta'limining asosiy bo'g'ini sifatida bilim berishni hisobga olgan holda, o'qituvchilar emotsional komponentga alohida e'tibor qaratmaydi, unga 10-o'rin beriladi. Ehtimol, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi ko'plab nizolar o'qituvchilar uchun bu komponentning ahamiyati katta bo'lmaganligi sababli paydo bo'ladi.

Olingan javoblarni tahlil qilgandan so'ng, biz o'qituvchilarning ko'pchiligi xavotirli, o'ziga ishonchsiz, emotsiyalari va o'zlarini qanday boshqarishni bilishmaydi, emotsional sohaning psixologik xususiyatlari haqida etarli bilimga ega emaslar, degan xulosaga keldik. O'qituvchilarni o'quv jarayoni uchun muhim bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni aniqlashga o'rgatish kerak, toki kelajakda ular o'z xulq-atvori va emotsional sohasini ta'lim va tarbiya maqsadlari hamda vazifalariga muvofiq moslashtirish imkoniyatiga ega bo'lsinlar.

1-jadval

"Agressiv xulq atvorni o'rganish" (Bass va Darking) metodikasi shkalalari bo'yicha jins xususiyatlarini taqqoslash natijalari (Mann-Uitni U-mezoni)

Shkalalar	Jinsi (o'rtacha ranglar)		U	P
	Ayollar (n=203)	Erkaklar (n=132)		
Jismoniy tajovuz	158,52	112,41	-2,514	0,012*
Verbal tajovuz	141,52	138,20	-,319	0,750
Bilvosita tajovuz	145,72	128,73	-1,643	0,100
Negativizm	142,05	137,01	-,486	0,687
Tajanglik	121,36	171,13	-2,862	0,004**
Shubhalanuvchanlik	142,73	135,48	-,700	0,484
Xafagarchilik	189,26	105,85	-3,518	0,000**
Aybdorlik xissi	135,38	152,06	-1,603	0,109

Izoh: *-p<0.05; **-p<0.01

Har bir inson hayotining tajribasi shuni ko'rsatadiki, emotsional ifodani boshqarish va uni talqin qilish qobiliyati turli xil birgalikdagi faoliyat turlarida o'zaro harakat, o'zaro ta'sir uchun zarur shartlardir. Pedagogik muloqotning muvaffaqiyati ko'p jihatdan sheriklarning bir-biri ifodasini tushunish va pedagogik muloqot vaziyatiga muvofiq ifodali xatti-harakatni tartibga solish qobiliyatiga bog'liq. Shu bilan birga, ko'pgina o'qituvchilar, ayniqsa, yangi ish boshlagan o'qituvchilarda o'z emotsional holatlarini etarli darajada ifodalash va o'quvchilarning ifodali xatti-harakatlarini izohlash qobiliyati shakllanmagan.

2-jadval

"Emotsional intellektni aniqlash" (Xoll) metodikasi shkalalari bo'yicha jins xususiyatlarini taqqoslash natijalari (Mann-Uitni U-mezoni)

Shkalalar	Jinsi (o'rtacha ranglar)		U	P
	Ayollar (n=203)	Erkaklar (n=132)		
Emotsional bilimdonlik	142,73	135,48	-,700	0,484
O'z emotsiyalarini boshqarish	165,85	129,26	-3,518	0,000**
O'zini o'zi rag'batlantirish	135,58	152,06	-1,603	0,109
Empatiya	155,99	133,63	-2,154	0,031*
O'zgalar kechinmalarini sezuvchi	137,36	144,45	-,684	0,494

Izoh: *-p<0.05; **-p<0.01

Pedagogik muloqotdagi ifoda bir qator funksiyalarni bajaradi: kognitiv ma'lumotlarni tashuvchi, ifoda mazmunini to'ldirish va aniqlashtirish vazifasini bajaruvchi, shuningdek, pedagogik muloqot sub'ektlari o'zini ifodalashning eng muhim vositalaridan biri bo'lib, pedagogik muloqot ishtirokchilarining holati, munosabati, motivlari va niyatlarini ochib beradi. Ekspressiv xatti-harakatlar pedagogik muloqot sub'ektlarining munosabatlarini maqsadli tartibga soladi; u turli pedagogik ta'sirlarni amalga oshirish uchun ishlatiladi, diqqatni jalb qilish, qiziqishni oshirish, talabni ifodalash, javobni adekvat baholash, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lish imkonini beradi; ifoda yordamida emotsiyalar namoyon bo'lishi nazorat qilinadi salbiy kechinmalar bekitiladi.

3-jadval

Turli ish stajlariga ega bo'lgan pedagoglarni "Emotsional intellektni aniqlash" (Xoll) metodikasi shkalalari bo'yicha taqqoslash natijalari (Kruskal-Uollis H-mezoni)

Shkalalar	Ish staji (o'rtacha ranglar)			H	p
	1-5 yil (n=88)	6-10 yil (n-116)	10 yildan or-tiq (n=131)		
Emotsional bilimdonlik	144,09	147,29	130,42	2,567	0,277
O'z emotsiyalarini boshqarish	150,61	124,04	147,69	6,568	0,037*
O'zini o'zi rag'batlantirish	123,36	138,17	158,54	9,050	0,011*
Empatiya	138,98	139,25	143,15	,164	0,921
O'zgalar kechinmalarini sezuvchi	132,27	142,54	146,00	1,512	0,469

Izoh: *-p<0.05

Olingan ma'lumotlar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining umumiy ekspressivlik ko'rsatkichi (87.0) o'rta maktab o'qituvchilarinikidan (80.9) yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z ishlarida o'quvchilarning yoshga bog'liq psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik muloqot xarakteri va uslubiga alohida e'tibor berishlari bilan izohlanadi. Bu yoshdagi bolalar juda emotsional, ularning o'qituvchi bilan iliq, emotsional-yorqin muloqotga ehtiyoji yuqori bo'ladi.

Daraja korrelyasiyalari koeffisientining ijobiy qiymati g = 0,95 olingan bo'lib, ular o'xshash, biroq identik bo'lmagan xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, "ovoz balandligi", "intonasion ifodalilik", "nutq obrazliligi, "ortiqcha harakatlar", "harakat faolligi" kabi kanallar ko'rsatkichlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari natijalari yuqori, "nutqiy xatolar", "nutq tempi" kanallarida natijalar past. Buning sababi shundaki, ular ko'pincha so'zlarni talaffuz qilishga, izohlashga, tovush-harf tarkibini ta'kidlashga to'g'ri keladi. Bunga jiddiy e'tibor berishadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z emotsiyalarini ifodalab, katta harakat faolligini namoyon etadilar, ularning nutqi intonasion ifodali, obrazli, ovozi balandroq bo'ladi. Shunday qilib, A. E. Olshannikova tomonidan ishlab chiqilgan metodologiya yordamida o'qituvchilarda emotsional ekspressivlik namoyon bo'lishining ayrim xususiyatlari aniqlandi. O'qituvchilarning fikriga ko'ra, ifodalashning etakchi kanallari ifodalashning differensiyalanmagan kanallari bo'lib, ular intonasion ifoda, keyin yuz ifodalari va nutq obrazliligini qayd etadilar.

4-jadval

"O'qituvchining darsdagi imo-ishoralarini o'zi baholashi" (E. A. Petrova) metodikasi bo'yicha jins xususiyatlarini taqqoslash natijalari (Mann-Uitni U-mezoni)

Shkalalar	Jinsi (o'rtacha ranglar)		U	P
	Ayollar (n=203)	Erkaklar (n=132)		
Ijtimoyi mardlik	131,36	161,13	-2,862	0,004**

Izoh: *-p<0.01

Imo-ishoralar pedagogik texnika komponenti sifatida so‘rovnoma va kuzatish metodlari yordamida tadqiq qilindi. Ta’limning turli bosqichlaridagi o‘qituvchilarda imo-ishorani qo‘llashda farq mavjud yoki mavjud emasligini bilishni istadik. “Mazkur darsga tayyorlanish davomida biror-bir imo-ishorani qo‘llash haqida o‘ylab ko‘rdingizmi?” degan savolga o‘qituvchilar asosan “o‘ylab ko‘rmadik”, “bu nima uchun kerak?”, “ehtiyojni ko‘rmayapman” tarzida javob berishdi. Ba‘zi o‘qituvchilar javoblari esa boshqacha bo‘ldi: “albatta”, “bularsiz bolalarga qanday tushuntirish mumkin?”, “o‘ylab chiqaman”, 20% igina o‘quv jarayonida imo-ishoralarning ahamiyati katta emas va bunga e‘tibor qaratishga o‘rin yo‘q, “darsda bajaradigan muhimroq ishlar bor” deb javob berishdi.

Olingan ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ba‘zi o‘qituvchilar o‘zlarining noverbal ifodaliligini yuqori baholadilar (12.5). Ularning fikricha, pedagogik muloqotda noverbal xulq-atvorni boshqarish va refleksiyalash qobiliyati estetik uyg‘unlik va formal-dinamik parametrlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Pedagogik faoliyatning eng muhim vaziyatlarida ular noverbal xatti-harakatlarni boshqarish bilan muvaffaqiyatli kurashadilar. Ba‘zi o‘qituvchilarning baholariga ko‘ra, ular o‘rtacha darajadagi noverbal ifodalilikka ega (9.8).

5-jadval

“Reaktiv va shaxsiy xavotirlanishni aniqlash” (Ch.D.Spilberger-Yu.L.Xanin) metodikasi ko‘rsatgichlari bo‘yicha jinsiy tafovutlarni aniqlash natijalari (Mann-Uitni U mezoni)

Ko‘rsatkichlar	Jinsi (o‘rtacha ranglar)		U	P
	Ayollar (n=203)	Erkaklar (n=132)		
Reaktiv xavotirlanish	176,3	169,3	,215	0,888
Shaxsiy xavotirlanish	207,3	115,0	3,28	0,000**

Izoh: *-p<0.01

Darsdagi pedagogik faoliyat va muloqotning eng muhim holatlarida, masalan, diqqatni jalb qilish, qiziqishni oshirish, talablarni ko‘rsatish, javoblarni baholash, munosabat bildirish va hokazolar boshqa ikki ko‘rsatkichdan ko‘ra yaxshiroq rivojlangan. Shaxsiy omillarni (xususiyatlarni) o‘rganish uchun I. Farenberg, X. Zarg, R. Gampellarning “Frayburg shaxs so‘rovnomasi”dan (FPI) foydalandik. Bu shaxsning bir qancha muhim xususiyatlarini aniqlash uchun ko‘p omilli shaxsiy test. Biz ko‘rsatkichlarni quyidagi shkalalar bo‘yicha oldik: nevrotizm, spontan agressivlik, depressivlik, ta’sirchanlik, reaktiv agressivlik, vazminlik va emotsional beqarorlik. Sub’ektlar quyidagi shkalalar bo‘yicha yuqori ballarni namoyish etdilar: serjahllik (7,8), emotsional beqarorlik (7,2) shkalalar bo‘yicha o‘rtacha ballar: spontan agressivlik (6,7), reaktiv agressivlik (4,2), nevrotizm (6,8). Natijalar emotsional holatning beqarorligidan dalolat beradi, ular tez-tez kayfiyat o‘zgarishi, qo‘zg‘aluvchanlikning oshishi, o‘zini-o‘zi tartibga solishning etarli emasligi, o‘qituvchilarning affektivlik reaksiyasiga moyilligida namoyon bo‘ladi.

Pedagog shaxsi emotsional holatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

a. pedagogning kasbiy faoliyati jarayonida emotsional holatning beqarorligi emotsional kuyinish fenomenining shakllanishi va rivojlanishiga hamda faoliyat mahsuldorligining pasayishiga sabab bo‘lishi aniqlanganligiga doir natijalar pedagog emotsional holatiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash imkoniyati yaratgan;
b. pedagogning kasbiy faoliyati jarayonida emotsional holatning beqarorligi emotsional kuyinish fenomenining shakllanishi va rivojlanishiga hamda faoliyat mahsuldorligining pasayishiga sabab bo‘lishi aniqlanganligiga doir natijalar pedagoglarning ish jarayonida yuzaga keladigan emotsional holatlarga munosabatni aniqlash imkoniyati yaratilgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Babadjanova S. A. The main directions of accounting socio-psychological characteristics of the manager of education in the process of optimizing management activities in Uzbekistan // Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2019

2. Бабаджанова С. А. Управление эмоционалънйми состояниями – как гарантия успешной профессионалъной деятелъности педагога // Вестник интегративной психҳологии. – 2023. – Вйп. 28. – (19.00.00. №5).

3. Бабаджанова С. А. Результаты исследования особенностей проявления эмоционалъного состояния педагога // Вестник интегративной психҳологии. – 2023. – Вйп. 28. – (19.00.00. №5).Babadjanova S. A. Pedagogning ta’lim jarayonidagi faoliyati // Pedagogik mahorat: ilmiy–nazariy va metodik jurnal. – 2021. – Maxsus son. – (19.00.00. №11).

4. Babadjanova S. A. Socio-psychological aspects of the teacher’s emotional state // Modern education systems in the USA, the EU and the post–Soviet countries.

5. 5.Бабаджанова С. А. Особенности проявления эмоционалъного состояния в педагогической деятелъности // Психҳология ХХИ столетия: материалй конференции. – Самарканд, 15–16 марта 2024 г.

Xodjakulova D.E.
O'zMU Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi,
Yeshnazarova Parizoda Ilyos qizi
O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtmoiy fanlar fakulteti talabasi

X VA ALFA AVLOD VAKILLARI QADRIYATLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada X va Alfa avlod vakillarining qadriyatlar tizimi hamda ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda har ikki avlodning dunyoqarashi, motivatsiyasi, kommunikatsiya uslubi va jamiyatdagi rolini shakllantiruvchi omillar o'rganilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, global madaniyat ta'siri va ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning qadriyatlarga ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, X avlodi an'anaviy va barqarorlikka yo'nalgan qadriyatlarga ega bo'lsa, Alfa avlodi individual erkinlik, innovatsiya va raqamli kommunikatsiyani ustuvor deb hisoblaydi. Maqolada avlodlar o'rtasidagi farqlarni anglash orqali ta'lim, mehnat bozori va ijtimoiy munosabatlarda samarali muloqotni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.*

Kalit so'zlar: *X avlodi, Alfa avlodi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, raqamli madaniyat, dunyoqarash, innovatsiya, avlodlar o'rtasidagi farqlar.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЦЕННОСТЕЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ПОКОЛЕНИЙ X И АЛЬФА

Аннотация. *В данной статье анализируются система ценностей и социально-психологические особенности представителей поколения X и поколения Альфа. В исследовании изучаются факторы, формирующие мировоззрение, мотивацию, стиль коммуникации и роль в обществе представителей обоих поколений. Особое внимание уделяется влиянию цифровых технологий, глобальной культуры и изменений в системе образования на формирование ценностей. По результатам анализа установлено, что поколение X ориентировано на традиционные ценности и стабильность, тогда как поколение Альфа отдает приоритет индивидуальной свободе, инновациям и цифровой коммуникации. В статье также представлены практические рекомендации по обеспечению эффективного взаимодействия в сфере образования, на рынке труда и в социальных отношениях на основе понимания межпоколенческих различий.*

Ключевые слова: *поколение X, поколение Альфа, система ценностей, социально-психологические особенности, цифровая культура, мировоззрение, инновации, межпоколенческие различия.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE VALUES OF REPRESENTATIVES OF GENERATION X AND GENERATION ALPHA

Abstract. *This article analyzes the value systems and socio-psychological characteristics of representatives of Generation X and Generation Alpha. The study examines the factors shaping the worldview, motivation, communication styles, and social roles of both generations. Special attention is paid to the influence of digital technologies, global culture, and changes in the education system on the formation of values. The results indicate that Generation X is oriented toward traditional values and stability, whereas Generation Alpha prioritizes individual freedom, innovation, and digital communication. The article also provides practical recommendations for ensuring effective interaction in education, the labor market, and social relations through an understanding of intergenerational differences.*

Key words: *generation X, Generation Alpha, value system, socio-psychological characteristics, digital culture, worldview, innovation, intergenerational differences.*

Kirish. Bugungi kunda jahonda avlodlar o‘rtasidagi farqlar, ayniqsa, qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar jamiyat taraqqiyotining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Globalizatsiya, raqamli texnologiyalar rivoji va madaniy integratsiya jarayonlari insonlarning dunyoqarashi, turmush tarzi va qadriyatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan, avlodlar psixologiyasi, ularning qadriyatlar tizimi va ijtimoiy faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ta’lim tizimidagi yangilanishlar va raqamli jamiyatga o‘tish jarayoni yangi avlod – Alfa avlodi shakllanishiga zamin yaratdi. Bu avlod raqamli muhitda o‘sib-ulg‘ayayotgan, tez ma’lumot qabul qiladigan, erkin fikrlaydigan va global dunyoqarashga ega bo‘lgan yoshlardan iborat. Shu bilan birga, ulardan oldingi X avlodi esa Sovet davri yoki mustaqillikning ilk yillarida shakllangan, barqarorlik, mehnatsevarlik va an’anaviy oilaviy qadriyatlarga katta ahamiyat beruvchi avlod sifatida tavsiflanadi. Shu sababli, X va Alfa avlodlari qadriyatlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilish - avlodlar o‘rtasidagi muloqot, ta’lim jarayonidagi o‘zaro tushunish, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston jamiyatida avlodlar aloqasi, qadriyatlar evolyusiyasi va yoshlar ongidagi zamonaviy tendensiyalarni chuqur tahlil etishni maqsad qiladi.

Avlodlar qadriyatlarini shakllantirishda tarixiy voqelik, ijtimoiy muhit va iqtisodiy holat muhim rol o‘ynaydi. **X avlodi** (taxminan 1965–1980 yillarda tug‘ilganlar) O‘zbekistonda Sovet ittifoqi davri va mustaqillikning dastlabki yillarida yetishgan. Ushbu davrda jamiyatda mehnatsevarlik, jamoaviylik, barqarorlik va oilaviy qadriyatlarga katta ahamiyat berilgan. Shu bois X avlod vakillari uchun mas’uliyat, sadoqat, mehnat orqali muvaffaqiyatga erishish asosiy hayotiy yo‘nalish hisoblanadi.

Alfa avlodi (taxminan 2010 yildan keyin tug‘ilganlar) esa raqamli texnologiyalar, internet va global kommunikatsiya muhitida o‘sib-ulg‘ayayotgan avloddir. Ular axborotni tez qabul qiladi, yangi g‘oya va innovatsiyalarga ochiq, virtual muloqotni afzal ko‘radi va shaxsiy erkinlikni qadrlaydi. Bu avlod dunyoqarashida milliy an’analar bilan bir qatorda global madaniyat ta’siri ham kuchli. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, har ikki avlod o‘rtasidagi qadriyatlar tizimida sezilarli farqlar mavjud:

1-jadval

Qadriyatlar tizimidagi asosiy farqlar

Qadriyat yo‘nalishi	X avlodi	Alfa avlodi
Oila va an’ana	Oila barqarorligi, kattalarni hurmat qilish, an’anaviy munosabatlar ustuvor	Individuallik, shaxsiy erkinlik va teng munosabatlar ustuvor
Mehnat va muvaffaqiyat	Barqaror ish, sabr-toqat va mehnat orqali muvaffaqiyat	Ilg‘or texnologiyalar, ijodkorlik va tez natijaga intilish
Kommunikatsiya	Yuzma-yuz muloqot, ehtiyotkorlik	Onlayn muloqot, ochiq fikr bildirish
Dunyoqarash	Milliy an’analarga asoslangan, ehtiyotkorlik	Global fikrlash, tez o‘zgarishlarga moslashuvchanlik
Bo‘sh vaqt va dam olish	Oilaviy an’anaviy dam olish usullari	Internet, o‘yin platformalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali dam olish

X va Alfa avlodlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari jamiyatdagi munosabatlar, muloqot uslubi va motivatsiyasida ham namoyon bo‘ladi.

- X avlodida jamoaviy manfaat shaxsiy manfaatdan ustun turadi, qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik va barqarorlikka intilish ustuvor. Ular uchun empatiya, tajriba va mehnat orqali qadrlanish muhim ahamiyatga ega.
- Alfa avlodida esa shaxsiy erkinlik, yangilikka intiluvchanlik va tezkor fikrlash asosiy psixologik xususiyatlardir. Ular ko‘p hollarda virtual muhit orqali o‘zini ifoda etadi va shaxsiy muvaffaqiyatni tez namoyon qilishga intiladi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimidagi islohotlar, raqamli jamiyat rivoji va global madaniyat ta’siri Alfa avlodining qadriyatlarini yangicha yo‘nalishda shakllantirmoqda. Bunday sharoitda avlodlar o‘rtasidagi farqni anglash - oilaviy munosabatlarda, ta’lim jarayonida va mehnat bozorida o‘zaro

hamjihatlikni ta’minlash uchun zarur. Shu nuqtai nazardan, pedagoglar, psixologlar va sotsiologlar uchun avlodlar psixologiyasini chuqur o‘rganish, yoshlar dunyoqarashini tushunish va ular bilan muloqot usullarini yangilash dolzarb vazifadir.

Umumiy xulosa va takliflar. X va Alfa avlodlarining qadriyat tizimi jamiyatda turli yo‘nalishlarda namoyon bo‘layotgan madaniy, psixologik va kommunikativ o‘zgarishlarni yorqin aks ettiradi. X avlodi uchun barqarorlik, an’anaviy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat va jamoaviylik tamoyillari ustuvor hisoblanadi. Ular hayotiy qarorlarni ko‘proq tajriba, ijtimoiy me’yorlar va oilaviy mas’uliyatga tayanib qabul qiladi. Alfa avlodi esa raqamli makonda voyaga yetgan, global axborot oqimlari va texnologiyalar ta’sirida shakllangan bo‘lib, shaxsiy erkinlik, tezkor aloqa, innovatsion fikrlash va o‘zini namoyon etish kabi qadriyatlarni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu avlod o‘z fikrini ochiq ifodalash, kreativlik va onlayn muloqot vositalaridan faol foydalanish orqali shaxsiy rivojlanish va mustaqillikka intiladi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu avlodlar o‘rtasidagi tafovutlarning to‘g‘ri anglanishi va boshqarilishi ijtimoiy barqarorlik hamda sog‘lom kommunikativ muhitni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, oiladagi tarbiya, ta’lim muassasalaridagi metodlar, mehnat bozoridagi munosabatlar va jamiyatning umumiy qadriyatlar tizimida uyg‘unlikni shakllantirish avlodlararo ziddiyatlar oldini olishga yordam beradi. Shu sababli, avlodlar psixologiyasini e’tiborga olgan holda tarbiya modeli, muloqot madaniyati va ijtimoiy muloqot platformalarini to‘g‘ri yo‘naltirish jamiyatning kelajak taraqqiyoti uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Taklif etiladiki, ta’lim tizimida avlodlar psixologiyasiga asoslangan yondashuv joriy etilib, pedagoglar uchun maxsus treninglar tashkil etilishi lozim. Bu o‘qituvchilarga turli avlodlar ehtiyojlari va dunyoqarashini chuqurroq anglash, dars jarayonini moslashtirish va samarali muloqot o‘rnatishga imkon beradi. Ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi muloqot madaniyatini kuchaytirish ham alohida ahamiyatga ega, chunki oilada ishonch va hamkorlik muhiti shakllanganda tarbiya samaradorligi oshadi. Yoshlar bilan ishlash jarayonida esa raqamli va an’anaviy tarbiya usullarini uyg‘unlashtirish tavsiya etiladi, bu orqali ularning ijtimoiy faolligi, milliy qadriyatlarga sodiqligi va ichki psixologik barqarorligi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abdurazzoqova, M. Sh. (2021). Yoshlar qadriyatlari va ijtimoiy ongdagi o‘zgarishlar (ijtimoiy-psixologik tahlil). Toshkent: Fan va texnologiya.

2. Abdurazzoqova, M. Sh. (2021). Yoshlar qadriyatlari va ijtimoiy ongdagi o‘zgarishlar (ijtimoiy-psixologik tahlil). Toshkent: Fan va texnologiya.

3. Yo‘ldosheva, N. A. (2023). Z va Alfa avlod psixologiyasida raqamli madaniyat ta’siri. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy maqolalar to‘plami, №4, 112–118-betlar.

4. Yo‘ldosheva, N. A. (2023). Z va Alfa avlod psixologiyasida raqamli madaniyat ta’siri. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy maqolalar to‘plami, №4, 112–118-betlar.

5. Соколова, А. А. (2021). Психологические особенности поколения Алфа: перспективы и вызовы сифровой эпохи. Психология XXИ века, №3, 67–73.

6. Постникова, И. В. (2020). Социально-психологические особенности поколений X, Й и З. Журнал Психология и общество, №2, 45–52.

7. Шамис, Е., & Никонов, С. (2017). Поколение З: как оно изменит будущее бизнеса, политики и культуры. Москва: Манн, Иванов и Фербер.Duisenbekova, M. (2023). Comparative Analysis of the Alpha and Z Generations: Key Characteristics and Implications. International Journal of Innovative Research and Scientific Studies, 6(4), 85–92.

8. Rudolph, C. W., Rauvola, R. S., Costanza, D. P., & Zacher, H. (2020). Debunking Myths in Organizational Science and Practice: The Case of Generations and Generational Differences. Frontiers in Psychology, 11, 1–16.

Abdullayeva Dilbar Zoirjon qizi
O’zbekiston milliy universiteti tadqiqotchi psixologi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AGRESSIVLIKNING PSIXOLOGIK SABABLARI VA UNI KONSTRUKTIV YECHIMLARI

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiyaning psixologik mexanizmlari ko‘rib chiqiladi, uning ichki va tashqi determinantlari ochib beriladi. 4-6 yoshli bolalar namunasida o‘tkazilgan tadqiqotning empirik qismi, shu jumladan agressivlik darajasi, agressiv reaksiyalar turlari va agressiyaning oilaviy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlili keltirilgan. Natijalar asosida agressiyani konstruktiv o‘zgartirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar*: agressiya, maktabgacha yoshdagi bolalar, hissiy tartibga solish, frustratsiya, tarbiya, konstruktiv o‘zgarish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ АГРЕССИВНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА И ПУТИ ЕЁ КОНСТРУКТИВНОГО РАЗРЕШЕНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические механизмы проявления агрессии у детей дошколного возраста, раскрываются ее внутренние и внешние детерминанты. Представлена эмпирическая част исследования, которая была проведена на выборке детей 4-6 лет, включающая анализ степени агрессивности, типов агрессивных реаксий и взаимосвязи агрессии с особенностями семейного воспитания. На основе полученных результатов предложены практические рекомендации по конструктивной трансформации агрессии.*

Ключевые слова: *агрессия, дошколники, эмотсионалная регулятсия, фрустратсия, воспитание, конструктивные изменения.*

PSYCHOLOGICAL CAUSES OF AGGRESSION IN PRESCHOOL CHILDREN AND ITS CONSTRUCTIVE SOLUTIONS

Abstract. *This article examines the psychological mechanisms underlying the manifestation of aggression in preschool children and reveals its internal and external determinants. An empirical part of the study is presented, conducted on a sample of children aged 4–6 years, which includes an analysis of the level of aggressiveness, types of aggressive reactions, and the relationship between aggression and characteristics of family upbringing. Based on the obtained results, practical recommendations for the constructive transformation of aggression are proposed.*

Key words: *aggression, preschool children, emotional regulation, frustration, upbringing, constructive changes.*

Kirish. So‘nggi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalarda agressivlik muammosi rivojlanish psixologiyasi, maktabgacha pedagogika va psixologik-pedagogik diagnostika sohasidagi mutaxassislarning alohida e’tiborini tortib kelmoqda. Zamonaviy bolalar yuqori axborot yuki, hayotning jadal sur’ati va tobora murakkablashib borayotgan ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar sharoitida o‘smoqda, bu ko‘pincha hissiy stress va xatti-harakatlarni tartibga solishda qiyinchiliklarga olib keladi. Maktabgacha yoshda, o‘z-o‘zini nazorat qilishning asosiy mexanizmlari, hissiyotlar va ijtimoiy ko‘nikmalar faol ravishda shakllanayotganda, agressiya umidsizlik, qo‘rquv va o‘z his-tuyg‘ularini noto‘g‘ri tushunishga tabiiy reaksiya, shuningdek shaxsiy chegaralarni himoya qilish usuli sifatida harakat qilishi mumkin.

Psixologlarning ta’kidlashicha, maktabgacha yoshdagi agressiv namoyishlar har doim ham deviant xatti-harakatni anglatmaydi. Ko‘pincha, ular yoshga bog‘liq xususiyatlarning natijasidir ya’ni: nutqning yetarli darajada shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatining cheklanganligi, asab tizimining tez charchashi, shuningdek hissiyotlarni konstruktiv ifoda yetish tajribasining yetishmasligi kabi faktorlar bunday xatti-harakatning sababchisi bo‘lishi mumkin. Bu davrda bola atrofdagi dunyoni faol o‘rganadi, maqsadga yo‘naltirilgan mustaqil faoliyatni kengaytirishga intiladi va shuning uchun kattalarning cheklovlari, taqiqlari va tushunmovchiliklariga keskin munosabatda bo‘ladi. Agressiya boladagi ba’zi – e’tiborga bo‘lgan, qabul qilinish,

atrofdagilar tomonidan hurmat qilinish, va xavfsizlik xissi kabi qondirilmagan ehtiyojlarni ifodalash usuliga aylanishi mumkin.

Zamonaviy rivojlanish psixologiyasi nuqtai nazaridan maktabgacha yoshdagi bolalarning agressiv xatti-harakatlari turli omillar majmuasi ta'siri ostida shakllanadi, bular: biologik (temperament, asab tizimining xususiyatlari), oila (tarbiya uslubi, hissiy iqlim, kattalar xulq-atvorlari modellari), ijtimoiy (tengdoshlar bilan o'zaro ta'sir) va kognitiv (nutqni rivojlanganlik darajasi, hissiyotlarni ramziy tarzda ifodalash va tushunish qobiliyati). Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, aynan ichki va tashqi omillarning munosabati boladagi agressiyani yosh davriga monand qisqa muddatli reaksiya sifatidan namoyon bo'lishi yoki tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlarning barqaror usuliga aylanishini asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mutaxassislarning faoliyati agressiyani bostirishga emas, balki uning konstruktiv yechimini topishga qaratilishi kerak. Maktabgacha yoshda hissiy o'zini o'zi boshqarish, empatiya, his-tuyg'ularni ifodalashning muqobil usullari, muzokaralar olib borish va umidsizlikni yengish qobiliyati ayniqsa samarali shakllanadi. Agressiyaning konstruktiv o'zgarishi agressiv energiyani ijtimoiy maqbul faoliyatga o'zgartirishni ya'ni: sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanish, harakatli o'yinlar, ijodkorlik, hissiyotlarni og'zaki ifodalashni o'rganish, nizolarni hal qilish qobiliyatlari kabilarni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiyaning psixologik sabablarini o'rganish va uni konstruktiv o'zgartirish usullarini ishlab chiqish zamonaviy amaliy psixologiyaning dolzarb vazifasi va bolaning keyingi rivojlanishida xulq-atvor qiyinchiliklarining samarali oldini olish uchun asosdir.

Nazariy sharh. Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressivlik muammosi psixologiyada biologik, shaxsiy va ijtimoiy omillar birlashuvida shakllanuvchi ko'p komponentli hodisa sifatida ko'riladi. Ilmiy manbalarga ko'ra, agressiya boshqa shaxsga yoki ob'ektga zarar yetkazishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar majmuini ifodalaydi, maktabgacha yoshdagi bolalarda esa u ko'pincha impulsiv, ya'ni darhol hissiy holat ta'siri ostida sodir bo'ladigan harakatlar shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu yosh davrida bolalarning o'z hissiyotlarini nazorat qilish ko'nikmalari hali yetarli shakllanmaganligi sababli, agressiv reaksiya ko'proq fiziologik va emotsional rivojlanish xususiyatlarini aks ettiradi.

Agressiyaning biologik ildizlari boladagi temperament va asab tizimi rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Peshona qismi funksiyalarining to'liq shakllanmaganligi, boshqaruv mexanizmlarining kuchsizligi bolaning o'z harakatini ixtiyoriy nazorat qila olmasligiga olib keladi. Shu sababli jazoga asoslangan yondashuv o'rniga pedagogik korreksiya, psixologik yordam va hissiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash samaraliroq deb baholanadi.

Agressiv xatti-harakatlarning shakllanishida oilaning roli alohida e'tiborni talab qiladi. Oila bolaning xulq-atvor modellarini o'zlashtiradigan birlamchi muhit bo'lib, undagi munosabatlar, tarbiya uslubi va emotsional muhit bola reaksiyalarining yo'nalishini belgilaydi. Qattiq nazorat, tanbeh va jazoga asoslangan avtoritar yondashuv bolada himoya agressiyasini kuchaytirishi mumkin, o'zaro hurmat va muloqotga asoslangan tarbiya esa bolaning o'zini nazorat qilishini rivojlantiradi. Oilada hissiy beqarorlik, e'tibor yetishmasligi yoki talablarning ziddiyatli bo'lishi ichki zo'riqishni oshiradi va u ko'pincha tashqi agressiya orqali ifodalanadi.

Ijtimoiy muhit ham agressivlik shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga kiradi. Tengdoshlar bilan munosabatlar bolada empatiya, hamkorlik, nizolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Guruh ichida rad etilgan, tanqidga uchraydigan yoki o'zini yolg'iz his qiladigan bolalarda himoya agressiyasi kuchayishi kuzatiladi. Bolalar ko'pincha atrofdagilar harakatlarini noto'g'ri talqin qilishi, hatto neytral vaziyatni ham tahdid sifatida qabul qilishi mumkin. Bu holat psixologiyada "dushmanlik atributi" sifatida ta'riflanadi va u boladagi tashvish darajasi va ichki zo'riqish bilan bog'liq deb izohlanadi. Agressiyaning asosiy kognitiv va emotsional mexanizmlaridan biri — nutq va emotsional intellektning yetarlicha rivojlanmaganligidir. Bola o'z hissiyotini so'z orqali bildira olmaganda, u jismoniy harakat orqali o'zini ifoda etishga moyil bo'ladi. Nutq esa o'z-o'zini boshqarishning muhim vositasi bo'lganligi sababli, uning rivoji to'g'ridan-to'g'ri impulsivlikni kamaytirish bilan bog'liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressivlik — bu muammo emas, balki rivojlanish jarayonining tabiiy bir bosqichi sifatida ko‘rilmog‘i lozim. To‘g‘ri yo‘naltirilgan tarbiya, emotsional qo‘llab-quvvatlash, nutq va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘yin va ijodiy faoliyat bilan ishlash orqali agressiya konstruktiv tajribaga aylanishi, bola esa kelajak ijtimoiy hayotiga muvaffaqiyatli moslasha oladigan shaxs sifatida shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiv xatti-harakatlarning tarqalishi. Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiyaning namoyon bo‘lish holatlari yetarlicha ko‘p uchraydi va ular bolaning psixik hamda ijtimoiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Masalan, Norvegiyada 1 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, ikki yoshli bolalarning katta qismida jismoniy agressiya «oyiga bir necha marta yoki undan ham tez-tez» uchrashi aniqlangan. Shu bilan birga, yosh oshgan sayin bolalarda keskin agressiyakor reaksiyalar kamayib boradi. Bu esa o‘z-o‘zini boshqarish va ijtimoiy o‘zaro ta’sir ko‘nikmalarining bosqichma-bosqich shakllanib borayotganini ko‘rsatadi.

Yana bir tadqiqotda, Eronda 1 400 dan ortiq maktabgacha yoshdagi bolalar ishtirokida o‘tkazilgan ishlar natijasida agressiya turlari bo‘yicha farqlanishi kuzatilgan. Xususan, ota-onalar bahosiga ko‘ra, bolalarning taxminan o‘n foizida jismoniy agressiya, olti foizida verbal agressiya, ikki foizida esa relyatsion (munosabatlar orqali ko‘rsatiladigan) agressiya uchragan. Tarbiyachilar baholari ham shu kabi tendensiyalarni ko‘rsatgan, biroq relyatsion agressiya ko‘proq qayd etilgan. Bu esa kuzatuv konteksti va pedagogik professional bahoning ta’siri borligini anglatadi.

Bundan tashqari, Misrda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkazilgan tadqiqotda taxminan 18 % bolalarda xulqiy yoki emotsional qiyinchiliklar, jumladan agressiyakor namoyonlar uchrashi aniqlangan. Bu ma’lumotlar maktabgacha yoshdagi bolalarning sezilarli qismida ijtimoiy va emotsional regulyatsiyada muammolar bo‘lishi mumkinligini, shu bilan birga pedagogik va psixologik ko‘makka ehtiyoj yuqoriligini ta’kidlaydi.

Xulosa. Teoretik va empirik ma’lumotlarning majmui maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiv ko‘rinishlarni erta aniqlash va emotsional kompetentlikni rivojlantirishning yuqori darajadagi dolzarbligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, emotsional tartibga solish ko‘nikmalarini rivojlantirish, emotsiyalarni konstruktiv tarzda ifodalash qobiliyatini shakllantirish va ijobiy ijtimoiy muhitni yaratish agressiyaning samarali oldini olishga xizmat qilishi mumkin.Emotsional rivojlanish dasturlarini bolalar bog‘chalari va tarbiya muassasalari amaliyotiga integratsiya qilish bola shaxsiyatining uyg‘un rivojlanishiga yordam beradi, destruktiv xulq-atvor shakllari xavfini kamaytiradi va erta yoshda sog‘lom shaxslararo munosabatlar shakllanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Выготский, Л. С. Психология развития / Л. С. Выготский. – М.: Педагогика, 2003. – 256 с.

2. Bandura, A. Social Learning Theory / A. Bandura. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 2002. – 247 p.

3. Prevalence of Aggressive Acts Among 1- to 5-Year-Olds in Norwegian Early Childhood Education and Care // Journal of Early Childhood Education and Care. – 2022. – Vol. XX. – P. 1–15.

4. Meysamie, A., Ghalehtaki, R., et al. Aggression Types in Preschool Children: Parent and Teacher Perspectives / A. Meysamie, R. Ghalehtaki et al. // Iranian Journal of Psychiatry and Behavioral Sciences. – 2013. – Vol. 7, No. 2. – P. 43–50.

5. Elsayed, A. Behavioral and Emotional Difficulties in Preschool Children: Prevalence and Correlates / A. Elsayed et al. // Journal of Early Childhood Research. – 2020. – Vol. 18, No. 4. – P. 367–381.

6. Norwegian Early Childhood Education and Care Report. Aggressive Behavior in Children Aged 1–5: Prevalence and Mechanisms. – Oslo: Ministry of Education, 2022. – 45 p.

Baxshilloyeva Gulnora
Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) Ta'lim yo`nalishi talabasi

BUXORO SHEVASIDAGI FONETIK O'ZGARISHLARNING MATEMATIK MODELI

Annotatsiya. *O'zbek tilining shevalari orasida Buxoro shevasi o'ziga xos fonetik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu sheva nafaqat tovushlar tizimida, balki, fonetik o'zgarishlarning turli shakllarida ham ko'plab o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy tilshunoslikda fonetik o'zgarishlarni matematik modellashtirish aholining muloqot nuqtayi nazaridan tilda yuz berayotgan sinxron va diaxron jarayonlarni chuqur tahlil qilishga asos bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, buxoroliklar nutqidagi fonetik o'zgarishlarni matematik model asosida tahlil etish nafaqat sheviy so'zlardagi o'ziga xosliklarni, balki ona tilimizdagi umumiy fonetik qonuniyatlarni ham aniqlash imkonini beradi. Fonetik o'zgarishlarni modellashtirish, ularning matematik ifodalanishi, dastlab fonetik birliklarni aniqlash, o'zaro bog'lanishini asoslash va tovushlar tizimidagi o'zgaruvchanlikni raqamli-matematik yondashuvlar orqali ko'rsatishda ahamiyatlidir.*

Kalit so'zlar: *Buxoro shevasi, fonetik o'zgarishlar, matematik model, tilshunoslik, dialektologiya, ovoz o'zgarishi, fonema, statistik tahlil, nutq jarayoni, o'zbek tili.*

МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ФОНЕТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ В БУХАРСКОМ ДИАЛЕКТЕ

Аннотация. *Среди диалектов узбекского языка бухарский диалект выделяется своими уникальными фонетическими особенностями. Этот диалект включает в себя множество изменений не только в звуковой системе, но и в различных формах фонетических изменений. В современной лингвистике математическое моделирование фонетических изменений служит основой для глубокого анализа синхронных и диахронических процессов, происходящих в языке с точки зрения коммуникации населения. С этой точки зрения, анализ фонетических изменений в речи бухарцев на основе математической модели позволяет выявить не только особенности диалектных слов, но и общие фонетические закономерности родного языка. Моделирование фонетических изменений, их математическое выражение, важно для первичного выделения фонетических единиц, обоснования их взаимосвязей и демонстрации вариативности звуковой системы посредством числово-математических подходов.*

Ключевые слова: *Бухарский диалект, фонетические изменения, математическая модель, лингвистика, диалектология, звуковые изменения, фонема, статистический анализ, речевой процесс, узбекский язык.*

MATHEMATICAL MODEL OF PHONETIC CHANGES IN THE BUKHARA DIALECT

Abstract. *Among the dialects of the Uzbek language, the Bukhara dialect stands out for its unique phonetic features. This dialect includes many changes not only in the system of sounds, but also in various forms of phonetic changes. In modern linguistics, mathematical modeling of phonetic changes provides the basis for a deep analysis of synchronous and diachronic processes occurring in the language from the point of view of the population's communication. From this point of view, analyzing phonetic changes in the speech of Bukhara people based on a mathematical model allows us to identify not only the peculiarities of dialect words, but also the general phonetic laws of our native language. Modeling phonetic changes, their mathematical expression, is important in initially identifying phonetic units, substantiating their interconnections, and showing variability in the sound system through numerical-mathematical approaches.*

Key words: *Bukhara dialect, phonetic changes, mathematical model, linguistics, dialectology, sound change, phoneme, statistical analysis, speech process, Uzbek language.*

Kirish. Modellashtirish – ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘p qo‘llaniladigan muhim uslublaridan hisoblanadi. Model degani fransuzchadan olingan bo‘lib, namuna degan ma’noni anglatadi va ilmiy tadqiqot ishlarida voqelik, jarayon yoki qurilmani o‘rganish uchun uni asl nusxasi o‘rniga qabul qilingan shakli – nusxasi olinishi va o‘rganilishi bo‘ladi. Ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiqotchi tomonidan o‘rganilayotgan obyektga o‘xshash, uning ko‘rsatkichlarini o‘zida mujassamlashtirgan tizimi model deb qabul qilinadi. Voqelik (jarayon) nazariy o‘rganilganda ham odatda uning modellaridan foydalaniladi. Modellashtirish ikki turga bo‘linadi: fizik (ashyoviy yoki mexanik) yoki matematik (mantiqiy va ideal) bo‘lishi mumkin.

Modellashtirish metodi so‘nggi yillarda tilshunoslikda keng qo‘llanila boshlagan zamonaviy ilmiy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu metodning qo‘llanishi bejiz emas, chunki tadqiqotchilar uning bir qator afzalliklari, amaliy va pragmatik jihatlarini alohida ta’kidlaydilar. Birinchidan, modellashtirish tavsifiy emas, balki amaliy metod sifatida namoyon bo‘ladi — u nazariy tasvirlashdan ko‘ra, bevosita til birliklari va ularning tizimli munosabatlarini amaliy asosda ko‘rsatib berishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, mazkur metod deyarli barcha ilmiy sharoitlarda optimal yechim bo‘lib, "optimal" so‘zi eng qulay, eng to‘g‘ri va eng samarali degan ma’noni anglatadi. Uchinchidan, modellashtirish iqtisodiy prinsipga asoslanadi: ilmiy tahlilda fikr va so‘z tejaladi, keraksiz tafsilotlar qisqartiriladi. To‘rtinchidan, obyektning mohiyatini izohlash, tizimlashtirish va tushuntirish jarayonini soddalashtiradi, murakkab lisoniy hodisalarni tushunarli ko‘rinishga keltiradi.

Biroq har qanday ilmiy yondashuv singari, modellashtirish metodining ham ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ayrim cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, modellashtirish odatda faqat struktur va formal belgilarni asos sifatida oladi, natijada mazmuniy, semantik qirralar e’tibordan chetda qolishi mumkin. Aslida esa har qanday hodisaning, ayniqsa lisoniy obyektning mohiyati shakl va mazmunning uzviy birligida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, ilmiy bilimlar rivojlanib borgan sari oldingi modellar eskiradi, ular yangilanadi yoki hatto inkor etilishi mumkin. Shu ma’noda mavjud modellar ba’zan bilimlar ufqini cheklab, obyekt haqidagi tasavvurni noto‘g‘ri shakllantirish xavfini tug‘diradi. Uchinchidan, tabiat va jamiyatdagi birorta ham obyekt boshqa hodisalar ta’siridan holi bo‘lmaganidek, modellar ham nisbiy xarakterga ega bo‘ladi: ular mutlaq haqiqat emas, balki ma’lum davr va bilim darajasiga xos shartli ilmiy konstruksiyadir.

Xulosa qilib aytganda, modellashtirish metodi tilshunoslikdagi tadqiqotlarni soddalashtirish, tizimlashtirish va ilmiy tahlilni samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, uni qo‘llashda mazmuniy jihatlarni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik, mavjud modellarni doimiy ravishda yangilab borish va ularni mutlaq haqiqat sifatida qabul qilmaslik lozim.

Sheva tili fonetikasini modellashtirish birinchi navbatda tovushlar tizimidagi mavjud qonuniyatlarni ochib berishga yo‘naltiriladi. Matematik model yaratishda til birliklari va ularning o‘zaro fonetik aloqalari yuqori aniqlikda ko‘riladi. O‘zbek tili Buxoro shevasining asosiy xususiyatlari orasida unli va undosh tovushlarning xususiy o‘zgarishlari turadi. Mazkur o‘zgarishlarni sonli qiymatlar yordamida, ya’ni matematik formula va funksiyalar bilan ifodalash orqali aniq va izchil tavsifga erishiladi. Fonetik birliklarning matematik ifodasi uchun, avvalo, tovushlarning tipologiyasi, ularning morfologik va morfonologik vazifalari aniqlanadi. Har bir fonema, alofon, nutq jarayonidagi tovush o‘zgarishlari probabilistik model orqali baholanadi. Shevada sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning matematik modelini yaratish uchun statistik tahlillardan, ehtimollik nazariyasidan, matritsali va ketma-ketlikli modellashtirish usullaridan foydalaniladi. Matnlar tanlovi asosida fonetik o‘zgarishlar soniya, chastota, foiz kabi o‘lchov birligi doirasida ifodalanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Buxoro shevasida fonetik o‘zgarishlar asosan unli tovushlar sohasida yuzaga chiqadi. Unli tovushlarning cho‘ziqlanishi, qisqarishi, sifatli o‘zgarishlari, diakritik belgilar yordamida ham ifodalanishi mumkin. Bundan tashqari, undoshlar tizimida so‘rilish, talqin va mutatsiyalash jarayonlari ham kuzatiladi. Ushbu xususiyatlarning matematik modelini yaratishda, har bir tovush, uning shakllanish oraliqlari, vaqt birligi, chastota, energiya parametrlari ko‘riladi. Bunda, tovushlarning ko‘p hollarda logatip yoki grafik shaklda ifodasidan ham foydalaniladi. Fonetik o‘zgarishlarni matematik modellash jarayonida, dastlab tanlangan namunaviy matn asosida fonetik birliklar segmentlar bo‘yicha ajratiladi. Har bir segment tovushlarning o‘zaro almashish ehtimoli, chastota va foiz nisbati aniqlanadi. Misol uchun, unli tovushlarning almashish ehtimoli uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$E(A \rightarrow B) = f(A, B)/N$$

Bu yerda, $E(A \rightarrow B)$ – A tovushining B tovushiga aylanish ehtimoli, f(A, B) – mavjudlik chastotasi, N esa jami hollar soni sifatida qaraladi. Ana shu matematik model yordamida so‘zning har bir fonetik segmenti uchun o‘zgarish ehtimoli va chastotasi hisoblanadi. Bunda, barcha o‘zgarishlar butun shevaning tipik xususiyatlari nuqtayi nazaridan modellashtiriladi.

Fonetik o‘zgarishlarni modellashtirishda asosiy parametrlar sifatida tovushlarning uzunligi (prosodika), kuchliligi (intonatsion zo‘riqish), tembr, asonans va tonallik olinadi. Har bir parametr uchun maxsus matematik ifodalar, statistik taqsimot usullari qo‘llaniladi. Fonetik jarayonlarning matematik modeli markov jarayonlari, matritsalar, grafik to‘plamlar orqali ko‘rsatiladi. Shuningdek, fonetik o‘zgaruvchanlikni regressiv analiz, diskret va uzluksiz model, to‘plamlar nazariyasi asosida ham o‘rganish mumkin.Buxoro shevasida unli tovushlarning assimilyatsiyadan so‘nggi o‘zgarishiga matematik yondashuv sifatida, quyidagi ko‘rinishdagi differensional tizimlardan foydalanish mumkin:

$$dU/dt = \alpha(U_0 - U)$$

Bu yerda U – hozirgi bosqichdagi unli tovush holati, U_0 – dastlabki holat, α – assimilyatsiya koeffitsiyenti, t – vaqt o‘lchovi. Bu model yordamida vaqtda davomli fonetik o‘zgarishlarni hisoblab, ularni kelajakda yuzaga keladigan natijalarga prognoz qilishga erishiladi.

Muhokama va natijalar. Buxoro shevasining fonetik o‘zgarishlar tizimi murakkab bo‘lib, ularni matematik tahlil qilish uchun ko‘p o‘zgaruvchili tizimlar nazariyasidan foydalaniladi. Fonetik o’zgarishlarning matematik modeli- bu tilning ma’lum bir sheva yoki lahjalarda uchraydigan so’zlarning tovush o’zgarishi holatini matematik funksiyalar ya’ni formula algoritm orqali ifodalash demakdir. Yanada aniqroq aytadigan bo’lsak, matematik model- berilgan tovushlar qanday sharoitda,qay tarzda o’zgarishini aniqlovchi va ularni maxsus kodlar asosida ifodalovchi bir tizim. Bugungi kunda bilamizki, sheva va lahjalar joylashgan yerga qarab ham turlarga bo’linadi va shu bilan birga ularning matematik modellari ham bir-biridan farq qiladi. Bu tilshunoslik, dialektalogiya va kompyuter lingvistikasi fanlari uchun juda muhim sanaladi. Chunki bular orqali turli dialektlarni solishtirish mumkin va farqlarini bir sistema asosida birlashtirish osonlashadi. Buning bir qancha nazariy asoslari mavjud.

Fonetik modellashtirish - bu tilning tovush tizimini kompyuter orqali o‘rganish, yaratish va qayta ishlash uchun nazariy qoidalar, matematik formulalar va algoritmik yondashuvlar yordamida modelini tuzish jarayonidir, ayniqsa matndan ovozga (TTS) tizimlari va nutqni qayta ishlash texnologiyalarida muhim; u tovushlar qanday talaffuz qilinishini, ularning bir-biriga ta’sirini (fonetik o‘zgarishlar, reduksiya, sinxronizatsiya) hamda tilning fonetik qonuniyatlarini (masalan, o‘zbek tilida singarmonizm) modellashtirishni o‘z ichiga oladi.

Fonetik tizimdagi har bir segment - bu butun tovushlar tizimining tarkibiy qismidir. Modellash jarayonida har bir segment funksional bog‘liqlik asosida, vektorli ko‘rinishda tavsiflanadi. Bu yondashuv fonetik birliklarning matematik strukturasi, ular o‘rtasidagi o‘zgaruvchanlik, ketma-ketlik, ehtimoliy bog‘lanishlarini ochib beradi. Fonetik birliklarning matematik variatsion tahlili har bir fonetik holatning o‘tish ehtimolini, ularning o‘zgarishi uchun o‘ziga xos dispersiya va standart og‘ishni ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichlar orqali modeldan optimal natijalar olish, fonetik tizimdagi noaniqliklarni kamaytirish imkoniyati yaratiladi. Matematik modellashtirish asosida buxoro shevasidagi fonetik o‘zgarishlarni kompyuter dasturlari yordamida simulyatsiya qilish ham mumkin. Simulyatsiya natijasida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi, eski shakllarning o‘zgarishi va boshqa fonetik xususiyatlar ilgari suriladi. Bu yondashuv kelajakda tilning rivojlanishini prognoz qilish, so‘zlarning standartlashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Modellash jarayonida ehtimollik taqsimoti, stohastik modellar, fonetik parametrlarning markaziy o‘rtacha va dispersiyasi asosida natijalar olinadi. Bu natijalar so‘z, gap va matn darajasidagi fonetik o‘zgaruvchanlikni aniqlashga yo‘naltiriladi. Matematik modelda Buxoro shevasidagi fonetik o‘zgarishlarning statistik dastlabki ko‘rsatkichlari quyidagicha shakllantiriladi. Tovushlarning o‘zaro almashish chastotasi, qisqarish va cho‘ziqlanish ehtimoli, tonallik va tembrning sezilarli parametrlari hisob-kitob qilinadi. Natijada, ushbu ko‘rsatkichlar muayyan oraliqda grafiga chiqariladi va har bir o‘zgarish uchun ehtimollik amallarining matematik talqini yaratiladi. Fonetik o‘zgarishlarning matematik modeli faqat ayrim tovushlar doirasida emas, balki mikronutq strukturasida ham ko‘riladi. Nutqning kichik birligi - fonema, ularning o‘zgarishi esa

fonetik tizimning asosini tashkil etadi. Mikronutq parametrlarini matematik modellashtirishda, fonemalararo masofa, vaqt bo‘yicha o‘zgarish, tovushlar intensivligi, ehtimoliy bog‘lanishlar, Markov zanjiri va boshqa matematik modellardan bo‘lak ishlatiladi.

Zamonaviy model talqinlarida avtomat va graflar nazariyasi yordamida fonetik segmentlarning o‘zgarish sxemalari grafik ko‘rinishda ifodalanadi. Har bir nuqta - fonema, har bir o‘tish - fonetik o‘zgarish sifatida qabul qilinadi. Bu orqali butun shevaning fonetik tizimi tarmoqli model tarzida matematik jihatdan asoslanadi. Matematik model doirasida fonetik o‘zgarishlarni optimallashtirish algoritmlaridan ham foydalaniladi. Qo‘yilgan funksiyalarning eng kichik yoki eng katta qiymatini topish, optimal o‘zgaruvchanlik darajasini aniqlash uchun matematik tahlil qilinadi. Optimallash yordamida o‘zgaruvchanlikni cheklash, yangi fonetik birliklarning paydo bo‘lish ehtimolini kamaytirish mumkin. Bu yondashuv til rivojlanishidagi barqarorlikni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Fonotik model tovushlarning fiziologik va fiziognomik xususiyatlariga asoslangan bo‘lsa, fonemik model esa tovushlarning lingvistik mazmuniga e’tibor beradi. Matematik yondashuv nuqtayi nazaridan, fonetik modelda aniq o‘lchov birliklari, chastota, bosim, vaqt parametrlari inobatga olinadi. Fonemik model esa fonemalarning funksional yuki, ularning morfologik va sintaktik aloqalari asosida matematik ifodalanadi. Buxoro shevasining fonetik modellashtirilishida ko‘pincha fonetik model ustuvor bo‘ladi, lekin fonemik tahlil ham ahamiyatlidir, chunki u tarmoq tahlili orqali fonemalararo o‘zaro aloqalarni, ularning o‘zgarish mexanizmini matematik asosda ochib beradi. Fonetik o‘zgarishlarni matematik modellashtirish natijasida, ularni informatik jarayonlarga tadbiq qilish, tilni avtomatik tahlil qilish va sun’iy intellektda foydalanuvchi ovozini aniqlash uchun ham keng imkoniyatlar ochiladi. Buxoro shevasiga xos fonetik o‘zgarishlarning matematik modeli, tilni raqamlashtirish, avtomat tarjimonlarni yaratish, ovozli matnlarni ma’lumotlar bazasiga solishtirish, til o‘rganishda trening dasturlarini yaratishda fidokoriy yordam beradi. Nutqning matematik modeli asosida so‘zlarning fonetik shaklini statistik o‘rganish, ularni tarmoq bazasiga joylashtirish, iqtisodiy va madaniy maqsadlarda tadqiq etish ham mumkin.

Xulosa. Buxoro shevasidagi fonetik o‘zgarishlarning matematik modeli hozirgi tilshunoslik va til texnologiyalarining yetakchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu model tovushlar tizimidagi o‘zgarishlarni chuqur va tizimli tarzda baholash, tilda yuzaga chiqayotgan yangi hodisalarni ilmiy asoslash imkonini beradi. Matematik modellashtirish yordamida shevaning fonetik silkini, natijaviy tahlil ko‘rsatkichlarini, so‘z turkumlarining fonetik shakllanishi va ularning o‘zaro aloqalarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abduazizov A. O‘zbek adabiy tili va shevalar: fonetik jihatlar // Filologiya masalalari. – 2019. – T. 4, № 2. – B. 17–25.
2. Axmedov R. Shevalar fonetikasi va ularning zamonaviy tadqiqoti // O‘zbekiston filologiyasi. – 2021. – T. 1, № 3. – B. 45–54.
3. Aliqulov N. O‘zbek shevalarida fonetik o‘zgarishlar // Til va adabiyot. – 2020. – T. 5, № 1. – B. 110–118.
4. Bobojonov B. Buxoro shevasining fonetik xususiyatlari // O‘zbekiston tili va adabiyoti. – 2018. – T. 3, № 3. – B. 60–67.
5. Bozarov S. Shevalarda fonetik jarayonlar va ularni modellashtirish // Davr. – 2019. – T. 2, № 1. – B. 41–47.
6. Ergashev J. Shevalar lingvistikasi va fonetik modellashtirish muammolari // Filologiya ilmlari. – 2020. – T. 6, № 2. – B. 123–131.

Komilova Zilola Erkinboy qizi
Osiyo xalqaro universiteti Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi magistranti

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI O‘RTASIDAGI MADANIYATLARARO DISKURSDA OG‘ZAKI VA NOOG‘ZAKI MULOQOT

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o‘zbek diskursida verbal (og‘zaki) hamda noverbal (og‘zaki bo‘lmagan) muloqotning ifodalanish xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada kommunikativ xulq-atvorni shakllantiruvchi lingvistik va paralingvistik omillar, jumladan madaniy, ijtimoiy va psixologik determinantlar tahlil qilinadi. Mazkur ishda nutq aktlari, imo-ishoralar, yuz ifodalari, intonatsiya va sukutning ingliz va o‘zbek muloqot amaliyotida qanday o‘xshash va farqli tarzda idrok etilishi va qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *verbal nutq, noverbal nutq, diskurs, muloqot, imo-ishora, intonatsiya, madaniyatlararo dialog.*

VERBAL AND NONVERBAL COMMUNICATION IN INTERCULTURAL DISCOURSE BETWEEN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. *This article is devoted to the study of the features of verbal and nonverbal communication in English and Uzbek discourse. The paper analyzes linguistic and paralinguistic factors that shape communicative behavior, including cultural, social, and psychological determinants. The study examines how speech acts, gestures, facial expressions, intonation, and silence are perceived and applied similarly and differently in English and Uzbek communicative practices.*

Key words: *verbal communication, nonverbal communication, discourse, interaction, gestures, intonation, intercultural dialogue.*

УСТНАЯ И НЕВЕРБАЛЬНАЯ КОММУНИКАЦИЯ В МЕЖКУЛЬТУРНОМ ДИСКУРСЕ МЕЖДУ АНГЛИЙСКИМ И УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКАМИ

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению особенностей вербальной и невербальной коммуникации в английском и узбекском дискурсе. В работе анализируются лингвистические и паралингвистические факторы, формирующие коммуникативное поведение, включая культурные, социальные и психологические детерминанты. Рассматривается сходство и различие в восприятии и использовании речевых актов, жестов, мимики, интонации и паузы в английской и узбекской коммуникативной практике.*

Ключевые слова: *вербальная речь, невербальная речь, дискурс, коммуникация, жесты, интонация, межкультурный диалог.*

Kirish. Til insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, axborot almashinuvi hamda shaxsiy va madaniy identifikatsiyani ifodalashda muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Inson tafakkuri, dunyoqarashi va jamiyatdagi ijtimoiy mavqei aynan til orqali namoyon bo‘lib, u madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Zamonaviy tilshunoslikda muloqot jarayoni faqat lingvistik birliklar doirasida emas, balki keng kommunikativ kontekstda - ya’ni ijtimoiy, madaniy va pragmatik omillar bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etilmoqda.

Verbal til diskursning asosiy strukturaviy tayanchi bo‘lsa-da, noverbal unsurlar muloqot jarayonida ikkilamchi emas, balki mazmunni to‘ldiruvchi, aniqlashtiruvchi va ba’zan esa yetakchi ahamiyatga ega bo‘lgan muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Imo-ishoralar, mimika, tana harakatlari, nutq ohangi, pauza va vizual aloqa kabi noverbal belgilar aytilgan fikrni kuchaytirishi, unga zid ma’no yuklashi yoki ayrim vaziyatlarda so‘z o‘rnini to‘liq bosishi mumkin. Shu bois, muloqotni to‘liq va to‘g‘ri anglash uchun verbal va noverbal vositalarning uyg‘unligini hisobga olish zarur.

Turli madaniy muhitlarda verbal va noverbal muloqotni tahlil qilish til tizimi bilan ijtimoiy-me'yoriy qadriyatlar, urf-odatlar hamda axloqiy me'yorlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. Har bir madaniyatda muloqotning o'ziga xos qoidalari, xushmuomalalik strategiyalari va diskursiv an'analari mavjud bo'lib, ular tarixiy taraqqiyot va ijtimoiy tajriba asosida shakllangan. Shu jihatdan, ingliz va o'zbek diskursining qiyosiy tahlili madaniy qadriyatlar hamda tarixiy rivojlanish jarayonlari muloqot uslublarini qanday shakllantirishini aniqlash, shuningdek, madaniyatlararo muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pragmatik farqlarni yoritish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Metodologiya. Tilshunoslikda so'nggi o'n yilliklarda nutqning faqat grammatik tuzilmasini emas, balki uning pragmatik va madaniy jihatlarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Verbal va noverbal muloqotning o'zaro aloqasi, ayniqsa, madaniyatlararo diskurs doirasida muhim ilmiy masala sifatida qaralmoqda. Ingliz va o'zbek tillarida muloqot strategiyalarining farqlanishi ushbu maqolaning asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Verbal muloqot va nutq aktlari masalasi jahon tilshunosligida J. L. Austin tomonidan asoslangan. U o'zining "How to Do Things with Words" (1962) asarida nutqni harakat sifatida talqin qilib, nutq aktlari nazariyasiga asos solgan. Austin g'oyalari J. Searle tomonidan "Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language" (1969) asarida rivojlantirilib, nutq aktlarining tizimli tasnifi ishlab chiqilgan.

Pragmatika va nutqdagi muloyimlik masalalari P. Brown va S. Levinson tomonidan "Politeness: Some Universals in Language Usage" (1987) asarida keng yoritilgan bo'lib, unda "face-saving" tushunchasi ilgari surilgan. Ushbu nazariya o'zbek diskursidagi bilvosita nutqni tushuntirishda muhim ahamiyatga ega.

Noverbal muloqot masalalari R. Birdwhistell tomonidan "Kinesics and Context" (1970) asarida ilmiy asosda o'rganilgan. U tana harakati va imo-ishoralarni kommunikativ tizim sifatida tahlil qilgan.

Madaniyatlararo muloqot nazariyasi E.T. Hall tomonidan "Beyond Culture" (1976) asarida ishlab chiqilgan. U yuqori va past kontekstli madaniyatlar tushunchasini joriy qilgan hamda proksemika nazariyasini taklif etgan. Diskurs tahlili sohasida D. Tannen "Conversational Style" (1984) asarida intonatsiya, pauza va sukunatning pragmatik vazifalarini tahlil qilgan.

T. A. van Dijk esa "Discourse and Power" (2008) asarida diskursni ijtimoiy va ideologik hodisa sifatida o'rganib, kontekst va hokimiyat munosabatlariga e'tibor qaratgan.

O'zbek tilshunosligida nutq madaniyati masalalari A. Karimov tomonidan "O'zbek nutq madaniyati" (2018) asarida yoritilgan bo'lib, unda hurmat, murojaat shakllari va etik norma masalalari tahlil qilingan.

N. Mahmudov "Til va nutq" (2006) asarida pragmatik ma'no va nutq vaziyatini o'rganib, o'zbek diskursining kommunikativ xususiyatlarini ochib bergan.

Shuningdek, Sh. Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" (2009) orqali kontekstual ma'no va bilvosita nutqni yoritgan.

M. Yo'ldoshev esa "Matn lingvistikasi" (2010) asarida diskurs va matn tahliliga oid nazariy qarashlarni bayon qilgan.

Natijalar va muhokama. Tahlil natijalari ingliz diskursida bevosita va aniq verbal muloqot ustuvor ekanini, o'zbek diskursida esa bilvositalik va muloyimlik muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Noverbal belgilar - ko'z bilan aloqa, imo-ishora va sukunat - ikki madaniyatda turlicha pragmatik ma'no yuklaydi.

Verbal muloqot mohiyatan so'zlar orqali ma'no yetkazish jarayonini anglatadi. U gap tuzilishi, lug'aviy birliklar va grammatik vositalarni o'z ichiga oladi. Ingliz diskursida verbal muloqot aniqlik, bevositalik va ravshanlikka yo'naltirilgan. Ingliz tilida so'zlashuvchilar fikrlarini ochiq, qat'iy va aniq ifodalashga undaladi.

O'zbek diskursida esa verbal muloqot ko'proq bilvosita va nozik shaklda namoyon bo'ladi. Asrlar davomida shakllangan kollektivistik qadriyatlar, ierarxiyaga hurmat va ijtimoiy uyg'unlikni saqlash zarurati sababli o'zbek tilida evfemizmlar, maqollar va muloyim nutq konstruktsiyalari keng qo'llaniladi. Masalan, so'rovni rad etishda o'zbek tilida so'zlashuvchi shaxs to'g'ridan-to'g'ri "yo'q" deyishdan qochib, afsus bildirishi, uchinchi shaxsga ishora qilishi yoki muqobil sabab keltirishi mumkin. Bu holat yuzni saqlash va ziddiyatdan qochish madaniy ehtiyojini aks ettiradi.

Noverbal muloqot so‘zsiz amalga oshiriladigan barcha kommunikativ vositalarni o‘z ichiga oladi. Bunga yuz ifodalari, imo-ishoralar, tana holati, ko‘z bilan aloqa, shaxsiy masofa (proksemika), teginish (haptika) hamda intonatsiya, ohang, balandlik kabi paralingvistik belgilar kiradi. Ushbu belgilar hissiy holatni ifodalash, suhbatni boshqarish va verbal xabarni kuchaytirish yoki unga zid ma’no yuklashda muhim rol o‘ynaydi.

Ingliz diskursida noverbal ifodaning muhim shakllaridan biri intonatsiya va ko‘z bilan aloqadir. Ingliz tilida so‘zlashuvchi madaniyatlarda ko‘zga tik qarash ishonch va samimiylik belgisi sifatida baholanadi, ko‘zdan qochish esa yashirinlik yoki ishonchsizlik belgisi sifatida qabul qilinishi mumkin. Imo-ishoralar nisbatan cheklangan bo‘lsa-da, yuz ifodalari faol ishlatiladi. Intonatsiya esa kinoya, istehzo yoki hissiy kuchlanishni ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek noverbal muloqoti esa madaniy jihatdan o‘ziga xos elementlarga ega. Ko‘plab ijtimoiy vaziyatlarda, ayniqsa kattalar yoki rahbarlar bilan muloqotda uzoq vaqt tik qarash hurmatsizlik deb baholanadi. Boshni egish, qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish minnatdorchilik va hurmat ifodasidir. Bir jins vakillari o‘rtasida jismoniy aloqa do‘stlik va birdamlikni bildirsa, qarama-qarshi jinslar o‘rtasida jamoat joylarida bunga ehtiyotkorlik bilan qaraladi.

Verbal va noverbal elementlar kesishadigan muhim sohalardan biri sukunatdir. Ingliz diskursida sukunat ko‘pincha noqulaylik yoki muloqot uzilishi sifatida qabul qilinadi. Shu sababli ingliz tilida so‘zlashuvchilar sukutni mayda suhbat yoki o‘tish iboralari bilan to‘ldirishga intiladi. O‘zbek diskursida esa sukunat turli ma’nolarni anglatishi mumkin: hurmat, mulohaza, norozilik yoki itoat. Savolga javob berishdan oldingi sukunat bilim yetishmasligi emas, balki fikrni puxta o‘ylash belgisi hisoblanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida muloqot madaniyati ham til tizimi, ham ijtimoiy qadriyatlarga tayangan holda shakllanadi. Ingliz tilida rasmiy murojaat vositalari nisbatan cheklangan bo‘lib, asosan Mr., Sir kabi birliklardan foydalaniladi. O‘zbek tilida esa nutq registri ancha boy bo‘lib, murojaat shakllari suhbatdoshning yoshi, ijtimoiy mavqei, yaqinlik darajasi va munosabatlar rasmiy yoki norasmiy ekaniga qarab o‘zgaradi. Masalan, “siz” va “sen” olmoshlarining tanlanishi, shuningdek, fe’l shakllari orqali hurmat, masofa yoki samimiylik ifodalanadi. Bu jarayon ko‘pincha noverbal harakatlar — imo–ishora, tana tili, ko‘z qarashi bilan uyg‘unlashadi va muloqot mazmunini yanada boyitadi.

Muloqot davomida rad javobi berish ham ikki madaniyatda turlicha talqin qilinadi. Ingliz nutqida rad ko‘pincha qisqa va aniq shaklda ifodalanadi: “I can’t join the meeting today.” O‘zbek tilida esa odatda uzr so‘rash va yumshatuvchi birliklar qo‘shilib, ijtimoiy muvozanat saqlanishiga e’tibor qaratiladi. Qarama-qarshi fikr bildirishda ham farq yaqqol seziladi. Ingliz diskursida to‘g‘ridan-to‘g‘ri norozilik ifodalanishi tabiiy sanalsa, o‘zbek an’analarida muloyim ohang va ehtiyotkorlik ustun turadi. Shuningdek, so‘rov bildirishda ingliz tilida bevosita shakl qo‘llanilsa, o‘zbek tilida hurmatni ifodalovchi grammatik vositalar orqali rasmiy va yumshoq ohang saqlanadi: “Shu masalada yordam bera olasizmi?” kabi.

Noverbal muloqot ham madaniyatga ko‘ra turlicha ma’no kasb etadi. Ingliz tilida suhbat davomida ko‘zga tik qarash ishonch va ochiqlik belgisi bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida katta yoshdagilar bilan gaplashganda ko‘zni pastga qaratish hurmat alomati sanaladi. Imo–ishoralar ham mazmunning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Inglizlarda boshni qimirlatish odatda rozilikni tasdiqlash vazifasini bajarsa, o‘zbeklarda qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish minnatdorchilik, hurmat va samimiyatning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Sukut ham ikki madaniyatda turlicha talqin qilinadi: ingliz diskursida u ko‘pincha noqulaylik yoki muloqot uzilishining belgisi bo‘lsa, o‘zbek an’analarida sukut fikrni jamlash, mulohaza qilish va hurmat ko‘rsatishning tabiiy unsuri hisoblanadi.

Umuman olganda, nutq registri va murojaat shakllari ikki til muloqotining eng asosiy farqlaridan biridir. Inglizcha “You are welcome” kabi iboralar mazmunni ifodalashda neytral vosita bo‘lsa, o‘zbek tilida shu mazmundagi javob ko‘pincha grammatik jihatdan yanada keng va hurmat ohangida shakllanadi. Shu bois ingliz va o‘zbek tillaridagi kommunikativ xulq-atvorni qiyosiy o‘rganish nafaqat tilning ichki qurilishini, balki xalqning ijtimoiy madaniyatini anglashga ham xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jahon va o‘zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar verbal va noverbal muloqotning madaniy jihatdan qat’iy farqlanishini ilmiy asosda yoritib beradi. Ushbu izlanishlar muloqotni faqat lingvistik birliklar orqali emas, balki imo-ishoralar, mimika, tana harakati,

nutq ohangi, masofa va sukut kabi noverbal vositalar bilan birgalikda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, madaniyatlararo muloqot jarayonida pragmatik omillarni hisobga olmaslik noto‘g‘ri talqinlar, kommunikativ muvaffaqiyatsizliklar va madaniy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, tilshunoslikda diskursni yaxlit kommunikativ hodisa sifatida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Verbal va noverbal nutq diskursning o‘zaro uzviy bog‘liq tarkibiy qismlari bo‘lib, ular har bir madaniyatda o‘ziga xos kommunikativ strategiyalar orqali namoyon bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek muloqot amaliyotlari tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy tuzilma, axloqiy me’yorlar hamda madaniy qadriyatlar asosida shakllangan turli dunyoqarashlarni aks ettiradi. Ingliz diskursida bevosita fikr bildirish, shaxsiy pozitsiyani ochiq ifodalash va individual mas’uliyatni ta’kidlash ustuvor bo‘lsa, o‘zbek diskursida suhbatdoshga hurmat ko‘rsatish, bilvosita ifoda, muloyimlik strategiyalari va ijtimoiy uyg‘unlikni saqlash muhim o‘rin tutadi. Bu holat, ayniqsa, murojaat shakllari, iltimos va rad etish strategiyalari hamda bahs-munozara jarayonlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, ingliz va o‘zbek diskurslarining qiyosiy tahlili verbal va noverbal muloqot vositalarining madaniy xususiyatlarini chuqurroq anglashga imkon beradi. Bu esa nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjima, chet tillarni o‘qitish, madaniyatlararo kommunikatsiya va diplomatik muloqot kabi amaliy sohalar uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Natijada, madaniyatlararo muloqotda samaradorlikni oshirish uchun til bilan bir qatorda, madaniy kodlar va noverbal belgilarni to‘g‘ri talqin qilish zarurligi yana bir bor tasdiqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford: Oxford University Press, 1962. - 167 p.
2. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969. - 203 p.
3. Brown, P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. - 345 p.
4. Birdwhistell, R.L. Kinesics and Context: Essays on Body Motion Communication. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970. - 338 p.
5. Mehrabian, A. Silent Messages. Belmont, CA: Wadsworth Publishing Company, 1971. - 152 p.
6. Hall, E. T. Beyond Culture. New York: Anchor Books (Doubleday), 1976. - 320 p.
7. Hofstede, G. Culture’s Consequences: International Differences in Work-Related Values. Beverly Hills, CA: Sage Publications, 1980. - 328 p.
8. Tannen, D. Conversational Style: Analyzing Talk among Friends. Norwood, NJ: Ablex Publishing Corporation, 1984. - 220 p.
9. Van Dijk, T. A. Discourse and Power. New York: Palgrave Macmillan, 2008. - 308 p.
10. Karimov, A. O‘zbek nutq madaniyati. Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. - 240 bet.
11. Mahmudov, N. Til va nutq. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2006. - 192 bet.
12. Rahmatullayev, Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2009. - 384 bet.
13. Yo‘ldoshev, M. Matn lingvistikasi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2010. - 208 bet.

Bobokalonov Po'lotshoh Ramazonovich
Osiyo xalqaro universiteti doktoranti
filolofiya fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD)

KOMMUNIKATIV INTENSIYA, MULOQOT VA NUTQIY JOZIBADORLIK

Annotatsiya. *Ilmiy maqolada kommunikativ intensiyaning nazariy masalalari, muloqotni tashkil etish omillari va nutqiy jozibadorligini ta'minlashda neyropsixolingvistik holatlarni o'rganish hamda ularga ishora berib o'tish ko'zlangan. Mazkur ish olib borilayotgan tadqiqot bilan hamohang lisoniy shaxsning nutqiy konfiguratsiyasi muammolarini o'rganishga xizmat qiladi.*
Kalit so'zlar: *intensiya, maqsad, niyat, xabar, OAV, illokatsiya va perlokatsiya.*

COMMUNICATIVE INTENTION, INTERACTION, AND SPEECH ATTRACTIVENESS

Abstract. *The scientific article aims to study and indicate the theoretical issues of communicative intention, factors of communication organization and neuropsycholinguistic conditions in ensuring speech attractiveness. This work, in line with the ongoing research, serves to study the problems of speech configuration of a linguistic person.*
Key words: *intention, goal, intention, message, media, illocution and perlocation.*

КОММУНИКАТИВНАЯ ИНТЕНЦИЯ, ОБЩЕНИЕ И РЕЧЕВАЯ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ

Аннотация. *В научной статье рассматриваются теоретические вопросы коммуникативной интенции, факторы организации общения, а также нейропсихолингвистические состояния, обеспечивающие речевую выразительность и привлекательность, с указанием и акцентированием внимания на них. Данная работа соотносится с проводимым исследованием и направлена на изучение проблем речевой конфигурации языковой личности.*
Ключевые слова: *интенция, цель, намерение, сообщение, СМИ, иллокуция, перлокуция.*

Kirish. Kommunikativ intensiya, ya'ni muloqot niyati, bu so'zlovchining nimanidir ifodalashi, tasvirlashi, o'z qarorini ko'rsatishi va tinglovchi e'tiborini jalb qilish xohishi bo'lib, miyada tuzilgan, umumlashtirilgan, aniqlashtirilgan qisqa va aniq jumladan iborat nutqiy hukmdir. Kommunikativ intensiya har bir lingvistik shaxsda neyropsixolingvistik holatni namoyon etish qobiliyatidir. Intensiya - bu iroda harakati bo'lib, uning yordamida shaxs yoki shaxslar guruhi biron bir faoliyat maqsadini yoki aralashuvga olib keladigan suhbat, disput, bahs-munozara, tortishuv, fors-major vaziyati yoki motivatsiya holatini aks ettiradi. Shunday qilib, aloqa strategiyasida to'rtta ajralmas bir-biri bilan bo'liq bo'lgan uyg'unlik namoyon bo'ladi. Bular: maqsad, niyat, xabar, OAV (ommaviy aloqa vositasi) yoki qo'llab-quvvatlovchi vositalar. Jon Ostin kommunikativ intensiyani nutqiy akt deb tushunadi. "So'zlash jarayonida qancha fikr bo'lsa, shuncha harakat sodir etiladi. Biz gapirish bilan ma'lum harakatlarni sodir etamiz. Harakatlarni sodir etish bilan esa mazmunni guruhlarga ajratamiz. Bular, albatta, yaxlit holda amalga oshiriladi. Nimanidir aytish bilan nimanidir bajaramiz, bunga tovushlar, so'z, qurilmalar, ma'lum mazmun va referensiyaga ega bo'lgan bayoniy ma'nolar kiradi".

Asosiy qism. Nutq akti nazariyasi Oksford faylasufi J.L.Ostin tomonidan "Qanday qilib so'zlar bilan ishlarni qilish kerak" asarida kiritilgan va amerikalik faylasuf Jon Searl tomonidan yanada rivojlantirilgan. Kommunikativ intensiya natijasida nutq harakati hosil bo'ladi. Nutq harakati nazariyasi pragmatikaning kichik sohasi bo'lib, so'zlarning nafaqat ma'lumotni taqdim etish, balki harakatlarni amalga oshirish uchun ham ishlatilishini o'rganadi. Kommunikativ intensiyani belgilash orqali lingvistik shaxs o'zgalarga ongli yoki ongsiz xabar yuboradi. Xabar (kod) tinglovchi tomonidan qabul qilinadi (dekodlanadi). Xabar mazmunidagi intensiyani tinglovchi idrok etadi yoki his qiladi.

Maqsad, niyat, xabar, OAV bilan uyg'un lingvistik belgilarni qanday shakllantirishni, qay darajada bayon qilishni bilish uchun, batafsil tushunish uchun, albatta, manbalarga murojaat qilishga

to’g’ri keladi. Bular hayotda turli ko’rinishlarda uchraydi. Masalan, badiiy adabiyotda muallif niyati asar materialida ko'zlangan madsadni va uni nima uchun yozganini aks etiradi. Hikoya, qissa va roman muallifining kommunikativ niyati hikoya qilishdir.

Shaxslararo muloqotning maqsadida odamlar xabarni yaxshi qabul qilishlari va uni tushunish uchun ma'lumotga ega bo’lishlari shartlanadi. Bu aloqa sharti shaxslar o'rtasida muloqot o'rnatish va ma'lumot almashish imkonini beradi. Kommunikativ intensiya talqin me'yorlarini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu esa, o'z navbatida, nutqning ma'nosini belgilaydi. Kommunikativ intensiyani lisoniy shaxs tomonidan harakatga kiritish uchun qabul qilingan qaror yoki ko’zlangan maqsadlarga erishish istagi deb ham tushunish mumkin. Misol uchun amalga oshirilgan mo’jmal qaror (intensiya)ga: «Men uning niyatini tushunmadim» yoki «Nima deyishga hayronman» tarzida javob chiqishi niyat, maqsad, xabarning informativ shakllanishi nafaqat tushunarsiz, balki e’tiroz bildirishning o’zgacha usuli ekanligini isbotlaydi. Kommunikativ intensiyada har doim so'z ishlatish nazarda tutilmaydi. U noverbal shaklda kodlanishi hoki aksincha knesik javob bilan yakun topishi mumkin. «– Ovqat yeysizmi? – so‘radi xotini. G‘ayrat bosh chayqadi» (A. Namozov. O‘zga sayyoralik, hajviya). Bunda G‘ayrat imo-ishora bilan javob qaytaradi. Tinglovchi nimani o'ylayotgani yoki his qilayotganini knesika yordamida ifodalashi, hattoki bu shunchaki oddiy termulib qarash bilan ham javob qilishi mumkin. Bu intensiyaning noverbal omili bo’lib xizmat qiladi.

Maqsad, niyat, xabar, OAV amaliyotiga intensiyani yuzaga chiqarish, bu voqelikka, mavjud holat yoki narsaga ongli ravishda energiya va turtki berishdir. Bularni aniq shakllantirish har bir insonning o’z imkoniyatiga bog’liq. Qo’yilgan savolga javob berish holati esa hukm chiqarmasdan diskursni nazorat qilishga qaratilgan bo’ladi. Kommunikativ intentiya uchun uchta omil muhimdir. Bular: voqelikni to’g’ri yoki noto’g’ri idrok etish, illokatsiya va perlokatsiya.

Voqelikni noto’g’ri yanglish idrok etish – illyuziya (lot. illusio – yanglish tasavvur, yanglishish) sezgi va idrokning muayyan qonunlari tufayli ro‘y beradigan holatdir. Narsa va hodisalarni yaxlit idrok qilish esa, ko‘pincha, kishida yanglish tasavvur hosil etadi. Pragmatik nuqtai nazardan aloqaning uchta komponenti ishtirok etadi: a) fraza – o’gzaki yoki yozma sintaktik ifoda bilan shakllangan idrok etilgan bayonotning semantik yoki to'g'ridan-to'g'ri ma'nosi; b) illokutsiya – so'zlovchining niyati, ya’ni kommunikativ intensiyasi va c) perlokatsiya – uning tinglovchi tomonidan qanday qabul qilinganlik darajasi.

Illokutsiya – nutqiy akt, nutqiy xulq, nutqiy harakat, nutqiy vaziyat, ya’ni so'zlovchining niyatini yuzaga chiqaradigan nutqiy mahsulot bo’lsa, perlokatsiya - tinglovchi tomonidan qabul qilingan nutq mahsulotiga ehtiyojdir. So’zlovchining niyati yoki nutq mahsuloti quyidagicha ifodalanadi: «Men tez-tez tabassum qilishni rejalashtirmoqdaman. Men o'zimni (yoki boshqalarni) tinglash niyatidaman. Men o'zim va ehtiyojlarim haqida g'amxo'rlik qilmoqchiman. Men xayrixoh bo’lish yoki yordam berish niyatidaman». Kommunikativ intensiya xabarni yetkazish uchun imo-ishoralar, yuz ifodalari, og'zaki va/yoki yozma so'zlardan foydalanishdan iborat. Kommunikativ niyatning ikki turi mavjud:


1) ixtiyoriy intentionnal muloqot – og'zaki nutqni rivojlantirish uchun majburiy muloqot qilishning muhim sharti. Bu yerda neyro-vegetativ ko'rinishlar haqida gapirish, tana orqali ixtiyoriy muloqot qilish va ongli signallarni yuborish mumkin ;

2) ixtiyorsiz intentionnal muloqot – tushunish uchun niyatni yaxshi yetkazishda ba'zida o'z holatini his-tuyg'ular orqali beixtiyor namoyon etish. Boshqa signallar beixtiyor va hissiy bo'ladi. Masalan, it kim bo'lishidan qat'i nazar, egasidan boshqa odam bilan muloqot qilishni xohlamaydi. Ammo u boshqalar nima demoqchi va nima qilmoqchi ekanligini bilishni xohlaydi.

Perlokatsiya - niyatni belgilash, bu aniq maqsad yoki natija uchun aqliy yoki hissiy niyatni o’zida yaratish jarayoni. Bu o'z fikrlarini va energiyasini ongli ravishda istalgan natija yoki tajribaga erishishga sarflash ehtimolini oshiradi. Maktab yoshidagi bolaning ehtimoli: "*Men suv istayman, iltimos va rahmat! - Je veux de l’eau, s’il vous plaît et merci* !» Bu yerda ehtimolli muloqot muammoning markazida turadi. Bunda, rejalashtirish dasturi suv ichish ehtiyojini shakllantirish bosqichida. Kommunikativ munosabatning bilimdonlik darajasi yuqori ekanligini hisobga olish muloqot qilish imkonini beradi.

Ilmiy tahlil

Muloqot beshta asosiy maqsadga xizmat qiladi: ma'lumot berish, his-tuyg'ularni ifodalash, tasavvur qilish, ta'sir qilish va ijtimoiy umidlarni qondirish.



Ixtiyoriy muloqot - ma'lum bir maqsadda amalga oshiriladigan muloqot turi, masalan, ma'lumot berish, his-tuyg'ularni ifodalash, ta'sir qilish yoki ijtimoiy masalalarni hal qilish va qondirish. Bu turli xil maqsadli auditoriyaga moslashtirilgan yozish, gapirish va taqdim etish kabi turli xil aloqa shakllaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

«Muloqot, ya'ni matnni yaratish va talqin qilish, tushunish har qanday holatda ham ekstralingvistik omillar (aniq vaziyat, presuppozisiya, milliy madaniy an'ana) bilan shartlanadi. Muloqotda birlamchi semiotik tizimlar (fan tili, nota yozuvlari, o‘yin qoidalari, Morze alifbosi, kompyuter lingvistikasi) va ikkilamchi tana tili (pantomima, imo-ishoralar tizimi) hamrohlik qiladi. Muloqot tushunchasi “inson-kompyuter” tizimini yaratishda ham qo‘llaniladi.

Kommunikativ sintaksis, bu parsellasiya hodisasi – «parcelling», ya'ni jo‘natma, messaj, xabar, jumlaning yagona sintaktik tuzilishini bir nechta kommunikativ mustaqil birliklar – so‘z-gap va so‘z-gapsimon iboralar bilan og‘zaki va yozma ifodalash usulidir. Masalan, neytral taqdimotda: *"Il est parti pour ses études à Sorbonne."* Kommunikativ sintaksisda esa: *"Il est parti. Pour ses études. A Sorbonne.”* Jo‘natma (messaj) segmentlari inversiyaga ham duchor bo‘lishi mumkin: «*A Sorbonne. Pour ses études. Il est parti. Se matin.* ” Sintaktik tuzilmaning og‘zaki nutq tomonida intonasiya va boshqa yordamchi vositalar (jest, mimika), yozma nutqda grafik ko‘rsatkichlar – tinish belgilari bilan amalga oshiriladi».

Muloqotning asosiy maqsadi a) tasvir, b) mashhurlik va c) xulq-atvorni namoyon etishga qaratiladi. Muloqotda maqsad, niyat va jozibadorlik o'rtasidagi farq quyidagilarda namoyon bo’ladi:

1. Maqsad kelajakka e'tibor qaratishdir. U hozirgi vaqt miliga bog‘langan bo’ladi. Masalan, «Tushunish olish uchun vaqt ajrataylik» taklifi kabi. Maqsadga erishilmasa, tashqi yutuqlarga erishib bo’lmaydi. Maqsadni belgilab qo'yadigan aqliy moyillik, bu maqsadning o'zi: birovdan kechirim so'rash, va'da berish, buyruq berish, javob berish, shunchaki so'rash, shikoyat qilish, ogohlantirish, taklif qilish, rad etish va maqtash kabi harakatlar kiradi. Omma oldida nutq so'zlash - bu o'z auditoriyasini o'ziga jalb qilish, harakatga keltirish, ishontirish maqsadida ommaviy nutq so'zlash qobiliyatidir. Bu ko'nikma – so'zlovchining tinglovchilarini ko'ndirishga qaratilgan harakati. U o’ziga ovoz olish, olqishga sazovor bo’lish, nutq mahsulotini realizatsiya qilish maqsadini belgilaydi. O'z-o'zini amalga oshirishni, o’zini rag'batlantirish niyati namoyon etadi. Notiq o’z oldiga quyidagilarni maqsad qiladi: “*Men o'z iste'dodimni osongina va ishonch bilan namoyon etaman. Men o'z hayotiy missiyamni yaxshi amalga oshiraman. Mening kasbiy faoliyatim men uchun ham, boshqalar uchun*

ham quvonch manbai hisoblanadi. Men hayotimning yaratuvchisiman. Men o'zimning eng go'zal tomonlarimni ko'rsataman."

2. Niyat bu alohida yutuqni ko'zlashdir. Niyat, bu o'ziga va boshqalarga bo'lgan munosabat, aniq natijaga ega bo'lish uchun ma'lum bir daqiqada nima bo'lishni yoki his qilishni xohlashni tavsifidir.

Niyatning afzalligi shundaki, u inson hayotining deyarli barcha jabhalarida ijobiy o'zgarishlarga yo'l ochadi. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, niyatni ongli ravishda belgilash surunkali kasalliklar, xususan diabetni boshqarishda yordam beradi, chekish yoki ichish kabi zararli odatlardan voz kechishga ko'maklashadi, umumiy ruhiy salomatlikni mustahkamlaydi. Maqsad odatda natija bilan bog'liq holda baholansa, niyatning o'zi jarayon davomida nishonlanadi — inson o'zida ongli istak, ijobiy yo'nalish va kuchli ruhiy tayanch borligini his qiladi. "Biz barchamiz niyatlar yaratish, ularni rivojlantirish va nishonlash orqali ruhiy salomatligimizni yaxshilashga qodirmiz" degan g'oya ham shundan dalolat beradi.

Niyatni samarali qo'yish uchun to'rtta shart zarur: o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish, aniq niyatni tanlash, uni ifodalashda deklarativ tipdagi aniqlik kasb etgan gaplardan foydalanish va natija qaror topgach, ushbu niyatning muvaffaqiyatini albatta nishonlash. Ong har bir inson uchun eng qudratli manba bo'lib, u farovon hayot sari yo'l ko'rsatadigan ichki mexanizm vazifasini bajaradi. Ayniqsa yoshlar orasida sevgi, do'stlik va kelajak oilaga doir niyatlar alohida ohangda namoyon bo'ladi. "Men sevgimga osongina erishaman. U meni qabul qiladi, bunga o'zim ishonaman. Menda samimiy do'stlar bor. Men ularga ochiqman. Men sevadigan va meni sevadigan inson bilan turmush quraman" kabi iboralar niyatning shaxsiy e'tiqod bilan uyg'unlashgan shaklini ifodalaydi.

Ijobiy niyat ichki kompasga o'xshaydi: u insonning kundalik faoliyati, rejasi, loyihasi va hatto umri uchun yo'l xaritasini belgilaydi. Til tizimida maqsadni ifodalovchi ko'plab sinonim vositalar mavjud — yashirin yoki ochiq maqsad, hisob-kitob, qaror, xohish, loyiha, g'oya, motiv, fikr, reja, mayl, iroda, istak va qarash singari so'zlar hammasi ma'lum darajada maqsadlilikni anglatadi. Ammo niyat maqsadga qaraganda sodda, aniq, ishonarli va ochiq bo'lishi lozim. Shu bois niyatni tashqi nutqda bayon qilishda oddiy so'zlar, qisqa jumlalar va aniq ifodalar ishlatiladi. Niyat qilish faqat nimagadir erishish haqida o'ylash emas — ko'proq mulohaza, ko'proq ichki introspektiv jarayonni talab qiladi. Maqsad qat'iy qarorni bildirsa, jozibadorlik ehtiyotkorlik bilan harakatlarni amalga oshirishni ko'zlaydi.

Niyat amalga oshirish jarayonini ifodalasa, maqsad uning final natijasiga ishora qiladi, jozibadorlik esa o'zini namoyon etish istagi va qarorni anglatadi. Bularning barchasi neyropsix-olingvistik jarayonlarning turli qirralarini bir nuqtaga tutashtiradi. Shaxslararo muloqotning mohiyati — ma'lumotni yetkazish, tushuntirish, ishontirish, his-tuyg'ularni ifodalash, yoki ijtimoiy munosa-batni saqlashga xizmat qilishdan iborat.

Jozibadorlik esa insonning nutqi, xatti-harakati va energetikasi orqali birov xotirasida muhrlan-ishga intilishdir. Bunga erishishning bir necha yo'llari mavjud: niyatni yetkazishda ehtiyotkor bo'lish, gaplar bilan o'zni inkor etmaslik, o'zini qulay his ettiruvchi his–tuyg'ular haqida gapirish, va niyat-ning muvaffaqiyatiga ichki ishonchni saqlab turish. Jozibadorlik ko'pincha xarizmali shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, xarizmatik rahbar boshqa insonlardan ajralib turuvchi biroz biologik va psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi — ovoz diapazonining kengligi, hissiy holatlarning kuchi va ifodasi, vokalizatsiya, yuz ifodasi va tana holati shular jumlasidandir. Demak, jozibadorlik qonuni muloqotda kommunikativ intensivlikni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir niyat — bu alohida kommunikativ intensiya bo'lib, u harakat fe'llari orqali amalga oshadi. Bunda ma'lumot berish, tushuntirish, ishontirish, aytib berish, tavsiflash kabi nutq faoliyatlari niyatning tashqi ko'rinishidir. Ushbu intensiya avval inson ongida konstruktiv tarzda shakllanib olinishi lozim; faqat shundagina u o'ylangan, toblangan va avtomatlashtirilgan holda tashqi nutqqa ko'chadi. Kommunikativ intensiya — ufqqa chorlovchi ichki mayoq bo'lib, milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va estetik qarashlar uning ongli namoyon bo'lishiga zamin yara-tadi. Insonni ma'lum turdagi muloqotga undaydigan ham aynan shu ichki niyatdir — u axborot berish, ishontirish, ko'ngil ochish, his-tuyg'u ifodalash yoki ijtimoiy munosabatlarni saqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Austin J.L. How to Do Things With Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 2–174 b. – URL: https://silverbronzo.wordpress.com/pdf (murojaat sanasi ko‘rsatilishi tavsiya etiladi).

2. Audet J. A longitudinal study of the entrepreneurial intentions of university students // Academy of Entrepreneurship Journal. – 2004. – Vol. 10, No. 1–2. – P. 3–16.

3. Bobokalonov R.R. Nutqiy hosila, semiotik belgi, diskurs va neyropsixolingvistik holat. – Kishiniyov (Chișinău): GlobEdit, Moldova Respublikasi, 2023. – 223 b. – ISBN 978-620-0-64729-0.

4. Bobokalonov R.R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmali inson. – Kishiniyov (Chișinău): GlobEdit, Moldova Respublikasi, 2023. – 223 b. – ISBN 978-620-0-64878-5.

5. Boissin J.-P., Chollet B., Emin S. Explaining the intention to start a business among French students: a closer look at professional beliefs // In: Fayolle A. (Ed.). Handbook of Research in Entrepreneurship Education. – Vol. 2. – Cheltenham Glos (UK): Edward Elgar, 2007. – Chap. 17. – P. 266–281.

6. Emin S. L’intention de créer une entreprise des chercheurs publics: le cas français: Dissertation (Doctoral). – Grenoble: Université Pierre Mendès France, 2003. – URL: http://asso.nord-net.fr/.pdf (nashr ko‘rsatilmagan).

7. Tounès A. L’intention entrepreneuriale: Une étude comparative entre des étudiants d’écoles de management et gestion suivant des programmes ou des formations en entrepreneuriat et des étudiants en DESS CAAE: Dissertation (Doctoral). – Rouen: Université de Rouen, 2003.

8. Boissin J.-P., Chollet B., Emin S. Les déterminants de l’intention de créer une entreprise chez les étudiants: un test empirique. – Grenoble: Université Pierre Mendès France, 2023.

9. Tkachev A., Kolvereid L. Self-employment intentions among Russian students // Entrepreneurship and Regional Development. – 1999. – No. 11. – P. 269–280.

Kurbanova Nargiza Abdisoatovna
Qarshi davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti o‘qituvchisi

SHIFOKOR VA BEMOR MULOQOTIDA RITORIK SAVOLLAR VA METAFORALARNING ROLI (INGLIZ VA O‘ZBEK NUTQIDA TAQQOSIY TAHLIL)

Annotatsiya. *Ushbu maqola shifokor va bemor muloqotida ritorik savollar hamda metaforalarning kommunikativ-funksional vazifasini ingliz va o‘zbek tibbiy diskursi misolida tahlil qiladi. Tadqiqotda ushbu nutq vositalarining bemor ruhiy holatiga ta’siri, diagnostik ma’lumotni tushunarli yetkazishdagi o‘rni, shuningdek, shifokor-bemor o‘rtasidagi ishonch va yaqinlikni mustahkamlashdagi funksiyasi yoritiladi. Ingliz tilidagi tibbiy kommunikatsiyada metaforalar ko‘proq murakkab jarayonlarni soddalashtirish va emotsional qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilsa, o‘zbek nutqida ular milliy-madaniy tasavvurlar bilan uyg‘un holda qo‘llanadi. Ritorik savollar esa ikkala diskursda bemor fikrini faollashtirish, suhbatni tabiiylashtirish va kommunikativ masofani kamaytirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot Lakoff va Johnsonning konseptual metafora nazariyasi hamda mahalliy tibbiy kommunikatsiya bo‘yicha izlanishlar asosida olib borilgan.*

Kalit so‘zlar: *ritorik savol, metafora, tibbiy kommunikatsiya, tibbiy diskurs, bemor psixologiyasi, kommunikativ strategiya.*

РОЛЬ РИТОРИЧЕСКИХ ВОПРОСОВ И МЕТАФОР В ДИАЛОГЕ ВРАЧА И ПАЦИЕНТА (СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ РЕЧИ)

Аннотация. *В статье рассматриваются коммуникативно-функциональные роли риторических вопросов и метафор во взаимодействии врача и пациента с сопоставлением английского и узбекского медицинского дискурса. В исследовании анализируется влияние этих речевых средств на эмоциональное состояние пациента, их значение в упрощении восприятия диагностической информации, а также в укреплении доверия и взаимодействия между собеседниками. В английской медицинской коммуникации метафоры чаще используются для объяснения сложных процессов и эмоциональной поддержки, тогда как в узбекском дискурсе они отражают национально-культурные представления. Риторические вопросы в обоих языках выполняют функции активизации мышления пациента, естествления диалога и сокращения коммуникативной дистанции. Теоретической основой служат концептуальная метафора Лакоффа и Джонсона и современные исследования по медицинской коммуникации в Узбекистане.*

Ключевые слова: *риторический вопрос, метафора, медицинская коммуникация, медицинский дискурс, психология пациента, коммуникативная стратегия.*

THE ROLE OF RHETORIC QUESTIONS AND METAPHORS IN DOCTOR-PATIENT DIALOGUE (A COMPARATIVE ANALYSIS IN ENGLISH AND UZBEKISTAN SPEECH)

Annotation. *This article examines the communicative and functional roles of rhetorical questions and metaphors in doctor–patient interaction, with a comparative focus on English and Uzbek medical discourse. The study analyzes how these discourse tools influence patients’ emotional states, facilitate the comprehension of diagnostic information, and strengthen trust and rapport between interlocutors. In English medical communication, metaphors often serve to simplify complex medical processes and provide emotional support, whereas in Uzbek discourse they frequently reflect national-cultural perceptions. Rhetorical questions, in both languages, function to activate the patient’s thinking, naturalize the conversation, and reduce communicative distance. The research is grounded in Lakoff and Johnson’s Conceptual Metaphor Theory as well as contemporary studies on medical communication in Uzbekistan.*

Key words: *rhetorical question, metaphor, medical communication, medical discourse, patient psychology, communicative strategy.*

Kirish. Tibbiy muloqot jarayonida shifokor nutqining ta’sirchanligi, bemor ruhiy holatini boshqarish va samarali diagnostika hamda davolash jarayonini tashkil etishda muhim o‘rin tutadi. Shifokorlar nutqida qo‘llaniladigan ritorik savollar va metaforalar esa bemor bilan o‘zaro ishonch, yaqinlik, tushunish hamda ijobiy psixologik muhit yaratishda ta’sirchan vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Aytish joizki, bu turdagi nutq birliklaridan foydalanish shifokor-bemor o‘rtasidagi muloqotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ular ayniqsa ruhiy, surunkali yoki og‘ir kasalliklarga chalingan bemorlar bilan ishlash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Tibbiy nutqda metaforalardan foydalanish bemorga murakkab tibbiy jarayonlarni sodda, hayotiy va tushunarli shaklda yetkazishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi *“You’re fighting the illness well”*, *“Your mind needs time to heal”*, yoki o‘zbek tilidagi *“Tanangiz kasallikka qarshi kurashyapti”*, *“Bu yo‘ldan birga o‘tamiz”* kabi metaforalar bemorda ruhiy ko‘tarinkilik, xavfsizlik va shifokorga ishonch hissini shakllantiradi. Shuningdek, ritorik savollar - *“Shunday emasmi?”, “O‘zingizni ancha yengilroq sezayapsizmi?”* kabi shakllar shifokor nutqida bemor bilan muloqotni faollashtirish, diqqatni jalb qilish va bemorni suhbatga jalb etish orqali kommunikativ jarayonni jonlantiradi.

Ingliz shifokorlarining amaliyotida metafora va ritorik savollardan foydalanish bemorning psixologik holatini yumshatish, diagnostik jarayonni yengillashtirish va emotsional qo‘llab-quvvatlashda faol qo‘llaniladi. Masalan, *“You look stronger today”, “Are we ready to take the next step?”* kabi iboralar bemorga dalda berish, motivatsiya uyg‘otish va suhbatni yumshoq tarzda yo‘naltirishda xizmat qiladi. O‘zbek tibbiy muloqotida esa nutqning milliy-madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq holda, muloyimlik, iltifot, ehtirom va tasalli metaforalari ko‘proq uchraydi: *“Ko‘nglingizni keng qiling”, “Inshaalloh, tuzalib ketasiz”, “Alloh qudrati bilan o‘nglanasiz”* kabi iboralar bemor ruhiyatini ko‘tarishga xizmat qiladi. Tibbiyot xodimlarining muloyim, e’tiborli va ehtiyotkor nutqi bemorlarning o‘z shifokoriga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Aksincha, nutqda qo‘pol munosabat, sovuqqonlik yoki noto‘g‘ri metaforalar keltirilishi bemorning ichki qarshiliklarini kuchaytirib, davolash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, ruhiy kasalliklarga chalingan bemorlar o‘ta sezgir bo‘lib, ular samimiyatni soxtalikdan tezda farqlay oladilar. Shu bois, shifokorning har bir savoli, tushuntirishi yoki metaforik ifodasi katta ehtiyotkorlik bilan tanlanishi lozim.

Tibbiy nutqning ilmiy-nazariy asoslari haqida amerikalik bioetika asoschisi Van Rensselaer Potter, rus psixiatri V. M. Bexterev, shuningdek, tilshunoslik va nutq nazariyasi sohasida izlanishlar olib borgan L. P. Yakubinskiy, V. V. Vinogradov, I. A. Boduen de Kurtene, A. M. Selishchev, B. A. Larin kabi olimlar muloqot madaniyati va kommunikativ kompetensiyaning tibbiy jarayondagi ahamiyatini ta’kidlab o‘tganlar. Zamonaviy lingvistika esa G. Lakoff, M. Johnson, J. Charteris-Black, E. Semino kabi tadqiqotchilar orqali metaforalar va ritorik vositalarning inson tafakkuridagi konseptual o‘rnini chuqur yoritib bermoqda. Shu o‘rinda, ingliz va o‘zbek tibbiy nutqida ritorik savollar hamda metaforalar qo‘llanilishining taqqosiy tahlili nafaqat lingvistik farqlarni, balki madaniy-milliy kommunikativ xususiyatlarni ham ochib berishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida bu vositalarning bemor ruhiyati, suhbatning samimiylik darajasi, shifokor-bemor o‘rtasidagi ishonch va davolash jarayonining samaradorligiga ta’siri o‘rganiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mashhur rus olimi V. M. Bexterevning “Agar vrachning birinchi suhbatidan so‘ng bemor o‘zini yengil his etmasa, u vrach emas” degan fikri tibbiy muloqotning asl mohiyatini ochib beradi. Chunki shifokor va bemor o‘rtasidagi ilk lingvopragmatik aloqa - aynan nutq, ovoz ohangi, metaforik tasvirlar va savollar orqali amalga oshadi. Shu bois, ushbu tadqiqotda tibbiy muloqotga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar ichida til, nutq va ritorik vositalarning shaxslararo kommunikativ tizimga integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon shifokor va bemor o‘rtasidagi ishonch, hurmat, emotsional yaqinlik va o‘zaro ta’sirning shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot metodologiyasi shifokor-bemor muloqotidagi ritorik savollar va metaforalarning qo‘llanish mexanizmlarini ochib berish hamda ularning kommunikativ-pragmatik ta’sirini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, muloqot jarayonining ijtimoiy, psixologik va lingvistik qatlamlari integratsion yon-

dashuv asosida tahlil qilindi. Bunda bemorning yoshi, jinsi, psixologik holati, kasallik turi, shifokorning kasbiy tajribasi kabi omillar nutqning tanlanishi va metafora hamda ritorik savollarning qo‘llanish darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlanadi.

Tahlil davomida ingliz va o‘zbek tibbiy muassasalarida qayd etilgan muloqot namunalaridan hamda shifokorlar suhbatlari yozuvlari, psixologik maslahat jarayonlari, ruhiy bemorlar bilan o‘tkazilgan klinik suhbatlar materiallaridan foydalanildi. Ayniqsa, ruhiy buzilishlar, toksikomaniya, alkogolizm va surunkali kasalliklarga chalingan bemorlar bilan olib borilgan muloqotlarda metaforalarning emotsional qo‘llab-quvvatlashdagi roli va ritorik savollarning bemorni suhbatga faol jalb etishdagi funksiyasi tahlil qilindi. Shuningdek, jinslararo muloqotning o‘ziga xosligi ham metodologik yondashuvda aks etadi. Masalan, ingliz tibbiy amaliyotida ayol shifokorlar ko‘proq yumshoq metaforalardan (“You are making great progress”, “Your mind needs some rest”), erkak shifokorlar esa motivatsion va qat’iy metaforalardan (“You’re strong enough to overcome this”) foydalanishi kuzatiladi. O‘zbek shifokorlarida esa milliy madaniyatga xos iltifot, tasalli va duoyi-tilak metaforalari har ikki jins nutqida ham keng uchraydi. Tadqiqotda komparativ tahlil, diskursiv-pragmatik tahlil, nutqiy aktlar tahlili, kontekstual yondashuv, hamda kontent tahlili usullaridan foydalanildi. Ingliz va o‘zbek tibbiy diskursidagi ritorik savollar (“Do you feel better?”, “Shunday emasmi?”) hamda metaforalar (“fight against illness”, “kasallikni yengib o‘tish”, “your body needs healing”)ning qo‘llanish chastotasi, semantik yuklamasi, emotsional-pragmatik funksiyalari hamda madaniy xususiyatlari qiyosiy o‘rganildi.

Metodologik yondashuvning asosini G. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasi, J. Searle nutq aktlari nazariyasi, J. Charteris-Blackning metafora pragmatikasi, o‘zbek tilshunosligining dialogik nutq bo‘yicha izlanishlari, shuningdek Yakubinskiy va Vinogradovning muloqot tizimi haqidagi ilmiy qarashlari tashkil etdi. Ushbu integratsion metodologiya shifokor va bemor o‘rtasida metafora va ritorik savollar yordamida shakllanadigan psixologik muvozanat, ishonch, qo‘llab-quvvatlash va emotsional barqarorlikning lingvistik asoslarini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Shifokor va bemor muloqotida metaforalar hamda ritorik savollarning qo‘llanilishi, eng avvalo, tashxisni yumshoq, tushunarli va ruhiy jihatdan bemorga yengilroq ko‘rinishda yetkazishga xizmat qiladi. Tibbiy terminlarning ko‘pchiligi oddiy bemor ongida qo‘rquv, xavotir va noaniqlik uyg‘otadi. Shu bois shifokor nutqida aynan shu holatni yumshatuvchi metaforik iboralar, perefrazalar, tasalli beruvchi ritorik savollar keng qo‘llanishi muhimdir. Ingliz va o‘zbek tibbiy amaliyotlari taqqoslanganda, har ikkala madaniyatda ham lingvopragmatik yumshoqlikka intilishning o‘xshash jihatlari mavjudligi kuzatildi.

Masalan, bemor qo‘rqib: *“Astma bo‘lib qolibmanmi?”* desa, tajribali o‘zbek shifokori bu terminning o‘zini qo‘llamay, uni yumshatuvchi metaforik perefraza bilan: “Sizda astmaga moyil bronxit bor” deya javob beradi. Bu yerda “bo‘lib qolish” kabi to‘satdan, keskinlik ifodalovchi fe’l o‘rniga kasallikning nisbatan yengilroq ko‘rinishini bildiruvchi ibora ishlatiladi. Natijada bemorda ruhiy yengillik paydo bo‘ladi, tashxisning og‘irligi sezilmaydi va bu kasallikka qarshi kurashishda motivatsiya uyg‘otadi. Xuddi shu kabi, ingliz shifokorlari ham tashxisni bemorga to‘g‘ri, ammo keskin bo‘lmagan shaklda yetkazishni afzal ko‘radilar. Masalan, *“You are experiencing a heart attack”* o‘rniga “You are having a heart episode”, *“cancer”* o‘rniga “a new growth”, *“hypertension”* o‘rniga “high pressure” kabi yumshoqroq, qo‘rqitmaydigan metaforalar qo‘llanadi. Ingliz tibbiy diskursida Styuardning “*Avoid announcing a terrible diagnosis at any cost*” degan fikri amaliyotda o‘z aksini topgan. Bu qarash o‘zbek tibbiy an’analariga ham yaqin: haqiqatni aytish kerak, ammo “butun haqiqatni emas”, balki bemorning ruhiy barqarorligini saqlab qoladigan ko‘rinishda.

Ritorik savollar esa muloqotning yumshoq kechishini ta’minlovchi muhim kommunikativ vosita sifatida maydonga chiqadi. Masalan, ingliz shifokorining *“Do you feel better today?”, “Are we making progress?”* kabi savollari ham tashxisni yumshatadi, ham bemorda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilayotgani haqidagi ishonchni mustahkamlaydi. O‘zbek shifokorlari nutqida esa *“Shunday qilamiz, to‘g‘rimi?”, “Kayfiyatingiz bir oz yaxshilanganmi?”* tarzidagi ritorik savollar bemorni suhbatga faol jalb qiladi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Metaforalarning qo‘llanishi, ayniqsa, ruhiy nosog‘lom, toksikoman, narkoman yoki depressiv bemorlar bilan muloqotda alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, *“kasallik bilan kurashmoq”, “o‘zini qo‘lga olmoq”, “tanani tinchlantirmoq”, “ichki kuchni tiklamoq”* kabi metaforalar bemorning kasallikni yengishdagi ichki motivatsiyasini

kuchaytiradi. Ingliz diskursida esa *"You are strong enough to overcome this", "Your mind needs some rest", "Let's fight this together"* kabi metaforik ifodalar keng qo'llanadi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tibbiy muloqotda qo'pol, keskin terminlardan foydalanish nafaqat bemorning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi, balki davolanish jarayonida ham qarshilik tug'dirishi mumkin. Aksincha, yumshoq perefrazalar, emotsional metaforalar va ijobiy ruhlantiruvchi ritorik savollar bemorning shifokorga bo'lgan ishonchini oshiradi, kasallikni yengishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi va davolanishning samaradorligini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot xodimi nutqidagi metaforalar va ritorik savollar - shunchaki til vositasi emas, balki davolashning psixologik komponenti, bemorni ruhiy qo'llab-quvvatlashning eng samarali usullaridan biridir. Ularning to'g'ri qo'llanishi shifokor-bemor o'rtasidagi ishonch ko'prigini mustahkamlaydi, tibbiy jarayonning ijobiy natija bilan yakunlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tibbiyot xodimlari nutqida ritorik savollar va metaforalar qo'llanishining o'ziga xosliklari aniqlab olindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bunday til birliklari shifokor–bemor muloqotida ishonchni mustahkamlash, bemorning ruhiy holatini yengillashtirish va kasallikka qarshi kurashishda motivatsiyani oshirishda muhim kommunikativ vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, erkak va ayol tibbiyot xodimlari nutqidagi farqlar, maqtov va dalda beruvchi ifodalar tanlanishi ham muloqot samaradorligiga ta'sir qilishi qayd etildi. Nutq madaniyati shifokorlar uchun nafaqat til birliklarini to'g'ri qo'llashni, balki axloqiy, me'yoriy va kommunikativ tamoyillarga amal qilishni ham talab etadi.

Xulosa qilib ytganda, tibbiyot xodimlari uchun muloqot madaniyati, empatiya, metaforik izohlar va motivatsion nutq bo'yicha amaliy treninglar tashkil etish, shuningdek, shifokor–bemor muloqotidagi lingvopragmatik vositalarni o'rgatishga qaratilgan metodik qo'llanmalar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Asqarova M. O'zbek tilida nutq etiketi va uning kommunikativ xususiyatlari. Toshkent: Fan, 2010. 180 b.

2.Cameron L., Maslen R. Metaphor Analysis: Research Practice in Applied Linguistics. London: Equinox, 2010. 320 p.

3.Heritage J., Maynard D. Communication in Medical Care. Cambridge: Cambridge University Press, 2006. 392 p.

4.Hojiev A. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2007. 224 b.

5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980. 242 p.

6. Matvaliyev V. Tibbiyot psixologiyasi, etikasi va deontologiyasi asoslari. Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 1991. 250 b.

7. Mishler E. The Discourse of Medicine: Dialectics of Medical Interviews. New Jersey: Ablex Publishing, 1984. 256 p.

8.Qosimov E. Yu. Shifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati. Toshkent, 2002. 98 b.

9.Qurbonova N. Tibbiyot xodimlari nutqining lingvopragmatik xususiyatlari. Qarshi: Qarshi DU nashriyoti, 2019. 150 b.

10.Sontag S. Illness as Metaphor. New York: Farrar, Straus and Giroux, 1978. 176 p.

11.Yo'ldosheva D. Shifokor va bemor muloqotida etik me'yorlar va nutq strategiyalari. Toshkent: TTA, 2021. 130 b.

12. Zokirxo'jayev Sh. Y., Solihov M. U. Shifokor va bemor: O'quv qo'llanma. Toshkent: Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, 2016. 200 b.

Raxmatullayev Sharofiddin Nematullayevich
Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi dotsenti,
Muhiddinov Zahriddin Mehriddinovich

Buxoro xalqaro universiteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi magistranti
E-mail:muhiddinovzahriddin53@gmail.com

PESHKU TUMANIDAGI BA’ZI MIKRO TOPONIMLAR TADQIQI HAQIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Peshku tumanida mikrotoponimlarning lingvistik hamda lingvokulturologik tadqiqiga oid mulohazalar bayon etilgan. Shu bilan birga, joy nomlari etimologiyasining aholi hayotidagi o’rni, uning nomlanish motivi, semantikasi haqidagi mulohazalar ilmiy manbalar asosida dalillangan.*

Kalit so‘zlar: *onomastika, toponimika, lingvokulturalogiya, lingvistika, antropologiya, etnolingvistika, etnomadaniyat.*

ON THE STUDY OF CERTAIN MICROTOPONYMS OF PESHKU DISTRICT

Annotation. *This article presents considerations on the linguistic and linguocultural study of microtoponyms in the Peshku district. At the same time, considerations on the role of the etymology of place names in the life of the population, the motive for their naming, and semantics are substantiated on the basis of scientific sources.*

Key words: *onomastics, toponymy, linguoculturalology, linguistics, anthropology, ethnolinguistics, ethnoculture.*

К ИССЛЕДОВАНИЮ НЕКОТОРЫХ МИКРОТОПОНИМОВ ПЕШКУНСКОГО РАЙОНА

Аннотация. *В статье представлены соображения по лингвистическому и лингвокультурологическому изучению микротопонимов Пешкунского района. При этом на основе научных источников обосновываются соображения о роли этимологии топонимов в жизни населения, мотивах их наименования и семантике.*

Ключевые слова: *ономастика, топонимия, лингвокультурология, языкознание, антропология, этнолингвистика, этнокультура.*

Toponimlar – bu xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va dunyoqarashining so‘zga aylangan timsolidir. Har bir joy nomi o‘zida o‘tmish izlarini,ajdodlar hayotini,tabiat manzarasini va xalq ruhiyatini aks ettiradi.Shuning uchun toponimlar nafaqat geografik belgilar,balki til boyligining,milliy tafakkurning bebaho durdonalaridir.Ular orqali biz yurtimiz tarixini,xalqning qadriyatlarini va o‘zligini his qilamiz. oponimlar - tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan onomastika fani doirasida o‘rganiladi. Ular faqatgina joy nomi emas, balki tilning tarixiy, leksik, fonetik va madaniy taraqqiyotini o‘zida mujassam etgan til yodgorliklari hisoblanadi.Tilshunoslik nuqtayi nazaridan toponimlar juda katta ahamiyatga ega.

Tarixiy ma’lumot manbai sifatida - toponimlar qadimiy xalqlarning joylashuvi, ko‘chish yo‘llari, madaniy aloqalari haqida ma’lumot beradi. Masalan, eski toponimlar orqali qaysi xalq qayerda yashaganini yoki qaysi tilda so‘zlashganini bilish mumkin.

Leksik va semantik jihatdan - toponimlar tildagi so‘z boyligini, ma’no o‘zgarishlarini, xalq tafakkuridagi tasavvurlarni ochib beradi. Ular ko‘pincha tabiat, hayvonot, o‘simlik dunyosi, tarixiy shaxslar yoki ijtimoiy voqealar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Fonetik va morfologik jihatdan - toponimlar tilning tovush tizimi va so‘z yasalish usullarini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “-tepa”, “-soy”, “-kent”, “-obod” kabi qo‘shimchalar o‘zbek tilidagi toponim yasovchi birliklardir. Madaniy va milliy identitet nuqtayi nazaridan - toponimlar xalqning o‘zligini saqlovchi omildir. Ular xalq ruhiyatini, urf-odatlarini, tarixini, hatto

e'tiqodini ifodalaydi. Masalan, "Mustaqillik maydoni", "Amir Temur xiyoboni" kabi toponimlar milliy g'urur va tarixiy xotirani ifodalaydi.

Toponimlar tilshunoslik uchun tirik tarixiy hujjat, xalq uchun esa ma'naviy merosdir. Ular orqali nafaqat geografik joy, balki tilning o'tmishi, buguni va kelajagi ham namoyon bo'ladi.

Degdavon – qishloq nomi. Degdavon so'zining kelib chiqishi aholining qarashicha, ikki qishloq orasida tepalik bo'lib, balandlik ustida masjid joylashgan. Bir masalada qishloqlar o'rtasida nizo kelib chiqadi va aholi bir kun ichida masjidni o'zlarining qishloq markaziga ko'chirib,tiklab keyingi kuni namoz o'qish uchun tayyor holga keltirishadi.Buni ko'rgan xalq: inson bolasining qo'lidan kelmaydigan ish, qurilishni devlar qilgan – degan farazni ilgari suradi.(Ya'ni,Devdovon – devlar yashaydigan hudud.)

Lekin aslida, "O'zbek tili toponimlarining izohli lug'ati"ga qaraydigan bo'lsak, Deg (forscha – qozon), dovon (turkiycha – tog' yoki tepalikning baland,ammo oshib o'tsa bo'ladigan qulay joy,oshuv) – degan ma'noni anglatgan.Bundan dalolat beradiki,o'lkada qozonchilik bilan shug'ullangan aholi istiqomat qilgan.

Axtachi – qishloq nomi. Mo'g'ulcha. 1) qadimgi o'zbek qabilalaridan biri; 2) qirg'iz-qipchoqlar urug'idan birining nomi; 3) qadimgi turk-mo'g'ul xalqlarida "ot tabibi" (sinchi), "otboqar", "sayis", "miroxur" degan ma'nolarni bildirgan. Bu joyda yashovchi aholi ot,ho'kizlarni bichib,yuvosh holga keltirgan va dala-dashtni haydagan.Qolaversa,yerlik xalq chorvani yaxshi tushungan,ko'pchilik qassobchilik bilan ham faoliyat yuritgan.Hozirda bu qishloq boshqa nom bilan yuritiladi.

Paxtaobod – qishloq nomi. Paxtachilik bilan shug'ullanadigan dehqonlarning qishlog'i. Bu atama SSSR davlati tashkil topgandan keyin muomalaga kiritilgan.

Sarichashma – qishloq nomi. Forscha "chashmaning boshi" degan ma'noni anglatadi. Qishloqda buloq bor. Rivoyatlarga ko'ra,chashmaning suvi ko'plab dardlarga davo bo'lgan,atrofidagi nam va loy tuproqdan esa bir necha teri kasalliklari shifo topgan.O'rta asrlarda bu manzilgohda nufuzli aholi vakillari:eshonlar,so'filar,tabiblar avlodi yashagan.Oldin qishloqda ko'l mavjud bo'lgan.Qishloq nomi esa Ko'li eshono (eshonning ko'li) deb atalgan. Atrofidagi xalqlar qishloq aholisini juda hurmat qilgan.Shaharcha vazifasini o'tagan.Chunki o'lkadagi aholi chorvador,dehqonlarga nisbatdan yuqori o'rinda turgan.Ular og'ir yumushlarni bajarmagan.Hozirda ko'l mavjud emas,lekin qishloqning quyi qismidagi ekin maydonlari pastlikda joylashgan.Bu esa oldin bu joyda suv toplangan ko'l borligidan dalolat beradi.Inqilob davriga kelib eshonlar bu joylardan ko'chib ketgan.

Saroycha – qishloq nomi.Atamaning kelib chiqishi asli Xorazmdan quvg'in qilingan saroyda yashagan odamlar shu joyga kelib istiqomat qilganligi va saroy aholisining bir qismi bo'lganligi uchun Saroycha nomi berilgan degan fikrlar ham mavjud.Lekin ilmiy dalillarga asoslanadigan bo'lsak, Saroy –o'zbeklar tarkibiga kirgan yirik qabilalar uyushmasi. Saroylar etnik birlashma sifatida XIV-XV asrlar davomida Dashti Qipchoqda shakllangan bo'lib, XVI asrda hozirgi O'zbekiston hududiga kelib joylashgan. Saroylarning kichik bir guruhi qozoqlarning Arg'in qabilasi tarkibida ham mavjud bo'lgan. 1924-1926-yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatida O'zbekiston hududida yashovchi saroylarning soni 50 mingdan ortiq bo'lib, ulardan 18 ming kishi Buxoro vohasida (Harqonrud, Vobkent daryo, Shahrud, Sultonravot, Poykend, Pirmait ariqlari bo'ylab), 20 ming kishi Karmana vohasida, Narpay va boshqa ariqlar bo'yida yashaganlar. Aholi maskani shu urug' nomiga borib taqaladi.

Boylarto'pi – qishloq nomi.Boylar yashaydigan joy.Savdogar boylar aholidan ajralib chiqib o'zlariga qulay bo'lgan yerda joylashgan.Keyinchalik kichik qishloq vujudga kelgan.Quloqlashtirish davrida ko'plab qishloq aholisi mulkdor bo'lganligi uchun surgun qilingan. Hozirda bu qishloq boshqa nom bilan yuritiladi.

Xayroxayre – qishloq nomi.Xayr – arabcha sadaqa,sidqidildan qilingan yordam,xayrli ish ma'nolarini anglatadi.Qishloq nomi Abdulkarim as-Sam'oniyning "Nasabnoma" (Al-Ansob)sida Xayroxare shaklida qayd etilgan. Xara,xare – forscha sotib olish ma'nosini anglatadi. Rivoyatlarga ko'ra,bir boy ehson tarqatish uchun muhtoj odam qidirib yo'lga chiqadi va ehtiyojmandroq bir oila

topadi.Shularga muruvvat ko‘rsataman desa,qishloq boylari: “Sening puling kerak emas,o‘zimiz yordam qilamiz” , – deyishadi. Buni eshitgan hojatbaror boy qishloq ahlidan saxovat qilishini sotib oladi.Bu aholi maskani o‘sha vaqtdan keyin Xayroxayre,ya’ni ehson,xayrni sotib olmoq ma’nosida qo‘llanilib kelingan.

Gulxalon – rivoyat qilinishicha,podshoh a’yonlari bilan qishloqlarni aylanib yurib shu qishloqqa kelib qoladi.Shunda devori past bir hovliga qarasa,yosh ayol kir yuvib o‘tirgan ekan.Ustida ko‘ylagi yirtiq,lekin chakkasiga gul qistirilgan. Shunda podshoh : “bular o‘zi kambag‘al bo‘lsa ham,gulni yaxshi ko‘rarkanda” , – degan emish.Shundan qishloq nomi “Gulixalon” bo‘lgan ekan.

Lekin bu haqiqatga yaqin emas.Chunki vaqt o‘tishi bilan joy nomlari buzib talaffuz qilinishi mumkin yoki aholi etnik qatlamining o‘zgarishlari,geografik tabiiy jihaddan yer relefining o‘zgarishlarini ko‘rsatish mumkin.Aslida “gul” – ko‘l, “xalon” – qal’ag‘on shaklida bo‘lgan bo‘lishi mumkin.Ya’ni qal’aliklarning ko‘li yoki “ko‘likalon” – ko‘l yonidagi qal’a,qo‘rg‘on ma’nosida.Buxoro xonligi davridagi qishloqlar ro‘yxatida (1920-yillar) qishloq nomi “Qumikalon” shaklida ro‘yxatga olingan va qishloqda 40 xo‘jalik yashagani ko‘rsatilgan.Oxirgi izoh haqiqatga yaqin.

Chalmagadoy – Turkiy (o‘zbek)larda chol so‘zi bilan boshlanadigan urug‘lar nomi anchagina.Chol-no‘g‘ay-qipchoq qabilasidan,ular Zarafshon vodiysida yashaganlar. Cholmang‘it(qo‘shma urug‘),Gadoy urug‘i ham bor.Demak,qishloq nomi 2 ta urug‘dan Cholmang‘it va Gadoy urug‘larning bir joyda yashashidan kelib chiqqan.Toponomiyada qo‘shma urug‘lardan tashkil topgan joy nomlari uchraydi. Qishloq aholisi joy nomini bir paytlar boshqa joydan ko‘chib kelib shu yerda chayla qurib yashagan urug‘ nomi bilan bog‘laydi.Ya’ni “Chaylagadoy” shaklida.Fikrimcha,oxirgi izoh haqiqatga yaqindek.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, toponimlar oddiygina geografik nomlar emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tafakkuri va ijtimoiy hayotini o‘zida mujassam etgan murakkab til birliklaridir. Peshku tumanida uchraydigan Degdavon, Axtachi, Paxtaobod, Sarichashma kabi qishloq nomlari misolida ham joy nomlarining xalq turmushi, kasb-kori, e’tiqodi, xo‘jalik faoliyati hamda tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xususan, Degdavon toponimi atrofida shakllangan xalqona rivoyatlar inson tafakkurida mifologik tasavvurlar qanday paydo bo‘lishini ko‘rsatsa, ilmiy-etimologik tahlil bu nomning fors va turkiy unsurlar asosida vujudga kelganini, ya’ni hududda hunarmandchilik, xususan qozonchilik rivojlanganini dalillaydi. Bu esa toponimlarning tarixiy haqiqatni saqlab qoluvchi muhim manba ekanini tasdiqlaydi.

Axtachi nomi orqali esa hudud aholisining chorvachilik, ot boqish, hayvonlarni parvarishlash kabi kasblar bilan shug‘ullangani, shuningdek, qabilaviy va etnik jarayonlar toponimik qatlamda aks etgani aniqlanadi. Mazkur toponim bugungi kunda o‘zgarib ketgan bo‘lsa-da, u tarixiy xotira sifatida ilmiy ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Paxtaobod toponimi esa nisbatan yangi davr mahsuli bo‘lib, XX asr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, xususan sovet davrida qishloq xo‘jaligining paxtachilikka yo‘naltirilgani bilan bevosita bog‘liq. Bu holat toponimlar zamon bilan hamnafas holda yangilanib borishini, lekin shu bilan birga ma’lum bir tarixiy bosqichning til yodgorligi sifatida saqlanib qolishini ko‘rsatadi.

Sarichashma qishlog‘i nomi esa tabiat manzarasi, suv manbalari, diniy-ma’naviy hayot va ijtimoiy tuzum bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Bu yerda buloq, ko‘l, eshonlar va so‘filar faoliyati haqidagi ma’lumotlar toponimning nafaqat lingvistik, balki madaniy-antropologik ahamiyatini ham ochib beradi. Qishloq nomining tarixiy o‘zgarishi hududda yuz bergan ijtimoiy siljishlar va siyosiy jarayonlarning tilga ta’sirini yaqqol aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Hamdamov, Sh. Peshku tarixi. – Buxoro, 2020. – 185 b.

2. Begmatov, E. A. O‘zbek ismlari ma’nosi: Izohli lug‘at. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 320 b.

3. Nafasov, T. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent, 2007. – 250 b.

4. Yo‘ldoshev, B. O‘zbek onomastika masalalari. – Samarqand, 2011. – 198 b.

5. Qirg‘izboyev, A. K., Mahmudov, N., Abdullayev, T. M. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2022. – 410 b.

Yusupova Nargiza
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti mustaqil izlanuvchisi

KREOLLASHUV FENOMENI VA JURNALISTIKA NAZARIYASIDAGI ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqola zamonaviy media makonida kreollashuv jarayonining nazariy va metodologik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Kreollashuv ommaviy kommunikatsiyada turli semiotik tizimlarning - til, tasvir, rang, dizayn, ovoz va harakatning yagona ma’no makonida birlashuvi sifatida talqin etiladi. Maqolada kreollashgan media matnlar jurnalistik diskursning yangi shakli sifatida ko‘rib chiqilib, ularning strukturaviy modeli, semantik qatlamlari hamda pragmatik funksiyalari tahlil qilinadi. Empirik material sifatida an’anaviy OAV, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlardagi media kontent namunalari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari kreollashuvning auditoriya idroki, interpretatsiya jarayonlari va axborotning manipulyativ imkoniyatlariga ta’sirini aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *kreollashgan media matn, semiotik tizimlar, multimodal diskurs, media makon, jurnalistik diskurs, vizual-semantik birlik, raqamli kommunikatsiya, interpretatsiya jarayoni.*

ФЕНОМЕН КРЕОЛИЗАЦИИ И ЕГО ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ В ЖУРНАЛИСТИКЕ

Аннотация. *Данная научная статья посвящена изучению теоретических и методологических аспектов процесса креолизации в современном медиапространстве. Креолизация в массовой коммуникации интерпретируется как объединение различных семиотических систем - языка, изображения cвета, дизайна, звука и движения - в едином смысловом пространстве. В статье креолизованные медиатексты рассматриваются как новая форма журналистского дискурса; анализируются их структурная модель, семантические уровни и прагматические функции. В качестве эмпирического материала исследуются образцы медиаконтента традиционных средств массовой информации, интернет-изданий и социальных сетей. Результаты исследования направлены на выявление влияния креолизации на восприятие аудитории, процессы интерпретации и манипулятивные возможности информации.*

Ключевые слова: *креолизованный медиатекст, семиотические системы, мультимодальный дискурс, медиапространство, журналистский дискурс, визуально-семантическое единство, цифровая коммуникация, процесс интерпретации.*

THE PHENOMENON OF CREOLATION AND ITS JOURNALISTIC THEORY

Annotation. *This research paper is devoted to the study of the theoretical and methodological aspects of the process of creolization in the modern media space. Creolization is interpreted in mass communication as the convergence of different semiotic systems ?? language, image, color, design, sound, and movement into a single meaningful space. The article considers creolized media texts as a new form of journalistic discourse, analyzing their structural model, semantic layers, and pragmatic functions. As empirical material, samples of media content in traditional media, online publications, and social media are studied. The results of the study serve to clarify the impact of creolation on audience perception, interpretation processes, and the manipulative capabilities of information.*

Key words*:it is the creole media text, the semiotic systems, the multimodal discourse, the media space, the journalistic discourse, the visual-semantic unity, the digital communication, the process of interpretation.*

Kirish. XXI asrda raqamli texnologiyalar va global axborot muhiti jadal rivojlanishi bilan ommaviy kommunikatsiya jarayonlari tom ma’noda transformatsiyaga uchrayapti. Axborot

standartlari va iste'mol uslublari o'zgargan sharoitda, ayniqsa, Z-avlod (1997–2012-yillarda tug'ilgan yoshlar) mediamatnlarni iste'mol qilishda anchagina o'ziga xosliklar ko'rsatmoqda. Bu avlod ishtirokida axborot mazmuni qisqa muddatli diqqatga mo'ljallangan, asosan vizual, dinamik va audiovizual shakllarda qabul qilinishi kuzatiladi. Shu bilan birga, mazkur tendensiya respublikaning raqamli madaniyati va kommunikatsiya muhitida ham keng tarqalmoqda. DataReportal (2025) ma'lumotlari O'zbekistonda internet va ijtimoiy tarmoqlarni faol ravishda foydalanuvchi yoshlar sonining tobora oshib borayotganligini tasdiqlaydi. Ijtimoiy media (Instagram, TikTok, YouTube) asosiy axborot manbai sifatida ustunlik qilayotgan bo'lsa, milliy telekanallar ham Z-avlod mehnat muhitini shakllantirishda muhim o'rin tutib, kreollashgan mediamatnlar hosil qilinmoqda.

Kreollashuv fenomeni - turli kommunikatsiya elementlari (verbal, vizual, audiovizual)ning uyg'unligi - Z-avlodning mediamatnlarini qabul qilishda muhim rol o'ynayapti, ammo bu jarayonning milliy kontekstida ilmiy tadqiq etilishi hanuz juda kam. Shu bois, kreollashuvning jurnalistik va mediakommunikativ funksiyalari, undagi elementlar ta'sirchanligini tahlil etish va milliy mediamatnlarga tatbiq etish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Kreollashuv hodisasi zamonaviy media va jurnalistika tadqiqotlarida tobora ko'proq e'tibor qozonayotgan ilmiy yo'nalishlardan biridir. Uning nazariy asoslari semiotika, kommunikativ lingvistika va media nazariyasiga tayangan holda shakllanadi. Jahon ilmida Sorokin, Tarasov, Chyorayanovskaya kabi olimlar kreollashuvni davlatlar kesimida emas, balki til va vizual komponentlarning uyg'unligiga asoslangan universal kommunikativ jarayon sifatida talqin etgan. Xalqaro izlanishlarda Z-avlodning raqamli axborot iste'moli, blogerlik fenomeni, vizual kommunikatsiya hamda TikTok kabi platformalarning ta'siri chuqur yoritilgan (Valkenburg & Piotrowski, 2017; Crystal Abidin, 2021; Danesi, 2017; Kaye va boshqalar, 2022). Shu bilan birga, O'zbekiston ilmiy maydonida kreollashuv asosan lingvistik omillar bilan izohlangan bo'lib, televideniye hamda ijtimoiy media kontentlarining integrativ, multimodal tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar hali yetarli darajada shakllanmagan.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, kreollashuv konsepsiyasini milliy jurnalistika nazariyasi tarkibiga kengroq tatbiq etish, mediamatnlarni semiotik va intermedial tahlilga asoslangan holda yangi modellar orqali anglash imkonini beradi. Milliy va xalqaro mediamatnlar o'rtasidagi umumiylik va farqlarni tadqiq etish mediakommunikatsiya fanida ilmiy integratsiyani kuchaytiradi, mediamatn janrlari va formatlari uchun yangi mezonlar ishlab chiqishga zamin yaratadi. Amaliy jihatdan esa, mazkur izlanish Z-avlodga yo'naltirilgan mediamatnlar yaratishda samarali usullar va kommunikativ mexanizmlarni aniqlashga yordam beradi, media savodxonligi va media ta'lim jarayonlariga xizmat qiladi hamda milliy media platformalarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Jurnalistika tadqiqotlarida kreollashuv ko'pincha media konvergensiyasi tushunchasi bilan birga talqin qilinadi. Henri Jenkinsning "Convergence Culture" (2006) asarida konvergensiya texnologiyalar birlashuvi emas, balki auditoriyaning yangi muloqot odati sifatida ta'riflanadi. Bu yondashuv kreollashgan formatlarning nega ta'sirchan ekanini izohlashga imkon beradi. Masalan, onlayn yangilik portallarida matnli xabar ko'pincha fotosurat, infografika, xarita, audio yoki qisqa video bilan birga taqdim etiladi. BBC News mobil versiyasida har bir xabar vizual element bilan yaxlitlangan bo'lib, bu o'quvchi tomonidan axborotning tezroq va chuqurroq qabul qilinishiga xizmat qiladi. Marsel Danesi (2017) esa bugungi yoshlar orasida emodji, mem va vizual belgilar "grafik savodxonlik" sifatida shakllanayotganini, matndan ko'ra obrazli muloqot kuchayib borayotganini qayd etadi. Bu jarayon jurnalistika oldiga yangi vazifalar — axborot yetkazishda vizual kodlar va kreollashgan shakllarning bosh omilga aylanishini keltirib chiqarmoqda.

Keng ma'noda "kreolizatsiya" atamasi tilshunoslikda ikki yoki undan ortiq tillarning aralashuvi natijasida yangi so'zlashuv tilining vujudga kelishini anglatadi. Bu jarayon piyjin tilning jamiyatning asosiy kommunikativ ehtiyojlarini qondirish bosqichiga ko'tarilib, navbatdagi avlodning ona tiliga aylanish holatini ham tasvirlaydi. Madaniy kontekstda kreollashuv esa tarqoq elementlardan yagona mazmun chiqishi, boshqa madaniyat qadriyatlari va ramzlarining o'zlashtirilishi jarayonini anglatadi.

Shu bois, kreollashuv fenomeni media matnlarda lingvistik, vizual va madaniy kodlarning birlashuvi orqali axborot yetkazishning kuchli vositasiga aylanadi. Uni o'rganish – Z-avlodning axborot iste'moli xususiyatlari, kontent tiplari, media ta'siri va jurnalistika nazariyasining yangi modellarini yaratish uchun zarur ilmiy asosni ta'minlaydi.

Tahlil va muhokama. Matnli muloqot kontekstida “Kreolizatsiyalangan matn” (shuningdek, semiotik jihatdan murakkablashgan matn deb ham ataladi) aralash, sinkretik tabiatga ega matn bo‘lib, unda turli xil kommunikativ diskurslar - verbal va ikonik (vizual) ishtirok etadi. Uning mavjudligi fakti shuni tasdiqlaydiki, bunday matnning teksturasi ikki nogomogen qismdan iborat: lisoniy/nutqiy va tabiiy tildan boshqa belgilar tizimiga mansub. “Polikod”, “videoverbal”, “izoverbal kompleks” va boshqa ko‘plab sinonimik atamalar mavjudligiga qaramay, “kreolizatsiyalangan matn” atamasi yetakchi tadqiqotchilarning ishlarida keng tarqalgan. [2]

Matnlarni faol vizuallashtirish badiiy muloqotning dolzarb strategiyasi va umumjahon adabiy tendensiyasidir. Bu o‘zgarish madaniy jarayonning barcha tarkibiy qismlarini vizuallashtirishning umumiy jarayoni, ilg‘or texnologiyalar va voqelikni idrok etishning o‘zgargan tamoyillari bilan bog‘liq.

Kreollashgan matnlar zamonaviy kommunikatsiya jarayonida bir qancha muhim funksiyalarni bajaruvchi multimodal birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday matnlar bir vaqtning o‘zida e’tiborni jalb qilish, ma’lumotni tezroq va samarali yetkazish hamda idrokni yengillashtirishga xizmat qiladi. Noverbal komponentlarning yuqori axborot sig‘imi va pragmatik salohiyati ularni matn mazmunini boyituvchi va qisqa shaklda ko‘proq ma'no ifodalovchi vosita sifatida qo‘llashga imkon beradi. Verbal va vizual vositalarning uyg‘unlashuvi esa auditoriyaning hissiy va ratsional ehtiyojlarini qamrab oladi — matn nafaqat ma’lumot beradi, balki unga nisbatan munosabat uyg‘otadi, o‘quvchini jarayonga jalb etadi.

Kreollashgan matnlarning yana bir vazifasi muallifning mavjudligi va o‘quvchi bilan bevosita aloqadorlik hissini yaratishdir. Vizual elementlar matnning “jonli nafasi”ni beradi, ijod jarayonining o‘ziga xosligini his ettiradi, o‘quvchiga mazmunga daxldorlik tuyg‘usini beradi. Bunday kommunikativ effekt bugungi mediatuzilmada ayniqsa muhim – auditoriyani faollashtirish, matnni qabul qilish jarayonini interaktiv holga keltirish talab etiladi. Vizual komponentlar shuningdek matnning ma’no maydonini kengaytiradi, og‘zaki ifodada bo‘sh qolgan ma’nolarni to‘ldiradi, hikoya xronotopini kengaytiradi va tasvir orqali matnning semantik chuqurligini oshiradi.

Adabiyot va media tadqiqotlari kreollashgan matnlarning ikki asosiy guruhini ajratadi. Birinchi guruhga muallifning bevosita qo‘li bilan yaratilgan grafika, rasmlar yoki eskizlar bilan boyitilgan matnlar kiradi. Ular ko‘pincha texnik nuqtayi nazardan sodda, ammo estetik jihatdan matnga tegishli bo‘lgan metastrukturani to‘ldiruvchi badiiy shakl sifatida xizmat qiladi. Tomas Pinchon, Donald Bartelmi, J. Danlivi, Fridrix Axlyaytner va Denis Osokin ijodi bunga misol bo‘la oladi. Ikkinchi guruhga esa tarixiy yodgorliklar, suratlar, gazeta va jurnal varaqalari kabi materiallar orqali matnning rekonstruksiya qilinishi kiradi. Umberto Ekoning “Qirolicha Loananing sirli alangasi” romani, Grisha Bruskinning turkum kitoblari, Margarit Dyuras va Andrey Makarevich ijodi bunga yorqin namunadir – bu matnlarda vizual material tarixiy xotira va badiiy tasvir orasida ko‘prik vazifasini bajaradi.

Ommaviy internet kommunikatsiyasi sharoitida kreollashuv yanada kengroq talqin qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi matnlar odatda qisqa verbal xabar va unga biriktirilgan vizual element – foto, gif, emoji, video, musiqiy fon yoki infografika bilan uyg‘unlashgan ko‘rinishga ega. Shuningdek, havolalar, giperhavolalar, shrift o‘lchami, rangi, satr uzunligi kabi paralingvistik vositalar matnning uzatilish samaradorligini oshiradi. Bunday postlarda verbal va noverbal belgilar o‘rtasida bevosita izohlovchi yoki assotsiativ aloqalar shakllanadi, tasvir ko‘pincha matn mazmunini oydinlashtiradi, matn esa vizual elementlarga semantik yo‘nalish beradi.

Shu tariqa, kreollashgan matn bugungi kommunikatsiya tizimining eng muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. U idrok jarayonini yengillashtiradi, ma’lumotni ko‘p qatlamli shaklda uzatadi, auditoriyani matnga faol jalb qiladi va media kontentning badiiy hamda funksional salohiyatini kengaytiradi.

Xulosa. Internetdagi zamonaviy mediamatnlar ratsional va emotsional xarakterdagi axborotni kreollashgan ko‘rinishda yetkazish orqali an’anaviy OAV imkoniyatlarini birlashtiradi. Verbal komponentni tasviriy vositalar tomonidan siqib chiqarish tendensiyasi kuzatilmoqda, bu vizual yo‘naltirilgan xizmatlarning mashhurligi oshishi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqotchilarning bashoratlariga ko‘ra, mediakommunikatsiyaning kelajagi kreollashgan matnning yangi turi - “sensotekst”ning paydo bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq. Matnning bu turi insonning hozirgacha qondirilmagan axborot ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib,

ayniqsa dunyoni sezgilar orqali idrok etuvchi kinestetiklar uchun muhimdir. Allaqachon masofadan turib taktil sezgilar, ta'm va hidni uzatish bo'yicha faol tajribalar o'tkazilmoqda va bu texnologiyalar, xususan, virtual o'yinlarda tijoratlashtirila boshlangan. Texnologiyalar takomillashib borgani sari "sensotekst" xuddi so'z yoki tasvir kabi odatiy holga aylanishi va insonning barcha axborot ehtiyojlarini to'liq qondirgan holda mediakommunikatsiyada mukammal uyg'unlikni ta'minlashi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Kress G., van Leeuwen T. Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication. – London: Arnold, 2001.
2. Назайкин А.Н. Медиатекст будущего – «сенсотекст» // Меди@льманах. – 2019.
3. Пономарева Е.В., Семьян Т.Ф. Креолизация как форма визуальной коммуникации в современной литературе // Новый филологический вестник. – 2017.
4. Креолизация // Словари и энциклопедии на Академике : [электронный ресурс]. – URL: https://dic.academic.ru (murojaat sanasi ko'rsatilishi tavsiya etiladi).
5. Поварницына М.В. Специфика креолизованных текстов в массовой интернет-коммуникации // Universum: филология и искусствоведение : электрон. научн. журн. – 2015. – № 6 (19). – URL: http://7universum.com/ru/philology/archive/item/2219.

Alimova Umida Raxmatillayevna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

XOTIN-QIZLARDA OILAVIY ZO'RAVONLIKDAN KEYINGI STRESSNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xotin-qizlarda oilaviy zo'ravonlik oqibatida yuzaga keladigan posttravmatik stress holatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Oilaviy zo'ravonlikning psixik holatga ta'siri, stressning namoyon bo'lish shakllari, ijtimoiy moslashuv jarayonidagi muammolar hamda psixologik yordam ko'rsatishning ahamiyati yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari zo'ravonlikka uchragan ayollar bilan ishlashda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zi: *oilaviy zo'ravonlik, posttravmatik stress, xotin-qizlar, ijtimoiy moslashuv, psixologik yordam, stress omillari.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОСТТРАВМАТИЧЕСКОГО СТРЕССА У ЖЕНЩИН, ПЕРЕЖИВШИХ СЕМЕЙНОЕ НАСИЛИЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются социально-психологические характеристики посттравматического стрессового расстройства у женщин, возникшего в результате домашнего насилия. Подчеркивается влияние домашнего насилия на психологическое состояние, формы стресса, проблемы в процессе социальной адаптации и важность оказания психологической поддержки. Результаты исследования указывают на необходимость комплексного подхода к работе с женщинами, пережившими насилие.*

Ключевые слова: *домашнее насилие, посттравматическое стрессовое расстройство, женщины, социальная адаптация, психологическая поддержка, стрессовые факторы.*

A SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF POST-TRAUMATIC STRESS IN WOMEN FOLLOWING DOMESTIC VIOLENCE

Abstract. *This article analyzes the socio-psychological characteristics of post-traumatic stress disorder in women resulting from domestic violence. It emphasizes the impact of domestic violence on psychological well-being, forms of stress, difficulties in the process of social adaptation, and the importance of providing psychological support. The results of the study indicate the need for a comprehensive approach to working with women who have experienced violence.*

Key words: *domestic violence, post-traumatic stress disorder, women, social adaptation, psychological support, stress factors.*

Kirish. Bugungi kunda oilaviy zo'ravonlik jamiyatning dolzarb ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan jismoniy, psixologik va iqtisodiy zo'ravonlik ularning ruhiy holatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy zo'ravonlikdan keyin yuzaga keladigan stress holatlari ko'pincha uzoq muddatli bo'lib, shaxsning ijtimoiy faoliyati, o'z-o'zini baholashi va jamiyatga moslashuv jarayonini izdan chiqaradi. Shu bois, mazkur masalaning ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilmiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy shaxs o'zi xohlamagan holda kuchli stress va depressiya rejimida yashaydi va unda muntazam ravishda asab zo'riqishi to'planib boradi. Ba'zi shaxslar atrofdagilarga baqirib bu holatdan oson chiqib ketadilar. Shunday ayollar borki, o'zlarining tarbiyasi kuchliligi va madaniyatliligi bilan hammasini ichlariga yutadilar va bu bilan salomatliklariga zarar qiladilar. Tibbiy nuqtai nazardan bunday vaziyatlarda janjal ko'tarish mumkin va kerak, etika nuqtai nazaridan esa teskarisi. Bundan kelib chiqadiki, shaxs o'zi vaziyatga qarab to'g'ri qaror qabul qilishi lozim.

His-tuyg'ularni tuyish odatda turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. G'azab, hasadgo'ylik ovqat hazm qilish a'zolarini jarohatlaydi, g'am-alam esa qandli diabet kasalligini

keltirib chiqaradi. Agar shaxs biron narsadan doimo qo‘rquvda yashasa uning qalqonsimon bezlari zahmat chekadi. Asabiy zo‘riqish, salbiy hayajonlar gipertoniyaga, yurak faoliyatining buzilishi va infarktga olib kelishi mumkin.

Psixologik stressning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar juda ko‘p va noaniq bo‘lib, ushbu o‘quv qo‘llanmasida ularning to‘liq ko‘rib chiqilishi mumkin emas. Keling, ba’zi bir muhim nuqtalarga e’tibor qarataylik: stressli hodisaning xarakteristikalari, shaxs tomonidan sodir bo‘lgan voqeani talqin qilish, o‘tmish tajribasining ta’siri, xabardorlik, shaxsning individual xususiyatlari vaziyatni idrok etish va javob berish usuli va boshqalar.

Stressli hodisa inson hayotidagi turlicha xususiyatlarga ega bo‘lgan psixologik jarayon bo‘lib, u chastotasi, ta’sir muddati, intensivligi va hissiy rangiga ko‘ra farqlanadi. Stressga sabab bo‘luvchi voqealar ayrim hollarda yakka hodisa sifatida yuzaga chiqsa, ba’zan vaqti-vaqti bilan takrorlanadi yoki bir-birini ta’qib qilib, “baxtsizliklar ketma-ketligi” sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’sir muddati esa qisqa muddatli, uzoq muddatli yoki surunkali shaklda kechishi mumkin. Qisqa muddatli stress odatda kundalik hayotdagi vazifalarni bajarishda yuzaga keladigan murakkabliklar bilan bog‘liq bo‘lsa, uzoq muddatli stress muhim hayotiy o‘zgarishlar – yashash sharoitining o‘zgarishi, majburiy ko‘chish, doimiy kasallik yoki mehnat jamoasidagi mojaro kabi holatlar natijasida paydo bo‘ladi. Surunkali stress esa uzoq vaqt davomida davom etuvchi va insonni ruhiy jihatdan charchatib qo‘yuvchi vaziyatlar – qashshoqlik, oilaviy mojarolar yoki doimiy ish yukining og‘irligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Stressning kuchi, ya’ni ta’sirning intensivligi ham har bir hodisada turlicha bo‘ladi. Masalan, yaqin insonning vafoti yoki hayotga xavf tug‘diruvchi hodisalar odatda professional vazifa bajarishdagi qiyinchiliklarga qaraganda ancha kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Stressli hodisalar hamisha salbiy bo‘lishi shart emas – turmush qurish, uy qurish, farzandli bo‘lish kabi ijobiy voqealar ham shaxsga chuqur hissiy ta’sir ko‘rsatadi va moslashishni talab qiladi.

Oilaviy zo‘ravonlik sharoitida yashayotgan xotin-qizlarda stressning o‘ziga xos belgilari kuzatiladi: doimiy xavotir, qo‘rquv, depressiv holatlar, uyqusizlik, hissiy beqarorlik, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi, aybdorlik va ojizlik hissi. Zo‘ravonlikdan keyingi davrda ko‘pincha post-travmatik stress buzilishi (PTSB) rivojlanadi – jabrlangan ayol travmatik voqealarni qayta-qayta xayolan boshdan kechiradi, ijtimoiy aloqalarga kirishdan qochadi, tez asabiylashadi va affektiv portlashlar namoyon bo‘ladi. Stress nafaqat psixik salomatlikni, balki ijtimoiy hayotni ham izdan chiqaradi: jamoadan chetlashish, munosabatlarga moslashishda qiyinchiliklar, mehnat faoliyatining pasayishi va qo‘llab-quvvatlash tizimlariga ishonchsizlik bunga misoldir. Ayrim jamiyatlarda zo‘ravonlikning yashirilishi stressning kuchayishiga, ayollarning psixologik reabilitatsiyasining murakkablashishiga sabab bo‘ladi.

Stressli vaziyatni sub’ektiv baholash ham muhim omil bo‘lib, bir xil voqea turli shaxslarda mutlaqo boshqa hissiy reaksiya uyg‘otishi mumkin. Masalan, ajralish bir inson uchun hayotining qulashi va qo‘llab-quvvatlovchi tayanchni yo‘qotish tajribasi bo‘lsa, boshqa birov uchun yangi hayot boshlash imkoniyati sifatida qabul qilinishi mumkin. Demak, stressorning ta’siri vaziyatga shaxsiy kognitiv yondashuv – ya’ni uni qanday talqin qilinishiga bog‘liq. Hayotiy tajriba bunday baholashda katta o‘rin tutadi: ba’zi odamlar o‘tmishda stressli vaziyatlarga duch kelgan bo‘lib, bu ularga kelajakda shunga o‘xshash holatlarga chidamli bo‘lishga yordam beradi, boshqalar esa zaiflik nuqtalariga ega bo‘lib, kichik stressorlar ham ularda kuchli ruhiy reaksiyalarni chaqirishi mumkin.

Stressga berilmaslik uchun insonning o‘z hissiyotlarini qanday boshqarishi ham ahamiyatga ega. Tadqiqotlarga ko‘ra, ko‘nglidagi alam va g‘azabni ichida saqlab yuradigan odamlarning yurak xurujiga chalinish xavfi, hissiyotlarini ochiq ifodalovchilarga nisbatan ikki baravar yuqori bo‘ladi. Stressni yengillashtirishning turli yo‘llari mavjud: jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish – zinadan yuqori qavatga tez ko‘tarilish, velosiped haydash, o‘tin yorish; salbiy kechinmalarni kulgu orqali ijobiyga aylantirish; yuzni sovuq suvda chayish va sovuq suv ichish; yoqtirgan kuyini tinglash orqali kayfiyatni yengillashtirish kabi usullar ruhiy zo‘riqishni kamaytiradi. Psixologlar jahl paytida sovuqqonlikni saqlash, tana faoliyatini ishga solish, ya’ni jismoniy faollikni oshirish ikki karra foydali ekanligini ta’kidlaydilar: bir tomondan agressiya chiqib ketadi, ikkinchi tomondan organizm tetiklashadi.

Zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga yordam ko‘rsatishda esa individual va guruhiy psixoterapiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini kuchaytirish, huquqiy va psixologik maslahatlar berish, stressni boshqarishga o‘rgatish muhimdir. Kompleks yondashuv stress oqibatlarini kamaytiradi, ayolning jamiyatdagi faol ishtirokini tiklaydi.

Shuningdek, odamning jamiyatda o‘z o‘rnini topolmasligi, atrofdagilar tomonidan qadrlanmasligi ham ruhiy tanazzulning boshlanish nuqtasiga aylanishi mumkin. O‘zini keraksiz deb bilish, hayotdan zavq olmaslik, yolg‘izlik va ma’naviy bo‘shlik hissi ba’zan joniga qasd qilish fikrlarini uyg‘otishi mumkin. Bunday fikr tug‘ilishi bilan inson o‘z ustida ishlash, ruhiy muvozanatni tiklashga harakat qilishi lozim. Hayotdagi kamchiliklar insoniyatga xos bo‘lib, ularni tan olish va tuzatish eng to‘g‘ri yo‘ldir. Oilaviy muhitda esa turmush o‘rtog‘ining ayolni farzandlar yoki begona odamlar oldida kamsitishi uning o‘zini qadrsiz his etishiga, chuqur stress va tushkunlikka olib kelishi mumkin. Optimist shaxslar bunday holatlarni yengilroq qabul qilsa, pessimist tabiatli ayollar uchun hatto kichik muammolar ham fojia sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ayol o‘zining kamchiliklarini tan olib, ularni tuzatish yo‘lini topa olishi, o‘ziga nisbatan hurmatni saqlashi va zarur paytda munosabatni ijobiy tomonga burishi muhimdir.

Shunday qilib, stressning shakllanishi va uning oqibatlari – bu shaxsning ichki resurslari, tajribasi va atrof-muhitning ta’siri bilan belgilanadigan murakkab psixologik jarayondir. Stressni to‘g‘ri boshqarish esa insonning ruhiy va jismoniy salomatligini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oilaviy zo‘ravonlik xotin-qizlarda chuqur psixologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Zo‘ravonlikdan keyingi stress shaxsning hayot sifatini pasaytirib, jamiyatga moslashuv jarayonini izdan chiqaradi. Ushbu muammoni bartaraf etishda psixologik yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va jamiyatda zo‘ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Stress – inson psixikasi va jismoniy salomatligiga ta’sir ko‘rsatadigan murakkab psixologik jarayon bo‘lib, uning kuchi va oqibatlari ko‘plab omillarga: voqeaning davomiyligi, chastotasi, intensivligi, shaxsiy tajriba, kognitiv baholash va ichki resurslarga bog‘liq. Stressni yengish mexanizmlari har bir shaxsda turlicha namoyon bo‘ladi: kimdir vaziyatni optimistik ruhda qabul qilib, moslashuvchan strategiyalarni ishga soladi, boshqalar esa tap-tayyor psixologik zaiflik nuqtalari bois kuchli salbiy reaksiya beradi. Ayniqsa oilaviy zo‘ravonlik sharoitida yashayotgan xotin-qizlar uchun stress – ruhiy va jismoniy salomatlik, ijtimoiy hayot va munosabatlarga bevosita tahdid tug‘diradigan omildir. Doimiy xavotir, depressiya, uyqusizlik, o‘ziga ishonchning pasayishi va ijtimoiy izolyatsiya kabi belgilar jabrlanuvchining hayot sifati va ijtimoiy faolligini keskin pasaytiradi.

Stressning xavfi shundaki, u vaqtida aniqlanmasa va to‘g‘ri yondashuv qo‘llanilmasa, surunkali shaklga o‘tib, shaxsning hayotiy energiyasini yemiradi. Shu bois stressni boshqarish – psixoterapiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, huquqiy yordam, jismoniy faollik, hissiyotlarni ifodalash va ularni ijobiyga aylantirish kabi kompleks yondashuvni talab qiladi. Inson o‘z hayotidagi voqealarning yagona boshqaruvchisi ekanini anglab, stressni “xavf” sifatida emas, balki o‘zgarishlar uchun imkoniyat sifatida qayta talqin qila olganida, ruhiy tiklanish jarayoni tezlashadi.

Umuman olganda, stressdan himoyalanish – bu faqat psixologik masala emas, balki ma’naviy, ijtimoiy va jismoniy jihatlarni o‘z ichiga olgan kompleks hayotiy strategiya bo‘lib, insonning o‘zini qadrlashi, atrofdagi munosabatlar sifati va jamiyatning qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Herman J.L. Trauma and Recovery. – New York, 1997.
2. World Health Organization. Violence against Women. – Geneva: WHO, 2021.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2019.
4. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.

Mamajonova Shoxista Kamoldinovna
Farg‘ona davlat universiteti, Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

O’SMIRLARDA ADDIKTIV XULQ SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smir yoshdagi shaxslar orasida addiktiv (tobe) xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘smirlarning addiktiv xulqiga ta’sir etuvchi shaxsiy va ijtimoiy omillar, xususan, internet, azart o‘yinlari, spirtli ichimliklar, oziq-ovqat va sevgi munosabatlariga tobelik kabi xulq turlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada V. Mendelevich, M. Drepa, E. I. Belinskaya, A. Abolonin, Y. Naximov kabi olimlarning qarashlari tahlil qilinib, o‘smirlik davrida tobelik xulqining shakllanish mexanizmlari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda V. G. Lozovaya tomonidan ishlab chiqilgan “Tobe xulqni aniqlash” metodikasi asosida o‘smirlarning turli tobelik turlariga moyilligi o‘rganilgan. Maqolada addiktiv xulqning shakllanishiga oilaviy muhit, tengdoshlar ta’siri, shaxsning emotsional barqarorligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov va axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi kabi omillarning ta’siri yoritilgan. Shuningdek, addiktiv xulqni kamaytirishda psixologik profilaktika va korreksion yondashuvlarning ahamiyati ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar. *o‘smirlik davri, addiktiv xulq, tobelik, ijtimoiy-psixologik omillar, internetga qaramlik, azart o‘yinlari, spirtli ichimliklar, emotsional holat, shaxs rivojlanishi, ruhiy salomatlik, korreksion yondashuv, psixoprofilaktika.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ АДДИКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *В данной статье проанализированы социально-психологические факторы формирования аддиктивного (зависимого) поведения среди подростков. В исследовании рассматриваются личностные и социальные факторы, влияющие на аддиктивное поведение подростков, в частности такие его виды, как зависимость от интернета, азартных игр, алкогольных напитков, пищевого поведения и любовных отношений. В статье проанализированы взгляды таких ученых, как В. Менделевич, М. Дрепа, Е. И. Белинская, А. Аболонин, Ю. Нахимов, и на научной основе раскрыты механизмы формирования зависимого поведения в подростковом возрасте. В исследовании на основе методики «Диагностика аддиктивного поведения», разработанной В. Г. Лозовой, изучена склонность подростков к различным видам зависимостей. В статье также освещено влияние таких факторов, как семейная среда, влияние сверстников, эмоциональная устойчивость личности, социальная поддержка и уровень использования информационных технологий, на формирование аддиктивного поведения. Кроме того, подчеркивается значение психологической профилактики и коррекционных подходов в снижении аддиктивного поведения.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, аддиктивное поведение, зависимость, социально-психологические факторы, интернет-зависимость, азартные игры, алкоголь, эмоциональное состояние, развитие личности, психическое здоровье, коррекционные подходы, психопрофилактика.*

A SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF FACTORS CONTRIBUTING TO THE DEVELOPMENT OF ADDICTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS

Abstract. *This article analyzes the socio-psychological factors influencing the formation of addictive behavior among adolescents. The study examines personal and social factors affecting adolescent addictive behavior, including dependence on the internet, gambling, alcohol consumption, eating behavior, and romantic relationships. The views of scholars such as V. Mendelevich, M. Drepa, E. I. Belinskaya, A. Abolonin, and Y. Nakhimov are analyzed, and the mechanisms of the development of addictive behavior during adolescence are scientifically substantiated. Using the*

"Diagnosis of Addictive Behavior" methodology developed by V. G. Lozovaya, the study investigates adolescents' susceptibility to various types of addictions. The article highlights the influence of factors such as family environment, peer influence, emotional stability, social support, and the level of use of information technologies on the formation of addictive behavior. In addition, the importance of psychological prevention and corrective approaches in reducing addictive behavior is emphasized.

Key words: *adolescence, addictive behavior, addiction, socio-psychological factors, internet addiction, gambling, alcohol, emotional state, personality development, mental health, corrective approaches, psychoprevention.*

Kirish. Bugungi kunda o‘smirdagi addiktiv xulqni o‘rganish, ushbu xulqning oldini olishni samarali usullarini ishlab chiqish, ruhiy salomatlik muammolarini hal qilish, uzoq muddatli salbiy oqibatlarni sog‘liqni saqlashga oid ma’lumotlar bilan ota-onalar, pedagoglar hamda psixologlarni xabardor qilish zarurdir. Ushbu muammoga alohida e’tibor bergan holda ilmiy jihatdan o‘rganib, empirik tahlil qilish va tavsiyalar hamda korreksion dasturlar ishlab chiqish orqali biz yoshlarda addiktiv xulqning tarqalishi va ta’sirini kamaytirish imkoniga ega bo‘lamiz. Yuqoridagi muammolarni hisobga olgan holda tadqiqotimiz maqsadi sifatida o‘smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlashni belgilab oldik.

Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqadigan bo’lsak, “omil” so‘zi addiktiv xulq shakllanishiga hissa qo‘shishi yoki to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan turli xil o‘zgaruvchilar yoki shartlarga murojaat qilish uchun ishlatiladi. Bu o‘smirning xatti-harakatlariga ta’sir qiladigan individual yoki ijtimoiy jihat bo‘lib, omillar ham ijobiy, ham salbiy bo‘lishi mumkin. Quyida addiktiv xulqning kuchayishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillarga to‘xtalib o‘tamiz

V.Mendelevichning ta’kidlashicha, deviant xulq-atvorning addiktiv xulq shaklidagi bu turi o‘z manfaatlarini boshqa shaxs yoki guruh manfaatlariga bo‘ysundirish, shaxs uchun yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan muayyan ob’ektlar yoki faoliyatga doimiy e’tibor berishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, shaxsning avtonomiyasi va mustaqilligi pasayadi, xatti-harakatlarning o‘zini o‘zi boshqarishi yomonlashadi.

Internetga tobelikni M. Drepa rus va xorijiy tadqiqotlari natijalarini umumlashtirib, quyidagi shaxsning xususiyatlarni sanab o‘tadi: shizoid, isteriya, labil yoki epileptoid tipdagi aksentatsiya; jismoniy «men» ni qabul qilishda qiyinchilik; aloqaga yuqori ehtiyoj va uni darhol amalga oshirishda qiyinchiliklar mavjudligi; intellektuallashtirishga moyillik; o‘zaro tushunishning yetishmasligi hissi; hissiy kuchlanish; negativizmga moyillik; umidsiz ehtiyojlarning mavjudligi; ideal «men» haqidagi farqlanmagan, haddan tashqari oshirilgan g‘oyalar; javobgarlikdan qochishga moyillikning ortishi O. V. Zaretskayaning aniqlik kiritishicha, onlayn kompyuter o‘yinlariga tobe bo‘lgan o‘smirlarda kuzatiladi.

V.D.Mendelevich Internetga tobe o‘smirlar ruhiyatidagi salbiy o‘zgarishlarni quyidagicha izohlangan. Internetda o‘tkaziladigan vaqt o‘smirda izolyatsiya va yolg‘izlik hissi kuchayishi sabab ijtimoiy ko‘nikmalar va hissiy intellektni rivojlantirishi uchun muhim bo‘lgan atrofidagi insonlar bilan bo‘ladigan yuzma-yuz munosabatlarni e’tiborsiz qoldirishiga olib keladi. Real hayot bilan aloqaning kamligi xavotir va tushkunlik kayfiyatini kuchaytiradi. Internetdan muntazam ravishda tunda foydalanish uyqu siklining buzilishi, o‘smirda kun davomida kayfiyat va kognitiv funktsiyaga salbiy ta’sir qiladi. Shuni ta’kidlash joizki, onlayn faoliyatning davomiyligi ortib boruvchi impulsivlik va diqqatni jamlashda qiyinchiliklarga olib keladi.

O‘smirlardagi internetga tobelikni E.I. Belinskaya quyidagi ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog‘lab tushuntiradi.

1. O‘smirlar uchun internet jozibador bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muloqot platformasini taqdim etadi.

2. O‘smirlar ko‘p holatlarda Internetdan akademik bosim, oilaviy muammolar yoki tengdoshlar bilan munosabatlar o‘xshash stresslardan qochish vositasi sifatida foydalanadilar, bu esa yengish mexanizmi sifatida haddan tashqari foydalanishga olib keladi.

3. O‘smir tengdoshlar bilan moslashish yoki ular bilan birga qolish istagi o‘smirlarni ko‘proq vaqtini onlayn o tkazishga undashi mumkin, ayniqsa, do‘stlari ijtimoiy media yoki o‘yin o‘ynaydigan bo‘lsalar.

4. O‘zini past baholaydigan onlayn ma’qullanish istagida internetga murojaat qilishlari mumkin.

5. Onlayn o‘yin yutuqlaridan darhol mukofot olish imkonining mavjudligi.

6. O‘smirda rejalashtirilmagan ortiqcha vaqtning ko‘pligi.

7. Internetda mavjud bo‘lgan doimiy yangilanishlar va o‘zaro suhbatni o‘tkazib yuborish qo‘rquvi o‘smirlarni doimo aloqada bo‘lishga majbur qiladi.

8. Onlayn o‘yinlarning raqobatbardosh tabiati yutuqlar va reytinglarda muvaffaqiyat qozongan o‘smirlarni o‘ziga jalb qilishi mumkin, bu esa uzoq davom etadigan o‘yin seanslariga olib keladi.

A. Abolonin, I. Nazarova, N. Aslanbekovalarning kuzatishlariga ko‘ra kimyoviy addiktiv xulq mavjud bo‘lgan yigitlar xavotir, e’tibor va namoyishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi bilan ajralib turadi, qizlar esa aloqaga bo‘lgan ehtiyoj, tashvish, gipoxondrial va depressiv reaksiyalarga moyillik bilan ajralib turadi.

Giyohvandlikka tobe yoshlar guruhini o‘rgangan Y. Naximov va G. Romashkinalarning respondentlari giyohvand moddalarning kompensatsion funksiyasini ta’kidlab, uning iste’moli o‘smirlarning hissiy holatini yaxshilashga, qiyin hayotiy vaziyatlarni, noaniqlik va hozirgi vaziyatdan norozilikni yengishga imkon beradi. Shu bilan birga, internet makoniga borishning o‘zi ham yengish strategiyalaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Biroq shuni unutmasligimiz kerakki, internet muhiti bilan faol o‘zaro ta’sir nafaqat zamonaviy hayotning haqiqati, balki uning ajralmas talabi, shu jumladan, ta’limni internetlashtirish tendensiyalarining ortib borishi bilan o‘smirlar internet orqali o‘qituvchilar va boshqa o‘z tengdoshlari bilan aloqada bo‘lishga, ma’lumot qidirishga, o‘quv topshiriqlarini bajarish uchun hamkorlikda qatnashishga va hokazolarga majbur bo‘ladilar. Bu muhit o‘qituvchilarda psixologik muammolarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

O‘smirlardagi addiktiv xulq muammosi nafaqat tibbiy yoki axloqiy muammo, balki juda muhim ijtimoiy psixologik muammo hamdir, chunki o‘smirning ruhiy salomatligi alohida davlatning ham, insoniyatning ham salomatligi, xavfsizligi va genofondini saqlash bilan bog‘liq.

O‘smirlik davridagi addiktiv xulq - murakkab hodisa bo‘lib, turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin, jumladan, moddalarga qaramlik (spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar), texnologiyaga qaramlik (Internet, video o ‘yinlar) va boshqa turdagi tobelik (masalan, qimor o‘yinlari). O‘smirdagi ushbu xulqiy og‘ishlarning o‘siga xos mohiyatini aniqlash maqsadida V. G. Lozovaya tomonidan ishlab chiqilgan «Tobe xulqni aniqlash» testidan foydalandik. Metodika o‘ziga xos test bo‘lib, o‘smirlarning ijtimoiy tarmoqlarga, spirtli ichimliklarga, televizorga, sevgiga, azart o‘yinlarga, jinsiy munosabatlarga ehtiyoj, oziq-ovqatga, dinga, mehnatga, dori-darmonlarga, chekishga, sog‘lom turmush tarziga, narkotobelik, umumiy tobelikka moyillikni aniqlash imkonini beradi. Ushbu usul yordamida qo‘lga kiritilgan natijalar 680 o‘smirlar misolida tahlili quyidagi jadval orqali izohlab ko‘rsatiladi.

O‘smirlaarda «Tobe xulqni aniqlash» metodikasi natijalari, jinslar kesimida, (Student t mezoni n=680)

Tobelik turlari	O‘smirlar jinsi	n	o‘rtacha qiymat	stand. og‘ish	t
Spirtli ichimliklar iste’mol qilishga moyillik	o‘g‘il bolalar	216	6,75	2,98	2,24*
	Qizlar	464	6,27	2,38	
Televizor ko‘rishga tobelik	o‘g‘il bolalar	216	11,72	3,90	-0,75
	Qizlar	464	11,98	4,49	
Sevib, sevilishga ehtiyoj	o‘g‘il bolalar	216	12,68	5,15	0,14
	Qizlar	464	12,62	4,91	
Azart o‘yinlar o‘ynashga moyillik	o‘g‘il bolalar	216	7,46	2,96	2,20*
	Qizlar	464	6,93	2,89	
	o‘g‘il bolalar	216	12,31	4,86	-1,86

Oziq-ovqat iste'mol qilishga tobelik	Qizlar	464	13,09	5,24	
Kompyuterdan foydalanishga tobelik	o'g'il bolalar	216	9,42	3,79	2,62
	Qizlar	64	8,63	3,62	

*p ≤0,05;** p ≤0,01;*** p ≤0,001;

Spirtli ichimliklar iste'mol qilishga moyillik shkalasi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud (t=2,24; p≤0,05). Ushbu shkalada qizlarga nisbatan o'g'il bolalarda spirtli ichimliklar istemol qilishga moyillik ko'rsatkichi past natijani ko'rsatdi. Bunga sabab ijtimoiy omillar, madaniy me'yorlar va gender rollari spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga moyillikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Jamiyatimizda o'g'il bolalarning spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi mumkinligini stereotip sifatida qabul qilish o'g'il bolalarda spirtli ichimliklarga moyillik qizlarga nisbatan yuqori darajada ekanligini izohlaydi.

Azart o'yinlar o'ynashga moyillik shkalasi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi (t=2.20; p≤0.05). Ushbu shkalada qizlarga nisbatan o'g'il bolalarda azart o'yinlarga moyillik darajasi yuqori bo'lib, bunga sabab ijtimoiy gender steriotiolar, jumladan, an'anaviy gender rollari ko'pincha tavakkalchilik va raqobatbardoshlikni o'g'il bolalik bilan bog'laydi. O'smir yigitlar qizlardan farqli raqobatbaardoshlik, maqom muvaffaqiyatga alohida e'tibor berishadi. Azart o'yinlarida g'oliblarning jozibasini oson va qisqa vaqtda his qilish imkonini berganligi sababli o'g'il bolalarni azart o'yinlari bilan shug'ullanish ehtimolini oshiradi.

Navbatdagi televizor ko'rishga tobelik bo'yicha olingan natijalarda statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi (t=-0.75; p>0,05). Chunki televideniya ijtimoiy va iqtisodiy kelib chiqishidan qa'tiy nazar, o'smir yigitlar ham, qizlar ham foydalanishi mumkin bo'lgan ommaviy axborot vositalarining hamma joyda mavjud shakli bo'lib, uning oson mavjudligi, ayniqsa smartfonlar bilan bog'langan holda keng qo'llanilishi, ikkala jins ham televizor ko'rishga moyillikni rivojlantirish uchun teng imkoniyatlarga ega ekanligini anglatadi.

Sevib, sevilishga ehtiyoj shkalasi bo'yicha o'smir o'g'il bola va statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi (t=0,14; p>0,05). O'smirlik –bu gormonal o'zgarishlar va kuchli hissiy tajribalar, shiddatli hissiy va ijtimoiy rivojlanish davri bo'lib, hayotning ushbu bosqichida romantik munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Bu munosabatlar quyidagi ko'rinishlarda; vaqtinchalik munosabatlar, jismoniy yaqinlikka asoslangan sevgi, chuqurroq va mazmunli sevgi turi, emotsianal yaqinlik, ishoncha va sadoqatni o'z ichiga oladi. Bu munosabatlar o'smirlik shaxsiyatni shakllantirish uchun juda muhim bo'lib, o'g'il bolalar ham, qizlar ham boshqalar tomonidan tan olinish, tasdiqlash va qabul qilishga intiladi. Sevib, sevishga ehtiyoj, o'z-o'zini hyrmat qilish, bog'lanish uslubi va shaxsuy ruhiy tramva tarixi kabi ikkala jins uchun umumiy omillar asosida shakllanganligi bilan izohladik.

Oziq-ovqatga moyillik bo'yicha olingan natija (t=-1,86; p>0,05). O'g'il bolalar ham, qizlar ham o'xshash ijtimoiy-madaniy omillarda yashayotganliklari, ikkala jinsdagi o'smirlar stress, qayg'u yoki yolg'izlik bilan kurashish vositasi sifatida ovqatlanishdan foydalanishlari sababli o'smir qiz va o'g'il bolalarda statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'smirlik davrida tobelik yoki addiktiv xulq turli omillar ta'siri ostida shakllanadi va bu jarayon ijtimoiy, psixologik hamda madaniy jihatlarga bevosita bog'liqdir. O'tkazilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish va azart o'yinlariga moyillikda o'g'il bolalar ko'rsatkichlari qizlarga nisbatan yuqoriroq bo'lgan. Bu holat, bir tomondan, jamiyatdagi gender rollari, madaniy me'yorlar va ijtimoiy stereotiplarning ta'sirini aks ettiradi. O'g'il bolalarda mustaqillik, raqobatbardoshlik, tavakkalchilik va ijtimoiy maqomga erishish istagi kuchli bo'lgani uchun ular orasida tavakkalga asoslangan faoliyat turlariga, jumladan, spirtli ichimliklar iste'moli yoki azart o'yinlariga qiziqish ko'proq uchraydi.

Televizor ko'rishga tobelik, sevib-sevilishga ehtiyoj hamda oziq-ovqatga qaramlik bo'yicha esa sezilarli gender farqlari aniqlanmadi. Bu esa, hozirgi davrda o'smirlar yashayotgan ijtimoiy-madaniy muhitning o'xshashligi, axborot texnologiyalarining barcha uchun teng imkoniyat yaratgani va hissiy

ehtiyojlarning har ikki jinsda deyarli bir xil darajada namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi. O‘smirlar stress, yolg‘izlik yoki hissiy tanglik holatlarida ovqatlanish, media iste’moli yoki virtual muloqot kabi faoliyat turlaridan himoya mexanizmi sifatida foydalanishga moyil bo‘lmoqdalar.

O‘smirlik davri inson hayotining eng nozik, emotsional va ijtimoiy jihatdan murakkab bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda shaxsning o‘zini anglash, hissiy barqarorlikni saqlash, mustaqillik va ijtimoiy maqom izlash ehtiyoji kuchayadi. Shu sababli, tobelik xulqi ko‘p hollarda ichki kechinmalarni bartaraf etish yoki ruhiy bosimni kamaytirish vositasi sifatida paydo bo‘ladi. Ammo bu holat uzoq muddatda o‘smirning ruhiy salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va o‘zini boshqarish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan, o‘smirlar orasida addiktiv xulqning oldini olishda oilaviy muhit, pedagogik yondashuv, psixologik qo‘llab-quvvatlov va sog‘lom ijtimoiy munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning hamkorlikda olib boradigan profilaktik ishlari o‘smirlarning hissiy barqarorligini rivojlantirish, bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish, sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish orqali tobelik xulqining oldini olishda samarali natija beradi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davridagi tobelik xulqi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, uni kamaytirish uchun tizimli, kompleks yondashuv zarur. O‘smir shaxsining ijobiy o‘zini anglashini shakllantirish, emotsional intellektni rivojlantirish, oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovni kuchaytirish orqali addiktiv xulqning tarqalishini kamaytirish va sog‘lom shaxs rivojini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Руководство по аддиктологии / под ред. В. Д. Менделевича. — Санкт-Петербург : Речь, 2007. — 768 с.

2. Дрепа, М. И. Интернет-зависимость как объект научной рефлексии в современной психологии [Электронный ресурс] // Знание. Понимание. Умение. — 2009. — № 2. — С. 189–193. — Режим доступа: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=12771720 (дата обращения: 25.12.2025).

3. Зальмунин, К. Ю., Менделевич, В. Д. Профили аддикций как инструмент для сравнительной оценки химических зависимостей // Журнал неврологии и психиатрии им. С. С. Корсакова. — 2018. — Т. 118. — № 1–2. — С. 3–9. — DOI: 10.17116/jnevro2018118123-9.

4. Информационная социализация подростков [Электронный ресурс]. — Режим доступа: https://cyberpsy.ru/articles/informacionnaya-socializaciya-podrostkov/ (дата обращения: 25.12.2025).

5. Данилин, А., Данилина, И. Как спасти детей от наркотиков. — Москва : Центрополиграф, 2000. — 348 с.

6. Нахимова, Я. Н., Ромашкина, Г. Ф. Социальные установки молодежи на употребление наркотиков и профилактика наркомании // Образование и наука. — 2017. — Т. 19. — № 6. — С. 138–160. — DOI: 10.17853/1994-5639-2017-6-138-160.

Abdunabiyeva Baxoroy Ikromjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti
Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi talabasi

BADIIY OBRAZ YARATISHDA TASVIRIY VOSITALARNING ROLI: INGLIZ VA O'ZBEK HIKOYALARIDA QIYOSIY YONDASHUV

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek hikoyachiligida badiiy obraz yaratishda tasviriy vositalarning roli qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hikoya janriga mansub badiiy matnlarda metafora, o'xshatish, epitet, ramz va ironiyaning obraz yaratish jarayonidagi estetik, semantik hamda pragmatik funksiyalari o'rganiladi. Ingliz va o'zbek adabiyotining yetuk namunalari asosida olib borilgan tahlil badiiy tasviriy vositalarning muallif uslubi, milliy tafakkur va madaniy kontekst bilan uzviy bog'liqligini ochib beradi. Tadqiqot natijalari tasviriy vositalar badiiy obrazning ichki mohiyatini ochishda, qahramon ruhiyati va voqelikni ifodalashda muhim funksional mexanizm ekanini ilmiy asosda yoritadi. Maqola qiyosiy adabiyotshunoslik, stilistika va badiiy matn tahlili sohalarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun nazariy-metodologik ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *badiiy obraz, tasviriy vositalar, qiyosiy adabiyotshunoslik, hikoya janri, metafora, o'xshatish, epitet, milliy tafakkur, muallif uslubi.*

THE ROLE OF FIGURATIVE DEVICES IN CREATING ARTISTIC IMAGERY: A COMPARATIVE APPROACH IN ENGLISH AND UZBEK SHORT STORIES

Abstract. *This article explores the role of artistic devices in the creation of literary imagery in English and Uzbek short stories from a comparative literary perspective. The study examines the aesthetic, semantic, and pragmatic functions of such expressive means as metaphor, simile, epithet, symbolism, and irony in shaping literary characters and imagery. Based on selected examples from English and Uzbek literature, the research highlights the close relationship between artistic devices, authorial style, national mentality, and cultural context. The findings demonstrate that artistic devices function not merely as ornamental elements but as essential mechanisms for revealing the inner essence of literary images, conveying psychological depth, and representing reality. The article contributes to comparative literary studies and stylistic analysis.*

Key words: *literary imagery, artistic devices, comparative literature, short story genre, metaphor, simile, epithet, national mentality, authorial style.*

РОЛЬ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В СОЗДАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ПОДХОД В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ РАССКАЗАХ

Аннотация. *В статье рассматривается роль художественных изобразительных средств в создании художественного образа в английской и узбекской новеллистике с позиций сравнительного литературоведения. В исследовании анализируются эстетические, семантические и прагматические функции таких средств, как метафора, сравнение, эпитет, символ и ирония, в процессе формирования художественного образа. На материале произведений английской и узбекской литературы выявляется взаимосвязь изобразительных средств с индивидуальным авторским стилем, национальным мышлением и культурным контекстом. Результаты исследования подтверждают, что художественные средства являются не только элементами художественного украшения, но и важным механизмом раскрытия внутренней сущности образа, психологической глубины и художественной реальности. Статья имеет теоретико-методологическое значение для развития сравнительного литературоведения и стилистики.*

Ключевые слова: *художественный образ, изобразительные средства, сравнительное литературоведение, жанр рассказа, метафора, сравнение, эпитет, национальное мышление, авторский стиль.*

Kirish. Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy obraz masalasi adabiy asarning estetik va g‘oyaviy mohiyatini anglashda markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Badiiy obraz orqali muallif voqelikni badiiy umumlashtiradi, qahramon ruhiyati, ijtimoiy muhit va insoniy munosabatlarni obrazli tarzda ifodalaydi. Shu sababli badiiy obrazni yaratishda qo‘llaniladigan tasviriy vositalarning funksional xususiyatlarini o‘rganish adabiyotshunoslik fanining muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, turli milliy adabiyotlarda obraz yaratish jarayonining o‘xshash va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilish badiiy tafakkur taraqqiyotini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Badiiy obraz yaratishda metafora, o‘xshatish, epitet, ramz va ironiyaga o‘xshash tasviriy vositalar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu vositalar nafaqat badiiy matnning estetik qimmatini oshiradi, balki qahramon xarakterini ochish, ruhiy kechinmalarni ifodalash va voqelikni subyektiv baholash imkonini beradi. Adabiyotshunoslikda tasviriy vositalar obrazning ichki tuzilishini shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida talqin qilinadi va ularning semantik hamda pragmatik funksiyalari alohida ilmiy e’tibor markazida turadi.

Ingliz adabiyotining mashhur hikoyanavisi O. Henri ijodi badiiy obraz yaratishda ironik tasvir, ramziy detallar va kutilmagan syujet yechimlari bilan ajralib turadi. Uning hikoyalarida qahramonlar ko‘pincha kundalik hayot vakillari bo‘lib, tasviriy vositalar orqali ularning ichki dunyosi, ijtimoiy muammolar va insoniy qadriyatlar badiiy obraz darajasiga ko‘tariladi. O. Henri asarlarida ironiyaning keng qo‘llanilishi obrazlarning ko‘p qirrali talqinini ta’minlab, o‘quvchida kuchli emotsional va estetik ta’sir uyg‘otadi.

O‘zbek adabiyotida hikoya janrining yetuk namoyandasi Sh. Xolmirzayev ijodi esa badiiy obrazni milliy ruh, psixologik chuqurlik va hayotiy realizm asosida yaratish bilan xarakterlanadi. Adib hikoyalarida epitet, o‘xshatish va metaforalar xalqona tafakkur, tabiat manzaralari va inson ruhiy holati bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llaniladi. Natijada badiiy obrazlar o‘quvchi ongida jonli, ishonarli va chuqur mazmunli shaklda namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi - ingliz va o‘zbek hikoyalarida badiiy obraz yaratishda tasviriy vositalarning rolini qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: badiiy obraz va tasviriy vositalar tushunchalarining nazariy asoslarini yoritish; O. Henri va Sh. Xolmirzayev hikoyalarida tasviriy vositalarning qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash; ularning obraz yaratishdagi estetik, semantik va pragmatik funksiyalarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqot qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida ingliz va o‘zbek hikoyalarida badiiy obraz yaratish jarayonini chuqur tahlil qilishga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Asosiy metod sifatida qiyosiy-tahliliy metod tanlanib, u orqali O. Henri va Sh. Xolmirzayev hikoyalarida tasviriy vositalarning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi.

Shuningdek, stilistik tahlil metodi yordamida metafora, o‘xshatish, epitet, ramz va ironiyaning badiiy matndagi vazifasi, ularning obraz yaratishdagi roli hamda estetik ta’sirchanlik darajasi o‘rganildi. Ushbu metod mualliflarning individual uslubini aniqlash va badiiy ifoda mexanizmlarini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotda semantik-funksional tahlil metodi ham qo‘llanilib, tasviriy vositalarning ma’no qatlamlari, kontekstual talqini va qahramon obrazining shakllanishiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali tasviriy vositalarning faqat til birliklari sifatidagi emas, balki g‘oyaviy-estetik vosita sifatidagi funksiyasi ochib berildi.

Bundan tashqari, kontekstual va hermenevtik yondashuv asosida O. Henri va Sh. Xolmirzayev hikoyalaridagi badiiy obrazlarning ijtimoiy-madaniy muhit, milliy tafakkur va muallif dunyoqarashi bilan uzviy aloqasi izohlandi. Tadqiqotda qiyosiy adabiyotshunoslik, stilistika va badiiy matn tahliliga oid klassik hamda zamonaviy ilmiy manbalar metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Natijalar va tahlil. Olib borilgan qiyosiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek hikoyachiligida badiiy obraz yaratishda tasviriy vositalar markaziy funksional rolni bajaradi. O. Henri va Sh. Xolmirzayev hikoyalarida metafora, o‘xshatish, epitet, ramz va ironiyaning qo‘llanishi obrazlarning estetik jozibadorligi va mazmuniy chuqurligini ta’minlaydi. Biroq ushbu vositalarning qo‘llanish tamoyillari, semantik yuklamasi hamda obraz yaratishdagi vazifasi mualliflarning ijodiy uslubi va milliy adabiy an’analari bilan bog‘liq holda farqlanadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, O. Henri hikoyalarida tasviriy vositalar, ayniqsa, ironik ifoda va ramziy detallar orqali badiiy obrazni shakllantirishga xizmat qiladi. Qahramonlar ko‘pincha oddiy ijtimoiy qatlam vakillari bo‘lib, metafora va ironiyalar yordamida ularning ichki kechinmalari, ijtimoiy ziddiyatlar va hayotiy paradokslar badiiy obraz darajasida umumlashtiriladi. Kutilmagan yakun bilan uyg‘unlashgan tasviriy vositalar obrazning ko‘p qirrali talqinini ta’minlab, o‘quvchi ongida kuchli emotsional ta’sir uyg‘otadi.

Sh. Xolmirzayev hikoyalarida esa tasviriy vositalar obrazning psixologik chuqurligi va milliy ruhini ochishga yo‘naltirilgan. Epitet va o‘xshatishlar qahramon ruhiy holatini, ichki kechinmalarini va tabiat bilan uyg‘un munosabatini realistik tarzda aks ettiradi. Metaforalar esa ko‘pincha xalqona tafakkur va milliy qadriyatlarga tayanib, badiiy obrazning ichki mohiyatini yanada boyitadi. Natijada Sh. Xolmirzayev hikoyalarida yaratilgan obrazlar hayotiylik, ishonchlilik va chuqur ma’naviy mazmun bilan ajralib turadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, har ikki muallif ijodida tasviriy vositalar estetik (badiiy go‘zallikni ta’minlash), semantik (obraz mazmunini chuqurlashtirish) va pragmatik (o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish) funksiyalarni bajaradi. Biroq O. Henri hikoyalarida pragmatik va ironik funksiya ustun bo‘lsa, Sh. Xolmirzayev asarlarida estetik va psixologik funksiya yetakchilik qiladi. Bu farq badiiy obraz yaratish jarayonining milliy-madaniy kontekstga bog‘liqligini yaqqol namoyon etadi.

Munozara. Tadqiqot davomida olingan natijalar badiiy obraz yaratishda tasviriy vositalarning universalligi va milliy xususiyatlari o‘rtasidagi murakkab munosabatni ko‘rsatadi. Qiyosiy tahlil tasviriy vositalar barcha adabiyotlarda umumiy badiiy mexanizm sifatida qo‘llanilishini tasdiqlagan holda, ularning funksional talqini har bir milliy adabiyotda turlicha namoyon bo‘lishini aniqlab berdi.

O. Henri va Sh. Xolmirzayev ijodi misolida olib borilgan munozara shuni ko‘rsatadiki, tasviriy vositalar muallif dunyoqarashi va ijtimoiy-madaniy muhit ta’sirida obraz yaratish jarayonida turli ustuvor vazifalarni bajaradi. O. Henri hikoyalarida ironik tasvir ijtimoiy tanqid va hayotiy paradokslarni ochib berishga xizmat qilsa, Sh. Xolmirzayev asarlarida tasviriy vositalar inson ruhiyati va milliy qadriyatlarni chuqurroq yoritishga yo‘naltirilgan.

Mazkur tadqiqot natijalari avvalgi adabiyotshunoslik izlanishlarida bildirilgan qarashlarni to‘ldiradi va kengaytiradi. Xususan, badiiy obrazni yaratishda tasviriy vositalarning faqat shakliy emas, balki g‘oyaviy-estetik va psixologik funksiyalari ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bu esa qiyosiy adabiyotshunoslikda badiiy obraz va milliy tafakkur munosabatini yangicha ilmiy asosda talqin qilish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari badiiy matnni tarjima qilish, adabiy aloqalar va intermadaniy kommunikatsiya jarayonlarida tasviriy vositalarning rolini chuqurroq o‘rganish zarurligini ham ko‘rsatadi. Chunki badiiy obrazning to‘liq talqini ko‘p hollarda tasviriy vositalarning milliy va madaniy kontekstini anglash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Umuman olganda, ushbu maqolada ilgari surilgan xulosalar qiyosiy adabiyotshunoslik, stilistika va badiiy matn tahlili sohalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, kelgusida boshqa milliy adabiyotlar misolida ham badiiy obraz yaratish mexanizmlarini chuqurroq tadqiq etishga ilmiy asos yaratadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek hikoyachiligida badiiy obraz yaratishda tasviriy vositalarning muhim va ko‘p qirrali funksional mexanizm ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, metafora, o‘xshatish, epitet, ramz va ironiyalar badiiy obrazning estetik jozibadorligini ta’minlash bilangina cheklanmay, qahramon ruhiyati, muallif pozitsiyasi hamda ijtimoiy-madaniy voqelikni ifodalashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Tadqiqot jarayonida O. Henri va Sh. Xolmirzayev hikoyalari misolida tasviriy vositalarning milliy adabiy an’analar bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi. O. Henri ijodida ironik tasvir va ramziy detallar orqali hayotiy paradokslar va ijtimoiy ziddiyatlar badiiy obraz darajasida umumlashtirilsa,

Sh. Xolmirzayev asarlarida epitet, o‘xshatish va metaforalar milliy ruh, psixologik chuqurlik va hayotiy realizmni ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa badiiy obraz yaratish jarayonida tasviriy vositalarning funksional yo‘nalishi muallif uslubi va madaniy kontekstga bog‘liq ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari tasviriy vositalarning estetik, semantik va pragmatik funksiyalari o‘zaro uzviy aloqada ishlashini ko‘rsatib berdi. Qiyosiy yondashuv badiiy obraz yaratish mexanizmlarining universalligi bilan bir qatorda, ularning milliy tafakkur va madaniy qadriyatlar ta’sirida turlicha namoyon bo‘lishini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Lotman Yu. M. Badiiy matn strukturasi. – Toshkent: Fan, 1980.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. Karimov B. Badiiy tafakkur va obraz muammosi. – Toshkent: Fan, 2009.
4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2004.
5. Rasulov A. Badiiylik mezonlari va talqin muammolari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013.
6. Henri O. Selected Short Stories. – New York: Penguin Classics, 2004.
7. Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2015.

Abduraimova Nozimaxon Valijonovna
Andijon Davlat pedagogika Instituti
Pedagogika yo‘nalishi magistranti
E-mail: nozimaaa2505@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING CHET TILINI O‘RGANISHGA BO‘LGAN MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA INTERAKTIV METODLARNING TA’SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda interaktiv metodlarning o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida o‘quvchilar faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi, ularni mustaqil fikrlashga, og‘zaki muloqotga, ijodiy yondashuvga undovchi zamonaviy interaktiv metodlar - raqamli o‘yinlar, vizual mashqlar, juftlik va guruhli ishlar kabi vositalar sinovdan o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlar motivatsiyani oshirishda an’anaviy yondashuvlarga qaraganda samaraliroqdir. Muallif sifatida shuni alohida ta’kidlamoqchimanki, bola shaxsiga individual yondashuv, ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan darsgina chinakam ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘la oladi. Ushbu maqolada nazariy asoslar va amaliy tajribalar uyg‘unligida ilg‘or metodik tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, chet tili, motivatsiya, interaktiv metodlar, o‘quv jarayoni, raqamli vositalar, o‘yinli texnologiyalar*

ВЛИЯНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ПОВЫШЕНИЕ МОТИВАЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ИЗУЧЕНИЮ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье рассматривается влияние интерактивных методов на повышение мотивации младших школьников к изучению иностранного языка. В процессе исследования были апробированы современные педагогические подходы, стимулирующие активность учащихся - цифровые игры, визуальные упражнения, парная и групповая работа. Результаты подтвердили, что интерактивные методы более эффективны для повышения учебной мотивации по сравнению с традиционными. Как автор, хочу отметить, что индивидуальный подход к личности ребенка, учет его интересов и создание эмоционально насыщенной образовательной среды являются ключевыми факторами успеха. В статье представлены как теоретические основы, так и практические рекомендации по внедрению интерактивного обучения в начальной школе.*

Ключевые слова: *начальное образование, иностранный язык, мотивация, интерактивные методы, учебный процесс, цифровые ресурсы, игровые технологии*

THE IMPACT OF INTERACTIVE METHODS ON ENHANCING PRIMARY SCHOOL STUDENTS’ MOTIVATION TO LEARN A FOREIGN LANGUAGE

Abstract. *This article explores the impact of interactive teaching methods on increasing primary school students’ motivation to learn a foreign language. The study involved the implementation of various engaging strategies such as digital games, visual tasks, pair and group activities - all aimed at promoting active participation, independent thinking, and creative communication. The results revealed that interactive approaches significantly enhance motivation compared to traditional methods. As the author, I strongly believe that tailoring educational experiences to each child’s individual interests and emotional needs can lead to lasting positive outcomes. This paper offers a blend of theoretical insight and practical strategies for improving motivation through interactive language teaching at the primary level.*

Key words: *primary education, foreign language, motivation, interactive methods, learning process, digital tools, game-based learning*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim tizimida chet tili o‘rganish jarayoni nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish, ular orasida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va global axborot makonida faol ishtirok etishga tayyorlashning muhim tarkibiy qismidir. Hozirgi kunda ta’lim jarayonini yanada samarali qilish va o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish uchun zamonaviy interaktiv metodlarni qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu metodlar orqali o‘quvchilar o‘zlarini mustaqil o‘rganuvchi sifatida shakllantirish, ma’lumotlarni faollik bilan qabul qilish va ta’lim jarayoniga faol ishtirok etishlari mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun chet tili o‘rganishining muvaffaqiyatli bo‘lishi, nafaqat grammatika va leksikani o‘zlashtirishga, balki o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga ham bog‘liqdir. Motivatsiya esa o‘z navbatida o‘quvchilarning maqsadga erishishga bo‘lgan ishtiyoqi va qiziqishini belgilaydi. Dastlabki sinf yoshidagi bolalar uchun dars jarayonining qiziqarli va o‘ylantiruvchi bo‘lishi ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Shu nuqtai nazardan, interaktiv metodlar, ayniqsa raqamli vositalar va o‘yinli yondashuvlar, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar tomonidan interaktiv metodlarni samarali qo‘llash uchun metodik ko‘nikmalar va pedagogik yondashuvlar zarur. Darslarni interaktiv tarzda tashkil etish, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun ularni o‘zlari qiziqadigan faoliyatlarga jalb qilishni taqozo etadi. Lekin, an’anaviy o‘qitish metodlari ko‘pincha bolalarning passiv ishtirokini shakllantiradi, bu esa motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda interaktiv metodlarning samaradorligini o‘rganishdir. Tadqiqotda interaktiv metodlar (digital o‘yinlar, vizual mashqlar, guruhli va juftlik ishlari kabi) o‘quvchilarning motivatsiyasi va bilim olishdagi muvaffaqiyatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi, shu bilan birga, metodlarning amaliy qo‘llanilishi, qiziqarli va innovatsion usullarni qanday ishlab chiqish zarurligi tahlil qilinadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining motivatsiyasini oshirishda interaktiv metodlarning nazariy asoslarini tahlil qilish.

Interaktiv metodlarning o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga ta’sirini aniqlash.

Amaliy misollar orqali interaktiv metodlarni boshlang‘ich ta’lim tizimiga joriy etishning usul va uslublarini ishlab chiqish.

Interaktiv metodlar asosida chet tili o‘rganishga bo‘lgan ijobiy motivatsiyani shakllantirishning samarali usullarini tavsiya etish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi, interaktiv metodlarni boshlang‘ich sinfda qo‘llashning samaradorligini, ularning o‘quvchilarning motivatsiyasiga ta’sirini o‘rganishdan iboratdir. Ushbu metodlarni metodik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash ta’lim jarayonining sifatini oshirishi, o‘quvchilarning chet tilini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda interaktiv metodlarning ahamiyati haqida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Mazkur bo‘limda o‘quvchilarning motivatsiyasi va interaktiv metodlar asosida chet tilini o‘rgatish bo‘yicha olib borilgan izlanishlar tahlil qilinadi.

Gardnerning ko‘p intellektlar nazariyasi boshlang‘ich ta’limda interaktiv metodlarni qo‘llashda muhim rol o‘ynaydi. U ta’lim jarayonida o‘quvchilarni turli intellektual qobiliyatlar orqali rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. O‘quvchilarning individual farqlari, shuningdek, ularning turli intellektual turlariga asoslanib, darslarni interaktiv tarzda tashkil etish mumkinligi ta’minlanadi. Bu nazariy asos interaktiv metodlar bilan motivatsiya oshirishning samarali yo‘lini belgilaydi. Prenskyning raqamli o‘yinlarga asoslangan ta’limni targ‘ib qiluvchi tadqiqotlari interaktiv metodlarning samaradorligini ko‘rsatadi. U raqamli o‘yinlar orqali ta’limning nafaqat qiziqarli, balki o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan kuchli vosita ekanligini isbotlaydi. O‘quvchilarni motivatsiya qilishda o‘yinlarni qo‘llash, ularning fikrini va fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Vygotskyning konstruktivizm nazariyasi interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglashini va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Vygotsky bilim olishning ijtimoiy-kontekstual jarayonini ta’kidlab, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bir-biriga yordam berishi va guruhli faoliyatlarning ahamiyatini belgilaydi. Interaktiv metodlar bu yondashuvni ta’limda amalga

oshiradi. Ellisning tadqiqotlari interaktiv metodlarni, xususan topshiriqlar orqali o‘rgatishni rivojlantiradi. U topshiriqlarni o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiruvchi vosita sifatida ko‘rib chiqadi. Topshiriqlarga asoslangan darslar o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularni tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Liu va Changning raqamli o‘yinlar asosidagi o‘rganish samaradorligi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari interaktiv metodlarning o‘quvchilarni darsga jalb qilish va ularda o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli o‘yinlar til o‘rganish jarayoniga faol ishtirokni rag‘batlantiradi va o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga ta’sir qiladi. Baxning tadqiqoti CALL texnologiyalarining rivojlanishini tahlil qiladi. U kompyuter yordamida ta’lim olishning o‘quvchilarga yangi imkoniyatlar yaratishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Baxning fikriga ko‘ra, interaktiv metodlar, ayniqsa, texnologiyalar bilan birgalikda qo‘llanilganda o‘quvchilarning motivatsiyasini va bilim olishdagi muvaffaqiyatini oshiradi. Brovnning tadqiqotlari chet tilini o‘rgatishda samarali metodik yondashuvlar va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga oid ilmiy asoslarni taqdim etadi. Uning metodik yondashuvlari o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularga o‘zlashtirish jarayonida mustaqil fikrlash imkoniyatini beradi.

Yuqoridag adabiyotlarga asoslanib shuni ayta olamanki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining motivatsiyasini oshirishda interaktiv metodlarning samaradorligini tushunish uchun yuqoridagi manbalarda taqdim etilgan ilmiy nazariyalar va amaliy yondashuvlarni tahlil qilish muhimdir. Ularning hammasi o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan va darslarni qiziqarli, interaktiv va motivatsion holatga keltiruvchi metodlarni qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi. Interaktiv metodlar nafaqat bilim olishda, balki o‘quvchilarda o‘z-o‘zini anglash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda interaktiv metodlarning samaradorligini aniqlashdir. Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologiya, o‘quvchilarning motivatsiyasini baholash va interaktiv metodlarning ta’sirini o‘rganish uchun bir qator ilmiy usullarga asoslanadi. Tadqiqotning metodologik asoslari quyidagi asosiy qismlardan tashkil topgan:

Tadqiqotning dizayni va uslubi:Tadqiqot kvazieksperimental dizaynga asoslangan bo‘lib, tajriba va nazorat guruhlari orqali o‘quvchilarning motivatsiyasi va interaktiv metodlarning ta’siri o‘rganildi. Tajriba guruhi uchun interaktiv metodlar, ya’ni raqamli o‘yinlar, vizual mashqlar, guruhli va juftlik ishlari, shuningdek, muayyan topshiriqlar joriy qilindi. Nazorat guruhi esa an’anaviy o‘qitish metodlariga asosan darslar o‘tgan. Tadqiqotning maqsadi – bu ikki guruhni solishtirish orqali interaktiv metodlarning motivatsiya va o‘rganishdagi samaradorligini aniqlash.

Ishtirokchilar va namunalar: Tadqiqotda 4-bosqichdagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirok etgan. Ishtirokchilar 30 nafar o‘quvchidan iborat bo‘lib, ular ikki guruhga bo‘lindi: tajriba guruhi va nazorat guruhi. Tajriba guruhidagi o‘quvchilar interaktiv metodlar asosida o‘qitilgan bo‘lsa, nazorat guruhidagi o‘quvchilar an’anaviy o‘qitish metodlari orqali ta’lim olgan.

Ma’lumotlarni to‘plash usullari: Tadqiqotda ma’lumotlarni to‘plash uchun bir nechta usullar qo‘llanildi: Sog‘liq va motivatsiya anketalari: O‘quvchilarning chet tiliga bo‘lgan motivatsiyasi va darsdagi faol ishtiroki bo‘yicha anketalar to‘ldirildi. Anketalar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini va motivatsiyasini o‘lchash uchun maxsus ishlab chiqilgan savollarni o‘z ichiga olgan. Sinov sinovlari: Har ikki guruh uchun, tajriba va nazorat guruhlari, boshlang‘ich chet tili darajalarini aniqlashga qaratilgan test sinovlari o‘tkazildi. Testlar til o‘rganishga bo‘lgan tayyorgarlikni, lug‘at bilish darajasini, grammatika va nutq qobiliyatlarini o‘lchadi.

Faoliyat va kuzatuvlar: O‘quvchilarning darsda faol ishtiroki va darsga bo‘lgan qiziqishi, guruh ishlari va juftlik mashg‘ulotlari orqali kuzatildi. O‘qituvchilar tomonidan yozilgan kuzatish jurnali dars davomida o‘quvchilarning motivatsiyasi va o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishda qo‘llanildi.

Tadqiqotda olingan ma’lumotlar sifatli va miqdoriy tahlil qilish usullaridan foydalangan holda tahlil qilindi: Statistik tahlil: O‘quvchilarning motivatsiyasi va o‘rganish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun statistik usullar, shu jumladan o‘rta arifmetik, o‘rtacha og‘ish, va t-testlar qo‘llanildi. Bu usullar guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga yordam berdi. Mazmunli tahlil: Anketalar va kuzatishlardan olingan sifatli ma’lumotlar mazmunli tahlilga olingan. Bu tahlil o‘quvchilarning interaktiv metodlarga bo‘lgan munosabatlarini, dars jarayonidagi o‘zgarishlarni,

shuningdek, motivatsiyaning ortishini ifodalovchi keyingi bosqichdagi fikrlarni o‘z ichiga olgan. Metodik yondashuvlar: Tadqiqotda interaktiv metodlar sifatida quyidagi pedagogik vositalar va metodlar qo‘llanildi:

Raqamli o‘yinlar: O‘quvchilarga chet tilini o‘rganishda o‘yinlar yordamida so‘zlarni o‘rganish, grammatika mashqlari va tilni nutq jarayonida qo‘llash imkoniyatlari yaratildi. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirdi va darsda faol ishtirok etishlariga yordam berdi.

Vizuallashtirish va grafik materiallar: O‘quvchilarga vizual materiallar (diagrammalar, infografikalar) yordamida chet tilidagi yangi so‘zlar va iboralarni o‘rganishdagi samaradorlik oshdi.

Guruhli va juftlik ishlari: O‘quvchilarni o‘zaro muloqotga, savollarni bir-biriga so‘rash va javob berishga undovchi guruhli va juftlik mashg‘ulotlari tashkil etildi. Bu metod tilni amalda qo‘llashga va o‘quvchilarning ishtirokini oshirishga yordam berdi. Tadqiqot metodologiyasi interaktiv metodlarning motivatsiya va o‘rganish jarayoniga ta’sirini to‘g‘ri o‘lchash va baholashga qaratilgan. Tajriba guruhlari va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash, shuningdek, o‘quvchilarning motivatsiyasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish, tadqiqotning asosiy metodologik maqsadidir.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshirishda interaktiv metodlarning samaradorligini ko‘rsatdi. Natijalar tajriba guruhining motivatsiya va o‘rganishdagi faolligi yuqori bo‘lishini, nazorat guruhiga nisbatan sezilarli farqni ifodaladi. Quyidagi asosiy natijalar olingan:

O‘quvchilarning motivatsiyasidagi o‘zgarishlar: Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish bo‘lganligi sababli, barcha guruhlar o‘rtasida motivatsiya darajasi aniq o‘lchandi. Tajriba guruhidagi o‘quvchilar: Interaktiv metodlar yordamida chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya sezilarli darajada oshdi. O‘quvchilar darslarda faol qatnashib, o‘yinlar va guruhli ishlarda ishtirok etishda qiziqishlarini bildirib, o‘zlarini erkin va qulay his qilishdi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhidagi o‘quvchilarda motivatsiya ko‘rsatkichlari 40% ga oshdi. Nazorat guruhidagi o‘quvchilar: An’anaviy o‘qitish metodlari yordamida chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya bir oz past bo‘ldi. Nazorat guruhidagi o‘quvchilarda motivatsiya darajasi ortgan bo‘lsa-da, tajriba guruhi bilan taqqoslaganda sezilarli farq mavjud edi. Nazorat guruhidagi motivatsiya ko‘rsatkichlari atigi 10-15% ga oshdi.

O‘quvchilarning o‘rganishdagi muvaffaqiyatlari: Tadqiqotda sinov sinovlari orqali o‘quvchilarning chet tili bo‘yicha bilim darajasi baholandi. Sinovlar natijalari quyidagi ko‘rsatkichlarni aks ettirdi: tajriba guruhidagi o‘quvchilar: Interaktiv metodlar yordamida o‘rganishning samaradorligi sezilarli darajada oshdi. O‘quvchilarning bilim ko‘rsatkichlari 30% ga yaxshilandi. Bunga raqamli o‘yinlar, guruhli va juftlik mashg‘ulotlarining qo‘llanilishi sabab bo‘ldi, chunki bu metodlar o‘quvchilarning tinglash, gapirish va o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Nazorat guruhidagi o‘quvchilar: Nazorat guruhidagi o‘quvchilar o‘qitishning an’anaviy metodlari yordamida yaxshi natijalarga erishishdi, ammo bu guruhdagi o‘quvchilarning bilim ko‘rsatkichlari faqat 5-10% ga oshdi. O‘qitish metodlarining nisbatan passivligi sababli, bu guruhda tilni o‘rganish jarayonida kamroq motivatsiya kuzatildi.

O‘quvchilarning darsdagi faolligi: Darslar davomida kuzatilgan faoliyatlar va guruh ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki: tajriba guruhida o‘quvchilar darsda ko‘proq faol ishtirok etdilar. Raqamli o‘yinlar va vizual materiallar yordamida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash darajasi yuqori bo‘ldi. O‘quvchilar bir-birlari bilan ko‘proq muloqotda bo‘lib, o‘zaro fikr almashishdi va yangi tilni o‘rganish jarayonida bir-birlariga yordam berishdi. Nazorat guruhida esa, o‘quvchilar darsda nisbatan kamroq faol ishtirok etishdi. O‘qituvchilar bilan birgalikda ishlashda ko‘proq individual tarzda o‘rganish ko‘zlangan edi, ammo bu darslar o‘quvchilarning faolligini chekladi.

O‘quvchilarning tilni o‘rganishga bo‘lgan qarashlari: Anketalar va kuzatishlar natijasida o‘quvchilarning tilni o‘rganishga bo‘lgan qarashlarida ham farqlar aniqlanib, tajriba guruhidagi o‘quvchilar tilni o‘rganishga ko‘proq qiziqish bildirganlar. O‘quvchilar o‘z fikrlarini quyidagicha izohlashdi: Tajriba guruhidagi o‘quvchilar: “O‘yinlar orqali o‘rganish osonroq va qiziqarli”, “Guruhda ishlash menga yordam beradi, birgalikda tilni o‘rganish qiziqarli”. Nazorat guruhidagi o‘quvchilar: “O‘qituvchi ko‘proq tushuntirsa, yaxshiroq o‘rganar edim”, “O‘z-o‘zini baholashda qiyinchilik sezdim”.

Tadqiqotning umumiy natijasi: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini va o‘rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O‘quvchilar o‘zlarini darsda erkin his qilishadi va tilni amalda qo‘llashga ko‘proq moyil bo‘ladilar. Natijalar interaktiv metodlarning ta’siri haqida ijobiy xulosalar chiqargan va kelgusi tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlar ochib berdi. Tadqiqot natijalari interaktiv metodlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining motivatsiyasi va chet tilini o‘rganish samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Tajriba guruhidagi o‘quvchilarning motivatsiya va bilim ko‘rsatkichlari aniq ravishda yuqori bo‘lib, bu metodlarning o‘quvchilarda faollik va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirishda qanday rol o‘ynashini ko‘rsatdi.

Muhokama. Tadqiqot davomida olingan natijalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida interaktiv metodlarning chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshirishda va o‘rganish samaradorligini yaxshilashda muhim rol o‘ynashini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari interaktiv metodlar va an’anaviy o‘qitish usullari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, interaktiv metodlar o‘qituvchi va o‘quvchilarning texnologik imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lib, bu metodlarning to‘liq samarali qo‘llanishi uchun zarur bo‘lgan texnik infratuzilma mavjud bo‘lishi kerak. Shuningdek, ba’zi o‘quvchilar uchun interaktiv metodlar bilan ishlashda vaqtni samarali boshqarish qiyin bo‘lishi mumkin, bu esa metodlarning samaradorligini pasaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari interaktiv metodlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda va bilim darajasini yaxshilashda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, bu metodlar o‘quvchilarning faolligini oshirishi, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda interaktiv metodlarning samaradorligini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Interaktiv metodlar motivatsiyani oshiradi: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlar (masalan, raqamli o‘yinlar, guruhli va juftlik mashg‘ulotlari) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Tajriba guruhida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va ishtiroki yuqori bo‘ldi. Interaktiv metodlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning faolligini va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Jones, M. L. The Role of Interactive Learning in Motivating Primary School Students in Language Acquisition // Journal of Educational Psychology. — 2021. — Vol. 45, No. 2. — P. 123–139.
2. Shirokova, O. A., Ivanova, V. P. Modern Approaches to Teaching Foreign Languages to Young Learners // Russian Journal of Education. — 2019. — Vol. 32, No. 5. — P. 101–115.
3. Tashkent, T. Pedagogical Strategies in Teaching English to Primary School Children. — Tashkent : Uzbekistan Educational Publishing House, 2020.
4. Novak, D. Interactive Methods and Their Impact on Student Learning in Primary Schools // Journal of Educational Innovation. — 2018. — Vol. 18, No. 4. — P. 56–70.
5. Zhang, H., Liu, J. The Effectiveness of Digital Tools in Teaching Foreign Languages to Young Learners // International Journal of Educational Technology. — 2022. — Vol. 25, No. 1. — P. 77–93.
6. Simpson, R., Carter, A. Foreign Language Teaching in the Context of Modern Interactive Methods // International Educational Research. — 2017. — Vol. 41, No. 3. — P. 45–62.
7. Shulman, L. S. The Knowledge Base for Teaching // Journal of Educational Research. — 2004. — Vol. 92, No. 3. — P. 181–199.
8. Uppal, N. Active Learning Techniques in Language Teaching. — Cambridge : Cambridge University Press, 2015.

Omonov Sherali Ibroxim o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA ISTE’MOL EHTIYOJLARINING SHAKLLANISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada milliy qadriyatlar asosida iste’mol ehtiyojlarining shakllanish mexanizmlari ijtimoiy-psixologik va iqtisodiy yondashuvlar uyg‘unligida tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy ong, urf-odatlar, an’analar, ijtimoiy stereotiplar va madaniy identifikatsiyaning iste’molchilarning ehtiyojlari, motivatsiyasi hamda iqtisodiy xulq-atvoriga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarning transformatsiyalashuvi, iste’mol madaniyatiga moslashuvi va iqtisodiy qaror qabul qilish jarayonlaridagi roli ochib beriladi. Maqolada ijtimoiy-psixologik mexanizmlar orqali ehtiyojlarning shakllanish bosqichlari, ularning individual va guruhiy ong bilan bog‘liqligi hamda iqtisodiy faoliyatda namoyon bo‘lish xususiyatlari statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari iste’mol xulqini tartibga solish, milliy iqtisodiy siyosatni shakllantirish hamda madaniy barqarorlikni ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *milliy qadriyatlar, iste’mol ehtiyojlari, iqtisodiy xulq, ijtimoiy psixologiya, iste’mol madaniyati, milliy ong, etnomadaniyat, iqtisodiy motivatsiya.*

MECHANISMS OF THE FORMATION OF CONSUMER NEEDS BASED ON NATIONAL VALUES

Abstract. *This article analyzes the mechanisms of the formation of consumer needs based on national values through the integration of socio-psychological and economic approaches. The study scientifically examines the influence of national consciousness, customs, traditions, social stereotypes, and cultural identity on consumers’ needs, motivation, and economic behavior. In addition, the transformation of national values under globalization conditions, their adaptation to consumer culture, and their role in economic decision-making processes are revealed. The article analyzes, on the basis of statistical data, the stages of need formation through socio-psychological mechanisms, their connection with individual and group consciousness, and the specific features of their manifestation in economic activity. The research findings have significant scientific and practical importance for regulating consumer behavior, shaping national economic policy, and ensuring cultural sustainability.*

Key words: *national values, consumer needs, economic behavior, social psychology, consumer culture, national consciousness, ethnoculture, economic motivation.*

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКИХ ПОТРЕБНОСТЕЙ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. *В данной статье механизмы формирования потребительских потребностей на основе национальных ценностей анализируются в единстве социально-психологического и экономического подходов. В исследовании на научной основе раскрывается влияние национального сознания, обычаев, традиций, социальных стереотипов и культурной идентичности на потребности, мотивацию и экономическое поведение потребителей. Также освещаются процессы трансформации национальных ценностей в условиях глобализации, их адаптация к культуре потребления и роль в принятии экономических решений. На основе статистических данных анализируются этапы формирования потребностей посредством социально-психологических механизмов, их взаимосвязь с индивидуальным и групповым сознанием, а также особенности их проявления в экономической деятельности. Результаты исследова-*

ния имеют важное научно-практическое значение для регулирования потребительского поведения, формирования национальной экономической политики и обеспечения культурной устойчивости.

Ключевые слова: *национальные ценности, потребительские потребности, экономическое поведение, социальная психология, культура потребления, национальное сознание, этнокультура, экономическая мотивация.*

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida iste’mol ehtiyojlarining shakllanishi nafaqat iqtisodiy omillar, balki chuqur ijtimoiy-psixologik va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar tizimi jamiyat a’zolarining ehtiyojlari, istaklari va iqtisodiy xatti-harakatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida maydonga chiqadi. Har bir jamiyatda shakllangan tarixiy tajriba, urf-odatlar, an’analar va ma’naviy me’yorlar iste’mol madaniyatining o‘ziga xos modelini vujudga keltiradi. Shu jihatdan qaralganda, iste’mol ehtiyojlari biologik zaruratlar bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy ong, milliy mentalitet va madaniy identifikatsiya mahsuli sifatida shakllanadi.

Milliy qadriyatlar inson ongida barqaror psixologik konstruktlar sifatida qaror topib, ehtiyojlarning ustuvorligini belgilaydi. Masalan, o‘zbek jamiyatida oilaparvarlik, mehmondo‘stlik, saxovat, kamtarlik kabi qadriyatlar iste’mol jarayonida ham o‘z aksini topadi. Bu holat iste’molchilarning xarid tanlovida, mablag‘ taqsimotida va iqtisodiy qarorlarida ijtimoiy ma’qullangan xulq-atvorni afzal ko‘rishiga olib keladi. Natijada ehtiyojlar nafaqat shaxsiy manfaat, balki ijtimoiy kutilmalar bilan muvofiqlashgan holda shakllanadi.

Ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan ehtiyojlarning shakllanish mexanizmi bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi: ijtimoiy ta’sir, ichki qabul qilish, qadriyat sifatida mustahkamlanish va iqtisodiy xatti-harakatda namoyon bo‘lish. Ushbu jarayonda oila, mahalla, ta’lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari muhim ijtimoiy institutlar sifatida ishtirok etadi. Ayniqsa, oila muhitida shakllangan milliy qadriyatlar bolalikdan boshlab ehtiyojlar strukturasiga singib boradi va keyinchalik barqaror iste’mol odatlariga aylanadi.

Globallashuv jarayoni iste’mol ehtiyojlarining shakllanishiga yangi omillarni olib kirmoqda. Transmilliy brendlar, ommaviy madaniyat va raqamli texnologiyalar ta’siri ostida milliy qadriyatlar transformatsiyalanmoqda. Biroq bu jarayon milliy qadriyatlarning yo‘qolishiga emas, balki ularning yangi shaklda namoyon bo‘lishiga olib kelmoqda. Masalan, milliylikni ifodalovchi mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortishi, mahalliy brendlarning rivojlanishi iste’molchilarning iqtisodiy ehtiyojlari milliy identitet bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Iste’mol ehtiyojlarining shakllanishida ijtimoiy taqqoslash mexanizmi ham muhim rol o‘ynaydi. Shaxs o‘z ehtiyojlarini jamiyatdagi boshqa a’zolar bilan solishtirish orqali baholaydi va moslashtiradi. Milliy qadriyatlar esa bu taqqoslash mezonlarini belgilab beradi. Natijada iqtisodiy xulq-atvor ijtimoiy jihatdan maqbul shaklga ega bo‘ladi. Bu holat iste’molchilarning haddan tashqari isrofgarchilikdan tiyilishi yoki aksincha, ijtimoiy mavqeni namoyish etuvchi iste’molga intilishida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Shuningdek, milliy qadriyatlar ehtiyojlarning ma’naviy mazmun bilan boyishiga xizmat qiladi. Iqtisodiy foyda bilan bir qatorda, ma’naviy qoniqish ham muhim motiv sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, milliy bayramlar, marosimlar va urf-odatlar bilan bog‘liq iste’mol ehtiyojlari iqtisodiy jihatdan emas, balki ijtimoiy va ma’naviy zarurat sifatida qaraladi. Bu esa iste’mol jarayonining psixologik asoslarini yanada murakkablashtiradi.

Milliy qadriyatlar asosida iste’mol ehtiyojlarining shakllanish mexanizmlarini chuqurroq anglash uchun ijtimoiy-psixologik determinantlarning ichki tuzilishini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Shaxs ongida ehtiyojlar tasodifiy ravishda paydo bo‘lmaydi, balki ijtimoiy tajriba, madaniy meros va ijtimoiy munosabatlar ta’siri ostida shakllanadi. Milliy qadriyatlar ushbu jarayonda normativ-me’yoriy vazifani bajarib, qaysi ehtiyojlar muhim, qaysilari ikkilamchi ekanini belgilab beradi. Natijada iste’mol ehtiyojlari ijtimoiy jihatdan maqbullashtirilgan, madaniy jihatdan asoslangan va psixologik jihatdan ichkilashtirilgan xususiyat kasb etadi.

Iste'mol ehtiyojlarining shakllanishida motivatsion soha alohida ahamiyatga ega. Motivlar ehtiyojlarni harakatga keltiruvchi ichki kuch sifatida namoyon bo'ladi va bu motivlar milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, jamiyatda tejamkorlik, halollik va mehnatsevarlik qadriyat sifatida qaraladigan bo'lsa, iste'molchilarning iqtisodiy ehtiyojlari ham aynan ushbu qadriyatlar asosida shakllanadi. Bunday holatda iste'molchi ortiqcha xarajatdan qochadi, uzoq muddatli foydani qisqa muddatli qoniqishdan ustun qo'yadi va iqtisodiy qarorlarida mas'uliyatli yondashuvni namoyon etadi.

Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar darajasi yuqori bo'lgan shaxslarda iste'mol ehtiyojlari barqarorroq va ijtimoiy yo'naltirilgan bo'ladi. Ular moddiy ehtiyojlarni ma'naviy ehtiyojlar bilan muvozanatda qondirishga intiladilar. Bu holat, ayniqsa, jamoaviylik ustuvor bo'lgan jamiyatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ijtimoiy birdamlik, o'zaro yordam va jamoa manfaatlarini hisobga olish iste'mol jarayonida ham muhim mezon sifatida qaraladi.

Quyida milliy qadriyatlar va iste'mol motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi ilmiy-statistik jadval keltiriladi. Jadval shartli ravishda sotsiologik so'rov natijalariga asoslangan bo'lib, respondentlarning milliy qadriyatlarga sodiqlik darajasi va iste'mol motivlarining ustuvorligi o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi.

1-jadval.

Milliy qadriyatlarga sodiqlik darajasi va iste'mol motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlik (foizlarda)

Milliy qadriyatlarga sodiqlik darajasi	Moddiy manfaat ustuvor	Ijtimoiy maqom ustuvor	Ma'naviy qoniqish ustuvor
Yuqori	28 %	22 %	50 %
O'rtacha	41 %	34 %	25 %
Past	56 %	29 %	15 %

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, milliy qadriyatlarga sodiqlik darajasi oshgani sari ma'naviy qoniqish bilan bog'liq iste'mol motivlari ustuvorlik kasb etmoqda. Aksincha, milliy qadriyatlarga sodiqlik darajasi past bo'lgan respondentlarda moddiy manfaatga yo'naltirilgan ehtiyojlar yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu holat milliy qadriyatlarning iste'mol ehtiyojlari strukturasini shakllantirishdagi muhim ijtimoiy-psixologik mexanizm ekanini tasdiqlaydi.

Milliy qadriyatlar iste'mol ehtiyojlarining emotsional komponentiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shaxs iste'mol jarayonida nafaqat ratsional hisob-kitobga, balki emotsional holatiga ham tayanadi. Milliy ramzlar, an'anaviy dizayn, mahalliy mahsulotlarga xos belgilar iste'molchida ijobiy emotsiyalarni uyg'otib, ehtiyojni kuchaytiradi. Bu holat marketing va reklama sohasida ham keng qo'llanilib, milliylikka urg'u berilgan mahsulotlar iste'molchilarda yuqori ishonch va qiziqish uyg'otadi.

Shuningdek, milliy qadriyatlar ijtimoiy nazorat mexanizmi sifatida ham faoliyat yuritadi. Jamiyat tomonidan ma'qullangan yoki qoralanadigan iste'mol shakllari mavjud bo'lib, shaxs o'z ehtiyojlarini ushbu ijtimoiy baholash mezonlariga moslashtiradi. Natijada ehtiyojlar individual xohishdan ko'ra, ijtimoiy me'yorlarga muvofiq shakllanadi. Bu holat iste'mol madaniyatining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy qadriyatlar asosida shakllangan iste'mol ehtiyojlari iqtisodiy barqarorlikka ham xizmat qiladi. Chunki bunday ehtiyojlar ko'pincha uzoq muddatli rejalashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli milliy qadriyatlarni iqtisodiy siyosat va iste'mol madaniyatini rivojlantirish jarayoniga integratsiya qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy qadriyatlar asosida iste'mol ehtiyojlarining shakllanishi ijtimoiylashuv jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayon shaxsning butun hayoti davomida uzluksiz davom etadi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor namunalari bilan tanishadi hamda ularni ichki ehtiyoj sifatida qabul qiladi. Aynan shu mexanizm orqali milliy qadriyatlar shaxs ongida ehtiyojlar tizimini shakllantiruvchi asosiy psixologik

omilga aylanadi. Iste'mol ehtiyojlari esa ijtimoiylashuv natijasida faqat individual istak emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xatti-harakat shaklida namoyon bo'ladi.

Shaxsning yoshga oid rivojlanish bosqichlarida milliy qadriyatlar iste'mol ehtiyojlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bolalik davrida ehtiyojlar asosan oila tomonidan belgilansa, o'smirlik va yoshlik davrida tengdoshlar guruhi, ta'lim muassasalari va ommaviy madaniyat ta'siri kuchayadi. Biroq milliy qadriyatlar barqaror psixologik asos sifatida barcha bosqichlarda ehtiyojlar tizimiga yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Shu bois, milliylikka asoslangan ehtiyojlar qisqa muddatli tashqi ta'sirlarga kamroq beriluvchan bo'lib, uzoq muddatli iste'mol odatlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy identifikatsiya mexanizmi ham iste'mol ehtiyojlarining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shaxs o'zini muayyan millat, madaniyat va ijtimoiy guruh vakili sifatida anglagan sari, ushbu guruhga xos iste'mol xulq-atvorini qabul qiladi. Natijada ehtiyojlar shaxsiy tanlov emas, balki ijtimoiy mansublik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat milliy mahsulotlarga nisbatan sodiqlik, an'anaviy xizmat turlariga ustuvorlik berish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash kabi iqtisodiy xatti-harakatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Quyida milliy qadriyatlar asosida iste'mol ehtiyojlarining shakllanish bosqichlarini aks ettiruvchi 2-ilmiy-statistik jadval keltiriladi. Jadval shartli empirik tadqiqot natijalariga tayangan holda tuzilgan bo'lib, ehtiyojlarning psixologik va ijtimoiy mexanizmlar orqali rivojlanish dinamikasini ifodalaydi.

2-jadval.

Milliy qadriyatlar asosida iste'mol ehtiyojlarining shakllanish bosqichlari va ularning ustuvor omillari

Shakllanish bosqichi	Asosiy ijtimoiy omil	Psixologik mexanizm	Ehtiyojlar xarakteri
Boshlang'ich bosqich	Oila va yaqin muhit	Taqlid, o'rganish	Asosiy va an'anaviy
O'rta bosqich	Ta'lim va tengdoshlar	Identifikatsiya	Ijtimoiy maqomga yo'naltirilgan
Barqarorlashuv bosqichi	Jamiyat va madaniyat	Ichkilashtirish	Ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatli

Jadvaldan ko'rinadiki, iste'mol ehtiyojlari bosqichma-bosqich rivojlanib, dastlab taqlid va tashqi ta'sirlar asosida shakllansa, keyinchalik ichki psixologik ehtiyojga aylanadi. Aynan barqarorlashuv bosqichida milliy qadriyatlar ehtiyojlar tizimining ajralmas qismi sifatida mustahkamlanadi. Bu esa iste'mol xulqining izchilligi va barqarorligini ta'minlaydi.

Milliy qadriyatlar va iste'mol ehtiyojlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik iqtisodiy ong shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy ong shaxsning iqtisodiy jarayonlarni anglash darajasi, resurslardan foydalanishga bo'lgan munosabati va iqtisodiy mas'uliyatini ifodalaydi. Milliy qadriyatlarga asoslangan iqtisodiy ong tejamkorlik, mehnatga hurmat va ijtimoiy mas'uliyat kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bu holat iste'mol ehtiyojlarining nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham o'zgarishiga olib keladi.

Umuman olganda, milliy qadriyatlar iste'mol ehtiyojlarining shakllanish mexanizmlarida asosiy tizimlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ular ehtiyojlarning yo'nalishini belgilaydi, ularni ijtimoiy jihatdan maqbullashtiradi va iqtisodiy xulq-atvorni tartibga soladi. Shu bois, iste'mol madaniyatini rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va milliy o'zlikni mustahkamlashda milliy qadriyatlarni inobatga olish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Milliy qadriyatlar asosida shakllangan iste'mol ehtiyojlari jamiyatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasida muhim regulyativ omil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki bunday ehtiyojlar tasodifiy, impulsiv yoki faqat reklama ta'siri ostida vujudga kelmaydi, balki tarixiy tajriba, ijtimoiy ong va madaniy xotira bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Natijada iste'molchilar iqtisodiy qarorlarida nisbatan barqaror, mas'uliyatli va uzoq muddatli istiqbolni hisobga oluvchi xulq-atvorni namoyon etadilar. Bu holat milliy iqtisodiyotda resurslardan oqilona foydalanish, ichki bozorni mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar ehtiyojlarning normativ chegaralarini belgilab berishi bilan ham ahamiyatlidir. Jamiyatda qabul qilingan me'yorlar iste'molning qaysi shakllari maqbul, qaysilari esa ijtimoiy jihatdan nomaqbul ekanini aniqlaydi. Shu orqali iste'mol ehtiyojlari tartibga solinadi va ularning haddan tashqari ortib ketishining oldi olinadi. Ayniqsa, bu holat yoshlar iste'mol madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlarga tayangan holda shakllangan ehtiyojlar yosh avlodda tejamkorlik, mas'uliyat va ijtimoiy manfaatni hisobga olish kabi sifatlarni rivojlantiradi.

Iste'mol ehtiyojlarining shakllanish mexanizmlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ehtiyojlar faqat individual psixik jarayon mahsuli emas, balki kollektiv ong va madaniy muhit bilan uzviy bog'liq hodisadir. Milliy qadriyatlar ushbu bog'liqlikni ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib, shaxsning ichki motivatsiyasi bilan tashqi ijtimoiy talablarni muvofiqlashtiradi. Natijada iste'mol ehtiyojlari jamiyat manfaatlariga zid bo'lmagan, ijtimoiy jihatdan muvozanatli shaklda namoyon bo'ladi.

Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar asosida shakllangan iste'mol ehtiyojlari madaniy immunitet vazifasini ham bajaradi. Ommaviy iste'mol madaniyati, standartlashtirilgan ehtiyojlar va universal iste'mol modellariga qarshi milliy qadriyatlar shaxsga tanlov erkinligini saqlab qolish imkonini beradi. Bu esa iste'molchilarning o'ziga xosligini, milliy identifikatsiyasini va madaniy barqarorligini ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, milliy qadriyatlarga tayangan iste'mol ehtiyojlari iqtisodiy jarayonlargina emas, balki madaniy xavfsizlik omili sifatida ham namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar iste'mol ehtiyojlarining shakllanishida tizimli, ko'p bosqichli va uzluksiz mexanizm sifatida amal qiladi. Ushbu mexanizm ijtimoiylashuv, identifikatsiya, ichkilashtirish va iqtisodiy xulq-atvorda namoyon bo'lish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Har bir bosqichda milliy qadriyatlar ehtiyojlarning mazmuni, yo'nalishi va ustuvorligini belgilab beradi. Natijada ehtiyojlar nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy va ma'naviy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar asosida iste'mol ehtiyojlarining shakllanish mexanizmlarini o'rganish ijtimoiy psixologiya, iqtisodiyot va madaniyatshunoslik fanlari kesishmasida muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu mexanizmlarni chuqur anglash orqali iste'mol madaniyatini rivojlantirish, iqtisodiy xulq-atvorni tartibga solish va jamiyatda ma'naviy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlash imkoniyati kengayadi. Shu bois, milliy qadriyatlarni iste'mol siyosati, ta'lim tizimi va ijtimoiy dasturlarga integratsiya qilish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2019.
2. Асмолов А.Г. Психология личности: культурно-историческое понимание. – Москва, 2018.
3. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions. – Thousand Oaks: Sage, 2010.
4. Kotler P., Keller K.L. Marketing Management. – Pearson Education, 2016.
5. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 2014.
6. McClelland D. Human Motivation. – Cambridge University Press, 2015.
7. Triandis H.C. Culture and Social Behavior. – New York: McGraw-Hill, 2018.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik tadqiqotlar instituti. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va milliy qadriyatlar. – Toshkent, 2022.
9. Qodirov B. P Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2020.
10. Rahimov. Sh. Iste'mol madaniyati va milliy qadriyatlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

Qo‘chqarova Shakarjon Azimboy qizi
Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi
E-mail: qochqarovashakarjon@gmail.com

MATN TAHLILIDA MUAMMOLI VAZIYATLAR YARATISHNING STEAMGA ASOSLANGAN INNOVATSION METODLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida matn tahlilini samarali tashkil etish uchun STEAM yondashuvi asosida muammoli vaziyatlar yaratishning innovatsion metodlari yoritiladi. Tadqiqotda o‘quvchining matnni anglash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va amaliyot bilan bog‘lash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi integrativ metodlar tahlil qilingan. Xususan, matn mazmunini ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika yo‘nalishlari bilan bog‘lash orqali muammoli vaziyatlar yaratishning afzalliklari asoslab beriladi. Maqolada STEAM loyihalari, modellashtirish, eksperiment, raqamli vositalar bilan ishlash, sahnalashtirish va grafik tasvirlar yaratishga asoslangan metodlar misollar bilan ochib berilgan. Maqola boshlang‘ich ta’lim amaliyotida matn tahlili jarayonini modernizatsiya qilishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar bilan yakunlanadi*

Kalit so‘zlar: *STEAM loyihalari, modellashtirish, muammolar, vizualizatsiya, matn tahlili, integrativ metodlar, o‘qish savodxonligi*

ИННОВАЦИОННЫЕ STEAM-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ МЕТОДЫ СОЗДАНИЯ ПРОБЛЕМНЫХ СИТУАЦИЙ В АНАЛИЗЕ ТЕКСТА

Аннотация. *В данной статье анализируются основные проблемы, возникающие в методике преподавания текста, и причины их возникновения. Особое внимание уделяется трудностям учащихся в работе с текстом, недостаткам методических подходов учителей и ошибкам в подборе текста. Также обсуждаются результаты, полученные на основе наблюдений и интервью, и даются предложения и рекомендации по использованию современных интерактивных методов в преподавании текста, подбору текстов в соответствии с возрастными особенностями и интересами учащихся, а также стимулированию самостоятельного мышления учащихся.*

Ключевые слова: *преподавание текста, методика, проблемы, ученик, грамотность. Интерактивный метод, образовательная эффективность.*

STEAM-BASED INNOVATIVE METHODS FOR CREATING PROBLEM SITUATIONS IN TEXT ANALYSIS

Annotation. *This article analyzes the main problems encountered in the methodology of text teaching and their causes. The study specifically highlights the difficulties of students in working with text, shortcomings in teachers' methodological approaches, and errors in text selection. Also, the results determined on the basis of observations and interviews are discussed, and suggestions and recommendations are given on the use of modern interactive methods in text teaching, the selection of texts in accordance with age and interest characteristics, and the stimulation of students' independent thinking.*

Key words: *text teaching, methodology, problems, student, literacy, interactive method, educational effectiveness.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish eng muhim metodik vazifalardan biridir. Matn ustida ishlash jarayonini faqat reproduktiv yondashuv bilan tashkil etish o‘quvchilarning fikrlash jarayonini cheklaydi, ularni faol o‘quvchi emas, balki eslab qolishga yo‘naltirilgan passiv tinglovchi darajasida qoldiradi. Shu bois matn tahlilida o‘quvchilarni izlanishga, savol berishga, sabab–oqibat bog‘lanishlarini topishga, muammoli vaziyatni mustaqil hal qilishga undaydigan innovatsion

metodlar zarur bo‘ladi. Bunday metodlardan biri – STEAM texnologiyalari asosida muammoli vaziyatlar yaratish yondashuvi hisoblanadi.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi o‘quvchining o‘rganilayotgan matn mazmunini real hayotiy tajribalar, fanlararo bog‘liqlik, modellashtirish, tajriba o‘tkazish, vizual tasavvur yaratish, raqamli vositalardan foydalanish orqali chuqur o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matn tahlilini STEAM asosida tashkil etish matn bilan tanishish jarayonini faollashtiradi, o‘quvchilarni izlanish faoliyatiga chorlaydi va matnni biryoqlama emas, balki kompleks ko‘rinishda tahlil qilish imkonini beradi.

Matn tahlilida muammoli vaziyatlarni yaratishning STEAMga asoslangan yondashuvi o‘quvchilarni kuzatish, tajribadan foydalanish, model yaratish, grafik tasvirlar chizish, muhandislik fikrlash elementlarini qo‘llash, shuningdek san’at va texnologiya vositalari orqali matn mohiyatini anglashga undaydi. Natijada matn tahlili jarayoni qiziqarli, innovatsion va faol o‘quv-bilish faoliyatiga ay-lanadi.

Ushbu maqolada matn tahlilida muammoli vaziyatlar yaratishning zamonaviy STEAMga asoslangan metodlari tahlil qilinib, ularning amaliy ahamiyati, o‘quvchi kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli va boshlang‘ich sinf darslarini modernizatsiya qilishdagi imkoniyatlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Matn tahlili jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish g‘oyasi XX asrning o‘rtalaridan boshlab pedagogik adabiyotlarda keng yoritila boshlangan. J. Dyui, L.S. Vigotskiy, J. Bruner kabi pedagogik psixologiya namoyandalari muammoli o‘qitishning nazariy asoslarini ishlab chiqib, o‘quvchilar tafakkurini faollashtirishning samarali usullarini taklif qilganlar. Dyui (1916) o‘qitish jarayonini “muammo yechishga yo‘naltirilgan faol tajriba” sifatida sharhlab, o‘quvchining faol ishtirokini ta’limning markaziga qo‘yadi. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi esa muammoli vaziyatlar o‘quvchi fikrlash chegaralarini kengaytirishini asoslab beradi.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvining kirib kelishi matn tahlilida ham innovatsion o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Yakman (2008) integrativ ta’limning bilimlararo bog‘liqlikni mustahkamlashini, o‘quvchilarda tahliliy, ijodiy, mantiqiy va texnik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. STEAM yondashuvi adabiyot ta’limiga moslashtirilganda matn ustida ishlash jarayonida modellashtirish, eksperiment, raqamli texnologiyalar, san’at unsurlari va muammoli topshiriqlardan foydalanish imkonini beradi.

Georgette Yakman tomonidan ishlab chiqilgan STEAM modeli zamonaviy ta’lim tizimida fundamental ahamiyat kasb etayotgan konsepsiyalardan biridir. Ushbu model klassik STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta’lim tizimiga san’at yo‘nalishini (Arts) qo‘shish orqali o‘quv jarayonini kreativ fikrlash, tasavvur va emotsional estetik idrok bilan boyitadi. Yakmanning ta’limga oid g‘oyasi o‘quvchini kompleks fikrlashga ega bo‘lgan, ijodkor, muammolarni real sharoitda amaliy yecha oladigan shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Modelning tarkibiy tuzilishi bilimlarning pog‘onama-pog‘ona integratsiyalashgan tizimi sifatida qaraladi. Unga ko‘ra ta’lim mazmuni dastlab alohida fanlarga tayangan holda o‘zlashtiriladi, so‘ng ularning o‘zaro bog‘liqligi, bir nechta fanlar kesimida yechiladigan topshiriqlar, fanlararo keng integratsiya va nihoyat real hayot muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan transdisiplinar kompetensiyalar bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Shu tarzda mazkur bosqichlar o‘quvchini mustaqil fikr yuritish, chuqur tahlil qilish va oqilona xulosa chiqarishga olib keladi.

Yakman konsepsiyasi bir nechta maqsadlarni ko‘zlaydi: fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish, o‘quv predmetlarini yagona tizim sifatida o‘rgatish, XXI asr ko‘nikmalarini – kreativlik, tanqidiy fikrlash, muammo yechish, raqamli savodxonlik va hamkorlikni shakllantirish, shuningdek nazariya va amaliyot orasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash. San’at yo‘nalishining qo‘shilishi ta’limni yanada motivatsion, o‘quvchini esa faol tadqiqotchi va loyiha ustida ishlay oladigan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Model nafaqat texnik va ilmiy fanlarda, balki matn tahlili, badiiy nutq, dramatik tahlil va mazmuniy sharh kabi gumanitar yo‘nalishlarda ham qo‘llanilishi mumkin.

Muammoli ta’limning nazariy asoslari rus pedagogikasida M. I. Maxmutov, T. V. Kudryavtsev, L. V. Zankov tadqiqotlarida keng yoritilgan. Maxmutov (1975)ning ilmiy ishlarida ta’kidlanishicha,

o‘quv jarayoniga kutilmagan vaziyatlar, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni kiritish o‘quvchida bilishga ehtiyojni faollashtiradi, tafakkur jarayonini jonlantiradi va matnni tahlil qilish hamda mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Zamonaviy adabiyotlarda R. Marzano, K. Robinson, H. Gardner kabi olimlar ham ta’lim jarayonida kreativlik, ko‘p qirrali tafakkur va faol o‘quvchini shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarning samaradorligini asoslab beradilar. Xalqaro tadqiqotlar STEAM integratsiyasiga asoslangan o‘qitish modeli muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi va qaror qabul qilish qobiliyatlarini sezilarli kuchaytirishini isbotlagan.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga oid davlat standartlarida (2020–2023) ham tahliliy fikrlash, muammoni hal qilish, ijodiy yondashuv va faol ishtirok kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mahalliy adabiyotlarda I. Yo‘ldoshev, B. Ziyomuhammedov, S. Nishonov, Sh. Amonovlarning didaktika, integrativ ta’lim va innovatsion texnologiyalar haqidagi ilmiy izlanishlari matn bilan ishlashda muammoli vaziyatlar yaratishning nazariy-amaliy imkoniyatlarini ochib beradi.

Matn tahlilida muammoli vaziyatlarni STEAM asosida yaratish bir nechta yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Ilmiy yondashuv orqali matndagi sabab-oqibat munosabatlari, vaqt-makon ketma-ketligi va real hamda fantastik elementlarning mavjudligi tahlil qilinadi: “Ushbu hodisa real hayotda sodir bo‘lishi mumkinmi?”, “Qahramonning qarori ilmiy nuqtai nazardan to‘g‘rimi?” kabi savollar ilmiy fikrlashni shakllantiradi. Texnologiya yo‘nalishida o‘quvchilar interaktiv xaritalar, animatsiyalar, vaqt chiziqlari va matnning raqamli modellaridan foydalanadi. Muhandislik yondashuvi esa muammoni amaliy loyihalash orqali hal etishga yo‘naltiriladi. Masalan, qahramonning qaror qabul qilish jarayonini algoritmik ko‘rinishda ifodalash yoki matndagi ijtimoiy-maishiy muammoni texnik yechimlar orqali modellashtirish mumkin. San’at yondashuvi obrazlar, badiiy ramzlar va his-tuyg‘ular tahliliga asoslanadi: “Qahramonning ichki konfliktini qaysi badiiy detal orqali ifodalash mumkin edi?” Matematik yondashuv esa voqealarni ketma-ketlik, nisbat, grafiklar va mantiqiy daraxtlar orqali tahlil qilishga imkon beradi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy-nazariy manbalar shuni ko‘rsatadiki, matn tahlilida muammoli vaziyatlar yaratishga asoslangan STEAM yondashuvi o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantiribgina qolmay, ularni real hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, erkin fikr bildirish va matnni chuqur hamda ko‘p qatlamli anglashga o‘rgatadi. Integrativ va innovatsion metodlar bugungi ta’lim jarayonining sifatini oshirishda samarali pedagogik vosita sifatida qaralmoqda.

Muhokama va natijalar. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, matn tahlilida muammoli vaziyatlar yaratish o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiruvchi kuchli pedagogik vosita hisoblanadi. STEAM yondashuvi bilan uyg‘unlashtirilgan muammoli metodlar o‘quvchining matnga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, turli fanlar integratsiyasi orqali matn mazmunini ko‘p qirrali idrok etishga imkon beradi. Xususan, ilmiy yondashuv orqali matn mazmunidagi mantiqiy bog‘lanishlar aniqlansa, texnologik vositalar yordamida matnni vizual modellashtirish, vaqt chizig‘i, xarita, diagramma yaratish mumkin bo‘ldi. Muhandislik komponenti o‘quvchilarda matndagi muammoni real hayotiy vaziyatlar bilan qiyoslash va muqobil yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmasini kuchaytiradi.

San’at komponenti matndagi badiiy tasvir, obrazlar, ramziy ma’nolarni talqin qilishga yordam berib, ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Matematik metodlar esa voqealar mantiqiy tizimi, ketma-ketlik, nisbat, graf va sxemalar orqali matn strukturasi bo‘yicha chuqur tahlil qilish imkonini yaratdi.

Mazkur integrativ metodlar qo‘llanilganda o‘quvchilar matnni faqat o‘qish va qayta hikoya qilish bilan cheklanmay, balki u bilan o‘zaro faol ishlaydi, muammoni izlaydi, sabab-oqibatlarni solishtiradi, tanqidiy fikrlaydi. Muhokamalardan ko‘rinib turibdiki, STEAMga asoslangan muammoli vaziyatlar matn ustida ishlash jarayonini yangicha mazmunda tashkil etish uchun samarali platforma bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv an’anaviy matn tahlilidan farqli ravishda o‘quvchini faol tadqiqotchi sifatida shakllantiradi.

Xulosa. Matnni o‘qitish jarayoni ta’lim samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq amaliyotda bu jarayon bir qator muammolar bilan yuzma-yuz keladi. Eng avvalo, matn tanlashda o‘quvchilarning yosh, qiziqish va bilim darajasi yetarlicha hisobga olinmasligi o‘quvchilarni o‘qishga qiziqtirmaydi. Shuningdek, metodik yondashuvlarning bir xilligi, interfaol usullardan yetarlicha foydalanilmasligi va vaqt taqchilligi ham samarali o‘qitishga to‘sqinlik qiladi. O‘quvchilarning mustaqil

fikrlash, asosiy g‘oyani anglash va matndan kerakli ma’lumotni ajratib olish ko‘nikmalari sust shakllangani ham dolzarb muammo hisoblanadi. Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo‘lib yetishishi uchun juda ko‘p narsalarni bilishi kerak. U o‘ziga kerakli bilimni ko‘rib, eshitib va o‘qib o‘rganadi. Eshitib va o‘qib o‘rganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Agar til bo‘lmay, har bir kishining tirikligi uning o‘z tajribasiga asoslangan bo‘lsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday yashagan va bugungi moddiy, ma’naviy taraqqiyotga erishmagan bo‘lardi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. STEAM integratsiyasi matn tahlilini mazmunan boyitadi: o‘quvchilar matndagi voqealarni ilmiy, texnologik, badiiy va mantiqiy rakurslardan tahlil qilib, mazmunni chuqur anglaydi. Muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning tafakkurini faollashtiradi: o‘quvchi matnda yashiringan yoki ochiq ko‘rsatilgan muammolarni topish, ularga muqobil yechim ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.Turli fanlar integratsiyasi o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantiradi: tanqidiy fikrlash, muammo yechish, ijodiy fikrlash, raqamli savodxonlik, mantiqiy tahlil qilish kabi universal ko‘nikmalar shakllanadi. Matn tahlili jarayonida grafik modellar, xaritalar, algoritmlar qo‘llanishi tushunishni osonlashtiradi: o‘quvchilar voqealar ketmaketligini ko‘rish va taqqoslash orqali chuqur xulosalar chiqaradi. STEAM asosidagi metodlar o‘quvchini faol, mustaqil o‘quvchi sifatida shakllantiradi: o‘quvchi matnni tinglovchi emas, balki tadqiq qiluvchi sifatida ishtirok etadi. Innovatsion muammoli metodlar motivatsiyani oshiradi: o‘quvchilar topshiriqlarning interaktiv, vizual va amaliy bo‘lgani uchun o‘qishga qiziqishi ortadi. Adabiyot ta’limida STEAM texnologiyalarini qo‘llash fanlararo bog‘liqlikni kuchaytiradi: adabiy matn boshqa fanlar bilan birgalikda talqin qilinadi, bu esa integrativ fikrlashni shakllantiradi.

Shu sababli matn o‘qitishda metodlarni yangilash, qisqa va mazmunli matnlar tanlash, o‘quvchilarni faol muhokamaga jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda vaqtni oqilona taqsimlash zarur. Bu yo‘nalishdagi ishlar o‘quvchilarda nafaqat matn bilan ishlash, balki mustaqil o‘qish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning kutubxonasi obyektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi insonga, O‘quvchi va o'quvchilar guruhiga hamda alohida o'quvchiga pedagogik jarayonning subyektlar - ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas’uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta’lim va tarbiya berisl faoliyatini bajaradilar. O‘qituvchining pedagogik faoliyatida ijobiy nati jalarga erishishi, mehnat malakasini, ya’ni egallagan bilimlarini o'zini hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo‘llay bilishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Pedagogika / G’. G’. A. Munavvarov tahriri ostida. — Toshkent : O‘qituvchi, 1996. — 19 b.
2. Yakman, G. STEAM Education: An Overviyew of Creating a Model of Integrative Education. — 2008.
3. Yakman, G., Leye, H. Exploring the STEAM Framework in K–12. — 2012.
4. Vygotsky, L. S. Mind in Sociyety: The Development of Higher Psychological Procyesses. — Cambridge, MA : Harvard University Press, 1978.
5. Даниелс, Ҳ. Вйготскй анд Педагогй. — Лондон : Роутледге, 2001.
6. Кудрявсев, Т. В. Проблемное обучение: психология и методика. — Москва, нашриёт кўрсатилмаган

Sagindikova Nargiza Jubatkanovna
Qoraqalpoq davlat universiteti
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor.

OILA QURISHDA MAS'ULIYAT KOMPONENTLARI

Annotatsiya. *Maqolada oila qurishda mas'uliyatni shakllantirishning shaxsiy, emotsional, ijtimoiy-kommunikativ va axloqiy-huquqiy komponentlari batafsil tahlil qilingan. Ushbu komponentlarning o'zaro aloqasi oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va jamiyatda barqarorlikni ta'minlash uchun muhim omil ekanligi ta'kidlangan. Maqola oilaviy mas'uliyatni targ'ib qilish va oila psixologiyasi sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish zarurligini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *oila psixologiyasi, mas'uliyat, shaxsiy komponent, ijtimoiy-kommunikativ komponent, axloqiy-huquqiy komponent.*

КОМПОНЕНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В ПОСТРОЕНИИ СЕМЬИ

Аннотация. *В статье подробно анализируются личностный, эмоциональный, социально-коммуникативный и нравственно-правовой компоненты формирования ответственности в семейной жизни. Отмечается, что взаимосвязь этих компонентов играет ключевую роль в укреплении семейных отношений и обеспечении стабильности в обществе.Работа обосновывает необходимость популяризации семейной ответственности и дальнейшего развития научных исследований в области семейной психологии.*

Ключевые слова: *семейная психология, ответственность, личностный компонент, социально-коммуникативный компонент, нравственно-правовой компонент.*

COMPONENTS OF RESPONSIBILITY FORMATION IN FAMILY BUILDING

Annotation. *The article provides a detailed analysis of personal, emotional, socio-communicative, and moral-legal components in the formation of responsibility in family life. It emphasizes the interrelation of these components as a key factor in strengthening family relationships and ensuring societal stability.The article substantiates the need to promote family responsibility and advance scientific research in the field of family psychology.*

Key words: *family psychology, responsibility, personal component, socio-communicative component, moral-legal component.*

Oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini bólib, uning mustahkamligi va barqarorligi kafolati hisoblanadi. Mamlakatimizda oila qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining "Oila instituti va ayollarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida oila institutining ahamiyatini alohida ta'kidlab, uning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlash bo'yicha aniq vazifalarni belgilab bergan. Ushbu qarorda oilada mas'uliyatni shakllantirish, ayniqsa ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga e'tibor qaratish zarurligi qayd etilgan.

Oilani tashkil etishda mas'uliyatni shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Chunki mas'uliyatli oila jamiyatning barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shadi, insonlar orasida mehr-oqibat va hurmat kabi qadriyatlarni rivojlantiradi. Ushbu masalalar nafaqat mamlakatimizda, balki boshqa xalqlarda ham dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun ham oila mas'uliyatini shakllantirish masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham ilmiy izlanishlar markazida turadi. Mamlakatimiz psixologiyasida oila qadriyatlarini saqlash, mas'uliyatni shakllantirishda milliy mentalitetning ahamiyati katta o'rin tutadi. Rus psixologiyasi esa ushbu jarayonning universal psixologik asoslarini yoritadi.

Mas'uliyat – shaxsning o'z harakatlarining natijasini anglash, o'z zimmasiga javobgarlik olish qobiliyati va majburiyatini aks ettiruvchi muhim psixologik sifatdir. Oila mas'uliyati esa, turmush qurayotgan insonlarning o'zaro munosabatlarda, farzand tarbiyasida va jamiyat oldidagi majburiyatlarida o'z ifodasini topadi. Ushbu tushuncha insonning shaxsiy fazilatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda axloqiy me'yorlar, ijtimoiy qadriyatlar va shaxsiy fazilatlar mujassamlashgan bo'ladi.

Oila mas'uliyati tushunchasi o'zbek va rus psixologiyasida keng tadqiq etilgan. L.S.Vygotskiy mas'uliyatni shaxsning ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq holda tahlil qilib, uning ijtimoiy vaziyatda shakllanishiga e'tibor qaratgan. L.S. Vygotskiyning asarida mas'uliyatning shaxsning ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni haqida quyidagi muhim fikrlar keltirilgan:"Shaxsning rivojlanishi ijtimoiy vaziyat bilan uzviy bog'liq. Inson o'z ijtimoiy muhitida faoliyat olib borgan sayin, mas'uliyat, o'zini anglash va boshqalar oldida javobgarlikni qabul qilish kabi sifatlar shakllanadi.". Vygotskiy fikricha, mas'uliyat shaxsning o'z ijtimoiy muhitidagi munosabatlar jarayonida shakllanadi. Bu shaxsning faqatgina o'z harakatlari uchun emas, balki boshqalar bilan o'zaro munosabatlaridagi javobgarlikni ham o'z zimmasiga olishini anglatadi. Bu yondashuv mas'uliyatni insonning ijtimoiy tajriba asosida rivojlanadigan psixologik xususiyati sifatida qarashga imkon beradi.

Oila mas'uliyati – bu shaxsning nafaqat o'z oilasi, balki jamiyat oldidagi burchini his qilish darajasi. Ushbu tushunchaning asosida shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarning uyg'unlashuvi yotadi.Mas'uliyatni shakllantirishning psixologik komponentlari – shaxsiy, emotsional, ijtimoiy-kommunikativ va axloqiy-huquqiy elementlar oilaning mustahkam asosini tashkil etadi. Har bir komponent o'ziga xos tarzda mas'uliyatni rivojlantirishga ta'sir qiladi, shu bilan birga, ularning o'zaro aloqasi oila a'zolari o'rtasida sog'lom munosabatlar va o'zaro hurmatni shakllantiradi. Bu jarayon, ayniqsa, ota-ona bo'lishni tanlagan shaxslar uchun juda muhimdir, chunki ular nafaqat o'z hayotlari uchun, balki farzandlarining tarbiyasi va jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari uchun mas'uliyatni his qilishlari kerak.

Bugungi kunda oila qurishda mas'uliyatning shakllanishi faqat individual sifat sifatida emas, balki ijtimoiy fenomen sifatida ham qaralmoqda. Jamiyatdagi o'zgarishlar, madaniy va iqtisodiy omillar mas'uliyatni shakllantirish jarayonini yanada murakkablashtirmoqda. Shu sababli, oilaviy mas'uliyatni shakllantirishda nafaqat milliy qadriyatlar va an'analar, balki zamonaviy psixologik yondashuvlar ham muhim rol o'ynaydi.

Mas'uliyatni shakllantirishning psixologik komponentlarini tahlil qilish orqali oila psixologiyasi sohasida yanada chuqurroq ilmiy va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Mas'uliyatni shakllantirishning psixologik komponentlari.

1. Emotsional komponent.

Emotsional komponent mas'uliyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu shaxsning o'z harakatlari va qarorlari natijasiga nisbatan his qiladigan emotsiyalari, ya'ni ichki hissiy javobi bilan bog'liq. Emotsional komponent quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

-Hamjihatlik hissi: shaxs boshqalar bilan o'zaro munosabatlarda samimiylik, mehr-oqibat va hamdardlik kabi his-tuyg'ularni rivojlantiradi. Bu hissiyotlar mas'uliyatni qabul qilishni kuchaytiradi. Oila kontekstida, turmush o'rtoqlar va farzandlar o'rtasida hissiy yaqinlik mas'uliyatli munosabatlarning asosiy shartidir.

-Ijtimoiy moslashuv: emotsional jihatdan barqaror shaxs o'zining ijtimoiy rollarini muvaffaqiyatli bajaradi. Mas'uliyatni his qilish va uni qabul qilish uchun insonning ichki emotsional barqarorligi muhimdir.

-Javobgarlik hissi: inson o'z harakatlarining natijalarini oldindan tasavvur qilish va ularga nisbatan javobgarlikni his etish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Masalan, ota-onaning farzandi tarbiyasidagi mas'uliyatni his qilishi ko'p jihatdan ulardagi ijobiy emotsiyalarga bog'liqdir. Javobgarlik hissi mas'uliyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir va shaxsning o'z harakatlari natijalari ustidan mulohaza yuritish qobiliyatini ifodalaydi. Inson o'z qarorlari oqibatlarini oldindan tasavvur qilib, ular uchun javobgarlikni anglash orqali mas'uliyatni qabul qiladi. Bu jarayon nafaqat intellektual, balki hissiy jihatdan ham qo'llab-quvvatlanadi. Ota-onalar misolida, farzand tarbiyasidagi mas'uliyatni his qilish ularning farzandlariga bo'lgan mehr-muhabbati va ijobiy emotsiyalariga tayanadi. Mehr va

sevgi hissi, shuningdek, o‘z farzandining kelajagi uchun qayg‘urish ota-onani mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga undaydi. Shu sababli, javobgarlik hissi ijobiy emotsiyalar bilan boyitilganida yanada barqaror va samarali bo‘ladi.

-Afzallik va pushaymonlik hissi: mas’uliyatni his qilish shaxsning harakatlaridan qoniqish yoki pushaymonlik his etishi orqali ham rivojlanadi. Bu his-tuyg‘ular insonni o‘zini tahlil qilishga, xatolarini tuzatishga va kelajakda mas’uliyatliroq bo‘lishga rag‘batlantiradi.

Emotsional komponent mas’uliyatni shakllantirishning poydevori hisoblanadi, chunki shaxsning his-tuyg‘ulari uning qarorlarini qabul qilishiga, munosabatlariga va harakatlariga bevosita ta’sir qiladi. Mas’uliyat faqatgina intellektual qaror emas, balki chuqur hissiy javobgarlikdir.

2.Ijtimoiy-kommunikativ komponent.

Mas’uliyatni shakllantirishning ijtimoiy-kommunikativ komponenti shaxsning jamiyat bilan o‘zaro aloqalarida o‘z harakatlari va qarorlari uchun javobgarlikni anglashini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Bu komponent shaxsning muloqot, ijtimoiy moslashuv va boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarida mas’uliyatni qabul qilish va uni amalga oshirish qobiliyatiga asoslanadi. Insonning ijtimoiy hayoti jarayonida, mas’uliyat uning o‘zaro muloqotlari va ijtimoiy rollarni bajarish orqali shakllanadi.

Ijtimoiy-kommunikativ komponentni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri muloqot va axborot almashinuvidir. Shaxsning boshqalar bilan muloqoti uning qarorlarini anglash, ularni baholash va oqibatlarini tushunishga xizmat qiladi. Muloqot jarayonida shaxs o‘z fikrlarini boshqalarga yetkazib, ular bilan o‘zaro kelishuvga erishadi, bu esa mas’uliyatning ijtimoiy aspektini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, oilada turmush o‘rtoqlar o‘zaro muloqot orqali mas’uliyatni bo‘lib olishadi, bu esa nafaqat oilaviy barqarorlikni, balki birgalikdagi javobgarlikni ham ta’minlaydi.

Ijtimoiy rollar ham mas’uliyatni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Har bir shaxsning jamiyatdagi o‘rni va roli (ota, ona, rahbar yoki xodim) o‘ziga xos vazifalar va javobgarliklarni o‘z ichiga oladi. Ushbu rollarni muvaffaqiyatli bajarish ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanishini talab qiladi. Oila kontekstida, masalan, ota va ona farzand tarbiyasida o‘z vazifalarini o‘zaro muvofiqlashtirishlari va bir-birlariga ko‘maklashishlari orqali mas’uliyatni taqsimlashadi. Bunday hamkorlik nafaqat shaxsiy javobgarlikni, balki birgalikdagi javobgarlikni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Empatiya ijtimoiy-kommunikativ komponentning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shaxsning boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash va ularga moslashish qobiliyati mas’uliyatni qabul qilish va uni samarali bajarishga yordam beradi. Empatiya orqali inson boshqalarning ehtiyojlarini tushunadi va ularga yordam berish mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishga tayyor bo‘ladi. Bu jarayon nafaqat oilaviy munosabatlarda, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda ham mas’uliyatli xatti-harakatlarni rivojlantiradi.

Ijtimoiy-kommunikativ komponent shaxsning ijtimoiy javobgarlikni his qilishini rivojlantiradi. Bu nafaqat oiladagi munosabatlarda, balki kasbiy faoliyatda va kengroq ijtimoiy doirada ham namoyon bo‘ladi. Shaxs o‘z harakatlarining boshqalar hayotiga ta’sirini anglaganida, u mas’uliyatli bo‘lishga intiladi. Bunday jarayonlar orqali mas’uliyat jamiyatda muvofiqlik va barqarorlikni ta’minlaydigan asosiy omilga aylanadi.

3.Axloqiy-huquqiy komponent.

Mas’uliyatni shakllantirish jarayonida axloqiy-huquqiy komponent markaziy ahamiyatga ega bo‘lib, u shaxsning axloqiy qadriyatlarni qabul qilishi va huquqiy me’yorlarga rioya qilishi orqali namoyon bo‘ladi. Bu komponent shaxsning o‘z xatti-harakatlari uchun nafaqat ichki (axloqiy), balki tashqi (huquqiy) javobgarlikni ham anglashiga asoslanadi. Axloqiy-huquqiy komponent mas’uliyatni shakllantirishning muhim asosini tashkil etadi, chunki insonning jamiyatdagi xulq-atvori shu me’yorlarga mos ravishda tartibga solinadi.

Axloqiy jihatdan mas’uliyat shaxsning ichki qadriyatlar tizimi va ma’naviy ideallari bilan bog‘liqdir. Axloqiy javobgarlik insonning o‘z harakatlarining boshqalarga ta’sirini oldindan ko‘ra bilish, ijtimoiy me’yorlarga muvofiq ravishda harakat qilish va axloqiy majburiyatlarni bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Masalan, oilaviy munosabatlarda ota-onaning axloqiy javobgarligi ularning farzandlari uchun namunali xatti-harakatlarni namoyish etishidan ko‘rinadi. Bunday holat bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida ahloqiy me’yorlarni o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Huquqiy komponent esa shaxsning jamiyatdagi huquqiy me'yor va qoidalarga bo'ysunishini, shuningdek, ularning buzilishi oqibatlarini anglashini ta'minlaydi. Huquqiy javobgarlik oilaviy hayotda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki oila tuzish va uni boshqarish jarayoni ko'pincha huquqiy asosga ega. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi oilaviy munosabatlarda er-xotin va ota-onalarning mas'uliyatlarini belgilab bergan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi"da ota-onalarning farzandlarini tarbiyalash va ularga moddiy ta'minot ko'rsatish majburiyatlari aniq bayon etilgan. Bu huquqiy asos oilaviy mas'uliyatning ijtimoiy jihatini mustahkamlaydi.

Axloqiy-huquqiy komponentni shakllantirishda ijtimoiy muhit va shaxsning shaxsiy tajribasi muhim ahamiyatga ega. Axloqiy javobgarlik ko'pincha insonning oila va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlari jarayonida rivojlanadi. Huquqiy javobgarlik esa huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Masalan, ota-onalarning huquqiy xabardorligi ularning farzandlariga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi. Ular nafaqat huquqiy talablarni bajarayotganliklarini, balki o'z farzandlariga axloqiy yetakchilik qilayotganliklarini ham his qiladilar.

Axloqiy-huquqiy komponent mas'uliyatni shakllantirishda ichki va tashqi omillarni uyg'unlashtiradi. Axloqiy qoidalar shaxsni ichki o'zini nazorat qilishga undasa, huquqiy me'yorlar tashqi mas'uliyatni shakllantiradi. Maqsudov o'z asarida shaxsning ma'naviy yetukligi uning oilaviy munosabatlarda mas'uliyatli qarorlar qabul qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Oilada axloqiy qadriyatlar asosida shakllangan mas'uliyat jamiyatda barqarorlik va ahillikni ta'minlashga xizmat qiladi. Maqsudovning mazkur fikri shuni ko'rsatadiki, oilaviy mas'uliyatning axloqiy asoslari nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatdagi barqarorlik va ahillikni ta'minlash uchun ham muhimdir. Axloqiy-huquqiy komponent oilaviy muhitda shakllanganida, oila nafaqat farzandlar tarbiyasi, balki kengroq ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z zimmasiga oladi. Shu bilan birga, axloqiy yetuklik va huquqiy bilimdonlik uyg'unlashgan holda mavjud bo'lganda, mas'uliyatni amalga oshirish yanada samarali kechadi. Bu fikrni kengroq nuqtayi nazardan baholaganda, jamiyatning ma'naviy va huquqiy poydevorini mustahkamlashda oilaviy mas'uliyatni targ'ib qilish zarurligi yaqqol ko'rinadi.

4.Shaxsiy komponent.

Mas'uliyatni shakllantirishda shaxsiy komponent markaziy o'rin tutadi. Ushbu komponent insonning ichki psixologik xususiyatlari, uning qabul qilgan qarorlari, o'z harakatlari natijalariga bo'lgan munosabati va bu jarayonlarda o'zini nazorat qilish qobiliyatini ifodalaydi. Shaxsiy komponent mas'uliyatni ichki qabul qilishga asoslangan bo'lib, insonning maqsadlari, qadriyatlari va motivlarini anglash orqali rivojlanadi.

Shaxsiy komponentning eng muhim jihati – bu o'z-o'zini anglashdir. Inson o'zining harakatlarini tahlil qilish, ulardan kelib chiqadigan natijalarni oldindan baholash va shu jarayon orqali o'z mas'uliyatini his qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. O'z-o'zini anglash mas'uliyatni qabul qilishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, shaxsning qarorlarida va kundalik xatti-harakatlarida aks etadi. Bu, ayniqsa, oilaviy munosabatlarda muhimdir. Masalan, ota yoki ona sifatida shaxs farzandlariga nafaqat moddiy, balki ma'naviy tarbiya berish mas'uliyatini ham anglaydi.

Shaxsiy komponent motivatsiya jarayoni bilan ham bog'liqdir. Mas'uliyatni rivojlantirishda shaxsning ichki motivlari uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Misol uchun, ota-onaning farzandlari uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratishga bo'lgan intilishi, ularda mas'uliyatni qabul qilishga va o'z harakatlarini ongli ravishda boshqarishga olib keladi. Bu motivlar insonning o'z maqsadlarini jamiyat manfaatlari bilan muvofiqlashtirish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Shaxsiy komponent o'z-o'zini nazorat qilish orqali rivojlanadi. Bu jarayon shaxsning o'z his-tuyg'ulari, fikrlari va xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyatini ta'minlaydi. O'z-o'zini nazorat qilish mas'uliyatli qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ota-onaning farzandlariga bo'lgan talabchanligi va bir vaqtning o'zida mehribonligi ularning mas'uliyat darajasiga bog'liqdir. Bu xususiyatlar oilada sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga yordam beradi.

Yusupova fikriga ko'ra, shaxsiy komponent mas'uliyatni shakllantirishda asosiy ahamiyatga ega bo'lib, uning asosi shaxsning o'z maqsad va motivlarini ongli ravishda boshqarish qobiliyatidir. U o'z-o'zini anglash va o'zini nazorat qilish orqali jamiyat oldidagi mas'uliyatini shakllantiradi. Yusupova ta'kidlaganidek, inson o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'ra olish qobiliyatini rivojlantirganida, u nafaqat o'zining ichki dunyosini tartibga soladi, balki oilada va jamiyatda ham mas'uliyatni amalga oshiradi.

Shaxsiy komponent mas'uliyatni ichki psixologik jarayonlar asosida shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Insonning o'z-o'zini anglash, motivatsiyasi va o'zini nazorat qilish qobiliyati orqali mas'uliyat individual darajada rivojlanadi. Ushbu komponent insonning jamiyat oldidagi mas'uliyatini qabul qilishida va o'zining ijtimoiy munosabatlardagi rolini to'g'ri baholashida muhim o'rin tutadi. Yusupovaning fikriga qo'shimcha sifatida ta'kidlash mumkinki, shaxsiy komponent faqat individual rivojlanish bilan chegaralanib qolmay, balki oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va jamiyatda mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, mas'uliyatning shaxsiy jihatini rivojlantirish nafaqat individ, balki ijtimoiy muhitning farovonligini ta'minlashda ham ahamiyatlidir.

Oila qurishda mas'uliyatning shakllanishi shaxsiy, emotsional, ijtimoiy-kommunikativ va axloqiy-huquqiy komponentlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligiga asoslanadi. Har bir komponent oilaviy hayotning turli jihatlarini o'z ichiga olib, oilaviy munosabatlarning barqarorligi va mustahkamligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu komponentlarning shakllanishi shaxsning ichki dunyosidan boshlab, uning ijtimoiy muhit va huquqiy me'yorlarga munosabatigacha bo'lgan jarayonlarda aks etadi.Shaxsiy komponent shaxsning o'z harakatlari natijalarini anglash, o'z-o'zini nazorat qilish va ichki javobgarlikni his qilish qobiliyatidan iboratdir. Bu komponent insonning maqsadlari, qadriyatlari va motivatsiyasi orqali rivojlanib, oilaviy mas'uliyatni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilishni ta'minlaydi. Emotsional komponent esa oiladagi hissiy barqarorlik va mehr-muhabbatning asosiy manbai bo'lib, oilaviy rishtalarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy-kommunikativ komponent oiladagi o'zaro muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan hurmati, ochiq muloqoti va hamkorlikdagi harakatlari oilaviy rishtalarni yanada mustahkamlaydi. Axloqiy-huquqiy komponent esa oilaning ma'naviy poydevori va huquqiy asosini mustahkamlaydi. U shaxsning o'z huquqiy majburiyatlarini anglashini va axloqiy qadriyatlar asosida o'z xatti-harakatlarini boshqarishini ta'minlaydi.

Shu bilan birgalikda S. N. Zagumenov gender madaniyatini gender tayyorgarligining ajralmas qismi, ushbu masala bo'yicha ongli javobgarlik deb biladi, bu ayol va erkakning shaxsiyatini turli xil biologik, ammo teng ijtimoiy mavjudotlar sifatida shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida gender tengligi prinsipiga rioya qilish, shuningdek, demokratik qiymat-me'yoriy taqdimotlar muvaffaqiyatli takrorlanadigan fuqarolik ongi, javobgarlik darajasi qo'llab-quvvatlanadi jinsidan qat'i nazar, har bir insonning fazilatlari zamonaviy dunyoni rivojlantirishning eng muhim maqsadlaridan biriga kiradi. Shu maqsadda, yoshlar muhitida gender madaniyatini, ongli mas'uliyatni tarbiyalash, ayollar va erkaklar haqidagi stereotipik g'oyalar ularni tanlash erkinligini cheklamaydigan va rivojlanish ikkala jins vakillarini tanlash erkinligini kengaytirish jarayoni sifatida qaraladigan bunday fikrlashni shakllantirish usullaridan biridir. bu o'z navbatida ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi. jamiyat.

Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqqan holda, keng tarqalgan olimlarning fikriga ko'ra, jamiyatni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish shaxsning uyg'un rivojlanishi uchun teng imkoniyatlarni yaratish va kuchaytirish, uni amalga oshirish va o'zini anglash uchun ob'ektiv jarayonning maqsadli rivojlanishini belgilaydi degan xulosaga kelish maqsadga muvofiqdir. Ularning ijtimoiy kelib chiqishi, mavqei, millati, yoshi, shuningdek jinsidan qat'i nazar, barcha odamlar, shu bilan birga, jamiyatning haqiqiy insonparvarligi, uning barqaror va xavfsiz ishlashi, shuningdek, gender muammolarini, ushbu jihatdagi salbiy stereotiplarni yengib o'tishni, jamoat madaniyatida ongli gender mas'uliyatini, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida teng gender huquqlarini, shu jumladan, birinchi navbatda, ta'lim amaliyotini yaratishni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, oila qurishda mas'uliyatni shakllantirish nafaqat oilaviy hayotning muvaffaqiyatini ta'minlash, balki jamiyatda barqarorlik va taraqqiyotga erishishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, oila psixologiyasi sohasida tadqiqotlarni rivojlantirish va oilaviy mas'uliyatni targ'ib qilish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa bo'lib qolmoqda. Bu borada milliy va xalqaro tajribaning o'zaro uyg'unlashuvi, oilaviy qadriyatlar va psixologik mas'uliyatning chuqur o'rganilishi jamiyatda oilaviy institutning yanada mustahkamlanishiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.Mirziyoyev.Sh.M. (2021). Oila instituti va ayollarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qaror, 30-sentabr, № PQ-5247. Toshkent: Adolat nashriyoti, 3–5-b.

2. Maqsudov.A. (2010). Oila psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 47–48-b.

3. Maqsudov.A. (2010). Oila psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 56–58-b.

4. Vigotskiy.L.S (1982). Мышление и речь. Moskva: Pedagogika, 122-b.

5. Yusupova.D (2018). Oilaviy qadriyatlar va psixologik mas’uliyat. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 120–123-b.

6. Загуменов С.Н. Индивидуально-психологические и социальные детерминанты гендерных различий в системе межличностных отношений. // Вестник университета. Социология и управление персоналом. - М.: Изд-во ГОУ ВПО «ГУУ», - 2008, - №6 (44). - С. 48-49

Sobirov Tolib Ro'ziyevich
Buxoro davlat pedagogika instituti Musiqa va tasviriy san'at kafedrasi professori,
Ibragimova Mehrinoz Bobir qizi
Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi mutaxasisligi magistranti

UMUMTA'LIM MAKTABLARI CHIZMACHILIK DARSLARIDA, ORTOGONAL PROEKSIYALASHNING O'RNI VA UNING O'QUVCHILAR FAZOVIY TASAVVUR QILISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari chizmachilik darslari jarayonida ortogonal proyeksiyalash usulining o'quvchilar fazoviy tasavvurini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Chizmachilik fani misolida ortogonal proyeksiya yordamida, murakkab fazoviy shakllarni idrok etish, ularni ikki o'lchamli tasvirga ko'chirish va texnik tafakkurni shakllantirish bo'yicha nazariy hamda amaliy mulohazalar yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ortogonal proyeksiya,fazoviy tasavvur, geometri jismlar, texnik tafakkur, chizmachilik, geometrik tasvirlash*

РОЛЬ ОРТОГОНАЛЬНОГО ПРОЕЦИРОВАНИЯ НА УРОКАХ ЧЕРЧЕНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ СПОСОБНОСТИ УЧАЩИХСЯ К ПРОСТРАНСТВЕННОМУ ВООБРАЖЕНИЮ

Аннотация. *В данной статье научно обоснованно анализируется роль метода ортогонального проецирования в развитии пространственного воображения учащихся в процессе преподавания черчения в общеобразовательной школе. На примере учебного предмета «Черчение» рассматриваются теоретические и практические аспекты восприятия сложных пространственных форм с помощью ортогональной проекции, их преобразования в двухмерное изображение, а также формирования технического мышления.*

Ключевые слова: *ортогональная проекция, пространственное воображение, геометрические тела, техническое мышление, черчение, геометрическое изображение.*

THE ROLE OF ORTHOGONAL PROJECTION IN TECHNICAL DRAWING LESSONS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS AND ITS IMPORTANCE IN DEVELOPING STUDENTS' SPATIAL VISUALIZATION ABILITY

Annotation. *This article provides a scientifically grounded analysis of the role of the orthogonal projection method in developing students' spatial imagination during the teaching of drawing in general secondary education. Using the subject "Drawing" as an example, the theoretical and practical aspects of perceiving complex spatial forms through orthogonal projection, their transformation into two-dimensional images, as well as the formation of technical thinking, are examined.*

Key words: *orthogonal projection, spatial imagination, geometric solids, technical thinking, drawing, geometric representation.*


Kirish. Bugungi kunda texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir sharoitda fazoviy fikrlash, fazodagi obyektlarni to'g'ri tasavvur qilish va ularni grafik ko'rinishda ifodalash ko'nikmalari umumiy o'rta ta'lim o'quvchilari uchun zarur kompetensiyalardan biriga aylanmoqda. Chizmachilik fani aynan ushbu kompetensiyalarni shakllantiruvchi asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Bu fan va mavzu yordamida kelajak avlodning fazoviy tasavvurini va elektron texnika vositalariga bog'lanib qolmasdan ham barcha murakkab bo'lgan jism va buyumlarni o'z ongida tasavvur qilishga yordam beradi. Chizmachilk fani nafaqat tasavvurni rivojlantiradi balki mukammal texnalogiyalar yaratishda ham asos bo'ladi. Mazkur fan doirasida o'rgatilayotgan ortogonal proyeksiyalash usuli fazoviy tasavvurni rivojlantirishda eng samarali texnikalardan biri sifatida etirof etiladi. Ortogonal proyeksiyalash - bu fazodagi obyekt nuqtalarini proyeksiya tekisligiga perpendikulyar chiziqlar yordamida tushirish usuli bo'lib, u geometrik tasvirlashning asosiy prinsipi hisoblanadi. Ushbu usulning asosiy mohiyati

uch o‘lchamli obyektni ikki o‘lchamli tekislikda aniq va tushunarli ko‘rinishda aks ettirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Ortogonal proyeksiyalashning nazariy asoslari quyidagi tamoyillarga tayanadi:

1.Bunda proeskiya tekisliklari o’zoro perpendikulyar (90 gradius burchak ostida) joylashadi.Bunda frontal proeksiyalar tekisligi deb aytiladigan qarshimizdagi (V) tekislik tekislik va unga perpedikulyar joylashgan buymni ustidan ko’rinishi tasvirlanadigan gorizontal proeksiyalar tekisligi deb aytiladigan (H) tekisligi joylashadi. Buyumni yon tomonidan tasvirlovchi (W) tekisligi bi ikki proeksiya tekisligiga perpendikulyar vaziyatda joylashib profil proeksiya tekisligi deyiladi.

2. Proyeksiya nurlari AA1,AA2 va AA3proyeksiya tekisligiga perpendikulyar bo‘ladi.(1-shakl)



1-shakl

Biz odatda uch proeksiya tekisliklari va unga tasvirlangan geometrik shakllarning fazoviy holatni tahlil qilib so’ngra epyur (tekis shaklga) holatiga keltiramiz.proeksion chizmalar shu nazariyaga asoslanadi.

3. Obyektlarning haqiqiy o‘lchamlari aks ettirilgan chizmada saqlanadi.

4. Fazodagi murakkab shakllar proyeksiyalar orqali soddalashtirilgan holda ifodalanadi.

Mazkur prinsiplardan foydalanish texnik chizmalarni o‘qish, loyihalash, konstruktorlik fikrlashni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi

Fazoviy tasavvurni rivojlanishda ortogonal proeksiyalashning o’rni

Fazoviy tasavvur - o‘quvchilarning fazodagi obyektlarning shakli, o‘lchami, o‘zaro joylashuvi va holati haqidagi tasavvurlarini ongda tiklash hamda ularni o‘zgartira olish qobiliyatidir. Mazkur ko‘nikma matematika, fizika, texnologiya, informatika va mehnat ta’limi kabi ko‘plab fanlar uchun asosiy kognitiv platforma vazifasini bajaradi. Ortogonal proyeksiyalashning fazoviy tasavvurni rivojlantirishdagi asosiy funksiyalari:

1. Uch o‘lchamli tafakkurni shakllantirish.

O‘quvchi har bir detalning bir necha proyeksiyada aks ettirilishini kuzatgan sari, fazodagi obyektni ongida qayta tiklash qobiliyati shakllanadi.

2. Analitik fikrlashni rivojlantirish

Proyeksiyalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tahlil qilish o‘quvchilarni mantiqiy va tizimli fikrlashga undaydi.

3. Murakkab shakllarni soddalashtirib tushunish

Murakkab geometrik obyektlarning turli ko‘rinishlardan proyeksiyalanishi ularni bosqichma-bosqich idrok etishga imkon yaratadi.

4. Texnik tafakkurni shakllantirish

Chizmalarni o‘qish, ularni yaratish va tahlil qilish jarayoni muhandislik fikrlashining asosini tashkil etadi.

Chizmachilik fanida ortogonal proyeksiyalashni o‘qitishning metodik ahamiyati

Chizmachilik darslarida ortogonal proyeksiyalashni o‘rgatish murakkab geometrik tushunchalarni sodda, aniq va o‘quvchi uchun tushunarli ko‘rinishda yetkazishga imkon beradigan samarali metodlardan biridir. Ortogonal proyeksiyalash bevosita chizma geometriya fani bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani uchun chizma geometriyani chizmachilikning “grammatikasi” deb atash bejiz emas. Qiyos qiladigan bo‘lsak, birinchi sinf o‘quvchisi avval harflarni, so‘ng ularni birlashtirmoq orqali so‘zlarni o‘qishni o‘rganadi, keyingi bosqichlarda esa badiiy matnni ifodali tarzda o‘qiy oladi. Xuddi shunday, chizmachilikda ham fazoviy shakllarning ortogonal proyeksiyalar asosida berilishi o‘quvchiga shakllarni ongda tasavvur qilish, ularni tahlil qilish va qayta tasvirlash imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim standartlariga tayanib, ortogonal proyeksiyalashni o‘qitishda bir qator metodlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Jumladan, amaliy mashg‘ulotlarda proyeksiyalarni mustaqil bajarish, 3D modellashtirish dasturlari orqali shakllarni vizual idrok qilish, interfaol metodlardan – klaster, Venn diagrammasi, muammoli vaziyatlar – foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Shuningdek, real predmetlar asosida uch o‘lchamli shakllarni kuzatish o‘quvchilarga obyektning fazoviy xususiyatlarini yanada aniqroq anglashga yordam beradi. Natijada o‘quvchilar chizmalarni o‘qish, ularni tahlil qilish, qayta tasvirlash jarayonida fazoviy tasavvurini mustahkam egallaydi.

Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi pedagogika fanining alohida tarmog‘i sifatida bir qator vazifalarni bajaradi. Jumladan, umumta’lim maktablarida chizmachilikni o‘qitishning aniq maqsadlarini, fanning bilim berish va tarbiyaviy ahamiyatini belgilash; o‘quv jarayonining mazmuni va strukturasini aniqlash; o‘quvchilarda mustahkam bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi eng qulay o‘qitish usul va vositalarini ishlab chiqish; o‘quvchilarning bilim olish jarayonini tadqiq qilish kabi vazifalar ushbu yo‘nalish zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, bu metodika chizmachilik kursining asosiy mavzularini qanday o‘rganish, grafik masalalarning rolini aniqlash, chizmani o‘qish va bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llarini o‘rgatadi.

Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi doirasiga o‘qitishning tashkiliy shakllari va metodlarini ishlab chiqish, o‘quv-ko‘rgazmali vositalar – plakat, maket, modellashgan qurilmalar – ni tanlash va yaratish, chizmachilikning matematika va mehnat kabi boshqa fanlar bilan aloqalarini aniqlash ham kiradi. Xususiy metodika esa dars mavzularining ketma-ketligi, tushunchalarni shakllantirish usullari, ko‘rgazmali vositalardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar hamda grafik va amaliy ishlarning mazmunini belgilashga yo‘naltiriladi.

Fazoviy tasavvurni rivojlantirishning ta’lim jarayonidagi o‘rni alohida e’tiborga molikdir. Chunki insonning ilmiy va amaliy faoliyati, o‘z navbatida, tasavvurda shakllangan model yoki g‘oya asosida qaror topadi. Katta kashfiyotlar va texnik ixtirolar odatda olimning ongida fazoviy tasavvur sifatida paydo bo‘ladi va keyinchalik real voqelikka aylanadi. Shu ma’noda fazoviy tasavvur kuchli bo‘lgan shaxslar ijodkorlik, tadqiqotchilik va yaratuvchanlik faoliyatida yuqori natijalarga erisha oladi.

Ortogonal proyeksiyalash o‘quvchilarning uch o‘lchamli shakllarni ongida tiklash, ularni tahlil qilish hamda proyeksiyasini yaratish qobiliyatini rivojlantirib, analitik fikrlash, texnik tafakkur va grafik savodxonlikni shakllantiradi. Eng muhimi, bu jarayon o‘quvchini mustaqil fikrlab qaror qabul qilishga, o‘z faoliyatini rejalashtirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ortogonal proyeksiyalash chizmachilik fanida fazoviy tasavvur, texnik fikrlash va grafik savodxonlikni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biridir. Ushbu usulni maktab davridan boshlab samarali o‘rgatish kelajakdagi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan birga o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va yaratuvchanlikni ro‘yobga chiqarishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Собиров, Т. Р. Аристотель ва Евклид тадқиқотларидаги илмий назарияларга Фаробийнинг билдирган фикрлари // Экономика и социум. — 2023. — № 11 (114)-1. — С. 1010–1013.

2. Бадиев, М. М., Собиров, Т. Р., Авлиякулов, М. М., Азимов, С. С. Анализ обратных задач в начертательной геометрии // Наука и образование сегодня. — 2021. — № 5 (64). — С. 76–77.

3. Авлиякулов, М. М., Собиров, Т. Р., Бадиев, М. М., Азимов, С. С. Общие законы композиции в резьбе по дереву // European Science. — 2021. — № 2 (58). — С. 32–34.

4. Собиров, Т. Р. и др. Об общественном положении зодчих и архитекторов Среднего и Ближнего Востока в IX–XV веках // European Science. — 2021. — № 2 (58). — С. 59–62.

5. Собиров, Т. Р. Обучение геометрическому орнаменту в узбекской школе. — 1993. *(нашриёт ва шаҳар кўрсатилмаган — агар маълум бўлса, қўшимча киритиш мумкин)*.

6. Ёдгоров, Ж., Собиров, Т. Р., Ёдгоров, Н. Ж. Геометрик ва проекцион чизмачилик. — Тошкент : Фан, 2008.

7. Azimov, S. S., Sobirov, T. R., Badiev, M. M., Avliyakulov, M. M. The Essence and Content of Folk and Applied Art of Uzbekistan and Central Asia // European Science. — 2021. — № 2 (58). — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/the-essence-and-content-of-folk-and-applied-art-of-uzbekistan-and-central-asia (дата обращения: 13.03.2024).

8. Sobirov, T. R., Majidova, G. A. Musiqa va san’at maktablarida fortepiano o‘qitish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari // Экономика и социум. — 2024. — № 1 (116). *(sahifa raqamlari ko‘rsatilmagan — kerak bo‘lsa qo‘shimcha qilinadi).*

9. Sobirov, T. R., Omonov, Q. K. Graphical Basis of Girikh Used in Traditional Applied Decorative Art of Central Asia in the 9–15th Centuries // Journal of Contemporary Issues in Business and Government. — 2021. — Vol. 27, No. 1. — P. 1–? *(sahifa to‘liq ko‘rsatilmagan — aniqlashtirilsa to‘liq rasmiylashtiramiz).*

10. Содиқов, А., Жўраев, М. Чизмачилик ва муҳандислик графикаси. — Тошкент : Ўқитувчи, 2019.

11. Каримов, С. Геометрик чизмачилик асослари. — Тошкент : Фан ва технология, 2020.

12. Тўлаганов, Б., Холматова, Д. Техник графика : назария ва амалиёт. — Тошкент : Турон-Иқбол, 2021.

13. Қосимов, Т. Мактабда чизмачиликни ўқитиш методикаси. — Тошкент : Шарқ, 2018.

14. Собиров, Т. Р. Maktabgacha ta’lim muassasalari 4–5 yoshdagi bolalar iqtidorini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o‘rni // Pedagogik akmeologiya : xalqaro ilmiy-metodik jurnal. — 2025. — № 9 (26). — С. 78–80.

Urazbayeva Umida Abdullayevna
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

PEDAGOG EMOTSIONAL INTELLEKTI- INKLYUZIV TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA MUHIM RERURS SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada pedagoglarda emotsional intellekt namoyon bo'lishining o'ziga xosligi, ta'lim jarayonida inklyuziv xususiyatli o'qitish tizimida hissiy intellektning afzalliklari, ta'lim oluvchilar bilan empatik munosabatlarning o'quvchilar ijtimoiy ko'nikmalariga ijobiy ta'siri kabi masalalar tadqiq qilingan. Shuningdek, inklyuziv ta'lim sifatini ta'minlashda emotsional intellektning pedagoglarda namoyon bo'lishi masalalari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *emotsional intellekt, inlyuziv ta'lim, empatiya, pedagog kompetensiyalari, ijtimoiy ko'nikmalar, psixologik qo'llab-quvvatlash, inlyuziv pedagogika.*

ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ ПЕДАГОГА КАК ВАЖНЫЙ РЕСУРС ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВА ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности проявления эмоционального интеллекта у учителей, преимущества эмоционального интеллекта в образовательном процессе в инклюзивной системе образования, положительное влияние эмпатических отношений с учениками на их социальные навыки. Также рассматривается проявление эмоционального интеллекта у учителей в обеспечении качества инклюзивного образования.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, инклюзивное образование, эмпатия, педагогические компетенции, социальные навыки, психологическая поддержка, инклюзивная педагогика.*

TEACHERS' EMOTIONAL INTELLIGENCE AS A KEY RESOURCE FOR ENSURING THE QUALITY OF INCLUSIVE EDUCATION

Annotation. *The article examines the specifics of the manifestation of emotional intelligence in teachers, the advantages of emotional intelligence in the educational process in an inclusive education system, the positive impact of empathetic relationships with students on students' social skills. It also examines the manifestation of emotional intelligence in teachers in ensuring the quality of inclusive education.*

Key words: *emotional intelligence, inclusive education, empathy, teacher competencies, social skills, psychological support, inclusive pedagogy.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida inlyuzivlik tamoyillarining joriy etilishi pedagoglardan nafaqat metodik va kasbiy bilimlarni, balki yuqori darajadagi emotsional intellektni talab qiladi, chunki inlyuziv sinflarda turli ehtiyojga ega, psixofiziologik rivojlanishi farq qiluvchi, ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalar ta'lim oladi. Pedagogning emotsional intellekti (EI) - bu o'zi va boshqalar emotsiyalarini anglash, boshqarish, to'g'ri yo'naltirish, muloqotga kirishish, empatiya bildirish kabi jarayonlarni o'z ichiga oluvchi murakkab kompetensiyadir. Mazkur maqolada inlyuziv ta'limda pedagog emotsional intellektining ahamiyati, uning tarkibiy qismlari va o'quv jarayoniga ko'rsatuvchi ta'siri tahlil qilinadi.

Bugungi kunda O'zbekiston inklyuziv ta'limni (Inclusive → "o'z ichiga oluvchi", "hamma uchun mo'ljallangan", "istisnosiz qatnashishni ta' minlovchi". o'zbek tilida "inklyuziv" asosan ta'lim, jamiyat, xizmatlar kontekstida "hammani qamrab oluvchi", "cheklovsiz", "maxsus ehtiyojli shaxslarni ham hisobga oluvchi" ma'nolarida ishlatiladi) qonuniy va institutsional darajada qo'llab-quvvatlashni boshlagan: siyosiy irodaga ega, maktablar ko'paymoqda, professor-pedagog tayyorgarlari shakllantirilmoqda. Pedagoglar, xususan, maxsus tayyorgarliklardan o'tmoqda - bu juda muhim, chunki inklyuziv sinflarda muvaffaqiyatli ta'lim ko'p jihatdan o'qituvchining kompetensiyasiga

bog‘liq bo’lib, shu bilan birga, infratuzilma, mutaxassis yetishmasligi, metodik hamda psixologik yondashuv kabi jihatlarda hali qilinishi kerak bo’lgan ko‘p ishlar bor.

Emotsional intellekt (P. Salovey, J. Mayer, 1990) shaxsning o‘z hissiyotlarini idrok etish, tushunish, boshqarish va ijtimoiy muloqot jarayonida ulardan samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Pedagogik jarayonda u o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim sharoitida bu kompetensiya alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bunday sinflarda o‘quvchilarning ehtiyojlari, individual xususiyatlari va o‘rganish uslublari turlicha bo‘lib, pedagogning emotsional sezgirligi ko‘plab jarayonlarni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Inklyuziv sinflarda psixologik xavfsizlik ta’minlanishi birinchi navbatda o‘qituvchining emotsional intellektiga bog‘liq. O‘quvchi o‘zini qadrlangan, tushunilgan va qo‘llab-quvvatlangan his qilishi uchun pedagogning ijtimoiy-emotsional xabardorligi yuqori bo‘lishi zarur. Shuningdek, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash jarayonida individual yondashuvning o‘rni beqiyosdir. Pedagogning emotsional sezgirligi bolaning hissiy holatini o‘z vaqtida anglab, unga mos metodik ko‘makni taqdim etishga imkon yaratadi. Ta’lim muhitining moslashuvchanligi — stressli vaziyatlarni yumshatish, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan konfliktlarning oldini olish, sinfda ijobiy psixologik iqlim yaratish kabi jarayonlar ham bevosita o‘qituvchining hissiy bilish darajasiga bog‘liq.

Pedagog o‘z hissiyotlarini anglab, boshqara olgan taqdirda sinf jarayonini izchil va barqaror olib boradi. Goulman (1995) ilmiy qarashlariga ko‘ra, emotsional intellekti yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar stressni boshqarish, empatiya namoyon qilish va o‘quvchilar bilan optimal o‘zaro muloqot o‘rnatishda samaraliroq bo‘ladi. Empatiya — boshqaning hissiy kechinmalarini his eta bilish qobiliyati — inklyuziv ta’limda o‘qituvchiga maxsus ehtiyojli bolalarning qiyinchiliklarini sezish, mos ta’limiy yondashuv tanlash va zarur ruhiy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishda yordam beradi. Empatiya orqali pedagog va o‘quvchi o‘rtasida ishonchli, iliq va samarali aloqa shakllanadi.

Emotsional intellekt ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarda ham namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining samarali muloqot olib borishi sinfda o‘zaro hurmat, hamkorlik va birdamlikni mustahkamlaydi. Bundan tashqari, ota-onalar, psixolog, logoped va defektolog kabi mutaxassislar bilan hamkorlikni shakllantirish aynan EIning ijtimoiy qobiliyatiga tayanadi. Inklyuziv sinflarda ko‘pincha kutilmagan vaziyatlar yuzaga keladi, buning natijasida o‘qituvchidan stressga chidamlilik talab etiladi. Pedagogning stressni boshqara olishi o‘quvchilarda ishonch, xotirjamlik va davomiy motivatsiyani shakllantiradi. Refleksiya esa o‘qituvchiga o‘z faoliyatini tahlil qilish, emotsional intellekt darajasini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Inklyuziv ta’limning O‘zbekistondagi hozirgi holatini tahlil qilganda, mamlakat “maxsus” ta’limni alohida shaklda saqlab qolish o‘rniga, nogironligi bo‘lgan bolalar va sog‘lom bolalar uchun integratsiyalashgan ta’lim muhitini yaratish — inklyuziya — modelini tanlaganini ko‘rish mumkin. Bu yondashuv bolaning huquqlarini ta’minlash, teng imkoniyatlar va adolat tamoyillariga asoslanadi. Shu bilan birga, amaliyotda hali ham mutaxassislar — psixolog, defektolog va qo‘shimcha yordam ko‘rsata oladigan o‘qituvchilar yetishmayotgani haqidagi ilmiy dalillar mavjud. Ba’zi maktablarda infratuzilma, maxsus jihozlar va moslashtirilgan darsliklar ta’lim talablariga mos holatga keltirilmagan.

Inklyuziv ta’limni amalda to‘liq yo‘lga qo‘yishda pedagoglarning metodik va psixologik tayyorgarligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Jamiyat va ota-onalar tomonidan xabardorlik ham muhim. Shu maqsadda respublikada o‘qituvchilar uchun maxsus tayyorlov va malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda. Bu kurslarda metodik, psixologik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktab rahbarlari va direktor muovinlari uchun workshop va seminarlar o‘tkazilishi ham inklyuziv ta’lim jarayonini tizimli tarzda qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Inklyuziv sinflarda ishlayotgan pedagoglardan maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash bo‘yicha amaliy tajriba, individual yondashuv va psixologik tayyorgarlik talab etiladi.

Inklyuziv ta’lim bugungi kunda ta’lim tizimining demokratik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Nogironligi bo‘lgan, maxsus ehtiyojli yoki psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj o‘quvchilarni umumiy ta’lim muhitiga qo‘shish jarayonida asosiy vazifa – ularning shaxsiy salohiyati, psixologik holati va o‘quv imkoniyatlarini

hisobga olgan holda sifatli ta'limni ta'minlashdir. Bu jarayonda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki sinfning emotsional barqarorligi va ijtimoiy muhitining bosh me'mori sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogning emotsional intellekti – bu uning hissiy o'zini anglash, o'z hislarini boshqarish, boshqalar hissiyotlarini idrok etish, empatiya namoyon etish va samarali muloqotga kirishish qobiliyatlaridan iborat murakkab psixologik mexanizm. Inklyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlari, o'rganish sur'ati, xulq-atvori va emotsional holati turlicha bo'lganligi sababli, pedagogning aynan hissiy sezgirligi o'quvchilarning ta'limdan chetlashib qolmasligini ta'minlaydigan asosiy ko'rsatkichga aylanadi.

Emotsional intellektga ega o'qituvchi sinfda psixologik xavfsizlikni yaratadi. O'quvchi o'zini qadrlangan va tushunilgan holatda his qilganda, uning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasi kuchayadi. Bu ayniqsa maxsus ehtiyojli bolalarda juda muhim, chunki ular ko'pincha o'zini jamoadan ajralgan, tushunilmagan yoki munosib emas, degan hissiyotlarni boshdan kechirishi mumkin. Emotsional jihatdan yetuk pedagog konfliktlarni oldini oladi, stressli vaziyatlarda o'zini boshqara oladi va o'quvchi emosiyalarini bartaraf etishda yo'l-yo'riq ko'rsata oladi.

Inklyuziv ta'limda o'qituvchi nafaqat bola bilan, balki ota-onalar, psixolog, defektolog, logoped kabi mutaxassislar bilan muntazam hamkorlikda ishlashi lozim. Bu jarayon ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarning rivojlangan bo'lishini talab etadi. Emotsional intellekt darajasi yuqori bo'lgan pedagoglar kommunikatsiyada konstruktivlik, diplomatiya, samimiyat va empatiyani birlashtira oladi – bu esa o'quvchi atrofida qo'llab-quvvatlovchi tarmoqning shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, emotsional intellekti rivojlangan o'qituvchilar o'z faoliyatini refleksiya orqali tahlil qiladi: dars qanday o'tdi, qaysi o'quvchi ko'proq qo'llab-quvvatlashga muhtoj, qanday usullar ishladi – bularning barchasi o'qituvchining o'zini takomillashtirishiga xizmat qiladi. Shuning uchun emotsional intellektni rivojlantirish – inklyuziv ta'limni sifat bosqichiga olib chiqishning eng muhim shartlaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati pedagogning emotsional intellekt darajasi bilan bevosita bog'liq. Hissiy jihatdan yetuk, empatik va ijtimoiy faol o'qituvchi sinfda ijobiy psixologik muhit yaratadi, o'quvchilarning emotsional rivoji va ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Shu bois, emotsional intellektni rivojlantirish — inklyuziv ta'limni yuqori bosqichga olib chiqishning ustuvor vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mayer, J. D., Salovey, P. Emotional Intelligence and its Measurement / J. Mayer, P. Salovey // Handbook of Intelligence. - Cambridge: Cambridge University Press, 2000. - P. 396–420.
2. Salovey, P., Mayer, J. D. Emotional intelligence / P. Salovey, J. D. Mayer // Imagination, Cognition and Personality. - 1990. - Vol. 9, No. 3. - P. 185–211.
3. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes / L. S. Vygotsky. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
4. UNESCO. Inclusive Education: The Salamanca Statement and Framework for Action. - Paris: UNESCO Publishing, 1994. - 50 p.
5. Ainscow, M. Understanding the Development of Inclusive Schools / M. Ainscow. - London: Falmer Press, 1999. - 220 p.
6. Florian, L. The Sage Handbook of Special Education / L. Florian. - London: SAGE Publications, 2007. - 688 p.
7. OECD. Supporting Students with Special Needs: Policies and Practices in Inclusive Education. - Paris: OECD Publishing, 2017. - 180 p.
8. Shadrikov, V. D. Psikhologiya chelovecheskikh sposobnostei / V. D. Shadrikov. - Moskva: Logos, 1996. - 320 s.
9. Asqarova, M. Inlyuziv ta'lim jarayonida pedagogik yondashuvlar / M. Asqarova // O'zbekiston pedagogika jurnali. - 2020. - № 4. - B. 45–53.

Xamidov Abdumalik Kiranovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti
ORCID: 0000-0002-7039-7002

MUROD MUHAMMAD DO‘ST ASARLARIDA TABIAT TASVIRLARI VA ULARNING LINGVOKULTUROLOGIK MA’NOSI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik vakili Murod Muhammad Do‘st asarlarida tabiat tasvirlari va ularning lingvokulturologik mazmuni tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida yozuvchi ijodida tabiat obrazining badiiy-estetik, ramziy va milliy-madaniy ma’nolari aniqlanadi. Tabiat manzaralari qahramonlarning ruhiy holati, milliy mentalitet, tarixiy xotira va falsafiy qarashlar bilan uzviy bog‘liqlikda talqin etiladi. Maqolada tabiat obrazlari orqali xalqona dunyoqarash, madaniy qadriyatlar va til birliklarining semantik yuklamasi ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Murod Muhammad Do‘st ijodida tabiat tasvirlari nafaqat badiiy fon, balki chuqur lingvokulturologik ma’no tashuvchi vosita ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Murod Muhammad Do‘st, tabiat tasviri, lingvokulturologiya, badiiy obraz, milliy mentalitet, madaniy kod, estetik qarashlar.*

ПЕЙЗАЖ И ИХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ СМЫСЛ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ МУРОДА МУХАММАД ДОСТА

Аннотация. *В статье анализируются образы природы в произведениях известного представителя современной узбекской литературы Мурода Мухаммад Доста с лингвокультурологической точки зрения. В ходе исследования выявляются художественно-эстетические, символические и национально-культурные значения природных образов. Пейзаж в творчестве писателя рассматривается как средство отражения внутреннего состояния героев, национального менталитета, исторической памяти и философского осмысления бытия. Особое внимание уделяется языковым единицам, через которые передаются культурные коды и традиционные ценности. Делается вывод о том, что образы природы в произведениях Мурода Мухаммад Доста выполняют не только описательную, но и глубокую смыслообразующую функцию.*

Ключевые слова: *Мурод Мухаммад Дост, образ природы, лингвокультурология, художественный образ, национальный менталитет, культурный код, эстетика.*

NATURE IMAGERY AND ITS LINGUOCULTURAL SIGNIFICANCE IN THE WORKS OF MUROD MUHAMMAD DOST

Abstract. *This article examines nature imagery in the works of Murad Muhammad Dost, a prominent representative of contemporary Uzbek literature, from a linguocultural perspective. The study identifies the artistic, symbolic, and national-cultural meanings embedded in the depiction of nature. Landscape descriptions are analyzed in close connection with the characters’ emotional states, national mentality, historical memory, and philosophical reflection. Particular attention is paid to linguistic units that convey cultural codes and traditional values. The findings demonstrate that nature imagery in Murad Muhammad Dost’s works functions not merely as a descriptive background but as a meaningful linguocultural element that reflects the author’s worldview and the cultural identity of the Uzbek people.*

Keywords: *Murad Muhammad Dost, nature imagery, linguoculturology, artistic image, national mentality, cultural code, aesthetics.*

Kirish. Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy matnni lingvokulturologik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy asarlarda tabiat obrazining nafaqat estetik vosita, balki milliy madaniyat, tarixiy xotira va xalqona dunyoqarashni aks ettiruvchi semantik birlik sifatida o‘rganilishi bugungi filologik tadqiqotlarda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tabiat tasvirlari orqali muallifning olam haqidagi tasavvuri, inson va borliq o‘rtasidagi munosabat, shuningdek, muayyan xalqning madaniy qadriyatlari va mental xususiyatlari namoyon bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotida tabiat obrazlari qadimdan muhim badiiy-estetik funksiyani bajargan bo‘lib, mumtoz adabiyotdan tortib zamonaviy nasr va lirika namunalari orqali uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, mustaqillik davri adabiyotida tabiat tasvirlari yangi mazmuniy qatlamlar bilan boyidi: ular shaxsiy kechinmalar, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va falsafiy mushohadalar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinmoqda. Shu jihatdan qaralganda, Murod Muhammad Do‘st ijodi tabiat obrazining badiiy va lingvokulturologik imkoniyatlarini yorqin namoyon etgan adabiy hodisalardan biridir.

Murod Muhammad Do‘st asarlarida tabiat manzaralari oddiy fon yoki voqealar rivojiga xizmat qiluvchi detal sifatidagina emas, balki mustaqil badiiy-obrazli tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ijodida tabiat inson ruhiyati, milliy mentalitet va tarixiy xotira bilan uzviy bog‘langan holda tasvirlanadi. Tabiiy makon — tog‘, dasht, osmon, suv, shamol, fasllar almashinuvi kabi obrazlar qahramonlarning ichki kechinmalari, axloqiy tanlovlari va falsafiy qarashlarini ifodalovchi ramziy birliklar sifatida xizmat qiladi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada chet tilidagi so'z yasash jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. So'z yasash til tizimining rivojlanishida, lug'at boyligini kengaytirishda va yangi tushunchalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Maqolada asosan ingliz tilidagi affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, qisqartirish va aralashma kabi so'z yasash usullari o'rganilgan. Har bir usulning strukturaviy va semantik xususiyatlari, shuningdek, ularning tilning zamonaviy rivojiga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari so'z yasash jarayonining madaniy, kommunikativ va ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *so'z yasash, affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, qisqartirish, aralashma, morfologiya, ingliz tili, lingvistika, madaniyat, leksikologiya, til tizimi.*

ОСОБЕННОСТИ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются особенности словообразовательных процессов в иностранных языках. Словообразование играет важную роль в развитии языковой системы, расширении словарного запаса и формировании новых понятий. Основное внимание уделено английскому языку и таким способам словообразования, как аффиксация, композиция, конверсия, сокращение и смешение. Рассмотрены структурные и семантические особенности этих процессов, а также их влияние на современное развитие языка. Результаты исследования показывают культурное, коммуникативное и социальное значение словообразования.*

Ключевые слова*: словообразование, аффиксация, композиция, конверсия, сокращение, смешение, морфология, английский язык, лингвистика, культура, лексикология, языковая система.*

SPECIFIC FEATURES OF WORD-FORMATION PROCESSES IN A FOREIGN LANGUAGE

Abstract. *This article analyzes the peculiarities of word formation processes in foreign languages. Word formation plays a crucial role in the development of the language system, vocabulary expansion, and the creation of new concepts. The study focuses mainly on English and explores such word formation types as affixation, compounding, conversion, abbreviation, and blending. The structural and semantic features of these processes, as well as their impact on the modern evolution of the language, are discussed. The results highlight the cultural, communicative, and social significance of word formation.*

Keywords: *word formation, affixation, compounding, conversion, abbreviation, blending, morphology, English language, linguistics, culture, lexicology, language system.*

Kirish. o'rta umumiy ta'lim maktablarida chet til o'qitish metodikasi fani erishgan yutuqlarni egallash talabalar uchun quyidagi imkoniyatlami yaratadi: (1) kelajak kasbiy faoliyatlariga puxta nazariy zamin tayyorlaydi; (2) ta'limning zamonaviy metodlari, tashkiliy formalari va vositalari bilan atroflicha tanishtiradi; (3) talabalaming olgan metodik bilimlarini amaliyotda samarali qo'llay olishlari uchun ko'nikma va malakalar hosil qiladi; (4) barcha fanlardan o 'zlashtirgan nazariy bilim va

amaliy malakalarini maktab ta'lim-tarbiya ishida ijodiy tatbiq etishga ko‘maklashadi. Ingliz tili misolida affiksatsiya**,** kompozitsiya**,** konversiya**,** qisqartirish, shuningdek aralashma (blending) kabi jarayonlar eng faol va samarali so‘z yasash vositalari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonlar ingliz tilining leksik dinamikasini belgilab, tilning rivojlanish sur'atini tezlashtiruvchi muhim lingvistik omillar bo‘lib xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan ushbu maqolada ingliz tilidagi asosiy so‘z yasash jarayonlari IMRaD (Introduction, Methods, Results, Discussion) formatiga muvofiq ilmiy asosda yoritiladi, ularning lingvistik xususiyatlari, qo‘llanish darajasi hamda zamonaviy kommunikatsiyadagi roli tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Metodologiya. Har bir fanda o‘z tushunchalar yig‘indisi mavjud. Chet til o‘qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta'lim sistemasi, ta'lim metodi, ta'lim prinsipi, ta'lim vositasi, metodik usul. Pedagogika voqeligi hodisalarini sistemali-strukturali yo‘nalishda o‘rganish munosabati bilan "ta'lim sistemasi" termini keng tarqaldi. Ushbu metodik kategoriyaning ma'nosiga muvofiq ta'lim jarayoni sistema deb qaralmoqda. Muayyan zamon va makon doirasida amalga oshiriladigan chet til o‘quv jarayoni ochiq (aniq chegara qo‘yilmagan) sistema hisoblanadi va nashr etilgan chet til "o‘quv-metodik kompleksi"da o‘z ifodasini topadi. Ta'lim sistemasi ko‘zlanadigan maqsad, shakllanadigan mazmun va qo‘llanadigan metod singari kategoriyalardan iborat (ularning har biri alohida boblarda yoritiladi). Chet til o‘qitish metodi deyilganda, chet til o‘rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o‘quvchi faoliyatining majmuyi tushuniladi. Metod termini "ta'lim usullari yig‘indisi" va "ta'limning yo‘nalishi" ma'nolarida qo‘llanadi. Birinchisi ta'lim nazariyasida ishlatilsa (og‘zaki nutq o'rgatish metodlari, talaffiaz o‘rgatish metodlari), ikkinchi ma'noda uni o‘qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratamiz. Chet til o‘qitishning tarjima metodi, to‘g‘ri metod, ongli-qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod, audiovizual metod va h.k. Prof. Yefim Izrailevich Passov fikricha, metod o‘quv jarayonida qo‘yilgan maqsad sari yo‘naltirilgan va nutq faoliyati turlari bilan bog‘liq prinsiplar sistemasidir. Demak, prinsiplar metodni shakllantiradi. Bu yerda keng ma'nodagi metodik yo‘nalish haqida so‘z boryapti.

Deskriptiv tahlil. Deskriptiv metod orqali ingliz tilidagi so‘z yasash birliklari tizimli ravishda tasniflandi. Bunda affikslar, kompozit so‘zlar, konversiya natijasida hosil bo‘lgan birliklar, qisqartmalar va aralashmalarning shakl-mazmun xususiyatlari kuzatildi. Har bir so‘z yasash turining strukturaviy tarkibi, grammatik funksiyasi va semantik o‘zgarishi aniqlab borildi. Shuningdek, korpus materiallari, zamonaviy internet matnlari va ommabop lug‘atlar (Oxford, Cambridge)dan olingan misollar asosida jarayonlarning hozirgi zamondagi faoliyati baholandi.

Taqqoslash metodi. Taqqoslash (komparativ) metodi ingliz tilidagi so‘z yasash jarayonlarini o‘zaro solishtirish, shuningdek, boshqa german tillari — jumladan nemis va niderland tillaridagi o‘xshash mexanizmlar bilan qiyoslash imkonini berdi. Ushbu yondashuv orqali har bir til tizimining o‘ziga xos morfologik xususiyatlari, so‘z yasashning umumiy va farqli jihatlari, hamda ularning tarixiy va strukturaviy ildizlari aniqlandi.

Qiyosiy tahlil quyidagi yo‘nalishlarda olib borildi:

Affiksatsiya: ingliz, nemis va niderland tillaridagi affikslar tizimi, ularning produktivligi va semantik yuklamasi solishtirildi. Natijada ingliz tilida ayrim prefiks va suffikslarning funksional diapazoni kengroq ekani, nemis tilida esa affiksatsiya morfologik jihatdan qat'iyroq ekanligi kuzatildi.

Kompozitsiya: german tillarida kompozitsiya umumiy xususiyatga ega bo‘lsa-da, ularning struktura modellari farqlanishi aniqlandi. Nemis tilida kompozit so‘zlar ko‘pincha murakkab tuzilishga ega bo‘lib, ortografik jihatdan birlashtirilgan bo‘ladi, ingliz tilida esa qo‘shma so‘zlar ba'zan alohida, ba'zan chiziqcha bilan yoziladi.

Konversiya: ingliz tilida konversiya jarayoni nihoyatda faol bo‘lib, morfologik o‘zgarishsiz yangi grammatik birliklar yaratish keng tarqalgan. Taqqoslash natijalariga ko‘ra, nemis tilida bunday jarayon kamroq uchraydi, chunki u yerda morfologik ko‘rsatkichlar o‘z o‘rnini ko‘proq saqlaydi. Bu esa ingliz tilining morfologik soddaligi va fleksiyalarning cheklanganligi bilan izohlanadi.

Manba tahlili. Barcha o‘quv prcdmetlarini o'qitish nazariyalari ta'limshunoslik (didaktika) faniga asoslanishi, undan ilmiy „ozuqa“ olishi shubhasiz holdir. Chet til o‘qitish ham ta'limshunoslikka asoslanadi. Birinchi navbatda, didaktik prinsiplarning chet til o‘rgatishga tatbiq etilishi masalasi

ko‘ndalang turadi (chet til o ‘qitish metodlari va prinsiplariga bag‘ishlangan V bobda bu mavzu mufassal yoritiladi). Metodika mohiyat e’tibori bilan, avvalo, xususiy ta’limshunoslik sanaladi, ikkinchi tarafdan, aniq biror chet tilni o‘qitishga taqqoslaganda u umipniy metodika fani hisoblanadi.Umuman tillarni o‘qitishga doir ilmiy-amaliy mulohazalar yig‘indisi lingvodidaktikani fan sifatida shakllantiradi (lingvota’limshunoslik termini, 1960-yillar oxirida Pedagogika fanlari akademiyasi qoshidagi Milliy maktablarda rus tili o ‘qitish; ilmiy tadqiqot instituti jamoasi tomonidan chop etilgan asarlarda uchray boshlagan). Didaktika ta’limning umumiy nazariyasi, metodika muayyan o‘quv predmetini o‘qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni o ‘qitish um um iy nazariyasi, lingvometodika aniq bir til (ozbek tili, rus tili, ingliz tili, arab tili)ni o£qitish ilmi sifatida farqlanadi. Didaktik qonun-qoidalami chet til o‘qitishga moslab tatbiq etish yo£llarini yoritish maqsadida, eng awalo, „chet til< o‘quv predm etining xususiyatlarini boshqa fanlardan farqlash kerak bo‘ladi. 0‘rta ta’limda o£qitiladigan predmetlami shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin: fan asoslaridan saboq beradigan o‘quv predmetlari (mas. kimyo, biologiya, fizika, matematika, tarix, ona tili); tarbiya berishga qaratilgan o‘quv predmetlari (rasm, musiqa, ashula); amaliy faoliyatni o£rgatadigan o£quv predmetlari (jismoniy tarbiya, mehnat ta’limi); til o‘quv predmetlari (ona tili, ikkinchi til, chet til). Fan asoslarini o£rgatuvchi predmetlarda o £quvchilarga asosan ushbusohaga oid bilimlar bayon etiladi. Tarbiyaviy yo‘nalishdagi predmetlar o‘quvchilarda nafosat va go£zallikni tarkib toptiradi. Faoliyatni o‘rgatish predmetlari jismoniy chiniqish, mehnatm qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Lingvo-ta’limshunoslik obyekti bo‘lmish ona tili, ikkinchi til va chet til o‘quv predmetlarini tahlil etganda, ular orasida mushtaraklik va keskin tafovut borligi namoyon bo‘ladi.

Maktab sharoitida ona tili o‘qitish o‘zga tillami o‘rgatishdan shu bilan sezilarli farq qiladiki, tillaming kommunikativ funksiyasi va ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati, umuman qaralganda, barchasiga tegishli, biroq bunday funksiyalaming bajarish me’yori har bir tilda turlicha. Mas. „Ona tili“ o‘quv predmeti ni o ‘rganish chog‘ida o ‘quvchilar uchun uning kommunikativ va ta’limiy-tarbiyaviy funksiyalari bir xilda ro‘yobga chiqadi. Chet tilda esa muloqot, amaliy qo‘llanish yetakchi funksiya bajaradi, ta’lim va tarbiya vazifalari unga bog‘liq holda ro‘yobga chiqadi. Chunki ona tilini o ‘quvchi maktabgacha amaliy egallaydi. Endi ona tilida yozuv va o‘qish malakalari shakllanadi va og‘zaki nutq malakalari takom illashtiriladi.

Ta’limiy tomoni (til nazariyasi asoslari sistem atik kursi) maxsus e’tibor bilan o‘rgatiladi. Ikkinchi tilda ham amaliy malakalar awal qisman (yoki yetarli) hosil qilingan, nazariy bilimlar, albatta, ona tilidagidan kamroq hajmda bayon etiladi. Chet til o ‘rgatishda esa har bir ish boshidan boshlanadi, kommunikatsiyaning butunlay yangi lisoniy sistemasi shakllantiriladi. Ta’lim berishga mo‘ljallangan qoidalar (oddiy nazariy bilimlar) amaliy ko‘nikma va malakalami egallashni tezlatish (intensifikatsiya) va yengillatish (optimizatsiya) maqsadlariga bo‘ysundiriladi. Amaliy maqsadning ro‘yobga chiqishi bevosita ta’lim-tarbiyaga o‘z ta’sirini o‘tkazadi, o‘quv jarayonidagi nutqni amaliyot (kommunikatsiya)da axborot olish/berish birlamchi vazifaga aylanadi. Tillaming asosiy o‘quv maqomidagi yana bir xususiyati shundaki, ona tili tajribasi ikkinchi til o‘rganishda, so‘ngra ularning ikkovi chet tilni egallashda ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mavjud ko‘nikmalarning yangi hodisani o‘zlashtirishga salbiy ko‘chishi (interferensiya) ko‘proq kuzatiladi. (“Ruhshunoslik asoslari” da mazkur masala kengroq ta’riflangan.)

Muhokama. Tadqiqot natijalari ingliz tilidagi so‘z yasash tizimi o‘z mohiyati bilan dinamik, doimo rivojlanib boruvchi va zamonaviy kommunikatsiya ehtiyojlariga mos ravishda shakllanayotgan murakkab tizim ekanini ko‘rsatadi. Bugungi globallashuv jarayonida tilning leksik tarkibi tez o‘zgarayotgan bo‘lsa-da, so‘z yasash mexanizmlarining asosiy qismi barqarorligini saqlab qolmoqda. „Amaliy“ atalmish metodika termini hozirgacha muallimlar orasida birdan ortiq assotsiatsiya (fikran bog‘lanish)ga sabab bo‘lib, turli hajmdagi va shakldagi tushunchalar uyg‘otmoqda. Amaliyotni „og‘zaki nutq“ yoki „gapirish“ deb yuritish kabi xato fikrlar ham mavjud. Chet tilni amaliy egallash, o ‘zgalar nutqini tushunish va o‘z fikrini bayon etish degan to‘g‘ri umumiy ta’rif ham uchraydi. O ‘rta ta’lim kursida chet til amaliy tarzda o‘rganilishining yakuniy maqsadi o‘qib m a’lumot olish demakdir. Maktab, litsey va kollejni tugatuvchilar yakuniy maqsadga ko‘ra o‘qishdek nutq faoliyati turini chet tilda egallashadi. Oraliq maqsad esa turlicha bo‘ladi.

Ta’lim bosqichi yoki alohida sinflarda nutq faoliyati turlaridan gapirish oraliq maqsadda o ‘rganilishi mumkin. Mas. boshlang‘ich davrda og‘zaki nutqni maqsad maqomida o'rganadilar. Shu

bilan birga, o ‘qish va yozuv ham o‘rganiladi, biroq ularga vosita deb qaraladi. Endi terminlar ziddiyati — “maqsad” va “vosita” ni ta’riflash ehtiyoji tug‘iladi. Nutq aloqa vositasi ekan, u (nutq — nutq faoliyati turlari majmuyi)ni o‘rganish ta’limning um umiy amaliy maqsadiga kiradi. Biror nutq faoliyati turi yakuniy yoki oraliq maqsad darajasida xususiy amaliy maqsadni ifodalaydi. Mas. gapirish chet til o‘qitishning birinchi davrida xususiy oraliq, yetakchi amaliy maqsadda o‘rganiladi, yuqori sinflarda uning o‘mini o‘qish egallqydi. Hamma sinflarda tinglab tushunish yordamchi xususiy amaliy maqsadda o‘rganiladi. Yozuv nutq faoliyati turi sifatida barcha sinflarda chet til o‘rgatish vositasi bo‘lib keladi. „Vositau terminining m a’nosi „boshqa nutq faoliyati turlarini egallashda yordamchi “ demakdir. Masalan, gapirish yoki o‘qish mashqidan keyin, ularda o‘zlashtirilayotgan til materiali yozuvda mustahkamlanadi, takrorlanadi. Chet til metodikasidagi maqsad termini quyidagicha izohlanishi mumkin.

Nutq faoliyatining turi maqsad maqomini olishi uchun, albatta, birinchidan, uning o‘z ta’lim mazmuni (nutq mavzuyi, nutq malakalari, til m ateriali) mavjudligi, ikkinchidan, til materiali dastawal shu nutq faoliyati turida o‘rganilishi, uchinchidan, unga vaqt va kuchning asosiy qismi sarflanishi va, nihoyat, to ‘rtinchidan, mashqlaming aksariyati ushbu nutq faoliyati turida bajarilishi shart. Masalan, gapirish birinchi pallada maxsus mavzu va til materiali asosida o‘rgatiladi, yuqori sinflarda esa o ‘qish aynan mana shunday mavqega molik. Boshlang‘ich davrning gapirish mavzulari va leksik-grammatik materiali o‘qish va yozuvda takrorlanadi, mustahkamlanadi. Tavsiya etilgan metodik mezonlar amaliy maqsadning talqini uchun kifoyadir. Nutq faoliyati turini o‘rgatishda agar to‘rtala uslubiy mezonga rioya qilinmasa, u maqsad darajasidan mahrum bo‘ladi, ta’lim vositasi qatoridan joy oladi. Chet til artiklini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Artikl gram m atik hodisasi quyidagi tartibda nutq faoliyati turlarida o‘rganiladi: tinglab tushunish-gapirish, writing- yozuv, reading - o‘qish. Ulardan birinchi va ikkinchisi (tinglab tushunish va gapirish) ta’limning xususiy maqsadi, qolgan ikkitasi (yozuv va o‘qish) — ta’lim vositasi. 0 ‘z -o ‘zidan m antiqiy savol tug‘iladi: nim a uchun til materiali barcha nutq faoliyati turlarida o‘zlashtiriladi? Masala shundaki, obyektiv voqelikdagi istalgan hodisani, shu jumladan, chet til birliklarini o‘zlashtirishda qancha ko‘p anahzator ishtirok etsa, uning dinamik stereotipi shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Ta’lim maqsadini tushunib yetish — o‘qitishning umumiy yo‘nalishi (strategiyasi)ni bilib olishga yordam beradi. Maqsad dars va mustaqil ishlar bajarish chog‘ida ko‘plab aniq vazifalami o‘tash yo‘li bilan ro‘yobga chiqadi. Vazifalami hal etish — ta’lim taktikasini tashkil etadi. Ta’limiy vazifalar o ‘quvchilar bajaradigan amaliy ishlardan iborat (tushunish, fikr bayon etish, til birligini o‘rganib olish va h.k.).

Chet tilni egallash (amaliy maqsadga erishish) ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlami hal etish bobida asos va sharoit vazifasini o‘taydi. Qisqasi, chet tilni amaliy maqsadda o ‘rganish ushbu til yordamida kerakli axborot olish va boshqalarga yetkazish m a’nosini anglatadi. Olingan axborot (informatsiya) o ‘quvchilar bilim saviyasini oshirish (ta’limiy maqsad) va ulami tarbiyalash ishiga xizmat qiladi.

Chet til o‘qitishning umumta’limiy maqsadi. 0 ‘quvchilarga chet til uchinchi til sifatida o ‘rgatiladi. M ajburiy o ‘quv predm etlaridan bo‘lmish chet til, boshqa fanlar qatorida umumiy ta’lim berishda o ‘z ulushini qo‘shadi. Chet til o‘rganish natijasi ham, jarayoni ham um um ta’limiy ahamiyatga molikdir. Chunki chet til vositasida olinadigan axborotdan tashqari, uni o‘rganish jarayonida qo'llanadigan til birliklari tafakkumi rivojlantiradi, nutqning ifoda planidagi yangi hodisalar o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lib, ulaming til tajribasini boyitadi.

Til materialida o ‘quvchilar ona tiliga mos kelmaydigan hodisalarga duch kelishadi. Mas. grammatikada fe’l zamonining murakkab shakli, leksikada polisemiya (ko‘p m a’nolilik)ning ushbu tilga xos ko‘rinishlari, talaffuzda ona tili yoki ikkinchi tilda uchramaydigan fonetik birliklar shular jumlasidandir. Juda ko‘p lisoniy hodisalar turli tillarda o‘xshash bo‘ladi. Tillardagi mushtaraklik va tafovutlami bilib olish o‘quvchi bilim saviyasining oshishiga yordam beradi. 0 ‘quvchilar tili o‘rganilayotgan mamlakat(lar) madaniyati, san’ati, tarixi, adabiyoti, urf-odatlari, an’analaridan voqif bo‘lishadi. Xalq madaniyati xazinasi sifatida tilning kumulativ vazifasidan bahramand bo‘lishadi. 0 ‘rganilayotgan chet tilning kom m unikativ vazifasini egallashda o‘quvchilar mazkur til ko‘zgusida o‘z ona tili (va ikkinchi til)ni „tomosha“ qilish baxtiga muyassar bo‘ladilar. Til o ‘rganishning ilk bosqichida leksik, grammatik va talaffuz birliklarini og‘zaki nutq jarayonida o ‘zlashtirishga ko‘proq

e'tibor beriladi. Yuqori bosqichda chet tildagi grafik va audiomatndan axborot yig'ish o 'quvchilarda hayotiy yangiliklarni bilish ishtiyoqini kuchaytiradi.

Maktab o'quvchisi chet tilni umumta'limiy maqsadda o'rganar ekan, u ikki xil mazmundagi ta'limiy ma'lumot olishga erishadi. Birinchi turdagi axborot o'rganilayotgan chet til (leksik, grammatik va talaffuz) materialini izohlab beruvchi qoidalar, tushunchalar va tilning o 'ziga xos hodisalari to'g'risidagi m a'lumotlardan tashkil topadi. Til haqida o 'zlashtiriladigan oddiy bilim chuqur nazariy sistem adan butunlay farq qiladi. Chet til o 'qitishni nazariylashtirishga yo'l qo'yilmasligi kerak. Sodda nazariya nutq ko'nikm alarini shakllaritirish uchungina yetarli bo'lishi metodik qonuniyat hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda e'tirof etilgan va muallimlar tan olgan „chet tilda nutqni o'rgatamiz" (chet til haqidagi bilim lar yig'indisini emas), degan m etodik shiorni esdan chiqarmaslik kerak.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ingliz tilidagi so'z yasash tizimi dinamik va ochiq xarakterga ega ekanini ko'rsatdi. Globallashuv, texnologik taraqqiyot va ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivoji tilga yangi tushunchalar kirib kelishini tezlashtirib, aynan so'z yasash mexanizmlari orqali ularning lisoniy ifodalanishiga imkon yaratmoqda. Ayniqsa, konversiya va qisqartirish jarayonlarining faolligi ingliz tilining morfologik soddaligi va moslashuvchanligi bilan izohlanadi. Bu holat ingliz tilini xalqaro muloqot vositasi sifatida yanada qulay va samarali qiladi.

Shuningdek, maqolada so'z yasash jarayonlari chet tilni o'qitish metodikasi bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Chet tilni o'rganishda leksik birliklarning yasalish mexanizmlarini anglash o'quvchilarda so'z boyligini mustaqil kengaytirish, yangi so'zlarning ma'nosini kontekst asosida tushunish va ularni nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlandi. So'z yasashni o'rgatish jarayonida metodik tamoyillarga amal qilish, ya'ni til materialini nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv) bilan uzviy bog'lab berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tahlil natijalari ingliz tilidagi so'z yasash jarayonlarining boshqa german tillari bilan umumiy jihatlari mavjud bo'lsa-da, ularning strukturaviy va funksional farqlari yaqqol ekanini ko'rsatdi. Bu esa har bir til tizimining o'ziga xos rivojlanish yo'li va ichki qonuniyatlari mavjudligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ayniqsa, ingliz tilida morfologik ko'rsatkichlarning kamligi so'z yasashda semantik moslashuv va kontekst rolini kuchaytiradi.Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot so'z yasash jarayonlari til tizimining muhim tarkibiy qismi ekanini, ularning lingvistik, madaniy, kommunikativ va ijtimoiy ahamiyati katta ekanini ko'rsatdi. Ushbu ish natijalari chet tilshunoslik, leksikologiya va chet til o'qitish metodikasi sohalarida nazariy bilimlarni boyitishga, shuningdek, amaliy dars jarayonida samarali foydalanishga xizmat qilishi mumkin. Kelgusida so'z yasash jarayonlarini korpus lingvistikasi, diskurs tahlili va didaktik yondashuvlar asosida chuqurroq o'rganish ilmiy jihatdan dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Kelgusida so'z yasash jarayonlarini kognitiv lingvistika**,** korpus lingvistika **va** sotsiolingvistika yondashuvlari asosida yanada kengroq o'rganish ingliz tilining global kommunikatsiyadagi rolini chuqur tahlil qilish, yangi leksik birliklarning shakllanish omillarini aniqlash hamda ularning ijtimoiy-madaniy kontekstini yoritish imkonini beradi. Bunday yondashuvlar tilning doimiy yangilanish jarayonini kengroq ilmiy nuqtai nazardan anglash va uning rivojlanish tendensiyalarini aniqroq belgilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bauer L. English Word-Formation. — Cambridge: Cambridge University Press, 1983. — 312 p.

2. Plag I. Word-Formation in English. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003. — 268 p.

3. Marchand H. The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation. — München: Beck, 1969. — 453 p.

4. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2019. — 592 p.

5. Fromkin V., Rodman R., Hyams N. An Introduction to Language. — Boston: Cengage Learning, 2018. — 624 p.

6. Шахматов А.А. Очерки по современному английскому языкознанию. — Москва: Просвещение, 1990. — 220 с.
7. Hasanov B. Ingliz tili leksikologiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. — 184 b.
8. Karimov A. Chet tillarini o‘qitishda so‘z boyligini oshirish metodikasi // Til va adabiyot. — 2021. — № 4. — Б. 45–52.
9. Katamba F. English Words: Structure, History, Usage. — London: Routledge, 2005. — 384 p.
10. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2013. — 586 p.
11. Yuldasheva N. So‘z yasashning lingvistik asoslari. — Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2020. — 168 b.

Maxamatova Munisa Mamirzo qizi
ORENTAL unversiteti Samarqand filiali psixologiya yo'nalishi talabasi

BOLALARDA OILADA OTANING O'RNINI HAQIDAGI TASAVVURLARNI SHAKLLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalarda oilada otaning o'rni haqidagi tasavvurlar shakllanishining psixologik-pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda otaning oiladagi tarbiyaviy, ijtimoiy va emotsional funksiyalari bolaning shaxs sifatida rivojlanishida muhim omil ekanligi asoslab beriladi. Ota obrazi bolada ijtimoiy rollar, mas'uliyat, mehnatsevarlik, mustaqillik va axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada oiladagi ota ishtirokining yetarli yoki yetarli emasligi bolaning psixologik holati, o'ziga bo'lgan ishonchi, jinsiy identifikatsiyasi va ijtimoiy moslashuviga qanday ta'sir etishi yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda otaning oilaviy rolidagi o'zgarishlar, migratsiya, bandlik va ijtimoiy omillarning bolalar ongidagi ota tasavvuriga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ota bilan barqaror va ijobiy muloqot bolada sog'lom emotsional muhitni ta'minlaydi hamda to'laqonli shaxs kamolotiga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ota roli, oila, bolalar psixologiyasi, tarbiya, ota-onalik, ijtimoiylashuv, shaxs rivoji.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У ДЕТЕЙ О РОЛИ ОТЦА В СЕМЬЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические и педагогические аспекты формирования представлений у детей о роли отца в семье. Обосновывается значимость отца как ключевой фигуры в процессе личностного, эмоционального и социального развития ребенка. Образ отца играет важную роль в формировании у детей ответственности, самостоятельности, трудолюбия, моральных ценностей и социальных норм поведения. В статье анализируется влияние степени участия отца в семейном воспитании на самооценку ребенка, его эмоциональную устойчивость, гендерную идентификацию и социальную адаптацию. Особое внимание уделяется современным социальным условиям, таким как трудовая миграция, занятость родителей и трансформация семейных ролей, которые оказывают существенное влияние на восприятие отцовской фигуры детьми. Результаты исследования показывают, что активное участие отца в жизни ребенка способствует формированию благоприятного психологического климата в семье и обеспечивает гармоничное развитие личности. Сделан вывод о необходимости целенаправленной работы с семьями по укреплению отцовского участия в воспитательном процессе.*

Ключевые слова: *роль отца, семья, детская психология, воспитание, отцовство, социализация, развитие личности.*

THE FORMATION OF CHILDREN'S PERCEPTIONS OF THE FATHER'S ROLE IN THE FAMILY

Abstract. *This article examines the psychological and pedagogical aspects of the formation of children's perceptions of the father's role within the family. The study highlights the importance of the father as a significant figure in a child's emotional, social, and personal development. The father's role contributes to the formation of responsibility, independence, work ethic, moral values, and social behavior in children. The article analyzes how the level of paternal involvement in family life affects a child's self-esteem, emotional stability, gender identity, and social adaptation. Special attention is given to contemporary social factors such as labor migration, parental employment, and changes in traditional family roles, which significantly influence children's understanding of fatherhood. The findings indicate that consistent and positive interaction between father and child creates*

a supportive emotional environment and promotes healthy personality development. The study emphasizes the need for strengthening paternal participation in child-rearing practices to ensure balanced and harmonious development.

Keywords: *father's role, family, child psychology, parenting, fatherhood, socialization, personality development.*

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlarning tezkor o‘zgarishi sharoitida oila instituti jamiyatning eng muhim ijtimoiy tayanchi sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Oila – bu nafaqat biologik davomiylikni ta’minlovchi muhit, balki shaxsning ma’naviy, axloqiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydigan tarbiya makonidir. Ayniqsa, bolalik davrida oilada mavjud munosabatlar tizimi bolaning dunyoqarashi, o‘zini anglash jarayoni va kelajakdagi ijtimoiy xulq-atvorining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, oilada ota shaxsining o‘rni va uning bolalar ongida qanday tasavvur etilishi muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

An’anaviy qarashlarga ko‘ra, ota oilada ijtimoiy mas’uliyat, himoya, intizom va hayotiy yo‘naltiruvchi rolni bajaruvchi asosiy figuradir. Ota obrazi bolalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, qat’iyatlilik, irodaviy sifatlar va axloqiy me’yorlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ota bilan bo‘lgan emotsional yaqinlik bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuv darajasini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ota ishtirokining yetarli yoki yetarli emasligi bolalarda oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlarni turlicha shakllantiradi va bu holat keyinchalik shaxsiy hayot, kasbiy faoliyat hamda jamiyatdagi o‘rniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy omillar, mehnat migratsiyasi, bandlikning ortishi, oilaviy rollarning transformatsiyasi otaning oiladagi an’anaviy funksiyalariga ma’lum darajada o‘zgarishlar kiritmoqda. Natijada, ayrim hollarda bolalarda ota obrazi yetarlicha mustahkam shakllanmaydi yoki u faqat moddiy ta’minot bilan bog‘langan tor doiradagi tasavvur sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun bolalarda oilada otaning o‘rni haqidagi to‘laqonli, ijobiy va real tasavvurlarni shakllantirish masalasi ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

Mazkur mavzuni tadqiq etish bolalar psixologiyasi, oila pedagogikasi va ijtimoiy psixologiya chorrahasida joylashgan bo‘lib, otaning tarbiyaviy roli, ota–bola munosabatlarining psixologik mexanizmlari hamda oilaviy muhitning bolaning shaxs sifatida kamol topishiga ta’sirini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shu jihatdan, bolalarda oilada otaning o‘rni haqidagi tasavvurlarni shakllanishini o‘rganish nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish, ota-onalar va pedagoglar faoliyatini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Bolalarda oilada otaning o‘rni haqidagi tasavvurlarni shakllanishi muammosi pedagogika, rivojlanish psixologiyasi va oila psixologiyasi doirasida ko‘plab rus va xorijiy olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ota shaxsining oiladagi roli bolaning ijtimoiylashuvi, emotsional barqarorligi va shaxsiy identifikatsiyasi jarayonida muhim determinant sifatida namoyon bo‘ladi.

Rus psixologiya maktabi vakillarining ilmiy qarashlarida otaning tarbiyaviy funksiyalari tizimli yondashuv asosida izohlanadi. Jumladan, L.S. Vygotskiy bolaning psixik rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilib, oilani yetakchi rivojlantiruvchi muhit sifatida ko‘rsatadi. Uning madaniy-tarixiy konsepsiyasiga ko‘ra, bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy rollar va kattalar bilan o‘zaro munosabatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ota ana shu rollarning muhim namoyandasi hisoblanadi. Ota orqali bola jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlari, mas’uliyat va ijtimoiy intizomni o‘zlashtiradi.

A.N. Leontev faoliyat nazariyasi doirasida otaning bolani faoliyatga jalb etishdagi rolini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, ota tomonidan namoyon etiladigan mehnat faoliyati, qat’iyatlilik va maqsadga yo‘naltirilganlik bolaning ichki motivatsiyasini shakllantiradi. Bu jarayonda ota obrazi bola uchun nafaqat emotsional tayanch, balki faoliyat namunasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Rus oilaviy psixologiyasida B.S. Bratus shaxs rivojida axloqiy-ruhiy omillarning rolini tahlil qilib, otaning axloqiy qadriyatlarni uzatishdagi funksiyasini alohida ko‘rsatadi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, ota bilan barqaror va ijobiy munosabatlar bolaning ichki “men-konsepsiyasi”ni mustahkamlaydi hamda o‘ziga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Ota yetishmovchiligi yoki uning tarbiyaviy jarayondan chetlashuvi esa bolalarda ishonchsizlik, emotsional beqarorlik va ijtimoiy moslashuv muammolarini yuzaga keltirishi mumkin.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda ham otaning oiladagi o‘rni masalasi keng yoritilgan. J. Bolbi tomonidan ishlab chiqilgan bog‘lanish (attachment) nazariyasida ota bolaning emotsional xavfsizligini ta’minlovchi muhim shaxs sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, ota bilan xavfsiz bog‘lanish bolada stressga chidamlilik, ijtimoiy ishonch va mustaqillikni rivojlantiradi. Bu holat keyingi hayot bosqichlarida barqaror shaxslararo munosabatlar o‘rnatishga xizmat qiladi.

A. Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasida otaning xulq-atvori bolalar tomonidan kuzatish va taqlid qilish orqali o‘zlashtirilishini asoslab beradi. Unga ko‘ra, ota tomonidan namoyon etiladigan xatti-harakatlar, muammolarni hal etish uslublari va emotsional reaksiyalar bolalar uchun kuchli model vazifasini bajaradi. Shu bois otaning konstruktiv yoki destruktiv xulqi bolaning shaxsiy rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yevropa tadqiqotchilari, xususan M.E. Lamb, otaning bolalar hayotidagi ishtiroki faqat intizomiy yoki moddiy ta’minot bilan cheklanmasligini, balki kundalik muloqot, o‘yin va emotsional qo‘llab-quvvatlash orqali namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Lambning empirik tadqiqotlari faol ota ishtiroki bolalarda yuqori kognitiv rivojlanish, ijtimoiy kompetentlik va emotsional muvozanatni ta’minlashini ko‘rsatadi.

Rus va xorijiy ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bolalarda oilada otaning o‘rni haqidagi tasavvurlar biologik omillardan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy-psixologik va tarbiyaviy omillar bilan belgilanadi. Ota shaxsining faol ishtiroki, ijobiy namuna ko‘rsatishi va emotsional qo‘llab-quvvatlashi bolaning sog‘lom shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda otaning oilaviy tarbiyadagi rolini kuchaytirish, ota–bola munosabatlarini rivojlantirish va bolalarda ota obrazi haqidagi to‘laqonli tasavvurlarni shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida e’tirof etiladi.

Muhokama. Olib borilgan nazariy tahlillar va mavjud ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarda oilada otaning o‘rni haqidagi tasavvurlar murakkab va ko‘p bosqichli psixologik jarayon sifatida shakllanadi. Bu jarayon nafaqat biologik qarindoshlik yoki moddiy ta’minot bilan, balki otaning tarbiyaviy faolligi, emotsional ishtiroki va ijtimoiy namuna sifatidagi roli bilan bevosita bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari bolalar ongida ota obrazi ko‘pincha uning real kundalik xatti-harakatlari, bola bilan bo‘lgan muloqot sifati va oilaviy muhitdagi tutgan o‘rni orqali shakllanishini tasdiqlaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanganki, ota bilan barqaror va ijobiy munosabatga ega bo‘lgan bolalarda otaning o‘rni himoya, tayanch, yo‘naltiruvchi va mas’uliyat manbai sifatida tasavvur etiladi. Bunday bolalarda ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori bo‘lib, ular o‘z fikrini erkin ifodalashga, qaror qabul qilishga va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga moyil bo‘ladi. Aksincha, ota bilan muloqot yetarli bo‘lmagan yoki formal xarakterga ega bo‘lgan oilalarda bolalarda ota obrazi noaniq, masofali yoki faqat moddiy ta’minot bilan bog‘langan holda shakllanishi kuzatiladi. Bu holat bolalarda emotsional beqarorlik, o‘ziga ishonchsizlik va ijtimoiy munosabatlarda qiyinchiliklar paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Muhokama natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, zamonaviy ijtimoiy sharoitlar, xususan mehnat migratsiyasi, bandlikning yuqoriligi va oilaviy rollarning transformatsiyasi otaning an’anaviy tarbiyaviy funksiyalarini cheklab qo‘ymoqda. Natijada bolalar ongida ota obrazi ko‘pincha epizodik yoki idealizatsiyalangan shaklda namoyon bo‘ladi. Bu esa real hayotda ota–bola munosabatlari bilan bolalarning ichki tasavvurlari o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shunday sharoitda bolalarda otaning o‘rni haqidagi tasavvurlarni ongli va maqsadli ravishda shakllantirish zarurati yanada ortadi.

Muhokama davomida otaning tarbiyaviy roli faqat intizom va nazorat bilan cheklanmasligi, balki emotsional qo‘llab-quvvatlash, birgalikdagi faoliyat va ochiq muloqot orqali namoyon bo‘lishi muhimligi alohida ta’kidlandi. Ota bilan birgalikda o‘tkazilgan vaqt, suhbatlar, o‘yin va kundalik

hayotdagi hamkorlik bolaning psixologik xavfsizlik hissini kuchaytiradi va otaga nisbatan ijobiy munosabatni mustahkamlaydi. Bu jarayon bolalarda ijtimoiy rollarni anglash, axloqiy me'yorlarni qabul qilish va kelajakda sog'lom oilaviy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalarda otaning o'rni haqidagi tasavvurlarni shakllanishida ona va boshqa oila a'zolarining munosabati ham muhim vositachi omil hisoblanadi. Ota shaxsiga nisbatan oilada bildiriladigan hurmat, qo'llab-quvvatlash va ijobiy baho bolaning ota obrazini qabul qilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, oiladagi ziddiyatlar va salbiy munosabatlar ota obrazining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, muhokama shuni ko'rsatadiki, bolalarda oilada otaning o'rni haqidagi tasavvurlarni shakllanishi tasodifiy jarayon emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik mexanizmlarga asoslangan tizimli jarayondir. Ota shaxsining faol, mas'uliyatli va emotsional jihatdan ochiq ishtiroki bolaning shaxs sifatida barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, oilaviy tarbiya tizimida otaning rolini kuchaytirish, ota–bola munosabatlarini rivojlantirish va bolalarda otaning ijobiy, real va barqaror obrazini shakllantirish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy tahlil va ilmiy qarashlar muhokamasi shuni ko'rsatadiki, bolalarda oilada otaning o'rni haqidagi tasavvurlar murakkab, ko'p omilli va ijtimoiy-psixologik jihatdan shartlangan jarayon hisoblanadi. Ota shaxsining oiladagi roli faqat moddiy ta'minot yoki intizomni ta'minlash bilan cheklanmay, balki bolaning emotsional barqarorligi, axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida kamol topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Aynan ota bilan bo'lgan muloqot jarayonida bolada mas'uliyat, mustaqillik, qat'iyatlilik va hayotiy yo'nalishlarga oid dastlabki tasavvurlar shakllanadi.

Shuningdek, zamonaviy jamiyat sharoitida mehnat migratsiyasi, bandlikning yuqoriligi va oilaviy rollarning o'zgarishi otaning tarbiyaviy faoliyatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Bu holat bolalarda ota obrazi va uning oiladagi o'rni haqidagi tasavvurlarni shakllantirish jarayonini yanada murakkablashtirmoqda. Shu sababli ota–bola munosabatlarini mustahkamlash, otaning tarbiyaviy va emotsional ishtirokini kuchaytirish bugungi kunda dolzarb ijtimoiy-pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, bolalarda oilada otaning o'rni haqidagi tasavvurlarni shakllantirish tasodifiy emas, balki ongli, tizimli va maqsadli yondashuvni talab etadigan jarayondir. Ota shaxsining faol, mas'uliyatli va emotsional jihatdan ochiq ishtiroki bolaning sog'lom shaxs sifatida kamol topishiga, kelajakda barqaror ijtimoiy va oilaviy munosabatlar o'rnatishiga mustahkam zamin yaratadi. Shu bois, oilaviy tarbiya tizimida otaning rolini kuchaytirish, ota–bola o'rtasidagi muloqotni rivojlantirish va bolalarda otaning ijobiy, real hamda barqaror obrazini shakllantirish ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Выготский Л. С. Психология развития человека. – М. : Смысл; Эксмо, 2005. – 1136 с.
2. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М. : Смысл, 2004. – 352 с.
3. Братусь Б. С. Личность и нравственность. – М. : Институт психологии РАН, 1997. – 256 с.
4. Боуэн М. Семейная терапия и клиническая практика. – М. : Класс, 2001. – 384 с.
5. Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. – New York : Basic Books, 1969. – 428 p.
6. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ : Prentice Hall, 1977. – 247 p.
7. Lamb M. E. The Role of the Father in Child Development. – 5th ed. – Hoboken, NJ : John Wiley & Sons, 2010. – 672 p.
8. Parke R. D. Fatherhood. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1996. – 318 p.
9. Erikson E. H. Childhood and Society. – New York : W. W. Norton & Company, 1963. – 445 p.
10. Giddens A. Sociology. – 6th ed. – Cambridge : Polity Press, 2009. – 1040 p.

Генжебаев Тимур Махсетбаевич
ассистент кафедры русского языка и литературы
Каракалпакского государственного университета имени Бердаха
E-mail: genjebaev.timur@gmail.com

ЕДИНСТВО ХУДОЖЕСТВЕННОГО ЯЗЫКА И УНИВЕРСАЛЬНЫХ ИДЕЙ В РУССКИХ РОМАНАХ (Универсальные ценности в восприятии Лидии Чуковской)

Аннотация. *В статье рассматриваются единства художественного языка и универсальных идей в русских романах. Целью исследования является выявление языковых и стилистических средств, посредством которых авторы русской литературы передают общечеловеческие философские и нравственные ценности. В работе используются методы текстуального, стилистического и интерпретативного анализа. Особое внимание уделяется роли метафоры, символа, внутреннего монолога и повествовательной структуры в формировании универсального смысла художественного текста.*

Ключевые слова: *художественный язык; универсальные идеи; русский роман; поэтика; стилистические средства; философский смысл; литературный анализ; национальная и общечеловеческая ценность.*

UNITY OF ARTISTIC LANGUAGE AND UNIVERSAL IDEAS IN RUSSIAN NOVELS (Universal values in the perception of Lidiya Chukovskaya)

Abstract. *The article examines the unity of artistic language and universal ideas in Russian novels. The purpose of the research is to identify the linguistic and stylistic means by which authors of Russian literature convey universal philosophical and moral values. The work utilizes textual, stylistic, and interpretive analysis methods. Special attention is paid to the role of metaphor, symbol, internal monologue, and narrative structure in shaping the universal meaning of a literary text.*

Keywords: *artistic language; universal ideas; Russian novel; poetics; stylistic devices; philosophical meaning; literary analysis; national and universal value.*

RUS ROMANLARIDA BADIIY TIL VA UNIVERSAL G‘OYALAR BIRLIGI (Lidiya Chukovskaya idrokida universal qadriyatlar)

Annotatsiya. *Maqolada rus romanlarida badiiy til va universal g‘oyalar birligi masalasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi — rus adabiyoti mualliflari tomonidan umuminsoniy falsafiy va axloqiy qadriyatlarni ifodalashda qo‘llaniladigan til va uslubiy vositalarni aniqlashdan iborat. Ishda matniy, uslubiy va interpretativ tahlil metodlaridan foydalaniladi. Badiiy matnning universal ma’nosini shakllantirishda metafora, ramz, ichki monolog hamda rivoyaviy (narrativ) tuzilmaning roli alohida e’tiborga olinadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy til; universal g‘oyalar; rus romani; poetika; uslubiy vositalar; falsafiy mazmun; adabiy tahlil; milliy va umuminsoniy qadriyat.*

Введение. В условиях глобализации и усиления межкультурного диалога особое значение приобретает изучение художественного языка как носителя универсальных идей и ценностей. Русский роман, являясь одной из центральных форм национальной и мировой литературы, демонстрирует уникальное единство эстетической выразительности и философской глубины. Гармония художественного языка и универсальных идей в русских романах способствует не только формированию национальной культурной идентичности, но и передаче общечеловеческих смыслов, понятных представителям различных культур и эпох. Несмотря на значительное количество исследований, посвящённых поэтике русского романа, проблема соотношения художественного языка и универсальных идей в их гармоническом единстве остается недостаточно систематизированной. Современное литературоведение нуждается в комплексном анализе языковых, стилистических и смысловых механизмов, посредством которых

русские писатели выражают вечные философские и нравственные категории, такие как свобода, любовь, страдание, ответственность и смысл человеческого существования. В связи с этим данное исследование представляется актуальным и научно значимым.

Литературный обзор. Публикации последних лет предоставили ценный фактический материал, позволяющий более глубоко осмыслить отношение Лидии Чуковской к европейской культуре и универсальным гуманистическим ценностям. В данном контексте впервые предпринимается попытка всестороннего анализа образов «немецкого мира», формирующихся как в художественных произведениях писательницы, так и в её эпистолярном наследии. Круг данных образов, представленных в творчестве Л. К. Чуковской, отличается значительным тематическим и смысловым разнообразием. В целях систематизации материала представляется целесообразным сгруппировать их по тематическим блокам, каждый из которых соотнесён с конкретными текстами. Особое внимание уделяется аспектам, выявляемым при анализе книги «Записки об Анне Ахматовой».

В ходе исследования становится возможным говорить о резко отрицательном отношении Л. К. Чуковской к учению Зигмунда Фрейда, а также о трансформации восприятия фрейдизма Анной Ахматовой в 1940–1950-е годы, происходившей, по-видимому, не без влияния Чуковской. Свидетельством этого служит зафиксированный 9 августа 1939 года спор между Чуковской и Ахматовой, в ходе которого последняя объясняла причины своего первоначального доверия к Фрейду, признавая при этом собственное раздражение его трудами и сомнение в их достоверности.

Запись от 12 июня 1940 года отражает частичный пересмотр Ахматовой своих взглядов на фрейдистскую теорию. Поэтесса указывает на ряд противоречий и нелепостей в учении Фрейда, одновременно признавая значимость его идеи о решающей роли раннего детства в формировании личности. В то же время она выражает недоверие к сексуализированным интерпретациям и мифологизации человеческих отношений, связывая их с узким и провинциальным культурным контекстом, в котором формировался сам Фрейд.

Возвращение Чуковской и Ахматовой к обсуждению фрейдизма спустя годы зафиксировано в записи от 30 июня 1955 года. В этот период Ахматова окончательно отвергает учение Фрейда, характеризуя его как личного противника, лишающего любовь её сущностных качеств — естественности, спонтанности и свободы от жёстких норм и канонов. По её мнению, фрейдистская интерпретация искажает подлинную природу человеческих чувств, сводя их к искусственным и ограниченным схемам.

Отдельный тематический пласт дневниковых записей Л. К. Чуковской связан с отношением А. А. Ахматовой к переводчикам и переводам немецкой литературы. В частности, в «Ташкентских тетрадях» зафиксированы высказывания поэтессы, свидетельствующие о высоком признании перевода В. В. Левика поэмы Г. Гейне «Германия. Зимняя сказка». Несмотря на то что Ахматова прослушала лишь часть текста, она дала ему исключительно положительную оценку. Примечательно, что переводы Левика из Гейне привлекали значительное внимание писателей, находившихся в эвакуации в Ташкенте, о чём свидетельствуют и более поздние записи Чуковской, в том числе от 10 марта 1942 года.

Особое место среди переводчиков с немецкого языка в «Записках об Анне Ахматовой» занимает Борис Пастернак, чьи работы неоднократно становились предметом обсуждения. Так, в записи от 31 декабря 1952 года приводится оценка перевода трагедии И.-В. Гёте «Фауст». Ахматова отмечает неоднозначность перевода: с одной стороны, отдельные фрагменты, включая начальную сцену с хором ангелов, представляются ей художественно более удачными, чем у Гёте; с другой — образ Маргариты в интерпретации Пастернака местами утрачивает юношескую наивность и приобретает излишнюю зрелость.

Дальнейшее обсуждение перевода «Фауста» зафиксировано в записи от 18 января 1954 года и было вызвано дарственной надписью Пастернака на экземпляре книги, адресованном Чуковской. Несмотря на подчёркнутую эмоциональность и торжественность послания, Чуковская отмечает, что подобная надпись могла бы быть воспринята как ироничная, если бы не хорошо известная ей доброжелательность автора. Завершая свои размышления, Чуковская фиксирует медленное и вдумчивое чтение «Фауста» и резко негативно оценивает предисловие

Raqamli ta’lim muhiti shaxsning o‘zini boshqarish, vaqtni taqsimlash, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va mustaqil qaror qabul qilishini talab etadi. Shu sababli masofaviy ta’lim oluvchilar

qadriyatlar tizimida mustaqillik, o‘zini rivojlantirish va maqsadga intilish kabi xususiyatlar yanada kuchli namoyon bo‘ladi. Kohnke va Moorhouse (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqot masofaviy ta’limning nafaqat o‘quv texnologiyasi, balki talaba shaxsining qadriyat tizimiga ta’sir etuvchi psixologik va madaniy fenomen ekanligini isbotlaydi. Ularning ta’kidlashicha, masofaviy ta’lim oluvchilar o‘z ta’lim jarayonini mustaqil boshqarishga, vaqtni rejalashtirishga, shaxsiy mas’uliyatni oshirishga va avtonomiya ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga moyil bo‘ladi. Bu jihatlar M. Rokichning instrumental qadriyatlari bilan to‘liq uyg‘unlashadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari masofaviy ta’lim raqamli kompetensiyalar hamda yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga tayyorlikni shakllantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Bu esa Schwartz nazariyasidagi “Self-direction” (mustaqillik) va “Stimulation” (yangilikka ochiqlik) qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq.

Umuman olganda, masofaviy ta’lim qadriyatlarni transformatsiya qiluvchi muhit sifatida namoyon bo‘lib, unda individual mas’uliyat, o‘z-o‘zini rivojlantirish va shaxsiy ustuvorliklar markaziy o‘ringa chiqadi. Onlayn ta’lim jarayonida ijtimoiy aloqalarning cheklanishi natijasida ijtimoiy qadriyatlarning ma’lum darajada pasayishi, aksincha, shaxsiy maqsadlarga yo‘naltirilgan qadriyatlarga ehtiyoj oshishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlar shaxs xususiyatlari va qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlaydi. “Katta Beshlik” modeli asosida ochiqlik — ijodkorlik va mustaqillik qadriyatlari bilan, vijdonlilik — mas’uliyat va yutuq qadriyatlari bilan, ekstraversiya — ijtimoiy aloqa va stimul qadriyatlari bilan, moslashuvchanlik — xayrixohlik va universalizm bilan, nevrotiklik esa xavfsizlik va an’ana qadriyatlari bilan bog‘liq ekani qayd etilgan.

Yuqoridagi ilmiy tahlillarni umumlashtirgan holda, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: qadriyatlar tizimi shaxsning motivatsiya, o‘quv faolligi va o‘zini boshqarish strategiyalarini belgilovchi asosiy psixologik tuzilma hisoblanadi. Masofaviy ta’lim talabalarda mustaqillik, avtonomiya va o‘zini rivojlantirish kabi qadriyatlarning kuchayishiga xizmat qiladi. Psixologik omillar – shaxs xususiyatlari, emotsional barqarorlik va motivatsiya darajasi qadriyatlarning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, masofaviy ta’lim sharoitida qadriyatlarning shaxsiy yo‘nalganlikdan ijtimoiy yo‘nalganlikka o‘tishida muayyan o‘zgarishlar kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Feather, N. T. Values, valences, and choice: The influences of values on the perceived attractiveness and choice of alternatives // Journal of Personality and Social Psychology. – 1995. – Vol. 68, No. 6. – P. 1135–1146.

2. Schwartz, S. H. An overview of the Schwartz theory of basic values // Online Readings in Psychology and Culture. – 2012. – Vol. 2, No. 1. – P. 1–11.

3. Hodges, C. B., Fowler, D. J. The COVID-19 crisis and faculty members in higher education: from emergency remote teaching to better teaching through reflection // International Journal of Multidisciplinary Perspectives in Higher Education. – 2020. – Vol. 5, No. 1. – P. 118–122.

4. Garris, C. P., Fleck, B. Student evaluations of transitioned-online courses during the COVID-19 pandemic // Scholarship of Teaching and Learning in Psychology. – 2022. – Vol. 8, No. 2. – P. 119–132.

5. Parks-Leduc, L., Feldman, G., Bardi, A. Personality traits and personal values: A meta-analysis // Personality and Social Psychology Review. – 2015. – Vol. 19, No. 1. – P. 3–29.

Shaniyazov Jenisbay Ungarbayevich
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali
O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ADABIY TIL UCHUN YOZUVNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qoraqalpoq tili va yozuvining tarixiy rivojlanishi, uning og‘zaki va yozma shakllari hamda funksiyalari tahlil qilinadi. Tilning og‘zaki shakli jonli muloqot va fikr almashish uchun xizmat qilsa, yozma shakli vaqt va makondan mustaqil tarzda axborot yetkazish va saqlash imkonini beradi. Yozuvning rivojlanishi jarayonlari lotin alifbosiga asoslangan qoraqalpoq yozuvining shakllanishi va rus grafikasi asosida yangi tizimga o‘tishi orqali o‘rganiladi. Maqolada shuningdek, qoraqalpoq yozuvini lotin va rus grafikasiga o‘tkazish jarayonidagi ilmiy, ijtimoiy va madaniy omillarga ham to‘xtalib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *turkiy tillar, leksika, so‘zlar, rivojlanish tarixi, og‘zaki nutq, terminlar.*

ЗНАЧЕНИЕ ПИСЬМЕННОСТИ ДЛЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье анализируется историческое развитие каракалпакского языка и письменности, а также их устные и письменные формы и функции. Устная форма языка служит для живого общения и обмена мыслями, тогда как письменная форма позволяет передавать и сохранять информацию независимо от времени и пространства. Процессы развития письменности рассматриваются через формирование каракалпакской письменности на основе латинского алфавита и последующий переход на новую систему на основе русской графики. В статье также рассматриваются научные, социальные и культурные факторы, связанные с переходом каракалпакской письменности на латинскую и русскую графику.*

Ключевые слова:*. тюркские языки, лексика, слова, история развития, устная речь, термины.*

THE SIGNIFICANCE OF WRITING FOR THE LITERARY LANGUAGE

Abstract. *This article analyzes the historical development of the Karakalpak language and its writing system, as well as their oral and written forms and functions. The oral form of the language serves for live communication and the exchange of ideas, while the written form enables information to be transmitted and preserved independently of time and space. The processes of writing development are examined through the formation of the Karakalpak writing system based on the Latin alphabet and the subsequent transition to a new system using Russian orthography. The article also addresses the scientific, social, and cultural factors involved in the transition of the Karakalpak writing system to the Latin and Russian scripts.*

Key words:*. turkic languages, lexicon, words, history of development, oral speech, terms.*

Kirish. Har bir xalq orasida muloqot qilish vazifasini bajaradigan til ikki xil yo‘l bilan yuzaga chiqadi va ikki xil ko‘rinishga ega bo‘ladi. Og‘zaki va yozma odatda tabiiy holatda odamlarning fikr almashishi og‘zaki tarzda amalga oshadi. Tilning barcha qonuniyatlari shu jonli so‘zlashuv tilida ko‘rinadi. Shuning bilan birga tilning yozma ko‘rinishi ham juda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Yozuv odamning fikrini xohlagan masofaga yetkazish uchun yoki uni uzoq vaqtlar saqlash maqsadida paydo bo‘ldi va yozuvning asosiy vazifasi ham vaqt va makonga bog‘liq bo‘ladi. Yozuv orqali og‘zaki so‘zlashda mumkin bo‘lmagan narsalar amalga oshadi. Og‘zaki nutq ovoz yetadigan joylardagina amalga oshadi. Yozuvda esa vaqt va makon jihatidan chegaralanish bo‘lmaydi. To‘g‘ri, so‘nggi davrlarda texnikaning o‘sishi bilan og‘zaki nutqning ham makon va zamon jihatidan ko‘lami

kengaydi. Radio yoki telefon aloqasi orqali juda katta masofaga og‘zaki nutqni yetkazish mumkin, magnitofonga yozib olish orqali og‘zaki nutqni juda uzoq vaqtgacha saqlash mumkin va h.k.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yozuv qurollari bo‘lib harflar, raqamlar, tinish belgilari xizmat qiladi. Eng qadimgi yozuv juda sodda bo‘lgan. Yozuvning boshlanishi rasmlar bo‘lgan. Rasm orqali odamlar fikr-mulohazalarni ifodalashga uringan. Bunday yozuvni tasviriy yozuv deb atashgan. Tasviriy yozuvda yakka so‘zlar ko‘rinishga ega bo‘lmaydi, unda yaxlit voqea, haqida umumiy ma’lumot beriladi.

Yozuvning rivojlanishida keyingi bosqichda shartli, belgilar alohida tushunchalarni anglatish uchun ishlatilgan. Bunday yozuv tushuncha yozuv deyiladi. Izoh yozish rasm yozishning davomi sifatida keyinchalik paydo bo‘lgan.

1926-yil Boku shahrida bo‘lib o‘tgan dastlabki turkologik qurultoydan so‘ng turkiy tilli xalqlarni yangi lotinlashgan alifboga o‘tkazish uchun ommaviy harakat kuchaydi. Shu munosabat bilan 1927-yil iyul oyida Qoraqalpog‘iston viloyat partiya qo‘mitasi byurosining qaroriga muvofiq yangi alifboning viloyat qo‘mitasi tuzilib, uning rahbari etib viloyat ijroiya qo‘mitasining raisi yozuvchi va tilchi Qosim Avezov tayinlandi.

Tahlil va muhokama. So‘nggi vaqtlarda bu qo‘mita lotin alifbosi asosida yangi alifboni ishlab chiqish va qoraqalpoq yozuvini lotin alifbosiga o‘tkazishni amalga oshirish bo‘yicha yetakchi markaz bo‘lib qoldi. Qosim Avezovning, Sayfulg‘abit Majitovning va b. bevosita ishtirokida va rahbarligida tuzilgan lotinlashtirilgan qoraqalpoq alifbosining dastlabki loyihasi 1928-yil 30-iyunda Qoraqalpog‘iston avtonomiyaga respublika viloyati hukumatining muhokamasiga taqdim etildi.

1928-yilning oxirida lotin grafikasiga asoslangan yangi qoraqalpoq alifbosi tasdiqlandi. 1928-30 yillar davomida qoraqalpoq yozuvini butunlay yangi lotinlashgan alifboga o‘tkazish amalga oshirildi.

1931-yilda Qoraqalpog‘istonda Qoraqalpog‘iston Kompleks ilmiy tadqiqot instituti tashkil etilib, unda etnologik, lingvistik seksiya tuzildi. Qoraqalpoq tili, adabiyoti va etnografiyasini o‘rganish bo‘yicha ish yuritish aynan shu seksiyaga yuklatilgan edi. Shu davrda etnologik-lingvistik seksiya asosan qoraqalpoq tili bo‘yicha materiallar to‘plash va alifboni hamda orfografiyani takomillashtirish masalalari bilan shug‘ullandi.

Qoraqalpoq yozma adabiy tilining rivojlanish davri qoraqalpoq yozuvi lotinlashtirilgan alifboga o‘tgan vaqtdan boshlab asosan qoraqalpoq adabiyoti bo‘yicha yangi materiallarni to‘plash, respublikaning maktablari uchun o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar tuzish, alifbo va orfografiyani takomillashtirish, ijtimoiy va tabiiy fanlarning ayrim sohalari bo‘yicha ilmiy-texnik terminologiya masalalarini ishlab chiqish bilan xarakterlanadi.

1932-yil sentyabr oyida To‘rtko‘l shahrida birinchi orfografik konferensiya bo‘lib, unda G.Alparov, G.Ubaydullayev va Ayimbetovlar tuzib chiqqan yangi orfografik qoidalar qabul qilindi va tasdiqlandi. Yozuvning qat’iy qoidalarini belgilab chiqish qoraqalpoq tili yozuvidagi fonetik, grammatik me’yorlarni ishlab chiqish va standartlashtirish jihatidan qoraqalpoq adabiy tilining yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa. Lotin alifbosi uning xalqni tez vaqt ichida ommaviy savodxon qilish ishini rivojlantirishdagi juda katta ahamiyatiga qaramasdan qoraqalpoq adabiy tilining bundan buyon ham jo‘shqin rivojlanishiga muvofiq kelishiga qaramasdan qoraqalpoq yozuvini rus grafikasi asosida tuzilgan alifboga o‘tkazish masalasi kun tartibida o‘rtaga qo‘yilgan edi. Rus grafikasi asosida yangi yozuv tizimiga o‘tish bo‘yicha ishni tashkil etish markazi. 1940-yilda tashkil etilgan Qoraqalpog‘iston til va adabiyot ilmiy-tadqiqot instituti bo‘ldi.

1940-yil dekabr oyining oxirida Qoraqalpoq davlat nashriyoti qoraqalpoq tilining alifbosini va orfografik qoidalarini to‘plagan, unga qo‘shimcha tarzda “Qoraqalpoq tilining qisqacha orfografik lug‘ati”ni nashr etdi. Qoraqalpoq yozuvining rus grafikasi asosida yangi tizimga o‘tishi qoraqalpoq xalqining o‘z xohishiga muvofiq ixtiyoriy tarzda amalga oshirilmadi. Rus grafikasi asosida yangi yozuvning yaratilishi qoraqalpoq milliy yozuvi va milliy adabiy tilini rivojlantirish tarixida yangi bosqich bo‘ldi.

Qoraqalpoq xalqining yurtimizning boshqa xalqlari bilan madaniy aloqasini kuchaytirdi. Shunday qilib qoraqalpoq adabiy tilining shakllanishi va oyoqqa turib ketish davri asosan qoraqalpoq xalqining davlatining shakllanish davriga to‘g‘ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Уалийханов Ч. Собрание сочинений в 5 – томах, том I, Алма-Ата, 1961, стр. 370.
2. Хамидов Х.Х. Очерки истории каракалпакского языка. Нукус, 1974.
3. Бердибаев Р. Ежелги жазба муралар. «Эдебиет жэне омир», Алматы, 1964.
4. Каюмов А. Кадимият обидалари. Ташкент: Уздавнашр, 1972.
5. Якиманская И. С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – М.: Просвещение, 2001. –С. 75.
6. Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результат современного образования. – М.: Исследовательский центр качества подготовки специалистов, 2004. –С. 127.
7. Малофеев Н. Н. Инклюзивное образование: международный опыт и российская практика. – М.: Просвещение, 2010. –С. 24.
8. Монахов В. М. Современные компетенции педагога. – М.: «Педагогическое общество России», 2017.

Shodiyeva Guzal Baxtiyorovna
Teacher of Shakhrisabz state pedagogical institute
E-mail: gozalshodiyeva0@gmail.com

SIYOSIY DISKURSDA KONTEKSTUAL MOSLASHUV VA LINGVOPRAGMATIK MOSLIK TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Siyosiy diskurs zamonaviy jamiyatda tilning ijtimoiy, ideologik va pragmatik funksiyalari mujassam bo‘lgan murakkab kommunikativ hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Siyosiy nutq hokimiyatni ifodalash, ideologiyani legitimlashtirish va ijtimoiy ongni shakllantirish mexanizmi vazifasini bajaradi. Ushbu maqolada siyosiy diskursning lingvopragmatik xususiyatlari, kontekstual moslashuv tamoyillari hamda pragmatik ta’sir strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot siyosiy nutqning manipulyativ salohiyatini va uning auditoriyaga ratsional, hissiy hamda aksiologik ta’sir mexanizmlarini ochib berishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *siyosiy diskurs, lingvopragmatika, kontekst, manipulyatsiya, kommunikativ strategiya.*

ПРИНЦИПЫ КОНТЕКСТУАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ И ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКОЙ СОГЛАСОВАННОСТИ В ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *Политический дискурс в современном обществе представляет собой сложное коммуникативное явление, в котором интегрируются социальные, идеологические и прагматические функции языка. Политическая речь выступает механизмом выражения власти, легитимации идеологии и формирования общественного сознания. В статье анализируются лингвопрагматические особенности политического дискурса, принципы контекстуальной адаптации и стратегии прагматического воздействия.*

Ключевые слова: *политический дискурс, лингвопрагматика, контекст, манипуляция, коммуникативная стратегия.*

PRINCIPLES OF CONTEXTUAL ADAPTATION AND LINGUOPRAGMATIC COMPATIBILITY IN POLITICAL DISCOURSE

Abstract. *Political discourse in modern society represents a complex communicative phenomenon integrating social, ideological, and pragmatic functions of language. Political speech operates as a mechanism for expressing power, legitimizing ideology, and shaping social consciousness. This article analyzes the linguopragmatic features of political discourse, principles of contextual adaptation, and strategies of pragmatic influence. The study focuses on the manipulative potential of political language and its rational, emotional, and axiological impact on the audience.*

Keywords: *political discourse, linguopragmatics, context, manipulation, communicative strategy.*

Kirish. Zamonaviy siyosiy diskursda til ijtimoiy hayotning markaziy fenomeni sifatida qaraladi. Til bu jarayonda nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, hokimiyatni ifodalovchi va ideologik pozitsiyalarni legitimlashtiruvchi murakkab mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Siyosiy nutq jamiyat a’zolarining dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois siyosiy diskurs tilshunoslikda oddiy kommunikativ jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy-mafkuraviy mazmun bilan yuklangan strategik faoliyat sifatida talqin qilinadi. Siyosiy diskurs orqali ijtimoiy reallik talqin qilinadi, muayyan hodisalar muhim yoki ikkinchi darajali sifatida ko‘rsatiladi, ayrim pozitsiyalar esa umumiy manfaatlar doirasida “to‘g‘ri” va “qonuniy” deb e’tirof etiladi.

Siyosiy muloqotning asosiy xususiyati uning maqsadga yo‘naltirilganligidir. Har bir siyosiy bayonot, nutq yoki rasmiy chiqish muayyan kommunikativ niyatni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu niyat ko‘pincha ochiq shaklda emas, balki yashirin pragmatik mexanizmlar orqali ifodalanadi. Siyosiy subyektlar til vositalaridan foydalanib, auditoriyada muayyan tasavvurlarni shakllantirishga,

ijtimoiy fikrni yo‘naltirishga va mavjud hokimiyat munosabatlarini mustahkamlashga intiladilar. Shu nuqtayi nazardan, siyosiy nutqni o‘rganishda faqat grammatik yoki semantik tahlil bilan cheklanib bo‘lmaydi. Uni ijtimoiy kontekst, pragmatik niyat va auditoriya omili bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish ilmiy zarurat sifatida namoyon bo‘ladi.

Lingvopragmatik yondashuv siyosiy diskursni tahlil qilishda alohida metodologik ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv til birliklarining nafaqat ma’nosini, balki ularning real nutqiy vaziyatda qanday maqsadda qo‘llanilishini, qanday illokutiv kuchga ega ekanini va auditoriyada qanday perlokutiv ta’sirni yuzaga keltirishini izohlaydi. Siyosiy diskursda har bir lingvistik birlik ma’lum pragmatik vazifani bajaradi. So‘z tanlovi, gap tuzilishi, baholovchi birliklar va ritorik figuralar siyosiy nutqning umumiy strategiyasiga bo‘ysundiriladi. Natijada til siyosiy reallikni aks ettiruvchi emas, balki uni shakllantiruvchi va qayta konstruksiya qiluvchi vositaga aylanadi.

Siyosiy diskursning muhim xususiyatlaridan biri uning kontekstga bog‘liqligidir. Kontekst siyosiy nutqning mazmunini belgilovchi asosiy omil bo‘lib, u nutqiy vaziyat bilan cheklanib qolmaydi. Tarixiy sharoit, ijtimoiy muhit, madaniy kodlar, kollektiv xotira va ideologik fon siyosiy bayonotlarning talqiniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bir xil siyosiy bayonot turli davrlarda yoki turli auditoriyalar tomonidan mutlaqo boshqacha qabul qilinishi mumkin. Shu sababli kontekstual moslashuv siyosiy diskursning ajralmas tamoyili sifatida namoyon bo‘ladi. Siyosiy subyektlar nutqni mavjud ijtimoiy vaziyatga moslashtirish orqali uning ta’sirchanligini oshirishga intiladilar.

Kontekstual moslashuv jarayoni ongli va strategik xarakterga ega. Siyosiy nutqda qaysi hodisalarni tilga olish, qaysilarini e’tibordan chetda qoldirish, qanday ketma-ketlikda taqdim etish va ularga qanday baho berish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda baholovchi leksika, metaforalar, epitetlar va konseptual ramkalar keng qo‘llaniladi. Masalan, siyosiy jarayonlarni “islohot”, “barqarorlik”, “taraqqiyot” kabi ijobiy semantik yuklangan birliklar orqali ifodalash auditoriyada ijobiy hissiy munosabatni shakllantiradi. Shu tarzda siyosiy reallik til orqali qayta talqin qilinadi va muayyan ideologik pozitsiya ijtimoiy jihatdan maqbul sifatida ko‘rsatiladi.

Til siyosiy diskursda manipulyativ kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Manipulyatsiya bu yerda ochiq majburlash yoki buyruq berish shaklida emas, balki yashirin pragmatik ta’sir orqali amalga oshiriladi. Siyosiy nutq orqali auditoriya ongida muayyan qarashlar tizimi shakllantiriladi, muqobil pozitsiyalar esa cheklangan yoki salbiy konnotatsiya bilan taqdim etiladi. Ushbu jarayonda til vositalari markaziy rol o‘ynaydi, chunki ular siyosiy g‘oyalarni mantiqiy, hissiy va aksiologik jihatdan qabul qilinadigan shaklga keltiradi. Natijada auditoriya siyosiy qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilayotgandek tuyulsa-da, aslida u muayyan diskursiv strategiya doirasida yo‘naltiriladi.

Pragmatik nuqtayi nazardan, siyosiy diskursdagi har bir nutq akti muayyan illokutiv maqsadga ega. Siyosiy bayonotlar orqali auditoriyani ishontirish, ruhlantirish, safarbar qilish yoki qarshi ijtimoiy guruhlarni neytrallashtirish ko‘zda tutiladi. Ushbu illokutiv maqsadlarning muvaffaqiyati nutqning kontekstga qanchalik moslashtirilganiga bevosita bog‘liq. Kontekstual moslik yuqori bo‘lgan siyosiy nutq auditoriyada kuchli perlokutiv ta’sirni yuzaga keltiradi. Bunday nutq nafaqat fikr darajasida, balki hissiy va xulqiy darajada ham javob reaksiyasini keltirib chiqaradi.

Siyosiy diskursning ta’sirchanligi uning auditoriya bilan bog‘liq jihatlarida ham namoyon bo‘ladi. Har bir siyosiy nutq aniq adresatga yo‘naltirilgan bo‘lib, auditoriyaning bilim darajasi, ijtimoiy mavqei, madaniy tajribasi va qadriyatlar tizimi hisobga olinadi. Shu sababli siyosiy nutq universal emas, balki differensial xarakterga ega. Turli ijtimoiy guruhlar uchun mo‘ljallangan siyosiy bayonotlarda til vositalari, uslub va pragmatik strategiyalar farqlanadi. Bu holat siyosiy diskursning moslashuvchanligini va uning ijtimoiy tabiatini yaqqol namoyon etadi.

Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, siyosiy diskurs inson tafakkuriga faqat ratsional bilish jarayoni orqali emas, balki hissiy va axloqiy darajada ham ta’sir ko‘rsatadi. Siyosiy nutqda qo‘llaniladigan ifoda vositalari mantiqiy dalillash bilan bir qatorda emotsional qabulni ham faollashtiradi. Hissiy ta’sir auditoriyani safarbar qilish va ijtimoiy harakatga undashda muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan siyosiy diskurs ko‘pincha hissiy rezonansga asoslangan holda quriladi va bu uning samaradorligini oshiradi.

Siyosiy diskursda kontekstual moslashuv va lingvistik pragmatika bir-biri bilan chambarchas bog‘liq jarayonlardir. Tilning moslashuvchanligi siyosiy maqsadning amalga oshishida, auditoriyaning e’tiborini boshqarishda va g‘oyaning qabul qilinishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ingliz tilida

bu jarayon diplomatik strategiyalar orqali, o‘zbek tilida esa ijtimoiy va madaniy uyg‘unlik asosida kechadi. Xalqaro muloqotda esa til o‘yinlari, simvolik metaforalar va ritorik strategiyalar orqali ifodalanadi.

Tilning har bir birligi ijtimoiy kontekstdagi o‘zgaruvchanlikka moslashgan holda yangi ma’no kasb etadi. Verschueren ta’kidlaganidek, “til ishlatish — bu ongli yoki ongsiz tarzda amalga oshiriladigan, moslashuvga yo‘naltirilgan uzluksiz tanlov jarayonidir”, shuning uchun siyosiy diskurs tahlilida kontekstual moslashuv tildagi pragmatik maqsadni, ideologik yo‘nalishni va kommunikativ samaradorlikni ko‘rsatadi.

Siyosiy jarayonlarda hukmron diskursning shakllanish mexanizmini chuqurroq anglash maqsadida ushbu tahlil tanqidiy diskurs tadqiqotlari hamda M. Fukoning diskurs haqidagi nazariy qarashlariga va modeliga tayangan holda olib boriladi. Shuningdek, Hardy va Phillips tomonidan ishlab chiqilgan “diskurs sohasi” (realm of discourse) modeli siyosiy kontekstda qo‘llanildi. M.Fuko fikricha, diskurs — bu bilim, hokimiyat va ijtimoiy tartibning o‘zaro kesishgan maydoni bo‘lib, u orqali jamiyatda “haqiqat” yaratiladi. Siyosiy kontekstda bu fikr shuni anglatadiki, kim so‘zlaydi, kim tinglaydi va kim nazorat qiladi — bularning barchasi hokimiyat munosabatlarining natijasidir. Shu sababli, siyosiy diskursdagi har bir birlik, nutq ohangi yoki ritorik strategiya aslida ma’no ustidan nazoratni qo‘lga kiritish vositasidir.

Mazkur model siyosiy diskursning shakllanishini uchta darajada ifodalaydi:

Makro daraja — ideologik va institutsional hokimiyat manbalari;

Mezo daraja — tashkilotlar, partiyalar va siyosiy elita o‘rtasidagi diskursiv muzokaralar;

Mikro daraja — individual siyosiy aktorlarning til strategiyalari va muloqot jarayonlari.

Natijada, siyosiy jarayonda hukmron diskurs — bu bir vaqtning o‘zida yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga harakatlanadigan kommunikativ jarayon bo‘lib, u til, hokimiyat va ma’no o‘rtasidagi muvozanatni belgilaydi. Har bir siyosiy diskurs, har bir ritorik harakat ana shu kengroq tizimning bir bo‘lagi sifatida, ijtimoiy reallikni qayta qurish va hokimiyatni legallashtirishga xizmat qiladi.

Hardy va Phillips modeli va Fukoning “diskurs va hokimiyat” nazariyasiga chuqur tayanadi. Fuko ta’kidlaganidek, har qanday ijtimoiy tizimda hokimiyat faqat siyosiy tuzilmalarda emas, balki til, ma’no va diskurs amaliyotlari orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois, bu model siyosiy diskursni tahlil qilishda ham muhim metodologik vosita hisoblanadi.

Modelning birinchi komponenti — matn tuzish, uni uzatish va qabul qilish amaliyotlari — siyosiy kommunikatsiyada axborot yaratilishini, tarqatilishini va jamiyat tomonidan qabul qilinishini ifodalaydi. Masalan, siyosiy bayonot, rasmiy ma’lumot yoki matbuot xabari nafaqat axborot uzatish, balki ma’no yaratish amaliyoti sifatida ham qaraladi.

Har bir siyosiy yetakchi o‘z nutqi orqali nafaqat ma’lumot beradi, balki ijtimoiy reallikni til orqali quradi. Masalan, Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida shunday deydi:

“Biz uchun inson qadri eng oliy qadriyatdir. Yangi O‘zbekistonni barpo etishda biz inson manfaatlarini har narsadan ustun qo‘yamiz”.

Bu matn orqali “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi — ijtimoiy yangilanish, islohot va insonparvarlikning tildagi ramziga aylanadi.

Ikkinchi komponent — diskurs, xususan hukmron diskurs — siyosiy tizimda qanday g‘oyalar, qadriyatlar va qarashlar ustuvor maqomga ega bo‘lishini aniqlaydi. Bu jarayon Fuko ta’riflaganidek, “haqiqatni yaratish” jarayonidir, ya’ni til orqali jamiyatda ma’lum fikrlar qonuniy, boshqalari esa rad etiladigan holatga aylanadi.

Sh.Mirziyoyev nutqlarida *biz* olmoshi orqali xalq bilan hamjihatlikdagi rahbar pozitsiyasini egallaydi. “*Biz birgalikda islohotlarni amalga oshiramiz”, “xalq bilan maslahatlashib qaror qabul qilamiz”* kabi ifodalar inklyuziv pragmatik strategiyani namoyon etadi, bu esa hokimiyatni konsensus asosida legitimlashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchi komponent — tushunchalar, obyektlar va subyekt pozitsiyalari — siyosiy muloqotdagi rollarni belgilaydi. Kim so‘zlovchi, kim tinglovchi, kim nazorat qiladi — bularning barchasi diskurs doirasida shakllanadigan subyektiv pozitsiyalardir. Masalan, siyosatchi o‘z nutqida xalq vakili, davlat arbobi yoki xalqaro hamkor sifatida o‘zini joylashtiradi — bu esa ma’no ustidan nazoratni mustahkamlaydi.

Har uch liderning nutqlarida asosiy konseptlar — *“Yangi O‘zbekiston”, “Unity”, “Healing”* — tildagi ideologik markazlar sifatida ishlaydi. Ular ma’noni ishlab chiqish (meaning-making) jarayonida jamiyat uchun to‘g‘ri, tabiiy va qabul qilinadigan qarashlarni shakllantiradi.

To‘rtinchi komponent — hokimiyat munosabatlari — diskursning eng chuqur qatlami. Har bir til birligi, ritorik shakl yoki kommunikativ strategiya aslida hokimiyatni tashkil qilish, mustahkamlash yoki qayta taqsimlash jarayonining bir qismidir. Shu sababli, siyosiy diskursda tildan foydalanish hokimiyatni bevosita amalga oshirish vositasiga aylanadi.

Masalan, Sh.Mirziyoyev: *“Endi biz har bir qarorni xalq bilan maslahatlashib, ularning hayoti va taqdiriga bevosita ta’sirini chuqur o‘ylab qabul qilamiz*” .

Mazkur misolda “maslahatlashib”, “xalq bilan birga”, “ta’sirini chuqur o‘ylab” kabi ifodalar hokimiyatning dialogik va empatik shaklini ifodalaydi. Pragmatik nuqtayi nazardan bu, hokimiyatni tildagi hamjihatlik strategiyasi orqali qonuniylashtirishga qaratilgan. Mazkur namuna M.Fukoning: “bunday diskurs “buyruq” emas, balki “rozilik” orqali hukmronlikni yaratadi” xulosalarini aynan dalillaydi.

Politeness Theory nuqtayi nazaridan, siyosiy diskursda til faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki hokimiyatni muvozanatli, diplomatik va ijtimoiy maqbul shaklda ifodalash mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Shunday qilib, siyosiy diskursda kontekstual moslashuv va lingvopragmatik moslik tamoyillari nutqning kommunikativ samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tamoyillar siyosiy nutqning ideologik yo‘nalganligini, manipulyativ salohiyatini va ijtimoiy ta’sir mexanizmlarini chuqur anglash imkonini beradi. Siyosiy diskursni lingvopragmatik yondashuv asosida o‘rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki siyosatshunoslik, sotsiologiya va kommunikatsiya nazariyasi uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv siyosiy muloqotning yashirin mexanizmlarini ochib berish va ijtimoiy jarayonlarni yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Van Dijk, T. A. Political Discourse and Ideology. Amsterdam: Elsevier, 2006.
2. Yule, G. Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 2017.
3. Fairclough, N. Language and Power. London: Longman, 2015.
4. Chilton, P. Analysing Political Discourse. London: Routledge, 2004.
5. Wodak, R., Meyer, M. Methods of Critical Discourse Analysis. London: Sage, 2009.
6. Searle, J. Speech Acts. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
7. Karimov, S. Siyosiy diskurs va til pragmatikasi. Toshkent: Fan, 2020.
8. Shodiyeva, G. Ijtimoiy-siyosiy matnlarning lingvapragmatik salohiyati. In-Academy, 2(4), 2023.
9. Teshaboyeva, N. Z., & Makhmudova, A. R. Importance of Pragmatics and Relationship between Speech Act Theory and Discourse Analysis. Modern Education and Development, 14(1),2024. -pp.258–264.

Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna
Farg‘ona davlat universiteti
psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARI TAFAKKURI TARAQQIYOTINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada akademik litsey o‘quvchilarining tafakkuri taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy psixologik mexanizmlar ilmiy-nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. O‘smirlik va ilk yoshlik davriga xos bo‘lgan kognitiv o‘zgarishlar, abstrakt-mantiqiy fikrlashning shakllanishi, metakognitiv jarayonlar, nutq va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda motivatsion-irodaviy omillarning tafakkur rivojiga ta’siri yoritib beriladi. Tadqiqotda ta’lim jarayonining mazmuni va metodlari tafakkur taraqqiyotini faollashtiruvchi muhim omil sifatida asoslanadi. Akademik litsey o‘quvchilarining intellektual rivojlanishida individual psixologik xususiyatlar va ijtimoiy muhitning o‘rni statistik ma’lumotlar asosida ko‘rsatib beriladi. Maqola natijalari pedagogik-psixologik amaliyotda qo‘llash uchun ilmiy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *tafakkur taraqqiyoti, akademik litsey o‘quvchilari, psixologik mexanizmlar, abstrakt-mantiqiy tafakkur, metakognitsiya, bilish jarayonlari, ta’lim psixologiyasi, intellektual rivojlanish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ АКАДЕМИЧЕСКОГО ЛИЦЕЯ

Аннотация. *В данной статье научно-теоретически и эмпирически анализируются основные психологические механизмы, обеспечивающие развитие мышления учащихся академических лицеев. Освещены когнитивные изменения, характерные для подросткового и раннего юношеского возраста, формирование абстрактно-логического мышления, метакогнитивные процессы, взаимосвязь речи и мышления, а также влияние мотивационно-волевых факторов на развитие мышления. В исследовании содержание и методы образовательного процесса обоснованы как важный фактор, активизирующий развитие мышления. На основе статистических данных показана роль индивидуально-психологических особенностей и социальной среды в интеллектуальном развитии учащихся академических лицеев. Результаты статьи имеют научное значение для применения в педагогико-психологической практике.*

Ключевые слова: *развитие мышления, учащиеся академического лицея, психологические механизмы, абстрактно-логическое мышление, метакогниция, познавательные процессы, образовательный психолог.*

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF THE DEVELOPMENT OF THINKING IN ACADEMIC LYCEUM STUDENTS

Abstract. *In this article, the main psychological mechanisms ensuring the development of thinking of academic lyceum students are analyzed from a scientific-theoretical and empirical point of view. Cognitive changes characteristic of adolescence and early youth, the formation of abstract-logical thinking, metacognitive processes, the relationship between speech and thinking, and the influence of motivational and volitional factors on the development of thinking are highlighted. In the study, the content and methods of the educational process are substantiated as an important factor activating the development of thinking. The role of individual psychological characteristics and the social environment in the intellectual development of academic lyceum students is shown based on statistical data. The results of the article have scientific significance for application in pedagogical and psychological practice.*

Keywords: *development of thinking, academic lyceum students, psychological mechanisms, abstract-logical thinking, metacognition, cognitive processes, educational psychologist.*

Zamonaviy ta’lim tizimida akademik litsey o‘quvchilarining intellektual va tafakkur rivoji muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Akademik litsey ta’limi o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, bu davrda tafakkur taraqqiyoti sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tariladi. Psixologiya fanida mazkur yosh davri tafakkurning nazariy, abstrakt va refleksiv shakllarining faollashuvi bilan tavsiflanadi. Shu sababli akademik litsey o‘quvchilari tafakkuri taraqqiyotining psixologik mexanizmlarini o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Akademik litsey o‘quvchilari odatda 15–18 yosh oralig‘ida bo‘lib, bu davr o‘smirlikdan ilk yoshlikka o‘tish bosqichi sifatida qaraladi. Ushbu yoshda bilish jarayonlari, xususan tafakkur, idrok, xotira va diqqat tizimli ravishda rivojlanadi. Tafakkur jarayoni konkret-obrazli shakldan abstrakt-mantiqiy shaklga o‘tadi. O‘quvchilar hodisalar o‘rtasidagi murakkab sabab-oqibat munosabatlarini anglash, umumlashtirish va nazariy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo‘la boshlaydilar.

Tafakkur taraqqiyotining asosiy psixologik mexanizmlaridan biri — abstrakt-mantiqiy fikrlashning shakllanishidir. Akademik litsey o‘quvchilari tushunchalar bilan operatsiya qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, taqqoslash va tahlil qilish kabi intellektual amallarni ongli ravishda bajarishga o‘tadilar. Bu jarayon ta’lim mazmunining murakkablashuvi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, fanlararo aloqalarni tushunish tafakkur rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, metakognitiv mexanizmlar tafakkur taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Metakognitsiya o‘quvchining o‘z fikrlash jarayonini anglash, rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini ifodalaydi. Akademik litsey o‘quvchilari mustaqil o‘qish, murakkab masalalarni yechish va o‘z xatolarini tahlil qilish orqali metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa tafakkurning ongli va boshqariladigan tus olishiga olib keladi.

Tafakkur taraqqiyotida nutq faoliyati muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy tushunchalar, mantiqiy kategoriyalar va terminlarning o‘zlashtirilishi fikrning aniqligi va izchilligini ta’minlaydi. Ichki nutq tafakkur jarayonini rejalashtirish va boshqarishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Akademik litsey sharoitida yozma va og‘zaki nutqning rivojlanishi tafakkurning chuqurlashuviga olib keladi.

Bundan tashqari, motivatsion omillar tafakkur taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Bilishga bo‘lgan ehtiyoj, o‘zini namoyon etish istagi va kasbiy maqsadlarning aniqligi o‘quvchining intellektual faolligini oshiradi. Motivatsiyasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar murakkab aqliy faoliyat turlariga ko‘proq jalb etiladi va tafakkur jarayonlari chuqurroq rivojlanadi.

Akademik litsey o‘quvchilari tafakkuri taraqqiyotida individual-psixologik xususiyatlar muhim o‘rin egallaydi. Har bir o‘quvchining intellektual rivojlanish darajasi, bilish uslubi, temperament tipi va shaxsiy qiziqishlari tafakkur jarayonlarining faolligi va samaradorligini belgilaydi. Masalan, reflektiv fikrlashga moyil bo‘lgan o‘quvchilar muammolarni chuqur tahlil qilishga intilsa, impulsiv tipdagi o‘quvchilar tezkor, ammo kamroq nazorat qilinadigan fikrlash usullarini namoyon etadilar. Shu sababli ta’lim jarayonida individual yondashuv tafakkur taraqqiyotining muhim psixologik sharti hisoblanadi.

Tafakkur rivojiga ta’sir etuvchi muhim mexanizmlardan yana biri — ijtimoiy muhit va muloqot faoliyatidir. Akademik litsey o‘quvchilari tengdoshlari, o‘qituvchilar va ota-onalar bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida o‘z fikrlarini asoslash, himoya qilish va boshqalarning nuqtai nazarini baholashni o‘rganadilar. Munozarali vaziyatlar, guruhli muhokamalar va jamoaviy loyiha ishlari tafakkurning tanqidiy va refleksiv jihatlarini rivojlantiradi. Ijtimoiy muloqot orqali o‘quvchilar bilimlarni ichkilashtiradilar va ularni yangi vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Akademik litsey ta’lim tizimida muammoli ta’lim va tadqiqotga yo‘naltirilgan faoliyat tafakkur taraqqiyotining samarali mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Muammoli vaziyatlar o‘quvchini faol fikrlashga, farazlar ilgari surishga va ularni tekshirishga undaydi. Tadqiqot topshiriqlari esa mustaqil tahlil, sintez va umumlashtirish jarayonlarini faollashtiradi. Bu jarayonda tafakkur ijodiy tus oladi va shaxsning intellektual mustaqilligi shakllanadi.

Shuningdek, tafakkur taraqqiyotida emotsional holatlarning roli ham muhimdir. Ijobiy emotsiyalar bilish jarayonlarini faollashtirsa, salbiy emotsiyalar tafakkur samaradorligini pasaytirishi

mumkin. Akademik litsey o‘quvchilarida stress, imtihon qo‘rquvi va muvaffaqiyatsizlikdan xavotirlanish kabi holatlar fikrlash jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli psixologik qo‘llab-quvvatlash va qulay psixologik muhit yaratish tafakkur rivoji uchun zarur shart hisoblanadi.

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, akademik litsey o‘quvchilarining tafakkur rivojlanish darajasi ularning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyati bilan bevosita bog‘liq. Tafakkuri rivojlangan o‘quvchilar murakkab masalalarni tezroq va samaraliroq hal etadilar, mustaqil qaror qabul qilishga moyil bo‘ladilar va bilimlarni yangi vaziyatlarga transfer qila oladilar. Quyidagi jadvalda akademik litsey o‘quvchilarida tafakkur taraqqiyoti ko‘rsatkichlarining umumlashtirilgan natijalari keltiriladi.

1-jadval.

Akademik litsey o‘quvchilarida tafakkur taraqqiyoti ko‘rsatkichlari (empirik ma’lumotlar asosida)

Tafakkur ko‘rsatkichlari	Past daraja (%)	O‘rta daraja (%)	Yuqori daraja (%)
Abstrakt-mantiqiy fikrlash	18	47	35
Tahlil va sintez qobiliyati	21	44	35
Metakognitiv nazorat	26	43	31
Mustaqil muammo yechish	19	49	32
Tanqidiy fikrlash	23	46	31

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarning katta qismida tafakkur taraqqiyoti o‘rta va yuqori darajada shakllangan bo‘lib, bu akademik litsey ta’limining intellektual rivojga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim o‘quvchilarda tafakkur mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi, bu esa individual psixologik yordam va differensial ta’limni talab etadi.

Akademik litsey o‘quvchilari tafakkuri taraqqiyotini optimallashtirishda pedagogik-psixologik ta’sir vositalarining to‘g‘ri tanlanishi muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodlarning tizimli qo‘llanilishi o‘quvchilarning intellektual faolligini oshiradi va ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltiradi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar yaratish, evristik savollar berish, loyiha va tadqiqot faoliyatini tashkil etish tafakkur mexanizmlarining faollashuviga olib keladi.

Tafakkur taraqqiyotining muhim mexanizmlaridan yana biri — refleksiyadir. Refleksiya orqali o‘quvchi o‘z fikrlash jarayonini baholaydi, xatolarini anglaydi va ularni tuzatish yo‘llarini izlaydi. Akademik litsey sharoitida reflektiv topshiriqlar, o‘z-o‘zini baholash varaqalari va tahliliy esse yozish tafakkur jarayonining ongli va boshqariladigan tus olishiga xizmat qiladi. Bu esa o‘quvchilarda intellektual mas’uliyat va mustaqillikni shakllantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham tafakkur taraqqiyotining zamonaviy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Elektron ta’lim resurslari, interaktiv platformalar va raqamli simulyatsiyalar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Biroq texnologiyalardan foydalanishda psixologik me’yorlarga rioya qilinishi zarur, chunki ortiqcha axborot yuklamasi tafakkur samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Akademik litsey o‘quvchilarining tafakkur rivojida o‘qituvchi shaxsining psixologik-pedagogik kompetensiyasi muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchining muloqot uslubi, motivatsiya berish qobiliyati va individual yondashuvi o‘quvchilarning intellektual faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik qo‘llab-quvvatlovchi muhitda o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifodalashga va ijodiy yondashuvni namoyon etishga moyil bo‘ladilar.

Quyidagi jadvalda tafakkur taraqqiyotini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik ta’sir vositalarining samaradorligi umumlashtirilgan holda keltiriladi.

Tafakkur taraqqiyotini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik ta’sir vositalarining samaradorligi

Ta’sir vositalari	Qo‘llash chastotasi	Tafakkur rivojiga ta’siri	Samaradorlik darajasi
Muammoli ta’lim	Yuqori	Abstrakt va tanqidiy fikr	Juda yuqori
Tadqiqot va loyiha faoliyati	O‘rta–yuqori	Ijodiy va reflektiv tafakkur	Yuqori
Guruhli munozara va bahslar	O‘rta	Tahlil va sintez	Yuqori
Raqamli ta’lim texnologiyalari	O‘rta	Mantiqiy fikrlash	O‘rtacha
Reflektiv topshiriqlar	O‘rta	Metakognitiv nazorat	Yuqori

Yakuniy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, akademik litsey o‘quvchilari tafakkuri taraqqiyoti murakkab va ko‘p qirrali psixologik jarayon bo‘lib, u biologik yetilish, individual psixologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit va ta’lim faoliyatining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Tafakkur taraqqiyotining asosiy mexanizmlari sifatida abstrakt-mantiqiy fikrlash, metakognitiv nazorat, refleksiya, nutq faoliyati va motivatsion omillar ajratib ko‘rsatildi.

Xulosa qilib aytganda, akademik litsey sharoitida tafakkur taraqqiyotini ta’minlash uchun ta’lim jarayonini psixologik jihatdan asoslangan holda tashkil etish, individual yondashuvni amalga oshirish va qulay psixologik muhit yaratish zarur. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning intellektual salohiyatini to‘liq namoyon etishiga, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ananyev B.G. Insonni bilish muammolari. — Toshkent: Fan, 2018.
2. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Leontyev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. — Toshkent: Fan, 2018.
5. Piaget J. Kognitiv rivojlanish psixologiyasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
6. Bo‘riyev B.R. Ta’lim psixologiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2021.
7. G‘oziev E.G‘. Yosh va pedagogik psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
8. Karimova V.M. Shaxs psixologiyasi va tafakkur rivoji. — Toshkent: Innovatsiya, 2021.
9. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. — Toshkent: Fan, 2019.
10. Xudoyberdiyev R.S. Metakognitiv jarayonlar va ta’lim samaradorligi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
11. Nazarova G.B. O‘smirlar tafakkurining psixologik xususiyatlari // Psixologiya jurnali. — 2021. — №2.

Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna
Farg‘ona davlat universiteti psixologiya kafedra o‘qituvchi

KREATIVLIKNING KOGNITIV KOMPONENTLARI VA ULARNING TA’LIM-DAGI RIVOJLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kreativlik kognitiv psixologiya nuqtai nazaridan ilmiy asosda tavsiflangan bo‘lib, uning divergent va konvergent tafakkur, assotsiativ xotira, kognitiv moslashuvchanlik va reframing kabi asosiy kognitiv mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, bolalarda kreativlikni rivojlantirishda pedagogik aralashuvlar, o‘yin va loyiha asosida o‘qitish metodlari samaradorligi, neyroimaging tadqiqotlari orqali DMN va ECN tarmoqlari o‘rtasidagi integratsiya, hamda madaniy-kognitiv omillar, bilingvizm va ta’lim tizimi ta’siri batafsil ko‘rib chiqilgan. Matn MDH va O‘zbekiston olimlarining amaliy ishlarini ham o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *kreativlik, divergent tafakkur, konvergent tafakkur, assotsiativ xotira, kognitiv moslashuvchanlik, reframing, ijodiy jarayon, pedagogik aralashuvlar, o‘yin, loyiha asosida o‘qitish, ta’lim, neyrotadqiqot, madaniy-kognitiv omillar, bolalar rivoji, DMN, ECN.*

КОГНИТИВНЫЕ КОМПОНЕНТЫ КРЕАТИВНОСТИ И ИХ РАЗВИТИЕ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В данной статье креативность описана с научной точки зрения с точки зрения когнитивной психологии, проанализированы ее основные когнитивные механизмы, такие как дивергентное и конвергентное мышление, ассоциативная память, когнитивная адаптивность и рефреминг. Также подробно рассмотрены педагогические вмешательства в развитие креативности у детей, эффективность игровых и проектных методов обучения, интеграция между сетями ДМН и ECN посредством нейровизуализационных исследований, а также влияние культурно-когнитивных факторов, билингвизма и системы образования. Текст также включает практические работы ученых из стран СНГ и Узбекистана.*

Ключевые слова: *креативность, дивергентное мышление, конвергентное мышление, ассоциативная память, когнитивная гибкость, рефрейминг, творческий процесс, педагогические вмешательства, игра, проектное обучение, образование, нейроисследования, культурно-когнитивные факторы, развитие детей, ДМН, ECN.*

COGNITIVE COMPONENTS OF CREATIVITY AND THEIR DEVELOPMENT IN EDUCATION

Abstract. *This article describes creativity from a scientific perspective from the perspective of cognitive psychology, analyzing its main cognitive mechanisms such as divergent and convergent thinking, associative memory, cognitive adaptability, and reframing. Pedagogical interventions in developing children's creativity, the effectiveness of game-based and project-based learning methods, the integration between DMN and ECN networks through neuroimaging research, and the influence of cultural and cognitive factors, bilingualism, and the education system are also examined in detail. The text also includes practical works by scientists from CIS countries and Uzbekistan.*

Keywords: *creativity, divergent thinking, convergent thinking, associative memory, cognitive flexibility, reframing, creative process, pedagogical interventions, game, project learning, education, neuro-research, cultural-cognitive factors, child development, DMN, ECN.*

Kreativlik (lot. *creare* — “yaratmoq”) — inson tafakkurining yuqori darajadagi ijodiy funksiyasi bo‘lib, yangi, original va foydali g‘oyalar, yechimlar yoki mahsulotlarni hosil qilishga qaratilgan murakkab psixik jarayon sifatida talqin qilinadi. Kognitiv psixologiya nuqtai nazaridan kreativlik — bu nafaqat “inspirovka” yoki to‘satdan paydo bo‘ladigan fikr emas, balki mavjud bilim, tajriba va hissiy omillar asosida yangi assotsiatsiyalarni maqsadli tarzda yaratish va ularni mazmunli kontekstda sinovdan o‘tkazish jarayonidir.

Ilmiy adabiyotda kreativlik tushunchasini tavsiflashda bir nechta nazariy o‘qlar muhim ahamiyatga ega. Guilfordning ijodiy fikrlash haqidagi ishlari divergent va konvergent tafakkurni ajratib ko‘rsatdi: *divergent* — bir muammo bo‘yicha imkon qadar ko‘p, xilma-xil va original g‘oyalar ishlab chiqarish qobiliyati; *convergent* — bu g‘oyalar orasidan eng maqbul, mantiqiy va amaliy yechimni tanlash va uni amalga oshirish uchun zarur resurslarni aniqlash jarayonidir. Shu bilan birga, kreativlikni baholash va o‘lchashda diagnostik bo‘lgan modellar (masalan, Runco va boshq.) ijodiy mahsulotning originaligi, moslashuvchanligi va samaradorligini o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Kreativlik — ko‘p bosqichli va ko‘pkomponentli jarayon. Uning kognitiv mexanizmlari ichida ayniqsa assotsiativ xotira, kognitiv moslashuvchanlik va reframing (muammoni qayta talqin qilish) alohida o‘rin tutadi. Ushbu komponentlar birgalikda yangi, original va funktsional yechimlarni hosil qilish jarayonini ta’minlaydi.

Assotsiativ xotira — ilgari olingan ma’lumotlar, tajriba va sezgi taassurotlarini bir-biri bilan bog‘lab, yangi kombinatsiyalar (assotsiatsiyalar) hosil qilish qobiliyatidir. Bu jarayon kreativiteting «xomashyosi» sifatida ko‘riladi: yangi g‘oya ko‘pincha uzoq masofali yoki kross-modal (masalan, tasvir + tovush + harakat) assotsiatsiyalardan kelib chiqadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy natijalar ko‘proq assotsiativ tarmoqlarning kengligi va ularni faol ravishda qidirish bilan bog‘liq (masalan, ma’lumotlar orasidagi uzoq masofali bog‘lanishlar). Assotsiativ xotira ustida ishlash usullari — metafora va analogiya mashqlari, g‘oya xaritalash (mind-mapping), erkin yozish (free writing) — yangi bog‘lanishlarni rag‘batlantiradi va divergent tafakkurni kengaytiradi.

Praktik jihatdan, assotsiativ xotira ijodiy ishda ikkita rol o‘ynaydi:

(1) generativ rol — yangi g‘oyalarni yaratadi (divergent bosqich),

(2) rekombinatsion rol — mavjud elementlarni yangi konfiguratsiyalarda birlashtiradi. Shu sababli pedagogik amaliyotda bolalarni keng mavzuli tajribalarga, multimodal materiallarga va analogiyalar topishga rag‘batlantirish samarali natija beradi .

Kognitiv moslashuvchanlik — bu fikr yo‘nalishini, e’tibor fokusini va taxminlar tizimini tez va samarali ravishda o‘zgartira olish qobiliyatidir. U mental setlardan chiqish, stereotipik yondashuvni buzish va vaziyatga mos yangi strategiyalarni qo‘llash imkonini beradi. Kognitiv moslashuvchanlik psixologiyada ko‘plab kuzatuvlarni asoslab beradi: masalan, functional fixedness (obyekt yoki vaziyatni faqat uning an’anaviy funksiyasi bilan qabul qilish) ijodni cheklaydi, va bu holatni yengish uchun moslashuvchanlik zarur.

Tajriba tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, moslashuvchanlik yuqori bo‘lgan shaxslar muammoni ko‘proq nuqtai nazardan ko‘ra oladi, muqobil yondashuvlarni qidiradi va yangi kombinatsiyalarni sinab ko‘radi. Bunda treninglar (masalan, «think different» mashqlari, o‘qituvchi tomonidan maqsadli noaniqlik yaratish) samarali bo‘ladi. Kognitiv moslashuvchanlikni o‘lchash uchun Stroop testi, task-switching paradigmalari va set-shifting vazifalari ishlatiladi; shu usullar orqali shaxsning e’tibor va paradigmalarni almashtirish qobiliyati baholanadi.

Reframing — muammoning kontekstini, maqsadini yoki uning chegaralarini qayta belgilash orqali yangi yechimlarni ochish texnikasi. Bu jarayon konseptual strukturani o‘zgartirishni talab qiladi: masalan, «muammo»ni «imalar to‘plami» yoki «o‘yin» sifatida qabul qilib ko‘rish. Reframing yaratishda analogik fikrlash, savollarni qayta shakllantirish va maqsadni invertatsiya qilish (maqsadning qarama-qarshi variantini ko‘rib chiqish) kabi strategiyalar qo‘llaniladi.

Empirik tadqiqotlar reframingning ijodiy yechimlar soni va sifati ustidagi ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi: muammoni radikal ravishda qayta ta’riflash yangi g‘oya spektrini kengaytiradi va stereotiplardan chiqishga yordam beradi. Shu sababli ta’limda «muammolarni qayta so‘zlash» mashqlari (problem reframing exercises) va loyiha topishning boshlang‘ich bosqichida «muammo vujudga kelishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlar»ni ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

So‘nggi o‘n yilliklarda miya funktsional tarmoqlari kreativ jarayonni tushunishda markaziy ahamiyat kasb etdi. Beaty va hamkasblar ijodiy faoliyat paytida bir nechta asosiy tarmoqning o‘zaro integratsiyasi zarurligini ko‘rsatdi: Default Mode Network (DMN) — maruza, ichki simulyatsiya va assotsiativ xotira bilan bog‘liq; Executive Control Network (ECN) yoki fronto-parietal tarmoq — maqsadni yo‘naltirish, nazorat va tahliliy ishlov berish uchun javobgar; va salience network — e’tibor yo‘naltirish va muhim signallarni ajratish. DMN va ECN o‘rtasidagi dinamik muvofiqlik — xayoliy

(generativ) bosqich va nazorat (evalyatsiya) bosqichlarini samarali bog‘lab, kreativ natijani yaxshilaydi.

Neyrotadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

• Divergent fikr bosqichi DMNning yuqori faolligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (gorizontal assotsiatsiyalar, xayoliy tafakkur).

• Konvergent va ijodiy tanlov bosqichida esa ECN faoliyati ko‘proq talab qilinadi (yakuniy seleksiya, realizatsiya).

• Eng kreativ natija DMNning generativ imkoniyatlari bilan ECNning tanqidiy nazoratining muvofiqligida paydo bo‘ladi — bu «asimmetrik hamkorlik» yoki «concurrent coupling» deb ataladi .

Bu neuromodel pedagogik aralashuvlarni ham asoslashga yordam beradi: masalan, ilhom beruvchi (DMN rag‘batlantiruvchi) faoliyat — erkin yozish, tasavvur mashqlari — keyingi bosqichda nazorat va strukturani kiritish (ECN) orqali loyihalashtirilishi kerak.

Kognitiv tadqiqotlar bilingualizm (ko‘p tillilik) va boshqa madaniy-kognitiv omillarning kreativlikka ta’sirini ham ko‘rsatdi. Ba’zi tadqiqotlar bilingual bolalarda konvergent fikrlash va muammolarni tez yechish qobiliyati yuqoriroq ekanligini, ammo divergent fikrdagi effektlar madaniy va yosh omillarga qarab farq qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu holat til o‘rganish jarayonining e’tiborni boshqarish, kognitiv nazorat va kontekst almashtirish qobiliyatlarini oshirishiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Madaniy norma va ta’lim tizimlari ham kreativ ifodaning shakllanishiga ta’sir etadi: individualistik madaniyatlarda yangi g‘oyalarni ilgari surish va noodatiy fikrlar qabul qilinishi osonroq bo‘lishi, kollektivistik kontekstlarda esa muvozanatli, amaliy yechimlar ustuvor bo‘lishi mumkin.

Kreativ mexanizmlar bolalikdan rivojlanadi. Bolalarda eksploratsiya, o‘yin va sensor-motor tajriba assotsiativ xotirani boyitadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta yoshdagi o‘yinlar (erkin o‘yin, rolli o‘yin, dramatizatsiya) bolalarda kognitiv moslashuvchanlik va reframingni oshirishga yordam beradi. Maktab yoshida loyiha asosida o‘qitish, interfaol vazifalar va muammoli topshiriqlar o‘quvchilarning set-shifting va analogik fikrlash qobiliyatlarini takomillashtiradi.

Ilmiy asoslangan pedagogik aralashuvlar qatoriga quyidagilar kiradi:

• Assotsiativ mashqlar: analogiya topish, metafora yaratish, g‘oya xaritalash.

• Moslashuvchanlik treningi: task-switching vazifalari, multiple-constraint tasks, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish.

• Reframing mashqlari: muammoni boshqa kontekstda tavsiflash, qarama-qarshi maqsadlarni sinab ko‘rish, cheklovlarni inkor etish.

Bunday aralashuvlar o‘quv jarayoniga kiritilganda, divergent va konvergent tafakkur uyg‘unligi, hamda DMN–ECN muvofiqligi yaxshilanadi.

Kreativlikni baholashda kognitiv mexanizmlarning har biri uchun mos instrumentlar mavjud: Torrance Tests of Creative Thinking (TTCT) divergent ishlab chiqarishni o‘lchaydi; Remote Associates Test (RAT) assotsiativ xotira va konvergent fikrni tekshiradi; task-switching va Stroop turlari kognitiv moslashuvchanlikni baholaydi. Neyroimaging (fMRI) va EEG tadqiqotlari esa miya tarmoqlari faoliyatini ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga, metodologik jihatdan e’tibor berish lozimki, kreativlik kontekstdan juda ko‘p ta’sirlanadi — madaniy mezonlar, yosh, ta’lim uslubi va baholovchilarning sub’ektivligi natijalarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi; shuning uchun multidimenzional yondashuv (kognitiv testlar + mahsulot bahosi + neyrofiziologik o‘lchovlar) tavsiya etiladi.

Bundan kelib chiqadiki, kreativlikning rivojlanishi bolalikdan boshlanib, ta’lim, o‘yin va ijtimoiy muhit orqali shakllanadi. Eksperimental ishlarda bolalarning eksplorativ xatti-harakatlari (tajriba qilish, sinab ko‘rish) ularning divergent tafakkurini mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlangan; shu bois pedagogik amaliyotlarda o‘yin, loyiha ishlari va muammoli vazifalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. MDH va O‘zbekiston tadqiqotlari ham bu yo‘nalishda amaliy natijalarni tasdiqlaydi: masalan, adabiy ijod, dramatizatsiya va loyiha asosida mashg‘ulotlar divergent tafakkur hamda reframing qobiliyatlarini oshirishda samarali ekanligi ko‘rsatildi (Amanov; Majiitova; Qulboyeva va boshq.) .

Pedagogik jihatdan kreativlikni rivojlantirish strategiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Ekspozitsiya va eksploratsiya — bolaga turli materiallar, vositalar va muhitlarni sinab ko‘rish imkoniyatini yaratish;

2. Muammoli vazifalar va ochiq topshiriqlar — yechimga erishishda ko‘plab yo‘llarni taklif qilishni rag‘batlantirish;

3. Reflektiv mashqlar — o‘z fikrini tahlil qilish va qayta shakllantirishni o‘rgatish;

4. Interfaol va loyiha asosida o‘qitish — haqiqiy dunyo muammolari bilan ishlash orqali nazariy bilimni amaliyotga aylantirish. Ushbu metodikalar ichki motivatsiyani ham oshiradi, chunki ular bolalarni mustaqil fikrlash va o‘z yechimlarini sinovdan o‘tkazishga undaydi.

Kreativlikni o‘lchash masalasi ham muhim: diagnostika uchun divergent tafakkurni o‘lchaydigan Torrance Tests of Creative Thinking kabi testlar, shuningdek mahsulotlarning originaligi va foydaliligini baholash mezonlari qo‘llanadi. Shu bilan birga, ijodiy salohiyatni baholashda kontekstual va madaniy omillarni hisobga olish lozim, chunki ijodiy me’yorlar madaniyatga qarab farqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, kreativlik — murakkab, ko‘pkomponentli hodisa bo‘lib, uning kognitiv asoslari (divergent va konvergent tafakkur, assotsiativ xotira, moslashuvchanlik va reframing) o‘yin va ta’lim jarayonida maqsadli ravishda rivojlantirilishi mumkin. Ilmiy izlanishlar pedagogik aralashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi va maktabgacha hamda boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida kreativligni qo‘llab-quvvatlash uchun interaktiv, muammoli va loyiha asosidagi o‘qitish texnologiyalarini keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence. New York: McGraw-Hill, 1967. 528
2. Runco M. A., Jaeger G. J. Creativity Research Journal, 2012. 120
3. Sternberg R. J., Lubart T. I. Defying the Crowd: Cultivating Creativity in a Culture of Conformity. Free Press, 1995.256
4. Finke R., Ward T., Smith S. Creative Cognition. MIT Press, 1992. 320
5. Plucker J. A., Beghetto R. A. Handbook of Creativity. Cambridge University Press, 2010. 712
6. Beaty R. E. et al. Neuroscience of Creativity. Psychological Review, 2016. 45
7. Bonawitz, E., & Schulz, L. (2011). Title of the article. Science, *332*(6033), 36–40
8. Kharkhurin A. Multilingual Creativity. Multilingual Matters, 2012. 280
9. Jung R. E., Haier R. J. The Parieto-Frontal Integration Theory of Intelligence. Behavioral and Brain Sciences, 2007. 50
10. Amanov A. Bolalar adabiy ijodi va kreativ tafakkur rivoji. Toshkent: Fan, 2020. 148
11. Majiitova S. Maktabgacha ta’limda kreativlikni rivojlantirish. Toshkent, 2021. 192
12. Qulboyeva D. va boshqa. Ta’limda kreativ tafakkur metodikasi. Samarqand, 2022. 208
13. Zverev I. D. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Moskva, 2019. 256
14. Rahimova D. Kreativ pedagogika asoslari. Toshkent: TDPU, 2023. 176

Jabborov Jamshid Azimovich
Falsafa fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD),
Xalqaro innovatsion universitet dotsenti
E-mail: jamshidshoh@gmail.com

ZAMONAVIY JAMIYAT TENDENSIYALARINING YOSHLAR MA'NAVIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy jamiyat tendensiyalari, ularning yoshlar ma'naviy rivojlanishiga ta'siri (o`smir ma'naviy qiyofasi yuksalishiga, ayniqsa yosh avlod shakllanishiga ham ancha ziddiyatli ta'siri) izchil ilmiy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlari: *ma'naviyat, ma'naviy qiyofa, postmodern, tendensiya, o`smir, ma'naviy ehtiyoj, internet, globallashuv, texnologiyalar rivoji, IT texnologiyalat, sun'iy intellekt.*

ВЛИЯНИЕ ТЕНДЕНЦИЙ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА НА ДУХОВНОЕ РАЗВИТИЕ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В данной статье представлен последовательный научный анализ тенденций современного общества, их влияния на духовное развитие молодежи (и их довольно противоречивого влияния на формирование духовного образа человека, особенно на формирование молодого поколения).*

Ключевые слова: *духовность, духовный образ, постмодерн, тенденция, человек, духовная потребность, Интернет, глобализация, технологическое развитие, ИТ-технологии, искусственный интеллект.*

THE INFLUENCE OF MODERN SOCIETY TRENDS ON THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF YOUTH

Abstract. *This article provides a consistent scientific analysis of the trends of modern society, their impact on the spiritual development of youth (and their rather contradictory impact on the rise of the spiritual image of man, especially on the formation of the younger generation).*

Keywords: *spirituality, spiritual image, postmodern, trend, man, spiritual need, Internet, globalization, technological development, IT technologies, artificial intelligence.*

Kirish. Globallashuv davrida zamonaviy jamiyatni ifodalash uchun qo'llaniladigan postmodern (lotincha post – keyin, moderne – yangi, zamonaviy) tushunchasi hozirgi kunda dunyo ilm-fani, san'ati va madaniyati sohalarida keng ilmiy-nazariy bahslarni yuzaga keltirmoqda. Bu atama so'zma-so'z tarjima qilinganda "zamonaviydan keyin" degan ma'noni anglatadi. Ilmiy manbalarni tahlil qilganimizda, "postmodern" tushunchasi ilk bor XX asr boshlarida ilmiy izlanishlar olib borgan nemis faylasufi R.Panvitsning "Yevropa madaniyati tanazzuli" kitobida "yangi"dan keyingi paydo bo'ladigan yangiliklarni anglatuvchi tushuncha sifatida ta'riflanib, falsafa va san'atda modernizmdan keyin yuzaga kelgan o'zgarish va yangiliklarni ifodalash uchun ishlatilgan. XX asrning 30 yillarida adabiyotshunos olim F.de Onis tomonidan yaratilgan "Ispan va Lotin Amerikasi poeziyasi antologiyasi" asarida bu atama modernizmga zid, qarama-qarshi tushuncha tarzida yoritiladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin yaratilgan (1947 yilda) "Tarixni o'rganish" asari orqali mashhur sotsiolog A. Toynbi postmodernizm atamasi zamonaviy davrni (1-jahon urushi davridan boshlab) belgilash uchun qo'llanilgan. XX asrning 70-yillarida Lotin Amerikasida din muammolariga bag'ishlangan ilmiy nazariyalar yaratgan amerikalik olim X. Koks tomonidan "postmodern teologiyasi" atamasi diniy ma'noda qo'llanila boshlandi.

Ijtimoiy-madaniy fanlar tizimida "Postmodern" tushunchasi Ch.Jenksning "Postmodern me'morchilik tili" kitobi chop etilganidan so'ng juda keng yoyildi. Ushbu asarda anchadan buyon turli ma'nolarda qo'llanib kelinayotgan postmodern atamasi o'zgacha ma'noda ta'riflanadi. Ch.Jenks postmodernizm me'morchilik san'atida yangi davr boshlaganligini, ushbu sohada tarixiy usul va

vositalardan foydalanish mumkinligi, nusxa olish, avvalgi binolarga zamonaviy o‘zgarishlar kiritib, yangicha ko‘rinish yaratish ijodkorlik tarzida qabul qilinaverishini qayd etadi. Olimning “Postmodern me’morchilik tili” kitobi tahlil qilinganda postmodern atamasi faqatgina me’morchilikka emas, balki zamonaviy san’atning barcha turlariga ham taalluqli ekanini ta’kidlaydi. XX asrning etmishinchi yillarida ushbu atama me’morchilik, san’at va adabiyotdagi yangi uslublarni anglatgan bo‘lsa, XX asrning saksoninchi yillaridan boshlab bu atama falsafiy ma’noda ham ishlatila boshlandi. Bugungi kunda falsafiy, ilmiy-nazariy manbalarda “postmodern” atamasi – zamonaviy jamiyat degan keng ko‘lamli ma’noda qo‘llanilmoqda.

A.Erkayev tomonidan yozilgan “Tafakkur erkinligi” kitobida postmodern jamiyatning bir qator belgilari keltirib o‘tiladi:

–ishlab chiqarishda yuksak texnologiyalarning qo‘llanilishi;

–axborot texnologiyalarini ommaviy kommunikatsiya sohasiga, shuningdek jamiyat hayotining barcha sohalariga, hatto ishlab chiqarishga ham kirib kelishi;

–softver (elektron aloqa xizmatlari) sohasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning uzviy tarmog‘iga aylanishi;

–jahon taraqqiyotida globallashuv tendensiyasining vujudga kelishi;

–ommaviy madaniyat keng tarqalgan ijtimoiy hodisaga aylanishi;

–o`smir ongi, tafakkuri va xulq-atvori, jamiyat mentalitetining ancha o‘zgarishi.

Olimning fikricha ba’zi hollarda “postmodern jamiyatda ko‘plab mumtoz qadriyatlarning deformatsiyaga uchrashi tufayli ular o‘rnini soxta qadriyatlar egallamoqda”. Bu ma’naviy rivojlanishga, ayniqsa yosh avlodda ma’naviy qiyofa shakllanishiga ham ancha ziddiyatli ta’sir ko‘rsatmoqda. Iste’molchilik psixologiyasi, yoshlarning submadaniyati, ayrim qatlamlarda marginal qarashlar kuchaymoqda, mumtoz qadriyatlar tizimiga munosabat o‘zgarmoqda. Ayrim yoshlarda milliy nigilizmga, kosmopolitizmga moyillik ko‘zga tashlanmoqda.

Mamlakatimiz bugungi kunda jahon hamjamiyati orasida ma’naviyat va ilm-fan sohasiga alohida e’tibor qaratayotgan davlat sifatida e’tirof etilmoqda. Barqaror taraqqiyotga erishish uchun eng yangi ilm-fan yutuqlari va texnologiyalarni puxta o‘zlashtirgan, mustaqil fikrlay oladigan, milliy iftixor tuyg‘usiga ega, biroq millatchilik, irqchilik yoki milliy maqtovga berilishdan xoli bo‘lgan, erkin va ozod tafakkurli, shu bilan birga fuqarolik mas’uliyatlarini o‘z kasbi va ijtimoiy muhiti talab darajasida anglab bajara oladigan shaxsni tarbiyalash dolzarb vazifadir. O`smirning sog‘lom ma’naviy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va yuksaltirish imkoniyatlari jamiyatda yuzaga keluvchi ko‘plab muammolar ta’sirida cheklanmoqda yoki inkor etilmoqda. Biroq postmodern jamiyatda iste’molchilik psixologiyasidagi o‘zgarishlar, mazmunan sayoz bo‘lgan ommaviy madaniyat unsurlari ta’sirining kuchayib borishi ma’naviy ehtiyojlarga yuzaki, ayrim hollarda nosog‘lom tus berilishiga olib kelmoqda.

Postmodern jamiyat ziddiyatlarining yoshlar ma’naviy qiyofasining rivojiga ta’sirini quyidagi tahlillar yordamida ko‘rib chiqamiz:

Globallashuv. Globallashuv zamonaviy taraqqiyot tendensiyasi bo‘lib, u jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Butun insoniyat, xalqlar hayotiga ta’sir ko‘rsatuvchi umumiy omillar, yo‘nalishlar, qonuniyatlarni anglatadi. Globallashuv hayot sur’atlarining milliy manfaatlarga bo‘ysunmasidan jadallik bilan rivojlanishidir.

Globallashuv jarayoni tufayli yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi: axborot, ishlab chiqarish texnologiyalari, turli sohalarda xizmat ko‘rsatish va hokazolar tubdan rivojlandi. Natijada turli hududlarda yashayotgan o`smirlar o‘rtasidagi axborot bilan ta’minlanish borasidagi keskin farqni sezilarli kamaytirish imkoni vujudga keldi. Bu jarayon ta’siri madaniy mahsulotlar iste’molida ham namoyon bo‘lib, o`smirlarning televideniye, radio, video va audio mahsulotlari, internet orqali adabiyot va san’at asarlari, muzeylardagi qadimiy eksponatlar bilan virtual tanishish va tamosha qilish, kutubxonalardagi badiiy-ommabop va ilmiy asarlarni o‘qish, masofadan turib bilim olish imkonini vujudga kelishiga hizmat qildi.

Bu jarayon ta’sirida o`smirlarning ma’naviy iste’moliga salbiy ta’sir etuvchi, nosog‘lom ma’naviy qiyofasini shakllanishiga hizmat qiladigan turli zamonaviy shou-tomoshalar (ayniqsa, ma’lum birguruhni yoki shaxsning PR qilish uchun), ijtimoiy tarmoqlar orqali virtual muloqotlar

(facebook, telegram, Tiktok, twitter, wechat, Instagram, whatapp va boshqalar), har xil onlayn elektron o‘yinlar (PUBG, Clash of clans, DOTA, PES, Zombei va h.k.) va ommaviy madaniyatning boshqa standartlashgan, mazmunan sayoz, ba’zan odamlarni chalg‘ituvchi mahsulotlar bugungi kun axborot maydonining katta qismini egallagan. Axborot texnologiyalarining shiddatli yangilanishi globallashuvni nihoyatda tezlashtirib yubordi.

Yer yuzidagi barcha o`smirlar tomonidan iste’mol qilishga mo‘ljallangan omma mahsulotlari (moddiy va ma’naviy) ularning ongini, psixologiyasini, turmush tarzini, qadriyatlar tizmini bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Lekin g‘arbning kosmopolitik tusdagi madaniyati, urf-odati, turmush tarzi, standartlashgan, mazmunan sayoz, ba’zan odamlarni chalg‘ituvchi mahsulotlari milliy qadriyatlar tizimining qashshoqlashishiga olib kelmoqda. Hattoki boy madaniy an’ana va qadriyatlarga, ulkan yutuqlar va intellektual salohiyatga ega xalqimiz yoshlari orasidan ko‘pchiligining kosmopolitik ommaviy madaniyat, ba’zilarining kitch madaniyat unsurlari ta’siri tushib qolishi postmodern jamiyatining ma’naviy ehtiyojlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishidan (ijobiy ta’sir qatorida) dalolatdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar raqamli telekanallari, boshqa OAV orqali tarqalayotgan mahsulotlar, savdo tarmoqlarida sotilayotgan disklar, har xil elektron o‘yinlarning hajmi shiddat bilan ko‘payib borishi iste’mol ehtiyojlarining muttasil o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq yaratilayotgan madaniy mahsulotlarning salmoqli qismini zo‘ravonlik, fahsh, pornografiya, buzg‘unchilik, radikalizm, shovinistik ruhdagi, LGBT ni targ‘ib qiluvchi g‘oyalar tashkil etadi. Bu o`smirlarning, ayniqsa yoshlarning ongiga, hayotga munosabatiga, didiga va baholashlariga, milliy madaniyatlarga o‘ta ziddiyatli ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyat manaviy hayotida ba’zi bir buzg‘unchi g‘oyalar, axloqiy, estetik va boshqa soxta qadriyatlarning tarqalishiga, milliy madaniyatlarning o‘ziga xos zaiflashuviga sabab bo‘ladi.

Texnologiyalar rivojlanishi. So‘nggi yillarda IT sohasidagi yangiliklardan bexabarlik, ilm-fan yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanmaslik o‘smirlarni, muayyan jamiyatlarni, hatto tabiiy boyliklarga ega davlatlarni ham taraqqiyotdan ortda qolib ketish xavfi bilan yuzlashtirmoqda. Bugungi kunda texnologiyalar tizimida IT sohasi yetakchi o‘rinni egallab, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ishlab chiqarish (zavod va fabrikalar), ijtimoiy institutlar faoliyati, ta’lim tizimi, madaniyat, sog‘liqni saqlash, sport va boshqa ko‘plab sohalarni IT-texnologiyalarsiz tasavvur qilish deyarli imkonsiz bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy jamiyatda ishlab chiqarish, qurilish, transport, aloqa tizimida har bir sohaning o‘z texnologiyalari hamda nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, muqobil energiya turlaridan foydalanish texnologiyalari va axborot texnologiyalari bilan omixtalanib, yangicha mazmun va shakl kasb etmoqda. Ular orasida sohalarning o‘z ixtisoslashgan texnologiyalari bilan birlashib, mushtaraklashish bo‘yicha IT- axborot texnologiyalari yetakchidir. Masalan, meditsina va qishloq xo‘jaligida an’anaviy usullar qatorida genetika yutuqlari, genlar injeneriyasi, tibbiyotda g‘arovli xujayralar yordamida o`smir a’zolarini yaratish, qishloq xo‘jaligida genetik modifikatsiyalashgan serhosil navlarini yaratish, yoki nanotexnologiyalar va materiallarning atom strukturasiga ta’sir ko‘rsatish orqali belgilangan xossaga ega qilish, kompozit materiallardan foydalanish – bular hammasi postmodern jamiyatning yangi texnologiyalaridir. Ammo bu jarayonlarni an’anaviy usullarda hisoblab ham, kuzatib, boshqarib bo‘lmaydi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun superkompyuterlar va eng samarali IT dasturlar kerak.

Zamonaviy texnologiyalar taraqqiy etishini istagan har bir xalqdan ularni o‘zlashtirishni, ya’ni zamonaviy ilm-fanni, texnologiyalarni o‘rganishini, amalda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lishini talab qiladi.

Har bir sohadagi yangiliklar, ixtirolar, yutuqlar butun insoniyatning mulkiga aylanmoqda. Bugungi kunda har qanday ahamiyatli, qiziq g‘oyalarning, foydali va foydasiz axborotning, texnologiyalarning, mahsulotlarning dunyo bo‘ylab tez tarqalishiga guvoh bo‘lmoqdamiz.

Zamonaviy jamiyatda texnologiyalar rivoji nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, tovarlar va axborotlar tarqalishiga, shuningdek, madaniy mahsulotlar iste’moliga ham ulkan ta’sir ko‘rsatmoqdi. Chunonchi ijtimoiy tarmoqlar orqali virtual muloqotlar, har xil elektron o‘yinlar va ommaviy madaniyatning boshqa standartlashgan, mazmunan sayoz, ba’zan odamlarni chalg‘ituvchi, ma’naviyatga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi mahsulotlar yaratilib, o`smirlar tomonidan iste’mol qilinmoqda.

Omma uchun yaratilgan mazmunan sayoz mahsulotlarni keng iste'mol qilish odamlarning turmushga munosabatiga ta'sir qilib, qadriyatlar tizimini zaiflashtirmoqda, uning ongi va psixologiyasini o'zgartirmoqda. Hayotga engil-yelpi, ba'zan mas'uliyatsiz munosabat shakllanmoqda. Yoshlar orasida "yashab qol", "ertani o'ylama, hayot bir marta beriladi" kabi qarashlar tarqalmoqda. Yuksak marralarni ko'zlab hayotiy reja tuzishga, o'z ustida ishlashga, kelajagiga nisbatan mas'uliyatli bo'lishga loqaydlik, hozirgi shiddatli zamon taqoza etadigan, moda ketidan quvish, brend mahsulotlarini xarid qilishda boshqalardan ortda qolib ketmaslikka urinish ma'naviy ehtiyojlarning bir qismini deformatsiya uchratmoqda. Sog'lom va nosog'lom ehtiyojlar o'rtasidagi chegara yuvilib ketayotir. Afsuski, iste'moldagi bir xillik milliy madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishi, rivojlanishiga nisbatan ko'proq g'arb ommaviy madaniyati andozalariga moslashtirmoqda, rivojlanayotgan xalqlar madaniyatlarining g'arb madaniyatiga qisman assimiliyatsiyalashuvi, milliy xususiyatlarining qashshoqlashuvi asosida kechmoqda.

O`smirning har qanday ehtiyojlarining qondirilishi va yuksalishi jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlar bilan hamohang tarzda davom etadi. Lekin, texnologiyalar rivojlanishi o`smirlar taqdiri uchun ko'plab xavotirli holatlarni ham yuzaga keltirmoqda, texnokratik qarashlar ustunlik qilishiga, o`smiriy munosabatlar tanazzulga uchrashiga, begonalashish kuchayib, axloqiy me'yorlar darz ketishiga olib kelmoqda.

Texnokratik qarashlar ustunlik qilib, an'anaviy qadriyatlar – oilaviy qadriyatlar, qarindoshlik, do'stlik, o'rtoqlik, aksariyat axloqiy, estetik qadriyatlar inkor qilingan joyda oila va nikoh instituti yemirilmoqda.

Internet. Yuqoridagi bandlarda IT-sohasi haqida fikr bildirdik, uning o`smirlarga ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qildik. Zamonaviy tehnologiyalarni internetsiz tasavvur etish mumkin emas. Jamiyatning har bir sohasiga internet kirib borgan: ta'lim tizimi, iqtisodiyot, siyosiy faoliyat, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va hokazo.

Fikrimizcha, internet tizimi jamiyat ma'naviy hayotiga keng ko'lamda ijobiy (odamlar dunyo go'zalligidan bahra olishi (virtual sayohatlar), kino yoki shoular tomosha qilishi, musiqalar tinglashi, muzeylardagi eksponatlarni, san'at asarlarini baholashi, dunyoning istalgan kutubxonasidagi kitoblaridan, arxiv hujjatlaridan foydalanishi, ta'lim olish, masofadan o'qish, turli konferensiyalarda qatnashish, yig'ilishlar o'tkazish, fikrlar va g'oyalar bilan o'rtoqlashish imkoniyatlarning vujudga kelishi) ta'sir o'tkazadi. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar orqali siz o'z yaqinlaringiz bilan suhbatlashish, ovozli xabar yoki rasm, video xabar orqali bir-biringizdan hol-ahvol so'rab turish (virtual aloqa orqali oradagi masofa "minimum darajada qisqaradi"), o'zingizga hamsuhbat, maslakdosh topishingiz, bo'sh vaqtlaringizda turli xil elektron o'yinlar bilan mashg'ul bo'lish imkoniyatingiz bor. O`smirlarni qiziqtirgan har qanday axborotlarni: iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy-ma'naviy mazmundagi ma'lumotlarni topish, undan foydalanish tezlashdi va osonlashdi. Yer yuzidagi barcha hukumat, jamoat va nodavlat tashkilotlarning faoliyati internet bilan bog'landi. Qisqacha qilib aytganda, internet – XXI asr odamlari uchun madaniy mahsulotlar yaratuvchi va ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi asosiy vositasiga aylandi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshi chegaralanmagan iste'molchilar ulardan turli maqsadlarda foydalanmoqdalar. Turli-tuman xorijiy saytlar buzg'unchilik, terrorchilik, behayolik, ekstremizm, fundametalizm kabi yot g'oyalarni yoyishga xizmat qilmoqda. Bularga e'tiborsiz munosabatda bo'lish mumkin emas. Bugungi kun olimlarini o'ylantirayotgan dolzarb muammolaridan biri bu zamonaviy tor tushuniladigan gedonizmdir. Aslida antik falsafada gedonizm hayotdan zavq-shavq olish g'oyasini olg'a suruvchi ta'limotdir. O`smirning yashashdan maqsadi zavq-shavq, huzur-xalovat qilish orqali baxtli bo'lishdir degan gumanistik g'oyani ifodalaydi. Ammo iste'molchilik keng tarqalgan postmodern jamiyatda bu tushuncha deformatsiya bo'lmoqda. Endi gedonizm tarallabedodlarcha yashash, yoshlik zavqini surib, mehnatsiz hayot kechirishni (rohatlanish, ayshi-ishratdan iborat, degan o'ta bachkana g'oya) targ'ib qiluvchi qarashga aylanmoqda. Unda, asosan, o`smirning mayl va ehtiyojlari jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga qarama-qarshi qo'yiladi, o`smirning erkinligini cheklovchi va uning o'ziga xos xususiyatlarini namoyish etishga to'sqinlik qiluvchi har qanday shart va me'yorlarni inkor qiladi. Bu esa ehtiyojlar rivojlanishi uchun o'ta xavfli g'oyadir. Har qanday narsada, voqea, jarayonda me'yor buzilsa, teskari oqibatlarga olib keladi.

Xulosa. Bugungi kunda zamonaviy sivilizatsiya va uning mahsuli bo‘lgan ommaviy madaniyatdan voz kechishning iloji yo‘q. Biroq ularning o‘smirga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirini imkon qadar kamaytirish zarur. Buning uchun ta’lim-tarbiya, avvalo ma’naviy tarbiya mazmuni, usul va vositalarini zamon talablariga mos holda takomillashtirish talab etiladi. Shuningdek, o`smirlarning ma’naviy duryoqarashini va mafkuraviy immunitetini shakllantirish; oilalarda, mahallalarda, ta’lim muassasalari va mehnat jamoalarida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish; ma’naviy ehtiyojlar yuksalishiga xizmat qiluvchi professional darajada tayyorlangan asarlar, filmlar, ko‘rsatuvlar, suratlar yaratish uchun davlat so‘z va ijod erkinligini, intellektual mulk himoyasini yanada ko‘proq qo‘llab-quvvatlashi, qonunchilik bazasini mustahkamlashi hamda ijtimoiy va moddiy-iqtisodiy shart-sharoit yaratish; mazmunan sayoz, g‘oyaviy jihatdan shubhali, hatto zararli, siyosiy va diniy ekstremizmni, axloqiy buzuqlikni, zo‘ravonlik va fahshni targ‘ib etuvchi, o`smir ma’naviyatini zararlovchi materiallar tarqatganlarga nisbatan huquqiy mexanizmni takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Qozoqboy Yo‘ldosh. Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar. Jahon adabiyoti jurnali. №10/221, 2015 yil, oktyabr. 108-119 b.
2. Erkayev A. Tafakkur erkinligi. T.: 2021, 179-b.
3. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. 1-kitob. “Ma’naviyat”, 2018 y., - 480 b.
4. Rudolf Pannwitz. Die Krisis Der Europaeischen Kultur (Germ. Edit.). Publ: Wentworth Press, 2018 y., - 276 p.
5. Дженкс Ч. Язык архитектуры постмодернизма. Перевод с английского А. В. Рябушина, М.В. Уваровой. Под редакцией А.В. Рябушина, В.Л. Хайта. – Москва: Стройиздат, 1985. - 136 с.
6. Тойнби Арнольд Джозеф. Постижение истории. – Москва: Директ-Медиа, 2007. – 1876 с.

Kenjayeva Nigora O‘ktam qizi
Toshkent davlat agrar universiteti, Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: kenjaevanika@gmail.com

O‘ZBEK YOSHLARI NUTQIDA KOD-ALMASHTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI: GIBRID KOMMUNIKATIV MOSLASHUV MODELI (GKM-MODEL)

Annotatsiya. *Maqola o‘zbek yoshlari (18–30 yosh) nutqida ingliz tili bilan kod-almashtirish jarayonining psixolingvistik va sotsiolingvistik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning maqsadi – kod-almashtirishning kognitiv xarajatlari, struktura turlari, ijtimoiy-indeksial funksiyalari va uzoq muddatli til evolyutsiyasi traektoriyasini aniqlash hamda yangi integrativ model ishlab chiqishdan iborat. 2025-yil noyabr-dekabr oylarida Toshkent, Samarqand va Nukus shaharlarida 200 nafar respondent ishtirokida o‘tkazilgan so‘rov va 7200 so‘zdan iborat tabiiy korpus tahlili natijalariga asoslanildi. Tadqiqotda insertional switching (91,4 %), switching cost’larning nolga yaqinligi (0,09–0,18 soniya), opportunistik rejalashtirishning yuqori darajasi (71 %) aniqlandi. 11 ta yetakchi nazariy yondashuvning sintezi asosida muallif tomonidan Gibrid kommunikativ moslashuv modeli (GKM-model) taklif etildi. Modelning to‘rt qatlami (ijtimoiy-indeksial, kognitiv-pragmatik, struktura-leksik, rivojlanish-traektoriya) empirik ma’lumotlar bilan tasdiqlandi. Tadqiqot natijalari 2035–2045-yillarda “Uzbekglish/Uzru” tipidagi fused lect shakllanishini bashorat qiladi. Ilmiy yangilik sifatida o‘zbek tilining global sharoitdagi muvaffaqiyatli evolyutsiyasi isbotlandi hamda til siyosati va oliy ta’limda kod-almashtirishdan funksional foydalanish bo‘yicha takliflar berildi.*

Kalit so‘zlar: *kod-almashtirish, o‘zbek yoshlari nutqi, insertional switching, switching costs, opportunistik rejalashtirish, metalingvistik ong, ijtimoiy identiklik, Gibrid kommunikativ moslashuv modeli, GKM-model, post-sovet ko‘p tillilik*

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕКЛЮЧЕНИЯ КОДОВ В РЕЧИ УЗБЕКСКОЙ МОЛОДЁЖИ: ГИБРИДНАЯ МОДЕЛЬ КОММУНИКАТИВНОЙ АДАПТАЦИИ (МГКА-МОДЕЛЬ)

Аннотация. *Статья посвящена психолингвистическим и социолингвистическим особенностям переключения кодов в речи узбекской молодёжи (18–30 лет). Цель исследования – выявление когнитивных затрат, структурных типов, социально-индексальных функций код-переключения и долгосрочной траектории языковой эволюции, а также разработка новой интегративной модели. В ноябре-декабре 2025 года проведён опрос 200 респондентов и анализ естественного корпуса объёмом 7200 слов. Установлено преобладание вставочного переключения (91,4 %), почти нулевые затраты на переключение (0,09–0,18 сек), высокий уровень оппортунистического планирования (71 %). На основе синтеза 11 ведущих теоретических подходов автором предложена Гибридная модель коммуникативной адаптации (МГКА-модель). Все четыре уровня модели эмпирически подтверждены. Результаты прогнозируют формирование fused lect типа «Uzbekglish/Uzru» в 2035–2045 гг. Научная новизна заключается в доказательстве успешной эволюции узбекского языка в условиях глобализации и выработке предложений по функциональному использованию код-переключения в языковой политике и высшем образовании.*

Ключевые слова: *переключение кодов, речь узбекской молодёжи, вставочное переключение, затраты на переключение, оппортунистическое планирование, метаязыковое сознание, социальная идентичность, Гибридная модель коммуникативной адаптации, МГКА-модель, узбекглиш, fused lect, постсоветская многоязычность*

PSYCHOLINGUISTIC AND SOCIOLINGUISTIC FEATURES OF CODE-SWITCHING IN THE SPEECH OF UZBEK YOUTH: HYBRID COMMUNICATIVE ADAPTATION MODEL (HCA-MODEL)

Abstract. *The article explores the psycholinguistic and sociolinguistic features of English-Uzbek code-switching in the speech of Uzbek youth (aged 18–30). The research aims to identify cognitive costs, structural patterns, social-indexical functions, and long-term language evolution trajectories of code-switching, as well as to develop a new integrative model. Data were collected through a survey of 200 respondents and analysis of a 7200-word natural corpus in November-December 2025 in Tashkent, Samarkand, and Nukus. The study revealed the dominance of insertional switching (91.4 %), near-zero switching costs (0.09–0.18 seconds), and a high level of opportunistic planning (71 %). Based on the synthesis of 11 leading theoretical frameworks, the author proposes the Hybrid Communicative Adaptation Model (HCA-model) with four empirically validated layers: social-indexical, cognitive-pragmatic, structural-lexical, and developmental-trajectory. The findings predict the emergence of a fused lect "Uzbekglish/Uzru" between 2035 and 2045. The scientific novelty lies in demonstrating the successful evolution of the Uzbek language under globalization and offering recommendations for the functional use of code-switching in language policy and higher education.*

Keywords*: code-switching, Uzbek youth speech, insertional switching, switching costs, opportunistic planning, metalinguistic awareness, social identity, Hybrid Communicative Adaptation Model, HCA-model, Uzbekglish, fused lect, post-Soviet multilingualism.*

Kirish. Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy globallashuv, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi sharoitida o‘zbek yoshlari (18–30 yosh) nutqida ingliz tiliga asoslangan kod-almashtirish oddiy til aralashmasidan zamonaviy ijtimoiy identifikatsiya, kognitiv moslashuv va kommunikativ optimallashtirishning asosiy strategiyasiga aylandi. 2025-yilgi empirik tadqiqot natijalariga ko‘ra, respondentlarning 74 % i har kuni kod-almashtirishdan foydalanadi, 91,4 % hollarda insertional switching kuzatiladi, switching costs deyarli nolga teng (0,09–0,18 s), opportunistik rejalashtirish esa dominant holat (71 %) (Beatty-Martínez va boshq., 2020; Green va Abutalebi, 2013). Ushbu jarayon tilning “buzilishi” yoki “ifloslanishi” emas, balki global muhitdagi muvaffaqiyatli evolyutsiyasi va yangi gibrid kommunikativ shaklning paydo bo‘lishi sifatida baholanishi zarur.

Adabiyotlar tahlili. Kod-almashtirish hodisasini tushuntirishda xalqaro tilshunoslikda bir-biridan keskin farq qiluvchi bir qancha nazariy yondashuvlar mavjud. Quyida eng muhim 11 ta modelning asosiy g‘oyalari, kuchli va zaif tomonlari hamda o‘zbek yoshlari nutqiga qo‘llanilish imkoniyatlari qisqacha tahlil qilinadi.

Myers-Scotton (1993, 2002) Markedness Model hodisani ijtimoiy-indeksial nuqtai nazardan izohlaydi: har bir til “marked” yoki “unmarked” bo‘lib, nutq ishtirokchilari huquq-majburiyatlar to‘plamiga (RO sets) qarab tanlov qiladi. Model post-sovet kontekstida tengdoshlar guruhida “Uzbekglish”ning “unmarked choice”ga aylanishini yaxshi izohlaydi, lekin kognitiv xarajat va leksik integratsiya mexanizmlarini hisobga olmaydi.

Muysken (2000, 2013) tipologiyasi struktura jihatdan to‘rt tur ajratadi: insertional, alternational, congruent lexicalization va backflagging. O‘zbek yoshlari nutqida insertional switchingning 91,4 % ustunligi ushbu modelning eng kuchli tomonini tasdiqlaydi. Biroq model ijtimoiy motivlar va kognitiv mexanizmlarni deyarli e’tiborsiz qoldiradi.

Green & Abutalebi (2013) Adaptive Control Hypothesis kognitiv nazorat nuqtai nazaridan zich kod-almashtirish kontekstida switching costs nolga yaqinlashishini va “bilingual advantage” paydo bo‘lishini bashorat qiladi. O‘zbek materiallarida pauza sezilmasligi (51 %) va kognitiv foyda (62,5 %) bu modelni to‘liq tasdiqlaydi, lekin ijtimoiy normalizatsiya va uzoq muddatli traektoriyani izohlamaydi.

Grosjean (2001, 2010) Bilingual Language Mode Continuum shaxsning til rejimi monolingualdan bilingualgacha o‘zgarishini ta’kidlaydi. O‘zbek yoshlari nutqida “default bilingual mode”ning mavjudligi modelni tasdiqlasa-da, u struktura turlari va identifikatsiya qatlamlarini batafsil izohlamaydi.

Poplack (1980, 2018) Constraint Model grammatik cheklovlarni (Equivalence & Free Morpheme) universal deb hisoblaydi. O‘zbek nutqida bu cheklovlar deyarli 100 % rioya qilinmoqda, lekin zamonaviy talqinlarda ular “tendentsiya” sifatida qaralmoqda.

Beatty-Martínez va boshq. (2019–2020) Opportunistic Planning Model nutq rejalashtirishda qulay leksik tanlovni ta’kidlaydi. O‘zbek yoshlarida “fikr osonlashadi” (49 %) va inglizcha so‘z birinchi xayolga kelishi (71 %) bu modelning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasdiqlanishidir.

Gafaranga (2007, 2010) Identity-Related Switching kod-almashtirishni shaxsiyat ifodasi vositasi deb hisoblaydi. O‘zbek yoshlari orasida “Uzbekglish speaker” identifikatsiyasi bu modelning eng kuchli dalilidir.

Auer (1999, 2013) Conversational Code-Switching discourse-related va participant-related funksiyalarni ajratadi. O‘zbek materiallarida ongli sezish (58,5 %) discourse-related switchingning yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Li Wei (1998, 2011) Moment Analysis har bir lahzani alohida tahlil qilishni taklif etadi. O‘zbek yoshlarida metalingvistik ongning yuqori darajasi (58,5 %) bu usulning qo‘llanilishini osonlashtiradi.

Bhatt & Bolonyai (2011) Rational Choice Model cost-benefit tahliliga asoslanadi. O‘zbek yoshlarida kognitiv foyda (62,5 %) bu modelni tasdiqlaydi.

Gardner-Chloros (2009) Integration Continuum code-switching → fused lect traektoriyasini bashorat qiladi. O‘zbek nutqidagi hozirgi code-mixing bosqichi bu modelning to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi 11 ta modelning har biri hodisaning muayyan jihatini yaxshi izohlasa-da, hech biri post-sovet uch tilli kontekst, internet vositachiligi, Z-avlodi identifikatsiyasi va uzoq muddatli traektoriyani bir vaqtda qamrab olmaydi. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish uchun GKM-model ishlab chiqildi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Kod-almashtirish hodisasi xalqaro tilshunoslikda keng o‘rganilgan. Myers-Scotton (1993, 2002), Muysken (2000, 2013), Poplack (1980, 2018), Green va Abutalebi (2013), Grosjean (2001, 2010), Gafaranga (2007), Auer (1999, 2013), Li Wei (2011), Bhatt va Bolonyai (2011), Gardner-Chloros (2009), Beatty-Martínez va boshq. (2019–2020) kabi olimlarning ishlarida ijtimoiy-indeksial, struktura-grammatik, kognitiv-nazorat va suhbat tahlili yondashuvlari taklif etilgan. Biroq bu modellar asosan G‘arb (AQSh, Yevropa) va Osiyo (Hindiston, Malayziya, Xitoy) kontekstlariga asoslangan bo‘lib, post-sovet makonidagi uch tilli muhit (o‘zbek + ingliz), internet vositachiligidagi kommunikatsiya va Z-avlodi (1997–2012-yillarda tug‘ilganlar) nutq xususiyatlarini to‘liq qamrab olmaydi.

Ilmiy yangilik. Ushbu tadqiqotda birinchi marta post-sovet ko‘p tillilik sharoitida o‘zbek yoshlari nutqi misolida 11 ta yetakchi nazariy modelning qiyosiy tahlili o‘tkazilib, ularning sintezi asosida Gibrid kommunikativ moslashuv modeli (GKM-model) ishlab chiqildi. Modelning to‘rt qatlami (ijtimoiy-indeksial, kognitiv-pragmatik, struktura-leksik, rivojlanish-traektoriya) yangi empirik ma’lumotlar bilan tasdiqlandi hamda 2035–2045-yillarda “Uzbekglish/Uzru” tipidagi fused lect shakllanishi bashorat qilindi.

Tadqiqot maqsadi – o‘zbek yoshlari nutqida kod-almashtirishning psixolingvistik va sotsiolingvistik xususiyatlarini aniqlash, mavjud nazariy modellar chegaralarini belgilash va ularning sintezi asosida yangi integrativ model yaratish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Kod-almashtirishning chastotasi, struktura turlari va kognitiv xarajatlarini empirik aniqlash;
2. 11 ta yetakchi nazariy modelning o‘zbek materiallariga qo‘llanilish darajasini baholash;
3. GKM-modelni ishlab chiqish va uning to‘rt qatlamini empirik tasdiqlash;
4. O‘zbek tilining uzoq muddatli evolyutsiya traektoriyasini bashorat qilish va til siyosati bo‘yicha takliflar berish.

Tadqiqot ob’ekti – 18–30 yoshdagi o‘zbek yoshlarining tabiiy nutqi (Telegram, Instagram, shaxsiy suhbatlar). Tadqiqot predmeti – kod-almashtirishning psixolingvistik va sotsiolingvistik mexanizmlari.

Metodlar. Tadqiqotda o‘zbek yoshlari nutqidagi kod-almashtirishning psixolingvistik va sotsiolingvistik xususiyatlarini aniqlash hamda mavjud nazariy modellar sintezi asosida Gibrid

kommunikativ moslashuv modelini (GKM-model) ishlab chiqish va empirik sinovdan o‘tkazish maqsad qilindi. Buning uchun nazariy va empirik usullarning kompleks kombinatsiyasi qo‘llanildi.

Tadqiqot dizayni. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. 11 ta yetakchi nazariy modelning qiyosiy tahlili va sintezi;
2. empirik ma’lumotlar yig‘ish (miqdoriy va sifatli usullar);
3. GKM-modelning ishlab chiqilishi hamda uning to‘rt qatlamining empirik materiallarda sinovdan o‘tkazilishi. Induktiv-deduktiv yondashuv qo‘llanildi.

Ishtirokchilar. Umumiy tanlama N=200 kishidan iborat bo‘lib, yoshi 18–35 oralig‘ida, 53,5 % ayollar, 88 % talabalar yoki yosh mutaxassislar edi. Qo‘shimcha chuqurlashtirilgan intervyu N=36 respondent bilan, nutq rejalashtirish vaqtini o‘lchash bo‘yicha kichik tajriba esa N=42 respondent bilan o‘tkazildi. Tanlama usuli – qulay tanlama va “qor parasi” (snowball) usuli kombinatsiyasi. Barcha ishtirokchilar o‘zbek tilini ona tili darajasida biladi, ingliz va rus tillarini B1–C1 darajasida egallagan.

Ma’lumot to‘plash vositalari.

1. Onlayn so‘rovnoma (Google Forms, 2025-yil noyabr-dekabr) – 28 savol (Likert shkalasi, ko‘p variantli va ochiq savollar);
2. Tabiiy nutq korpusi – 7200 so‘z (Telegram guruhlari, shaxsiy suhbatlarning audio yozuvlari);
3. Chuqurlashtirilgan yarim-strukturalashtirilgan intervyu – 36 ta (har biri 30–45 daqiqa);
4. Kichik psixolingvistik tajriba – “shadowing task” va gap davom ettirish vazifasi orqali nutq rejalashtirish vaqti va switching cost o‘lchandi.

Tahlil usullari.

- Nazariy sintez – 11 ta modelning kuchli va zaif tomonlari qiyosiy jadval (Jadval 1) asosida aniqlandi.
- Miqdoriy tahlil – SPSS 28 dasturida deskriptiv statistika, foizli taqsimot va korrelyatsion tahlil o‘tkazildi.
- Sifatli tahlil – intervyu va ochiq savollar matnlari NVivo 14 dasturida tematik kodlash usuli bilan tahlil qilindi.
- Korpus tahlili – Muysken (2000) struktura tipologiyasi va Poplack (1980) grammatik cheklovlari asosida kod-almashtirish holatlari annotatsiya qilindi (ELAN va Praat dasturlari).
- Model sinovi – GKM-modelning to‘rt qatlami (ijtimoiy-indeksial, kognitiv-pragmatik, struktura-leksik, rivojlanish-traektoriya) empirik natijalar bilan mosligi tekshirildi.

Barcha ishtirokchilardan yozma va og‘zaki rozilik olindi, shaxsiy ma’lumotlar anonimlashtirildi va maxfiyligi ta’minlandi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-etika qo‘mitasi qoidalariga muvofiq amalga oshirildi.

Qo‘llanilgan kompleks metodologiya – nazariy sintez, miqdoriy so‘rov, tabiiy korpus tahlili, chuqur intervyu va psixolingvistik tajribalar kombinatsiyasi – natijalarning yuqori ishonchliligi, obyektivligi va ilmiy asoslanganligini ta’minladi hamda GKM-modelning barcha qatlamlarini nazariy va empirik jihatdan to‘liq sinovdan o‘tkazish imkonini berdi.

Jadval 1 da keltirilgan 11 ta yetakchi nazariy modelning har biri kod-almashtirishning muayyan jihatini (ijtimoiy-indeksial, struktura, kognitiv yoki pragmatik) muvaffaqiyatli izohlasa-da, hech biri post-sovet uch tilli kontekst, internet vositachiligi, Z-avlodi identifikatsiyasi va uzoq muddatli rivojlanish traektoriyasini bir vaqtda qamrab olmaydi. GKM-model ushbu modellar sintezidan kelib chiqib, ularning kuchli tomonlarini saqlab qolgan holda bo‘shliqlarni to‘ldiradi:

- ijtimoiy-indeksial qatlam (Myers-Scotton, Gafaranga, Auer)
- kognitiv-pragmatik qatlam (Green & Abutalebi, Beatty-Martínez, Bhatt & Bolonyai)
- struktura-leksik qatlam (Muysken, Poplack)
- rivojlanish-traektoriya qatlamini (Gardner-Chloros, Grosjean, Li Wei) yangicha talqin qiladi.

Natijada GKM-model nafaqat izohlash, balki bashorat qilish quvvatiga ega bo‘lib, o‘zbek yoshlari nutqidagi “Uzbekglish/Uzru”ning 2035–2045-yillarda fused lect darajasiga o‘tishini oldindan aytadi. Bu uni post-sovet va global janub kontekstlarida kod-almashtirishni o‘rganish uchun universal va integrativ nazariy asosga aylantiradi.

Jadval 1. GKM-modelning 11 ta yetakchi zamonaviy kod-almashtirish nazariy modellari bilan qiyosiy tahlili

№	Model / Muallif (yil)	Asosiy e'tibor	O'zbek materiallariga mosligi	GKM-modelning qo'shimchasi va farqi
1	Myers-Scotton Markedness Model (1993, 2002)	Marked/unmarked choice, RO sets	Yuqori (tengdoshlarda "unmarked")	Ijtimoiy qatlamni saqlaydi, lekin kognitiv xarajat va rivojlanish traektoriyasini qo'shadi
2	Muysken Code-Switching Typology (2000, 2013)	Insertion, alternation, congruent lexicalization	Juda yuqori (insertion 89 %)	Struktura qatlamini to'liq qabul qiladi, lekin ijtimoiy va kognitiv motivlarni kengaytiradi
3	Green & Abutalebi Adaptive Control Hypothesis (2013)	Kognitiv nazorat, switching costs	Yuqori (51 % pauza sezilmaydi)	Kognitiv qatlamning asosi, lekin ijtimoiy normalizatsiya va fused lect traektoriyasini qo'shadi
Темпоральные метафоры представляют собой одну из наиболее значимых категорий в современном лингвокультурологическом анализе, поскольку они отражают способы осмысления человеком времени на уровне как индивидуального, так и коллективного сознания. Время — это не только физическая категория, но и культурный конструкт, который формируется в ходе исторического опыта народа, его социально-экономических условий, религиозных представлений и ментальных особенностей. Как отмечает Дж. Лакофф, метафоры времени формируются через телесный опыт человека и культурно значимые модели, которые затем закрепляются в языке . Таким образом, фразеологические единицы испанского и узбекского языков становятся не просто языковым материалом, но и культурными маркерами, которые позволяют реконструировать национальное восприятие времени.

Темпоральные метафоры в обоих языках демонстрируют общечеловеческие когнитивные механизмы, однако степень выраженности тех или иных моделей значительно различается. В испанской языковой картине мира время чаще воспринимается как движение вперёд, линейный прогресс, поток, который невозможно остановить. В этом проявляется европейская

традиция понимания времени, уходящая корнями в античную философию, где время рассматривалось как направленное движение от прошлого к будущему. Многие испанские фразеологизмы подтверждают этот динамичный характер времени: *el tiempo vuela* (‘время летит’), *pasar el tiempo* (‘проводить время’), *a su debido tiempo* (‘в должное время’). Здесь время мыслится как самостоятельный субъект, наделённый способностью к движению и влиянию на жизнь человека. Как подчёркивает Ф. Сальвадор, испанская культура характеризуется акцентом на активности, динамичности и неизбежности временного изменения.

В то время как в испанском языке время ассоциируется с линейностью и неумолимостью, в узбекском языке доминирует представление о цикличности времени, его повторяемости и связи с природными ритмами. Это связано с восточной ментальностью и влиянием традиционного аграрного образа жизни, который веками формировал представления о времени через смену сезонов, природных циклов и религиозных ритуалов. Узбекские фразеологизмы, такие как * vaqt kelar, ish bitar* (‘придёт время — дело завершится’), *vaqt g‘animat* (‘время — возможность’), *vaqtning qadri* (‘ценность времени’), демонстрируют, что время рассматривается не столько как поток, сколько как ресурс, которым необходимо правильно распоряжаться. Многие единицы подчёркивают неизменность и повторяемость жизни, где события происходят «в своё время», согласно установленному природному или социальному порядку. Как пишет Р. Джураева, в узбекском языке время понимается как структурированное и сакрализованное явление, тесно связанное с религиозными представлениями о судьбе и предназначении .

Сопоставление испанских и узбекских темпоральных моделей показывает как универсальность, так и культурную специфику, проявляющуюся в фразеологии. Обе культуры используют представление о времени как ресурсе, но в испанском языке преобладает идея контроля над временем, тогда как в узбекском — принятия его естественного хода. Испанские выражения *ganar tiempo* (‘выиграть время’), *perder el tiempo* (‘терять время’), *ahorrar tiempo* (‘экономить время’) отражают рационалистическую модель, характерную для западного мировоззрения, в котором время — это ценность, подлежащая управлению. В узбекском языке аналогичные выражения носят иной характер: *vaqtni boy bermoq* (‘упустить время’), *vaqtni tejamoq* (‘беречь время’), однако акцент делается не на активном управлении временем, а на уважительном отношении к нему как к божественно данному ресурсу. Это связано с традиционным восточным пониманием времени как части судьбы (*taqdir*), где человеку отведена определённая доля временного пространства, которую он должен прожить достойно.

Особое место среди темпоральных метафор занимает образ времени как пространства. Эта модель характерна для большинства мировых языков, однако её реализация в испанском и узбекском языках имеет ряд особенностей. В испанском языке движение времени представляется направленным: *adelantar el tiempo* (‘опережать время’), *estar atrás en el tiempo* (‘отставать от времени’). Указанные фразеологизмы отражают европейскую ориентацию на прогресс, модернизацию и развитие, где время мыслится как линия, ведущая к новому. В узбекской фразеологии подобные модели встречаются реже, и пространство времени чаще представлено как «место», где происходят события: *vaqt o‘tishi bilan* (‘с течением времени’), *zamona o‘zgardi* (‘время изменилось’). Здесь важна не направленность времени, а его качественная характеристика, определяющая условия жизни человека. Как отмечает З. Рахимова, в узбекском языке время часто выступает как фон, в котором формируются социальные и семейные отношения.

Фразеологизмы временны́х метафор часто выполняют прагматические функции: наставление, упрек, утешение. Например, испанская поговорка «No dejes para mañana lo que puedas hacer hoy» (Не откладывай на завтра то, что можешь сделать сегодня) сочетает метафоры управления временем и моральный императив. Узбекский аналог «Эртага қўйма, бугун қил» также выражает ту же культуру трудовой дисциплины, но нередко подкрепляется религиозным дискурсом о тщательности и ответственности.

Темпоральные метафоры в испанском и узбекском языках активно формируются в рамках общих когнитивных моделей, которые, однако, получают различное культурное наполнение. Одной из универсальных моделей является метафора времени как живого существа. В испанской фразеологии время часто описывается с помощью глаголов, характеризующих живые объекты: *el tiempo corre* (‘время бежит’), *el tiempo se escapa* (‘время ускользает’), *el tiempo*

cura (‘время лечит’). Эти выражения демонстрируют наделение времени автономностью и способностью воздействовать на человека. Как утверждает М. Гарсия, испанский язык склонен персонифицировать абстрактные понятия, что связано с экспрессивностью и эмоциональностью романской культурной традиции. Персонификация времени способствует представлению о его независимой силе, которую невозможно контролировать, что делает испанские выражения особенно динамичными и драматичными.

В узбекской фразеологии персонификация времени проявляется значительно реже. В традиционном восточном мировоззрении время воспринимается скорее как божественный дар, чем как самостоятельная сила. Однако отдельные выражения, например *vaqt yaralarini davolar* (‘время лечит раны’), демонстрируют частичное сходство с испанскими моделями, что свидетельствует о распространённости универсальных человеческих метафор. Тем не менее узбекский язык сохраняет тенденцию рассматривать время как часть большого гармоничного порядка, где человек является не противником времени, а частью общего цикла жизни. Как отмечает А. Турсунов, восточное понимание времени связано с идеей меры, баланса и стабильности, что влияет на характер фразеологических единиц.

Сравнение образов времени в двух языках показывает различия в эмоциональном отношении к темпоральности. Испанские выражения часто подчёркивают давление времени, его стремительность и неизбежность: *contra el tiempo* (‘против времени’), *a contrarreloj* (‘наперегонки со временем’), *el tiempo apremia* (‘время поджимает’). Эти фразеологизмы отражают динамику современной европейской жизни, где ценится скорость, эффективность и активность. Узбекские же выражения несут более спокойный, умеренный характер и подчёркивают философское принятие процесса жизни: *har narsaning o‘z vaqti bor* (‘всему своё время’), *vaqt o‘tar, odat qolap* (‘время пройдет, привычка останется’). Этот подход соответствует восточной традиции, в которой время воспринимается как фактор формирования мудрости, а не как источник давления и стресса.

Особое значение в испанской и узбекской фразеологии занимает модель цикличности времени. Несмотря на принадлежность к разным культурным традициям, обе культуры используют представления о повторяемости событий, однако степень их выраженности отличается. В узбекском языке метафора цикличности глубоко укоренена и проявляется в таких выражениях, как *zamona qaytar* (‘времена возвращаются’), *eski odatlar qaytadi* (‘старые привычки возвращаются’). Эти единицы отражают мировоззрение, в котором жизнь рассматривается как последовательность повторяющихся этапов, и любое событие воспринимается в контексте прошлого опыта. Как подчёркивает Н. Шарипова, цикличность является важной частью узбекской культурной философии, где человека воспринимают как часть общего ритма бытия.

В испанском языке цикличность также представлена, но выражена более умеренно, поскольку европейская модель времени традиционно линейна. Тем не менее выражения *la historia se repite* (‘история повторяется’), *volver a empezar* (‘начать заново’) демонстрируют универсальность представления о возвращении. Однако эти выражения нередко имеют метафорический характер и часто используются в эмоционально окрашенных контекстах, что подтверждает антропоцентричность испанской картины мира. Исследователь А. Ромеро отмечает, что испанцы воспринимают цикличность скорее как исключение, чем как норму, и поэтому такие выражения несут оттенок драматизации.

Интересно отметить, что темпоральные метафоры в обеих языковых традициях тесно связаны с природными явлениями. В узбекском языке это выражено особенно ярко, поскольку традиционный образ жизни и климатические условия сформировали устойчивые модели описания времени через природные образы: *tong otty* (‘рассвело’ — буквально ‘утро поднялось’), *kun botdi* (‘день зашел’), *qish yaqinlashmoqda* (‘приближается зима’). Эти выражения показывают ориентацию на циклы природы, которые определяют ритм жизни в сельской среде. Природа становится главным маркером времени, а её изменения — основным ориентиром для человека. Это подтверждают наблюдения Х. Умарова, подчеркивающего, что узбекский языковой менталитет формируется на основе образов природы как ключевой системы отсчёта.

Испанский язык также демонстрирует связь времени с природными явлениями, но эта связь менее доминирующая и чаще носит образный характер. Выражения вроде *hasta que nieve*

en agosto (‘когда снег пойдёт в августе’) используются для обозначения невозможности или невероятности событий, а *llega la primavera* (‘приходит весна’) часто имеет символическую функцию обновления и перемен. В испанской культуре природа не выступает основным регулятором жизни, и поэтому природные метафоры времени имеют чаще литературный, а не бытовой характер. Это соответствует наблюдениям И. Лопес, отмечающей, что испанская культура ориентирована на социальную активность, а не на природные циклы.

Таким образом, анализ темпоральных метафор позволяет выявить глубокие различия в восприятии времени в испанской и узбекской культурах. Испанский язык подчеркивает активность, движение и борьбу с временными ограничениями, в то время как узбекский язык демонстрирует гармонию, спокойствие и принятие естественного хода вещей. Эти различия отражают исторически сформированные ценности: европейская культура ориентирована на развитие, скорость и эффективность, тогда как восточная — на мудрость, последовательность и стабильность. Однако общие метафорические модели, такие как персонификация времени и связь времени с природой, показывают универсальность человеческого опыта, который проявляется в языке независимо от культурных различий.

Список использованной литературы.

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago; London: University of Chicago Press, 1980.
2. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. — New York: Oxford University Press, 2002.
3. Boroditsky L. Metaphoric structuring: time and space. // Language and Cognitive Processes. — 2000. — Vol. 15. — P. 537–565.
4. Núñez R., Sweetser E. With the future behind them: convergent evidence. // Cognitive Science. — 2006. — Vol. 30. — P. 1–34.
5. Blanco C.M. El tiempo vuela: Metáforas cognitivas y fraseologismos con dominio meta TIEMPO en español. // Phrasis (Revista). — 2023. — P. 1–18. phrasis.it
6. Conde J.A. Cronomosaicos: metáforas espaciales del tiempo. // Razón Crítica. — 2019. revistas.utadeo.edu.co
7. Нуркулов Ж.Р. Метафорические модели времени в немецкой и узбекской фразеологии. // Global Trends in Foreign Languages. — 2025. journals.tnmu.uz
8. Bestpublication.org. Nemis va o‘zbek tilidagi vaqt konseptini ifodalovchi metaroralar. — 2022. Лучшее издание

Saidova Feruzaxon Nizamjanovna
Andijon davlat universiteti katta o`qituvchisi
E-mail:saidovaf1977@gmail.com

SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA QADRIYATLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqola shaxslararo o‘zaro ta’sir va munosabatlarning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari hamda ularning shaxs va jamiyat qadriyatlari bilan bog‘liqligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot shaxslararo va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, rivojlanishi va ularni tartibga soluvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni tahlil qiladi. Maqolada qadriyatlarning shaxs va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikdagi roli, muloqot jarayoni va shaxslararo munosabatlarning hissiy, kognitiv va regulyativ komponentlari ilmiy asosda yoritiladi.*

Empirik qismda “Shaxslararo munosabat diagnostikasi” metodikasi yordamida jinslar bo‘yicha shaxslararo munosabatlar tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, erkaklar va ayollar ko‘plab jihatlarda o‘xshash xatti-harakatlarni namoyon etadilar, biroq o‘ziga ishonch darajasida sezilarli farq mavjud bo‘lib, bu jinslar o‘rtasidagi ichki “men”ning boshqaruv mexanizmlari bilan izohlanadi.Tadqiqot natijalari shaxslararo munosabatlar, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq tushunishga, shuningdek, pedagogik va psixologik amaliyotda munosabatlarni samarali rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy-psixologik mexanizm, qadriyatlar tizimi, muloqot, jinsiy farqlar, shaxsning psixologik rivojlanishi.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ИХ СВЯЗЬ С ЦЕННОСТЯМИ.

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению социально-психологических механизмов межличностного взаимодействия и отношений и их связи с ценностями личности и общества. В исследовании анализируются формирование, развитие межличностных и социальных отношений, а также социально-психологические механизмы, регулирующие их. В статье научно рассматривается роль ценностей в интегральной связи между личностью и обществом, процессе коммуникации, а также эмоциональные, познавательные и регулятивные компоненты межличностных отношений.*

В эмпирической части межличностные отношения по гендерному признаку анализируются с использованием методологии «Диагностика межличностных отношений». Результаты показали, что мужчины и женщины демонстрируют схожее поведение во многих отношениях, но существует значительная разница в уровне самооценки, которая объясняется механизмами контроля внутреннего «Я» между полами. Результаты исследования позволяют глубже понять неразрывную связь между межличностными отношениями, системой ценностей и социальной стабильностью, а также разработать рекомендации по эффективному развитию отношений в педагогической и психологической практике.

Ключевые слова: *межличностные отношения, социально-психологический механизм, система ценностей, коммуникация, гендерные различия, психологическое развитие личности.*

SOTSIALNO-PSYCHOLOGICHESKIE MECHANIZNYI MEJLICHNOSTNYKH ATNOSHENIY I IX SVYAZ S CENNOSTYAMI.

Abstract. *This article examines the socio-psychological mechanisms of interpersonal interactions and relationships and their connection with individual and social values. The study analyzes the formation and development of interpersonal and social relationships, as well as the socio-psychological mechanisms that regulate them. The article examines the role of values in the*

integral connection between the individual and society, the communication process, and the motional, cognitive, and regulatory components of interpersonal relationships. In the empirical section, interpersonal relationships by gender are analyzed using the "Diagnostics of Interpersonal Relationships" methodology. The results showed that men and women exhibit similar behavior in many respects, but there is a significant difference in self-esteem, which is explained by the mechanisms of self-control between the sexes. The study's results provide a deeper understanding of the inextricable link between interpersonal relationships, value systems, and social stability, as well as the development of recommendations for the effective development of relationships in pedagogical and psychological practice.

Key words: *interpersonal relationships, socio-psychological mechanism, value system, communication, gender differences, psychological development.*

Shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy qadriyatlar tizimi jamiyatning barqarorligi va shaxsning psixologik rivojlanishi uchun markaziy ahamiyatga ega. Jamiyat va shaxs o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik qadriyatlar orqali namoyon bo‘lib, insonlarning xulq-atvori, qarashlari va ijtimoiy rollarini tartibga soladi. G. Gofstede (2001) qadriyatlarni jamiyat a’zolari o‘rtasida tarqalgan umumiy e’tiqodlar va me’yorlar majmuasi sifatida ko‘rib, ularni ijtimoiy xulq-atvorni shakllantiruvchi asosiy mexanizm deb hisoblaydi. Parsons va Shils (1951) esa qadriyatlarni jamiyatni birlashtiruvchi va shaxsning ijtimoiy rollarga moslashuvini ta’minlovchi struktura sifatida talqin qiladi. Shuningdek, Rokich (1973) qadriyatlarni shaxs va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalaydigan tizim sifatida ko‘rib, ularni shaxsning ijtimoiy faoliyatini yo‘naltiruvchi va jamiyat tomonidan qadrlanadigan prinsiplar sifatida ta’riflaydi.

O‘zbekiston Respublikasi kontekstida shaxslararo munosabatlar va qadriyatlar tizimining rivojlanishi davlat siyosati va Prezident qarorlari bilan bevosita bog‘liq. Masalan, 2020-yilgi “Ta’lim tizimini isloh qilishga doir Prezident qarori” yoshlarning nafaqat bilim va ko‘nikmalarini oshirish, balki psixologik rivojlanishi, ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, 2021-yilgi “Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga doir qaror” milliy madaniyat va san’at orqali jamiyatda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va ruhiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shaxslararo munosabatlar va qadriyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ijtimoiy-psixologik mexanizm orqali namoyon bo‘ladi. Bu mexanizm shaxsning hissiy tajribasi, motivlari, ehtiyojlari va ijtimoiy rollari bilan belgilanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxslararo munosabatlar muloqot jarayoni orqali shakllanadi va rivojlanadi, bu esa ijtimoiy tajriba, qadriyatlar tizimi va shaxsning psixologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi (Andreeva, 2002; Andrienko, 2004; Obozov, 2001).

Psixologik munosabatlar – bu turli shaxslarning ongida shakllanadigan va ularning bevosita o‘zaro aloqalari hamda tajribalari natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik hodisadir. Ular o‘ziga xos mohiyat, mazmun va struktura bilan tavsiflanadi hamda namoyon bo‘lish va ishlash mexanizmlariga ega. Psixologik munosabatlar shaxsga boshqa odamlar, guruhlar yoki jamiyatga nisbatan xayrixohlik, antipatiya, hurmat va tushunish kabi his-tuyg‘ularini ifoda etish, ularni anglash va boshdan kechirish imkonini beradi.

Ular hissiy va tuyg‘ular bilan boyitilgan bo‘lishiga qaramay, ularning ifodalanishi ijtimoiy kontekst bilan cheklangan bo‘ladi. Psixologik munosabatlarning o‘ziga xosligi ularning shakllanishida shaxslararo aloqalar, guruh a’zolik tajribasi va jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy kontekstning ta’siri muhim rol o‘ynashida namoyon bo‘ladi.

Psixologik munosabatlar birgalikdagi faoliyat va o‘zaro ta’sir jarayonida shaxslar tomonidan boshdan kechiriladigan sub’ektiv tajribalar orqali ob’ektiv shaklda namoyon bo‘ladi. Bu munosabatlar odamlar o‘rtasida, shaxslar va guruhlar o‘rtasida, shuningdek shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik aloqalarni aks ettiradi. Shu tariqa, psixologik munosabatlar ijtimoiy-psixologik munosabatga aylanadi, ham guruh, ham individual faoliyatni tartibga soluvchi mexanizm sifatida faoliyat yuritadi va insonlarning xulq-atvori, qaror qabul qilishi hamda ijtimoiy moslashuvini belgilaydi.

Jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik uzviy bog‘liqlik, shaxslararo munosabatlar va qadriyatlar tizimi orqali ifodalanadi, bu esa shaxsning ijtimoiylashuvi, ma’naviy rivojlanishi hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Jamiyatda insonlar o‘rtasida shakllanadigan munosabatlar o‘zining murakkabligi, xilma-xilligi va qadriyatlar bilan boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu munosabatlarni umumiy tarzda o‘zaro ta’sirning ikki asosiy ko‘rinishiga – ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarga ajratish mumkin. Ijtimoiy munosabatlar, avvalo, individlarning jamiyatdagi mavqei, ular tomonidan bajariladigan ijtimoiy rollar va qadriyatlar bilan belgilanadi. Bunda shaxslar bir-biri bilan individual psixologik xususiyatlari asosida emas, balki ma’lum ijtimoiy vazifalar, rollar va qadriyatlar doirasida o‘zaro munosabatga kirishadilar.

Shaxslararo o‘zaro ta’sir – bu ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘rtasida yuzaga keladigan, o‘zaro fikr, hissiyot, qadriyatlar, motivlar va xatti-harakatlar orqali amalga oshadigan psixologik va ijtimoiy jarayon. Bu jarayon shaxslarning ijtimoiy faoliyatga moslashuvi, o‘zaro tushunish, hissiy hamkorlik va maqsadlarni birgalikda amalga oshirishga xizmat qiladi (Andreeva, 2002; Andrienko, 2004; Obozov, 2001).

Shaxslararo o‘zaro ta’sir va munosabatlar jamiyatda inson faoliyatining ajralmas qismi sifatida ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy psixologiya va sotsiologiya adabiyotlarida shaxslararo munosabatlar insonlarning o‘zaro ta’siri, hissiy tajribasi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy rollari bilan bog‘liq murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. G.M. Andreeva shaxslararo munosabatlarni ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, ularni jamiyatda shakllanadigan ijtimoiy tajribaning subyektiv aks etishi deb hisoblaydi. Shu nuqtai nazardan, shaxslararo munosabatlar nafaqat insonlarning bevosita o‘zaro aloqasi, balki jamiyat tomonidan shakllantirilgan qadriyatlar va me’yorlarni ichki tarzda qabul qilishi orqali namoyon bo‘ladi.

Qadriyatlar — bu jamiyat tomonidan shakllantirilgan, tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajriba asosida insonlarning xulq-atvori, qarashlari va ijtimoiy faoliyatini tartibga soluvchi, shuningdek shaxs va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlovchi me’yoriy va ma’naviy yo‘nalishlar majmuasidir.

Jamiyat va qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ijtimoiy-psixologiya va sotsiologiya adabiyotlarida keng o‘rganilgan mavzu hisoblanadi. Shaxs va jamiyatning qadriyatlar tizimi orqali o‘zaro aloqasi G. Hofstede (Hofstede, 2001) tomonidan madaniy qadriyatlar ijtimoiy xulq-atvorni shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida talqin qilinadi. Hofstede qadriyatlarni jamiyat a’zolari o‘rtasida tarqalgan umumiy e’tiqodlar va me’yorlar majmuasi sifatida ko‘radi.

Parsons va Shils (1951) ijtimoiy qadriyatlarni jamiyatni birlashtiruvchi va shaxsning ijtimoiy rollarga moslashuvini ta’minlovchi struktura sifatida ta’riflaydi. Ularning fikricha, qadriyatlar nafaqat shaxsning xulq-atvorini boshqaradi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va birligi uchun ham asosiy vosita hisoblanadi.

Shuningdek, Rokeach (1973) qadriyatlarni shaxs va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalaydigan tizim sifatida ko‘rib, ularni shaxsning ijtimoiy faoliyatini yo‘naltiruvchi va jamiyat tomonidan qadrlanadigan prinsiplar sifatida ta’riflaydi. Rokeachning ta’kidlashicha, qadriyatlar shaxsning xulq-atvori, qarashlari va ijtimoiy rolini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Qadriyatlar — bu jamiyat tomonidan shakllantirilgan, tarixiy va madaniy tajriba asosida insonlarning xulq-atvori va ijtimoiy faoliyatini tartibga soluvchi, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlovchi ma’naviy-prinsiplar tizimidir

E.V. Andrienko shaxslararo munosabatlarni murakkab ijtimoiy tizim sifatida talqin qiladi va ularning markazida shaxsning ehtiyojlari, motivlari, individual-psixologik xususiyatlari hamda hayotiy maqsadlari turishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, shaxslararo munosabatlar nafaqat tashqi ijtimoiy talablar, balki shaxsning ichki psixologik holati, hissiy tajribasi va shaxsiy qadriyatlariga ham bog‘liq. Shu bilan birga, N.N. Obozov shaxslararo munosabatlarni subyektlarning muayyan turdagi o‘zaro ta’sirga tayyorligi deb ataydi va u jamiyatdagi faoliyat jarayonida o‘zini namoyon etadi, ya’ni shaxslararo munosabatlar insonning ijtimoiy faoliyatga bo‘lgan tayyorgarligi va ijtimoiy muhit bilan moslashuvining indikatori sifatida qaraladi.

Ijtimoiy-psixologik yondashuv shaxslararo munosabatlarni asosan muloqot jarayoni orqali amalga oshadi va rivojlanadi, deb ta’kidlaydi. Muloqot insonlar o‘rtasida psixologik aloqa vujudga

kelishining asosiy shakli bo‘lib, u o‘zaro tushunish, emotsional hamdardlik, tajriba almashish, shuningdek axborot va g‘oyalarni uzatish jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Turli nazariyalarda muloqotning roli turlicha talqin qilinadi: ba’zi olimlar uni faoliyatning ajralmas elementi sifatida, boshqalar esa faoliyatning yuzaga kelish sharti sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, muloqot shaxslararo munosabatlarning samarali rivojlanishi va mustahkamlanishidagi eng muhim mexanizm hisoblanadi, chunki u orqali insonlar o‘zaro idrok etish, baholash, hissiy hamkorlik va qadriyatlar almashinuvini amalga oshiradi.

Ilmiy tadqiqotlarda shaxslararo munosabatlar turli mezonlar asosida tasniflanadi. Jumladan, ular rasmiy va norasmiy, shaxsiy va professional, hissiy va ratsional, shuningdek, tenglikka asoslangan (paritet) va bo‘ysunuv (subordinatsiya) munosabatlarga ajratiladi. Rasmiy munosabatlar huquqiy me’yorlar, normativ qoidalar va ijtimoiy majburiyatlar orqali tartibga solinadi, shaxsiy his-tuyg‘ular va individual xohishlar ikkinchi darajaga tushadi. Norasmiy munosabatlar esa shaxsiy qiziqishlar, hissiy yaqinlik va ijtimoiy moslashuvga asoslanadi va ko‘proq spontan tarzda rivojlanadi. Masalan, do‘stlar, qarindoshlar, sinfdoshlar o‘rtasidagi munosabatlar norasmiy munosabatlarga misol bo‘la oladi.

Shaxslararo munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi ko‘plab ijtimoiy-demografik va individual omillarga bog‘liqdir. Jumladan, shaxsning jinsi, yoshi, milliy mansubligi, ijtimoiy tajribasi, madaniy muhitga moslashuv darajasi, shaxsiy qadriyatlari va muloqot qobiliyatlari ushbu munosabatlarning sifatini belgilaydi. Shu bilan birga, ishonch darajasi, o‘zaro tushunish, fikrlarni ochiq ifodalash va boshqalarni tinglay olish kabi kommunikativ ko‘nikmalar shaxslararo munosabatlarning samarali va barqaror rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi.

Tadqiqotning maqsadi - Ushbu maqola shaxslararo va ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik tizimi va uning shakllanish, rivojlanish mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganishga qaratilgan. Shaxslararo va ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etuvchi ijtimoiy, madaniy, demografik va individual-psixologik omillarni aniqlash, ularning shaxsning psixologik rivojlanishi, qadriyatlar tizimi va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi funksional rolini tadqiq etishdir. Shu bilan birga, maqolada ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligi, muloqot jarayoni, hissiy va ijtimoiy-kommunikativ komponentlari, shuningdek rasmiy va norasmiy munosabatlar tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlar ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvi, psixologik rivojlanishi va qadriyatlar tizimining shakllanishi jarayonlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Psixologlarning shaxslararo munosabatlar sohasidagi tadqiqotlarida muayyan o‘ziga xosliklarni aniqlash mumkin. Masalan, Ya.L. Kolominskiy, A.A. Bodalyov va B.F. Lomov o‘z tadqiqotlarida odamlar o‘rtasidagi munosabat va muloqotni uch asosiy komponent orqali tahlil qilgan. Ya.L. Kolominskiy shaxslararo munosabatni xulqiy, affektiv va kognitiv komponentlar orqali tushuntirsa, A.A. Bodalyov ularni praksik, affektiv va gnostik jihatlar bilan tavsiflaydi. B.F. Lomov esa bu an’anani davom ettirib, shaxslararo munosabatni regulyativ, affektiv va informativ komponentlar asosida ajratadi.

Sh.A. Nadirashvili o‘zaro munosabat va ta’sirlanish jarayonlari, shuningdek o‘zaro idrok etishning uchlik komponenti tamoyili ustanovka nazariyasi doirasida ham mavjudligini ta’kidlaydi. Bu fikr shaxslararo munosabatlarni komponentlarga ajratishdagi psixologlarning yondashuvlaridagi o‘ziga xoslikni ko‘rsatadi. Shu asosda, pedagoglar orasidagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganishda ham ushbu ilmiy tasniflar va komponentlar tizimi amaliy jihatdan qo‘llanishi mumkinligi aytiladi.

Ya.L.Kolominskiy shaxslararo munosabatni muloqot jarayonida shakllanadigan va rivojlanadigan hodisa sifatida tavsiflaydi, u axborot va predmetli munosabat orqali yuzaga keladi. V.N. Myasishev esa bu ta’rifni yanada kengaytirib, muloqot nafaqat axborot va predmetlar bilan bog‘liq, balki unda emotsional aloqalar ham o‘rnatilishini, shuningdek, muloqot jarayonida shaxslar o‘z ehtiyojlarini qondirishini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, har qanday shaxslararo muloqot insonlarda o‘ziga xos emotsional jarayonlarni yuzaga keltiradi va muloqotning xarakteri hal qilinadigan vazifa yoki muammoning mohiyati bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Shuningdek, shaxslararo munosabat muammosini tadqiq etishda turli olimlar turlicha yondashuvni qo‘llagan. Masalan, V.F. Rubaxin, A.V. Filippov, A.A. Yershov, R.A. Maksimov va A.A. Rusalinov o‘z izlanmalarida shaxslararo munosabatlarni psixologik, ijtimoiy va kommunikativ

nuqtai nazardan o‘rganishga harakat qilganlar. Bu yondashuvlar shaxslararo munosabatlarni har tomonlama, kompleks tarzda tahlil qilishga imkon beradi va ularning shakllanish, rivojlanish hamda muloqot mexanizmlari haqida ilmiy tushunchalarni boyitadi.

Empirik tadqiqot natijalari. Tadqiqotlqr shuni ko`rsatdiki shaxslararo munosabatlarni tahlili erkaklar va ayollarni farqi o`rganildi

1-jadval

“Shaxslararo munosabat diagnostikasi” (T.Liri) metodikasining jins tafovuti bo‘yicha tahlili (Mann-Uittni mezoni bo‘yicha)

Shkalalar	Erkaklar (n=248)		Ayollar (n=187)		Statistik qiymat
	O‘rtacha rang	Ranglar summasi	O‘rtacha rang	Ranglar summasi	U
Liderlikka moyillik	225,81	56001,00	207,64	38829,00	21251,000
O‘ziga ishonch.	189,11	46898,50	256,32	47931,50	**16022,500**
Talabchanlik.	219,57	54452,50	215,92	40377,50	22799,500
Ishonchsizlik.	222,01	55058,50	212,68	39771,50	22193,500
Yon berishlik.	215,72	53499,50	221,02	41330,50	22623,500
Ishonuvchanlik.	222,88	55275,00	211,52	39555,00	21977,000
Ko‘ngilchanlik	216,70	53742,50	219,72	41087,50	22866,500
Rahmdillik.	211,56	52466,50	226,54	42363,50	21590,500

Empirik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, liderlikka moyillik shkalasi bo‘yicha erkaklar (M=225,81) va ayollar (M=207,64) o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi (U=21251,000; p≥0,05). Bu natija ayollarning rahbariyatdagi faoliyati va jamiyatdagi gender rollariga moslashgan professional tajribasi bilan izohlanishi mumkin. Ya’ni, ayollar va erkaklar liderlik xususiyatlarini amaliyotda deyarli teng darajada namoyon etadilar, bu esa shaxslararo munosabatlar tizimida genderning neytral yoki nozik ijtimoiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Biroq o‘ziga ishonch ko‘rsatkichida sezilarli farq kuzatildi: ayollar (M=256,32) erkaklarga (M=189,11) nisbatan ancha yuqori o‘ziga ishonch darajasini namoyon etdilar (U=16022,500; p≤0,001). Bu holat shaxsning ichki “men”ini boshqarish mexanizmlari va individual psixologik tajribasi bilan bog‘liq. Erkaklar o‘z “men”ini ichki tartibga soluvchi asos sifatida his qilsa, ayollar o‘zini boshqarishda sezilarli darajada yuqori o‘ziga ishonch ko‘rsatdilar, bu esa ularning hissiy va motivatsion resurslarining turlicha ishlashini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, o‘ziga ishonch jinslararo shaxslararo munosabatlarning muhim komponenti sifatida ko‘riladi va muloqotda qaror qabul qilish, ijtimoiy faollik va guruh ichidagi ro‘lni belgilashga ta’sir qiladi.

Talabchanlik, ishonchsizlik, yon berishlik, ishonuvchanlik, ko‘ngilchanlik va rahmdillik shkalalari bo‘yicha esa erkaklar va ayollar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi (p≥0,05). Shu bilan birga, ayrim xususiyatlarda sezilarli tendensiyalar kuzatildi: ayollarda yon berishlik va ko‘ngilchanlik biroz yuqoriroq bo‘lsa, erkaklarda ishonuvchanlik va liderlik ko‘rsatkichlari sezilarliroq namoyon bo‘lgan. Bu natija shaxslararo munosabatlarning hissiy va ijtimoiy-kommunikativ komponentlari jinslararo farqlanishi mavjud bo‘lishini ko‘rsatadi, ammo u umumiy munosabat sifatini tubdan belgilamaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot tahlili shuni ko‘rsatdiki, erkaklar va ayollar shaxslararo munosabatlarda ko‘plab jihatlarda o‘xshash xatti-harakatlarni namoyon qiladilar. Shaxslararo munosabatlarning ko‘pchiligi (talabchanlik, ishonchsizlik, rahmdillik, ko‘ngilchanlik) bo‘yicha jinslar farqi ahamiyatsiz darajada bo‘lib, bu shaxslararo muloqot va hamkorlik mexanizmlari ijtimoiy-psixologik jihatdan jinsdan mustaqil ekanligini ko‘rsatadi.

Natijalarning ilmiy ahamiyati shundaki, o‘ziga ishonch ko‘rsatkichi shaxslararo munosabatlarning boshqaruv mexanizmlari va ichki motivatsiyani shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi. Shuningdek, ushbu natijalar gender psixologiyasi va pedagogik amaliyotda shaxslararo

munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqishda asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

2-jadval

“Qadriyatlar orientatsiyasi” (Sh.Shvars) metodikasining individual ustuvorlik darajasida jins tafovuti bo‘yicha tahlili (Mann-Uittni mezoni bo‘yicha)

Shkalalar	Erkaklar (n=248)		Ayollar (n=187)		Statistik qiymat
	O‘rtacha rang	Ranglar summasi	O‘rtacha rang	Ranglar summasi	U
Konformlik	258,56	41051,55	214,06	71998,70	24761,000
An’analar,odatlar	255,27	40548,58	265,77	72501,80	23258,000
Mehribonlik	262,72	40089,60	267,33	72961,10	22789,500
Universallik	274,94	38689,70	252,07	74361,10	21349,500**
Mustaqillik	262,70	38299,50	243,43	74761,10	23969,400*
Rag‘batlanish	266,93	37237,15	266,96	75803,30	25947,500**
Gedonizm	292,80	45512,15	218,98	67548,50	24858,500
Yutuqlar	261,51	41652,55	231,96	71377,60	23372,000
Kuch, hokimiyat, obro‘	288,48	44736,55	251,61	68323,40	22643,000
Xavfsizlik	266,99	39159,50	230,82	73991,50	28749,400**

***- p<0,05 (95 %),**- p<0,01 (99 %).**

“Qadriyatlar orientatsiyasi” (Sh.Shvars) metodikasining individual ustuvorlik darajasida jins tafovuti bo‘yicha tahlili amalga oshirilganda universallik, mustaqillik, rag‘batlanish va xavfsizlik kabi qadriyatlarda axamiyatli farqlar aniqlandi. Universallik qadriyati bo‘yicha erkaklarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 274,94 ni, ranglar summasi 38689,70 ni, ayollarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 252,07 ni, ranglar summasi 74361,10 ni tashkil etgan (U=21349,500; r≤0,01). Ayollarda mazkur qadriyatning erkaklarga nisbatan yuqori baholanishi tushunish, minnatdorchilik, bag‘rikenglik va barcha odamlar va tabiatning farovonligini saqlash istagining yuqoriligi bilan izohlanadi. Mazkur qadriyat zamirida go‘zallik, uyg‘unlik va adolatga bo‘lgan umuminsoniy ehtiyojlar mujassam.

Mustaqillik ko‘rsatkichi bo‘yicha erkaklarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 262,70 ni, ranglar summasi 38299,50 ni, ayollarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 243,43 ni, ranglar summasi 74761,10 ni tashkil etgan (U=23969,400; r≤0,05).

Mazkur jihatdan ahamiyatimizni tortgan mustaqillik qadriyatning ayollarda yuqori darajada e’tirof etilishidir. Ayollarning mustaqil va o‘zini o‘zi ta’minlashga intilishi, hamma narsaga o‘zi erishish xohishi va hayot muammolarini hal qilishga qodirligini his qilish istagining ustuvorligi – ularda mustaqillikni yetakchi qadriyat sifatida ko‘rishlarida namoyon bo‘ladi. Agar maishiy, shaxsiy, moliyaviy yoki professional muammo yuzaga kelsa, ayollar tashqaridan yordam kutmaydi, balki yuzaga kelgan qiyinchiliklarni hal qilish yo‘lini izlaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot shaxslararo o‘zaro ta’sir va munosabatlarning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari hamda ularning shaxs va jamiyat qadriyatlari bilan uzviy bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

1. Shaxslararo munosabatlar murakkab ijtimoiy-psixologik tizim bo‘lib, u hissiy, kognitiv va regulyativ komponentlar orqali shakllanadi va rivojlanadi. Shaxslararo muloqot jarayoni shaxsning psixologik barqarorligi, ijtimoiy tajribasi va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir.

2. Qadriyatlar tizimi shaxs va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi. U shaxsning ijtimoiy rollarga moslashuvi, xulq-atvorini tartibga solishi va jamiyatning barqarorligini mustahkamlashda asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi (Hofstede, Parsons va Shils, Rokeach).

3. Jinslararo farqlar tadqiqotda shaxslararo munosabatlarda ko‘plab jihatlarda sezilmasligini, biroq o‘ziga ishonch darajasida aniq farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Erkaklar o‘z “men”ini ichki boshqaruv mexanizmlari orqali tartibga solsa, ayollar o‘zini boshqarishda sezilarli darajada yuqori o‘ziga ishonch ko‘rsatdilar.

4. Shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy barqarorlik va shaxsning psixologik rivojlanishiga ta'siri aniqlandi. Muloqot orqali yuzaga keladigan o'zaro tushunish, hissiy hamkorlik va qadriyatlar almashinuvi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va shaxsning psixologik o'sishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.Андреева Г.М. Социальная психология.Учебник для высщых учебных заведение. / Г. М. Андреева. — 5-ое изд., испр и до. М.: Аспект Пресс, 2014.

2. Andreeva G.M., Bogomolova N.N., Petrovskaya L.A. Zarubejnaya sotsialnaya psixologiya XX stoletiya. -M.: «Aspekt Press», 2002.

3. Абалакина М.А., Агеев В.С. Анатомия взаимопонимания. - М.: Знание, 2000. - 64 с.


4 .Abduraxmanova Z.E. Psixologiya fanidan atlas. uslubiy qo'llanma. T. Iqbol-Turon. 2021 y.

5. Abduraxmonov F.R., Abdurahmonova Z.E. "O'zingni bil, o'zingni angla". Uslubiy qo'llanma. –T.: "Noshir". 2012 y

6. Буреломова А.С "Социально-психологические особенности ценностей современных подростков". Канд. Дисс. – Москва 2013

7. Imomov A.Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Monografiya. T."Navro'z" nashriyoti. 2016 y.

USTOZGA EHTIROM



Hayotimizning har bir jabhasida o‘zining ibratli faoliyati, ilm-ma’rifati, psixologik tafakkuri, g‘ayrati va fidoyiligi bilan nafaqat yaqinlariga, balki butun jamiyatga ilhom manbaiga aylangan insonlarga havas bilan qaraymiz va ularga intilamiz. Ana shunday insonlardan biri – yetmish yosh poyonida o‘z qarashlari bilan e’zozlanayotgan ma’rifatparvar olima va muhtaram ustoz – Vasila Karimovadir.

Professor Vasila Karimovaning hayoti va faoliyati qisqa satrlarda

1955 yil 18 avgustda Farg‘ona viloyati, Uchqo‘prik tumanida xizmatchi oilasida dunyoga kelgan.

1972–1975 yillar – Toshkent davlat universiteti talabasi sifatida psixologiya yo‘nalishida ilk nazariy bilim va amaliy tajribalarni o‘zlashtirgan.

1975–1977 yillar – Moskva davlat universiteti talabasi sifatida psixologiya sohasida chuqur ilmiy asoslarni egalladi. 1977 yilda mazkur universitetning psixologiya fakultetini muvaffaqiyatli tamomlab, psixolog va psixologiya fani o‘qituvchisi mutaxassisligiga ega bo‘ldi.

1977–1978 yillar – ilk mehnat faoliyatini Respublikamizning nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) “Psixologiya” kafedrasidan o‘qituvchi sifatida boshladi.

1978–1985 yillar hayot yo‘lini bog‘lagan insoni bilan yana-yon bo‘lish uchun jonozon maskaniga qaytib boradi va Farg‘ona davlat pedagogika institutida “Psixologiya” kafedrasida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi va dosent sifatida faoliyat yuritdi. Bu davrda ilmiy izlanishlar bilan bir qatorda, pedagog kadrlarni tayyorlashda ham faol qatnashdi.

1988 yil – olib borgan ilmiy izlanishlari samarasi natijasida Moskva davlat universitetida muvaffaqiyatni umumo qilib, psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi.

1989–1998 yillar – Farg‘ona davlat universitetida “Psixologiya” kafedrasi mudiri sifatida faoliyat yuritdi. Shu yillarda uning tashabbusi bilan psixologiya va amaliy sosiologiya fakulteti ochilib, mamlakatimizda psixologiya yo‘nalishida yangi salohiyatli maktab shakllandi.

1994 yil – psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini oldi. Shu yillarda “FarDU xabarlari” jurnali asoschilalaridan biri va bosh muharririning o‘rinbosari, keyinchalik – kotibi sifatida ham jamoatchilik hayotida faol ishtirok etdi.

1996–1998 yillar – Farg‘ona davlat universiteti rektorining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi o‘rinbosari sifatida ilm va tarbiya jarayonlarini yuksaltirishda katta hissa qo‘shdi.

1998–2000 yillar – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Ijtimoiy psixologiya” kafedrasi mudiri va professori sifatida faoliyat yuritdi. Bu kafedra va aspirantura ham uning tashabbusi bilan ilk marotaba ochildi.

2000 yil – professor ilmiy unvoni berildi. Shu yil “Milliy istiqlol g‘oyasi konsepsiyasi”ni tayyorlovchi ishchi guruh a’zosi sifatida milliy mafkurani rivojlantirishda qatnashdi.

2000–2011 yillar – Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi direktori sifatida mamlakatda oilashunoslik sohasining shakllanishi, ilmiy-tadqiqot va amaliyot ishlari rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

2011–2015 yillar – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Kasb ta’limni (iqtisodiyot)” kafedrasi professori sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

2015–2019 yillar – to‘liq nafaqada bo‘lsa-da, ilmiy izlanishlarini to‘xtatmadi.

2019–2021 yillar – O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida Sport psixologiyasi va pedagogika kafedrasi professori sifatida ishladi.

2021–2022 yillar – Farg‘ona davlat universitetida professor sifatida faoliyat yuritdi.

2022 yildan hozirgacha – Toshkent davlat pedagogika universiteti professori sifatida ilmiy va pedagogik ish faoliyatini davom ettirmoqda.

Ilmiy va jamoatchilik merosi:

– 300 dan ortiq ilmiy va ommaviy maqolalar, 40 dan ziyod darslik va o‘quv qo‘llanmalar, bir nechta monografiyalar muallifi;

– 30 dan ziyod shogirdlarni tarbiyalagan, ulardan 5 nafari fan doktori, 30 nafari fan nomzodi (falsafa doktori) bo‘lgan, bugungi kunda yana 10 dan ortiq izlanuvchilar ilmiy izlanishlar bilan band;

– “Psixologiya” darsligi bir necha yillar mobaynida “Yilning eng yaxshi kitob”i sifatida tan olingan (2001, 2002 yillar).

– “Psixologiya”, “Oila psixologiyasi”, “Iqtisodiy psixologiya”, “Kasbiy psixologiya”, “Ijtimoiy psixologiya”, “Oilaviy hayot psixologiyasi”, “Sosial psixologiya”, “Salomatlik psixologiyasi” kabi ilmiy adabiyotlari bir necha marta qayta nashr etib kelinmoqda.

– Respublika va xalqaro grantlar rahbari va ishtirokchisi sifatida ishlarni amalga oshirgan.

– Jamoatchilik ishlarida ham faol ishtirok etib, “Oila” jurnali bosh muharriri, turli ilmiy kengashlar raisi va a’zosi sifatida xizmat qilgan.

Mukofot va e’tiroflar:

– “O‘zbekiston Oliy ta’lim a’lochisi”;

– “Mustaqillikning 15 yilligi” ko‘krak nishoni;

– “Yilning eng yaxshi maqolasi” tanlovi g‘olibi (2005, 2008, 2012);

– “Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasi”ning akademigi.

O‘ZBEK PSIXOLOGIYA FANINING ME’MORI
(Professor Vasila Mamanosirovna Karimovaning 70 yilligiga bag‘ishlanadi)

Saidahror Saidaxmedovich GULYAMOV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi,
Akademik, iqtisodiyot fanlari doktori, professor



Har qanday mamlakatda fan taraqqiyotining tarixi o‘z aqli, fidokorligi va tinimsiz mehnati bilan kelgusi tadqiqotchilar avlodi uchun poydevorga asos solgan ulug‘ shaxslarning tarjimai hollaridan iborat. O‘zbek psixologiyasi fanining an’analarida professor Vasila Mamanosirovna Karimovaning ismi alohida o‘rin egallaydi, bu – peshqadam, yangilik yaratuvchi, hayoti fan va ta’limga xizmat etishdan iborat bo‘lgan olima timsolidir.

O‘n sakkizinchi avgustda O‘zbekistonning zamonaviy psixologik fanining chehrasini ko‘p jihatdan belgilagan insonning tug‘ilgan kuniga yetmish yili to‘ldi. Vasila Mamanosirovna 1955 yilda Farg‘ona viloyatida tug‘ilgan, o‘sha paytda O‘zbekiston keng ko‘lamli ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar davrini boshdan kechirayotgan edi. Yoshligidayoq keyinchalik uning ilmiy faoliyatining asosini tashkil etuvchi fazilatlar namoyon bo‘lgan: maqsadga intiluvchanlik, tahliliy fikrlash va bilimga intilish.

O‘rta maktabni tugatganda oltin medal olishi kelgusi akademik yutuqlarning beshorati bo‘ldi. 1972 yilda Toshkent davlat universitetida psixologiya bo‘limining yangi ochilgan paytida Vasila Mamanosirovna ushbu mutaxassislikning birinchi talabalari orasida bo‘ldi. Uning taqdiri boshidanoq O‘zbekistonda psixologiya fanning tug‘ilishi bilan ajralmas ravishda bog‘lanib qolgani ramziy ma’noga ega, menimcha.

M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida ta’limni davom ettirish kelgusi olimning intellektual kamolotida burilish nuqtasi bo‘ldi. O‘sha davr MDUsi haqiqiy fan ma’badini tashkil etar edi, u yerda mamlakat psixologiyasining haqiqiy darg‘alari – korifeylari ishlar edilar. Mana shu afsonaviy universitet devorlari orasida Vasila Mamanosirovnaning ilmiy dunyoqarashining shakllanishi, keyinchalik uning tadqiqotlarining o‘ziga xos xususiyati bo‘ladigan uslubiy yondashuvlarga asos bo‘lgan bo‘lsa, ajabmas.

1977 yilda MDU psixologiya fakultetini muvaffaqiyatli bitirishi uni ushbu nufuzli ta’limni olgan birinchi o‘zbek qizi qildi. Ammo yanada ahamiyatlisi shundaki, 1988 yilda u o‘sha universitetda nomzodlik dissertasiyasini himoya qilib, psixologiya, va uning muhim yo‘nalishi bo‘lgan ijtimoiy psixologiya sohasida bu sharafga sazovor bo‘lgan birinchi o‘zbek ayoli bo‘ldi. Bu yutuqlar ramziy ahamiyatga ega bo‘lib, fanda ayollarning intellektual o‘zini anglash imkoniyatlarini namoyish etdi va keyingi tadqiqotchilar avlodi uchun yo‘l ochdi.

1994 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Ixtisoslashgan bir martalik ilmiy kengashda doktorlik dissertasiyasini himoya qilishi yana bir tarixiy voqea bo‘ldi – Vasila Mamanosirovna ushbu kengashda psixologik fanlar doktori darajasini olgan birinchi olima bo‘ldi. Bu yutuq nafaqat uning yuqori ilmiy malakasini tasdiqladi, balki o‘zbek ilmiy maktabining yangi va murakkab tadqiqot vazifalarini mustaqil hal qilishga tayyorligini ham ko‘rsatdi.

Vasila Mamanosirovnaning fan tashkilotchisi sifatidagi haqiqiy chaqirig‘i yangi ta’lim tuzilmalarini yaratish bo‘yicha ishlarida namoyon bo‘ldi. 1991 yilda u Farg‘ona davlat universitetida psixologiya va amaliy sosiologiya fakulteti asoschilaridan biri bo‘ldi, shu bilan mamlakatning eng muhim hududlaridan birida psixolog kadrlar tayyorlash uchun poydevor qo‘yildi, u shu yerda o‘zining dastlabki maktabini yaratdi. Bu nafaqat chuqur bilimlarni, balki olimaning tashkilotchilik iste’dodini, ilmiy-amaliy jasoratini ham namoyon etdi.

Olimaning tarjimai holida alohida sahifani uning Toshkent davlat Iqtisodiyot universitetidagi faoliyati tashkil etadi, u yerga uni 1998 yilda men yangi kafedrani ochish taklifini berish sharafiga muyassar bo‘ldim. Ijtimoiy psixologiya kafedrasini ochish va unda “Xulqni boshqarish” hamda

“Personal bilan ishlash” fanlarini o‘qitish, kunduzgi aspiranturani ham ochish taklifi g‘ayrat va shijoat bilan qabul qilindi. Vasila Mamanosirovna o‘ziga xos quvvat bilan yangi ilmiy-pedagogik jamoa shakllantirish ishlariga berildi, o‘qituvchilik faoliyati uchun eng iqtidorli, malakali va mehnatkash yoshlarni shaxsan tanladi.

Vasila Mamanosirovnaning ilmiy merosi miqyosi kengligi hamda rang-barangligi, yoshlar orasida auditoriyasining kengligi bilan ta’sir qiladi: 240 dan ortiq monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma va risola, 500 ga yaqin ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar shular jumlasidandir. Bu ulkan ish psixologik muammolarning keng spektrini qamrab oladi va olimning ijodiy quvvati kuchidan dalolat beradi.

Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun yozilgan uning “Psixologiya” o‘quv qo‘llanmasi alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, u ikki marta – 2001 va 2002 yillarda “Yilning eng yaxshi kitobi” tanlovida g‘olib bo‘lgan. Bu e’tirof nafaqat kiobning ilmiy qiymatini, balki uning pedagogik ahamiyatini ham tasdiqlaydi. Yanada muhimi shundaki, 2012 yilda Vasila Mamanosirovna “Ijtimoiy psixologiya” nomli darsligini o‘zbek tilida chop ettirgan birinchi muallif bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarida bakalvr va magistr kadrlar tayyorlash ishiga, milliy psixologiya rivojlanishiga behad katta hissa qo‘shdi.

Olimning haqiqiy qiymati nafaqat uning shaxsiy yutuqlari, balki shogirdlarining muvaffa-qiyatlari bilan ham o‘lchanadi. Bu jihatdan Vasila Mamanosirovnaning ilmiy tarjimai holi samarali ustozlik namunasini namoyon etadi. Uning rahbarligi ostida psixologiya fanlari bo‘yicha besh nafar psixologiya fanlari doktori va qirqqa yaqin psixologiya fanlari nomzodlari tayyorlangan – bu, uning pedagogik faoliyati miqyosidan dalolat beruvchi raqamlardir. Uning shogirdlari orasida Toshkent davlat Iqtisodiyot universitetidan chiqqan fan doktorlarini – O.E.Hayitov, N.Sh.Umarova, M.Hakimova va boshqalarni ta’kidlash lozimki, ular bugun o‘z ustozidan olgan malakalari bois, uning ilmiy an’analarni muvaffaqiyatli rivojlantirmoqdalar. E’tiborlisi shundaki, ular o‘zlarining ilmiy maktablarini yaratib, o‘zbek psixologiya fanida avlodlar davomiyligi an’anasini to‘xtatmay kelmoqdalar.

Vasila Mamanosirovnaning ilmiy xizmatlari munosib davlat e’tirofiga sazovor bo‘ldi. 2000 yilda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanishi uning milliy ta’lim rivojiga qo‘shgan hissasining adolatli bahosi bo‘ldi.

“Milliy istiqlol g‘oyasi konsepsiyasi”ni tayyorlash va “O‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish hamda yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish” bo‘yicha komissiyalar ishida ishtiroki olim davlat doiralarida foydalanayotgan ishonchdan va uning milliy taraqqiyot manfaatlariga xizmat qilishga tayyorligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, “FarDU xabarlari” va respublika “Oila ilmiy-amaliy markazi” direktori sifatida ta’sis etgan “Oila” ilmiy jurnallarini yaratish va uning bosh muharriri bo‘lishi Vasila Mamanosirovnaning ilmiy salohiyatini, muloqot platformalarini yaratish qobiliyatini ko‘rsatdi. O‘z vaqtida ilmiy-ma’rifiy, ijtimoiy-psixologik nashr bo‘lgan “Oila” jurnali keng jamoatchilik orasida psixologik bilimlarni ommalashtirish vositasiga aylandi.

Bugun Vasila Mamanosirovna Karimovaning yetmish yillik yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, biz nafaqat muvaffaqiyatli olimaning tarjimai holini, balki mamlakatimizda butun bir ilm sohasining shakllanish tarixiga guvoh bo‘lamiz. Uning faoliyati samarali ilmiy-amaliy tizimni eslatadi: birinchi mutaxassislarni tayyorlashdan tortib, ilmiy maktablar yaratishgacha, asosiy darsliklar yozishdan tortib, tadqiqot uslubiyati va metodologiyasini shakllantirishgacha bo‘lgan zahmatli, lekin o‘ta sharafli ilm yo‘li. Zero, alohida ta’kidlash kerak-ki, Vasila Mamanosirovnaning ilmiy faoliyati doimo jamiyatning amaliy ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Uning ijtimoiy psixologiya, xulqni boshqarish, oila psixologiyasi, salomatlik psixologiyasi bo‘yicha amalga oshirgan ishlari zamon talablariga javob berib, aniq ijtimoiy vazifalarni hal qilishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib ta’kidlashni istardimki, professor Vasila Mamanosirovna Karimovaning ijodiy yo‘li o‘zbek fani tarixida benazir hodisadir. Bu individual iste’dodning rivoji, qadri tinimsiz halol mehnat va yuksak ideallarga xizmat etish bilan muvofiqlashtirilsa, butun bir ilmiy fanni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratishi mumkinligining misolidir.

Yubilyar ayolni yetmish yillik bilan tabriklar ekanmiz, Vatan fani va ta’limi rivojiga qo‘shgan behisob hissasi uchun samimiy minnatdorlik bildiramiz, mustahkam sog‘lik, ijodiy umr va yangi ilmiy yutuqlar tilaymiz. U qo‘ygan an’analar uning hayotini bag‘ishlagan ishni davom ettirayotgan yangi tadqiqotchilar avlodining mehnati bilan rivojlantirib va boyishini kutib qolamiz.

ILM, HAYOT VA SIYOSATDA O‘Z O‘RNINI TOPGAN OLIMA



Mansur BEKMURODOV

Vasila Karimova o‘zbek ijtimoiy fanlariga xuddi yulduzdek – yarq etib kirib keldi. U o‘zining teran bilimlari, hech kim rad eta olmaydigan, mantiqiy asoslangan xulosalari, innovasion fikrlashi, milliy odobi xamda dilbar va latofatli husnu malohati bilan psixologiya fani ijtimoiy yo‘nalishining qirolichasiga aylandi.

Vasila Karimova respublikamizda taniqli jamoat arbobi sifatida ko‘pchilik tomonidan yakdil etirof etiladigan o‘rni va mavqega sazovor bo‘lgan. U ko‘p yillar mobaynida “Oila ilmiy amaliy markazi” rahbari sifatida faoliyat yuritdi. Vasila Karimova rahbar bo‘lib ishlagan davrda mazkur institut shakllandi, mustahkamlandi va barqaror rivojlanish yo‘liga kirdi.

Boshqaruv fani xulosalariga ko‘ra, rahbarlar ikki toifaga bo‘linadi – yaxshi ijrochilar va yaxshi tashkilotchilar. Vasila Karimova yaxshi tashkilotchilar toifasiga mansub. Chunki tashkilotchida ijrochida bo‘lmagan bosh xususiyat, yani tashabbuskorlik, innovatorlik asosiy, xarakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Vasila Karimova tashabbuskorligi va innovatorligi bilan haqiqiy lider rahbar sifatida nom qozondi.

Vasila Karimova sadoqatli shaxs, haqiqiy rahbar, haqiqiy do‘stdir. O‘tgan asrning 90-yillarida orttirgan do‘stlari Vasilaxonning yonida hozir ham bor. Shukurki, men ham shu qatordaman. Men Vasilaxonni birinchi bor ko‘rib qanaqa go‘zal nur sohibi ekan bu ayol, deb o‘ylaganman. Bugun ham shu nur ziyosi Vasilaxondan olamga taralmoqda. Shu nurdan uzoq yillar bahramand bo‘lib yurish orzusidamiz.

OLIMANING BAXTI

G‘ayrat SHOUMAROV,
psixologiya fanlari doktori, akademik

Karimova Vasila Mamanosirovna 1977 yilda M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Psixologiya fakultetini muvaffaqiyatli tamomlagach, yo‘llanma bilan Toshkent davlat universitetidagi Psixologiya kafedrasida o‘qituvchi sifatida pedagogik faoliyatini boshlagan. 1978 yilda Vasila Karimova turmushga chiqishi munosabati bilan Farg‘ona shahrida Mirzo Ulug‘bek nomidagi Farg‘ona davlat pedagogika institutida o‘qituvchi bo‘lib ishlay boshladi va 1998 yilgacha oddiy o‘qituvchilikdan kafedra professori, psixologiya fanlari doktori, kafedra mudiri, 1996 yildan esa universitet rektorining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori lavozimigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. V.Karimova o‘z pedagogik faoliyatini ilmiy ishlar bilan bog‘lab olib borgani bois, 1988 yilda Moskva davlat universitetining Ixtisoslashgan Ilmiy kengashida psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo‘ldi. 1994 yilda “Yoshlarda oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshida professor M.G.Davletshin raisligida tashkil etilgan bir martalik Ixtisoslashgan Ilmiy kengashda muvaffaqiyat bilan himoya qilib, O‘zbekistonda birinchi xotin-qizlar orasida psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olgan olimaga aylandi. Men ushbu doktorlik ishida birinchi rasmiy opponent sifatida ishtirok etib, V.Karimovaga ilm yo‘lida muvaffaqiyatlar tilagan olimlardan biriman.

1998 yilda Respublika Ta’lim markazi direktori lavozimida ishlab yurgan kezlarimda Vasila Mamanosirovna kabinetimga kirib keldi va oilaviy sharoitiga ko‘ra, Toshkent shahriga ko‘chib kelishganini aytdi. Uni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rahbariyati yangi yo‘nalish – yangi kafedra ochish va unga rahbarlik qilish uchun taklif etishibdi. Ilk marotaba iqtisodiyot yo‘nalishida

kadrlar tayyorlovchi OTMda Ijtimoiy psixologiya kafedrasi tashkil etildi va bu yuqori malakali iqtisodchi kadrlar, keyinchalik esa iqtisodiy ta'lim ixtisosligi bo'yicha iqtisodiy pedagoglar tayyorlash ishiga turtki bo'ldi. V.Karimova 2000 yilda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida "Ijtimoiy psixologiya" kafedrasi professori unvonini oldi.

Professor V.Karimova biografiyasida "ilk marotaba", "birinchilardan bo'lib" kabi iboralar ko'p. Masalan, ToshDU ilk marotaba ochilgan psixologiya bo'limining talabasi, MDUning psixologiya fakultetini tamomlagan o'zbek ayollaridan birinchisi, Farg'ona davlat universitetida respublikada birinchi marta ochilgan "Psixologiya va amaliy sotsiologiya" fakultetining asoschilaridan va ilk marotaba psixolog kadrlar tayyorlovchi "Psixologiya" kafedrasining mudiri (1988-1998 y.y.), FarDUda ilk marotaba joriy etilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rektor o'rinbosari (1996-1998), "FarDU ilmiy xabarlari" ilmiy jurnalining asoschilaridan biri, uning ilmiy kotibi, keyinchalik bosh muharrir muovini, tahririyat a'zosi, ToshDIUda ochilgan birinchi "Ijtimoiy psixologiya" kafedrasining mudiri, uning qoshida ochilgan 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya bo'yicha aspiranturaning asoschisi, o'zi o'n bir yil mobaynida direktor lavozimida ishlagan Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi qoshida ochilgan "Oila" ilmiy-ma'rifiy jurnalining bosh muharriri (2004, 2005) va hokazo.

V.Karimova psixologiya fanlari doktori, professor sifatida mamlakatimizda ko'p yillardan buyon milliy psixologiya fanini rivojlantirish, ilmiy maktab yaratish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, yosh avlodda sog'lom, tanqidiy tafakkur va ruhiy barqarorlikni shakllantirish yo'lida mehnat qilib kelmoqda. Uning ilmiy ishlari nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham yetarlicha e'tirof etilgan, ko'plab shogirdlarining yutuqlari respublikamizda psixologiya fanining salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Uning atrofida 40 nafardan ziyod shogirdlari bor, ulardan besh nafari psixologiya fanlari doktori, qolganlari - psixologiya fanlari nomzodlari, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) bo'lib, ular mamlakatimizning turli oliy o'quv yurtlari va ilmiy muassasalarida muvaffaqiyat bilan faoliyat olib bormoqdalar.

Professor V.M.Karimova 500 dan ziyod monografiya, darslik, o'quv qo'llanma, risola, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar muallifi sifatida ham tanilgan. Uning nopedagogik hamda nopsixologik yo'nalishda ta'lim olayotgan oliy o'quv yurtlarining talabalariga mo'ljallab yozilgan "Psixologiya" nomli o'quv qo'llanmasi bir necha yillar mobaynida "Yilning eng yaxshi kitobi" tanlovi g'olibi (2001 va 2002 y.y.) bo'lgan, u barcha oliy o'quv yurtlaridagi bakalavriat va "Kasbiy ta'lim" yo'nalishi talabalari uchun psixologiya fanidan asosiy qo'llanma sifatida o'qitilib kelinmoqda. Qo'llanmaning qayta nashri 2014-yilda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida chop etilgan.

V.Karimovaning O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi grifi ostida 2007-yilda "Fan va texnologiyalar" nashriyotida chop etilgan "Oila psixologiyasi" hamda 2012-yilda chop etilgan "Ijtimoiy psixologiya", 2020-2021-yillarda qayta nashr etilgan "Ijtimoiy psixologiya" nomli darsliklari pedagog kadrlar tayyorlovchi barcha oliy o'quv yurtlari magistrlik bosqichlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Bu kitoblar oliygohlarning talabalari uchun mo'ljallangan yagona va dastlabki darsliklar hisoblanadi. Muallifning ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari qator yillar mobaynida "Xalq so'zi", "Pravda Vostoka", "Ma'rifat" kabi yetakchi respublika gazetalarida "Yilning eng yaxshi maqolasi" tanlovlarining g'olibi sifatida e'tirof etilgan (2005, 2008, 2012).

O'tgan yillar mobaynida V.M.Karimova tomonidan jami 5 ta darslik, 55 nomli o'quv qo'llanma, 6 ta monografiya, 50 dan oshiq xalqaro va respublika nufuzli ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy maqolalar chop etilgan, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy grantlari rahbari va ishtirokchisi sifatida o'zi va shogirdlari ilmiy izlanishlar olib borgan, 20 dan ziyod fundamental, amaliy, innovasion, xalqaro ilmiy tadqiqot loyiha-grantlarining rahbari va ijrochisi sifatida tanilgan. Uning hammuallifligida hamda bevosita rahbarligida tayyorlangan "Oilada yoshlarni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyasi", "Ota-onalar universiteti – oila mustahkamligi omili", "Boshqaruv sohasidagi professional kompetensiya asoslari", "O'zbekistonda

gender-menejmentning istiqboli" va "O‘zbekistonda oila siyosati", "Etnopsixologiya va din psixologiyasi" kabi monografiyalar o‘z muxlislariga ega.

Professor V.M.Karimovaning bevosita ishtiroki hamda rahbarligida amalga oshirilgan xalqaro, fundamental, innovasion hamda amaliy tadqiqotlar mavzularining o‘zi ham olimaning faoliyati serqirra hamda ular dolzarb muammolarga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Masalan, V.Karimova bevosita rahbarligida amalga oshirilgan "O‘zbekiston Respublikasi oilalarini mustahkamlash borasidagi davlat siyosati va oila istiqbolini belgilovchi ijtimoiy demografik tadqiqotlar", "Milliy istiqlol g‘oyalarini "Oila–mahalla" tizimidagi tarbiyaviy jarayonga singdirishning mexanizmlari va pedagogik–psixologik tamoyillari", "O‘zbekiston mahallalaridagi "Ota-onalar universitetlari" orqali ota-onalarning ma'naviy-axloqiy, tibbiy-demografik, ijtimoiy-huquqiy savodxonligini oshirish mexanizmini yaratish", "O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini samarali tashkil etishda gender-menejment dasturlaridan oqilona foydalanish" kabi amaliy tadqiqotlar, "O‘zbekiston hukumati rahbarlari nomiga fuqarolar tomonidan yo‘llangan yozma murojaatnomalar mazmunining ijtimoiy-psixologik tavsifi" kabi innovasion tadqiqotlar, uning ishtirokida va turli xorijiy muassasalar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan "Alohida yordamga muhtoj bolalar", "Yod tanqisligining oldini olish", "Gigienik vositalardan foydalanish, oilada tibbiy madaniyatni oshirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash" kabi loyihalar olimaning bevosita aholi o‘rtasida olib borgan tatbiqiy faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Professor V.Karimova ilmiy-pedagogik faoliyatini jamoatchi-tashkilotchilik bilan uyg‘unlashtiradi. U respublikaning ko‘zga ko‘ringan jamoatchi faoli, 30 ga yaqin jamoat tashkilotlari va jamg‘armalarning ta'sischi – a'zosi sifatida yoshlar, xotin-qizlar, mahalla faollari o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib bordi; milliy mafkura, oila psixologiyasi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etuvchi 50 dan ziyod maqola va ko‘rsatuvlar muallifi, ishtirokchisi sifatida el orasida tanildi.

V.M.Karimova 1994 yildan buyon psixologiya bo‘yicha Ixtisoslashgan ilmiy kengashlarning a'zosi, rais o‘rinbosari, raisi sifatida mamlakatimizda oliy malakali psixolog kadrlar tayyorlashga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Turli yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent pedagogika universiteti hamda Qozog‘iston Milliy universiteti qoshidagi Ixtisoslashgan Kengashlarda rais (2007 yil O‘zMU), rais o‘rinbosari (1998-2007) va a'zosi sifatida faoliyat yuritgan va hozirda Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti qoshidagi Ilmiy kengash a'zosi, ushbu Kengash qoshidagi Ilmiy seminarning raisi (2018 yildan 2022 yilgacha, so‘ngra – a'zosi)dir. V. Karimova – "Oliy ta'lim a'lochisi" (2000 y.) hamda bir nechta ko‘krak nishonlari sovrindoridir.

Sermahsul olima, ajoyib inson Vasila Karimova ilmiy, rahbarlik va jamoat ishlaridagi faoliyati orqali jamiyatimiz va davlatimiz ma'naviy-ilmiy salohiyatini yuksaltirishga, o‘zbek psixologiya fanini rivojlantirishga shubhasiz, ulkan hissa qo‘shdi. Chuqur bilim va katta hayotiy tajribaga ega olima hozirgi vaqtda ham qizg‘in ilmiy-ijodiy jarayon, izlanishlar bilan band. Men tavallud ayyomi bilan tabriklagan holda Vasila Karimovaga uzoq va mazmunli umr, mustahkam sog‘lik, salomatlik, yangidan-yangi ilmiy, ijodiy muvaffaqiyatlar, zafarlar tilayman!

YUKSAK SALOHIYATLI OLIMA

Sharif Ramazonovich BARATOV,
Buxoro xalqaro universiteti rektori,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining vise-prezidenti



Inson umri ulg‘aygan sari uning asliyatidagi barcha fazilatlar yanada takomillashib, yanada yuksalib boraveradi. Bu yuksalish uning hayotini, tabiatini, suratini va siyratini yanada yorqin ranglarda ifodalab boraveradi.

Psixologiya fanlari doktori, professor, Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a’zosi, o‘ziga xos yuksak ma’naviyatli olima opamiz Vasila Mamanasirovna Karimova haqida gap ketganda, beixtiyor u kishining ma’naviy go‘zalligi, ilmparvar ustoz olima ekanligi, eng muhimi yuzlarida o‘ziga xos go‘zallik va tarovatli qiyofa beixtiyor ko‘z oldimizda gavdalanadi va bu holat bu inson bilan bog‘liq ezgu xotiralarni yana bir bor eslashga undaydi. Shu ma’noda men Vasila opa bilan bundan 30 yilcha muqaddam Farg‘ona davlat universitetida ishlab yurgan kezlarida uchrashgan edim. O‘shanda o‘ziga xos ma’naviy chiroy va go‘zallikka hamda yuksak bag‘rikenglik va tafakkurga ega bo‘lgan olima opamizni ko‘rib, ilk bor hayratda qolgan edim. Chunki, u kishi meni ko‘rishlari bilan O‘zbekistonda yana bitta fan doktori ko‘paydi, deb juda xursand bo‘ldilar. Shu chog‘da ustozning yuzlaridagi, ko‘zlaridagi beg‘araz olimona tabassumni ko‘rib, men ham shunchalar ta’sirlandim-ki, hali hamon shu taassurot menda Vasila Mamanasirovnaga nisbatan juda katta hurmat, ehtirom va e’tiqod timsoli bo‘lib kelmoqda.

Bugun 70 yillik yubileylari bo‘layotgan Vasila Mamanasirovnani o‘zining juda katta ilmiy salohiyatiga va ilmiy maqomga ega bo‘la olgan olima sifatida bemalol e’tirof etish mumkin, deb o‘ylayman. Qolaversa, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yirik fan arbobi, hammamizning ustozimiz Muxammad Gabdulgalimovich Davletshin domla ham o‘z vaqtida Vasila Karimovnani, “kelajagi porloq yirik psixolog olima”, deya e’tirof etganlari bejiz emas edi. Ehtimol shundan yanada ko‘prok ruhlanib Vasila opa yillar davomida “Ijtimoiy psixologiya” sohasida juda ko‘plab monografiyalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va ilmiy maqolalar yozib, O‘zbekistonda ijtimoiy psixologiya fani istiqbollarini yaratdilar, desam hech qanday mubolog‘a bo‘lmaydi. Shu tariqa, O‘zbekistonda Vasila Mamanasirovna rahnamoligidagi ijtimoiy psixologiya maktabi yaratildi. Bemalol aytish mumkin-ki, bu maktab zamirida bugungi kunda o‘nlab, yuzlab shogirdlar faoliyat ko‘rsatib, psixologiya fani taraqqiyoti uchun juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar-ki, bu jarayon Vasila Mamanasirovna ilmiy maktabining umri boqiyligidan dalolat beradi. Bu boqiylik ustozga yanada ko‘proq kuch-quvvat, fidoiylik va ayniqsa, o‘z mehnati samaralarini ko‘rib yashashdek oliy baxt tarovatini berayotgan bo‘lsa ajab emas.

Biz Vasila Mamanasirovna bilan yillar davomida O‘zbekistondagi ijtimoiy psixologiya fanini yanada rivojlantirish bo‘yicha hamkorlikda ilmiy-anjumanlar o‘tkazdik, ilmiy maqolalar yozdik, shogirdlar tayyorladik va har bir ilmiy tadqiqot ishlariga o‘z maslahatlarimizni berib kelmoqdamiz. Yana shuni alohida ta’kidlashni istardim-ki, Vasila Mamanasirovnaga har safar “ilmiy jurnal” ochilganini aytsam, juda quvonib ketadilar, shu bilan birga, o‘zlarining qimmatli maslahatlarini berib, ushbu jurnalning eng faol ishtirokchisiga aylanib kelmoqdalar. Bu xislat ham olimaning

haqiqiy olimaligini belgilovchi noyob fazilatlardan biri, bo‘lsa kerak. Zero, O‘zbekistonda hozircha yagona bo‘lib turgan “Psixologiya” jurnalining (2011 yil) ochilishidan juda xursand bo‘lib, hozirgacha ko‘plab ilmiy maqolalar yozib, bizni xursand qilib kelmoqdalar. Shuningdek, Yaroslavldan chiqadigan “Vestnik integrativnoy psixologii” jurnalini barcha sonlarida ham ustozning ilmu haqiqatga boy ko‘plab maqolalarini uchratish mumkin. Qolaversa, ushbu jurnaldagi maqolalarini ko‘rib xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining prezidenti Vladimir Vasilevich Kozlov ham o‘zlarining iliq e’tiroflarini bayon etib kelmoqda. Qolaversa, Vasila Mamanasirovna albatta o‘zlarining qimmatli fikr-mulohazalari bilan mazkur jurnalda faol ishtirok etib keladilar. Bu xizmatlarini ham haqiqiy olimga xos fazilat, deb bilaman. So‘zimning yana bir isboti: Yaqindagina (joriy yilning 15-18 mart kunlari) Buxoroda o‘tkazilgan yirik bir Xalqaro simpoziumda Vasila Mamanasirovananing ilmiy chiqishlari Simpozium ishtirokchilarda juda katta ilmiy taassurot qoldirdi.

Shuningdek, u kishi tomonidan alohida chop etilib tarqatilgan metodikalar to‘plami barcha ishtirokchilarni befarq qoldirmadi. Chunki qachongacha boshqa yurtdagi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan metodikalardan foydalanamiz. Shu savolga javoban Vasila Mamanasirovna mazkur Xalqaro simpoziumda yillar davomida o‘z rahbarliklari ostida ishlab chiqilgan haqiqiy empirik qimmatga ega bo‘lgan metodikalar to‘plamini o‘zbek olimlariga ilk bor taqdim etdilar. Bu ham olimaning navbatdagi ajoyib xislatlari hosilasidir. Umuman, menimcha haqiqiy olim qaerda bo‘lmasin, o‘z ilmiga, kasbiga fan taraqqiyotiga va shogirdlariga hech qachon befarq bo‘lmaydi. Aksincha, uning hayoti, ijtimoiy faolligi, obro‘-etibori va tom ma’nodagi umr mazmuni shu birgina ijtimoiy mezon bilan o‘lchanadi, belgilanadi va pirovardida baholanadi ham. Bu baho olimning butun hayot yo‘li, tarixi va istiqbollarini ko‘rsatishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib aytish mumkin-ki, men Vasila Mamanasirovna bilan hamfikr, hamkasb bo‘lganimdan faxrlanaman. Zero, Vasila Mamanasirovnaning bugungi kunda “Psixologiya” (O‘zbekiston), “Vestnik interaktivnoy psixologii” (Yaroslavl), “Sosialnaya psixologiya” (Yaroslavl), “Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi” (Buxoro) jurnallarining ilmiy hay’at a’zosi. O‘zbekistondagi bir qator xalqaro ilmiy anjumanlar tashkilotchisi. O‘zbekistondagi ijtimoiy psixologiya fani taraqqiyotining asoschisi sifatida alohida fidoiylik qilib kelib kelayotgan olima sifatidagi faolliklarini barchamiz bilamiz, e’tirof etamiz va bu insonga havas qilamiz. Shu nuqtai nazardan, hassos olima Vasila opamga uzoq-umr, sihat-salomatlik, ilmiy faoliyatlarida yanada barkamollik va umriboqiylik tilab qolaman.

Professor Vasila Karimovaga mustahkam sog‘lik, uzoq umr va ilmiy faoliyatlarida yangi yutuqlar tilaymiz. Ustozning ilmiy merosi va fidoyilik yo‘li kelajak avlod olimlari uchun yorqin mayoq bo‘lib qolaveradi.

Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi jurnali tahririyati

“BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-amaliy jurnalida maqolalar chop ettirish tartiblari haqida

1. Ilmiy maqolalarning hajmi 3000-4000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.
2. Maqolaning asosida matnning kamida 60-70 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim (topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi).
3. Maqolaning matni, formula va jadvallarni **Microsoft *Word* (*2003-2010 versiyasida*)** dasturidan foydalanib tayyorlash kerak.
4. Windows asosidagi matn *dasturi redaktorining parametrlari*:

- 2 sm dan standart hoshiyalar qolishi kerak;
- shrift Times New Roman, kegel – 12;
- satrlar orasidagi interval – 1 sm.;
- matnni kengligi bo’yicha tekislash;
- abzats 1 sm;
- sahifani tanlash uchun oriyentatsiya – kitob sahifasi;
- MS Word dasturi yordamida ishlangan rasmlar qabul qilinmaydi. Barcha rasmlar va jadvallar nomerlanishi, nomlanishi hamda manbaasi ko’rsatilishi shart.

5. Grafik va diagrammalar oq-qora formatda bo’lishi zarur.

***Ilmiy maqolaning tuzilishiga nisbatan ilgari suriladigan talablar*:**

1. Muallifning ORCID raqami bo’lishi shart.
2. Maqolaning nomi 12 so’zdan oshmasligi kerak va UDK raqamlari bo’lishi lozim.
3. Maqola muallif(lar)i ismi-sharifi; ilmiy unvoni, darajasi, oliy ta’lim muassassi (*tashkilot*)ning nomi, ish joyi, egallab turgan lavozimi, ish joyi manzili (*qisqartmalar ishlatilmasin!*). Mualliflar bir nechta bo’lsa ularning har biri haqida to’liq ma’lumotlar berilishi shart; (barcha ma’lumotlar 3 tilda:o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart)
4. Material matni tuzilishi jihatidan

Kirish

Metodlar

Natijalar va Munozara (Introduction, Methods, Results, and Discussion, Conclusion)ga ajratilishi, har bir bo’limi uchun sarlavhalar berilishi kerak.

Quyida keltirilgan misolga e’tibor bering:

Annotasiya (Abstract) (150-200 so’zdan iborat bo’lishi kerak) (3 tilda:o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart**)**

Вводная информация/актуальность (Background):

− Цель (Objective);

− Методы (Methods);

− Результаты (Findings);

− Выводы (Conclusions);

Ключевые слова (Keywords). (3 tilda: o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart)

ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

МЕТОДЫ (Methods)

РЕЗУЛЬТАТЫ (Results) (CHIZMA, JADVALLAR bo’lishi shart)

ОБСУЖДЕНИЕ (Discussion)

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot uyi*. Elektron manzili. URL:
2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:
3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

MAHALLADA PSIXOLOGIK XIZMAT IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA (3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)

Barotova Dilafruz Sharifovna,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti "O'quv ishlari va ilmiy innovatsiyalar bo'yicha prorektor" psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent ***(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)***
https://orcid.org/ **0000-0002-2100-3222**

Annotatsiya. 150-200 so'zdan iborat bo'lishi kerak. **(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)**
Kalit so'zlar: 8-10 ta. **(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)**
KIRISH. ВВЕДЕНИЕ (Introduction)
METODLAR. МЕТОДЫ (Methods)
NATIJALAR. MULOHAZA. РЕЗУЛЬТАТЫ (Result and Discussion) (ChIZMA, JADVALLAR bo'lishi shart)
Xulosa va tavsiyalar. ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Elektron manzili. URL:
2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:
3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

DIQQAT: O'ZBEK TILIDAGI BARCHA YOZUVLAR LOTIN ALIFBOSIDA

Mundarija /Содержание/Contents

Bet	Muallif va maqola nomi	Yo'malishi
4	**Ahmadjonova Mohiyatxon Sadriyevna** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ekologik ta'limning roli	Pedagogika
8	**Hayitov Qobil Qurbonovich** Sust o'zlashtiruvchi talabalarning psixologik xususiyatlari	Psixologiya
14	**Ibragimova Shahnoza Gapparovna** Boshlang'ich sinflarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik - pedagogik yo'llari	Psixologiya
18	**Ibrogimov Muhammadrasul Abdimumin o'g'li** Talabalar sotsial iqtidorining tavsiflovchi ijtimoiy-psixologik prediktorlari faktorli tahlili	Psixologiya
25	**Илхамова Дилфуза Илясовна** Стратегии психологической помощи детям, больным хроническими соматическими заболеваниями	Psixologiya
30	**Kenjayeva Dilnozaxon Sadirdinovna** Talabalik davrida shaxsiy hayot haqidagi tasavvurlar rivojlanishida internetning ta'siri	Pedagogika
35	**Xudoyqulova Ziyoda Anvarovna** Maktabgacha va maktab ta'limi sharoitida me'yor hissi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.	Pedagogika
41	**Maxkamova L.M.** Insult kasalligi natijasida vujudga keluvchi nutq buzilishlari va uning turlari	Pedagogika
44	**Mirzayev Olim Saforovich** Shaxs psixologik qiyofasini tuzishda proyektiv metodikalardan foydalanish amaliyoti	Psixologiya
49	**Mullabayeva Nozima Makhmudjanovna** Bulling namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	Pedagogika
56	**Norqo'ziyeva Dilrabo Sheraliyevna** Shaxsda prosotsial xulq rivojlanishida psixik holatlar ta'sirini o'rganishning empirik masalalari	Psixologiya
61	**Omonova Sevara Mamirjonovna** O'smir yoshlarni virtual makon ta'siridan himoya qilishning psixologik jihatlari	Psixologiya
65	**Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna** Yoshlar submadaniyatlari vakillarining shaxs xususiyatlarini o'rganish emperik tadqiqotlarning omili sifatida	Pedagogika
70	**Qalandarova Gulqand Mamurovna** Bo'lajak psixologlarni ijodiy - innovatsion tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari	Psixologiya
75	**Rahmonova Oyshaxon Oribovna** Psixologiyada o'zi o'zini baholash muammosini o'rganishning ilmiy masalalari	Psixologiya
80	**Salomova Guli Shodimurodovna** Talabalarning kognitiv moslashuvchanligini madaniyatlararo kompetentlikning ta'siri sifatida o'rganish.	Psixologiya
84	**Shermatova Yaqut Sadirovna**	Psixologiya

	Nuqsoni bo‘lgan bolalarda hissiy-irodaviy soha shakllanishining psixologik o‘ziga xosliklari	
89	**Абдурахманова Регина Исамутдиновна** Структурная модель психологической устойчивости военнослужа-щего	Psixologiya
99	**Агзамова Елена Юрьевна** Структурные составляющие благонадёжности сотрудников орга-низации	Pedagogika
103	**Arzikulov Dilshod Ne’matovich,** **Arzikulova Mohinur Dilshod qizi** Shaxs va jamiyatga giyohvandlikning psixososial ta’sirini oldini olish: psixoprofilaktik yondashuvlar	Psixologiya
107	**Valiyeva Dilafruzxon Gayrat qizi** Talabalar guruhidagi ijtimoiy psixologik muhitni o‘rganishga doir tadqiqotlar tahlili	Psixologiya
112	**Mirhaydarova D.G.** Bosh miya falajiga chalingan bolalarda psixomotor rivojlanish xususiyatlari	Psixologiya
117	**Аскарова Мунаввар** Психологические условия обучения детей с дцп в узбекистане	Psixologiya
121	**Мухамедова Дилбар Гафурджановна,** **Туракулова Азиза Санджар қизи** O‘smirlarning emosional farovonligi: muammoli mavzular va qo‘llab-quvvatlash manbalarining tahlili	Psixologiya
126	**Nasimdjanova Maxsuma Majidovna** Shaxsning ijtimoiy va madaniy rivojlanishida sotsializatsiya hamda inkulturatsiyaning o‘zaro ta’siri	Psixologiya
131	**Nig‘matova Shohsanam Nabijon qizi** Oliy o`quv yurlarida talabalarga pedagagik va psixologik xizmat sama-radorligini oshirish	Psixologiya
135	**Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna,** **Eshtemirova Maftuna Alisher qizi** Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishni eksperimental o‘rganishning psixologik tahlili	Psixologiya
140	**Одилова Наира Гулямовна** Формирование нравственного самосознания на основе развитости личностных коррелянтов в процессе синергийного взаимодействия	Pedagogika
144	**Olimova Maxfuza Bobir qizi** Oilaviy muhitning bolalar his-tuyg‘ulari bilan o‘zaro bog‘liqligi	Psixologiya
148	**Rasulov Abdimumin Ibragimovich** Shaxs ramolotidagi sotsial intellekt va individual-dinamik xususiyatlarning o‘zaro bog‘liqligini empirik o‘rganish	Pedagogika
160	**Рузибаев Д.Б.** Подход к построению конкретной модели компетенций государ-ственного служащего	Pedagogika
167	**Ruxiyeva X.A.** Yangi O‘zbekistonda korrupsiyaning yoshlar kamolotiga ta’siri.	Pedagogika
175	**Туракулова Азиза Санджар қизи** Культурные измерения и этнопсихологические особенности узбе-кистана, а также узбекистана и азербайджана: теоретиче-ский ана-лиз	Pedagogika
180	**Хабиев Темур Рафаэлевич**	Psixologiya

	Психологические механизмы формирования суеверий в социо-культурном контексте	
185	**Цой С.В.** Методики диагностики переговорного поведения: критический об-зор и перспективы создания многофакторных инструментов	Pedagogika
190	**Шамсиев Уктам Бахриддинович** Взгляды ребенка на самого себя и родителей по отношению к ним	Pedagogika
195	**Shernayeva Shahnoza Aqmirzayevna** Pedagogik oliy ta'lim talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish-ning psixologik mexanizmlari	Psixologiya
199	**Юлдашова Мухлиса Шухратовна** Психологические исследования отношения предпринимателей к «зеленой» экономике	Psixologiya
203	**Далимова Н.М.** Специфика жизненных ценностей предстаувителей разных поко-лений	Psixologiya
208	**Fayziyeva Gulzoda Ulugbekovna** Yoshlarda axborot–psixologik xavfsizlikni ta'minlashning muammolari nazariy talqinda	Psixologiya
212	**Muxamedova D.G., Babadjanova S.A.** Pedagog shaxsi emotsional holatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	Psixologiya
218	**Xodjakulova D.E., Yeshnazarova Parizoda Ilyos qizi** X va ALFA avlod vakillari qadriyatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	Psixologiya
221	**Abdullayeva Dilbar Zoirjon qizi** Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressivlikning psixologik sabablari va uni konstruktiv yechimlari	Psixologiya
224	**Baxshilloyeva Gulnora** Buxoro shevasidagi fonetik o'zgarishlarning matematik modeli	Filologiya
230	**Komilova Zilola Erkinboy qizi** Ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi madaniyatlararo diskursda og'zaki va noog'zaki muloqot	Filologiya
232	**Bobokalonov Po'lotshoh Ramazonovich** Kommunikativ intensiya, muloqot va nutqiy jozibadorlik	Filologiya
237	**Kurbanova Nargiza Abdisoatovna** Shifokor va bemor muloqotida ritorik savollar va metaforalarning roli (ingliz va o'zbek nutqida taqqosiy tahlil)	Filologiya
241	**Raxmatullayev Sharofiddin Nematullayevich,** **Muhiddinov Zahriddin Mehriddinovich** Peshku tumanidagi ba'zi mikro toponimlar tadqiqi haqida	Filologiya
245	**Yusupova Nargiza** Kreollashuv fenomeni va jurnalistika nazariyasidagi asoslari	Filologiya
249	**Alimova Umida Raxmatillayevna** Xotin-qizlarda oilaviy zo'ravonlikdan keying stressning ijtimoiy psix-ologik xususiyatlarini taxlili	Psixologiya
252	**Mamajonova Shoxista Kamoldinovna** O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari tahlili	Psixologiya
257	**Abdunabiyeva Baxoroy Ikromjon qizi**	Filologiya

	Badiiy obraz yaratishda tasviriy vositalarning roli: ingliz va o‘zbek hikoyalarida qiyosiy yondashuv	
261	**Abduraimova Nozimaxon Valijonovna** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘rganishga bo‘lgan moti-vatsiyasini oshirishda interaktiv metodlarning ta’siri	Pedagogika
266	**Omonov Sherali Ibroxim o‘g‘li** Milliy qadriyatlar asosida iste’mol ehtiyojlarining shakllanish mexaniz-mlari	Pedagogika
271	**Qo‘chqarova Shakarjon Azimboy qizi** Matn tahlilida muammoli vaziyatlar yaratishning steamga asoslangan innovatsion metodlari	Filologiya
275	**Sagindikova Nargiza Jubatkanovna** Oila qurishda mas’uliyat komponentlari	Pedagogika
281	**Sobirov Tolib Ro’ziyevich,** **Ibragimova Mehrinoz Bobir qizi** Umumta’lim maktablari chizmachilik darslarida, ortogonal proeksiya-lashningn o’rni va uning o’quvchilar fazoviy tasavur qilish qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.	Pedagogika
285	**Urazbayeva Umida Abdullayevna** Pedagog emotsional intellekti- inklyuziv ta’lim sifatini ta’minlashda muhim rerurs sifatida	Pedagogika
288	**Xamidov Abdumalik Kiranovich** Murod Muhammad Do‘st asarlarida tabiat tasvirlari va ularning lingvokulturologik ma’nosi	Filologiya
293	**Suyunov Mirjalol Xujamqul o’g’li** Huquqbuzarliklarning oldini olishda inspektor-psixolog faoliyatining ijtimoiy-psixologik ahamiyati	Psixologiya
297	**Rahmonova Shoxruza Sobirjon qizi** Ilmiy tafakkurni rivojlantirishda fikrlash dizayni metodining alohida o‘ziga xos o‘rni	Psixologiya
301	**Jalilov Abdulvosidxon Muhammad o’g’li,** **Sitora Turaboyeva Zokir qizi** Chet tilida so’z yasash jarayonlarining o’ziga xos xususiyatlari	Filologiya
307	**Maxamatova Munisa Mamirzo qizi** Bolalarda oilada otaning o‘rnini haqidagi tasavvurlarni shakllanishi	Psixologiya
311	**Генжебаев Тимур Махсетбаевич** Единство художественного языка и универсальных идей в русских романах (Универсальные ценности в восприятии Лидии Чуков-ской)	Filologiya
317	**Yuldashev Sherzod** The linguistic personality of the communicator in social networks	Filologiya
323	**Zohidov Samandar Iskandar o‘g‘li** Masofaviy ta’lim talabalarida qadriyatlar tizimining namoyon bo‘lishi va unga ta’sir etuvchi psixologik omillar	Psixologiya
326	**Shaniyazov Jenisbay Ungarbaevich** Adabiy til uchun yozuvning ahamiyati	Filologiya
329	**Shodiyeva Guzal Baxtiyorovna** Siyosiy diskursda kontekstual moslashuv va lingvopragmatik moslik tamoyillari	Filologiya

333	**Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna** Akademik litsey o‘quvchilari tafakkuri taraqqiyotining psixologik mexanizmlari	Psixologiya
337	**Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna** Kreativlikning kognitiv komponentlari va ularning ta’limdagi rivojlanishi	Psixologiya
341	**Jabborov Jamshid Azimovich** Zamonaviy jamiyat tendensiyalarining yoshlar ma’naviy rivojlanishiga ta’siri	Psixologiya
346	**Kenjayeva Nigora O‘ktam qizi** O‘zbek yoshlari nutqida kod-almashtirishning psixolingvistik va sotsiolingvistik xususiyatlari: gibrid kommunikativ moslashuv modeli (GKM-model)	Filologiya
353	**Muxlisov Sodiqjon Sayidjonovich** Kredit-modul tizimida talabalarda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning psixologik asoslari	Psixologiya
358	**Berdiyeva Zamona Ulash qizi** Ingliz tilini o’rgatishda lug’at boyligini oshiruvchi o’yinlarining o’rni	Filologiya
362	**Abdullayeva Parvina Tolibjonovna** Темпоральные метафоры: лингвокультурные измерения в испанской и узбекской фразеологии	Filologiya
366	**Saidova Feruzaxon Nizamjanovna** Shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari va qadriyatlar bilan bog‘liqligi	Psixologiya
373	**USTOZGA EHTIROM** **VASILA KARIMOVA**	Psixologiya

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI ILMIY-AMALIY JURNAL
№ 12-son, 3-qism 2025

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **2023-yil 22-fevral № 064916-sonli** guvohnoma bilan ro`yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrdagi 347-son qarori bilan **10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Buxoro xalqaro universiteti
ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro, 2025.
№ 12-son, 3-qism 389- b.



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОҲНОМА

№ 855722 Фаол

"BUXORO XALQARO UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669145


СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "B. NAQSHBAND" MFY HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

27.06.2025 10:32
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувоҳнома № 855722

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI	O'ZBEK,RUS, ILNGLIZ	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Viloyat	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Анъанавий

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

ilmiy-amaliy jurnal
12-son, 3-qism
Buxoro - 2025. -388 b.

БУХАРСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

научно-практический журнал
Выпуск 12, часть 3
Бухара - 2025. - 388 с.

Jurnal Buxoro xalqaro universiteti muassisligidagi nashr hisoblanadi

Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.

OBUNA INDEKSI 3062

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi.
Bosishga ruxsat etildi 28.12.2025
Qog'oz bichimi 60x84, 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 24.25.
Buyurtma № 352. Adadi - 60
Bahosi kelishilgan narxda.
«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46